







TURON FANLAR AKADEMIYASI FAXRIY AKADEMIGI, FALSAFA FANLARI DOKTORI, PROFESSOR SHODIYEV RUSTAM TOXIROVICHNING 70 YILLIK YUBILEYIGA BAG‘ISHLANGAN “SHARQ TAFAKKURI VA INSON MUAMMOSI: MA’NAVIYAT, TIL VA TARBIYANING FALSAFIY TAMOYILLARI”

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

25-IYUN 2025-YIL

SAMARQAND 2025

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Shodiyev Rustam Toxirovichning 70 yillik yubileyiga bag‘ishlangan

“SHARQ TAFAKKURI VA INSON MUAMMOSI: MA’NAVIYAT, TIL VA TARBIYANING FALSAFIY TAMOYILLARI”

mavzusidagi respublika
ilmiy-amaliy anjuman

.

2025 yil, 25-iyun

Samarqand - 2025

“Sharq tafakkuri va inson muammosi: ma’naviyat, til va tarbiyaning falsafiy tamoyillari” Respublika ilmiy – amaliy konferensiyasi maqolalari to’plami. (2025 yil 25-iyun). Samarqand: Samarqand davlat chet tillar instituti, 2025. – 406-bet.

Tahrir hay’ati a’zolari:

f.f.d., dots. (DSc), Melikova M.N.
f.f.d., dots. (DSc), Xoliqov Yu.O
f.f.b.f.d., dots. (PhD), Xandamov I.A.
f.f.b.f.d., dots. (PhD), Ashurova X.S.
t.f.b.f.d., dots. (PhD), Indiaminova Sh.A.

Ma’sul muharrirlar:

f.f.b.f.d., dots. Xolikov B.A.
f.f.d., prof. G‘aybullayev O.
f.f.b.f.d., dost. Umirzoqov U.
o‘qituvchi. Malikov R.R.

Taqrizchilar:

SamDU. f.f.d., prof. Samadov A.R
SamDU. f.f.b.f.d., dots. Abdullayev S.T
SamISI. f.f.b.f.d., dots. Ro‘zumurodov S.M.

Mazkur konferensiya maqolalar to’plami 2025-yil 25-iyunda Samarqand davlat chet tillar instituti *“Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari”* kafedrasi professori Shodiyev Rustam Toxirovichning 70 yillik yubleyiga bag‘ishlab tashkil etilgan.

UDK 101.1::316

© Samarqand davlat chet tillar instituti, 2025

FALSAFA YO‘LIDA HAYOT: PROFESSOR RUSTAM SHODIYEV HAYOTI VA ILMIY MAKTABI

Yurtimiz falsafa sohasida o‘chmas iz qoldirgan, katta ilmiy maktab va ma’naviy meros asoschilari qatorida munosib o‘ringa ega bo‘lgan olim, falsafa doktori, professor Rustam Tohirovich Shodiyevning nomi mamlakatimiz falsafa, madaniyat va ma’naviyat taraqqiyoti tarixiga zarhal harflar bilan yozib qo‘yilgan.

Rustam Tohirovich Shodiyev o‘z mehnat faoliyatini 1995-2023-yillarda Samarqand davlat chet tillar institutida olib borib, shu davr mobaynida ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha prorektori lavozimlarida samarali faoliyat yuritgan. Shu bilan bir qatorda ilmiy izlanishlar olib borib, 1983-yilda nomzodlik disssertatsiyasini, 1993-yilda doktorlik dissertatsiyasini muvafaqiyatli himoya qilib, 1989-yilda dotsent ilmiy unvonini, 2009-yil professor ilmiy unvonlarini olgan. 2021-yilda Turon Fanlar Akademiyasi Faxriy akademik ilmiy unvoniga sazovar bo‘lgan. Ilmiy faoliyati davomida ustoz 14 nafar fan nomzodi, 3 nafar fan doktorining ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qildi. Salmoqli mehnatlari evaziga “Mehnat faxriysi” medali, 2006-yilda “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligi”, 2011-yilda “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20 yilligi”, 2022-yilda “O'zbekiston Konstitutsiyasining 30 yilligi” estalik nishonlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi, mahalliy hokimiyat organlari Faxriy Yorliqlari, tashakkurnomalar va boshqa mukofotlar bilan taqdirlangan.

Rustam Tohirovich Shodiyev o‘zining butun hayotini ilm, ta’lim va ma’rifat yo‘liga bag‘ishladi. Uning ilmiy qarashlari, falsafiy tahlillari va insoniy fazilatlari nafaqat shogirdlari va hamkasblari, balki butun ilm ahli uchun katta maktab bo‘lib xizmat qildi. Uning faoliyatida sharq tafakkuri, inson tabiati, ma’naviyat, tarbiya, madaniyat va til muammolari markaziy o‘rin egallardi.

Professor Rustam Shodiyevning falsafiy merosida alohida o‘rin egallaydigan mavzulardan biri - sharq falsafiy tafakkurida tasavvuf tushunchasini birinchi o‘ringa qo‘ygan. Ustoz tasavvufda insonning ruhiy dunyosi, axloqiy tanlovi, hayotiy maqsadlari va ma’rifiy salohiyatini har tomonlama tahlil qilgan.

Rustam Tohirovich nafaqat olim, balki fidoyi ustoz sifatida ham tanilgan edi. U har bir shogirdiga shaxsan e’tibor berib, ularning ilmiy va insoniy rivojlanishini o‘z zimmasiga mas’uliyat deb bilardi. Uning o‘quv mashg‘ulotlari, ma’ruzalari bilim va ruhiy tarbiya uyg‘unligini ifoda etar, talabani faqat ma’lumot bilan emas, balki o‘zlikni anglash, mas’uliyatli fikrlash, ma’naviy etuklikka chorlardi.

Uning shogirdlari orasida hozirda doktorlar, professorlar, fan nomzodlari, amaliy sohalarda faoliyat yurituvchi ziyolilar bor. Ularning har biri ustozining

samarali uslubini, bilimga ishtiyoqini va insonparvarlik fazilatlarini minnatdorlik bilan eslaydi.

Professor Shodiyevning falsafiy kontseptsiyalarida yana bir muhim jihat - milliylik va umuminsoniylik uyg‘unligidir. U milliy qadriyatlarni faqat an’ana deb emas, balki yangi tafakkur, global mulohazalar zamini sifatida baholardi. Uningcha, inson o‘z millatining ma’naviy ko‘klamidan uzilmasligi kerak, biroq bu bilan u dunyoqarash jihatdan yopiq bo‘lib qolmasligi lozim.

Rustam Tohirovich Shodiyev hayotida ham, ilmiy faoliyatida ham doimo ezgulik va ma’naviyat tamoyillariga tayandi. Uning xotirasi biz uchun faxr manbai, ilhom va mas’uliyat mezonidir. U qalblarimizda doimo tirik — uning ilmiy merosi, shogirdlari, yozgan kitoblari va yoritgan fikrlari orqali yashaydi.

Biz, uning shogirdlari va zamondoshlari, bu buyuk inson xotirasini doimo e’zozlaymiz va uning ilmiy maktabini munosib davom ettiramiz.

Aziz ustozimiz Rustam Toxirovich Shodiyevni xotirasi muhtaram, ruhi shod bo‘lsin!

1-SHO‘BA. HOZIRGI DAVR FANINING DOLZARB MUAMMOLARI

PEDAGOGIK MAHORAT – O‘QITUVCHINING KASBIY RIVOJLANISHIDA MUHIM OMIL

Komil HAYDAROV,
Samarqand viloyat pedagogik markazi
professori, falsafa fanlari doktori

Annotatsiya. Maqolada pedagogning kasbiy rivojlanishida uning kognitiv xususiyatlari, xususan, pedagogik mahoratning o‘rni, bugungi kunda ta’lim islohotlari doirasida pedagog xodimlar oldiga qo‘yilayotgan talablar, ta’limda samaradorlikka erishish yo‘llari, unda o‘qituvchining o‘rni kabi muammolarning ayrim jihatlari to‘g‘risida mushohada yuritiladi.

Kalit so‘zlar. *Pedagogik mahorat, o‘qituvchining kognitiv xususiyatlari, kasbiy rivojlanish, pedagogning ijodkorligi, malaka oshirish, hayot davomida o‘qish.*

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-231-son qarorida umumta’lim maktablarida ta’lim sifati va mazmunini tubdan isloh qilish, fan o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan aniq-tiniq vazifalar belgilab berilgan bo‘lib, soha xodimlarining pedagogik mahoratini oshirishda g‘oyat muhim qadam bo‘ldi [1].

Shundan kelib chiqib, umumta’lim maktablari o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishiga ko‘mak beradigan ilmiy-uslubiy mazmundagi tadqiqotlar va maqolalar nashr etish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda maktab ta’limini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish maqsadida olib borilayotgan islohotlar pirovardida uning samaradorligini oshirishga qaratilganligi hammaga ma’lum. Ushbu ulug‘ maqsadga muallimning pedagogik mahoratini oshirish orqaligina erishish mumkinligini ham barcha biladi. Bordi-yu, o‘qituvchida pedagogik mahorat yetishmasa, ta’limda natija thg‘risida so‘z bo‘lishi ham mumkin emas. Pedagogik mahorat eng avvalo o‘qituvchining qiyofasi (imiji), uning ilmiy va ma’rifiy salohiyati, g‘oyaviy yetukligi, shaxsiy sifatlari va kognitiv xususiyatlarining qay darajadaligiga bog‘liq, albatta.

Mahorati yuqori bo‘lgan o‘qituvchi muayyan darajada qobiliyatli ham bo‘ladi. Qobiliyat esa mehnat orqali o‘z kasbining ustasi bo‘lish, “kasbga sho‘ng‘ib ketish” degani. Pedagoglik kasbini tanlagan kishi o‘z maqsadiga erishish uchun tinmay izlanishi, o‘rganishi, malaka va ko‘nikmalarini doimiy ravishda oshirib borishi lozim. Chunki zamon bir joyda to‘xtab turmaydi, u doimo olg‘a qarab ketadi. Shu bois, davr o‘qituvchi oldiga yangidan yangi vazifalar qo‘yadi. Bugungi o‘qituvchi zamonga “moslashish” emas, undan bir qadar oldinda yurishga intilishi kerak. Dono xalqimizning “Bilgan kishi “bildim” demas, bildim desa – bilgani emas”, degan hikmati [3.40] ham aslida shuni nazarda tutadi.

Bugun pedagogning kasbiy rivojlanishi mamlakatimiz ta’lim islohotlarining eng muhim, ustuvor yo‘nalishini tashkil etadi. Kasbiy rivojlanish, avvalo, pedagogik mahoratni oshirishga bog‘lik ekan, bunda maktab ta’limi xodimlari oldiga quyidagi muhim talablar qo‘yilayotganiga alohida e’tibor qaratish lozim. Bular: birinchidan, fan o‘qituvchisi o‘z fanini chuqur bilishi lozim; ikkinchidan, u o‘z bilimini har bir o‘quvchiga yetkazib berish mahoratiga ega bo‘lishi zarur; uchinchidan, bugungi o‘qituvchi muayyan darajada psixologik (ruhiy) tayyorgarlikka ega bo‘lishi lozim; to‘rtinchidan, pedagog xodim o‘z ustida muntazam ishlashi, kasbiy layoqatini tinmay oshirib borishi kerak. Boshqacha aytganda, pedagogman dyegan inson juda ko‘p o‘qishi, o‘rganishi, “beshikdan qabrgacha ilm izlashi” lozim.

Aslida “Pedagogik mahorat” degan iboraning o‘zi yangi emas. Chunki avvalgi davrlarda ham mahoratli o‘qituvchilar yetarli bo‘lgan. Mahoratli muallim hech qachon shogirdlari xotirasidan o‘chmaydi, ular mahoratli ustozlarini doimo chuqur ehtirom va minnatdorlik bilan tilga oladilar. Sharq mutafakkiri Nosir Xusrav “Kimki shogirdlikka chin dildan shod, bir kun o‘zi ham bo‘lg‘usi ustod”[2.540], deganda shuni nazarda tutgan.

Ta’limning muhim turlaridan biri bo‘lgan pedagogik kadrlarning malaka oshirish sohasi (bugungi kunda “malaka oshirish” degan ibora “kasbiy rivojlanish” degan shaklda qo‘llanilmoqda) pedagogik mahoratni oshirishning yaxlit jarayoni bo‘lib, uning pirovard natijasi o‘qituvchining improvizatsion xususiyatlarini rivojlantirishgina emas, balki eng avval pedagogik-psixologik, metodik va mafkuraviy tayyorgarlik darajasini ko‘tarish, unda yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar qaror topishiga erishishdan iborat bo‘lishi lozim.

Dunyoning eng taraqqiy etgan davlatlaridan biri bo‘lgan Germaniyaga safarimiz chog‘ida o‘qituvchilik ushbu yurtda o‘ta mas’uliyatli, mashaqqatli, shu bilan birga eng obro‘-e’tiborli kasb sanalishiga guvoh bo‘ldik. Ushbu kasbni tanlagan odam ko‘p mehnat qilishi, o‘z ustida tinmay ishlashi, o‘z malakasini doimiy oshirib borishi talab etiladi. Ushbu mamlakatda masofadan turib malaka oshirish, masofadan o‘qitish tizim sifatida shakllangan. Uning eng ixcham va qulay

shakllari amaliyotga joriy etilgan. Masalan, Berlindagi LIZUM (mintaqalararo pedagogika instituti)da asosan multiplikatorlar tayyorlanadi. Multiplikatorlar o‘zlari ishlayotgan maktab va gimnaziyalarda o‘qituvchilarning malakasini oshiradilar. Mazkur institutda bag‘oyat ko‘p informatsiyani o‘zida mujassam etgan modul tizimlari yaratilgan. Bunday tizimlar nemis tilidan boshqa tillarda ham yaratilgan. Shuningdek, ushbu institut xodimlari Berlin va Brandenburg federal yerlari maktablari uchun modul yaratish maqsadida platformalarni taqdim etadilar. Institutda barcha fanlar bo‘yicha o‘quv platformalari mavjud. Federal yerlardagi ta’lim massasalari serverlar orqali bog‘langan bo‘lib, bunday tarmoq Yevropaning nemiszabon mamlakatlarini ham birlashtiradi.

Multimedia va internet tarmog‘idan unumli foydalanish, o‘qituvchilar malakasini oshirish jarayonida axborot-kommunikatsiya va boshqa texnika vositalarini keng qo‘llash Germaniyada odat tusiga kirgan. Mashg‘ulotlarda ko‘rgazmalilik kuchli bo‘lib, ta’lim samaradorligini ko‘tarishda muhim o‘rin tutadi. O‘qituvchilarning slaydlar, mavzuga doir tarqatma materiallar yaratish borasidagi tajribalari ham e’tiborga molik.

Bugungi kunda yurtimizda dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari bilan ta’lim sohasida hamkorlik aloqalari rivojlanib bormoqda. Ta’lim sohasida dunyoning kuchli davlatlari qatoridan o‘rin olish maqsadimiz ekan, bunday o‘zaro hamkorlik va integratsiya jarayonlari ta’lim tizimida islohotlar samaradorligini oshirishga ta’sir ko‘rsatishi, tizimda mehnat qilayotgan pedagog xodimlarni yanada faollikka undashi shubhasiz.

Malaka oshirish jarayonida o‘qituvchi ta’limning eng zamonaviy, ilg‘or shakl va uslublarini puxta egallashidan tashqari davlatimizning ta’lim sohasida olib borayotgan siyosatining mazmun-mohiyatini, umuman, demokratik islohotlarning ta’lim ravnaqiga ta’sirini ham chuqur bilishi, tafakkuri, mushohada va nutq madaniyatini oshirishga ham intilishi lozim. Chunki ta’limning ikki muhim ko‘rsatkichi – sifat va samaradorlik aynan o‘qituvchining mahoratiga bog‘liqligi sir emas.

Bugun umumta’lim maktabining o‘zi pedagogik mahoratni oshirish o‘chog‘i bo‘lishi lozim. Maktab, eng avvalo, pedagogning kasbiy rivojlanish markazi bo‘lishi lozim. Har bir maktabda darslarga kirish va kuzatish, tahlil qilish, yangi innovatsion ususllarni keng joriy qilish, o‘zaro tajriba almashish, jamoatchilik nazorati, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va ommalashtirish ishlari yuqori saviyada tashkil etilgan bo‘lishi kerak, bir so‘z bilan aytganda, maktabda hayot “qaynashi” zarur.

Bugun maktab o‘qituvchisini ilmiy tadqiqot ishlariga jalb qilish uning o‘z ustida ishlab, kasbiy rivojlanib borishida g‘oyat muhim o‘rin tutadi. Agar muallim davriy nashrlarga maqolalar bilan qatnashib tursa, ilmiy-uslubiy loyihalar,

grantlarda ishtirok etsa, anjumanlarda ma’ruzalar bilan chiqishlar qilib tursa, albatta, uning kasbiy rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Bugun o‘qituvchi avvalgiday majburiy mehnatga jalb qilinmaydi, qonun bunga yo‘l qo‘ymaydi. Buni har bir pedagog to‘g‘ri anglab yetgan holda o‘z ustida muntazam ishlashlari lozim bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida.O‘zbekistonRespublikasiPrezidentining qarori. 2024 yil 21-iyun.-Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 25.06.2024-y., 07/24/231/0445-son.

2. Hikmatlar shodasi / to‘plovchi va tarjimonlar A.Raimov, N.Raimova; muharrir A.Ziyadov. T.: “O‘zbekiston”, 2016. -540 bet.

3. Hikmatnoma: o‘zbek maqollarining izohli lug‘ati. –T.: O‘z. ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. -40 bet.

4. Haydarov K. Sharq falsafasida ma’naviy tarbiya ustuvorligi. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashri, 2020. – 240 bet.

BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINING MOHIYATI

Xoliqov Yunus Ortiqovich
Samarqand davlat chet tillar institute
Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi
professori v.v.b falsafa fanlari doktori (DSc)
xolikovyunus88@gmail.com

Annotasiya: Yangi O‘zbekistonda madaniyatning shakllanishi va namoyon bo‘lishi qat’iy va o‘rnatilgan modelga aylandi. Barqarorlikni saqlash bag‘rikenglik madaniyatiga xos xususiyat bo‘lishi bilan birga, madaniyatlararo muloqot madaniyatini rivojlanishiga ham yordam berish jarayonlari yoritilgan. Jamiyat taraqqiyoti, ongning yangilanishi odamlarning madaniyatlararo madaniyatga e’tiborini oshiradi.

Kalit so‘zlar: *siyosiy, ijtimoiy, madaniyat, bag‘rikenglik, xalq, modernizatsiya, urf-odat, tinchlik, muloqot, modernizatsiya, sabr, chidamlilik.*

Аннотация: Формирование и проявление культуры в новом Узбекистане стало устоявшейся и устоявшейся моделью. Хотя сохранение стабильности является особенностью культуры толерантности, выделены процессы, способствующие развитию культуры межкультурного общения. Развитие

общества, обновление сознания повышает внимание людей к межкультурной культуре.

Ключевые слова: *политическая, социальная, культура, толерантность, народ, модернизация, традиция, мир, общение, модернизация, терпение, выносливость.*

Abstract: The formation and manifestation of culture in new Uzbekistan has become a fixed and established model. While maintaining stability is a feature of the culture of tolerance, the processes of helping to develop the culture of intercultural communication are highlighted. The development of society, the renewal of consciousness increases people's attention to intercultural culture.

Key words: *political, social, culture, tolerance, people, modernization, tradition, peace, communication, modernization, patience, endurance.*

Kirish. Bu mavzu Yangi O‘zbekiston jamiyatini siyosiy madaniyat nuqtai nazaridan o‘rganadi.Qadim zamonlardan to hozirgi davrgacha bo‘lgan rivojlanish jarayonida ushbu milliy madaniyat tarkibidagi bag‘rikenglik ruhi biz bilamizki insonga tegishli bo‘lgan qadriyat tuzilmasini namoyon etadi. Ijtimoiy va siyosiy hayotda insonlar o‘zoro munosabatga kirishishda bag‘rikenglik madaniyatisiz tasavur qilib bo‘lmaydi. Bugungi glabalalshuv davrida Yangi O‘zbekiston jamiyati XXI-asrga kirganida, an’anaviy bag‘rikenglik ruhi xalqning modernizatsiya jarayoniga mos kelishi uchun murakkab ijtimoiy integratsiya jarayonini talab qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Bag‘rikenglik insonparvarlik qadriyatlari, fanatizm va shovinizmning turli shakllari o‘rtasidagi qarama-qarshilik sifatida Yevropa falsafasi tarixida mavjud bo‘lgan. Jumladan, D.Lokk tolerantlikni talqin qilishda liberal yondashuvni ta’kidlagan. Uning “Bag‘rikenglik to‘g‘risida” risolasini, shuningdek, I.Kantning “Abadiy tinchlikka” asarini, L.N.Tolstoyning “Vatanparvarlik yoki tinchlik” asarini alohida qayd etish mumkin.

“Tolerantlik” haqida tadqiqot ishlari olib borgan G.V.Bezlyuleva, G.M.Shelamova, J.J.Russo, R.Myullerson, K.Popper, B.Spinoza, D.Turiman, L.Drobijeva, A.Karnishev U.Altermatt B.Freyxof, G‘.Mirzayev, I.Saifnazarov, A.Obidov, F.R.Abdurahmonov, M.A.Nurmatova, N.B.Abdullayeva, E.Qodirov, A.Ochildiyev, R.H.Murtazayeva, O.P.Musayev, C.H.Yusupova, A.Hasanov, B.K.Iminov va boshqalar uning turli tillarda har xil mazmunga ega ekanligini izohlaydilar. Jumladan, lotinchada bardoshlilik; inglizchada - narsa yoki shaxslarni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilish ko‘nikmasi va uni qabul qilishga tayyorlik; fransuzchada boshqa insonning erkinligi, uning fikrlarini hurmat qilish; xitoychada boshqalarga munosabatda olijanoblikni namoyon qilish sifatida; arabchada kechirish, kamtarlik, yumshoqlik, hamdardlik, boshqalarga nisbatan sabr-bardoshlilik, oliyjanoblik; ruschada - o‘zga e’tiqod, fikrlar, xulq-atvorga

nisbatan sabrlilik; o‘zbek tilida bag‘rikenglik, sabr-bardoshlilik sifatida izohlanadi [1 – B. 58.].

Tadqiqot metodologiyasi. Bu ishda tahlil, sintez, induksiya va deduksiya, birlamchi manbalarni qiyosiy tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Bag‘rikenglik an’anaviy o‘zbek madaniyatining asosiy ruhlaridan biri bo‘lib, uning madaniy yoki mafkuraviy kelib chiqishi qadimgi zardushtiylik diniga borib taqaladi. Yangi O‘zbekistonning bag‘rikenglik madaniyatini maxiyatini o‘rganar ekanmiz bunda biz albatda Turon davrlarida bag‘rikenglikka urg‘u berishda eng ko‘zga ko‘ringanidir. Shu asosida bugungi Yangi O‘zbekistonda bag‘rikenglik madaniyati demokratiya asosida qurilgan bag‘rikenglik ruhi an'anaviy siyosiy madaniyat mantiqiy asoslaridan tubdan farq qiladi. Bag‘rikenglik madaniyati ko‘p millatli jamiyat hayotida millatlararo va konfessiyalararo bag‘rikenglik tamoyillarining faol rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishini anglatadi. Zamonaviy globallashuv sharoitida bag‘rikenglik madaniyati ko‘p jihatdan modernizatsiya jarayonlariga bog‘liq holda namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni, bu fanatizmdan chekinib konstruktiv muloqot o‘rnatishgacha ijobiy rivojlanish dinamikasi hisoblanadi. Modernizatsiya mevasi bo‘lgan muloqotga asoslangan bag‘rikenglik madaniyatining zamonaviy modeli ko‘p millatli, ko‘p dinli jamiyatning jadal ijtimoiy-madaniy rivojlanishi uchun eng samarali ekanligini dunyo tajribasi yaqqol namoyon etdi.

Bag‘rikenglik madaniyati - bu modernizatsiya qilinadigan ko‘p madaniyatli jamiyat subyektlarining bag‘rikenglik tamoyillarini faol joriy etish, rivojlantirishni va tajovuzning turli shakllariga qarshi kurashishning samarali usuli sifatida ma’lum darajada murosasizlik mavjudligini anglatuvchi kommunikativ ochiqlik madaniyati[2].

Yuqoridagi yondashuvlarda bag‘rikenglikning asosini sabr va chidamlilik tashkil etishi haqida qarashlar mavjud. Ammo bag‘rikenglik sabr va chidamdan farqli jihatlari ham mavjud. Sabr, ko‘pincha, og‘riqni, zo‘ravonlikni yoki boshqa salbiy ta’sirni boshdan kechirayotgan odam tomonidan his-tuyg‘u yoki harakatni ifodalasa-da, bag‘rikenglik boshqalarning hurmatini yoki tan olinishini, hukmronlik va zo‘ravonlikni rad etishni o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, sabr-toqat tushunchasi bilan ko‘plab manbalar tomonidan aniqlangan bo‘lsa ham, bag‘rikenglik tushunchasi yanada kengroq mazmunga ega.

Bag‘rikenglik bu - aqlli kishilarning imkoniyatidir, ular muloqot va fikrlar xilma-xilligi orqali haqiqat yo‘lida olg‘a siljishlariga shubha qilmaydi. Bundan tashqari, bag‘rikenglikning asosi - bu boshqa odamni xuddi u kabi qabul qilishda, boshqa nuqtai nazarni hurmat qilishda, siz ulashmaydigan narsada cheklanishda, boshqa millat va din vakillarining urf-odatlari, qadriyatlari va madaniyatini tushunishda va qabul qilishda namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, bag‘rikenglik har

qanday qarashlar va harakatlarga befarqlikni anglatmaydi. Masalan, irqchilik, zo‘ravonlik, tahqirlash, manfaatlar va inson huquqlarining buzilishiga dosh berish axloqsiz hisoblanadi.

O‘zbekistonning yanada rivojlantirishning “Harakatlar strategiyasi”da ustuvor yo‘nalishlar qatoriga bag‘rikeng shaxsni tarbiyalash kiradi[3]. Bag‘rikenglik ijtimoiy muhitning muhim sharti sifatida qaraladi. Bugungi kunda davlatning turli darajalarida bag‘rikeng shaxsni shakllantirish va turli xil murosasizlikka qarshi kurashish bo‘yicha dasturlari qabul qilinmoqda[4]. Shunday qilib, “bag‘rikenglik” tushunchasi O‘zbekiston jamiyatining leksikoniga allaqachon kirib borgan va mamlakatimiz aholisining katta qismi buni so‘zsiz qabul qiladi va tolerantlik jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanishi kerak.

Binobarin, bu oddiy tasodifiy madaniy hodisa emas, balki hayotiylikning namoyonidir. Bu, shuningdek, Yangi O‘zbekiston madaniyatining mislsiz hayotiyligining ichki asosidir. O‘zbek an’anaviy madaniyati keng, chuqur va uzoq tarixga ega. Uning uzoq muddatli rivojlanish jarayonida xalqning ijtimoiy amaliyotini ilgari surish va mutafakkirlarni umumlashtirish va takomillashtirish tufayli asta-sekin bir qator mukammal an'anaviy madaniyatlar shakllandi. Bu ajoyib an'anaviy madaniyatlar, albatta, sivilizatsiya va madaniyatning umumiy xususiyatlariga ega, ular O‘zbekistonning o‘ziga xos ijtimoiy va tarixiy sharoitlarida o‘sib chiqqan va shuning uchun o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Hozirgi jamiyatda odamlar o‘rtasidagi muloqotga asoslangan bag‘rikenglikni tushunishni talab qiladi. Bag‘rikenglik katalizator bo‘lib, to‘siqlarni bartaraf qiladi, tushunmovchiliklarni kamaytiradi va nizolarni hal qiladi. Bag‘rikenglik - bu munosabatlarni tartibga soladigan, ishqalanishni kamaytiradigan va to‘qnashuvlarning oldini oladigan axloqiy jarayon xisoblanadi. Bag‘rikenglik odamlarga qulay, iliq, ishonchli va dunyoning go‘zalligini his etishga yordam beradi. Bag‘rikenglik - olijanob shaxs tarbiyasi, komil inson xulqi, umuminsoniy qadriyat, sharq olimlarilning xulq-atvori. Boshqalarga nisbatan ochiq va bag‘rikeng bo‘lish uchun biz o‘zaro tushunish, o‘zaro kelishuv, o‘zaro hurmat va o‘zaro sevgiga erishishimiz kerak. O‘zaro kechirimlilik - bu bir-birini tushunish va shaxsiy g‘azablarga e’tibor bermaslikdir. Har bir insonning his-tuyg‘ulari va qadr-qimmati bor, ular ikkalasi ham boshqalarning e'tiboriga muhtoj va boshqalarni tushunishga majburdirlar. O‘zaro tushunish bilan biz xotirjam ruhiy holatni, bag‘rikenglik xarakterini va bag‘rikenglik tuyg‘usini saqlab qolishimiz mumkin. “Bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni shu asosda, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash O‘zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustivor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi. Bularning barchasi hayotda o‘z isbotini topdi”[5 – B. 295.], deb ta’kidlaydilar.

Biz bilamizki bizning diyorimizda paydo bo‘lgan madaniyatining bag‘rikenglik xususiyati doimo xalqqa yo‘naltirilgan insonparvarlik bo‘lib, u doimo asosiy xususiyat hisoblangan. Odamlarga yo‘naltirilgan yondashuv odamlarga barcha masalalarni ko‘rib chiqishning boshlang‘ich nuqtasi va maqsadi sifatida qarashni anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, an’anaviy o‘zbek madaniyatida teotsentrizm ustun mavqega ega emas, ammo insonparvarlik o‘zbek madaniyatining o‘zagi hisoblanadi. Shuning uchun bag‘rikenglik xarakteri va bag‘rikenglikni anglash O‘zbek madaniyatining asosiy xususiyati hisoblanadi. Faqat madaniy hayajon va bag‘rikenglik madaniyatni kuchli hayotiylikka olib kelishi mumkin. Bag‘rikenglik madaniyati chuqur gumanistik tarix va milliy ruhni o‘z ichiga oladi va insoniyat sivilizatsiyasining muhim qismidir. Bag‘rikenglik madaniyatning mohiyatini qanday ifodalash va etkazish zamonaviy Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasining oldida turgan muhim masalaga aylandi. Agar bag‘rikenglik madaniyati o‘zining jozibadorligini ko‘rsatmoqchi bo‘lsa, u Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida bag‘rikenglik madaniyatini asosiy yo‘nalish sifatida qabul qilishi, an'anaviy madaniyatni zamonaviy iboralar bilan o‘zlashtirishi va yangilashi, o‘tmishdan hozirgi kun uchun foydalanishi va Yangi O‘zbekiston taraqiyoti uchun zamonaviy madaniyatlararo muloqtga asoslangan bag‘rikenglik madaniyatidan foydalanishi va xalqlar o‘rtasidagi madaniy almashinuvni kuchaytirishi kerak. Uning ahamiyati nafaqat bag‘rikenglik madaniyatni namoyon etishda, balki bag‘rikenglik madaniyatning hayotiyligini zamonaviy madaniyatlararo muloqot tarzida yetkazishda, badiiy va insonparvarlik ruhini qayta tiklashda hamdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sivilizatsiya ma’nosida bag‘rikenglik erkinlik ruhi bilan boshqariladi va bag‘rikenglik asosi jamiyatning har bir a’zosining tengligi va muxtoriyatidir. Ya’ni, jamiyatning har bir a’zosi fuqaro sifatida muqaddas va daxlsiz, qonun bilan samarali kafolatlangan huquq va majburiyatlarga ega. Inson sifatida uning qadr-qimmati va sub’ektivligi muqaddas fazilatlarga ega bo‘lib, asosiy qadriyat bilan himoyalangan tizimga texnik xizmat ko‘rsatish. Erkinlik va qonun ustuvorligiga teng e’tibor qaratilayotgan bunday sharoitda shaxslar o‘rtasida, guruhlar o‘rtasida, shaxslar va guruhlar o‘rtasida, fuqarolar bilan tuzum va mamlakat o‘rtasidagi bag‘rikenglik va totuvlik adolat va adolatni to‘liq o‘zida mujassamlashtira oladi va shu bilan birga, U amaliy ishlash imkoniyatiga ega.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Безюлева, Г.В. Толерантность: взгляд, поиск, решение / Г.В. Безюлева, Г.М. Шеламова. – М., 2003. – С. 58.

2. Артемьева В. А., Данилова М.В. Анализ понятия “толерантность” в современной научной литературе // Молодой ученый. – 2015. – №2. – С. 471-474. – URLhttps: // moluch.ru/archive/82/14888/

3. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.//Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.

4. 2018 йил 16 апрелдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг «Диний-маърифий соҳа фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги Фармони, 2019 йил 4 сентябрдаги “Диний-маърифий соҳа фаолиятини такомиллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарори асосида дастурлар қабул қилинган.

5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – Б. 295.

MOBIL ILOVA YORDAMIDA DAVRIY NASHRLARGA ONLAYN OBUNA TIZIMINI AVTOMATLASHTIRISH

Murtazayeva Umida Isakulovna,
Kamalova Nilufar, Abdixoirova Shahlo
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Samarqand filiali
murtazayeva1982@yandex.ru

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tobora rivojlanib, turmushimizning ajralmas qismiga aylangan bir paytda, ommaviy axborot vositalari ham bu o‘zgarishlardan chetda qola olmaydi. Ayniqsa, davriy nashrlar – gazetalar, jurnallar – jamiyatdagi dolzarb axborotni muntazam va tizimli ravishda yetkazib berishda muhim o‘rin tutadi[3]. Shu bilan birga, ularning an’anaviy tarqatish usullari vaqt, resurs va muloqot jihatidan muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu sababli, raqamli obuna tizimiga o‘tish muqarrar jarayonga aylanmoqda. An’anaviy obuna tizimi foydalanuvchi uchun ko‘plab cheklovlarga ega: obuna jarayoni byurokratik, yetkazib berish muddatlari noaniq, yangiliklar yetib kelgunga qadar dolzarbligini yo‘qotishi mumkin[1]. Bundan tashqari, to‘lov mexanizmlari murakkab va asosan naqd yoki bank orqali amalga oshiriladi. Bu kabi kamchiliklar foydalanuvchini raqamli alternativalarga o‘tishga undaydi. Shu bois, mobil ilovalar

yordamida bu jarayonni soddalashtirish va avtomatlashtirish dolzarb masalaga aylandi.

Zamonaviy mobil ilovalar foydalanuvchiga bir necha daqiqa ichida nashrlar ro‘yxatini ko‘rish, ularni saralash, obuna bo‘lish va onlayn to‘lovni amalga oshirish imkonini beradi[2]. Bunday tizim real vaqt rejimida ishlaydi, foydalanuvchi kontentga istalgan vaqtda va istalgan joyda kirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bunda nashriyotlar uchun ham foyda mavjud: ular obunachilar bazasini tez va aniq nazorat qiladilar, marketing strategiyalarini avtomatlashtiradilar.

Ushbu maqolada ishlab chiqilgan mobil ilova orqali foydalanuvchilarga davriy nashrlarga onlayn obuna bo‘lish imkoniyati taqdim etiladi. Tizimning o‘ziga xos jihati – uning interfeysi sodda va intuitiv bo‘lib, barcha funksiyalar foydalanuvchi tajribasini (UX) hisobga olgan holda ishlab chiqilgan. Kirish, obuna tanlash, to‘lov oynasi va “Mening obunalarim” bo‘limi aniq tuzilgan. Dizayn elementlari esa bir qo‘l bilan boshqarish imkonini beruvchi joylashuvga ega. Ilovaning texnik arxitekturasi front-end (Flutter) va back-end (Node.js) dan tashkil topgan. Firebase real-time ma’lumotlar bazasi orqali obuna holati, foydalanuvchi ma’lumotlari va bildirishnomalar yuritiladi. To‘lov tizimi sifatida Payme va Click API integratsiya qilingan bo‘lib, ular to‘liq PCI-DSS talablariga javob beradi. Har bir modul alohida xizmat sifatida ishlab chiqilgan (microservice architecture), bu tizimni barqaror va masshtablashtirishga mos qiladi.

Quyidagi **jadvalda** an’anaviy va raqamli obuna tizimlari qiyosi 1-jadvalda ko‘rsatilgan.

1-jadval


An’anaviy va raqamli obuna tizimlari qiyosi

Mezoni	**An’anaviy obuna tizimi**	**Raqamli (mobil ilova) obuna tizimi**
Yetkazib berish vaqti	Kechikishlar bo‘lishi mumkin	Real vaqt rejimida foydalanish mumkin
To‘lov jarayoni	Qog‘oz shaklida yoki bank orqali	Onlayn to‘lov tizimlari orqali (Payme, Click)
Boshqaruv	Qo‘lda nazorat, murakkab	Avtomatik boshqaruv, interfeys orqali
Nashrga kirish	Jismoniy yetkazish zarur	Ilova orqali istalgan joyda ko‘rish mumkin
Xavfsizlik	Maxsus standartlar mavjud emas	SSL, JWT, PCI-DSS asosida shifrlash

Tizimda foydalanuvchi xavfsizligiga alohida e’tibor qaratildi. Kirish va avtorizatsiya uchun JWT (JSON Web Token) texnologiyasi qo‘llaniladi. Ma’lumotlar SSL protokoli orqali uzatiladi. To‘lovlar esa uchinchi tomon orqali

amalga oshirilgani sababli, ilova shaxsiy to‘lov ma’lumotlarini saqlamaydi. Bu esa foydalanuvchiga ishonch hissi beradi.

Quyida 1-rasmda tizim arxitekturasi PlantUML yordamida sxematik ko‘rinishda berilgan.



1-rasm. Obuna tizim arxitekturasi

Sinovlar davomida foydalanuvchilar 70% tezroq obuna bo‘lishgan, 45% foydalanuvchi ilovada ko‘proq vaqt sarflagan, 100% to‘lovlar onlayn amalga oshirilgan. Bu esa tizim samaradorligini amaliy jihatdan isbotlaydi. Foydalanuvchilarning aksariyati mobil ilovaning interfeysini “tushunarli” va “intuitiv” deb baholagan.

UI/UX dizayn foydalanuvchining ehtiyojlariga asoslangan. Minimalizm, kontrast ranglar, tartibli menyular va bir necha tugmachalar yordamida asosiy funksiyalar bajariladi. Masalan, obuna sahifasi bir necha qadamda tugallanadi: nashr tanlash → muddat tanlash → to‘lov → tasdiq. Bu esa jarayonni sezilarli darajada soddalashtiradi.

Tadqiqot davomida 150 nafar foydalanuvchidan onlayn so‘rovnoma olindi. 85% foydalanuvchi elektron nashrlar qulayligini, 73% esa to‘lov tizimining ishonchliligini yuqori baholadi. Ko‘pchilik foydalanuvchilar “Mening obunalarim” bo‘limi orqali o’z obunalarini boshqarish imkoniyatidan mamnun ekanini bildirishdi.

Raqamli obuna tizimlari bugungi kunda global miqyosda keng rivojlanmoqda. Spotify, Netflix, Adobe Creative Cloud kabi servislar

moslashuvchan, shaxsiylashtirilgan, xavfsiz obuna modellari orqali iste'molchilarni uzoq muddatga jalb etib kelmoqda. O'zbekistonda bu yo'nalishda ZO'R TV, Beeline TV kabi platforma faoliyat olib bormoqda, ammo soha endigina rivojlanmoqda. Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida elektron axborot xizmatlarini avtomatlashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Bu esa ushbu kabi ilova va platformalarni rivojlantirish, raqamli kontent bozorini kengaytirish, yangi foydalanuvchilarni qamrab olish imkonini yaratadi.

Kelajakda tizimni AI asosida individual tavsiyalar, o'qish statistikasi, avtomatik kontent filtrlari bilan boyitish rejalashtirilgan. Bu orqali foydalanuvchi faolligini oshirish, reklamaviy xizmatlarni integratsiya qilish va shaxsiylashtirilgan tajriba taklif qilish mumkin bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, mobil ilova orqali davriy nashrlarga onlayn obuna tizimini avtomatlashtirish bugungi raqamli jamiyat ehtiyojlariga to'liq javob beradi. Bu tizim orqali foydalanuvchilar qulaylik, tezlik va xavfsizlikka ega bo'lsa, nashriyotlar esa auditoriyasini samarali boshqaradi. Tizim yuqori iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka ega bo'lib, keng joriy etishga loyiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Назаров, М. Ш. Информационные технологии в управлении. — Ташкент: Фан, 2021. — 220 с.

2. Бегматов, Ш. Б. Информационные системы и технологии. — Ташкент: TUIT, 2020. — 296 с.

3. O'zbekiston Respublikasi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi. — URL: https://lex.uz/docs/4872410

YONG'INGA SEZGIR USKUNALARNI LOYIHALASH VA AVTOMATIK SIGNALIZATSIYASI TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Toshboyev Jahongir Saydazim o'g'li, Shermatov Elyor
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali
Jahongirtoshboyev2228@gmail.com

Yong'in inson hayoti va mulkiga jiddiy tahdid soluvchi tabiiy va texnogen ofatlardan biridir. O'zbekiston Respublikasida sanoat korxonalari, turar-joy binolari va jamoat joylarida yong'in xavfini oldini olish va uni erta aniqlash davlatning muhim vazifalaridan biridir. Ushbu maqolada zamonaviy "Rubej-2OP" yong'in signalizatsiya tizimining xususiyatlarini tahlil qilindi.

Yong'in nazorat qilinmaydigan yonish jarayoni bo'lib, moddiy zarar va inson hayotiga tahdid soladi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda har 10 soniyada yong'in sodir bo'lib, yiliga 5 millionga yaqin holat qayd etiladi. O'zbekistonda

yong‘inlar asosan ehtiyotsizlik, elektr jihozlaridan noto‘g‘ri foydalanish va bolalar o‘t bilan o‘ynashi kabi sabablarga ko‘ra yuzaga keladi. Statistikaga ko‘ra, yong‘inlarning 26% chekish paytidagi ehtiyotsizlik, 14% bolalar o‘yinlari va 13,5% elektr jihozlari bilan bog‘liq muammolar tufayli sodir bo‘ladi. Bu holatlar iqtisodiyotga milliardlab so‘mlik zarar keltiradi va fuqarolar hayotini xavf ostiga qo‘yadi.

Yong‘in jarayoni uch asosiy omil – yonuvchan modda, issiqlik manbai va oksidlovchi (masalan, kislorod) mavjudligida boshlanadi. Yonish jarayoni uch fazadan iborat: birinchi fazada harorat sekin ko‘tariladi, ikkinchi fazada olov tez tarqaladi va uchinchi fazada yonuvchan moddalar tugashi bilan harorat pasayadi. Yong‘in tarqalish tezligi materialga bog‘liq: yog‘och binolarda 1-2 m/min, yonuvchan erituvchilarda (masalan, toluol) esa 10-15 m/min ga yetadi. Yong‘in oqibatida ochiq olov, yuqori harorat, zaharli gazlar va inshootlarning qulashi kabi xavfli omillar yuzaga keladi, bu esa odamlarning 60-80% nafas yo‘llarining zaharlanishi yoki kislorod yetishmasligi tufayli halok bo‘lishiga olib keladi.

Yong‘in signalizatsiyasi tizimlari insoniyatning o‘tni boshqarish va xavfdan himoyalanishga bo‘lgan ilk urinishlaridan boshlanadi. Qadimgi Xitoyda miloddan avvalgi 2000-yillarda qo‘riqchi minoralari tutun yoki olovni aniqlash uchun ishlatilgan, signal sifatida qo‘ng‘iroq yoki olovli nayzalar qo‘llanilgan. Qadimgi Rimda “vigiles” deb atalgan yong‘in qo‘riqchilari tashkil etilib, shaharni patrul qilgan, ammo 64-yilda Rimdagi Buyuk Yong‘in bu tizimning samarasizligini ko‘rsatdi. O‘rta asrlarda Yevropada cherkov qo‘ng‘iroqlari orqali ogohlantirish amalga oshirilgan, lekin bu usullar sekin va samarasiz edi.

Sanoat inqilobi davrida (18-asr oxiri – 19-asr boshlari) mexanik signalizatsiyalar paydo bo‘ldi. 1799-yilda birinchi patentlangan yong‘in signalizatsiyasi harorat oshganda qo‘ng‘iroq chaladigan oddiy qurilma sifatida ixtiro qilindi. 1852-yilda AQShda Uilyam Channing va Moses Farmer telegraf texnologiyasiga asoslangan elektr yong‘in signalizatsiyasini ishlab chiqdi, bu tizim Boston shahrida muvaffaqiyatli sinovdan o‘tdi. 20-asrda tutun detektorlari rivojlanib, 1965-yilda Duane Pearsall tomonidan arzon va batareyali “SmokeGard” detektori ixtiro qilindi, bu esa uy sharoitida signalizatsiyalarni ommalashtirdi. Hozirgi davrda aqlli tizimlar va sun’iy intellekt yong‘in signalizatsiyasini yanada samarali qildi, masalan, Google Nest Protect kabi qurilmalar yong‘in xavfini real vaqt rejimida mobil qurilmalarga xabar qiladi.

Zamonaviy yong‘in signalizatsiyasi tizimlari tutun, issiqlik va zaharli gazlarni aniqlashga qodir bo‘lib, adresli texnologiyalar yordamida xavf joyini aniq ko‘rsatadi. Ushbu sohada Siemens, Bolid, Schrack Seconet va Rubej kabi kompaniyalar yetakchilik qiladi.

Siemens global bozorda innovatsion yechimlari bilan mashhur. Uning Cerberus PRO tizimi 504 tagacha qurilmani boshqaradi va ASAtechnology™ orqali soxta signallarni kamaytiradi. Siemens tizimlari sanoat, tijorat, ta’lim va

infratuzilma obyektlarida, masalan, Dubaydagi Burj Al Arab mehmonxonasida qo‘llaniladi. Biroq, yuqori narx kichik bizneslar uchun cheklov hisoblanadi.

Bolid Rossiya va MDH mamlakatlarida arzon va mahalliy sharoitlarga mos tizimlari bilan mashhur. Orion tizimi yong‘in signalizatsiyasini xavfsizlik va avtomatizatsiya bilan birlashtiradi, 127 qurilmani qo‘llab-quvvatlaydi. Bolid maktablar, shifoxonalar va savdo markazlarida, masalan, Moskva metrosida ishlatiladi, lekin xalqaro bozorda unchalik tanilgan emas.

Schrack Seconet Yevropada sifat va mustahkamlik bilan ajralib turadi. Integral EvoxX tizimi 4000 qurilmani boshqaradi va shifoxonalar, aeroportlar (masalan, Vena xalqaro aeroporti) va sanoat obyektlarida qo‘llaniladi. Uning cheklovi – yuqori narx va asosan Yevropaga yo‘naltirilganligidir.

Rubej tizimi Rossiyada ishlab chiqarilgan bo‘lib, arzonligi va mahalliy sharoitlarga moslashuvi bilan ajralib turadi. “Rubej-2OP” boshqaruv paneli 500 qurilmani boshqaradi va Rossiya GOST standartlariga mos keladi. Tizim sanoat, tijorat va turar-joy obyektlarida, masalan, Sochi Olimpiya o‘yinlari stadionlarida qo‘llanilgan.

“Rubej-2OP” tizimi Rossiyaning Rubej kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan adresli yong‘in signalizatsiya tizimining asosiy boshqaruv panelidir. 2016-yilda bozorga chiqarilgan bu tizim 500 qurilmani boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lib, kichik ofislerden tortib yirik sanoat obyektlarigacha mos keladi. Tizimning asosiy xususiyatlari quyidagicha:

- **Yuqori sig‘im**: 500 qurilma va 60 panelni bir tarmoqqa birlashtiradi, bu katta hududlarni qamrab olish imkonini beradi.
- **Moslashuvchanlik**: Modulli tuzilishi tufayli turli obyektlarga moslashtiriladi.
- **Integratsiya**: Ventilyatsiya, yoritish va eshiklar kabi tizimlar bilan birlashadi, yong‘in aniqlanganda avtomatik choralar ko‘radi.
- **Masofadan nazorat**: “Orion Pro” dasturi orqali real vaqt rejimida monitoring va boshqaruv imkonini beradi.
- **Energiya tejamkorligi**: 12-24 voltli quvvat bilan ishlaydi, zaxira batareyalar bilan 24-48 soat avtonom ishlaydi.
- **Ovozli signalizatsiya**: Evakuatsiyani osonlashtirish uchun ovozli xabarlar uzatadi.
- **Ishonchlilik**: -30°C dan +55°C gacha harorat va 95% namlik sharoitlarida barqaror ishlaydi.

“Rubej-2OP” Rossiya va MDH mamlakatlarida maktablar, shifoxonalar, savdo markazlari va turar-joylarda keng qo‘llaniladi. Masalan, Qozog‘istonning “Tengizchevroil” neft konida gaz sızması va yong‘in xavfini aniqlashda ishlatiladi. Tizimning arzonligi (o‘rtacha 5000-7000 AQSh dollari) va oson o‘rnatilishi uni davlat loyihalari uchun ideal qiladi.

Amaliy Loyihalash Bitiruv malakaviy ishida “Bir xonali omborxona” uchun avtomatik yong‘in signalizatsiyasi tizimi loyihalash jarayoni ko‘rsatilgan. Bu jarayon quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. **Dastur o‘rnatish**: Firesec3 Administrator dasturi kompyuterga o‘rnatiladi.
2. **Loyiha yaratish**: Yangi loyiha ochilib, ob’yektning PDF chizmasi yuklanadi.
3. **Jihozlarni joylashtirish**: Tutun detektorlari, ogohlantirish tugmalari va sirenalar chizmaga joylashtiriladi.
4. **Ssenariy yaratish**: Tizimning ishlash algoritmi sozlanadi, masalan, xavf aniqlanganda signal berish va evakuatsiya yo‘nalishlarini yoritish.
5. **Konfiguratsiya yuklash**: Tayyor konfiguratsiya “Rubej-2OP” kontrolleriga yuklanadi.
6. **Monitoring va sinov**: Firesec OT dasturi orqali tizim holati kuzatiladi va belgilangan zonalarda sinovlar o‘tkaziladi.

Ushbu jarayon tizimning to‘g‘ri ishlashini ta’minlaydi va real sharoitlarda samaradorligini sinab ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tojiyev M.X., Nigmatov L. “Hayot faoliyati xavfsizligi”, Toshkent, 2012.
2. Ibragimov E.I., Xojiyev A.A. “Yong‘in xavfsizligi”, Toshkent, 2011.

HOZIRGI DAVR ILM- FANINING DOLZARB MUAMMOLARI

Abdusalimova Shaxnoza
Termiz Davlat Pedagogika instituti
Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti,
Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va
huquq ta’limi yo‘nalishi 3- kurs talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi davrda ilm-fanning qay darajada muhim ahamiyatga ega ekanligi, fan sohasida erishilayotgan yutuqlar, ilm-fanning globallashuvi haqida yoritilgan, shu bilan bir qatorda ilm-fanning dolzarb muammolari masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: *ilm, fan, ta’lim, kadrlar, globallashuv, taraqqiyot, ta’lim, dissertatsiya.*

Kirish

Ilm-fan taraqqiyoti bu jamiyat va davlat taraqqiyotidir. Butun bir mamlakatning kelajagi ilm- fanning qay darajada rivojlanganligiga bog‘liq, undan ortda qolgani esa taraqqiyotdan ortda qolgan hisoblanadi. Shuning uchun har bir davlat ilm, ta’lim sohasida keng islohotlarni amalga oshirishmoqda. Chunki, qay

sohada faoliyat olib bormaylik hammasi uchun ilm kerak, Imom Buxoriy aytganidek, shiddat bilan o‘sib borayotgan bu dunyoda ilmdan o‘zga najotimiz yo‘q. Xususan, mamlakatimiz hududida ham ta’limga qaratilgan e’tibor yuksak darajada ekanligini ta’kidlamasdan ilojimiz yo‘q. Har yili O‘zbekiston Respublikasi davlat budjetining salmoqli qismi ta’lim va ilm- fanga sarflanadi. 2021- yilda mamlakat budjetidan faqat innovatsion rivojlanish va novatorlik g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun 239 milliard so‘mdan ortiq mablag‘ ajratilgan bo‘lib , 2022-yilda esa bu ko‘rsatgich 671 milliard so‘mdan ortiqni tashkil etadi[1].

Asosiy qism.

Ilm bu faoliyatimizning asosini tashkil etadi, uning tizimlashtirilgan ko‘rinishi esa bu fan hisoblanadi. Hozirgi globallashuv zamonida fan taraqqiyoti ham nihoyatda ilgarilab ketdi. Nanotexnologiyalar, gen injeneriyasi, sun’iy intellektning yaratilishi, bularning barchasi zamirida ilm-fan turibdi, shuningdek uning asosiy maqsadi insonlarning og‘irini yengil qilish, bajarilishi qiyin bo‘lgan ishlarni osonlashtirish, insoniyat kelajagi uchun xizmat qilish aslida. Fan bu borliq va uning turli ko‘rinishlari: tabiat, jamiyat, inson va uning tafakkuri to‘g‘risida ilmiy bilish jarayaonida yuzaga kelgan bilimlar tizimidan iboratdir[2]. Tanganing ikki tomoni bo‘lgani kabi fan taraqqiyoti insonning ko‘plab yumushlarini yengillatdi, ammo shular qatori bir qator dolzarb muammolar ham shakllanib bordi. Keling, bu muammolar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak.

Bu muammolardan biri ilmning tijoratlashuvi deb ayta olamiz. Bir kitobda shunday kichik iqtibos bor edi: “Hozirgi kunda eng ko‘p o‘zgargan narsa bu ta’limdagi vositalar emas, balki bolalardir”. Ta’limni amalga oshirishda bugungi kunda ko‘plab vositalar shakllanib, rivojlanib, o‘qituvchiga yordamchiga aylandi, shunday bo‘lishiga qaramasdan hali ham ta’lim berishda to‘laligicha maqsadimizga erishganimiz yo‘q, chunki bolalar ham o‘z o‘rnida o‘zgardi. Ba’zi bir yoshlar hozirda ishining tezlikda va osonlikda bitishini istashadi, har narsaga qiyinchiliksiz erishish yo‘lini izlashadi. Vaholanki Ro‘dakiy aytganidek, “Baxt havoda emas, mehnatda”. Aynan shu xildagi insonlar ilm- fandan o‘z shaxsiy manfaatlariga erishish, yoxud moddiy mablag‘ orttirishni ko‘zlashadi, buning natijasida esa fanning, ilmning asosiy maqsadi so‘na boshlaydi va u tijoratlashib, ba’zida biz ham tasavvur qilolmaydigan natijalarni olib kelishi mumkin.

Ikkinchidan, plagiat—eng yirik muammo desak xato bo‘lmaydi. Har bir yutuq va muvaffaqiyat ostida harakat yotadi, tez erishilgan narsa tezda qo‘ldan ketadi bilsangiz. Bilamizki, ilm sohasida faoliyat olib borish kuchli sabr, tinimsiz mehnat va mashaqqatni talab qiladi, bunga o‘xshash qiyinchiliklarga bardoshi yetmaganlar ilmni sotib olishga harakat qilishadi.

---

[1] Xabarlar.uz “O’zbekistonda ilm-fan taraqqiyotining ahvoli” maqola

[2] Rasulov. H, Xamrayev. S. “Globallashuv asoslari”. Termiz-2022

Yana bir muammo kadrlar masalasi ekanligini ham ta’kidlab o‘tish mumkin. Bunga ta’lim sifati bilan bir qatorda, moliyaviy masalalar ham ta’sir qiladi, desak adashmagan bo‘lamiz. Sifatli ta’lim kuchli kadrlarni tayyorlashning asosi hisoblanadi, o‘z o‘rnida bu sifatli ta’limni taminlash uchun davlat budjetidan ma’lum miqdorda mablag‘ ajratilishi zarur. Kadrlar uchun barcha talablarga javob bera oladigan shart-sharoit, yetarli miqdorda darsliklar, axborot markazlari faoliyati, kitobxonlik targ‘ibotlari.

Ilm – fanning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan narsa bu raqobat hisoblanadi. Raqobat o‘sish uchun xizmat qiladi. Sog‘lom raqobat muhitining shakllanmaganligi ham yuqorida ta’kidlagan muammolarimiz qatoriga kiritishimiz mumkin bo‘ladi. Nosog‘lom raqobat kimnidir oyog‘idan chalishga o‘xshaydi, u holda ilm fan rivojlanmaydi, faqat bir joyda qotib dogmatizmga, ya’ni turg‘unlikka olib keladi. Nosog‘lom raqobat muhitini biz Oybekning “Navoiy” romanida yaqqol ko‘rishimiz mumkin, qing‘ir yo‘llar orqali yuqori mansabga ko‘tarilib qolgan Shahobiddin domla, sof, bilimli, ilmga chanqoq yigit Sultonmurod bilan bo‘lgan bahslari buning yorqin misoli edi.

Xulosa

Har bir sohada muammolar mavjud, bu qo‘rqinchli voqea emas, muhimi ularning oldini olish uchun harakat qilish va ularni to‘xtata olish uchun barcha imkoniyatlarni safarbar qilish hamda har qanday yomon natijalarni keltirib chiqarishidan oldin ularga yechim topishdir. Muammolarga yechimni fandan, ilmdan chekinish orqali emas, unga to‘gri yondashish orqali hal qilishimiz zarur. Zeroki Behbudiy bobomiz aytganlaridek, “Zamon ilmidan bebahra xalq o‘zgalarga poymol bo‘lur.” Fanning asosiy maqsadi insonlarga yordam berish ekan, biz ham shu maqsadni amalga oshirish uchun harakat qilishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Rasulov. A, Xo‘jayev. Sh. “O‘zbekistonda ilm-fan taraqqiyotining ahvoli” maqoladan
2. Rasulov. H, Xamrayev. S. “Globallashuv asoslari”. Termiz-2022
3. https://xabar.uz
4. https://oyina.uz

TA’LIM MADANIYATI: AN’ANA VA ZAMONAVIYLIK O’RTASIDAGI DIALEKTIKA

Elmuradova Surayyo Abdijalilovna
Samarqand davlat chet tillar instituti assistent o’qituvchisi
elmurodovasurayyo6@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola ta'lim madaniyatining rivojlanishida an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirni tahlil qiladi. Maqolada an'anaviy ta'limning ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan tizimi va zamonaviy pedagogikaning texnologik yangiliklar va innovatsiyalarni o‘z ichiga olgan yondashuvlari o‘rtasidagi farqlar va umumiyliklar ko‘rsatilgan. Bunda an'anaviy ta'limning qat'iy normativlari va zamonaviy ta'limning ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi yondashuvlar o‘rtasidagi dialektik jarayonlar o‘rganilgan.

Kalit so'zlar: *Ta'lim madaniyati, an'anaviy ta'lim, zamonaviy ta'lim, pedagogika, dialektika, ta'lim paradigmalari, ijtimoiy qadriyatlar, texnologiya.*

Kirish

Ta'lim madaniyati insoniyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U nafaqat bilimlarni uzatish va o‘rgatish jarayonini ifodalamoqda, balki biror jamiyatning ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlari bilan bog‘liq hamda bu qadriyatlarni yangi avlodlarga etkazishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'lim madaniyati, albatta, doimiy ravishda o‘zgarib, jamiyatning talab va ehtiyojlariga moslashadi. Shu bilan birga, an'analar va zamonaviylik o'rtasidagi o'zaro aloqalar ta'lim madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan dialektik munosabatlar jamiyatning ta'limga bo‘lgan yondashuvini shakllantirmoqda. An'anaviy pedagogika ko‘proq ma'lum bir qadriyatlar tizimini saqlab qolishga intilsa, zamonaviy ta'lim esa o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor beradi. Bunday ikki qarama-qarshi yondashuvlar o‘rtasida dialektik muvozanatning mavjudligi ta'lim madaniyatini rivojlantirishda o‘ziga xos jarayonni ifodalaydi.

1. An'ana va zamonaviylikning ta'limdagi o‘rni

a) An'ana: Ta'lim madaniyatidagi an'ana, asosan, tarixan shakllangan va ijtimoiy institutlar tomonidan qabul qilingan qadriyatlar, usullar va normativlarga asoslanadi. An'anaviy ta'limda o‘qituvchi dominanta bo‘lib, o‘quvchilar esa passiv ravishda bilimlarni qabul qiladilar. Bu yondashuvda o‘qituvchi ilmiy bilimi va tajribasi orqali o‘quvchini ma'lum bir bilimga o‘rgatadi, lekin o‘quvchining shaxsiy fikrini erkin ifodalashiga kamroq e'tibor beriladi.

An'anaviy ta'limning ijtimoiy jihatidan ko‘rsatiladigan asosiy yutuqlaridan biri — bu yuksak axloqiy qadriyatlarning shakllanishi va o‘quvchilarning

jamiyatdagi o‘rni haqida tushunchalar berishdir. Shuningdek, an'anaviy ta'lim madaniy va diniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘lanib, tarixiy va milliy merosni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

b) Zamonaviylik: Zamonaviy ta'lim madaniyati esa jahonning tez o‘zgarib borayotgan ijtimoiy, siyosiy va texnologik sharoitlariga mos ravishda rivojlanmoqda. Bu yondashuvda o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlari, mustaqil o‘rganish va innovatsiyalarni yaratishga bo‘lgan qiziqishlar rivojlantiriladi. Zamonaviy ta'limda texnologiya va axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo‘llanilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarga yangi bilimlarni interaktiv tarzda o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilimlarni berish, balki o‘quvchilarga tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish va global muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishni o‘rgatishdir. Bu paradigmada o‘qituvchi roli o‘quvchilarning rivojlanishiga yordam beruvchi rahbar sifatida shakllanadi.

2. An'ana va zamonaviylik o‘rtasidagi dialektika.

An'ana va zamonaviylik o‘rtasidagi dialektika, aslida, ta'lim madaniyatining rivojlanishidagi eng muhim jarayonlardan biridir. Bu jarayonda ikki qarama-qarshi yondashuv o‘rtasida uzluksiz o‘zaro ta'sir va rivojlanish sodir bo‘ladi. An'anaviy ta'lim qadriyatlari yangi pedagogik yondashuvlar bilan birlashib, yangi ta'lim madaniyatini yaratadi.

a) Integratsiya va rivojlanish: An'anaviy ta'lim va zamonaviy pedagogika o‘rtasidagi muvozanatni topish, bu ikki tizimni integratsiya qilishni anglatadi. Masalan, an'anaviy ta'limda o‘qituvchining avtoriteti va o‘quvchilarning ustozga bo‘lgan hurmati saqlanib qolishi kerak, lekin zamonaviy yondashuvlar asosida o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifodalashga imkon berish zarur. Bu dialektika nafaqat an'analar, balki yangi texnologiyalar va metodologiyalarni o‘z ichiga olgan pedagogik yondashuvlarni joriy etishni ham talab qiladi.

Shuningdek, an'anaviy ta'lim tizimlari o‘quvchilarni milliy madaniyatga, tarixiy qadriyatlar va normativlarga hurmat bilan qarashga o‘rgatsa, zamonaviy yondashuvlar global va ijtimoiy jihatdan keng ko‘lamda qarashlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu jarayonlarning barchasi ta'lim tizimida mutanosiblik va hamjihatlikni saqlab qolishga yordam beradi.

b) Qarama-qarshilik va yangilanish: Dialektik jarayonlar o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. An'anaviy ta'lim tizimining qat'iy va tuzilgan usullari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan kurashishga majbur bo‘ladi. Bunda zamonaviy pedagogika tizimi yangi pedagogik metodlarni, ilmiy va texnologik yangiliklarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni talab qiladi. An'anaviy yondashuvlarga nisbatan yangi pedagogik paradigmaning qabul qilinishi, ba'zi bir qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin, ammo bu qarama-qarshiliklar rivojlanish va yangilanish uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, ta'lim madaniyatida an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning birgalikda ishlashi orqali o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi o‘rni aniqroq va kengroq tushuniladi. An'anaviy ta'limda shakllangan ijtimoiy qoidalarga asoslanib, zamonaviy ta'lim innovatsion fikrlashni o‘rgatadi.

3. Ta'lim madaniyati va jamiyat

Ta'lim madaniyati nafaqat o‘quvchilarni ta'lim olishga tayyorlash, balki ular uchun axloqiy va madaniy qadriyatlarni yaratish jarayonidir. An'ana va zamonaviylik o‘rtasidagi dialektik munosabatlar ta'lim tizimining yuqori samaradorligini ta'minlash uchun zarur. Bu dialektik jarayon, o‘z navbatida, ta'lim madaniyatining rivojlanishini ta'minlab, yangi va mavjud qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirni kuchaytiradi.

Masalan, o‘quvchilarni ta'lim jarayonida faqat bilim olishga o‘rgatish kifoya emas, balki ularga ijtimoiy mas'uliyatni his qilish, axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va global masalalarga yechim izlash kabi ko‘nikmalarni ham berish zarur. Bu jarayonlarda an'ana va zamonaviy pedagogik yondashuvlarning uyg‘unlashishi jamiyatning kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Ta'lim madaniyati, o‘zining zamonaviylik va an'analarga bo‘lgan bog‘liqligi bilan, o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki jamiyatning faol a'zosi sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. An'ana va zamonaviylik o‘rtasidagi dialektik munosabatlar ta'lim madaniyatini rivojlantirishda, uning o‘zgarishlar va yangilanishlarga moslashuvchanligini ta'minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan, ta'lim tizimi har doim o‘zining qadriyatlarini yangilab borishi va ijtimoiy ehtiyojlarga javob berishi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Ushakov, S. (2012). Ta'lim madaniyatini rivojlantirishda an'anaviy va zamonaviy ta'lim paradigmalarining o'zaro aloqasi. Journal of Education and Society, 17(1), 10-18.
2. Niyozova, G. (2018). Markaziy Osiyo ta’lim tizimidagi pedagogik innovatsiyalar va an’anaviy yondashuvlar. Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Tatar, M. (2012). Pedagogik innovatsiyalar va ularning ta’limni rivojlantirishdagi roli. Ta'lim tadqiqotlari, 23(1), 43-50.
4. Elmurodova .S. (2023). Ta'lim taraqqiyotida falsafaning o'rni. Yevroosiyo gumanitar va ijtimoiy fanlar jurnali. www.geniusjournals.org, 19-jild| Aprel, Belgiya.
5. Elmurodova .S. (2022). Ta'lim madaniyati ijtimoiy hodisa sifatida. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), ISSN: 2776-0979, 3-jild, 5-son, may, - Indoneziya. P. 2087-2090 (№23; SJIF: 7.565).

HOZIRGI DAVR FANINING DOLZARB MUAMMOLARI

Samarqand Davlat Chet tillar Instituti assistent o‘qituvchisi
Elmuratova Umida Mamadiyarovna
elmuratovau1981@gmail.com
Toshkent viloyati Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti
III bosqich talabasi
Abdumannonova Hamida G’ayrat qizi
abdumannonovahamida3@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada hozirgi davr fanining eng dolzarb muammolari tizimli yondashuv asosida chuqur tahlil qilinadi. XXI asrda ilmiy taraqqiyot jadal sur’atlar bilan rivojlanayotgan bo‘lsa-da, bir qator global va mahalliy muammolar hanuzgacha o‘z yechimini topmagan. Jumladan, ilmiy-tadqiqot faoliyatining moliyaviy ta’minoti, kadrlar salohiyati, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzviy integratsiyaning sustligi, shuningdek, innovatsion ishlanmalarning amaliyotga joriy etilishi borasida muayyan to‘siqlarning mavjudligi yoritiladi. Mazkur muammolarga xalqaro va milliy tajriba asosida qiyosiy tahlil qilinib, ilmiy asoslangan xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Maqolada olib borilgan tadqiqotlar fan sohasidagi mavjud tizimni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: *fan, ilmiy-tadqiqot, innovatsiya, dolzarb muammolar, zamonaviy texnologiya, metodologiya, yechim.*

KIRISH

XXI asrda fan va texnologiya taraqqiyoti insoniyat hayotining barcha jabhalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Globallashuv, raqamli transformatsiya va sun’iy intellekt asosidagi yangi texnologiyalar ilm-fan oldiga ilgari kuzatilmagan miqyosdagi muammolarni qo‘ymoqda. Shu bilan birga, ilmiy izlanishlar jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Biroq hozirgi sharoitda ilmiy-tadqiqot sohasida bir qator tizimli va amaliy muammolar mavjud bo‘lib, ular ilmiy salohiyatning to‘liq ro‘yobga chiqishiga to‘sqinlik qilmoqda. Xususan, ko‘plab rivojlanayotgan mamlakatlarda ilmiy izlanishlarga ajratilayotgan mablag‘lar yetarli emas, yosh olimlar soni kamaymoqda, ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi hamkorlik esa sust holatda qolmoqda. Shuningdek, ilmiy natijalarni tijoratlashtirish, xalqaro ilmiy bazalarga chiqish va innovatsion infratuzilmani rivojlantirish borasida ham qator muammolar mavjud. Maqolaning maqsadi – zamonaviy fan oldida turgan dolzarb muammolarni aniqlash, ularning ildiz sabablarini ochib berish va xalqaro tajriba asosida ularni hal etish bo‘yicha amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston va

boshqa rivojlanayotgan davlatlar sharoitida ilm-fan taraqqiyotini jadallashtirishga xizmat qilishi mumkin. Bugungi kunda ilm-fan taraqqiyotining jadallashuvi insoniyat oldiga yangi muammolarni qo‘yayotgani albatta sir emas. Ilmiy izlanishlar chuqurlashgani sari dolzarb savollar ham ortib bormoqda. Shu bois, zamonaviy fan oldida turgan muammolarni aniqlash va ularga ilmiy asoslangan yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, UNESCO ma’lumotlariga ko‘ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda ilmiy-tadqiqotga ajratilayotgan mablag‘ yalpi ichki mahsulotning o‘rtacha 0,5% ini tashkil etadi, bu esa global innovatsion tengsizlikka sabab bo‘lmoqda. [1, 89]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy fan oldida turgan muammolar ko‘plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan turli nazariy va amaliy yondashuvlar asosida o‘rganib kelinmoqda. Xususan, A. Toffler o‘zining mashhur “The Third Wave” (1980) asarida texnologik inqiloblar natijasida jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy va ilmiy o‘zgarishlarni tahlil qilib, ilm-fanning yangi bosqichga o‘tishini bashorat qilgan. [2, 65] Toffler o‘z asarida jamiyat taraqqiyotini uch bosqich – agrar, industrial va postindustrial (axborot) to‘lqinlar orqali tasniflaydi. Uchinchi to‘lqin – hozirgi raqamli, bilimga asoslangan jamiyat – ilm-fan va texnologiya asosida shakllanadi. Tofflerga ko‘ra, ilm-fan bu jarayonning yuragidir. U ilmiy texnologiyalar taraqqiyotini demokratik qadriyatlar, ta’lim tizimi, mehnat bozori va jamiyat tuzilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan asosiy kuch sifatida ko‘radi. Hozirgi fan oldida turgan dolzarb muammolar – ayniqsa, texnologik o‘zgarishlarga moslashish, axborotga kirish tengsizligi va ilmiy salohiyatni yangilash zaruriyati – Toffler bashorat qilgan transformatsiyalarning davomi sifatida tushuniladi. Karl Popperning “The Logic of Scientific Discovery” (1959) asari esa ilmiy bilimlar asoslarini empirik va falsafiy mezonlar orqali aniqlashga qaratilgan bo‘lib, zamonaviy fan metodologiyasining poydevorini tashkil etadi. [3, 40] Popper ilmiy bilish jarayoniga falsafiy yondashuvni asoslab, ilmiy gipotezalarni faqatgina ularni rad etish orqali tekshirish mumkinligini ta’kidlaydi — bu “falsifikatsiya” tamoyilidir. Ilmiy nazariya to‘g‘riligini tasdiqlab bo‘lmaydi, uni faqat sinab ko‘rish va noto‘g‘riligini isbotlash mumkin. Bu tamoyil ilmiy metodologiyaning hal qiluvchi elementi sifatida, hozirgi zamonda ham ilmiy izlanishlarning poydevoridir. Hozirgi davrda ilmiy izlanishlarda metodologik zaiflik, noto‘g‘ri gipotezalarni asossiz qabul qilish holatlari ko‘p. Popper g‘oyalari ilmiy asoslanganlik va tajriba asosida tekshirish tamoyilining dolzarbligini eslatadi. U o‘z ishida ilmiy gipotezalarni sinov orqali rad etish nazariyasini ilgari surgan, bu esa zamonaviy fan uchun metodologik muhim qadam hisoblanadi. UNESCO tomonidan chop etilgan “Science Report: The Race Against Time for Smarter Development” (2021) hujjatida esa dunyo bo‘yicha ilmiy-tadqiqotga ajratilayotgan mablag‘larning

notekis taqsimlanishi, rivojlanayotgan davlatlarda ilmiy salohiyatning pasayishi va innovatsiyalar sohasida mavjud bo‘lgan global tengsizliklar yoritilgan. Ushbu hisobotda global miqyosda ilm-fan va texnologik rivojlanish holati, ilmiy izlanishlarga ajratilayotgan mablag‘lar, olimlar soni, gender tengligi va mintaqaviy tafovutlar keng qamrovda yoritilgan. UNESCO hisobotida ko‘rsatilishicha, 2020-yildan boshlab dunyoda ilmiy tadqiqotlarga ajratilayotgan Yalpi Ichki Mahsulot (YIM) darajasi nisbatan oshgan bo‘lsa-da, bu o‘sish asosan rivojlangan mamlakatlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Aksariyat rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi hali ham ilm-fan uchun yetarli moliyaviy va institutsional resurslarga ega emas. Ayniqsa, “ilmiy oqim” (brain drain), yosh olimlar yetishmasligi va ayollar ishtirokining pastligi dolzarb muammo sifatida ko‘rsatilgan. Maqolada ko‘tarilgan fan moliyalashtirish, yosh kadrlar yetishmovchiligi va innovatsion salohiyatning pasayishi kabi masalalarning global manzarasi UNESCO hisobotida statistik ma’lumotlar bilan asoslab berilgan. Bu esa maqolaga xalqaro dalillar bilan dalillangan tahliliy kuch bag‘ishlaydi. O‘zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar ham bu borada e’tiborga loyiq. Masalan, R. T. Jo‘rayev (2021) ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini oshirishda ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyaning ahamiyatini asoslab bergan. U O‘zbekiston fanlar akademiyasi nashrida chop etilgan maqolasida fan sohasidagi byurokratik to‘siqlar va ilmiy natijalarni tijoratlashtirishdagi muammolarni keng yoritgan. [4, 35] Muallif ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi aloqaning sustligi, ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirishdagi byurokratik to‘siqlar, yosh olimlarning faoliyati va xalqaro tajriba almashinuvining cheklanganligi haqida yozadi. Fan taraqqiyoti bevosita tizimli yondashuv, davlat qo‘llovi, innovatsion infratuzilma va kadrlar siyosati bilan bog‘liq. Muallif dolzarb muammolarni o‘zbek real kontekstida yoritib, amaliy takliflar beradi. Mahalliy muammolarni o‘rganishda Jo‘rayev tadqiqoti asosiy tayanch nuqta bo‘lib, maqola taklif va xulosalari bilan bog‘lanadi. Tahlil shuni ko‘rsatadiki, hozirgi davr fanining dolzarb muammolarini chuqur va tizimli o‘rganish uchun nazariy asoslar yetarli, biroq ularni amaliyotga tatbiq qilish mexanizmlari hali to‘liq shakllanmagan. Shu bois ilmiy izlanishlar, ularning natijalarini qo‘llash va moliyalashtirish tizimini isloh qilish zaruriyati dolzarbligicha qolmoqda.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda hozirgi zamon fanining dolzarb muammolarini aniqlash, ularning kelib chiqish omillarini tahlil qilish va hal etish yo‘llarini ishlab chiqish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotda nazariy-tahliliy, qiyosiy (komparativ), empirik va statistik metodlar uyg‘unlashtirildi. Ilmiy adabiyotlar (Toffler, Popper, UNESCO hisobotlari, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi materiallari) tahlili orqali fan sohasidagi mavjud muammolar va ularning nazariy

asoslari chuqur o‘rganildi. Ushbu usul orqali dolzarb muammolarning fanda qanday yoritilganligi, ularning mantiqiy asoslari va konseptual yondashuvlari aniqlab olindi. Rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar (jumladan, O‘zbekiston)da fan rivoji va uni qo‘llab-quvvatlash tizimlari taqqoslab tahlil qilindi. UNESCO (2021) va boshqa xalqaro tashkilotlarning ochiq manbalari asosida xalqaro tajriba o‘rganildi va O‘zbekiston sharoitiga mos holatda baholandi. O‘zbekistonning 2020–2024-yillarda ilm-fan rivojiga oid davlat dasturlari, Fanlar akademiyasi statistik hisobotlari, vazirliklar (Innovatsion rivojlanish, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi) faoliyati asosida real amaliy holatlar tahlil qilindi. Fan va innovatsiyalar bilan bog‘liq demografik va moliyaviy ko‘rsatkichlar (masalan, ilmiy xodimlar soni, ilm-fan uchun ajratilayotgan mablag‘, yosh olimlar ulushi va h.k.) maxsus tahlil qilinib, grafik ko‘rinishlarda umumlashtirildi. Ushbu metodologik yondashuv orqali muammo nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham kompleks ravishda yoritildi.

NATIJALAR

O‘tkazilgan nazariy va amaliy tahlillar asosida hozirgi davr fanining dolzarb muammolari quyidagi asosiy yo‘nalishlarda namoyon bo‘layotgani aniqladi:

1. Ilm-fan moliyalashtirishining yetarli emasligi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi (2023) ma’lumotlariga ko‘ra, ilmiy tadqiqotlarga ajratilgan mablag‘lar YAIMning atigi 0,2–0,3 %ini tashkil etadi. Taqqoslash uchun, Janubiy Koreyada bu ko‘rsatkich 4,8 %, AQShda 3,2 %, Germaniyada esa 2,9 % ni tashkil qiladi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar samaradorligini keskin pasaytiradi.

2. Ilmiy kadrlar salohiyatining qisqarishi

So‘nggi yillarda fan doktori va PhD darajasiga ega olimlar sonining muttasil kamayib borayotgani kuzatilmoqda. R.T. Jo‘rayev (2021) fikriga ko‘ra, bu holat yosh kadrlarning ilm-fanga kirishishiga to‘sqinlik qilayotgan tizimli muammolar – past ish haqi, ilmiy grantlarning yetishmasligi, infratuzilmaning eski ekani bilan bog‘liq.

3. Ilm-fan va ishlab chiqarish o‘rtasidagi uzilish

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish darajasi juda past. 2022-yilda ro‘yxatga olingan 512 ta patentdan atigi 34 tasi ishlab chiqarishga tatbiq qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi, 2023). Bu fan–ishlab chiqarish integratsiyasining zaifligini ko‘rsatadi.

4. “Brain drain” – ilmiy salohiyatning chetga ketishi

O‘zbekistonlik iqtidorli yosh olimlarning ko‘pchiligi Rossiya, Turkiya, AQSh va Yevropa mamlakatlariga ilmiy faoliyat uchun ketmoqda. UNESCO (2021) hisobotida bu muammoni global miqyosda tan olingan “intellektual

migratsiya” muammosi sifatida ko‘rsatadi. Mahalliy sharoitda buning sababi — ilmiy muhitning innovatsion jihatdan yetarli emasligi va xalqaro grantlar tizimining cheklanganligidir.

5. Ilm-fan va ta’lim tizimi o‘rtasidagi uzviylikning zaifligi

Oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot ishlari ko‘pincha shakliy xarakterda qolmoqda. A.Toffler (1980) ta’kidlaganidek, postindustrial jamiyatda fan, ta’lim va texnologiya birgalikda ishlashi zarur. Ammo O‘zbekistonda bu tizim hali yetarlicha integratsiyalashmagan. Yuqoridagi holatlar ilm-fan tizimini tubdan isloh qilish zarurligini, ayniqsa, moliyalashtirish, yosh kadrlar tayyorlash, innovatsion infratuzilmani modernizatsiya qilish va fan–ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish muhimligini ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Aniqlangan muammolar fan sohasida tizimli yondashuv yetishmasligini ko‘rsatadi. Ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlar o‘rtasidagi hamkorlik zaifligi yangi g‘oyalarning amaliyotga tatbiq etilishida to‘siq bo‘lmoqda. Shu bilan birga, global ilmiy markazlar bilan aloqalarni kuchaytirish orqali mazkur muammolarni kamaytirish mumkin. Shuningdek, ilmiy axborot resurslariga ochiq kirishni ta’minlash ham dolzarb vazifadir. [5,12] Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, hozirgi davrda fan oldida turgan muammolar chuqur ildizga ega va ko‘p jihatdan tizimli xususiyat kasb etib kelmoqda. Avvalo, ilm-fan va iqtisodiy rivojlanish o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarlicha mustahkam emas. Alvin Toffler fan, ta’lim va texnologiyani postindustrial jamiyatning tayanchi deb hisoblaydi, biroq bu uchlik O‘zbekiston sharoitida hali uzviy tizimga aylana olmagan. Ilmiy faoliyatda tanqidiy yondashuv va metodologik aniqlik zarurati Karl Popper nazariyasida yaqqol ifodalangan. Afsuski, hozirgi ko‘plab ilmiy tadqiqotlar tajriba va amaliyotga emas, nazariy umumlashmalarga tayanmoqda. Bu esa fan rivojining chuqurlashishiga to‘sqinlik qilmoqda. Yana bir muhim jihat — yosh olimlar salohiyatidan to‘laqonli foydalanilmayapti. R.T. Jo‘rayev ilm-fan infratuzilmasidagi muammolar, motivatsiya yetishmasligi va grant tizimidagi byurokratiyani asosiy to‘siq sifatida ko‘rsatadi. UNESCO hisobotlariga ko‘ra, ilm-fan taraqqiyoti xalqaro hamkorlik, investitsiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy integratsiyaga bevosita bog‘liqdir. Shunday ekan, zamonaviy fanni rivojlantirish uchun mavjud tizimga yangicha yondashuv, texnologik baza, ochiq muhit va jadal almashinuv zarur.

TAKLIFLAR

Hozirgi davr fanining muammolarini hal qilish va uning barqaror rivojlanishini ta’minlash maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish hajmini oshirish, YAIMning kamida 1 foizini ilmiy izlanishlarga yo‘naltirish. Bu xalqaro amaliyotga yaqinlashishda muhim omildir (UNESCO, 2021).

2. Fan va ishlab chiqarish o‘rtasida uzviy integratsiyani shakllantirish, ya’ni ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini yaratish. Bu jarayonda texnoparklar va innovatsion klasterlar tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Ilmiy kadrlar salohiyatini oshirish uchun grantlar, stipendiyalar va almashinuv dasturlarini kengaytirish, ayniqsa yosh olimlar uchun. Bu ularning xorijga chiqib ketishini oldini oladi (Jo‘rayev, 2021).

4. Ilmiy maqolalarni baholash tizimini qayta ko‘rib chiqish, sifatsiz, shakliy va nusxa maqolalarni ilmiy aylanishdan chiqarish va tanqidiy-metodik yondashuvga asoslangan ilmiy mehnatni rag‘batlantirish.

5. Fan va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni mustahkamlash, oliy ta’lim muassasalarida amaliy tadqiqotlarni o‘quv jarayoniga integratsiya qilish, bakalavr va magistrantlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish.

XULOSA

Zamonaviy fan rivojlanishining uzviy davom etishi uchun dolzarb muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish muhimdir. Buning uchun davlat siyosatida ilm-fanga ustuvorlik berilishi, ilmiy salohiyatni oshirishga alohida e’tibor qaratilishi zarur. Yuqorida keltirilgan tahlil va takliflar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy fan faqat akademik tizim doirasida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, innovatsiyalar, ta’lim va ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog‘liq holda qaralishi lozim. Ilm-fanning dolzarb muammolari faqat moliyaviy emas, balki institutsional, metodologik va tashkiliy omillar bilan chambarchas bog‘langan. Shu bois, ilmiy faoliyatni har tomonlama rag‘batlantirish, uning ijtimoiy ahamiyatini oshirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali bu sohada tub burilish yasash mumkin. Ilm-fan jamiyatning strategik rivojlanish poydevori bo‘lib, uni e’tibordan chetda qoldirish – ijtimoiy taraqqiyotda orqada qolishdir. Shunday ekan, fanga e’tibor berish – kelajakni kafolatlashdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UNESCO Science Report: The Race Against Time for Smarter Development. Paris: UNESCO Publishing, 2021. – 89–91-betlar.

2. Toffler A. The Third Wave. New York: Bantam Books, 1980. – 65–67-betlar.

3. Popper K. The Logic of Scientific Discovery. London: Routledge, 1959. – 40–45-betlar.

4. Jo‘rayev R.T. Ilm-fan va innovatsion taraqqiyot muammolari. // O‘zbekiston fanlar akademiyasi axborotnomasi, 2021, №2. – 35–40-betlar.

5. GOST 7.32–2017. Ilmiy va ilmiy-texnik hujjatlar. Maqola tuzish qoidalari. Moskva, 2017. – 12-bet.

ТЕМА: КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ — ПУТЬ К ПРОЦВЕТАНИЮ

Мамаджонова Шахло Шукуржоновна
преподаватель KU
г.Коканд, Узбекистан
shahlomamadjonova4774@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается значение качественного образования как ключевого фактора устойчивого развития и процветания общества. Подчёркивается, что одной лишь доступности образования недостаточно — важна его реальная эффективность. Автор раскрывает причины, по которым качество образования влияет на развитие личности, экономики, социальной стабильности и формирования гражданского общества. Рассматриваются ключевые элементы, необходимые для обеспечения высокого уровня образования, и подчёркивается его роль в раскрытии человеческого потенциала и построении успешного будущего.

Annotation. The article discusses the importance of quality education as a key factor in the sustainable development and prosperity of society. It emphasizes that mere accessibility to education is not enough — its real effectiveness is crucial.

The author explains why the quality of education impacts the development of individuals, the economy, social stability, and the formation of civil society. Key elements necessary for ensuring high-quality education are examined, and its role in unlocking human potential and building a successful future is highlighted.

Ключевые слова: *Качественное образование, Устойчивое развитие, экономическое процветание, социальная стабильность, влияние образования на общество, педагоги, образовательные технологии, инновации, критическое мышление*

Keywords. *Quality education, sustainable development, economic prosperity, social stability, the impact of education on society, educators, tducational technologies, innovations, critical thinking*

В современном мире образование играет ключевую роль в обеспечении устойчивого развития общества, экономики и государства в целом. Однако важно не просто наличие образовательных учреждений, а именно качество образования, которое они предоставляют. Только высококачественное образование способно раскрыть потенциал личности, подготовить квалифицированных специалистов и сформировать граждан, способных не только адаптироваться к вызовам времени, но и активно влиять на его ход.

Почему важно качество, а не только доступность? В последние десятилетия во многих странах мира сделаны значительные шаги в сторону **доступности образования**: строятся школы, внедряются дистанционные курсы, увеличивается количество бюджетных мест в вузах. Это важный и необходимый шаг — ведь образование должно быть доступно каждому. Но **одной только доступности недостаточно**.

1. **Без качества — знания формальны и бесполезны.** Если ученик или студент получает доступ к школе или университету, но: программы устаревшие, учителя не заинтересованы, учебники не соответствуют реальности, отсутствует практическое применение знаний —то результатом становится **формальное образование**: диплом есть, а знаний, умений и реальной подготовки к жизни — нет.
2. **Качественное образование раскрывает потенциал человека.** Только по-настоящему хорошее образование помогает: научиться критически мыслить, развивать креативность, применять знания на практике, найти своё дело и быть полезным обществу.
3. **Общество с доступным, но некачественным образованием — уязвимо.** Такое общество может столкнуться с: нехваткой квалифицированных специалистов, ростом безработицы, стагнацией в науке и технологиях, социальной нестабильностью.
4. **Доступность — это дёколичество, качество — это результат**

Простой пример: если 100 студентов окончат университет, но лишь 10 из них будут действительно подготовлены к работе, остальные 90 останутся без нужных навыков. Это значит, что **доступ был, но качество подкачало**. И это — потерянные возможности и ресурс. Ключевые элементы качественного образования: 1. **Компетентные и мотивированные педагоги.** Учитель — это не просто источник знаний, а наставник, вдохновляющий учеников. 2. **Современные методы и технологии обучения.** Использование цифровых ресурсов, проектной деятельности и интерактивных форм делает обучение более эффективным.3. **Образовательные программы, соответствующие вызовам времени.** Учебные планы должны быть актуальными, развивать как твёрдые (академические), так и мягкие (коммуникация, лидерство, эмоциональный интеллект) навыки. 4. **Оценка, ориентированная на развитие, а не на контроль.** Важно, чтобы оценивание способствовало росту, а не вызывало страх перед ошибкой.

Влияние качественного образования на процветание. Качественное образование — это не просто обучение в школе или вузе. Это система, которая формирует всесторонне развитого человека, способного мыслить, создавать, принимать решения и нести ответственность. Именно поэтому качественное образование оказывает **прямое влияние на процветание как личности, так и общества в целом**. 1. **Экономическое развитие.** Качественное образование подготавливает **квалифицированных специалистов**, инженеров, врачей, учёных, предпринимателей. Образованные люди создают **инновации**, открывают бизнесы, развивают промышленность и технологии. Повышается **производительность труда**, снижается безработица, экономика становится более устойчивой. *Пример:* Страны с высоким уровнем образования, такие как Южная Корея, Финляндия или Германия, добились экономического рывка во многом благодаря вложениям в образование.

2. **Социальная стабильность.** Образование способствует **уменьшению бедности** и **социального неравенства** — чем выше образование, тем выше доход и уровень жизни. Люди, получившие хорошее образование, **лучше понимают свои права и обязанности**, участвуют в жизни общества, уважают законы.Снижается уровень преступности, растёт **гражданская сознательность**.

3. **Здоровое и устойчивое общество.** Образованные граждане **заботятся о своём здоровье**, умеют критически воспринимать информацию, в том числе в сфере медицины, экологии, питания. Такие люди чаще придерживаются **экологически ответственного поведения**, что важно для устойчивого развития.

4. **Развитие личности и самореализация.** Качественное образование помогает человеку: раскрыть свои способности; найти интересную и важную работу; чувствовать уверенность в себе и своей пользе; быть счастливым и независимым.

Процветание — это не только деньги, но и чувство удовлетворённости жизнью, гармония, стабильность и уверенность в будущем.

Заключение

Качественное образование — это не просто один из элементов социальной политики, а стратегическая основа для построения сильного, справедливого и процветающего государства. В XXI веке оно становится неотъемлемым ресурсом развития наравне с природными богатствами, технологиями и инвестициями. Ни одна страна не может добиться долгосрочного успеха, если её граждане не обладают знаниями, навыками и

способностью мыслить критически. Именно образование определяет интеллектуальный, культурный и экономический потенциал нации.

Сегодня, когда мир сталкивается с глобальными вызовами — от экономических кризисов до климатических изменений и цифровой трансформации, — особенно остро ощущается необходимость в **грамотных, гибких, творчески мыслящих людях**, способных не просто следовать за изменениями, а формировать их. И только качественное образование может подготовить таких граждан.

Качественное образование — это инвестиция с самым высоким уровнем отдачи. Оно способствует снижению бедности, укреплению здоровья населения, повышению уровня жизни, развитию демократии и гражданского общества. Оно создаёт условия для социальной мобильности, позволяя каждому человеку, независимо от его происхождения, реализовать свои способности и достичь жизненных целей. Без него невозможно формирование равных возможностей и построение инклюзивного общества.

Кроме того, образование играет ключевую роль в формировании **ценностей и мировоззрения нового поколения**. Через качественное обучение формируются такие важные личностные качества, как уважение к правам человека, толерантность, стремление к сотрудничеству, осознанность в отношении экологии и социальной ответственности.

Таким образом, если мы действительно стремимся к процветанию — не только в экономическом, но и в человеческом смысле — мы обязаны поставить **качество образования** в центр государственной политики, общественного внимания и индивидуальных усилий. Это значит: поддерживать и развивать педагогов, внедрять современные подходы к обучению, регулярно обновлять учебные программы, и — самое главное — видеть в каждом ученике не просто потребителя знаний, а будущего строителя общества.

Процветание начинается не с банковских счетов и не с промышленных мощностей. Оно начинается с **классной комнаты**, где учитель и ученик вместе прокладывают путь к лучшему будущему. И от того, насколько качественным будет это образование, зависит, каким будет это будущее — для человека, для страны, для всего мира

Использованные литературы

1. Ахмадалиев, М. (2017). Качество образования и его влияние на социальное и экономическое развитие. Ташкент: Издательство «Узбекистон».

2. Каримова, З. (2019). Образовательные технологии в современной системе образования Узбекистана. Ташкент: Научный журнал "Образование и общество".

3. Абдулазизова, Ш. (2018). Роль качественного образования в устойчивом развитии экономики Узбекистана. Ташкент: Издательство "Молодежь".

4. Юсупова, Л. (2020). Современные образовательные технологии и их внедрение в образовательный процесс. Ташкент: «Республика».

5. Кулиев, Б. (2021). Образование и его влияние на социальную стабильность в Узбекистане. Журнал «Социология и образование». Ташкент.

6. Мирзаев, Ф. (2022). Образование как фактор инновационного развития Узбекистана. Ташкент: Академия наук Республики Узбекистан.

7. Государственная программа по модернизации образования в Узбекистане (2019). Ташкент: Министерство высшего и среднего образования Республики Узбекистан.

8. Shukurjonova, M. S. (2024). HISTORICAL AND CULTURAL SPACE AND FORMATION OF COMMUNICATION COMPETENCIES. Western European Journal of Linguistics and Education, 2(11), 73-75.

9. Shahlo, M. (2024). FUNDAMENTAL BASES OF FINE ART TERMS. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(05), 229-231.

MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA OID QARASHLAR TARIXI

Xolmirzaeva Jumagul Xamdamovna
Mustaqil izlanuvchi. Farg‘ona
Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich
Qo‘qon universiteti v.b. professori,
falsafa fanlari doktori (DSc)

Bugungi globallashuv zamoni barchamizdan mehnatga ijobiy munosabatni va doimiy izlanishni talab etmoqda. Bu esa o‘z navbatida barchamizga birdek mas’uliyat yuklaydi. Mazkur masalani ijobiy xal etish uchun ilmiy va tarixiy manbalarga murojaat etish darkor. Fikrimizcha ota bobolarimiz tomonidan qoldirilgan ma’naviy merosga tayanish mumkin. Bu meros mehnat madaniyatni shakllantirish va rivojlantirishda, respublikamizda bozor munosabatlariga o‘tishda muhim ma’naviy omil rolini o‘tamoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi nazarimizda.

Yoshlarda mehnat madaniyatini shakllantirishning asosiy omillari nimalardan iborat? Uzoq vaqtlardan buyon davom etib kelgan an’anaga ko‘ra, buning asosiy omili moddiy manfaatdorlik hisoblanadi. Ammo keyingi o‘n yilliklarda shu narsa ma’lum bo‘ldiki, hamma narsa faqat katta pulga bog‘liq emas ekan. Yoshlar faolligini oshirishda moddiy manfaatdorlikdan boshqa, yana bir

qator omillar bor. Umuman yoshlar faoliyatini faollashtiradigan asosiy omil mehnat madaniyati bilan bog‘liq bo‘lib, bu omil har qaerda har xil namoyon bo‘ladi. Bu borada bobolarimiz tomonidan qoldirilgan quyidagi ma’naviy meroslarni o‘rganish foydadan xoli bo‘lmaydi.

XIV-XVI asrlarda Amir Temur, Ulug‘bek, Navoiy, Bobur kabi buyuk shaxslar tomonidan kuchli davlatni barpo etish, fazilatiga muvofiq rahbar shaxslarni tanlash, tayinlash, boshqarishda muzokaralar olib borish, adolatli boshqarishning sir-sinoatlari, odillik, tadbirkorlik, mohirlik, iste’dod, ma’rifat tamoyillari ishlab chiqiladi va ulardan jamiyat iqtisodiy madaniyatini belgilashda keng qo‘llaniladi.

«Temur tuzuklari» (Amir Temur), «Vaqfiya», «Ixlosiya», «Saddi Iskandariy», «Mahbubul qulub» (A.Navoiy), «Boburnoma» singari asarlarda insonning mehnat madaniyatiga oid g‘oyalar yanada rivojlantiriladi. Mazkur asarlarda mehnat madaniyatini shakllantirishga oid qarashlar o‘z ifodasini topgan bo‘lib ulardagi tavsiyalardan amalda foydalanish mumkin.

Shuningdek, taniqli iqtisodchi-olimlardan Abraxaam Maslou va Fredirik Gersburglar yosh ishchilarning o‘ziga xos ehtiyojlarini qondirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkinligini isbotlab berdilar. Jumladan, yosh ishchi-xodimlarning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni taklif qilishdi: ishchi-xodimlarga bir-biri bilan o‘zaro munosabat qilib turadigan ish topshirish; ish jarayonida ular o‘rtasida o‘zaro hamkorlik tuyg‘usini shakllantirish; ishchi-xodimlar bilan tez-tez yig‘ilishlar o‘tkazib turish; ishchilar o‘rtasida tashkil topgan norasmiy guruhlar tashkilot ishiga zarar yetkazmasa, ularga tazyiq o‘tkazmaslik; ishchi, xodimlar o‘rtasida ishdan tashqari paytlarda ham o‘zaro muloqotni tashkil etish[1].

Ko‘rinib turibdiki, yosh ishchi-xodimlarni faollashtirish uchun ko‘rilgan bu chora-tadbirlar iqtisodiy rag‘batlantirish omillari emas, balki insoniy munosabatlar bilan bog‘liq ma’naviy omillardir. Mehnat madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq yana bir qator omillar taklif etiladi. Jumladan, qadr-qimmatni baland tutishga bo‘lgan ehtiyojlar: - yosh ishchi-xodimlarga ancha salmoqdor va mazmundor ishlarni taklif etish; - bajargan ishlarning natijalari bilan tanishtirib turish; - bajargan ishlari uchun rag‘batlantirib turish; - rejalashtirish va qarorlar qabul qilish jarayoniga ularni jalb etish; haq-huquqlarini biron bir yo‘l bilan cheklamaslik; - yuqoriroq lavozimlarga ko‘tara borish; malakasini oshirish uchun imkoniyatlar yaratish va h.

Mehnat madaniyatining rivojlanganlik darajasini aniqlashda oilaning hayot siklini ham e’tiborga olish kerak. Sotsiologlar fikricha, oilaning hayot sikli to‘qqiz ko‘rsatgichni xarakterlaydi, bular: bo‘ydoqlik davri (ota-onadan yolg‘iz yashovchi

[1] Персонални бошқариш.-Т.: Шарқ, 1998,138-140-б.

bo‘ydoh yoshlar); ota-onalaridan alohida yashaydigan, hali farzandlari yo‘q yosh er-xotinlar; yosh bolali oilalar; bir nechta bolali oilalar; bolalar katta bo‘lib qolishgan, ota-onalari bilan birga turadigan oilalar; ishlaydigan yolg‘iz keksa er-xotin; nafaqada bo‘lib biri ishlaydigan yolg‘iz keksa er-xotin); ishlaydigan yolg‘iz er yoki xotin; ishlamaydigan yolg‘iz er yoki xotin.

Marketing tadqiqotchilari oilaviy hayot siklini tadqiq etish orqali har bir siklga xos ehtiyojlar, talablar, did me’yorlarini o‘rganib, mahsulot ishlab chiqarish rejasini tuzadi. Shu yo‘l bilan xuddi shu toifadagi shaxslarning iste’molchilik sohasidagi faolligi oshiriladi[1].

Inson omili va shaxs mehnat madaniyati tarkib topishi haqida gap ketganda, psixologik xususiyat (xolerik, sangvinik, melanxolik, flegmatik)larni tiplarga bo‘linishi masalasini e’tibordan soqit qilib bo‘lmaydi. Har bir odamning nafaqat umum, balki mehnat madaniyatiga psixologik omillar o‘z ta’sirini o‘tkazib turadi. Shuning uchun mehnat psixologiyasi degan tushuncha ishlatiladiki, uning botiniy qismi sifatida o‘ziga ishonch, mustaqillik, beqarorlik, izzattalablik, mansabparastlik, xushmuomalalik, yangilikka intiluvchanlik, e’tiyotkorlik, tajovvuzkorlik, sabr-qanoatlilik, muvaffaqiyatga intilishlik, tartib-qoidani xush ko‘rishlik, moslashuvchanlik, qaysarlik kabi jihatlarni sanab o‘tish mumkin.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, mehnat madaniyati e’tiqod darajasidagi ijtimoiy tafakkur asosida jamiyatda va shaxslararo muayyan ijtimoiy munosabatlar tizimiga kirish, moddiy ne’matlar ishlab chiqarish, ularni taqsimlash, iste’mol qilish jarayonida yuksak ma’naviy tamoyillarga suyanib faoliyat ko‘rsatishdan iboratdir. Mehnat madaniyati moddiy ne’matlarni yaratish va iste’mol qilish sohasida yuksak axloqiy-intellektual me’yorlarni qaror toptiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Personalni boshqarish. -T.: Sharq, 1998,138-140-b
2. Temur tuzuklari. T.: Fan, 1993, B.76
3. O‘lmasov A. Oila iqtisodi. – T.: Sharq, 37-45 b.

ZAMONAVIY TARIX TA’LIMIDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING DOLZARBLIGI

M.Misrbekova

Samarqand chet tillari institutida o’qituvchi

Kirish

Tarix insoniyat taraqqiyotining ko‘zgusi, har bir millatning o‘zligini anglash, o‘z madaniyati, qadriyatlari va o‘tmishini teran idrok etish vositasidir. Shu boisdan

[1] Ўлмасов А. Оила иқтисоди. 37-45 б.

tarix fani umumiy o‘rta ta’lim tizimida alohida o‘rin egallab, yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash, ularda fuqarolik pozitsiyasi va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi globallashuv, axborot oqimining tezkorligi va texnologik yutuqlar davrida yoshlarning tarixiy tafakkurini mustahkamlash, ularni ijtimoiy-huquqiy ong bilan qurollantirish ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. *Birinchi prezidentimiz I.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asarida“Biz yosh avlodni tarixiy xotira, milliy g‘urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashimiz zarur.[1]” degan edi.* Shu nuqtai nazardan qaralganda, hozirgi davrda tarix fanining mazmunini zamonaviy talablarga muvofiq tarzda yangilash, uni faqat faktlar va sanalardan iborat bo‘lgan an’anaviy yondashuvdan chiqib, tahliliy va tanqidiy fikrlashga asoslangan, kompetensiyaviy yondashuvga yo‘naltirish zarurati tobora ortib bormoqda. Bu esa tarix darslarini interaktiv, ijodiy va innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishni talab etadi.

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta’lim jarayoniga tatbiq etish nafaqat darslarning samaradorligini oshiradi, balki o‘quvchilarda tarixiy ong, mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarda tahlil qilish va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Shu bois, mazkur maqolada zamonaviy tarix ta’limida innovatsion yondashuvlarning dolzarbligi, ularning turlari, amaliy qo‘llanilishi hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil etiladi. Zamonaviy ta’lim tizimida raqobatbardosh, ijodkor va mustaqil fikrlovchi shaxsni shakllantirish asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida, an’anaviy yondashuvlardan voz kechib, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan “innovatsiya” tushunchasining mazmuni va uning ta’limdagi ifodasi muhim nazariy asosga ega. “Pedagogik innovatsiyalar – bu ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan yangi yondashuvlar, metodlar va texnologiyalar majmuasidir. Ular o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ta’lim sifatini oshirish va zamonaviy jamiyat talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi.[2]”

Pedagogik adabiyotlarda “innovatsiya” tushunchasi yangilik kiritish, yangicha yondashuvlarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, ta’lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi o‘zgarishlarni yaratish kabi ma’nolarda talqin qilinadi. Innovatsion ta’lim – bu o‘qitish jarayonida ilg‘or metodlar, texnologiyalar va vositalardan foydalanib, o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish, kreativlik va ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgan tizimli yondashuvdir. Ayniqsa, tarix fani uchun innovatsion yondashuvlarning qo‘llanilishi o‘quvchilarni tarixiy voqealarga nisbatan befarqlikdan chiqarib, ularni faol ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. “Tarix ta’limining asosiy maqsadi – o‘quvchilarda tarixiy tafakkur, tanqidiy

fikrlash va milliy ongni shakllantirishdir. Bu jarayonda interfaol metodlar va innovatsion yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.[3]" Tarix ta'limida samarali bo'lgan innovatsion metodlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

-"Aqliy hujum" (brainstorming) – o'quvchilarda tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi;

"Keys-stadi" (muammoli vaziyatlar tahlili) – real tarixiy voqealar asosida qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantiradi; "Rol o'ynash metodi" – tarixiy shaxslar obrazida chiqish orqali tarixni jonli idrok etishga yordam beradi; Multimedia vositalari, 3D xaritalar va virtual muzeylar – tarixiy materialni vizual tarzda yoritib, o'quvchilarning qiziqishini oshiradi; Interaktiv testlar va onlayn platformalar (Kahoot, Quizizz, Google Classroom va boshqalar) – bilimlarni tezkor aniqlash va mustahkamlash imkonini beradi.

Shu boisdan, tarix ta'limini innovatsion asosda tashkil etish orqali yoshlarning tarixga nisbatan qiziqishi, milliy ong va fuqarolik pozitsiyasi sezilarli darajada rivojlanadi. "Innovatsion pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish va zamonaviy jamiyat talablariga mos kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi [4]." Bu esa o'z navbatida, fanni o'qitish sifati va samaradorligini oshiradi Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish tarix ta'limining sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Innovatsion pedagogik yondashuvlarning tarix ta'limida keng tatbiq etilishi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tarixiy tafakkur va tahliliy yondashuvni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. An'anaviy yondashuvlar bilan solishtirganda, innovatsion metodlar o'quvchilarga faqatgina tarixiy faktlarni yodlash emas, balki ularni tizimli tahlil qilish, sabab-natija munosabatlarini anglash, turli manbalarni solishtirish orqali mustaqil fikr yuritish imkonini beradi. Bu esa yoshlarning tarixiy hodisalarni kengroq kontekstda tushunishlari, tanqidiy tafakkurni rivojlantirishlari va muammolarni o'z-o'zidan hal eta olish ko'nikmalarini shakllantiradi. Bundan tashqari, innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi darslarning qiziqarli va samarali o'tishini ta'minlaydi. Interaktiv metodlar, multimedia vositalari va raqamli texnologiyalar yordamida tashkil etilgan darslar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi, ularning e'tiborini jalb qiladi va o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi. Natijada, tarix fani o'quvchilar uchun nafaqat majburiy fan bo'lib qolmay, balki o'zining mazmuni va uslubi bilan qiziqarli va jalb qiluvchi ta'lim predmetiga aylanadi.

Shuningdek, innovatsion metodlar milliy ong, vatanparvarlik va fuqarolik tuyg'ularini chuqurroq shakllantirishga xizmat qiladi. Tarixiy voqealar va shaxslarning hayoti, ularning millat ravnaqiga qo'shgan hissalari interaktiv usullar orqali taqdim etilganda, yoshlar o'z millatining merosini qadrlash, yurtga sadoqat

va mas’uliyatni his qilish kabi ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarni chuqurroq anglaydilar. Bu jarayon ta’limning tarbiyaviy funksiyasini kuchaytirib, jamiyatda fuqarolik faolligi va milliy birdamlikni mustahkamlashga hissa qo‘shadi.

Shunday qilib, zamonaviy innovatsion yondashuvlarning tarix ta’limiga tatbiqi nafaqat fan sifatini oshirish, balki yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish, ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Xulosa

Zamonaviy tarix ta’limini innovatsion asosda tashkil etish bugungi kunda ta’lim tizimining eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Innovatsion yondashuvlarning tatbiqi nafaqat tarix fanining o‘quv jarayonidagi samaradorligini oshirish, balki o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tanqidiy tafakkur, tarixiy tafakkur va milliy ongni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, o‘qituvchilarning innovatsion pedagogik kompetensiyasini doimiy ravishda oshirib borish ta’lim sifatini yaxshilashda muhim omildir. Bu esa o‘z navbatida innovatsion yondashuvlarni samarali joriy etishni ta’minlaydi. Shunday qilib, zamonaviy innovatsion yondashuvlarni tizimli va izchil joriy etish tarix ta’limining sifatini oshirish, yoshlarning tarixiy bilimlari va milliy ongini yanada mustahkamlash, shuningdek, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Karimov I.A. *Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – B. 25

2. Yusupov A.A**.** *Pedagogik innovatsiyalar asoslari: o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: TDPU nashriyoti, *2019. – 180 b.*

3. Xolbekov M.X. *Tarixni o‘qitish metodikasi: o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2018. – 240 b.

4. Qo‘chqarov O., Tursunova G. *Pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar: o‘quv qo‘llanma.* – Toshkent: TDPU nashriyoti, *2021.*

ОНТОЛОГИИ КАК ИНСТРУМЕНТ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ЗНАНИЙ В СИСТЕМАХ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

Umurzakova Kommuna Xursanovna

u.kommuna@jmail.com

Кокандский университет, *в. б.* доцент кафедры «Социальных наук»

Аннотация: Онтологии играют ключевую роль в формализации и представлении знаний в системах искусственного интеллекта. В статье

рассматриваются принципы построения онтологий, их структура, языки описания (OWL, RDF), а также область применения в интеллектуальных системах. Приведён анализ сравнительных характеристик онтологий и других моделей представления знаний. Особое внимание уделено применению онтологий в образовании, медицине и цифровом управлении. Обоснованы проблемы стандартизации, интероперабельности, автоматизации извлечения знаний и перспективы дальнейшего развития онтологических моделей в ИИ.

Ключевые слова: *онтология, представление знаний, OWL, RDF, семантический веб, искусственный интеллект*

Abstract: Ontologies play a key role in the formalization and representation of knowledge in artificial intelligence systems. This article discusses the principles of ontology construction, their structure, description languages (OWL, RDF), as well as their application areas in intelligent systems. A comparative analysis of ontologies and other knowledge representation models is presented. Special attention is given to the use of ontologies in education, medicine, and digital governance. The issues of standardization, interoperability, automation of knowledge extraction, and prospects for further development of ontological models in AI are substantiated.

Keywords: *ontology, knowledge representation, OWL, RDF, semantic web, artificial intelligence.*

Введение: Современные интеллектуальные системы, построенные на основе искусственного интеллекта (ИИ), требуют строгой формализации знаний. Успешная реализация таких задач, как автоматическое рассуждение, обучение, планирование и семантический поиск, невозможна без чёткой структуры представления информации. Одним из эффективных способов является применение онтологий — формализованных моделей предметной области, отражающих концепты и связи между ними. Онтологические подходы получили широкое распространение в разработке экспертных систем, интеллектуальных агентов, адаптивных образовательных технологий и цифрового управления [1, с. 81; 2, с. 98].

Основная часть: Онтологии в системе моделей представления знаний Онтологии занимают центральное место среди формальных моделей представления знаний, благодаря своей способности систематизировать информацию в логически согласованной структуре. В отличие от семантических сетей, где акцент делается на реляционной модели, и продукционных правил, представляющих процедурные знания, онтологии обеспечивают декларативное описание знаний, что позволяет системе

выполнять логический вывод и интерпретировать новые факты на основе уже имеющихся связей.

Типичная структура онтологии включает:

- ✓ Классы (concepts) — абстрактные сущности предметной области;
- ✓ Индивиды (instances) — конкретные представители классов;
- ✓ Свойства (relations, attributes) — бинарные связи между классами и индивидами;
- ✓ Аксиомы и ограничения — логические утверждения, регулирующие интерпретацию модели [2, с. 100].

Такая структура поддерживает иерархическое наследование, агрегирование и описание семантики понятий, что делает онтологии незаменимыми в построении масштабируемых ИИ-систем. Языки и инструменты разработки онтологий. Для описания онтологий используются специальные языки, поддерживающие семантическую интерпретацию и логический вывод. Основными из них являются:

RDF (Resource Description Framework) — модель тройки субъект–предикат–объект для хранения фактографических данных;

OWL (Web Ontology Language) — язык, основанный на дескриптивной логике, поддерживает вывод на уровне классов и экземпляров;

RDFS и SKOS — языки для построения простых терминологических словарей и тезаурусов.

Самым популярным средством для создания и визуализации онтологий является Protégé — свободно распространяемое ПО с поддержкой плагинов автоматического вывода, интеграции с SPARQL и возможностью импорта внешних онтологий [3, с. 112].

Сравнительный анализ: онтологии и альтернативные моделиОнтологии обладают рядом преимуществ по сравнению с другими моделями представления знаний:

По сравнению с логикой первого порядка, онтологии более масштабируемы и поддерживают декларативное моделирование на высоком уровне абстракции;

В отличие от семантических сетей, они обладают формальной семантикой, что делает возможным автоматический вывод;

В сравнении с продукционными системами, онтологии позволяют работать не только с правилами, но и с иерархическими отношениями и ограничениями [2, с. 101–103].

Однако они не лишены недостатков — их построение требует экспертных знаний, трудоёмкое и зачастую затруднено при междисциплинарной интеграции. В связи с этим активно развиваются

методы автоматического извлечения онтологий из неструктурированных данных (text mining, NLP) [3, с. 113].

Применение онтологий в интеллектуальных системахОнтологии находят широкое применение в различных сферах искусственного интеллекта:

Образование: интеллектуальные тьюторы (AutoTutor), платформы AIEd, адаптивные обучающие системы, построенные на онтологиях учебных дисциплин, позволяют формировать индивидуальные образовательные траектории и отслеживать прогресс студентов [1, с. 85; 2, с. 110].

Медицина: системы поддержки принятия решений (CDSS), диагностические модели и базы знаний (например, SNOMED CT, Gene Ontology) построены на детально проработанных онтологиях, что обеспечивает высокую точность и объяснимость решений [2, с. 104].

Семантический веб и Интернет вещей: координация устройств и систем на базе единых онтологий позволяет синхронизировать действия «умных» устройств, оптимизировать коммуникацию в киберфизических средах.

Управление знаниями и цифровая трансформация: онтологии применяются для построения корпоративных баз знаний, поддержки проектного управления и анализа больших данных [3, с. 113].

Проблемы и перспективы развития. Несмотря на значительный потенциал, онтологический подход сталкивается с рядом вызовов:

Проблема интероперабельности — отсутствие универсальных стандартов делает трудной интеграцию различных онтологий;

Автоматизация построения — современные ИИ-системы нуждаются в алгоритмах извлечения и обновления онтологий без участия экспертов;

Интеграция с нейросетями — традиционные нейросети слабо интерпретируемы, но их сочетание с онтологиями может повысить объяснимость ИИ [3, с. 114].

Будущее онтологий связано с развитием гибридных систем (symbolic + sub-symbolic AI), нейросемантических моделей и когнитивной аналитики. Такие подходы позволят сочетать логическую строгость с гибкостью самообучающихся алгоритмов.

Заключение: Онтологии представляют собой универсальный и мощный инструмент формализованного представления знаний, обеспечивающий стандартизированное и машиночитаемое описание предметных областей. Их использование позволяет добиться высокой степени логической согласованности, что критически важно для построения непротиворечивых и достоверных интеллектуальных систем. Кроме того,

благодаря интероперабельности, онтологические модели становятся связующим звеном между разнородными источниками данных и системами, что особенно актуально в условиях цифровой трансформации и необходимости интеграции больших объёмов разнородной информации.

Онтологии обладают расширяемостью, позволяя развивать и адаптировать модели знаний по мере изменения требований и появления новых данных. Такая гибкость делает их идеальным решением для построения масштабируемых интеллектуальных систем в различных сферах – от биомедицины и образования до цифрового управления и промышленного Интернета вещей.

С научной точки зрения, онтологии играют ключевую роль в обеспечении семантической интерпретируемости, которая становится всё более актуальной в контексте развития концепции Explainable Artificial Intelligence (XAI). В отличие от "чёрных ящиков" машинного обучения, онтологические модели позволяют объяснять поведение системы, обосновывать принятые решения и формировать доверие со стороны пользователей.

Будущее интеллектуальных технологий во многом зависит от способности интеграции онтологического подхода с методами машинного обучения и анализа данных, что открывает путь к созданию гибридных систем, сочетающих логическую строгость семантических моделей с обучаемостью и адаптивностью нейросетевых архитектур. Такие системы смогут не только автоматически извлекать знания из неструктурированных источников, но и формировать когнитивно обоснованные, контекстно-зависимые решения, обеспечивая высокий уровень автономности и интеллектуальности.

Таким образом, онтологии следует рассматривать не как вспомогательный компонент, а как стратегически важный элемент архитектуры ИИ-систем, способствующий переходу от узкоспециализированного ИИ к универсальным, объяснимым и когнитивным интеллектуальным платформам нового поколения.

Список литературы:

1. Амиров Р.А., Билалова У.М. Перспективы внедрения технологий искусственного интеллекта в сфере высшего образования // Управленческое консультирование. – 2020. – № 3. – С. 80–88.

2. Коровникова Н.А. Искусственный интеллект в образовательном пространстве: проблемы и перспективы // Социальные новации и социальные науки. – 2021. – № 2. – С. 98–113.

3. Yakimchuk A.A. Problems and Possibility of Modern Artificial Intelligence // Актуальные проблемы авиации и космонавтики. – 2020. – Т. 2. – С. 112–114.

4. Gruber, T. R. A translation approach to portable ontology specifications // Knowledge Acquisition. – 1993. – Vol. 5, No. 2. – P. 199–220.

5. Staab S., Studer R. (Eds.). Handbook on Ontologies. – 2nd ed. – Berlin; Heidelberg: Springer, 2009. – 828 p.

YOSHLAR MUOMALA MADANIYATINI SHALKANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Egamberdiyeva Nafisa Mustafayevna
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti

O‘zbek xalqining asrlar davomida o‘zbekkchilikka mos tarzda rivojlangan oilaviy muomala madaniyati bugungi kunda ham o‘zining zalvorliligi bilan ajralib turadi. Undagi har bir axloqiy qadriyatlar farzand tarbiyasida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan muomala madaniyati asosida milliy mentaletga mos voqelik negizida namonyo bo‘ladi. Uning umrboqiy qiyofasini qardosh xalqlar bilan uyg‘unligi muhim sanaladi. “Markaziy Osiyo yoshlari o‘rtasida doimiy muloqot maydonini tashkil etish, qardosh xalqlarning yuksak axloqiy qadriyatlari va beqiyos ma’naviy merosini asrab-avaylash, ularni yanada boyitish va kelgusi avlodlarga bezavol yetkazishga ko‘maklashadi”[1.369]. Biz bu hudud aholisining oilaviy dunyoqarashi bir-biriga yaqin, muomala madaniyati ham uyg‘un ekanligini yosh avlod ongiga singdirishimiz darkor. Jamiyatda mavjud har bir oilaning o‘ziga xos yashash tarzi, ichki sir-sinoatlari asosida o‘z oilaviy ehtiyojlari shakllanadi. Bu, esa, o‘z navbatida oila to‘g‘risida farzandning qarashlari, bilim olishga bo‘lgan intilishidagi oilaviy qadriyatlarga asoslanadi. Xuddi shu tarzda, oila bilan farzandlar, ularning rivojlanishi haqida ma’lumot almashishda ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlikni yaxshilashi muhim hisoblanadi.

Oilaviy munosabatlarning globallashuv jarayonida axloqiy qadriyatlar negizida yosh avlodni tarbiyalash masalalari tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda bir qarashda ahamiyatsiz bo‘lib ko‘ringan, ammo inson ma’naviyatiga qarshi qaratilgan kichik bir yangilik ham borligini unutmaslik kerakki, qadriyatlarni unutish ko‘zga ko‘rinmas bo‘lib tuyulsa ham, kelajakda jamiyatga juda katta zarar keltirishi mumkin. Kesin uni hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydi. Bunday xavf-xatarlarga qarshi kurashda biz doimo ogoh, sezgir, ehtiyotkor bo‘lishimiz kerak. Bunga esa har tomonlama chuqur o‘ylangan, ilmiy

jihatdan yo‘lga qo‘yilgan, doimiy va uzluksiz axloqiy qadriyatlar bilan javob bera olamiz[2.8].

Milliy qadriyatlarning asosi bo‘lgan muomala madaniyati deganda inson xulq-atvorining go‘zalligi, saxovatliligi, oliyjanobligi, va’dasiga vafodorligi, hayoliligi, bilim olishi, donoligi, bag‘rikengligi, odobliligi, ozoda va pokizaligi, qalbining beg‘uborligi, xushmuomalaligi va shu singari insoniy xislatlar tushuniladi. Ota-ona o‘z farzandlari bilan bevosita va bilvosita muloqotda bo‘lib, ularni ma’nan oziqlantirar ekan, eng avvalo, o‘zlari o‘zaro muomala jarayonida namuna bo‘lishlari hamda farzandlarini ko‘proq tinglab, nutqiy layoqatini oshirishga harakat qilishlari so‘ngra o‘z fikrlarini axloq me’yorlariga rioya qilgan holda suhbatga oid hikmatlar, maqollar, hayotiy misollardan keltirib tushuntirishlari juda muhimdir. Insonning eng sof tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oilada ota-onaning qalb qo‘ridan chiqadigan mehr-muhabbati, shirin so‘zi, muomala madaniyati orqali shakllanadi. Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar – ezgulik, olijanoblik, mehr-oqibat va or-nomus kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila muhitida qaror topadi. Shunday ekan, farzandni milliy qadriyatlar asosida jismonan va ma’nan barkamol qilib o‘stirish ota-onaning hayotdagi birlamchivaeng muhim vazifasi hisoblanadi.

Bolaning tug‘ilgan kunidan boshlab ota-ona bo‘ynidagi haq-huquqlari hadisi sharifda shunday bayon qilingan: - tug‘ilganda go‘dakka ism qo‘yish; - imkon bo‘lsa unga aqiqa qilish; - tili chiqqan vaqtdan boshlab unga odob o‘rgatish; - din asoslarini o‘rgatish; - halol va haromning asoslarini o‘rgatish; - kasb-hunar o‘rgatishdir. Haqiqatan ham, jamiyat ijtimoiy hayotida ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan oila turmushida milliy, tarixiy, mehnat, axloqiy - ma’naviy tajribalarning yangi avlodga meros bo‘lib an’analar shaklda o‘tishi yoshlarni tarbiyalaydigan milliy vositaga aylanib qolishi tabiiy bir holdir. An’analarning eng qimmatli jihatlari yoshlarni oilaviy va ijtimoiy hayotga tayyorlashda axloqiy qadriyatlar muhim vosita bo‘lib xizmat qilmog‘i lozimligidir. Jamiyatda “axloqiy munosabatlar ijtimoiy muhitning tarkibiy qismi bo‘lib, u yoshlarni tolerantlikni o‘zlashtirishi hamda ehtiyoj darajasida unga amal qilishi uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Bag‘rikenglik madaniyatining rivojlanishi axloqiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘ladi”[319.]. Bag‘rikenglikning oilaviy an’analar bilan uyg‘unligi yoshlarni yetuk qilib tarbiyalashida xalqning asrdan asrga, ajdodlardan avlodlarga o‘tib kelayotgan axloqiy qadriyatlari mustahkamlansa, yanada mukammalroq, amaliyroq ahamiyat kasb etadi. Chunki oilaviy qadriyatlar o‘zbek xalqi tomonidan qadrlanib, e’zozlanib kelinmoqda va shunday bo‘lib qolaveradi. Oilaviy an’analar muomala madaniyati orqali axloqiy qadriyatlarga aylangandagina ularning ta’lim - tarbiyaviy qadr-qimmati, yoshlarni shakllantirishdagi amaliy ahamiyati yanada

ortadi. Shuning uchun ham axloqiy qadriyatlar yoshlarni tarbiyalashda va oilaviy hayotga tayyorlashda muhim vosita bo‘lib qolaveradi.

Oiladagi muomala madaniyatida ishonch bolalarga o‘z maqsadlariga erishishda yordam berish uchun oila bilan bir jamoa bo‘lib ishlashda katta yordam beradi. Ba’zi bir oilalarning tillari va madaniy qadriyatlari turlicha bo‘lishiga qaramay, qadriyatlarning muomala madaniyatiga sababchi bo‘lishiga olib keladi. Har bir oila o‘z farzandlariga o‘z madaniyati, e’tiqodlari va urf-odatlari doirasida muvaffaqiyat qozonishni o‘rgatadi. Oilada muomala madaniyatining afzalliklari axloqiy qadriyatlarning ustuvorligi, majburiyatlarni birgalikda umumiy hal etishi bilan bog‘liqdir.

Oilada har bir a’zoning hurmat, o‘zini qulay his qilishi uchun to‘g‘ri muomala madaniyati zarur. Farzandlar bilan oilada mustahkam mazmunli axloqiy munosabatlarni o‘rnatish qadriyatlarni bilishdan boshlanadi. Ularning qiziqishlari, merosi va madaniyati, ehtiyojlari va farzandlariga bo‘lgan umidlari va orzularini hurmat bilan o‘rganish, bu axborotlardan muomala madaniyatini oshirish uchun foydalanish muhimdir. Oila davrasida muloqot qilishda bir-birlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, bolalarning oilaga hamisha xuddi shunday munosabatda bo‘lishni yo‘lga qo‘yish, oiladagi maxfiylikni saqlash, oiladaning shaxsiy daxlsizlik huquqini hurmat qilishda ota-onaning roli katta.

Oilada muloqot qilishda ehtiyotkor bo‘lish, ular bilan axborot almashishda farzandning rivojlanishini tushunishga yordam berishi lozim. Oilaning madaniy va lingvistik kelib chiqishini hisobga olish, har doim oilaviy tildan foydalanishda jargonlardan, jumladan, oilaga tushunmaydigan atamalar, qisqartmalar foydalanish yaxshi samara bermaydi.

Bolalar o‘sib, maktab yoshiga yaqinlashganda, oila va mutaxassislar ko‘pincha maktabga tayyorgarlik haqida gapirishadi. Oilada farzandining bolalar bog‘chasiga tayyor ekanligi haqida yoki uning xulq-atvori va hokazolar ham asosiy rol o‘ynaydi. Ko‘pincha maktab tumanlari va jamoalari o‘qituvchilar va oiladaga bolaning bolalar bog‘chasiga o‘tishga tayyor yoki yo‘qligini aniqlashga yordam berish uchun bir necha test yoki jarayonlarini ishlab chiqadi. Maktabga tayyorgarlik nafaqat bolalar va ularning qobiliyatlari yoki rivojlanish bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Oilada bolani maktabga borishini rag‘batlantirish barcha bolalarga maktab muvaffaqiyatiga yordam beradigan imkoniyatlardan foydalanish lozim. Bolalarning individual farqlariga javob berish va bolalar qachon nima qilishlari kerakligi haqida tegishli taxminlarni shakllantirish, oilada ahloqiy qadriyatlarni jamiyat ichida ajrata bilish lozim.

Xulosa qilib aytganda, oilada bolalarning turli qobiliyatlari, madaniy kelib chiqishi, turli shaxsiy tajribalarini oshirishda sharqona qadiryatlar alohida ahamiyatga ega. “Sharq xalqlari pandnomalarida, hikmatlarida shirinso‘zlikning

inson hayotidagi o‘rni beqiyos ekanligi mutafakkirlar nazaridan chetda qolgan emas. Biz ana shu an’analarni davom ettirishimiz, ulardan tegishli xulosalar chiqarishimiz maqsadga muvofiqdir”[4.55]. Shuning uchun bolalarga turli ko‘nikmalarni o‘rgatishda ajdodlarimiz ma’naviyatini alohida e’tiborga olish joizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston – strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. -B.369.
2. Ashikov V. Yeщyo raz o vospitanii // Doshkolnoe vospitanie. – 2005. - №4. – S. 8.
3. Xoliqov Yu.O. O‘zbekistonda bag‘rikenglik madaniyatini rivojlantirishning axloqiy tamoyillari. –Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. -B. 19.
4. Husanov B., G‘ulomov V. Muomala madaniyati. –Toshkent, 2009. -B. 55.

TA’LIM MADANIYATIDA TARIXIY AN’ANALAR VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARNING UYG’UNLIGI

Elmuradova Surayyo Abdijalilovna
Samarqand davlat chet tillar instituti assistent o’qituvchisi
elmurodovasurayyo6@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqola ta'lim madaniyatining rivojlanishida an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirni tahlil qiladi. Maqolada an'anaviy ta'limning ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlarga asoslangan tizimi va zamonaviy pedagogikaning texnologik yangiliklar va innovatsiyalarni o‘z ichiga olgan yondashuvlari o‘rtasidagi farqlar va umumiyliklar ko‘rsatilgan. Bunda an'anaviy ta'limning qat'iy normativlari va zamonaviy ta'limning ijodiy va mustaqil fikrlashni rivojlantiruvchi yondashuvlar o‘rtasidagi dialektik jarayonlar o‘rganilgan.

Kalit so'zlar: *Ta'lim madaniyati, an'anaviy ta'lim, zamonaviy ta'lim, pedagogika, dialektika, ta'lim paradigmalari, ijtimoiy qadriyatlar, texnologiya.*

Kirish

Ta'lim madaniyati insoniyatning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. U nafaqat bilimlarni uzatish va o‘rgatish jarayonini ifodalamoqda, balki biror jamiyatning ijtimoiy, axloqiy va madaniy qadriyatlari bilan bog‘liq hamda bu qadriyatlarni yangi avlodlarga etkazishda asosiy vosita hisoblanadi. Ta'lim madaniyati, albatta, doimiy ravishda o‘zgarib, jamiyatning talab va ehtiyojlariga

moslashadi. Shu bilan birga, an'analar va zamonaviylik o'rtasidagi o'zaro aloqalar ta'lim madaniyatini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy pedagogik yondashuvlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan dialektik munosabatlar jamiyatning ta'limga bo‘lgan yondashuvini shakllantirmoqda. An'anaviy pedagogika ko‘proq ma'lum bir qadriyatlar tizimini saqlab qolishga intilsa, zamonaviy ta'lim esa o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga e'tibor beradi. Bunday ikki qarama-qarshi yondashuvlar o‘rtasida dialektik muvozanatning mavjudligi ta'lim madaniyatini rivojlantirishda o‘ziga xos jarayonni ifodalaydi.

1. An'ana va zamonaviylikning ta'limdagi o‘rni

a) An'ana: Ta'lim madaniyatidagi an'ana, asosan, tarixan shakllangan va ijtimoiy institutlar tomonidan qabul qilingan qadriyatlar, usullar va normativlarga asoslanadi. An'anaviy ta'limda o‘qituvchi dominanta bo‘lib, o‘quvchilar esa passiv ravishda bilimlarni qabul qiladilar. Bu yondashuvda o‘qituvchi ilmiy bilimi va tajribasi orqali o‘quvchini ma'lum bir bilimga o‘rgatadi, lekin o‘quvchining shaxsiy fikrini erkin ifodalashiga kamroq e'tibor beriladi.

An'anaviy ta'limning ijtimoiy jihatidan ko‘rsatiladigan asosiy yutuqlaridan biri — bu yuksak axloqiy qadriyatlarning shakllanishi va o‘quvchilarning jamiyatdagi o‘rni haqida tushunchalar berishdir. Shuningdek, an'anaviy ta'lim madaniy va diniy qadriyatlar bilan uzviy bog‘lanib, tarixiy va milliy merosni saqlashda muhim rol o‘ynaydi.

b) Zamonaviylik: Zamonaviy ta'lim madaniyati esa jahonning tez o‘zgarib borayotgan ijtimoiy, siyosiy va texnologik sharoitlariga mos ravishda rivojlanmoqda. Bu yondashuvda o‘quvchilarning ijodiy va analitik fikrlash qobiliyatlari, mustaqil o‘rganish va innovatsiyalarni yaratishga bo‘lgan qiziqishlar rivojlantiriladi. Zamonaviy ta'limda texnologiya va axborot-kommunikatsiya vositalarining keng qo‘llanilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarga yangi bilimlarni interaktiv tarzda o‘zlashtirish imkonini yaratadi.

Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat bilimlarni berish, balki o‘quvchilarga tahlil qilish, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy mas'uliyatni his qilish va global muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishni o‘rgatishdir. Bu paradigmada o‘qituvchi roli o‘quvchilarning rivojlanishiga yordam beruvchi rahbar sifatida shakllanadi.

2. An'ana va zamonaviylik o‘rtasidagi dialektika.

An'ana va zamonaviylik o‘rtasidagi dialektika, aslida, ta'lim madaniyatining rivojlanishidagi eng muhim jarayonlardan biridir. Bu jarayonda ikki qarama-qarshi yondashuv o‘rtasida uzluksiz o‘zaro ta'sir va rivojlanish sodir bo‘ladi. An'anaviy

ta'lim qadriyatlari yangi pedagogik yondashuvlar bilan birlashib, yangi ta'lim madaniyatini yaratadi.

a) Integratsiya va rivojlanish: An'anaviy ta'lim va zamonaviy pedagogika o‘rtasidagi muvozanatni topish, bu ikki tizimni integratsiya qilishni anglatadi. Masalan, an'anaviy ta'limda o‘qituvchining avtoriteti va o‘quvchilarning ustozga bo‘lgan hurmati saqlanib qolishi kerak, lekin zamonaviy yondashuvlar asosida o‘quvchilarga o‘z fikrlarini erkin ifodalashga imkon berish zarur. Bu dialektika nafaqat an'analar, balki yangi texnologiyalar va metodologiyalarni o‘z ichiga olgan pedagogik yondashuvlarni joriy etishni ham talab qiladi.

Shuningdek, an'anaviy ta'lim tizimlari o‘quvchilarni milliy madaniyatga, tarixiy qadriyatlar va normativlarga hurmat bilan qarashga o‘rgatsa, zamonaviy yondashuvlar global va ijtimoiy jihatdan keng ko‘lamda qarashlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Bu jarayonlarning barchasi ta'lim tizimida mutanosiblik va hamjihatlikni saqlab qolishga yordam beradi.

b) Qarama-qarshilik va yangilanish: Dialektik jarayonlar o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. An'anaviy ta'lim tizimining qat'iy va tuzilgan usullari zamonaviy pedagogik yondashuvlar bilan kurashishga majbur bo‘ladi. Bunda zamonaviy pedagogika tizimi yangi pedagogik metodlarni, ilmiy va texnologik yangiliklarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishni talab qiladi. An'anaviy yondashuvlarga nisbatan yangi pedagogik paradigmaning qabul qilinishi, ba'zi bir qarama-qarshiliklarni keltirib chiqarishi mumkin, ammo bu qarama-qarshiliklar rivojlanish va yangilanish uchun zarur bo‘lgan o‘zgarishlarni amalga oshirishga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, ta'lim madaniyatida an'anaviy va zamonaviy yondashuvlarning birgalikda ishlashi orqali o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va jamiyatdagi o‘rni aniqroq va kengroq tushuniladi. An'anaviy ta'limda shakllangan ijtimoiy qoidalarga asoslanib, zamonaviy ta'lim innovatsion fikrlashni o‘rgatadi.

3. Ta'lim madaniyati va jamiyat

Ta'lim madaniyati nafaqat o‘quvchilarni ta'lim olishga tayyorlash, balki ular uchun axloqiy va madaniy qadriyatlarni yaratish jarayonidir. An'ana va zamonaviylik o‘rtasidagi dialektik munosabatlar ta'lim tizimining yuqori samaradorligini ta'minlash uchun zarur. Bu dialektik jarayon, o‘z navbatida, ta'lim madaniyatining rivojlanishini ta'minlab, yangi va mavjud qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro ta'sirni kuchaytiradi.

Masalan, o‘quvchilarni ta'lim jarayonida faqat bilim olishga o‘rgatish kifoya emas, balki ularga ijtimoiy mas'uliyatni his qilish, axloqiy qadriyatlarni o‘zlashtirish, jamiyatda o‘z o‘rnini topish va global masalalarga yechim izlash kabi ko‘nikmalarni ham berish zarur. Bu jarayonlarda an'ana va zamonaviy pedagogik

yondashuvlarning uyg‘unlashishi jamiyatning kelajagini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa

Ta'lim madaniyati, o‘zining zamonaviylik va an'analarga bo‘lgan bog‘liqligi bilan, o‘quvchilarni nafaqat bilimli, balki jamiyatning faol a'zosi sifatida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. An'ana va zamonaviylik o‘rtasidagi dialektik munosabatlar ta'lim madaniyatini rivojlantirishda, uning o‘zgarishlar va yangilanishlarga moslashuvchanligini ta'minlashda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi. Shu boisdan, ta'lim tizimi har doim o‘zining qadriyatlarini yangilab borishi va ijtimoiy ehtiyojlarga javob berishi kerak.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Ushakov, S. (2012). Ta'lim madaniyatini rivojlantirishda an'anaviy va zamonaviy ta'lim paradigmalarining o'zaro aloqasi. Journal of Education and Society, 17(1), 10-18.
2. Niyozova, G. (2018). Markaziy Osiyo ta’lim tizimidagi pedagogik innovatsiyalar va an’anaviy yondashuvlar. Samarqand davlat universiteti nashriyoti.
3. Tatar, M. (2012). Pedagogik innovatsiyalar va ularning ta’limni rivojlantirishdagi roli. Ta'lim tadqiqotlari, 23(1), 43-50.
4. Elmurodova .S. (2023). Ta'lim taraqqiyotida falsafaning o'rni. Yevroosiyo gumanitar va ijtimoiy fanlar jurnali. www.geniusjournals.org, 19-jild| Aprel, Belgiya.
5. Elmurodova .S. (2022). Ta'lim madaniyati ijtimoiy hodisa sifatida. Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), ISSN: 2776-0979, 3-jild, 5-son, may, - Indoneziya. P. 2087-2090 (№23; SJIF: 7.565).

ZAMONAVIY SHAROITDA NIQOBLANGAN YUZNI TANIB OLISH MUAMMOLARI VA ULARNING TEXNOLOGIK YECHIMLARI

Malikov Ruslan Raufovich
SamDCHTI, Ingliz filologiyasi
va tarjimashunoslik fakulteti
“Gumanitar fanlar va axborot
texnologiyalari” kafedrasi assistanti

Annotatsiya

Hozirgi kunda jamoat joylari, xususan, ta’lim muassasalariga - institutlarga kirishda xavfsizlikni ta’minlash maqsadida sun’iy intellektga asoslangan kuzatuv tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Ammo pandemiyadan keyingi davrda niqob taqish odatiy holga aylangani bois, yuzni tanib olish tizimlari oldida yangi muammolar yuzaga keldi. Ushbu maqolada niqoblangan yuzni aniqlashda paydo bo‘ladigan

texnik qiyinchiliklar, ayniqsa institutga kirishda yuzni avtomatik tanib olishda yuzaga keladigan aniqlik pasayishi masalalari tahlil qilinadi.

Shuningdek, Convolutional Neural Network (CNN) arxitekturalari asosida ishlovchi sun’iy intellekt modellarining niqoblangan yuzlarni samarali aniqlash imkoniyatlari o‘rganiladi. Real vaqtda ishlovchi kameralar yordamida to‘plangan ma’lumotlar asosida model natijalari tahlil qilinib, niqoblangan yuzni aniqlashda aniqlikni oshirish bo‘yicha texnologik takliflar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari xavfsizlik tizimlarini takomillashtirishda, ayniqsa oliy ta’lim muassasalari uchun muhim ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *niqoblangan yuz, sun’iy intellekt, yuzni tanib olish, institutga kirishda xavfsizlik, kuzatuv kamerasi, CNN (Convolutional Neural Network), biometriya, real vaqtda aniqlash, yuzni rekonstruksiya qilish, kompyuter ko‘rish.*

Kirish

So‘nggi yillarda sun’iy intellekt va biometriya sohasidagi taraqqiyotlar yuzni tanib olish texnologiyalarini hayotimizning ajralmas qismiga aylantirdi. Xususan, institutga kirishda xavfsizlikni ta’minlash, ruxsatsiz kirishlarning oldini olish, hamda talabalarning monitoringini olib borishda kuzatuv kameralariga o‘rnatilgan avtomatik tanib olish tizimlari keng joriy qilinmoqda. Biroq COVID-19 pandemiyasidan so‘ng jamoat joylarida niqob taqish majburiyati yuzni tanib olish tizimlarida muhim muammolarga sabab bo‘ldi. Shaxsning yuzi qisman berkitilgan holatda an’anaviy algoritmlar noto‘g‘ri yoki noaniq natijalar berishi mumkin.

Ushbu maqolada niqoblangan yuzni tanib olishda duch kelinayotgan zamonaviy muammolar, ularning asosiy sabablari, va texnologik yechimlar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, Convolutional Neural Network (CNN) modellaridan foydalanish, kompyuter ko‘rish algoritmlari, yuzni rekonstruksiya qilish texnologiyalari va real vaqtda ishlash imkoniyatlari o‘rganiladi.

1. Yuzni tanib olish texnologiyalarining rivojlanishi

Yuzni tanib olish (Face Recognition) texnologiyalari dastlab oddiy geometrik xususiyatlar (masalan, ko‘zlar orasidagi masofa, burun uzunligi) asosida ishlagan. Ammo bugungi kunda bu tizimlar chuqur o‘rganish (deep learning) yondashuvlari orqali yuqori darajada aniqlik kasb etmoqda.

CNN (Convolutional Neural Network) - chuqur neyron tarmoq arxitekturasi bo‘lib, aynan tasvirni tanib olish, qirralarni ajratish, va ob’ektlarni aniqlashda katta rol o‘ynaydi. Bu model yuzdagi yuzlab xususiyatlarni o‘z ichiga olgan qatlamli struktura orqali o‘rganadi va niqobli holatlarda ham tanish imkonini beradi.

2. Niqoblangan yuz: Yuzaga kelgan muammo

2.1. Fizik to‘siq

Yuzni tanib olish tizimlari odatda ko‘z, burun, og‘iz, iyak kabi asosiy belgilarga tayanadi. Niqob taqilganda bu elementlarning 50–70% gacha qismi bekitiladi. Bu esa tizimning aniqlik darajasini 20–40% gacha kamaytiradi.

2.2. Biometrik buzilish

Biometrik identifikatsiyada to‘liq yuzning tahlili kerak bo‘ladi. Niqob biometriyaning an’anaviy mexanizmini izdan chiqaradi. Bu holat ayniqsa institutga kirishda o‘rnatilgan avtomatik kirish tizimlarida muammo tug‘diradi.

2.3. Sun’iy intellektga bo‘lgan ishonch

Ko‘plab tashkilotlar, jumladan oliy ta’lim muassasalari sun’iy intellektga to‘liq tayanmoqda. Biroq niqobli holatlar bu tizimlarning ishonchliligiga putur yetkazmoqda. Ayniqsa, real vaqtda aniqlash imkoniyati pasaygan hollarda bu muammoli holatga aylanadi.

3. Texnologik yondashuvlar: muammoga yechimlar

3.1. CNN modelini qayta o‘qitish (retraining)

Niqobli yuzlarning katta hajmdagi ma’lumotlar to‘plami asosida CNN modellarini qayta o‘qitish orqali modelga yangi sharoitlarga moslashish imkoniyati yaratiladi. Masalan, MaskedFace-Net va RMFD (Real-world Masked Face Dataset) kabi to‘plamlar ishlatiladi.

3.2. Ko‘z sohasini ajratib tanib olish

Yuz to‘liq bo‘lmaganda, ko‘zlar atrofidagi belgilarni chuqur tahlil qilish orqali tanib olish aniqligi saqlanadi. Bu yondashuv partial face recognition deb nomlanadi.

3.3. Yuzni rekonstruksiya qilish

Kompyuter ko‘rish yondashuvlari yordamida niqoblangan yuzning pastki qismini tiklashga harakat qilinadi. Bunda GAN (Generative Adversarial Networks) kabi modellar yordamida taxminiy yuz shakli tiklanadi.

3.4. Termal kameralar bilan integratsiya

Kameralar nafaqat optik, balki termal tasvir asosida ham ishlashi mumkin. Haroratga asoslangan aniqlash texnologiyasi orqali niqob ostidagi yuz tuzilmalari haqida ma’lumot olish imkoniyati mavjud.

3.5. Ko‘p faktorli autentifikatsiya

Bitta biometrik omilga emas, balki bir necha identifikatorlarga tayanuvchi tizimlar - masalan, yuz + ovoz, yuz + RFID karta - orqali aniqlikni oshirish mumkin.

4. Institutga kirishda qo‘llanilishi: real misollar

O‘zbekiston va boshqa davlatlar tajribasida oliy ta’lim muassasalariga kirishda kamera orqali shaxsni avtomatik aniqlash tizimlari bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda. Misol uchun, ba’zi universitetlarda kirish nazorati kamerasi CNN asosida ishlaydi va talabaning rasmiy suratini niqobli holat bilan qiyoslaydi.

Biroq, ko‘p hollarda:

- ✓ *Ko‘rish burchagi noqulay bo‘lsa,*
- ✓ *Yorug‘lik yetarli bo‘lmasa,*
- ✓ *Niqob sifati turlicha bo‘lsa,*

tizim aniqlikni yo‘qotadi yoki umuman aniqlamaydi.

Shu sababli, mahalliy universitetlarda tizimni moslashtirish bo‘yicha loyihalar amalga oshirilmoqda: modelni qayta o‘qitish, sifatli kamera o‘rnatish, foydalanuvchi moslamalarini sozlash va xatoliklarni avtomatik tuzatish algoritmlari ishlab chiqilmoqda.

5. Etik va huquqiy jihatlar

Yuzni tanib olish texnologiyalarining keng qo‘llanilishi, ayniqsa niqobli holatda shaxsni aniqlash:

- ✓ *Shaxsiy daxlsizlik (privacy),*
- ✓ *Ma’lumotlar xavfsizligi,*
- ✓ *Raqamli kuzatuvning chegaralari,*

kabi muhim etik savollarni tug‘diradi. Bunday tizimlar orqali to‘plangan biometrik ma’lumotlar maxfiy saqlanishi, ruxsatsiz tarqatilmasligi va shaffoflik tamoyillariga asoslangan bo‘lishi lozim.

Shuningdek, shaxsni tanib olishda noto‘g‘ri natijalar diskriminatsiyaga olib kelmasligi uchun algoritmlarning adolatli ishlashi muhim ahamiyat kasb etadi.

6. Kelajakdagi yo‘nalishlar

Yaqin yillarda quyidagi texnologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi:

Self-supervised learning yordamida modelni etiketlanmagan ma’lumotlar bilan o‘rganish.

Edge computing orqali kameraning o‘zida ma’lumotni tez tahlil qilish.

3D yuz modellarini yaratish orqali niqobli yuzlarni ko‘p burchakdan aniqlash.

Etik algoritmlarni ishlab chiqish: Sun’iy intellekt algoritmlarining adolatli va shaffof ishlashini nazorat qilish.

Xulosa

Niqoblangan yuzni tanib olish masalasi zamonaviy texnologiyalarning dolzarb muammolaridan biridir. Ayniqsa, institutga kirishda xavfsizlikni ta’minlashda bu muammo o‘zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. CNN asosidagi chuqur o‘rganish tizimlari, kompyuter ko‘rish, yuzni rekonstruksiya qilish kabi yondashuvlar bu muammoga texnologik yechim taklif etmoqda. Shu bilan birga, etik va huquqiy masalalarning ham e’tibordan chetda qolmasligi lozim.

Kelajakda sun’iy intellektga asoslangan yuzni aniqlash tizimlari yanada aniq, adolatli va ishonchli bo‘lishi uchun ilmiy-texnik va ijtimoiy yondashuvlar uyg‘unligida ishlash muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Anwar, S., & Raychowdhury, A. (2020). Masked face recognition for secure authentication. arXiv preprint arXiv:2008.11104. https://doi.org/10.48550/arXiv.2008.11104
2. Wang, Z., Qian, Y., Zhang, X., & Zhang, Z. (2021). Masked Face Recognition Dataset and Application. Proceedings of the IEEE/CVF International Conference on Computer Vision Workshops (ICCVW), 2021, 238–246.
3. Kumar, A., & Singh, R. (2021). Face mask-aware deep learning for biometric face recognition. Multimedia Tools and Applications, 80(9), 14033–14050. https://doi.org/10.1007/s11042-020-10167-9
4. Deng, J., Guo, J., Xue, N., & Zafeiriou, S. (2020). ArcFace: Additive Angular Margin Loss for Deep Face Recognition. IEEE/CVF Conference on Computer Vision and Pattern Recognition (CVPR), 4690–4699. https://doi.org/10.1109/CVPR.2019.00482
5. Ge, S., Li, J., Ye, Q., & Luo, Z. (2021). Detecting Masked Faces Using Modified RetinaNet. Proceedings of the 15th IEEE International Conference on Automatic Face and Gesture Recognition (FG 2020), 288–295.
6. Qorayev, B. M. (2022). Sun’iy intellekt asosida yuzni aniqlash texnologiyalarining xavfsizlikdagi roli. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Axborotlari, 3(98), 52–58.
7. Omonov, M. R., & Toshpulatova, D. N. (2023). Kompyuter ko‘rish va biometriyada CNN modellarining qo‘llanilishi. Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti Ilmiy jurnali, 2(34), 77–83.
8. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep Learning. MIT Press.
9. Zhang, K., Zhang, Z., Li, Z., & Qiao, Y. (2016). Joint face detection and alignment using multitask cascaded convolutional networks. IEEE Signal Processing Letters, 23(10), 1499–1503. https://doi.org/10.1109/LSP.2016.2603342
10. Li, Y., & Song, J. (2021). Real-time face recognition using mobile camera with masked faces: A case study in university access control. Journal of Intelligent & Fuzzy Systems, 41(2), 1991–1999. https://doi.org/10.3233/JIFS-202123

TASK-BASED LEARNING IN ENGLISH CLASSROOMS

Boliqulova Muxlisa Nomoz qizi
Samarkand State Institute of Foreign Languages
Faculty of English Philology and
Translation Studies 3rd stage student
muxlisaboliqulova2104@gmail.com

Abstract

Task-Based Learning (TBL) has emerged as an effective methodology in English language instruction, emphasizing the use of meaningful, real-world tasks to develop communicative competence. This approach shifts the focus from traditional grammar-centered teaching to learner-centered activities that promote interaction, problem-solving, and collaboration. The current study explores the theoretical foundations of TBL and examines its practical implementation in English classrooms, particularly in higher education settings. Drawing on relevant pedagogical frameworks and classroom observations, the paper analyzes how task-based strategies can enhance language acquisition, motivation, and learner autonomy. Additionally, the article discusses potential challenges faced by educators and offers methodological recommendations for effective integration of TBL into English philology curricula.

Keywords: Task-Based Learning, language teaching methodology, English classrooms, communicative competence, learner-centered approach, higher education, anguage acquisition, educational tasks, English philology.

Introduction

In the field of foreign language education, the emphasis on communicative competence has led to the development of innovative teaching methodologies that move beyond traditional, form-focused instruction. One such approach is Task-Based Learning (TBL), which has become a significant area of interest in applied linguistics and language pedagogy. TBL is grounded in the communicative language teaching framework and prioritizes meaningful interaction through the completion of authentic tasks, rather than isolated linguistic drills or memorization of grammar rules. This learner-centered methodology reflects a shift toward more naturalistic, process-oriented learning, where language is acquired through purposeful communication.

The central principle of TBL is the use of real-world tasks as the core unit of planning and instruction. These tasks engage learners cognitively and socially, requiring them to use language functionally to achieve specific outcomes. In the context of English language instruction, particularly within philological programs in higher education, TBL offers a platform for integrating speaking, listening, reading, and writing skills while fostering critical thinking, autonomy, and

collaborative learning. It aligns with current educational goals that advocate for competence-based teaching and practical language application.

Despite the pedagogical value of TBL, its implementation in English classrooms presents certain methodological challenges. These include task design, time management, student readiness, and assessment practices. This article aims to explore the theoretical foundations, practical benefits, and classroom applications of Task-Based Learning in English language teaching. By reviewing current research and analyzing teaching practices, the study seeks to provide evidence-based recommendations for integrating TBL into philology curricula, ultimately enhancing the effectiveness of English language instruction at the tertiary level.

Materials and methods

This study utilized a quasi-experimental methodology to investigate the impact of task-based learning (TBL) on English language acquisition among EFL learners. Two groups were formed: an experimental group that received instruction through TBL techniques and a control group that followed a conventional, textbook-based curriculum. The purpose was to determine whether task-oriented instructional strategies would lead to measurable improvements in vocabulary development and overall communicative skills.

Instruction for the experimental group was designed around real-world communicative tasks. Lessons included scenario-based role plays, collaborative problem-solving activities, interviews, and information-gap tasks. These were aimed at fostering spontaneous language use and interaction. The control group, in contrast, followed a traditional syllabus centered on grammatical exercises, vocabulary lists, and reading comprehension tasks with limited student interaction.

The study was conducted over a six-week period, during which both groups attended two 90-minute lessons per week. Pre-tests were administered at the beginning of the study to evaluate learners' initial vocabulary and speaking competence. Post-tests were conducted at the end to measure progress and compare results across both groups.

Participants

60 EFL learners participated in the study. All were intermediate-level students enrolled in a university English program. Participants were between 18 and 35 years old and had completed a minimum of two years of formal English study. Random assignment was used to ensure balanced group composition. Learners with prior experience in task-based curricula or with learning impairments were excluded to maintain consistent conditions across the groups.

Instructional materials for the experimental group were developed using authentic content and communicative goals, while the control group used a standardized coursebook and accompanying workbook exercises.

Results

The findings of the study indicate that task-based learning (TBL) had a positive impact on learners' vocabulary acquisition and communicative performance compared to traditional instruction methods. Data were collected through pre-tests and post-tests administered to both groups.

At the beginning of the study, there was no statistically significant difference between the two groups in their vocabulary scores ($p > 0.05$). However, after six weeks of instruction, the experimental group demonstrated a substantial improvement. The mean post-test score for the experimental group increased by 28%, while the control group's scores improved by 14%. Statistical analysis using an independent-samples t-test confirmed that the difference in post-test results was significant ($p < 0.01$), suggesting that the TBL approach was more effective in enhancing vocabulary acquisition.

In addition to vocabulary assessments, learners participated in a speaking task evaluated by two independent raters using a standardized rubric. The experimental group showed greater gains in fluency, accuracy, and interactive competence. Learners in the TBL group used a wider range of vocabulary and demonstrated more spontaneous speech production. The average improvement score was 3.8 out of 5 in the experimental group, compared to 2.5 in the control group.

Qualitative feedback collected through a short questionnaire revealed that students in the TBL group felt more engaged and motivated during lessons. Many noted that they felt more confident using English in practical contexts.

These results support the effectiveness of task-based instruction in fostering language development in EFL settings.

Discussion

The present study highlights the significant impact of Task-Based Learning (TBL) on improving English language learners' vocabulary knowledge and communicative competence. Learners in the experimental group, who engaged in various real-world tasks such as role-plays, problem-solving, and discussions, outperformed those in the control group across both vocabulary and speaking assessments. This suggests that TBL offers a more effective and engaging framework for language acquisition compared to traditional, form-focused instruction.

One of the key explanations for this outcome lies in the nature of tasks themselves. TBL promotes active language use in authentic situations, which stimulates deeper cognitive processing and facilitates long-term retention. Instead of passively learning word lists or grammar rules, learners construct meaning through interaction, negotiation, and problem-solving—all of which mirror real

communicative scenarios. This aligns with the theories of second language acquisition, particularly the interaction hypothesis and the output hypothesis, which stress the importance of meaningful language use in developing proficiency.

In addition, learner motivation appeared higher in the TBL group, as indicated by their positive feedback. This affective factor may have further contributed to improved performance. Motivation and engagement are widely recognized as critical components of successful language learning, and TBL seems to foster both by making lessons more relevant, dynamic, and learner-centered.

Nevertheless, it is important to recognize some limitations. Implementing TBL requires careful planning, appropriate materials, and trained instructors. Without these, the method may lose its effectiveness. Furthermore, while short-term gains were observed, the study did not assess long-term language development.

Benefits of Task-Based Learning

Task-Based Learning (TBL) offers a wide range of pedagogical benefits, particularly in the context of English language instruction. Rooted in the communicative approach, TBL prioritizes language use over language form, which allows learners to acquire English in more natural, meaningful, and interactive ways. Several key advantages of TBL have been observed in both theoretical frameworks and empirical classroom research.

Enhances Communicative Competence

TBL creates opportunities for learners to use language in realistic contexts. Unlike traditional methods that focus heavily on grammar and memorization, TBL enables students to practice speaking, listening, reading, and writing through purposeful tasks. This leads to improved fluency, confidence, and the ability to communicate effectively in various situations.

Promotes Learner Autonomy

By engaging learners in problem-solving and decision-making activities, TBL encourages them to take responsibility for their learning. Students become active participants rather than passive recipients of knowledge, which fosters independent thinking and self-direction—essential skills in modern education.

Increases Motivation and Engagement

TBL often involves creative, collaborative tasks that are relevant to learners' real-life interests and experiences. This relevance, combined with the interactive nature of the tasks, leads to higher levels of motivation and sustained engagement during lessons.

Supports Vocabulary and Grammar Acquisition in Context

Instead of learning isolated vocabulary or grammar rules, students acquire new language through use. This contextualized learning is more memorable and applicable, as it reflects how language is used in real-life communication.

Encourages Collaboration and Social Interaction

Most task-based activities require students to work in pairs or groups, which builds teamwork skills, improves peer learning, and enhances intercultural communication in diverse classrooms.

Conclusion

Task-Based Learning (TBL) has proven to be an effective approach for enhancing vocabulary acquisition and communicative competence among EFL learners. By engaging students in purposeful, real-world tasks, TBL encourages meaningful language use and bridges the gap between theoretical knowledge and practical application. Although challenges such as task design and learner readiness may arise, the benefits of TBL in promoting active learning, collaboration, and retention are clear. Future research should focus on developing adaptable TBL strategies for various classroom settings and proficiency levels to further improve language learning outcomes.

References

1. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching.* Oxford University Press.

2. Karimov, A. A. (2020). *Zamonaviy darsda topshiriq asosidagi yondashuvning o‘rni.* Filologiya va tillarni o‘qitish muammolari, 2(4), 60–65.

3. Littlewood, W. (2004). *The task-based approach: Some questions and suggestions.* ELT Journal, 58(4), 319–326. https://doi.org/10.1093/elt/58.4.319

4. Nunan, D. (2004). *Task-based language teaching.* Cambridge University Press.

5. Rakhmonov, A. (2021). *Ingliz tilini o‘qitishda topshiriq asosidagi yondashuvning samaradorligi.* Filologiya va til o‘qitish muammolari, 3(1), 45–50.

6. Skehan, P. (1996). *A framework for the implementation of task-based instruction.* Applied Linguistics, 17(1), 38–62. https://doi.org/10.1093/applin/17.1.38

7. Willis, J., & Willis, D. (2007). *Doing task-based teaching.* Oxford University Press.

YAPONIYA MILLIY LIBOSLARI. KIMONO

Alimova Shaxrizoda G'olib qizi
SamDCHTI Sharq tillar fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish (yapon tili) yo'nalishi
2-bosqich 2313-guruh talabasi
Alimovashaxrizoda51@gmail.com

Annotatsiya: Kimono – Yaponiyaning eng qadimiy va mashhur an'anaviy libosi bo‘lib, uning tarixi V asr Xitoy madaniyatiga borib taqaladi. Bu kiyim dastlab oddiy yoki zodagonlar liboslarining ichidan kiyiladigan sifatida foydalanilgan, keyinchalik esa barcha tabaqa vakillari orasida keng tarqalgan. Kimononing zamonaviy ko‘rinishi Heyan davrida shakllangan va bugungi kunda ham Yaponiyaning milliy ramzi sifatida ahamiyatli sanaladi. Kimono – inson go‘zalligini va nafisligini ifodalaydi, uni ko‘pincha rasmiy marosimlarda kiyadilar. Yaponiyadagi kimono turlari bir nechta asosiy bo‘limlarga bo‘linadi: Uchikake – yorqin va naqshlar bilan bezatilgan to‘y libosi. Tomesode – turmush qurgan ayollar uchun rasmiy kimono. Furisode – yosh, turmush qurmagan ayollar kiyadigan uzun yengli kimono. Houmongi – yarim rasmiy uchrashuvlar uchun kiyim. Iromuji – oddiy va rasmiy tadbirlar uchun bir rangli kimono. Yukata – norasmiy yozgi kiyim. Ayollar va erkaklar kimono turlari bir-biridan bezaklari, ranglari va kamari bilan farqlanadi. Erkaklar kiyimlari oddiyroq bo‘lib, qora, ko‘k yoki jigarrangdan iborat. Erkaklar va ayollar uchun kimonolarni kiyish tartibi ham o‘ziga xosdir. Kiyimning barcha qismlari – “Obi” kamar, “Tabi” paypoq, “Geta” va “Zouri” poyabzallari milliy an’anaga mos tartibda qo‘llaniladi.

Kalit so'zlari: *Kimono, haregi, uchikake, tomesode, furisode, houmongi, iromuji, yukata, shichigosan.*

Abstract: Kimono is the most ancient and famous traditional clothing of Japan, whose history goes back to the Chinese culture of the 5th century. This garment was originally used as a garment worn by commoners or nobles, and later became common among all classes. The modern look of the kimono was formed in the Heian period and is still considered important as a national symbol of Japan. Kimono represents human beauty and elegance, it is often worn in official ceremonies. Types of kimono in Japan are divided into several main sections: Uchikake - bright and decorated wedding dress. Tomesode is a formal kimono for married women. Furisode is a long-sleeved kimono worn by young, unmarried women. Houmongi is a dress for semi-formal meetings. Iromuji is a monochromatic kimono for casual and formal events. Yukata is informal summer clothing. Types of kimono for women and men differ from each other in terms of decoration, colors and belts. Men's clothes are more simple and consist of black, blue or brown. The order of wearing kimonos for men and women is also unique.

All parts of clothing - belt "Obi", socks "Tabi", shoes "Geta" and "Zouri" are used according to the national tradition.

Keywords: *Kimono, haregi, surihaku, shibori,uchikake, tomesode, furisode, houmongi, iromuji, yukata, shichigosan.*

Kimono juda qadim tarixga ega, Yaponiyaning eng mashxur va an'anaviy libosi hisoblanadi. Bu kiyim dastlab V asrda Xitoy Xanfusida rivojlangan. Kimono atamasi esa XlX asr o'rtalarida Yaponiyaning g'arbiylashuvi boshlanishiga kelib, “Kimono" so'zi har qanday kiyimni ifodalash uchun qo'llangan va “kiyish kerak bo'lgan narsa” degan man'oni bildiradi. Kimono dastlab oddiy odamlar tomonidan kiyiladigan yoki zodagonlarning kiyimi ostidan kiyiladigan libos sifatida kiyilgan. XVl asrdan boshlab kimono ikkala jins va barcha tabaqa vakillari uchun asosiy kiyim vazifasida bo'lgan. Kimononing zamonaviy qiyofasi Heyan davrida (794-1192) keng tarqalgan. Har qanday yoshda kimono insonning ichki go'zalligi va nafosatini namoyon qilish imkonini beradi. Bu kiyim bugungi kunda ham an'anaviy yapon madaniyatining mustahkam timsoli bo’lib qolmoqda. Zamonaviy yapon tilida yapon an'anaviy kiyimlari uchun uchta so'z mavjud:

- ✓ Kimono-Kiyim
- ✓ Vafuku-Yapon kiyimi
- ✓ Gafuku-Xitoycha kiyim

Hozirgi kunda yaponiyaliklar kundalik hayotda kamdan-kam hollarda kimono kiyadilar va ularni はれぎ/haregi (rasmiy kiyim) sifatida to'y marosimlari, dafn marosimlari va universitet bitiruv marosimlarida, choy marosimlari, yozgi festivallar va shu kabi maxsus tadbirlarda milliy kiyim sifatida kiyadilar. Shuningdek, Yaponiyadagi ko'pgina jamoat joylarida ham xizmat qilivchi ayollar kimono kiyib faoliyat olib boradilar. Shu jumladan, Kimononing bir qancha turlari mavjud .

打 掛 /**Uchikake** —Muromachi davrida (1336-1573) ommalashib, rasmiy kimono bo'lib, kelinlik kiyimi sifatida yoki kabuki kabi an'anaviy sahna

ko'rinishlarida foydalaniladi. “ Uchikake" ayollar uchun an'anaviy to'y libosining tashqi qatlamini anglatadi, u ko'pincha qayta tug'ilishni anglatuvchi zamin ranglari sifatida yorqin qizil yoki oq ranglardan foydalaniladi. “Uchikake" kashta tikish bilan bezatilgan bo'lib, ular “shibori" (moviy rangdagi turli tasvirlar) va “surihaku” (matoga oltin yoki kumush ranglardagi ip bilan bezash) kabi turli usullar yordamida bezatiladi. ”Uchikake" nomi うちかける(o'rash) fe'lidan kelib chiqqan bo'lib, XIV asrdagi hukmron sinflar kimonosi sifatida boshqa kimonolardan kamarsiz kimono ekanligi bilan farq qiladi. (おび) Kamar bilan bog'lanilishi shart emasligi sababi, dabdabali naqshlar butun kiyimlarni turnalar, toshbaqalar,qarag'aylar,bambuk,olxo'ri gullari va boshqalar kabi ajoyib tasvirlar bilan qoplanishidir va bosh qismiga oq rangdagi “tsuno kakushi” deb nomlangan bosh kiyim kiygiziladi. Buning ma'nosi ayol kishining rashkini jilovlash va tinchlantirish kabi ma'nolarni anglatadi.

留袖/**Tomesode** — Meiji davrida(1868-1912) yillariga taqalib, turmush qurgan ayollar uchun rasmiy kimono bo'lib, u nikoh marosimlarida va turmush qurayotgan oilaning yaqin qarindoshlari tomonidan ziyofatlarda kiyiladi. “Tomesode" tilla suvi yuritilgan ip va kashta bilan bezatilgan nafis naqshlar bilan ajralib turadi va bunday bezaklar xayrli deb hisoblanib, quvonch va baxt tilaklarini ifodalaydi.

振袖/**Furisode** — Yaponiyadagi yosh, ko’pincha turmush qurmagan ayollar kiyadigan kimononing eng rasmiy turi hisoblanadi. Bu odatda voyaga yetganlik marosimida kiyiladigan kimonodir. Lekin undan ham nikoh marosimlarida, rasmiy kechalarda yoki boshqa marosimlarda, shu

jumladan bitiruv marosimlarida qatnashadigan turmush qurmagan qizlar tomonidan ham rasmiy kimono sifatida ham foydalanish mumkun.” Furisode” an'anaviy, rang-barang naqshlar bilan bezatiladigan uslub bo'lib, ular baxt, omad va uzoq umr ko'rish umidlarini ifodalaydi. Shu sababli, “Furisode" insonning hayotidagi muhim bosqichlarini nishonlash uchun ishlatiladi. “Furisode" Edo davrida yosh ayollar uchun kimononing bir turi sifatida ishlab chiqilgan va bu nom “ uzun yenglar" degan ma'noni ifodalaydi. Bu turdagi kimonolarning yenglari nima uchun bunchalik uzun bo'lganligi haqida turli xil qarashlar mavjud. Bir nazariyaga ko'ra, Yaponiya barqaror davrga kirganidan so'ng, odamlarning madaniyatdan xabardorligi oshib, ko'plab yosh ayollar raqsni o'rganishni boshlashadilar. Uzunroq yenglar raqsga tushganda harakatlarni yanada chiroyli qilgani uchun kimono yenglari uzaytirilgan.

訪問着/**Houmongi** — yarim rasmiy kimono turi bo'lib, naqshlari tikuvlaridan qat'iy nazar etaklari bo'ylab, yelkalari, ko'krak va yenglarida joylashgan bo'lib, uzluksiz, yagona rasm sifatida joylashtiriladi. “Houmongi" –

“tashrif uchun kiyim" degan ma'noni anglatadi va Taisho davrida (1912-1926) Mitsukoshi universal do'koni tomonidan “birovning uyiga tashrif buyurish uchun mos" kimono sifatida sotuvga chiqarilgan. Shu jumladan, “Houmongi" ham turmushga chiqqan, ham turmushga chiqmagan ayollar uchun, shuningdek, teatr tomoshalari, choy marosimlari, uchrashuvlar yoki yangi yil kabi ziyofatlarga kiyiladigan kimono turi husoblanadi. “Houmongi uchun rangi va naqshini tanlash uchun uni kiyadigan mavsumni hisobga olish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolalarning “Shichigosan" (uch, besh, yetti yoshli bolalarning an'anaviy o'tish davrida o'tkaziladigan tadbir) kabi tadbirlar uchun oddiy, kamtarona, yengil naqshli va oq va och rangda tikilgan kimonolar afzal ko'riladi.

色無地/Iromuji — qora yoki oq rangdan iborat, hech qanday naqsh yoki kashta bo'lmagan kimono hisoblanadi, shu bilan birga oddiy va soddaligi bilan boshqa kimonolardan ajralib turadi. U ko'pincha choy marosimlari, shichigosan, kirish va bitiruv marosimlariga qatnashish uchun mos deb hisoblanadi. To'q ko'k yoki kulrang kabi neytral ranglardagisi esa dafn marosimlari uchun kiyiladi.

浴衣/Yukata — Odatda yozda kiyiladigan, paxta, zig'ir yoki kanopdan foydalanib, qisqa yengli va astarsiz tikilgan an'anaviy kimononing bir turi hisoblanadi. “Yukata" barcha yoshdagi ayollar uchun bo'lib, norasmiy hollarda, ryokanda va onsenda qolish uchun, yozgi festivallar va tadbirlarda yoki shunchaki sayr qilishda kiyishlari mumkin. “Yukata" Edo davrida mashxurlikka erishib, ipak matodan tikilgan va hammom uchun mo'ljallangan kiyim turi hisoblanadi. Ipak matoning ho'llanish uchun mos bo'lmagani uchun keyinchalik paxta yoki zig'ir matolaridan tikiladigan bo'ldi.

Erkaklar milliy kimonosi: Erkaklar milliy kimonosi ayollar kimonosidan bir muncha farqli jihatlari mavjud. Jumladan, erkaklar kimonosi ayollarniki kabi bezalmaydi, oddiy va sodda qilib tikiladi. Shuningdek, rangida ham to'q ranglardan, asosan, qora,to'q ko'k yoki jigarrangdan foydalaniladi. Bu kabi kimonolar to'y marosimlari, balog'atga yetish marosimlari va boshqa rasmiy marosimlarda kiyiladigan kimono hisoblanadi. Ayollar kimonolarini asosan naqsh orqali farqlansa, erkaklar kimonolarini odatda material darajasi orqali farqlanadi. Erkaklar kimonosidagi kamar alohida ma'noga ega. Asrlar davomida erkaklar kamarida qurol, biriktirilgan hamyonlar, chekish aksesuarlari va dori qutilari bilan yurishgan. Kengligi 26,8 sm, uzunligi 3,6 metr bo'lgan kamar belga o'ralib, tugun bilan bog'lanadi.

稽古着/Keikogi/(“keiko-mashg'ulot,**gi(ki)**- kastyum,kiyim**”)—**mashg'ulot kiyimi, jang san'ati bilan shug'ullanayotganda kiyiladigan kiyim hisoblanadi. Kimono ko'pgina tarkibiy qismlardan iborat, shu sababli kiyish tartibi ham ozmuncha qiyinchilik tug’dirishi tabiiy hol hisoblanadi.

帯/Obi /(“kamar”)— kimono ustidan erkaklar ham ayollar ham kiyadigan yapon kamari hisoblanadi.

袴/Hakama — belga o'raladigan mato bo'lagi, uzun, keng qirrali shimlar, an'anaviy ravishda norasmiy sharoitda erkaklar tomonidan ba'zi jang san'tlarida milliy libos sifatida kiyiladi.

旅 / Tabi — bosh barmoq bo'linmali paypoq. Milliy poyabzal sifatida kiyiladi.

An'anaviy ravishda oq rangli, zich materialdan tayyorlangan.

下駄/Geta— ikkala oyoq uchun bir xil shaklda bo'lgan yapon yog'ochdan yasalgan sandal turi.

草履/Zouri— milliy poyabzal turi, milliy marosim libosining ajralmas qismi. To'pig'i bo'lmagan, ammo to'pig'igacha qalinlashgan sandal turi hisoblanadi. Ular charm, somon, sintetik materiallardan tayyorlanadi.

Yapon kimonosini kiyish tartibi: Dastlab tananing yuqori qismiga mo'ljallangan maxsus xalat shaklidagi kiyim “Xadadjuban" kiyiladi va shundan so’ng, tananing pastki qismiga mo'ljallangan yubka ko'rinishidagi “Sosoyake" kiyiladi. Shu bilan birga kimono uzunligi bilan baravar uzunlikdagi libos “Nagadjuban" kiyilib, maxsus belbog’ "Datejime" bilan bog'lanadi. Kimono kiyilgandan so'ng orqa qismiga “Obi” deb nomlanuvchi maxsus qo'shimcha bezak qilinadi. Oyoqqa “Tabi" deb nomlanuvchi paypoq kiyilib, “Zouri" deb nomlanuvchi kimono uchun mo'ljallangan maxsus oyoq kiyim kiyiladi.

Xulosa. Kimono — yapon madaniyatining eng qadimiy va ramziy libosi bo‘lib, uning tarixi V asr Xitoy madaniyatiga borib taqaladi. Dastlab kundalik hayotda oddiy kiyim sifatida kiyilgan kimono asta-sekin jamiyatning barcha qatlamlari, ayniqsa zodagonlar orasida keng tarqalgan. Heyan davrida kimononing zamonaviy qiyofasi shakllangan va bugungi kunda ham Yaponiyaning milliy ramzi sifatida an’anaviy madaniyatini aks ettiradi. Bugungi kunda kimono asosan rasmiy va marosimlarda, masalan, to‘y, dafn va bitiruv marosimlarida kiyiladi. Kimononing har bir turi va bezagi qadriyat, orzu, omad, baxt tilaklarini aks ettiradi. Yapon an’analari bilan boyitilgan bu libos bugungi kunda ham o‘zining estetik go‘zalligi va nafosati bilan alohida o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hencho-sha = Omori kazuo Omori Hiroko kokusai koryu kenkyujo, 2018. Irasuto Nihon marugoto jiten. Yaponiya: Kodansha intanashonaru kabushikigaisha
2. An Illustrated guide to Japanese Traditional Clothing and Performing Arts. 2017 ISBN 978-4-473-04195-1.
3. Ichida 2017

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ: ОТ ОБУЧЕНИЯ ГРАМОТЕ К НАЦИОНАЛЬНОМУ ПРОБУЖДЕНИЮ

Бегбудиева П.Ш.
Соискатель кафедры английского языка
Самаркандский государственный
институт иностранных языков
e-mail: parvinabegbudieva@gmail.com

Маҳмудхожа Бехбуди всю свою деятельность посвятил просвещению нации, направленной на распространение научных знаний и образования. Для этого он занимался расширением сети школ с новой методикой (усули жадид), создавал учебные программы и учебники, обеспечивал учащихся учебными пособиями, а также организовывал библиотеки и издательства. В период с 1904 по 1909 годы им были созданы учебники на узбекском и таджикском языках, такие как «Рисолаи асбоби савод» (1905), «Рисолаи жугрофияи умроний» (1905), «Рисолаи жугрофияи Руси» (1905), «Китобатул-атфол» (1908), «Амалиёти ислом» (1908), «Тарихи ислом» (1909).

Обучение грамоте начинается с алфавита. Поэтому педагоги-джадиды придавали первоочередное значение созданию учебников по алфавиту для школ, функционирующих по методу усули савтия. Маҳмудхожа Бехбуди на основе данной методики первым в регионе Туркестана создал учебник по алфавиту под названием «Рисолаи асбоби савод», написанный на таджикском языке. Автор перед печатью провел годичные испытания пособия в школе Абдукодира Шакури, во время которых внес некоторые изменения в алфавит В итоге в 1905 году учебник был издан в Самарканде. В предисловии к своему произведению Маҳмудхожа Бехбуди пишет: «Уважаемые директора школ, учителя, наставники и ученики! Настоящее пособие под названием «Асбоби савод» предназначено для быстрого обучения чтению и письму и было несколько раз протестировано. Мой семилетний сын Масудхожа тоже прошёл обучение по этому пособию и достиг совершенства. Учитель новой методики Абдукодир в течение трёх месяцев проводил занятия с этим учебником и отметил, что новая методика значительно превосходит старую, которая считается более сложной. Уважаемые учителя, прошу вас использовать наш учебник «Асбоби савод». Пусть Аллах поможет вам!».[1,25]

Данный алфавит многократно издавался как основной учебник для таджикоязычных школ нашей Родины и продолжал использоваться в школах Бухары и Самарканда даже после Октябрьской революции. В конце своего произведения автор приводит образцы каллиграфии с целью обучения письму.

Одним из важных учебников Махмудходжи Бехбуди является «Китобатул-атфол». Что касается названия книги, некоторые исследователи переводят его как «Книга для детей», «Письменная книга для детей» или «Детская книга». Однако такое название не отражает цель автора и содержание книги, поскольку слово «китобат» в словарях переводится как «письмо», «послание», «рукопись». Поэтому целесообразно переводить этот учебник как «Письма детей». В книге подробно рассматриваются вопросы обучения детей написанию официальных, неофициальных и личных писем, развития письменной речи, приведены образцы красивых писем различного содержания и назначения. В предисловии учебника подчёркивается, что в традиционных школах Туркестана проблема развития письменной речи учащихся была в крайне плачевном состоянии, и отсутствовали пособия для обучения сочинению, что и побудило автора к написанию данного произведения.

Этот учебник, во-первых, ставит перед собой задачу научить молодёжь вести делопроизводство на узбекском языке в различных государственных учреждениях, а во-вторых, обращает внимание педагогов на одну из важнейших проблем — развитие письменной речи учащихся: «…ученики, поступившие в начальную школу и начавшие пользоваться пером, постепенно, посредством обучения письму и сочинению как современному, так и местному литературному языку, доводят свои знания до совершенства. Мы, следуя данному правилу, публикуем комплексный учебник по письму и сочинению для детей Родины, который включает в себя официальные и личные письма, а также различные документы (включая дознания, протоколы, справки и официальные письма), используемые в туркестанских религиозных и государственных учреждениях, в том числе у мусульманских и нерусских управляющих (например, у сельских начальников). Мы начинаем публикацию с этого учебника «Китобатул-атфол»… Уважаемые учителя, давая школьникам отдельные письма из этого учебника, объясняйте значение каждого слова и предложения, учите и проверяйте их знания».

Махмудходжа Бехбуди был выдающимся просветителем и реформатором, внесшим значительный вклад в образование жителей Туркестана благодаря своей уникальной методике и тщательно разработанным программам. Он создавал азбуки и учебники, лично тестировал их в школах, чтобы обеспечить их эффективное применение. Его научная и практическая деятельность сыграла важную роль в распространении знаний и просвещения в обществе того времени.

Бехбуди был сторонником гармоничного сочетания религиозных и светских знаний. Если глубже проанализировать его вышеприведённые слова,

нетрудно заметить, что мыслитель рассуждает о подготовке высокообразованных специалистов. Для воспитания таких специалистов он, прежде всего, подчёркивал необходимость в совершенстве владеть не двумя, а четырьмя языками – «арабским, русским, тюркским и персидским»

В 1909 году в газете «Туркестанские ведомости» была опубликована статья под названием «Нужно ли женщинам образование?», принадлежащая перу Файзуллы афанди из Коканда. Эта статья вызвала немало споров и дискуссий. Автор статьи просит известных литераторов – Фазыла Муллу Алима Махдума и Махмудходжу Бехбуди афанди – выразить свое мнение по этому вопросу.

В ответ на это Бехбуди написал статью под заголовком «Ответ Файзулле афанди». В ней автор, приводя хадис о том, что «каждому мусульманину и мусульманке предписано получать знания», заключает:«…для исполнения шариатских предписаний нежным созданиям (женщинам)нет иной причины, кроме знания и учебы, и что утверждение и полное исполнение этих предписаний – это учеба, и что женщинам нужно учиться, это признает каждый, кроме слепого или лицемерного фанатика, мой друг».[4,67]

М. Бехбуди продолжил высказывать свои мысли о роли женщин в обществе и их образовании в газете «Самарканд». Свою дочь Парвин он отдал в новометодную школу Абдукодира Шакури, обучил ее всем наукам, а также нанял специального учителя для углубленного изучения французского языка. Парвин Бехбуди (1901-1984) долгие годы преподавала французский язык в школе.

Таким образом, просветительские усилия Махмудходжи Бехбуди прочно утвердились в национальной системе образования и стали ценным источником знаний для будущих поколений. Так же деятельность Махмудходжи Бехбуди сыграла ключевую роль в развитии системы образования и просвещения в Туркестане начала XX века. Его инновационные учебники и методика «усули савтия» значительно способствовали распространению грамотности и улучшению качества обучения. Созданные им учебные пособия стали основой для многих школ региона и использовались даже после Октябрьской революции, что свидетельствует о значительном и долгосрочном влиянии его педагогического наследия. Вклад Бехбуди в образование остаётся важным этапом в истории развития национального просвещения и культуры.

Махмудходжа Бехбуди сыграл ключевую роль в образовательных преобразованиях региона Туркестана, посвятив всю свою деятельность развитию просвещения, науки и культуры. Его вклад в создание и

распространение учебных материалов на узбекском и таджикском языках, а также в организацию методики усули жадид стал фундаментом для модернизации системы образования. Учебники, такие как «Рисола асбоби савод» и «Китобатул-атфол», не только способствовали быстрому освоению грамоты и развитию письменной речи у детей, но и отражали стремление к культурному возрождению и национальному самоосознанию. Историческая значимость Бехбуди заключается в том, что его педагогическая деятельность проложила путь для дальнейшего прогресса образования и науки в Центральной Азии, а его методические новшества остаются важным этапом в истории регионального образования.

Список использованной литературы:

1. Танланган асарлар (Б.Қосимов таҳрири остида). “Ма`навият”, Тошкент, 1998.
2. Қосимов Б. Маслакдошлар. “Шарқ” нашриёт-матбаа консернининг бош таҳририяти. Тошкент, 1994.
3. Турдиев Ш. “Падаркуш” фожиаси ҳақида“, “Шарқ юлдузи”, 1989, 5-сон.
4. Қосимов С. Беҳбудий ва жадидчилик. “О`збекистон адабиёти ва сан`ати”, 1990, 3-4-сонлар.
5. Алиев А. Маҳмудхо`жа Беҳбудий. “Ёзувчи”, Тошкент, 1994.
6. Алимова Д., Рашидова Д. Маҳмудхо`жа Беҳбудий ва унинг тарихий қарашлари. “Ма`навият”, 1998.
7. www.зиёнет.уз

MARTIN XAYDEGGERNING "BORLIQ VA VAQT" ASARIDA DASEIN: MAVJUDLIK, AUTENTIKLIK VA BORLIQ BILAN MUNOSABAT

Soliyeva Zarina Botirovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil izlanuvchisi
zarina.solieva1981@gmail.com

Annotatsiya: M.Xaydeggerning “Borliq va vaqt” asarida taqdim etilgan “Dasein” konsepsiyasini tahlil qiladi. “Dasein” insonning ontologik tuzilishi sifatida qaralib, uning dunyo ichida bo‘lishi, g‘amxo‘rlik, vaqtinchaliklik va o‘limga yo‘naltirilganligi kabi asosiy xususiyatlarini yoritadi. Tahlilda, “Dasein”ning o‘zini anglash jarayoni, shuningdek, ijtimoiy muhitdagi shaxssizlashtiruvchi “Das Man” ta’siridan chiqib, autentik hayot sari intilishi muhimligi ko‘rsatib o‘tiladi. Mazkur tushuncha zamonaviy insonning borliq bilan munosabatini chuqurroq anglashga va uning jamiyatdagi o‘rni hamda ma’noni qidirish jarayonini o‘rganishda muhim nazariy asos sifatida xizmat qiladi. Ish

Xaydeggerning fenomenologik ontologiyasiga kirish bo‘lib, mavjudlikning ma’nosi va inson hayotining mohiyatini chuqur tahlil etishga hissa qo‘shadi.

Kalit so’zlar*: borliq, vaqt , ontologiya, fenomenologiya, mavjudlik, autentiklik , shaxssizlashtirish, g'amxo'rlik , o'lim, vaqtinchaliklik .*

Аннотация: В данной работе проводится анализ концепции "Dasein", представленной Мартином Хайдеггером в его фундаментальном труде "Бытие и время". "Dasein" предстает как онтологическая структура человеческого существования, высвечивая его ключевые особенности: бытие-в-мире, пронизанность заботой, конечность во времени и неумолимое приближение к смерти. Особое внимание уделяется процессу самопознания "Dasein" и значимости стремления к подлинной, аутентичной жизни, освобождению от обезличивающего влияния "Das Man" – безликой массы, растворяющей индивидуальность в социальной среде. Эта концепция является важнейшей теоретической опорой для глубинного осмысления взаимоотношений современного человека с бытием, его места в социуме и непрестанного поиска смысла. Данная работа выступает в качестве своеобразного проводника в феноменологическую онтологию Хайдеггера, внося свой вклад в глубокий анализ значения существования и самой сути человеческой жизни.

Ключевые слова: *бытие, время, онтология, феноменология, существование, аутентичность, обезличивание, смысл, забота, смерть, временность.*

Abstract: This work analyzes the concept of "Dasein," as presented by Martin Heidegger in his seminal work, "Being and Time." "Dasein" is depicted as the ontological structure of human existence, highlighting its key characteristics: being-in-the-world, permeated by care, finitude in time, and the inexorable approach of death. Special attention is given to the process of self-knowledge of "Dasein" and the significance of striving for a genuine, authentic life, liberating oneself from the depersonalizing influence of "Das Man" - the faceless mass that dissolves individuality within the social environment. This concept serves as a crucial theoretical foundation for a deep understanding of the relationship between modern humans and being, their place in society, and the constant search for meaning. This work acts as a kind of guide to Heidegger's phenomenological ontology, contributing to a profound analysis of the meaning of existence and the very essence of human life.

Key words: *being, time, ontology, phenomenology, existence, a uthenticity, depersonalization, meaning, care, death, temporality*

Martin Xaydeggerning falsafiy dunyosi bu insonning mavjudligi sirlarini ochishga intilgan hayratlanarli sayohatdir. U borliqning tub ildizlariga sho‘ng‘irib, Dasein ya’ni insonning bu dunyoda “bor bo‘lish”ining o‘ziga xos mohiyatini izlaydi. Unga ko‘ra, inson o‘zining mavjudligini anglash, ungacha yetib borish orqali ro‘yobga chiqadi; aks holda, u yalg‘onlik va befarqlik dengizida suzib, ehtiroslardan narigi, sohilsiz bir koinotga tushib qoladi. Xaydeggerning qarashlarida jamiyat - bu nafaqat tashqi shakllar va munosabatlar yig‘indisi, balki insonning o‘zligini izlashdagi murakkab va chuqur maydon. U yerda har bir inson

o‘zining haqiqiy “men”ini topish, yolg‘izlik va palapartishlikning bosimini yengib, autentik hayot kechirishga intiladi. Ammo bu yo‘lda texnologiya - mavjudlikning betartib raqqoschisi sifatida ko‘riladi; u insonni o‘z tabiatidan uzoqlashtirib, dunyoni oddiy objektlarga aylantiradi, bu esa daxshatli tekshiruvsiz, qalbning susayishiga olib keladi.Shunday qilib, Xaydegger bizga shunday tunlarni ko‘rsatadi: inson o‘zining chuqurligiga nazar solib, borliqning abadiyat izlarida yo‘l topadi. U bizni ogohlantiradi - haqiqiy hayot, haqiqiy mavjudlik faqat shu izlanishlarda, o‘zligimizga sodiq qolishda qadrli va chinakamdir. Uning falsafasida inson, texnologiya va jamiyatning murakkab o‘zaro ta’siri orqali, biz haqiqiy dunyoni tushuna boshlaymiz va o‘zining borliq harakati bilan uni yana jonlantira olamiz.

Martin Xaydeggerning “Dasein” tushunchasi uning falsafasida markaziy o‘ringa ega bo‘lib, insonning o‘ziga xos borliq tarzini ifodalaydi. Nemis tilida “Dasein” so‘zi "u yerda bo‘lish" yoki "mavjud bo‘lish" degan ma'noni bildiradi, biroq Xaydegger uni oddiy biologik yoki psixologik mavjudlik sifatida emas, balki insonning dunyo bilan o‘zaro aloqasi va o‘z borligini anglash jarayoni sifatida tushuntiradi.

Xaydeggerning mashhur “Borliq va vaqt” (“Sein und Zeit”, 1927) asarida “Dasein” insonning ontologik tuzilishi sifatida o‘rganiladi. Bu tushuncha bir necha muhim jihatlarga egadir:

a) Faollik va onglik: “Dasein” bu faqat mavjud bo‘lish emas, balki o‘z mavjudligini anglaydigan va unga ma’no beruvchi borliqdir.

b) Dunyo bilan murosasizlik: Inson dunyodan ajratilgan emas, aksincha, uning bir qismi bo‘lib, u bilan uzviy bog‘langan.

c) Vaqtchilik: “Dasein” o‘z vaqtini va o‘z o‘limini anglab, shu orqali borliqning chegara va mohiyatini his qiladi.

O‘zini amalga oshirish va tanlov: Inson o‘zining mavjudligiga mas’ul bo‘lib, turli ehtimollar orasidan tanlov qilishi mumkin.

Ijtimoiy kontekstda “Dasein” yolg‘iz emas, balki jamiyat va boshqalar bilan munosabatlarda shakllanadi, ular bilan o‘zaro aloqa qilish orqali o‘zligini anglaydi. Shunday qilib, “Dasein” tushunchasi insonning nafaqat mavjudligi, balki uning borlik bilan bog‘liq ongli, faol va ijtimoiy tabiatini aks ettiradi. Bu uning falsafasida inson hayotining chuqur mahiyatini tushunishga yo‘naltirilgan asosiy qadamdir. Dasein bu Xaydegger falsafasining markaziy tushunchasi bo‘lib, insonning dunyoda o‘ziga xos, noyob mavjudligini ifodalaydi. Insonning mavjudligi hech qachon yakka holda, bo‘shliqda yuz bermaydi; u doimiy ravishda boshqalar bilan aloqada, ijtimoiy kontekstda shakllanadi va namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, Daseinning mavjudligi jamiyat bilan chambarchas bog‘liqdir, chunki inson o‘zligini faqat boshqalar bilan o‘zaro munosabat orqali anglaydi. Ammo Xaydegger ayni paytda “Das Man” ya’ni, ommaviy “o‘zi” tushunchasini ilgari suradi. Bu esa, insonning shaxsiy o‘zligini yo‘qotib, jamiyat tomonidan qabul qilingan, shaxsiylikdan mahrum, o‘rtacha va sirtqi hayot tarzini anglatadi. “Das Man” bu odamlarga xos bo‘lgan shaxsiy fazilatlarsiz, shunchaki umumiy qoidalarga muvofiq yashashdir. Shu tariqa, inson o‘zining haqiqiy, autentik yuzini berkitib qo‘yadi va ichki harakatlantiruvchi kuchdan mahrum bo‘ladi.

Xaydeggerning falsafasida, shu munosabatda, Daseinning vazifasi “Das Man”ning yolg‘on va yuzaki dunyosidan chiqib, haqiqiy va chuqur, shaxsiy mavjudlikka intilishdir. Bu orqali inson o‘zining asl o‘zligini topib, butun borliq bilan uyg‘unlikda yashashi mumkin. Das Man (Ommaviy “o‘zi”): Xaydegger ijtimoiy kontekstning noxush jihatlarini “Das Man” tushunchasi orqali fosh etadi. “Das Man” bu jamiyatning shaxssiz, umumiy, va o‘ziga xoslikdan mahrum bo‘lgan tuzilishi bo‘lib, unda inson o‘z shaxsiyligini yo‘qotib, boshqalar kabi yashashga mahkumdir. Moda, ommaviy fikr yoki ijtimoiy stereotiplarga bo‘ysunish ana shu “Das Man”ning yorqin namunalari sanaladi. Bunday holatda inson inautentik hayot kechiradi, ya’ni o‘z borliq ma’nosini izlashdan bosh tortadi.

Ijtimoiy munosabatlar va autentiklik masalasiga keladigan bo‘lsak, Xaydegger ta’kidlaydiki, haqqoniy va samimiy yashash uchun inson “Das Man”ning ta’sir doirasidan chiqib, o‘z borligini mustaqil ravishda anglab yetishi zarur. Bu anglash jarayoni o‘z o‘limining mohiyatini qabul qilish, shaxsiy mas’uliyatni zimmasiga olish va o‘ziga xos, ongli qarorlar qabul qilish lazzatidan iborat. Shunga qaramay, bu yakkalanish degani emas – haqiqiy Dasein hali ham ijtimoiy maydonda mavjud bo‘lsa-da, jamiyatning umumiy, ko‘r-ko‘rona talablariga ergashishdan tiyiladi.

“Borliq va vaqt” asarida Xaydegger insonni ontologik jihatdan o‘rganib, uning mavjudligi Dasein tushunchasi orqali borliq bilan o‘ziga xos munosabatini ochib beradi. Bu Dasein dunyo ichida bo‘lish, g‘amxo‘rlik tuyg‘usi, vaqtinchaliklik va o‘limga qarshi yo‘naltirilganlik kabi tub xususiyatlar to‘plamidir. Inson nafaqat tashqi olamda mavjud, balki o‘zini anglash va o‘zining borligini tushunishga intiladigan mavjudotdir. Daseinning yashashi esa shunchaki jamiyatdagi o‘ziga xos bo‘lmagan, shaxssiz qoidalarga amal qilish emas, aksincha, “Das Man”ning, ya’ni umumiy, o‘ziga xoslikdan ayrilgan ijtimoiy naqshlarning ta’siridan chiqib, o‘zining haqiqiy, original yo‘lini izlashdir. Shu tarzda inson borliq bilan bevosita yuzma-yuz kelib, haqiqiy ma’no va mohiyatni ishga soladi. Xaydeggerning bu tushunchasi nafaqat borliqning tub mohiyatini anglashda, balki zamonaviy jamiyat sharoitida insonning o‘z o‘rnini topish va hayot ma’nosini izlash jarayonidan kelib chiqib, hozirgi kun uchun chuqur falsafiy mulohazalar manbaiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘xati:

1. Visser, V. Marten Heidegger with Conversations. New York: Yale University Press, 2011.

2. Žižek, S. Heidegger and Contemporary Philosophy. Moscow: Logos, 2012.

3. Dreyfus, H. L. Heidegger on the Move. Oxford: Oxford University Press, 2014.

4. Young, J. Heidegger’s Philosophy of Art. Cambridge: Cambridge University Press, 2009.

5. Malpas, J. Heidegger’s Topology: Being, Place, World. Cambridge: MIT Press, 2012.

6. Krell, D. F. Out of the Dark: Heidegger's Art and Thought. London: Routledge, 2017.

7.Badiou, A. Heidegger and the Moderns. London: Verso, 2005.

8. Harman, G. Object-Oriented Ontology: A New Theory of Everything. London: Pelican, 2018.

9. Sag‘dullaevna, Ashurova Xurshida. “Biography of Saidakhmad Vasliy in the Works of his Contemporary of Khodji Muin.” Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences 14 (2022): 75-78.

ТЕРМИЗДА ЕТИШГАН МУҲАДДИС – АБУ ЖАЪФАР ТЕРМИЗИЙНИНГ ИЛМИЙ-МАЪНАВИЙ МЕРОСИ

Улжаев Умарали Қурбонович
Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази илмий ходими
E-mail: umarali.uljayev@mail.ru
Orcid: 0009-0009-2600-701X

Аннотация. Мазкур мақолада Термиз заминида яшаб ижод қилган машҳур муҳаддис ва фақиҳ олим Абу Жаъфар Термизийнинг илмий-маънавий мероси ёритилади. Муаллиф алломанинг ҳадисларга бўлган ёндашуви, фиқҳий тафаккури, тафсирга оид қарашлари ва тарихий манбалардаги мақомини таҳлил қилади. Абу Жаъфар Термизий нафақат ҳадисларга асосланган диний илмларни чуқур ўрганган, балки уларни замонасининг сиёсий, ижтимоий шароитларига мос тарзда талқин қилган. Мақолада олимнинг илмий фаолияти ҳамда ислом илмий анъаналарига қўшган ҳиссаси холис ва тарихий далилларга таянган ҳолда таҳлил этилган. Абу Жаъфар Термизийнинг илмий қарашлари бугунги исломшунослик ва ҳадис илми тадқиқотларида алоҳида аҳамиятга эга эканига эътибор қаратилади.

Калит сўзлар: Абу Жаъфар Термизий, ҳадис илми, фиқҳ, тафсир, ислом илмлари, муҳаддис, Термиз, Фақиҳ ул-қузот, ислом тарихий мероси, диний-маънавий анъаналар

КИРИШ (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Бугунги кунга келиб жаҳон қўлёзма фондларида сақланаётган турли манбалар таҳлили шуни кўрсатмоқдаки, Термизлик алломалар қаламига мансуб 1400 дан ортиқ қўлёзма асарлар мавжуд бўлиб, уларнинг кўпчилиги қадимий ва ноёб илмий мерос сифатида бағрида катта маънавий бойликни мужассам этган. Ушбу қўлёзмалар турли даврларда яратилган бўлиб, бугунги кунгача етиб келганлиги – ўрта аср ислом илм-фани, маданияти ва фикрий ҳаётининг узвийлигини тасдиқлайди.

Айниқса, ушбу манбалар орасида Абу Жаъфар Термизий (816–908) қаламига мансуб, ҳадис ривояти асосида ёзилган тафсирга оид асарлар алоҳида эътиборга лойиқ.

Абу Жаъфар Термизий ўз даврида ислом илмий муҳитининг юксак намоёндаси сифатида танилган. Манбалардаги маълумотларга кўра, у Бағдод шаҳрида “Фақиҳ ул-қузот” — яъни қозиларнинг фиқҳдаги энг билимдони деган юксак лавозимни эгаллаган. Кейинчалик Мисрга сафар қилган ва у ерда ҳам ўз фаолиятини давом эттирган.

Унинг фаолиятидан англашиладики, Абу Жаъфар Термизий ислом илмлари орасидаги узвий боғлиқликни англаб, шаръий фанларни умумий бир тизимда ўрганишга ҳаракат қилган. У фақатгина фиқҳ ёки тафсир билан чекланиб қолмасдан, ҳадис илмини марказий ўринда кўрган, уни диний билимларни ўзлаштиришда асосий манба сифатида баҳолаган.

Дарҳақиқат, ислом таълимотининг бош манбаи бўлган Қуръони карим мазмунан ҳадислар орқали шарҳланади, пайғамбар суннати эса Қуръонни ҳаётга татбиқ этишда амалий намуна ҳисобланади. Шу боисдан ҳам ҳадислар исломий илмларнинг бошқа барча соҳалари, жумладан тафсир, ақида, фиқҳ, калом каби йўналишларнинг манба ва асосини ташкил этади. Абу Жаъфар Термизий бу ҳақиқатни теран англаган зот сифатида ҳадис ривояти ва унинг шарҳига алоҳида эътибор қаратиб, уни нафақат билим манбаи, балки ислом динининг амалиётдаги асосий йўл кўрсатувчиси сифатида ҳам талқин қилган. Унинг бу борадаги фикрлари ва илмий мероси ҳозирги замон исломшунослигида ҳадис илми тарихи, ривоят анъаналари ва манбашунослик соҳалари учун муҳим аҳамият касб этади.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДЛАР (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Абу Жаъфар Термизийнинг илмий-маънавий меросини тадқиқ этишда ислом манбашунослигида юксак баҳоланадиган бир қатор классик асарлар муҳим манба сифатида хизмат қилади. Хусусан, унинг ҳаёти, илмий фаолияти, ҳадис ривоятидаги мақоми ва фиқҳий карашларини ўрганишда табақот, ҳадис соҳаларига оид манбаларга суянган ҳолда илмий таҳлил олиб бориш мақсадга мувофиқдир.

Аввало, Шамсуддин аз-Заҳабийнинг “Сияру аълом ан-нубало” асари эътиборга лойиқ. Бу 25 жилдли энциклопедик биографик тўплам ислом илм-фани тарихидаги буюк муҳаддис ва уламоларнинг ҳаёт йўли, илмда тутган ўрни, ривоят санади, манҳажи ва жамиятдаги таъсирини қамраб олган. Ушбу асарда Абу Жаъфар Термизийнинг номи ҳам зикр этилиб, унинг ҳадис ва фиқҳ соҳаларидаги фаолияти ҳақида муҳим маълумотлар келтирилган. Аз-Заҳабийнинг услуби – нафақат воқеий маълумот бериш, балки шахсий баҳолар асосида алломанинг аҳамиятини кўрсатишга қаратилган [1].

Ҳадис ривояти ва унинг ижтимоий таъсирини тушунишда Абулҳасан ад-Дорақутнийнинг “Сунан” ва “Ал-муъталиф вал-мухталиф” асарлари ҳам муҳим аҳамиятга эга. Сунан ад-Дорақутний – ҳадис илмидаги мукаммал ва танқидий ёндашув билан тузилган мўътабар манбалардан бўлиб, ривоят санадларининг тўғрилигига оид муҳокамалар билан бойитилган. Бу ҳолат Абу Жаъфар Термизийнинг ривоятларига нисбатан ҳам таҳлилий ёндашувни талаб этади [2].

Юсуф ибн Абдураҳмон ал-Миззийнинг “Таҳзиб ул-камол фи асмо ир-рижол” асари эса ислом манбашунослигида энг нуфузли манбалардан бири ҳисобланади. Бу асарда ровийларнинг исми, куняси, илмдаги мақоми, ишончлилик даражаси, улар ҳақидаги баҳолар ва ривоятлари жамланган. Абу Жаъфар Термизийнинг ривоятлари ва илмий муҳитидаги мавқеини аниқлашда мазкур асар катта аҳамиятга эга. Муаллифнинг энциклопедик услуби, манбаларга бўлган холис ёндашуви тадқиқотчига ривоятчилик муҳитини теранроқ тушунишга ёрдам беради [5].

МУҲОКАМА (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Имом Юсуф ибн Абдураҳмон ал-Миззий (654-742/1256-1341) асари “Таҳзиб ул-камол фи асмо ир-рижол” [5] асарида Абу Шамус ал-Балавий Пайғамбаримиз соллаллоҳу алайҳи васаллам жоҳилият давридаги “Ҳижр” воқеаси кунида қудуқлардан сув ичишни ман қилганлари ҳақидаги ҳадисни ривоят қилган. Умуман олганда Абу Жаъфар Термизийнинг ҳадис ривояти манбаларда салмоқли ўрин эгаллайди. У томонидан ривоят қилинган ҳадислар турли мавзуларда бўлиб, муҳаддислар ўзларининг асарларида мамнуният билан нақл қилганлар. Мўътабар китобларда унинг ҳадислари ривоят қилинган бўлсада, ўзи ривоят қилиб жамлаган тафсирга оид асари барча ривоятларининг жамланмаси ҳисобланади. Ушбу асар тафсир илмига оид ривоятларни биринчи ҳижрий аср охирида ва иккинчи ҳижрий асрда яшаб ўтган алломалардан Яҳё ибн Ямон (117-189/735-805), Нофиъ ибн Абу Нуъайм (вафоти 136/754), Муслим ибн Холид Занжий (вафоти 180/797) ва Ато Хуросонийлардан (вафоти 135/753) ривоят қилган. Мазкур китобда Абу Жаъфар Термизий тўрт юздан зиёд Қуръони карим тафсирига оид бўлган ҳадисларни шайхлари **Язид ибн Мавҳаб, Абдулазиз ибн Имрон, Аҳмад ибн Муҳаммад Қаввос сингари алломалардан тафсир илмига оид ҳадис ва ривоятларни эшитиб, улар** орқали нақл қилиб, яхлит бир китоб шаклида жамлаган. **Жумладан, муаллиф унда шундай келтиради: “Бизга Абдуллоҳ ибн Усмон, Хорижа ибн Мусъабдан ривоят қилди: “Агар билмасангиз, зикр аҳлидан сўранг” (Наҳл, 43) ояти каримаси хусусида у зот: “Илм аҳлидан сўранг” деди (яъни билмаган киши, ҳар кимдан эмас, балки илмли шахсдан сўраши ва ўрганиши керак бўлади).** Абу Жаъфар Термизий яшаган асрдан икки аср ўтиб ҳам у жамлаган тафсир

“Ибн Кодиш” лақаби билан танилган ровий Убайдулоҳ Укбарий (418-508/997-1087) томонидан кўчирилгани мазкур тафсир китоби кенг тарқалганини исботи ҳисобланади. Абу Жаъфар Термизий ривоят қилган асар қўлёзмасини илмий тадқиқ қилган доктор Ҳикмат Башир Ёсин китоб ҳошиясида асардаги ҳадислар кўпроқ “Тафсири Мужоҳид”, “Тафсири Абд ибн Ҳумайд”, “Тафсири Табарий” ва “Тафсири Ибн Абу Ҳотим” каби мўътабар китобларда айнан шу санад билан бироз лафзий ўзгариш билан келганлигини таъкидлаб ўтган. Тадқиқотчи бу ўринда қўлёзма асардаги ривоятларнинг саҳиҳлигини, бошқа мўътабар тафсир китобларда ҳам борлигини исботлаган. Ҳозирда Абу Жаъфар Термизий ривоят қилиб, жамлаган тафсирга оид ҳадис ривоятлари қўлёзмасининг ягона нусхаси Суриянинг Дамашқ шаҳрида “Зоҳирия” кутубхонасида № 95 рақам остида сақланади. **Ушбу қадимий қўлёзма китоб 1988 йилда араб тилида чоп этилган бўлиб, уни тадқиқотчи олим Ҳикмат Башир Ёсин нашрга тайёрлаган. Асарнинг** хусусияти ҳақида доктор қуйидагиларни ёзади: “Қуръони каримни ўрганишда “тафсири бил-маъсур” китобларининг ўрни каттадир. Илк ҳижрий асрларда, кутубхоналарда “тафсири бил-маъсур” китоблари сақланар эди. Аммо бизнинг замонимизда фиқҳ, ҳадис, тарих китобларига қиёс қилганда бу турдаги китоблар нодир ва ноёб бўлиб қолди. Абу Жаъфар Термизийнинг ривояти асосидаги ушбу асар, “тафсири бил-маъсур” (нақлий тафсир) китобларининг бизгача сақланиб қолганларидан биридир. Гарчи у ҳажм жиҳатидан кичик бўлса-да, тафсир илмида ривоят қилиш услубининг аслий ва қадимий тури эканлиги билан аҳамиятлидир. Чунки ушбу тафсирнинг ҳар бир қисми асрлар давомида муфассир имомлар томонидан ривоят қилиниб келган “тафсири бил-маъсур” биносининг асоси, дастлабки қўйилган ғиштлари ҳисобланади”. [10]

НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Албатта, ровийнинг ҳадис ривоятлари муҳаддис ва ҳадисшунос олимлар наздида мақбул бўлиши учун унинг ўзида тақво ва омонатдорлик фазилатлари юксак даражада бўлиши керак. Ровийлар илмини ўзлаштирган ва табақот илмини жамлаган ҳадисшунос олимлар томонидан ҳар бир ровий ва муҳадис даражалари, уларнинг ҳадис ривоятида тутган ўрни тегишли манбаларда батафсил ёритилган. Жумладан, Абу Жаъфар Термизийнинг ровийлик даражаси, унинг тақводорлиги ва омонатдорлиги борасида кўплаб манбаларда ижобий фикрлар айтилган. Жумладан, Абулфидо Исмоил ибн Умар ад-Димашқий “Табақот уш-шофиъийн” [6] асарида Абу Жаъфар Термизий ҳақида қуйидагиларни ёзган: “Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Наср Абу Жаъфар Термизий, зоҳид, тақводор имом эди. Бағдодда яшаган. Ироқда Ибн Сурайждан аввал шофиъийлар шайхи эди. Имом Шофиъийнинг

издошларидан бўлиб, Рабиъ ва бошқаларга фиқҳдан таълим берган. У Шофиъий мазҳабининг юзи эди. У Иброҳим ибн Мунзир, Исҳоқ ибн Иброҳим, Яҳё ибн Букайр, Юсуф ибн Адий ва шу табақадагилардан ҳадис ривоят қилган. Ундан Аҳмад ибн Комил, Аҳмад ибн Юсуф ибн Халлод, Абдулбоқий ибн Нофиъ ва Абулқосим Табарий ҳадис ривоят қилишган. Дорақутний айтади: “У сиқа ишончли, тақводор ровий”. Яна у ҳақида Абу Исҳоқ Иброҳим ибн Сарий аз-Зужжож: “Унга ҳар ой тўрт дирҳам келарди, ҳеч кимдан нарса сўрамасди”, дейди. Муҳаммад ибн Мусо ибн Ҳаммод: “Мега хабар беришларича у бир неча ун кун ичида дон улушининг бешдан бирини олар эди. Ўзи дейди: “Шундан бошқа нарсага эга эмасдим ҳар куни бир дона шолғом сотиб олиб ер эдим”. У ҳақида шогирди Аҳмад ибн Комил Бағдодий: “Ироқда шофиъийлардан ундан кўра буюкроқ ва тақводорроқ ва нарсаларга эҳтиёжи камроқ кишини кўрмаганман” дейди”.

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Хулоса ўрнида шуни айтиш лозимки, қайси бир алломага ҳадис ровийси мақоми берилган бўлса, демак у ҳадис илмини мукаммал ўзлаштирган бўлиб, ҳадисларни китобат шаклида жамлаган ва устоз-шогирдлари ҳамда замондош алломалари томонидан эътироф этилган бўлади. Ана шундай аломаларнинг илмий ҳаётини ўрганиш ҳар томонлама манфаатли илм ҳисобланади. Аҳамиятли томони шундаки, бу каби манбаларни тадқиқ қилиш натижасида ўтмиш қаърида ётган алломаларимиз тарихи ва илмий меросини бир қадар очган бўламиз.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Заҳабий. Сияру аълом ан-нубало. – Байрут: Муассисаҳ ар-рисолаҳ, 1985.
2. Абулҳасан Али ибн Умар ад-Дорақутний. Сунан ад-Дорақутний. – Байрут: Муассасаҳ ар-рисалаҳ, 2004.
3. Абулҳасан Али ибн Умар ад-Дорақутний. Ал-муъталиф вал-мухталиф. – Байрут: Дор ул-ғарб ал-исломий, 1986.
4. Абулфидо Исмоил ибн Умар ибн Касир ад-Димашқий. Табақот уш-шофиъийн. – Байрут: Мактабат ус-сиқофа уд-диния, 1993.
5. Юсуф ибн Абдураҳмон ал-Миззий. Таҳзиб ул-камол фи асмо ир-рижол. – Байрут: Муҳаққиқаҳ ар-рисалаҳ, 1980.
6. Абу Бакр ибн Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Умар ал-Асадий ад-Димашқий. Табақот уш-Шофиъия. – Байрут: 1982.
7. Заҳабий. Тарих ул-Ислом. – Байрут: Дор ал-кутуб, 1973.
8. Хатиб Бағдодий. Тарихи Бағдод. – Байрут: Дору ғарбул-Исломий, 2001.

9. Абулқосим Сулаймон ибн Аҳмад Табароний. Муъжам ул-авсат. – Қоҳира: Дор ул-ҳарамайн, 1995.

10. Доктор Ҳикмат Башир Ёсин. Ал-Жузъу фиҳи тафсир ул -Қуръан ли-Яҳё ибн Ямон ва тафсир ли-Нофиъ ибн Абу Нуъайм ва тафсир ли-Муслим ибн Холид Занжий ва тафсир ли- Ато Хуросоний би-ривоят Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Аҳмад ибн Наср Термизий. Ҳикмат Башир Ёсин тадқиқи. Китоб муқаддимаси. Мадина: “Ал-мактабаҳ ад-дор”, 1988.

INSON QADRI TUSHUNCHASINING FALSAFIY-ESTETIK TAHLILI

Qaxorov Pulotjon Xursanmurodovich,
falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent,
Samarqand davlat universiteti Urgut filiali
E-mail: pulatsamdu1988@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada insonning jamiyatdagi o‘rni, sha’ni va huquqlari haqida fikr yuritiladi. Muallif inson qadrining ijtimoiy, huquqiy va axloqiy asoslarini tahlil qilgan holda, uni qadrlash tamoyillari va bugungi kunda unga berilayotgan e’tibor masalalariga to‘xtaladi. Maqolada inson qadri tushunchasining tarixiy taraqqiyoti va uning turli davrlardagi talqini yoritiladi. Shu bilan birga, maqola bugungi global muammolar kontekstida inson qadrining himoyasi zarurligini asoslab beradi. Tadqiqot ishi, ilmiy va axloqiy jihatdan muhim manba hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *Inson qadri, sha’n, huquq, axloq, qadriyat, jamiyat.*

ФИЛОСОФСКО-ЭСТЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПОНЯТИЯ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ДОСТОИНСТВА

Аннотация: В данной статье рассматриваются место, честь и права человека в обществе. Автор, анализируя социальные, правовые и моральные основы человеческого достоинства, обращает внимание на принципы его ценности и на вопросы, связанные с вниманием, которое ему уделяется в современном мире. В статье освещается историческое развитие понятия человеческого достоинства и его интерпретация в разные исторические периоды. Также статья обосновывает необходимость защиты человеческого достоинства в контексте современных глобальных проблем. Исследование является важным источником как с научной, так и с моральной точки зрения.

Ключевые слова: *человеческое достоинство, честь, права, мораль, ценности, общество.*

PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF HUMAN DIGNITY

Abstract: This article discusses the place, honor, and rights of a person in society. The author analyzes the social, legal, and ethical foundations of human dignity, focusing on the principles of valuing it and the issues related to the attention it receives in today's world. The article highlights the historical development of the concept of human dignity and its interpretation in different periods. Furthermore, the article justifies the necessity of protecting human dignity in the context of current global issues. This research work is considered an important source from both scientific and ethical perspectives.

Keywords: *Human dignity, honor, rights, ethics, values, society.*

Inson qadri – odam zotining Allohning eng buyuk mo‘jizasi sifatida ulug‘lanishi, har tomonlama munosib qadr-qimmat topishini anglatadigan tushuncha [1]. Inson uchun qadriyatlar mezonini anglashda dastlab oila muhiti, ota-ona, qarindosh-urug‘, o‘qituvchilar muhim o‘rin tutadi. Aynan ana shu omillar negizida inson kamol topib boradi. Insonning butun umri o‘zida shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirish, o‘z qadrini kamolga yetkazish, jamiyat, zamonda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar qadrini anglashga intilishdan iboratdir. O‘zi va boshqaning qadrini anglab yetish uchun insonning ma’naviy dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishi, uning o‘zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to‘g‘ri anglaydigan darajada tarbiyalangan bo‘lmog‘i lozim. Bu ma’noda, Suqrotning "O‘z-o‘zingni anglab yet!" – degan da’vati g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi. O‘z qadrini anglashning obyektiv, subyektiv, ijtimoiy va shaxsiy jihatlari mavjud bo‘lib, doimiy ravishda o‘zaro aloqadorlikda yashaydi, inson tabiatining turli jihatlarini aks ettiradi. Har qaysi shaxsning qadri u yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar ko‘zgusida namoyon bo‘ladi. Muhit va davrning talablari shaxsning qadrini shakllantirib, yuksaltirib boradi. Uning o‘zi ijtimoiy munosabatlar sub’yekti sifatida, o‘z qadrining shaxsiy talablari, ehtiyoj va maqsadlari bilan naqadar bog‘liq ekanini tobora ko‘proq anglab boradi. Inson va uning qadri muammosi – falsafaning azaliy mavzularidan biri. Odam naslining dunyoga kelishi, boshqa jonzotlardan farqi, tabiat va jamiyatdagi o‘rni, insoniy fazilatlari, shaxsiy xususiyati to‘g‘risidagi masalalar hamma davr faylasuflarining diqqat markazida bo‘lib kelgan. Ma’lumki, odamning jismoniy tuzilishi, tabiiy-biologik xususiyatlarini o‘rganish ilmfan olamida hamon davom etmoqda. Ijtimoiy fanlarda esa shaxs kamoloti, uning ijtimoiy, ma’naviy qiyofasi bilan bog‘liq masalalari tadqiq qilinmoqda. Xullas, odamzod uchun o‘ziga o‘xshagan boshqa kishilar, ularning xususiyatlari,

jamiyatdagi o‘rni, qadri, o‘tmishi va kelajagi bilan bog‘liq muammolar qadimdan eng asosiy tadqiqot va kuzatish obyekti bo‘lib kelgan.

Insonning o‘zini qadriyat sifatida talqin qilish bilan uning qadri va shaxsiy darajadagi qadriyatlar tizimi to‘g‘risidagi masalalar bir-biridan farq qiladi. Bu borada uch yo‘nalishda fikr yuritish mumkin. Inson qadri – ulug‘. U ertaga emas, uzoq kelajakda emas, aynan bugun o‘z hayotidan rozi va mamnun bo‘lib yashashi kerak [2;3]. Birinchidan, har bir insonni qadriyat sifatida qarash mumkin. Bunda insonning o‘zi, uning tabiiy-tarixiy jarayondagi mavjudligi, tirik jonzotlar orasida yagona ijtimoiy vujud ekani e’tiborga olinadi. Bu yo‘nalishdagi tahlil aniq insonga qaratilgan bo‘lib, uni maxsus tadqiqot mavzusi obyektiga aylantiradi. Ikkinchidan, insonning qadri, ya’ni uni ijtimoiy jarayonlardagi o‘rnini, atrof-muhit va boshqa kishilar uchun ahamiyati, jamiyatdagi mavqei kabi masalalarni tadqiq qilish ham mumkin. Bunday tahlil insonning ijtimoiy-tarixiy ahamiyatini o‘rganishga asoslanadi. Uchinchidan, shaxsning ma’naviy olami, qiyofasi, qiziqishlar dunyosi, talab va ehtiyojlari, faoliyati bilan bog‘liq qadriyatlar tizimini ham tahlil qilish mumkin. Bunda asosiy e’tibor qadriyatlarning shaxsiy (alohida, yakka) darajada namoyon bo‘lish shakllari va xususiyatlariga qaratiladi. Hozirgi davrda har qaysi odamning qadri – avvalo, uning tabiatga, tashqi olamda ro‘y berayotgan jarayonlarga, bu jarayonlardagi o‘rni va faoliyatiga, turli irq, millat, ijtimoiy qatlamlarga mansub bo‘lgan, rang-barang maqsad va qadriyatlarga intiladigan kishilarga, o‘ziga, oila, turmush, jamoa va jamiyatdagi mavqeiga nisbatan munosabatida yaqqol ko‘rinadi. Shuningdek, mehnat, ishlab chiqarish va iqtisodiyot borasidagi jarayonlardagi ishtiroki, jamiyatdagi ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish va moddiy boyliklarni yaratish jarayoniga qo‘shayotgan hissasi ham inson qadrini belgilaydi. Qolaversa, siyosiy o‘zgarishlar, jamiyatni demokratlashtirishda qatnashishi, bu jarayonda qanday maqsadlarni ko‘zlayotgani hamda qadriyatlar tizimi tez o‘zgarib borayotgan bugungi kunda qanday pozisiyani egallashi, o‘zini qanday tutishi bilan bog‘liq faoliyati ham bu borada muayyan ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, qadr-qimmat insonning ma’naviy barkamolligi, bilimi, qobiliyati, iste’dodi, iqtidori va ulardan qanday maqsadlarda foydalanayotgani; o‘zining shaxsiy, milliy, diniy, irqiy, sinfiy va boshqa sohalardagi manfaat hamda maqsadlari, talab-ehtiyojlari, intilish va faoliyatini umuminsoniy talablarga moslashtira olgani bilan bog‘liq sifatlarda ifodalanadi. Bu borada uning turli buzg‘unchi g‘oyalar, vayronkor mafkura va boshqa bid’atlarning mohiyatini to‘g‘ri anglab olgani, ularga nisbatan munosabati ham muhimdir. Ana shu jihatlarning barchasini hisobga olgan holda inson qadrini baholash va shu asosda shaxslarning tiplarini aniqlash mumkin.

Inson manfaatlari – ijtimoiy manfaat shakllaridan biri, jamiyatdagi o‘zgarishlar va taraqqiyotning asosiy maqsadini insonga yo‘naltirish, inson

haqhuquqlari ustuvorligini ta’minlashni anglatadigan tushuncha. Inson manfaatlari inson ehtiyojlari, manfaatlari, huquq va erkinliklarining ustuvorligi, uning eng katta boylik sifatida jamiyatdagi alohida o‘rni va ahamiyatini ta’minlash, jamiyat, davlat va inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni oqilona yo‘lga qo‘yish tamoyillariga tayanadi. Ma’lumki, 1997 yil yurtimizda inson manfaatlari yili deb e’lon qilindi. Inson manfaatlari yilida inson omiliga yanada ulkan ahamiyat berildi. Keyingi yillarga nom berish va mamlakatimiz uchun ustuvor yo‘nalishni belgilab olishda ham, avvalo, inson manfaatlari ustuvor masala sifatida e’tiborga olinmoqda.

Inson qadri – bu insonning daxlsizligi, huquqlari, erkinliklari va ijtimoiy roli bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib, uning shaxsiy va jamiyatdagi ahamiyatini ifodalaydi. Inson qadri uning shaxsiyatini va hayotini hurmat qilish, uning jamiyatdagi o‘rni, erkinligi, huquqlari va axloqiy mas’uliyatlarini qadrlashni anglatadi. Inson qadri xususiyatlari quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga oladi:

1. Daxlsizlik. Inson qadri tushunchasining birinchi xususiyati uning daxlsizligidir. Har bir insonning hayoti, shaxsiyati va huquqlari daxlsiz hisoblanadi, ya’ni uning erkinligi va xavfsizligi himoya qilinishi kerak. Daxlsizlik insonning jismoniy va ruhiy salomatligi, uning tanasi va aqlining to‘liq daxlsizligi bilan bog‘liqdir. Jamiyat, davlat yoki boshqalar tomonidan uning shaxsiy hududiga aralashish, hurmat qilinmaslik inson qadri va erkinligini buzadi.

2. Erkinlik. Inson qadri erkinlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson o‘z fikrlash, harakat qilish va qarorlar qabul qilishda erkin bo‘lishi kerak. Erkinlik insonning tanlovlar qilish huquqini anglatadi, bu esa uning axloqiy va ijtimoiy mas’uliyatlariga asoslanadi. Inson erkinligi uning o‘zini tanlashi, hayotini shakllantirishi va o‘zining shaxsiy qadriyatlariga amal qilishi uchun zarurdir.

3. Huquqlar va tenglik. Inson qadri huquqlar va tenglik bilan bog‘liqdir. Har bir insonning tabiiy huquqlari – hayot, erkinlik, ta’lim olish, so‘z erkinligi, ishga joylashish, va boshqalar – himoya qilinishi kerak. Inson qadri, shuningdek, jamiyatda barcha shaxslar uchun tenglikni ta’minlashni anglatadi. Har bir inson huquqlariga teng e’tibor berish, uni jamiyatda teng huquqli deb hisoblash orqali uning qadri to‘liq amalga oshadi.

4. Axloqiy mas’uliyat. Inson qadri shaxsning axloqiy mas’uliyati bilan bog‘liqdir. Bu, o‘zining va boshqalar huquqlarini hurmat qilish, adolatli bo‘lish, boshqalar bilan muomala qilishda axloqiy me’yorlarga amal qilishni anglatadi. Axloqiy mas’uliyatning mavjudligi, insonning qadriyatlarini rivojlantirish va uni jamiyatda to‘g‘ri yo‘nalishda amalga oshirishga yordam beradi. Inson qadri, shuningdek, o‘zining axloqiy xulq-atvorlari va boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlarining sifatiga ham bog‘liq.

5. Ijtimoiy mas’uliyat. Inson qadri nafaqat shaxsiy, balki jamiyatga nisbatan ijtimoiy mas’uliyatni ham o‘z ichiga oladi. Insonning qadri jamiyatdagi o‘rni,

uning boshqalarga yordam berishi, ijtimoiy qadriyatlarni hurmat qilishi va adolatli muomala qilishi bilan aniqlanadi. Shaxsning jamiyatdagi mas'uliyati uning qadriyatlarini to'liq shakllantirishga yordam beradi.

6. Go'zallik va Estetika. Inson qadri estetik va go'zallik bilan ham bog'liqdir. Bu faqat tashqi ko'rinish bilan bog'liq emas, balki ichki go'zallik, insonning ruhiy holati, hissiy tajribalari va axloqiy fazilatlari bilan ham bog'liqdir. Estetik jihatdan, insonning go'zalligi va uning axloqiy xulq-atvori o'rtasida muvozanat bo'lishi kerak. Go'zallik orqali insonning qadri uning ichki va tashqi sifatlarining uyg'unligini aks ettiradi.

7. O'zini anglash. Inson qadri uning o'zini anglash jarayoni bilan ham bog'liqdir. O'zini anglash, ya'ni insonning o'ziga nisbatan tushuncha va tasavvurlari, uning o'ziga bo'lgan hurmatini belgilaydi. O'zini anglash jarayoni orqali inson o'zining daxlsizligi, erkinligi, axloqiy va estetik qadriyatlari bilan bog'liq bo'lgan muhim jihatlarni anglaydi. Bu jarayon uning jamiyatdagi o'rnini va qadriyatlarini shakllantirishga yordam beradi.

8. Taraqqiyot va o'sish. Inson qadri uning shaxsiy o'sishi, rivojlanishi va taraqqiyotiga asoslanadi. Shaxsning hayoti davomida o'zini yangilash, yangi tajribalarni qabul qilish va yaxshilanishi uning qadriyatlarining o'sishiga yordam beradi. Insonning ma'naviy va intellektual rivojlanishi uning qadriyatlari va o'ziga bo'lgan hurmatini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

Umuman olganda inson qadri – bu uning daxlsizligi, erkinligi, huquqlari, axloqiy mas'uliyati, estetik qadriyatlari, ijtimoiy roli va taraqqiyoti bilan bog'liq keng va ko'p qirrali tushuncha. Har bir inson o'zining qadriyatlarini hurmat qilish va o'zgalar bilan adolatli, axloqiy va hurmatli munosabatda bo'lish orqali o'zining haqiqiy qadriyatlarini amalga oshiradi. Inson qadri nafaqat shaxsiy, balki jamiyatdagi hamda madaniy muhitdagi o'rni bilan bog'liq bo'lib, har bir shaxsning jamiyatdagi roli va ijtimoiy mas'uliyatlari orqali to'liq ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. https://oyina.uz/uz/teahause/1674

2. Инсон қадри – улуғ // Халқ сўзи. – 2018 йил. 29 июнь, № 131 (7089).

3. Аристотель. Никомахова этика. – Электронная библиотека «Гражданского общество».: Электронный ресурс, стр. 205. URL:http://www.civisbook.ru.

4. Платон. Государство. – М.: «АСТ», 2021. – стр. 448. ISBN 9785170983438.

5. Иммануил Кант. Принцип чистого разума с комментариями и объяснениями. – Издателство АСТ, 2020. – стр. 224. ISBN 978-5-17-104564-7.

6. Aleksandr Dugin, Paul Edward Gottfried. The Philosophy of Another Beginning. – Raddix/Washington Summit Publishers, 2014. – p. 465. ISBN 9781593680374, 1593680376.

7. Max Horkheimer, Theodor W. Adorno. Dialectic of Enlightenment. Translated by John Cumming. – Germany.: New York: Herder and Herder, 1972. – p. 304. ISBN 0-8047-3633-2. OCLC 48851495.

OMMAVIY ONG FENOMENING IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLILI

Ziyatova Iroda Suyunovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola yoshlar ijtimoiy ongi tushunchasiga atroflicha to'xtalib, yoshlarning ommaviy ongini shakllantirish omillari, ob'ektiv va sub'ektiv omillarning salbiy va ijobiy ta'sirlari hamda ahamiyati, bugungi kunda dunyoda yoshlar hayotidagi to'siqlar, ularning yechimi, yoshlar ijtimoiy ongini o'zgarish sabablari va uni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar xususida mushoxada yuritiladi. Shuningdek, bugungi globallashuv va axborot asrida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy tarmoqlarning ta'sirida yoshlar ongiga qaratilgan turli tahdidlardan saqlanishning o'ziga xosligi haqida so'z yuritlgan.

Kalit so'zlar: *ob'ektiv va sub'ektiv omillar, salbiy va ijobiy ta'sirlar, yoshlar ijtimoiy ongi, axborot asri, ijtimoiy tarmoqlarning ta'siri, tahdidlar, ijtimoiy ongini shakli, yoshlar, globallashuv, ong.*

Abstract: This article discusses the concept of youth social consciousness in detail, examining the factors that form the mass consciousness of youth, the negative and positive effects and significance of objective and subjective factors, the obstacles in the lives of young people in the world today, their solutions, the causes of changes in youth social consciousness and measures to prevent them. It also discusses the specifics of protecting against various threats to the consciousness of young people under the influence of rapidly developing social networks in today's globalization and information age.

Key words: *Objective and subjective quality, damage and developmental effects, social consciousness of youth, information age, influence of social networks, safety, social consciousness of youth, globalization, consciousness.*

Bugun insoniyat globallashuv davri shiddatli axborot asrining tezkor zamonida yashamoqda. Insoniyat bir zumda dunyoning narigi chetidagi axborotdan soniyalarda xabardor bo'lish imkoniyatiga ega. Internet bugungi kunda mana shunday imkoniyarlarni jahon ommasiga taqdim qildi.

Bugungi XXI asrda jahonda axborot asri sharoitining rivojlanishida, ommaviy axborot vositalarining ommaviy ongga ta’sirining sezilarli o‘sishida o’rni alohidaligini kuzatish mumkin [1]. Jamiyatda ommaviy ong tushunchasi haqida gapirilganda bunga bevosita bog’liq bo’lgan axborot-psixologik ta’sirni biz shunday anglashimiz lozimki, shaxs va ommaning ruhiyatiga qaratilgan ta’sirlar, ommaviy axborot vositalarida berilayotgan mavzularni tanqidni istisno qilgan tarzda qabul qilish hamda ongga muayyan stereotiplarni singdirish maqsadida yuzaga kelishi mumkin.

Aslida, ommaviy ong o‘z xususiyatiga omma psixikasiga axborot va psixologik ta’sir omma orasida muayyan mafkuraviy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan. Axborotlar asrida dunyoda stereotiplar saqlanishi yoki muayyan tarzda o‘zgarishi ommaviy ongdagi jarayonlar qatoriga kiradi. Ommaviy ong keng ma’noda odamlarning katta ommasining ongi sifatida tushuniladi va tor ma’noda ma’lum vositalar, birinchi navbatda ommaviy axborot vositalari ta’siri ostida paydo bo‘ladigan kundalik ongning o‘ziga xos shaklidir deyish mumkin. Ilmiy manbalrda keltirilishucha, “Ommaviy ong” iborasi XIX asrning o‘rtalaridan boshlab qo‘llanila boshlagan va u tavsiflovchi tushuncha hisoblanib, majoziy xarakterga ega bo‘lgan. (G.Lebon). Shuni ta’kidlash joizki, bunda ongning asosiy manipulyatorlar sifatida ommaviy axborot vositalari keltiriladi. Angliyalik J.Braysning ommaviy axborot vositalari bo‘yicha o‘tgan asr oxirida nashr etilgan asarlarida jamoatchilik fikriga ta’sir ko‘rsatishning odatdagi mexanizmi to‘g‘rirog‘i jamoatchilik fikrini manipulyatsiya qilish jarayoni to‘rt bosqichni o‘z ichiga oladi: dastlabki birinchi bosqich – biror bir voqea to‘g‘risida «dalillar va hikoya”, “turli-tuman fikrlar” bayon etiladi. Bu haqda betaraf mulohazalar bayon qilinadi, “bu to‘g‘risida go‘yo hamma fikr almashmoqda” degan taassurot yaratishga intilinadi. Keyingi bosqichda – (ertalabki va kechki) gazetalar voqea to‘g‘risida aniqroq fikr bildirib, undan kutilayotgan natijalar haqida so‘z yuritiladi. Bunda oddiy fuqarolarning fikri bir to‘xtamga yaqinlashayotganday tuyuladi. Bir necha baho beriladi.Uchinchi bosqichda esa – bayon etilayotgan bahs va munozaralarda muayyan aniq va kerakli nuqtai nazar foydasiga barcha boshqa izoh va dalillardan kechiladi (ulardan “ko‘z yumiladi”). Mulohazalardan, fikrlardan biri haqiqatga yaqinday taassurot tug‘iladi. To‘rtinchi bosqichda – voqeaga berilgan baho, xulosa oddiy fuqaro odamlarning manfaatlaridan kelib chiqadigan, jamoatchilikning yakdil fikri sifatida tasvirlanadi. Ya’ni, ma’lumotlar oqimi manfaatdorlik nuqtai nazaridan yetkazilishida yoki qarama-qarshi xarakterdagi ma’lumotlarni ataylab navbatma-navbat berish bilan odamlar idrokini susaytirishga intilishda yaqqol namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bu o‘ziga xoslik jamiyat a’zolaridan tizimli ravishda axborotning muayyan qatlamini yashirishga, ularni muhokama ob’yektiga aylantirmaslikka intilishda ham yaqqol ko‘rinadi.

Dunyo miqyosida millionlab har kuni turli voqealar sodir bo‘ladi. Asosan hodisalarni yoritishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishini, muayyan ma’lumotlarni olish, talqin qilish, baholash va tarqatish orqali fuqarolarda tegishli fikr va xulosalar shakllanishiga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Bunda ommaviy axborot vositalari ijtimoiy fikrni kerak bo‘lgan shaklga yo‘naltira olishi, u bilan manipulyatsiya qila olishidan dalolat berishini kuzatish mumkin. Ushbu jarayonda yolg’on, soxta va to‘qib chiqarilgan axborotni haqiqat sifatida taqdim etish, voqelikni bir yoqlama yoki buzib ko‘rsatish, reallikni adekvat qabul qilishga yordam beradigan muhim elementlarini yashirishga alohida e’tibor berilishini ham ta’kidlash zarurdir. Dastlab "ijtimoiy stereotip" tushunchasini V. Lippman o‘zining "Jamoatchilik fikri"kitobida ishlatgan. Ommaviy ong tushunchasiga qarata esa U.Lippman jamoatchilik fikri va ommaviy ongni tartibga solishda matbuotning rolini tahlil qildi va stereotiplar – oldindan o‘ylangan fikrlar – idrok jarayonini boshqarishga xizmat qiladi deya fikr bildiradi [9]. "Stereotip" so‘zining o‘zi yunon tilidan "qattiq iz"deb tarjima qilinadi. Stereotiplash ma’lum ma’noda "miya dangasaligi" deb ham qaraladi. XXI asrda nafaqat texnologiya, balki odamlarning tafakkuri ham rivojlanib borayotgan stereotiplar dunyoni idrok etishda tobora ko‘proq muammolarni keltirib chiqarmoqda va ularning ufqlarini toraytirmoqda. O‘z fikrlarini to‘g‘ri ifodalash va ularning argumentatsiyasi rivojlanayotgan shaxsning ajralmas qismidir. Shaxs stereotip tufayli u yoki bu narsani ob’yektiv baholay olmaydi va tahlil qila olmaydi. U yoki bu voqeani tavsiflagan guvohlar albatta unga muqarrar biror narsa qo‘shib aytishadi. Shuning uchun, voqeani tushuntirish kabi ko‘rinadigan narsa, aslida uning modifikatsiyasi bo‘lib chiqadi.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ma’lumotlar bu ommaviy ong tushunchasi va uning mohiyatan anglab yetish uchun tavsiflar edi. Bugungi globalizatsiya jarayonlari va axborot va yuqori texnologiyalar asrida insonlarga turli qarashlarni ongiga turli maqsadlarda tez singdirishga qaratilgan tahdidlar – bulargs qarshi albatta ommaviy ong tushunchasini mustahkamlashga qaratilgan choralar immunitetini shakllantirish lozim. Ommaviy ongning mohiyatan olib qaralganda, har doimo inson hayotining ahloq odob va tarbiya asosidagi fundament, milliy qadriyatlar va o’zlikni anglash muhim asos hisoblanishi, chetdan kirib kelishi mumkin bo’lgan turli buzg’unchi g’oyalarga qarshi ommaviy ongning kurashiladigan o’ziga xos uslubi – bu ma’naviy dunyoqarashning va kuchli fuqarolik pozitsiyalarining mustahkamligi masalasi dolzarbdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmoni. 05.07.2017y. www.lex.uz

2. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (yangi tahriri 30.04.2023). www.lex.uz.

3. S. Mirziyoyeva “Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT)ning OAV erkinligi bo‘yicha tashkil etilgan Markaziy Osiyo media konferensiyasi”. 09.09.2021y.

4. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 23 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi.

5. O‘zbekiston Respublikasining – “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida’’gi qonuni (yangi tahriri). – www.lex.uz.

6. “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi’’. 28.01.2022y. PF-60. www.lex.uz.

7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’grisida’’gi 18.01.2021 yildagi 23-son qarori. www.lex.uz.

8. Grushin B. A. Dunyo va fikrlar dunyosi haqidagi fikrlar. M., 1967-yil.

9. Grushin B. A. Ommaviy ong: ta’rif va tadqiqot muammolari tajribasi. M., 1987-yil.

2-SHO‘BA. ILMIY TADQIQOTLARNING METODOLOGIK ASOSLARI

РОЛЬ МЕТОДОЛОГИИ В ПРЕПОДАВАНИИ ОБЩЕСТВЕННЫХ ДИСЦИПЛИН

Меликова Мартаба Нумоновна
Самаркандский государственный институт иностранных языков,
Доктор философских наук (DSc), профессор,
Заведующая кафедрой Гуманитарных наук и информационных технологий
E-mail: martabamelikova@gmail.com

Аннотация. В статье рассматривается значение методологии в преподавании общественных дисциплин. Показано, что методология является не только инструментом организации познания, но и важным содержательным компонентом образования. Анализируется роль методологической культуры преподавателя и обучающегося в процессе формирования критического мышления, научного мировоззрения и исследовательских навыков. Отмечается необходимость включения методологических тем в образовательные программы как условие повышения качества преподавания.

Ключевые слова: методология, преподавание, общественные дисциплины, методологическая культура, научное мышление, образование, критическое мышление, учебный процесс.

Современное образование, особенно в области общественных дисциплин, требует не только передачи знаний, но и формирования у студентов критического мышления, аналитических навыков и способности к самостоятельному осмыслению социальных процессов. В этих целях особое значение приобретает методология — как совокупность принципов, подходов и способов организации познавательной деятельности. Методология выступает неотъемлемой частью содержания и технологии преподавания, обеспечивая научность, системность и осознанность учебного процесса.

Цель статьи — раскрыть роль методологии в преподавании общественных дисциплин, обосновать её значение для формирования у обучающихся полноценного научного мировоззрения и навыков критического анализа социальных явлений.

Методология в широком смысле — это учение о методах познания и преобразования действительности. В образовательном контексте она выступает как основа организации учебной и научно-исследовательской деятельности, направленной на развитие интеллектуального и духовного потенциала личности.

Методология: определяет принципы преподавания дисциплин; формирует логическую структуру учебного материала; развивает у студентов умение анализировать, сопоставлять, обобщать; учит осмысленно применять знания в реальных социальных контекстах.

Общественные дисциплины (философия, история, социология, политология, экономика, культурология и др.) изучают общество в его многообразии. Эти дисциплины требуют междисциплинарного подхода, сложного анализа социальных взаимодействий, идей, ценностей и норм.

Именно методология позволяет: определить уровень научности знаний; различать факты и интерпретации; понимать многообразие подходов (например, марксистский, либеральный, конструктивистский и др.); выстраивать дискуссионное пространство на занятиях, что важно для воспитания демократической культуры.

Методологическая культура — это способность: осмысленно выбирать методы преподавания и познания; выстраивать логически последовательный материал; демонстрировать пример научного мышления; ставить проблемы и формулировать гипотезы; развивать у студентов рефлексию и исследовательские установки.

Преподаватель, владеющий методологией, помогает студентам: не просто заучивать факты, а понимать закономерности; формировать собственные позиции по общественным вопросам; участвовать в научных и учебных дискуссиях; критически относиться к источникам информации.

Для повышения эффективности преподавания важно: включать в программы разделы, посвящённые методологии науки; использовать метапредметные связи; формировать исследовательские задания, предполагающие анализ источников, сопоставление точек зрения, рефлексию; применять разнообразные подходы: историко-сравнительный, системный, феноменологический, структурно-функциональный и др.

Таким образом, методология должна быть не только «фоном» обучения, но и содержательной частью дисциплины, формирующей компетенции XXI

века. Методология играет ключевую роль в преподавании общественных дисциплин. Она обеспечивает не только научную обоснованность знаний, но и формирует мышление, способное к анализу, критике и самостоятельному исследованию. В условиях современного мира, характеризующегося информационной перегрузкой и социальными вызовами, именно методология позволяет сделать обучение осознанным, гибким и ориентированным на развитие личности. Преподавание без методологической основы превращается в передачу фактов, тогда как цель образования — воспитание думающего, ответственного гражданина.

Список литературы

1. Стёпин В.С. Теоретическое знание. — М.: Прогресс-Традиция, 2000. — 342 с.
2. Мамардашвили М.К. Классический и неклассический идеалы рациональности. — М.: Наука, 1984. — 270 с.
3. Лекторский В.А. Знание и ценности: философско-методологический анализ. — М.: Наука, 1980. — 284 с.
4. Бим-Бад Б.М. Педагогическая энциклопедия. — М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. — 512 с.
5. Зинченко В.П., Мамардашвили М.К. О методологии и методе в науке и образовании // Вопросы философии. — 1991. — №3. — С. 13–25.
6. Брудный А.А. Формирование методологической культуры как цель гуманитарного образования // Проблемы образования. — 2014. — №4. — С. 21–29.

MIRZO ULUG‘BEK - BUYUK MA’RIFATPARVAR, ILM-FAN VA MADANIYATNING YETUK HOMIYSI

Tog‘ayev Nodirjon Ergashevich,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti, falsafa doktori (PhD).

Ma’lumki, Temuriylarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini tadqiq qilish borasidagi ilmiy yo‘nalishlar chet ellarda ham olib borilgan. Nomi Sharq musulmon olamidagina emas, G‘arbdagi xristian dunyosida ham bir necha asrlar mobaynida yod etilib va e’zozlanib kelinayotgan buyuk zotlardan biri sohibqiron Amir Temurning suyukli nabirasi, Shohruh Mirzoning o‘g‘li Muhammad Tarag‘ay Mirzo Ulug‘bek (1394-1449 yy.) dir. Albatta, Mirzo Ulug‘bek buyuk ma’rifatparvar, ilm-fan va madaniyatning yetuk homiysi bo‘lgan. U qoldirgan

ulkan meros - o‘z zamonasidan hozirga qadar Sharqu G‘arb ilm ahli tomonidan tadqiqot obyekti sifatida keng ko‘lamda o‘rganib kelinmoqda.

Mirzo Ulug‘bek yoshlik paytlaridanoq qayerda bo‘lmasin, olimlar, shoirlar, san’atkorlar, ulamolar, shayxlar, dunyoga taniqli allomalar davrasida bo‘lgan, ilmiy bahslardan ma’naviy bahra olgan, ilhomlangan, ulardan ko‘p narsa o‘rgangan, asta-sekin aqli teranlashib, fikran boyib, dunyoqarashi kengayib va chuqurlashib borgan.

Bu haqda “Xuddi shu o‘rinda abadiyat osmonida Amir Temur yanglig‘ mangu porlab qolishni istagan shahzodalar ko‘p edi. Ammo bobosiga munosib parvoz, avvalo, Mirzo Ulug‘bekka nasib etdi. Buyuk munajjim bobosi qilolmagan ishlarni amalga oshirdi. Amir Temur dunyoga jahondorlik etgan bo‘lsa, u ilmga jahondorlik qildi” - deb yozadi Maqsud Shayxzoda [2, 46].

Mirzo Ulug‘bek Amir Temur vafot etgan paytda 15 yoshda, Movarounahrni boshqarishdek og‘ir, murakkab vazifa topshirilganda endigina 19 yoshga to‘lgan bo‘ladi. Ammo uning podshohligi temuriylar saltanatining saodatli davri sanaladi.

Mirzo Ulug‘bek boshqa ko‘pgina hukmdorlardan farqli o‘laroq, ham davlat arbobi, ham asl olim sifatida faoliyat ko‘rsatdi, olimlikni arboblik, arboblikni olimlik bilan qo‘shib olib boradi, ilmu-amal yo‘lini o‘z faoliyatida birlashtiradi. Ulug‘bek ham halqni ozod va hur ma’rifatli va madaniyatli ko‘rishni xohlar edi. U hammani, ma’rifatli qilish uchun g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi va harakat qildi. Ayniqsa, u asosiy moddiy boylik yaratuvchi kuch bo‘lgan dehqonlar ularning mehnatini yengillashtirish uchun g‘amxo‘rlik qilgan.

Ilm-fan taraqqiyoti hamisha uzviylikka, vorisiy davomiylikda rivojlantirilishga asoslanadi. Mirzo Ulug‘bekning ilmiy maktabi ham o‘z faoliyati davomida O‘rta Osiyolik mashhur olimlar boshlab bergan ilmiy an’analarga tayanadi. Shunday bo‘lsada, Mirzo Ulug‘bek akademiyasi olimlari, xususan uning o‘zi ham fanni yangi innovatsion fikrlar bilan boyitib, fanda bir qator kashfiyot va ixtirolarga sabab bo‘ldi. “Agar Temur va Shoxruhlar shariat qonunlariga berilib o‘zlariga madadkor bo‘lgan musulmon ruhoniylarining ta’siriga suyangan holda ko‘proq diniy muassasalar uchun zarur binolar, ya’ni masjid, maqbara va honaqolar qurdirgan bo‘lsalar, Ulug‘bek o‘z faoliyatida ulardan o‘zgacha yo‘lni ko‘proq madaniy va ilmiy muassasalar qurish, mamlakatga ma’rifat nurini sochish, madaniyatni taraqqiy ettirish, obodonchilik, ma’muriyatchilik va ijtimoiy taraqqiyot yo‘lini tanladi” [4, 78].

Mirzo Ulug‘bek hayoti, amaliy faoliyati ilm-fan taraqqiyotiga bag‘ishlangan edi. U ilm yordamida kelajakni oldindan ko‘rdi. Uning astronomiya va boshqa fanlar *sohasidagi* kashfiyotlari va ilmiy ta’limotlari insoniyatning keyingi ilmiy tafakkuri rivojiga favqulodda muhim zamin tayyorlab berdi. Shu bilan birgalikda O‘rta Osiyo xalqlari ilm-fani va madaniyatini jahon miqyosiga olib chiqdi.

Buyuk Alisher Navoiy Mirzo Ulug‘bekning faoliyatiga eng adolatli tarzda baho bergan mutafakkirdir.

Temurxon naslidin sulton Ulug‘bek,
Ki olam ko‘rmadi sulton aningdek.
Oning obnoyi jinsi bo‘ldi barbod,
Ki davr ahli biridin aylamas yod.

Xaqiqatan ham buyuk bobokolonimiz Mir Alisher Navoiyning ta’kidlaganidek, Mirzo Ulug‘bekning “Ziji” hozirgi kunimizda ham o‘z qimmatini yo‘qotgan emas. Mirzo Ulug‘bekning “Ziji” dunyo kutubxonalari va shaxsiy kitob yig‘uvchilar orasida eng ko‘p tarqalgan asar bo‘lib, hozirgi kunda bu asarning 150 dan ortiq nushasi ma’lum.

“Ulug‘bek davrida Samarqanddan tashqari saltanatning ko‘plab boshqa shaharlari - Buxoro, G‘ijduvon, Shaxrisabz, Termiz, Toshkentda ham me’moriy san’atning noyob obidalari barpo qilindi” [3, 57]. Mirzo Ulug‘bek fan va madaniyatda, ayniqsa, matematika va astranomiya ilmida mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni, ilmning hamma sohalari bo‘yicha o‘ta qobiliyatli va iste’dodli olimlarning borligini e’tiborga olib yangi oliy maktab - ilmu tafakkur markazini yaratishga qaror qildi. Ana shu maqsadda qurilgan madrasalar ichida eng muhtashami va mashhuri - Samarqanddagi Ulug‘bek madrasasidir. 1420 yilda Madrasa ochilgan kuni birinchi bo‘lib ma’ruzani Mavlono Shamoiddin Muhammad Xavofiy mudarris sifatida o‘qigan. Muhammad Xavofiyning olimlardan 90 kishi ishtirokida o‘qigan ma’ruzasini o‘ta chuqur ma’noli, juda murakkab, ilm-fanning barcha sohalarini qamrab olganligi hamda muammoli tarzda bo‘lganligi sababli Ulug‘bek bilan Qozizoda Rumiydan boshqa hech kim tushunmagan.

Mirzo Ulug‘bek 1424-1428 yillarda Samarqand yaqinidagi Obiraxmat anhori yonidagi tepalikda rasadxona qurdirdi. Olimlarning qoyil qolib aytishlaricha, Samarqandda barpo etilgan Ulug‘bek rasadxonasiga o‘zining jihozi, ilmiy yutuqlari bilan tenglasha oladigan rasadxona jahonda na undan oldin, na undan keyin ham yaratilgan emas. U aholi o‘rtasida “Naqshi jahon” degan nom bilan shuhrat qozongan. Rasadxonada olib borilgan kuzatish va tadqiqotlar tufayli 1018 qo‘zgalmas yulduzlarning o‘rni va holati aniqlanib, ularning astronomik jadvallari tuzilgan. Mirzo Ulug‘bekning astronomik jadvali va uning rahbarligida bino qilingan rasadxona o‘sha davr astronomiya fani yutuqlarining taraqiyotida chuqur iz qoldirdi. “Ko‘hak tepasida mo‘jazgina va ko‘rkam bir bino bor. Xalq orasida u cho‘ponlarning piri hisoblanuvchi Cho‘pon ota maqbarasi sifatida e’zozlanadi. Bu yerda chindan ham qandaydir qabrlar topilgan, lekin arxeologik ma’lumotlarga ko‘ra, ular binoning o‘zidan “yoshroq”. Maqbaraning me’moriy jihatlari tuzilishi,

qurilishi va bezaklari esa XV asrning 30-40 yillariga mansub. Ya’ni, bu inshoot Ulug‘bek davrida bunyod etilgan yodgorlikdir” [1, 14].

Mirzo Ulug‘bek ta’lim-tarbiya ishlarini yangi pog‘onaga ko‘tarish uchun taniqli olimlar jalb etdi. Uning bu sohadagi asosiy maqsadi xalqni ma’rifat nuridan bahra olishga erishtirish bo‘lgan. Ta’lim-tarbiya sohasidagi eng katta ishlaridan biri madraslarda amalga oshirgan islohotlari edi. Bu islohotlar natijasida madraslarda ilohiy ilmdan tashqari dunyoviy va tabiiy fanlar, riyoziyot, xandasa, ilmi hay’at, tarix, jo‘g‘rofiya, ilmi oruz, muhandislik, arab tili va uning morfologiyasi, falsafa, mantiq kabi fanlarning o‘qtilishiga e’tibor qilingan.

Mirzo Ulug‘bekning ta’lim-tarbiya konsepsiyasida “Shogirdlar yuzida o‘qituvchini ko‘rish” tamoyili ustunlik qilgan. Chunki u o‘qituvchini birinchi navbatda ustoz sifatida tushungan bo‘lsa, ikkinchi tomondan uni har tomonlama bilimdon, ma’lumotli, keng qirrali bilim sohibi, ensiklopedist olim sifatida bo‘lishi ta’kidlangan.

Mirzo Ulug‘bekning ilm-fan jonkuyari bo‘ganligi, hamda ma’rifatparvarlikdan iborat siyosati tufayli “Samarqand akademiyasi” Sharq xalqlari madaniyati tarixida o‘chmas iz qoldirdi. Bu akademiya “Ulug‘bekning Samarqand astranomiya maktabi” nomi bilan tarixda qolgan. Fransuz olimi, faylasuf va ma’rifatparvar yozuvchi Volter (1694-1778) Ulug‘bekning bu astranomiya maktabini “Ulug‘bek akademiya”si deb birinchi bo‘lib aytgan edi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, Mirzo Ulug‘bek birinchi bo‘lib, o‘z podsholigi davrida Turonzaminda ilmu-fan natijalari va xulosalarini turmushga, ijtimoiy hayotga tatbiq etish g‘oyasini ilgari surgan. Bu esa uning hamma ilmli bo‘lishi kerak degan g‘oyasiga to‘la amal qilganligidan darak beradi. Shu sababli Samarqand madrasasi peshtoqiga yulduzli osmonni, Buxoro madrasasi peshtoqiga “Ilmga intilish har bir musulmon va muslimaning burchidir”, deb yozilganligi esa uning o‘ta ma’rifatparvar bo‘lganligidan, ilm va fan qudratiga uning ijtimoiy kuchiga ishonganligidan darak beradi.

Mirzo Ulug‘bek maktabining ilmiy ma’naviy merosi keyingi asrlarda jahonda ko‘pgina innovatsion ilmiy kashfiyotlarning amalga oshishiga zamin bo‘ldi. Eng muhimi, Ulug‘bek akademiyasi Samarqand maktabi sifatida qadimiy va navqiron shahrimizning jahon ilm-fani, madaniyati va ma’naviyatidagi eng yuksak o‘rnini belgilab berishga xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Путы и страны» Абу-л Касима ибн Хаукаля. Тр. САГУ., вып.XI, Т., 1987.

2. Мақсуд Шайхзода. «Темурхон наслидан», «Мирзо Улуғбек» (тариҳий фожиадан қучирмалар). - Тафаккур, №1, 1994.

3. Шишкин В.А. Мазары в занги-ата. В.кн.: В.В.Бартольду, Туркестанские друзья почитатели. Ташкент, 1927.

4. Ўралов А., Сувонқулов И. Алломалар олами. Тошкент: Узбекистон, 1991.

SUG‘D SAVDOGARLARI VA ULARNING XALQARO SAVDODAGI O‘RNI

Indiaminova Shoira Amriddinovna
Samarqand davlat chet tillar instituti, dotsent
shoiraindiaminova1986@gmail.com

Sug‘diyona qadimda Markaziy Osiyoning savdo, madaniyat va diplomatiya markazlaridan biri sifatida shakllangan. Bu hududdan o‘tgan Ipak yo‘li qadimiy sivilizatsiyalar – Xitoy, Hindiston, Fors, Vizantiya va Arab xalifaligi o‘rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalarning rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynagan. Aynan sug‘d savdogarlari ushbu jarayonlarda vositachi sifatida faol ishtirok etib, xalqaro miqyosda o‘z izini qoldirgan.

Sug‘diylar nafaqat tovarlar almashinuvini, balki madaniy va diniy g‘oyalar tarqalishini ham ta'minlagan. Ushbu maqola Sug‘d savdogarlari faoliyatini tizimli tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlar asosida ularning xalqaro savdodagi mavqeini yoritadi.

Sug‘diyona shaharlarida savdo faoliyati iqtisodiyotning asosiy tarmog‘i sifatida shakllangan. Sug‘d savdogarlari, ayniqsa, VI–VIII asrlarda iqtisodiy kuchga ega bo‘lgan elita qatlamini tashkil etgan. Arxeologik qazilmalarda topilgan karvonsaroylar, omborlar va bozor inshootlari bu faoliyatning rivojlanganidan darak beradi [3,28].

Sug‘diyona hududi qadimdan savdo-sotiq faoliyati uchun qulay geografik sharoitga ega bo‘lgan. U Xitoydan boshlanib Yevropagacha cho‘zilgan Ipak yo‘lining markaziy nuqtasida joylashgan bo‘lib, tabiiy-iqlimiy sharoitlar, sug‘oriladigan dehqonchilikning rivoji, hunarmandchilik markazlarining ko‘pligi hamda aholi zichligi tufayli Sug‘diyona shaharlarida savdo faoliyati iqtisodiyotning asosiy tarmog‘i sifatida shakllangan.

Sug‘d savdogarlari, ayniqsa, VI–VIII asrlarda iqtisodiy kuchga ega bo‘lgan elita qatlamini tashkil etgan. Arxeologik qazilmalarda topilgan yirik karvonsaroylar, omborlar, bozorlar, savdo rastalari, shuningdek, yozuvli muhrlar va savdo hujjatlari bu hududda xalqaro darajadagi savdo aloqalari mavjud bo‘lganini tasdiqlaydi [4,85].

Sug‘d shaharlarida hunarmandchilik va mahsulot ishlab chiqarish tarmoqlari rivojlangan bo‘lib, ular nafaqat mahalliy ehtiyoj, balki eksport uchun ham mo‘ljallangan edi. Xususan, to‘qimachilik, zargarlik, kulolchilik, metall ishlov berish, shisha buyumlar tayyorlash Sug‘d iqtisodiyotining ustun tarmoqlari bo‘lgan. Mahsulotlar sifat va nafislik jihatidan Xitoy va Fors bozorlarida yuqori baholangan. Bu esa sug‘diylarga o‘z mahsulotlarini xalqaro bozorlarda foydali narxlarda sotish imkonini bergan.

Savdogarlar ko‘pincha o‘z karvonlari bilan uzoq masofalarni bosib o‘tib, Xitoydan chinni, ipak, kaolin olib kelgan bo‘lsa, Yevropa va Forsdan shisha, metall buyumlar, qimmatbaho toshlar va zargarlik mahsulotlarini olib kirganlar. Mahsulotlar almashinuvi asosan natural barter asosida amalga oshirilgan bo‘lsa-da, ba’zi joylarda pul birligi ham ishlatilgan. Bu yerda sug‘diylarning o‘ziga xos pul tizimi ham bo‘lganligi arxeologik topilmalarda aniqlangan tanga va muhrlar orqali tasdiqlanadi.

Sug‘diy savdogarlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy hayotda ham alohida mavqega ega bo‘lganlar. Ular o‘z boyliklari hisobiga shahar infratuzilmasini rivojlantirishga hissa qo‘shgan, diniy va ijtimoiy loyihalarni moliyalashtirganlar. Panjikentdagi freskalarda ularning jamiyatdagi o‘rni aniq ko‘rsatilgan: ular zodagonlar va ziyoratgoh homiylari sifatida tasvirlanadi. Bu esa ularning iqtisodiy kuchi ijtimoiy nufuz bilan uyg‘un bo‘lganini ko‘rsatadi.

Xitoy manbalarida sug‘diylar “Hu” nomi bilan tanilgan. Tang sulolasi saroy arxivlarida ularning elchi sifatida yuborilgani, hatto ayrim hollarda saroyda doimiy vakillikka ega bo‘lgani yozilgan [2,65]. Bu esa sug‘d savdogarlarining faqatgina iqtisodiy emas, balki diplomatik doiralarda ham e’tiborli shaxslar bo‘lganini isbotlaydi.

Shuningdek, sug‘d savdogarlari o‘z bilimdonligi, ko‘p tilli muloqot qobiliyati, savdo-siyosiy vaziyatdan ogohligi bilan ajralib turgan. Ular o‘z karvonlarida ko‘pincha tarjimon, yozuvchi va diniy vakillarni ham olib yurishgan. Bu esa sug‘d savdogarlarini an’anaviy tovar almashuvchi emas, balki madaniy vositachilar, diplomatlar, axborot tashuvchilar darajasiga olib chiqqan.

Sug‘d savdogarlari Sharq va G‘arb o‘rtasidagi muloqotni ta’minlagan asosiy vositachilardan bo‘lgan. Dunxuan va Turfon manbalarida sug‘diylarning Xitoydagi savdo koloniyalari, tarjimonlik faoliyati va doimiy yashash joylari haqida aniq ma’lumotlar mavjud.

Misol uchun, VIII asrga oid Dunxuan qo‘lyozmalarida An Jia nomli sug‘d savdogari o‘z karvoni bilan Xitoyda uzoq muddat qolgan va savdo hujjatlarini rasmiylashtirgan. Bu esa sug‘diylarning xalqaro savdo tizimida institutsional ishtirokini ko‘rsatadi.

Sug‘d savdogarlarining xalqaro savdo, diplomatik aloqalar va madaniyatlararo vositachilikdagi faoliyati faqat yozma manbalar orqali emas, balki arxeologik topilmalar va tasviriy manbalar orqali ham aniq ko‘rinadi. Xususan, Samarqanddagi Afrosiyob shahristoni va Panjikent shahri xarobalaridan topilgan dekorativ freskalar va devoriy rasmlar sug‘diylarning siyosiy-diplomatik obro‘si, iqtisodiy qudrati va madaniy rivojlanganligini isbotlovchi beqiyos manbalardir.

Samarqanddagi qadimgi shaharning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan Afrosiyob tepaligidan 1965-yilda o‘zbekistonlik arxeologlar tomonidan topilgan devoriy rasmlar, olimlarning fikricha, VII asrda hukmronlik qilgan Sug‘d hukmdori Varxuman saroyining devorlariga ishlangan [1,69]. Bu freskalar — diniy, siyosiy va diplomatik marosimlarni, jumladan xorijiy elchilarni qabul qilish marosimini tasvirlaydi.

Marshak va Azarpay (1994) tahlillariga ko‘ra, devoriy rasmning markaziy qismida Sug‘d hukmdori taxtda o‘tirgan holatda tasvirlangan. Uning atrofiga turli xalqlardan — Xitoy, Tibet, Hindiston, Turkiy qabilalar va Eron elchilari sovg‘alar bilan kirib kelmoqda.

Tasvirlarda elchilarning o‘ziga xos liboslari, yuz tuzilishi, hatto sovg‘a tariqasida olib kelgan buyumlar (chinni, hayvonlar, ipak) juda batafsil aks ettirilgan. Bu esa sug‘diylar xalqaro aloqalarining real ko‘lamini va rang-barangligini isbotlaydi.

Ushbu freska elchilar safida sug‘d savdogarlari va ularning vakillari ham qatnashganini ko‘rsatadi. Ular ko‘pincha vositachi, tarjimon va kelishuvlarni tashkil etuvchi sifatida qabul marosimlarida faol ishtirok etgan.

Tojikistonning Zarafshon vodiysidagi qadimgi Panjikent shahri xarobalaridan topilgan freskalar va arxeologik topilmalar VI–VIII asrlar oralig‘iga tegishli bo‘lib, sug‘d shahar madaniyatining hayotiy tafsilotlarini ochib beradi. Bu yerda topilgan tasviriy manbalarda savdogarlarning kundalik hayoti, kiyinish uslubi, diniy marosimdagi ishtiroki, boshqa xalqlar bilan aloqasi aniq tasvirlangan.

B.A. Litvinskiy va E.V. Rtveladze tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Panjikentdagi devoriy rasmlar ichida savdogarlarning tantanali qabuli, o‘z mahsulotlarini ko‘rsatuvchi rastalar, marosimlari va diniy ibodat sahnalari mavjudligi qayd etilgan.

Savdogarlar qimmatbaho ipak liboslarda, belbog‘li, uzun soyabonli ko‘rinishda tasvirlangan — bu ularning yuqori ijtimoiy maqomini bildiradi. Ayrim rasmlarda ular xorijlik mehmonlar yoki karvon boshlig‘i sifatida ko‘rsatiladi.

Bu freskalar orqali Sug‘d savdogarlari turmush tarzining yuqori darajadagi jamoaviy va ijtimoiy rivojlanganligini anglash mumkin. Ayniqsa, ular turli madaniyatlar bilan aloqada bo‘lib, boshqa xalqlarning liboslari, buyumlari, hattoki ibodat shakllarini qabul qilgan va ularni o‘z jamiyatiga moslashtirgan.

Afrosiyob va Panjikentdagi freskalar san’at asari sifatida o‘z davrining ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy tuzumini vizual hujjat shaklida ifoda etadi. Ular, Sug‘d savdogarlarining xalqaro aloqalardagi mavqeini, ularning turmush darajasi va ijtimoiy nufuzini, boshqa xalqlar bilan integratsiyalashuv darajasini, madaniy yuksalish bosqichlarini tasdiqlovchi manbadir.

Sug‘diy yozuvi qadimgi oromiy yozuvi asosida shakllanib, IV–VIII asrlarda Markaziy Osiyo va Sharqiy Osiyoda savdo-sotiq, diplomatik yozishmalar va diniy risolalarda asosiy aloqa vositasiga aylangan. Bu yozuv savdo tili sifatida Xitoydan Vizantiyagacha bo‘lgan keng hududda ishlatilgan [6,78].

Sims-Williams (1985) ta’kidlaganidek, sug‘d yozuvi savdogarlarning kundalik yozishmalaridan tortib rasmiy shartnomalarigacha bo‘lgan barcha hujjatlarda qo‘llanilgan. Arxeologik jihatdan bu yozuv Mug tog‘i hujjatlari, Panjikent yozuvlari, Turfon va Dunxuan qo‘lyozmalarida keng ko‘rinishda qayd etilgan [7,98].

Turfon mintaqasidan topilgan buddaviy va moniylik matnlari sug‘d tilida tarjima qilingan bo‘lib, bu yozuvning diniy adabiyotda ham faol qo‘llanganligini ko‘rsatadi.

Sug‘d savdogarlari faqat iqtisodiy emas, balki diniy-madaniy almashinuvlarning ham faol ishtirokchisi bo‘lganlar. Ular orqali buddaviylik, zardushtiylik, moniylik va nasroniylik (nestorianlik) kabi ta’limotlar Sharqiy Osiyoga yetib borgan. Bu jarayonda ular nafaqat targ‘ibotchi, balki diniy tekstlarni tarjima qiluvchi, diniy markazlar tashkil etuvchi va diniy san’at shakllarini ko‘chirishda vositachi sifatida ishtirok etganlar.

Bausani (1993) sug‘diylarni “madaniy va diniy diplomatiya ustalari” deb ta’riflab, ularning faolligi tufayli moniylik dini Tang Xitoyida keng tarqalganini ta’kidlaydi. Shuningdek, 781-yilda Xitoyda qad rostlagan Nestorian toshida Sug‘d savdogarlarining xristian jamoalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan.

Sug‘diylar orqali moniylikning Sharqiy Osiyoda tarqalishida muhim bosqich yuz bergan – ular diniy matnlarni o‘z tillariga tarjima qilib, ularni Xitoy, Tibetga yetkazganlar. Bu esa Ipak yo‘li bo‘ylab madaniyatlararo sintezni kuchaytirgan.

Sug‘d elchilari Tang imperatorlari saroyida rasmiy ravishda qabul qilingan. Xitoy yilnomalari – “Jiu Tangshu” (Eski Tang sulolasi yilnomalari) va “Tangshu”da Samarqand elchilari va savdogarlarining diplomatik faoliyati haqida aniq yozuvlar mavjud.

Sug‘diylar Tang Xitoyidagi ijtimoiy-siyosiy hayotga faol integratsiyalashgan. Ayrim sug‘diy shaxslar viloyat boshqaruvi tizimida lavozim egallagan. Masalan, An Lushan Tang imperiyasida harbiy lavozimni egallagan va keyinchalik mashhur isyon boshlig‘i bo‘lgan.

Sug‘diylar tomonidan Xitoyning Chang’an va Luoyang kabi yirik shaharlarida tashkil etilgan savdo koloniyalari ularning siyosiy va iqtisodiy ta’sir doirasi kengligini ko‘rsatadi. Ular bu yerda o‘z diniy marosimlarini erkin o‘tkazgan, shuningdek, savdo va diplomatik bitimlarda faol qatnashganlar.

Sug‘d savdogarlari xalqaro savdo tarixida alohida o‘rin egallaydi. Ularning faoliyati orqali Sharq va G‘arb o‘rtasida nafaqat iqtisodiy, balki madaniy, diniy va diplomatik aloqalar mustahkamlangan. Arxeologik topilmalar, yozma manbalar va zamonaviy tadqiqotlar bu holatni chuqur isbotlab bermoqda. Bugungi kunda bu tarixiy meros O‘zbekistonning jahon tsivilizatsiyalari o‘rtasidagi o‘rni va tarixiy o‘zligining isboti sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Альбаум Л.И. Живопись Афрасиаба. Ташкент, 1975.
2. Анарбаев А.А. Великий Шелковый путь и путешествие Сюянь Цзяня в Среднюю Азию // ОНУ, №5-6. Ташкент, 1999а.
3. Войтов В.Е. Походы тюрок за Саяны, в Джунгарию и Согдиану. Материальная культура Востока. Вып. 5. М., 2010.
4. Гадаев К., Бердиев С. Жаҳонгашта сайёҳ – олимлар. Тошкент, 2012.
5. Зотов П.Э. К истории бумажного производства на Востоке // Труды Института Востоковедения АН УзССР. Вып. 3. Ташкент, 1951.
6. К истории ранних связей Чача и Византии \\ Материалы конференции, посвящ. 70-летию каф. Археологии Средней Азии. Ташкент, 2010.
7. Лившиц В.А. Юридические документы и письма. Согдийские документы с горы Муг. Чтение. Перевод. Комментарий. М., 1962.

МЕТОДОЛОГИЯ НАУКИ: СУЩНОСТЬ, СТРУКТУРА И РОЛЬ В ПОЗНАНИИ

Меликова Мартаба Нумоновна
Самаркандский государственный институт иностранных языков,
Доктор философских наук (DSc), профессор,
Заведующая кафедрой Гуманитарных наук и информационных технологий
E-mail: martabamelikova@gmail.com

Аннотация. Статья посвящена исследованию сущности и структуры методологии науки. Раскрываются её уровни (философский, общенаучный, частнонаучный и технологический), а также ключевые функции —

эвристическая, критическая, регулятивная и др. Подчёркивается роль методологии в формировании научного мышления и обеспечении логической целостности исследования. Автор делает вывод о том, что методология является неотъемлемым элементом культуры научного познания и интеллектуальной зрелости.

Ключевые слова: методология, наука, научное познание, научное мышление, методы исследования, философия науки, научная теория, структура методологии.

Современная наука представляет собой не просто совокупность знаний, но и особую систему методов, принципов и логических процедур, направленных на получение объективного знания о мире. В этом контексте методология науки выступает неотъемлемой частью научного познания. Она обеспечивает осознанность, системность и обоснованность исследовательской деятельности, задаёт рамки допустимого и критерии научности.

Цель настоящей статьи — рассмотреть понятие методологии науки, раскрыть её структуру, уровни, функции, а также определить её значение в развитии научного мышления и практики.

Методология науки — это раздел философского и научного знания, изучающий способы, средства и принципы построения и обоснования научных теорий, а также пути научного познания в целом. Она отвечает на вопрос: *как* осуществляется получение знания, *на каких основаниях* строится научная деятельность, *по каким правилам* интерпретируются факты и формируются теории.

Методология науки включает в себя как общие философские основания познания, так и конкретные исследовательские методы, используемые в различных науках.

Методология науки имеет многоуровневую структуру. Выделяют следующие уровни:

философский уровень — включает мировоззренческие и онтологические предпосылки научного познания (материализм, идеализм, детерминизм, системный подход и др.);

общенаучный уровень — охватывает методы и принципы, применимые ко всем наукам: анализ и синтез, индукция и дедукция, моделирование, абстрагирование, системность и т.д.;

частнонаучный уровень — включает методы, характерные для конкретных дисциплин (например, сравнительный метод в лингвистике, эксперимент в физике, кейс-стади в социологии);

технологический уровень — это практические методики и процедуры проведения исследования (сбор данных, статистическая обработка, оформление результатов и пр.).

Эта структура отражает иерархию методов — от наиболее абстрактных до прикладных.

Методология выполняет несколько ключевых функций: эвристическая — направлена на открытие нового знания, постановку проблем и формирование гипотез; критическая — помогает выявлять логические ошибки, противоречия, недостатки теорий; рефлексивная — способствует осмыслению собственной исследовательской деятельности; регулятивная — задаёт нормы научного поиска, логики рассуждений и процедур доказательства; интегративная — объединяет знания и методы различных наук в единую систему.

Методология играет важнейшую роль в формировании научного стиля мышления — критического, обоснованного, логически стройного. Она способствует переходу от обыденных представлений к системному знанию, учит работать с понятиями, моделями и теоретическими конструкциями.

Кроме того, методология позволяет адаптироваться к изменениям в науке — смене парадигм, появлению новых дисциплин и междисциплинарных подходов. Именно методологическая гибкость делает науку живой и развивающейся системой.

Методология науки — это не только «инструментарий» исследователя, но и фундаментальная часть научного мировоззрения. Её изучение и применение позволяет сделать научную деятельность более осознанной, продуктивной и ответственной. Без методологической культуры невозможны ни глубокие открытия, ни эффективная научная практика. Таким образом, методология выступает не только как техника, но и как философия научного познания.

Список литературы

1. Стёпин В.С. *Философия науки*. — М.: Гардарики, 2003. — 400 с.
2. Кун Т. *Структура научных революций*. — М.: АСТ, 2003. — 310 с.
3. Поппер К. *Логика и рост научного знания*. — М.: Прогресс, 1983. — 620 с.
4. Бачинин В.А. *Методология и методика научного исследования*. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2006. — 286 с.
5. Гусев В.И. *Методология научных исследований: учебное пособие*. — СПб.: Питер, 2018. — 224 с.

6. Лекторский В.А. *Познание, деятельность, ценности*. — М.: Наука, 1980. — 328 с.

MA’NAVIYATSHUNOSLIK FANINING RAQAMLI TA’LIMDAGI TADQIQOT METODOLOGIYASI

Yo‘ldoshev Sherzod Ravshan o‘g‘li
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada ma’naviyatshunoslik fanining raqamli ta’limdagi tadqiqot metodologiyasi tahlil qilinadi. Muallif “Raqamli ma’naviyat platformasi” misolida ayniqsa 28-mavzu — “Ma’naviyatning aksiologik tamoyillari” mavzusi asosida raqamli o‘quv muhiti imkoniyatlarini ko‘rib chiqadi. Aksiologik yondashuv asosida qadriyatlarga tayangan ta’lim mazmunining talaba shaxsida ma’naviy ong, tanqidiy fikrlash va axloqiy pozitsiyani shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, interaktiv vositalar yordamida samarali o‘qitish metodlari va ularning ma’naviy-mafkuraviy immunitetni mustahkamlashdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Maqola yakunida ilmiy-amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: ma’naviyatshunoslik, raqamli ta’lim, aksiologik yondashuv, qadriyatlar, Raqamli ma’naviyat platformasi, metodologiya, interaktiv ta’lim, ma’naviy immunitet, raqamli pedagogika, tanqidiy tafakkur.

XXI asrda ta’lim jarayonlari raqamli muhitga faol integratsiyalashar ekan, har bir fan sohasi o‘z metodologik yondashuvlarini qayta ko‘rib chiqishga majbur bo‘lmoqda. Xususan, ma’naviyatshunoslik fani zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sharoitida o‘quvchilarda ma’naviy ong, qadriyatlar tizimi va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirishda yangicha ilmiy-metodik yechimlarga muhtojdir. Raqamli ta’lim muhiti bu jarayonda nafaqat texnologik vosita, balki mazmunni yetkazish va talabaning faol ishtirokini ta’minlovchi metodologik maydon sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mazkur maqolada ma’naviyatshunoslik fanining raqamli ta’limdagi tadqiqot metodologiyasi tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor “Raqamli ma’naviyat platformasi” asosida ishlab chiqilgan o‘quv materiallarining, xususan, 28-mavzu — “Ma’naviyatning aksiologik tamoyillari”ning mazmuni va uning amaliy tatbiqiga qaratiladi. Shuningdek, raqamli muhitda aksiologik yondashuv asosida ma’naviy tarbiya berish metodikasi hamda bu boradagi ilmiy izlanishlarning ustuvor yo‘nalishlari ko‘rib chiqiladi.

Raqamli ta’limda ma’naviy-mafkuraviy bilimlarni samarali yetkazish uchun zamonaviy metodologik yondashuvlar zarur. Shu nuqtai nazardan, “Raqamli ma’naviyat platformasi” ma’naviyatshunoslik fanini o‘qitishda innovatsion o‘quv

muhiti yaratish orqali raqamli pedagogika va milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash imkonini bermoqda. Platformada ishlab chiqilgan 28-mavzu — “Ma’naviyatning aksiologik tamoyillari” ushbu jarayonning metodologik asoslarini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

Aksiologik yondashuv, ya’ni qadriyatlar asosida ta’lim berish metodologiyasi, ayniqsa raqamli muhitda insonning dunyoqarashi, axloqiy mezonlari va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantirishda o‘ziga xos metodik yondashuvlarni talab etadi. Platformadagi mazkur mavzuda ma’naviyatning qadriy asoslari — ezgulik, adolat, erkinlik, halollik kabi tamoyillar interaktiv vositalar, multimedia darsliklar, test va topshiriqlar orqali tushuntiriladi. Bu esa nafaqat bilim, balki qadriyatga asoslangan ongli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur mavzu doirasida aksiologik tamoyillarni o‘zlashtirishga yordam beradigan metodik vositalar sifatida:

- **Video ma’ruzalar** orqali muhim g‘oyalar vizual tarzda tushuntiriladi;
- **Interaktiv testlar** orqali tanqidiy fikrlash, qadriyatlarni ajratish va baholash ko‘nikmalari rivojlanadi;
- **Mustaqil ta’lim topshiriqlari** orqali talabaning individual refleksiyasi shakllantiriladi;
- **Muloqot maydonlari** orqali esa platforma orqali talaba va ustoz o‘rtasida aksiologik mavzular yuzasidan muloqot, tahlil va bahs madaniyati rivojlanadi.

Bu uslublar raqamli muhitda faqat bilim emas, balki qadriyatli dunyoqarash shakllanishiga xizmat qiladi. Aynan shu orqali raqamli texnologiyalar yordamida ma’naviy immunitetni kuchaytirish, yosh avlodni axborot xurujlariga qarshi ongli tayyorlash mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, platformadagi bu mavzu orqali talabalarda aksiologik tafakkur, ya’ni har qanday axborot, voqelik va hodisaga qadriyatlar mezoni orqali yondasha olish malakasi shakllantiriladi. Bu esa ularning raqamli dunyodagi mafkuraviy manipulyatsiyalarga nisbatan barqaror pozitsiyaga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

Xulosa

Raqamli ta’lim muhitida ma’naviyatshunoslik fanining o‘qitish metodikasini ilmiy asoslash va takomillashtirish zamonaviy pedagogik fikr oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. “Raqamli ma’naviyat platformasi” tajribasi asosida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli texnologiyalar vositasida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni o‘quvchilarga yetkazish imkoniyatlari keng va samarali.

Xususan, platformadagi 28-mavzu — **“Ma’naviyatning aksiologik tamoyillari”** doirasidagi tadqiqot quyidagi xulosalarga olib keladi:

- Raqamli ta’limda aksiologik yondashuv ma’naviy tarbiyaning ichki mazmunini boyitadi, talaba ongida qadriyatlar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi;
- Interaktiv texnologiyalar (video darslar, testlar, topshiriqlar, muhokamalar) orqali o‘quvchilar o‘z shaxsiy e’tiqod va pozitsiyasini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘ladi;
- Aksiologik tamoyillar asosida tuzilgan dars mazmuni tanqidiy va analitik fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi, bu esa mafkuraviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tavsiyalar:

1. Raqamli ma’naviy ta’lim platformalarining didaktik imkoniyatlarini yanada kengaytirish va ilmiy asosda boyitish zarur;

2. Ma’naviyatshunoslik fanini raqamli vositalar orqali o‘rgatishda aksiologik tamoyillarni asosiy metodik yo‘nalish sifatida qo‘llash tavsiya etiladi;

3. Platforma asosida olib borilayotgan darslar natijalarini muntazam monitoring qilib borish va ularni takomillashtirish uchun tahliliy mexanizmlarni joriy etish lozim;

4. Mazkur metodologiyani boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan integratsiyada qo‘llab, fanlararo o‘quv loyihalari yaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shunday qilib, raqamli ta’lim sharoitida aksiologik yondashuvga asoslangan ma’naviyatshunoslik darslari — nafaqat zamonaviy pedagogik talabga javob beradi, balki talabaning ma’naviy barkamolligini ta’minlashda muhim strategik omilga aylanadi.

CHO’LPON: JADIDCHILIK G’OYALARI VA ADABIY MEROSINING UYG’UNLIGI

Akramjonova Dilnavoz Davronbek qizi
Qo’qon Universiteti BT-4-24 guruh talabasi
Adhamxo’ja Isaxo’ja o’g’li

Annotatsiya: Ushbu maqolada taniqli jadid namoyondalaridan biri va shoir Abdulhamid Cho’lponning boy adabiy merosi va xalqni ma’rifatli qilish uchun qilgan harakatlari, bu yo’lda duch kelgan qiyinchiliklari, tortgan azoblari, yelib-yugurganlari, jadidchilik g’oyalarini yoyilishidagi o’rni haqida batafsil yoritilgan.

Kalit so’zlar: Qatorterak, tasavvufona she’rlar, Rasvo, V.Yan, panturkist, panislomist, ma’rifatparvar, lirizm, vatanparvarlik, ijtimoiy metod, kapitalistik munosabatlar, feadal-mustamlakachilik, paxta, ruhiy va jismoniy azob,strategic

vosita, psixologik bosim, anafora, tashbeh, metafra, sinfiy ekspluatatsiya, dramaturgiya, NKVD, millat, pessimistik, S.Pismenniy, marksistcha, proletar shoir.

XX asr boshlarida Turkistonda yuzaga kelgan jadidchilik harakati millatning uyg‘onishi, ma’rifatga intilishi va zamonaviy tafakkur sari yo‘l olishini maqsad qilgan edi. Bu harakatning peshqadamlaridan biri — o‘zbek adabiyotining zabardast vakili Abdulhamid Cho‘lpon edi. U nafaqat shoir, balki tarjimon, dramaturg va jadid g‘oyalarining faol targ‘ibotchisi sifatida ham tarixda muhim o‘rin egallaydi. Cho‘lpon o‘z ijodi orqali xalqni uyg‘otish, milliy ongni shakllantirish va adabiyotni yangi bosqichga olib chiqishga intildi.

Abdulhamid Cho‘lpon 1897-yili Andijonning “Qatorterak” (hozirgi Navoiy shohko‘chasi) mahallasida o‘ziga to‘q oilada dunyoga kelgan. Onasi Oysha aya o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodiyotining jonli xazinasi edi. Abdulhamid ham barcha daho san’atkorlar kabi so‘z san’atiga muhabbatni onasi aytgan alla va ertaklardan olgan. Oysha ayaning 14 farzandidan faqatgina, 4 tasi omon qolib, qolganlari go‘daklik chog‘idayoq vafot etgan. Abdulhamid to‘ng‘ich farzand bo‘lgan, uning Komila (1902), Fozila (1905) va Foiqa (1908) ismli singillari bo‘lgan.

Yana shuni aytish joizki, ushbu dastur zamon bilan hamnafas qadam tashlaydi hamda o‘zining baholash mezonlarini zamonaviy talablarga muvofiq ravishda takomillashtirib boradi. Ta’lim sifatini baholashning xalqaro tizimlari nafaqat raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, balki mamlakat taraqqiyoti uchun zarur bo‘lgan barqaror ta’lim siyosatini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Milliy tizimni xalqaro standartlarga moslashtirish orqali O‘zbekiston global ta’lim maydonida munosib o‘rin egallashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining —O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g'risidagill 2019-yil 29-apreldagi PF-5217 sonli Farmoni

2. Assessing Reading, Mathematics and Scientific Literacy: A framework for PISA 2009. OECD, 2009

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-sonli qarori.

4. Khodjamkulov, U.Botirova, S.Shofkorov, A., & Abdirimova, I. (2020). Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews, 7(12), 243-247.

5. Abdirimova, I. K. (2020). Loyihalash faoliyatining bosqichlari loyihaga yondashuv mohiyati va maqsadlar uyg'unligi. Science and Education, 1(Special Issue 2). 18-26.22

6. Abdirimova, I. Methods and tools for the implementation of project activity in education.

7. И. К. Абдиримова Гармония образования в формировании любви к стране у молодежи Academic Research in educational sciences volume 2 (Issue 2) 2021

ISSN: 2181-1385, 1416-1421

8. https://kun.uz/news/2023/12/07/

INGLIZ ADABIYOTIDA BOBUR MIRZO SHAXSI

Jangirova Husniya Ilhom qizi
Samarqand davlat chet tillar instituti magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning ingliz adabiyotida o‘rganilishi, obraz sifatida berilishi tahlil qilingan. Bobur ijodi haqida asarlar yozgan ingliz ijodkorlari va ular badiiy olami haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: *tarixiy muhit, tarixiy shaxs, ijodkorlik, obraz, obrazlilik, badiiylik, mentalitet, milliy ruh.*

Аннотация. В статье анализируется изучение и репрезентация Захириддина Мухаммада Бабура в английской литературе. Приведена информация об английских художниках, писавших произведения о творчестве Бабура и его художественном мире.

Ключевые слова: историческая среда, историческая личность, творчество, образ, образность, артистизм, менталитет, национальный дух.

Abstract. This article analyzes the study of Zahiriddin Muhammad Babur in English literature, his presentation as an image. Information is provided about the English writers who wrote works about Babur's work and their artistic world.

Keywords: *historical environment, historical figure, creativity, image, imagery, artistry, mentality, national spirit.*

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng Bobur va Boburiylar tarixi–madaniyatini o‘rganish bo‘yicha O‘zbekistonda ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur xaqida ko‘plab tarixiy, tarixiy-adabiy va badiiy asarlar yaratildi. Uning xayot yo‘li va ijodini o‘rganish uchun xukumatimiz tomonidan ko‘plab xayrli ishlar amalga oshirildi va Bobur nomidagi Xalqaro jamg‘arma (1992-yil) ilmiy ekspeditsiyasi ham tashkil etildi. Ayniqsa, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarini keng tadqiq qilish ishlari avj oldi.

Xorijiy bobur shunoslikka nazar tashlaydigan bo‘lsak, G‘arbiy Yevropada Bobur va uning ijodini o‘rganish asosan XIX asrdan boshlangan. Bu borada fransuz va ingliz sharqshunoslarining xizmatlari beqiyos bo‘ldi. Ingliz sharqshunos olimlari Jon Leyden va Uil’yam Erskinlarning uzoq yillik mehnatlari natijasida 1826-yili “Boburnoma” ingliz tilida nashr etildi. 1828-yilda mazkur inglizcha tarjimadan nemis olimi A.Kayzer asarni nemis tiliga qisqartirib tarjima qiladi va Leyptsigda nashr ettiradi. 1871-yilda esa taniqli fransuz sharqshunos olimi Pave de Kurteyl tomonidan “Boburnoma” fransuz tilida nashr ettirildi. Mazkur tarjimalardan so‘ng Yevropada Bobur shaxsiga qiziqish ortib bordi va u haqida

Yevropaning turli tillarida ko‘plab asarlar yaratildi. Bu asarlar asosan Bobur va Boburiylarning Hindistonda o‘rnatgan saltanati va u yerda amalga oshirgan ishlariga bag‘ishlanadi. Xorijiy adabiyotlarda faqatgina Bobur shaxsi va uning amalga oshirgan ishlari emas, balki butun Boburiylarning hayoti va faoliyati yoritiladi. Masalan, U.Erskinning “Temuriylar sulolasidan bo‘lmish Bobur shoh va Humoyun davridagi Hindiston tarixi”, F.Bernening “Boburiylar saltanatining so‘nggi tarixi”, L.Sharmaning “Mo‘g‘ullar saltanati” va shu kabi boshqa ko‘plab asarlarida Bobur va boburiylarning Hindistonda olib borgan ishlari tasvirlanadi.

Bugungi kunda ham ko‘plab inglizzabon olimlar va yozuvchilar Bobur va boburiy sulola vakillariga bag‘ishlab ko‘plab asarlar yaratmoqdalar va bunday ahamiyatga molik ishlar davom etmoqda. Hususan, shoir, yozuvchi va dramaturg Farzona Mun ham Bobur va boburiy hukmdorlar haqida bir qator asarlar yaratgan jahon adabiyotining yetakchi vakillaridandir.[3]

Farzona Mun kelib chiqishi Pokistonlik bo‘lgan AQSh fuqorosi bo‘lib, bugungi kunda u turmush o‘rtog‘i va qizi bilan AQShning Ogayo shtatida yashab ijod qilmoqda. U tarix, siyosat, falsafaga qiziqadi. Farzona Munning ko‘plab asarlari AQSh, Kanada va Hindistonda chop qilingan. U Hindiston tarixiga oid bir qancha asarlar bitgan. Farzona Munning ilk asarlarida Hindistondagi oddiy xalqning hayoti, sharqona madaniyati aks ettirilgan. U Bobur va boburiy hukmdorlarga bag‘ishlab bir nechta badiiy asarlar yaratgan, ya’ni XVI-XVIII asrlarda yashab o‘tgan oltita podshoga bag‘ishlab asarlar yozgan.

Farzona Mun o‘z asarining so‘z boshida: “Ushbu kitobim o‘z ichiga Hindistonning boy tarixi, madaniyati va urf-odatlarini qamrab olgan”[4] – deb yozadi.

Farzona Munning asarlari quyidagilardir:

1. Babur, The First Moghul In India (Bobur Hindistondagi birinchi (mo‘g‘ul) hukmdor)
2. The Mogul Exile (Quvg’indagi (mo‘g‘ul) hukmdor)
3. Divine Akbar and Holy India (Ilohiy Akbar va muqaddas Hindiston)
4. The Mogul Hedonist (Jahongir)(Mo‘g‘il shohi-Jahongir)
5. Glorious Taj and Beloved Immortal (Shah Jahan) (Shonli toj va mangu muhabbat - (Shoh Jahon)

Farzona Munning birinchi kitobi “Babur, The First Moghul In India” deb nomlanib, u Z.M.Boburga bag’ishlangan bo‘lib, unda Boburni ota tarafdan Temurning oltinchi avlodi hamda ona tomonidan Chingizxonning beshinchi avlodi ekanligini ta’kidlaydi[5]. Ushbu asarda Boburning Qobuldagi va Hindistondagi hukmronligi, mashxur Kohinur haqida gapiradi. Shuningdek, asarda Bobur bog‘lar,

[3] M.Qoraboyev. Bobur va boburiyzoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.
[4] Moon Farzana. Babur the first moghul in India. Preface. Mehra Offset Press, Delhi. 1997.
[5] S.Sahodullayeva. Inglizzabon tarixiy-adabiy asarlarda Bobur Mirzo talqini. Journal of integrated education and research. 2023 (2).

saroy, masjid va madrasalar bunyod ettirish bilan birga Agradan Qobulgacha katta yo‘l qurish to‘g‘risida bergan farmoni haqida ham ma’lumotlar keltirilgan[6].

Aytish joizki, adiba asarlarini o‘qigan har qanday o‘quvchi o‘sha davrning turmush tarzini, tinchlik va farovonlik yo‘lidagi jangu-jadallarni, kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni, boburiylar saltanati ruhiyatini his qiladi.

Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonda barpo etgan buyuk sulolaning tarixi va an’analari, yuksalishi va tanazzuli haqida bugungi kunda ham jahon adabiy maydonida ko‘plab yangi badiiy asarlar dunyo yuzini ko‘rmoqdaki, mazkur asarlar mualliflarini dunyo kitobxonlariga tanilib, kitoblari sevib mutolaa qilinmoqda. Ana shunday yozuvchilardan yana biri Diana va Maykl Prestonlar bo‘lib, ular Aleks Rezerford taxallusi bilan ijod qilishmoqda. Bu adiblar 2009-yildan boshlab Diana va Maykl Preston Aleks Rezeford taxallusi bilan “Buyuk Mo‘g‘ullar Imperiyasi” rukni ostida tarixiy romanlarini nashr ettira boshlashdi.

Ta’kidlab o‘tish joizki, Bobur shaxsini nafaqat Yevropaga, balki butun dunyoga mashhur bo‘lishini ikki omil bilan izohlash mumkin. Birinchisi, Boburning Hindistonni zabt etishi va u yerda o‘z hukmronligini o‘rnatishi bo‘lsa, ikkinchisi, uning ijodkor shaxs bo‘lganligi, ya’ni u yaratgan “Boburnoma” asari va she’rlaridir. Ko‘plab olimlar ular xoh yurtimiz, xoh xorijiy olimlar bo‘lishidan qat’iy nazar, avvalo, “Boburnoma”ga murojaat qilganlar. Boburning hayot yo‘li, jangu jadallari va u amalga oshirgan ezgu ishlarini o‘rganish uchun hukmdorning o‘zi yaratgan asari hamisha dasturulamal bo‘lib xizmat qilib kelmoqda[7].

Shoh va shoir, qomusiy asar muallifi Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o‘rganish dunyo adabiyotshunosligida uzoq tarixga ega. Bobur asarlarining g‘arb tillariga tarjimalari va nashrlari ham o‘zbek olimlari tomonidan atroflicha o‘rganilgan. Tarjimonning badiiy mahorati tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlar sirasida “Boburnoma”ning ingliz olimlari tomonidan o‘rganilishi alohida talqiqot obyektini tashkil etadi. Jumladan, Joy Leyden va Uilyam Erskin, Anet Beverij xonim, Viler Tekstoun tarjimalari boburshunoslikka qo‘shilgan muhim hissa sifatida e’tirof etiladi. Ilmiy adabiyotlarda kam e’tibor qaratilgan yana ayrim olimlar borki, ularning ham boburshunoslikdagi alohida mehnatini baholash va ommalashtirish zarur vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. A.Tursunov. Nemiszabon adabiyotlarda sharqning buyuk siymolari talqini. PhD. diss. Toshkent 2019.
2. M.Qoraboyev. Bobur va boburiyzoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.

[6] M.Qoraboyev. Bobur va boburiyzoda shaxzodalar xorijiy adiblar talqinida. Maqola. Namangan 2018.
[7] A.Tursunov. Nemiszabon adabiyotlarda sharqning buyuk siymolari talqini. PhD. diss. Toshkent 2019.

3. Moon Farzana. Babur the first moghul in India. Preface. Mehra Offset Press, Delhi. 1997.

4. S.Sahodullayeva. Inglizzabon tarixiy-adabiy asarlarda Bobur Mirzo talqini. Journal of integrated education and research. 2023 (2).

ABU NASR FOROBIYNING ASARLARIDA TA'LIM-TARBIYA MASALALARI

Mardiyeva Yulduz Ubaydullayevna
SamDChTI mustaqil tadqiqotchisi
mardiyevayulduzxon82@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Abu Nasr Forobiy riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida ijod etganligi va Forobiy Eron, Yunon va O‘rta Osiyolik mutafakkirlar asarlarini o‘rganganligi haqida ma'lumot beradi. U 160 dan ortiq asar yozib, o‘rta asr ilm-faniga ulkan hissa qo‘shgan. Bu asarlar orasida "Arastuning metafizika asariga sharh","Baxt-saodatga erishuv haqida", "Tirik mavjudot a'zolari haqida", "Fozil odamlar shahri" asarlarida ta'lim-tarbiya kata e'tibor qaratganligi bayon qilinganligi bayon qilingan

Tayanch so‘zlar: jamiyat, davlat, rahbar, madaniyat, axloq, an‘ana, ta'lim, tarbiya.

Biz yashayotgan zamin qadim-qadimdan madaniyat va ziyo maskani bo‘lib, xalqimiz boy madaniy merosga, yuksak qadriyatlarga ega xalqdir. Buyuk bobomiz Amir Temur, jahonga mashhur mutafakkirlarimiz Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al- Buxoriy, al-Marg‘inoniy, Ahmad Yassaviy, Najmiddin Kubro, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Ahmad al Farg‘oniy, Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek, Zahiriddin Muhammad Bobur, Pahlavon Mahmud va yurtimizda yashab ijod etgan boshqa ko‘plab siymolar jahon fani, madaniyati va sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shganlar. Shu sababli mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev o‘z nutqlarida doimo xalqimiz boy madaniy merosini izchillik bilan o‘rganishga, undan yoshlar ma'naviyatini shakllantirish va rivojlantirishda foydalanishga da'vat etib kelmoqdalar. ―Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun ajdodlarimizning madaniy-ma'naviy boyligini chuqur va har tomonlama o‘rganishimiz darkor.[1,14]

Jamiyatimizga har tomonlama barkamol, mustaqillik ma’naviyatiga ega bo‘lgan insonlar zarur. Zero, “zaminimizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati, bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari bugun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta’kidlash lozim”.[2,54]

Abu Nasr Forobiy (873-950) riyoziyot, falakiyot, tabobat, musiqa, mantiq, falsafa, tilshunoslik va adabiyot sohalarida ijod etgan. U yoshligidan juda iste’dodli, zehni o‘tkir, xotirasi kuchli bo‘lgan. Forobiy Eron va O‘rta Osiyolik mutafakkirlar Nazzam, Ravandiy,Ar-Roziy; qadimgi yunon faylasuflari: Suqrot, Aristotel, Platon, Galiley ta’limotlarini chuqur o‘rgangan. Beruniy, Ibn Sino va Firdavsiy mutafakkirlar singari oila, uy-joy orzusini ilm yo‘lida qurbon qilib, butun umrini fanga bag‘ishlagan. U 160 dan ortiq asar yozib, o‘rta asr ilm-faniga ulkan hissa qo‘shgan. Bu asarlar orasida "Arastuning metafizika asariga sharh","Baxt-saodatga erishuv haqida", "Tirik mavjudot a’zolari haqida", "Fozil odamlar shahri" asarlari muhim ahamiyatga ega. Mutafakkirning ilm-fan ozaldidagi ulkan xizmatlaridan yana biri bu uning yunon olimlarining asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g‘oyalar bilan boyitganligidir. Forobiy yunon falsafasini chuqur bilgani, unga sharhlar bitganligi va jahonga targ‘ib qilgani hamda zamonasining ilmlarini puxta o‘zlashtirib, fanlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgani uchun Sharqda Arastudan (Aristotel) dan keyingi yirik mutafakkir - "Muallim us-soniy" va "Sharq Arastusi" nomlari bilan shuhrat topgan.[3,668]

Uning “Fozil odamlar shahri”, “Baxt saodatga erishuv yo‘llari haqida risola”, “Davlat arbobining hikmatlari” kabi asarlarida O‘rta Sharqda birinchi bo‘lib, jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida ta’limot yaratgan. Bu ta’limotda ijtimoiy hayotning ko‘p masalalari – davlatga birlashish xususiyatlari, davlatni boshqarish, davlatning vazifalari, insonning jamiyatdagi o‘rni va burchi, umumiy baxt-saodatga erishish yo‘llari, ta’lim-tarbiya, axloq, ma’rifat, diniy e’tiqod, urush va tinchlik, mehnat va boshqalar qamrab olingan. Suningdek, shaxsning rivojlanish muammolarini bayon qiladi. Forobiy asarlari orasida “Fozil odamlar shahri” asari alohida ahamiyatga ega. Unda jamiyatning (insonlar jamoasi) kelib chiqishi, adolatli jamiyatga erishish yo‘llari, fozil shahar hokimi va aholisining fazilatlari, davlat hokimiyati va boshqaruvchi kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yish kabi masalalar bayon etilgan. Bundan ming yilcha muqaddam yaratilganiga qaramasdan, bugungi o‘quvchi hozirgi hayotning ko‘proq yomonlashadi va oxiri mayib-majruh bo‘lib qoladi. Shu tufayli ular o‘zlariga yoqadigan yomon ishlardan huzur-halovat oladilar”, - deydi Forobiy.[4,226]

Mutaffakkirning ta’kidlashicha, johillar nodon, ilmsiz, ma’naviyatsiz, ma’rifatsiz kimsalar, shuning uchun ular baxt-saodat, yuksak kamolot nimaligini tushunmaydi, ular haqida hech qanday tasavvurga ega emaslar, shu sababdan ular

bunga intilmaydilar ham. “Ular, - deydi Forobiy, - baxtu-davlat bo‘lib ko‘rinadigan otkinchi, yuzaki narsalarni, mol-dunyoni, jismoniy lazzatni, hirsu-havasni, obro‘, amal, shon-shuhratni haqiqiy baxt, farovonlik deb o‘ylaydilar. Shu ne‘matlardan har biri jaholatdagi odamlar nazarida hayotdan maqsad, baxt-saodat bo‘lib ko‘rinadi”. Forobiy ma’naviy-axloqiy, jihatdan nosog‘lom, har qanday pastkashlik yo‘li bilan o‘z maqsadiga erishuvchi bunday odamlarga nisbatan salbiy munosabatda bo‘ldi. Donishmandning fikricha, agar bu illatlarning oldi olinmasa, ular yildan-yilga, avloddan-avlodga o‘tib, yanada chuqur ildiz otadi. Natijada johil ota-onalardan noqobil murakkab muammolarini hal qilishda asqotadigan muhim fikr va yo‘l-yo‘riqlarini topa oladi. Forobiy inson boshqa jonzotlardan sifat jihatidan tubdan farq qiladi, deb ko‘rsatadi. Birinchidan, deydi u inson aqlli mavjudot bo‘lib, aql va jon insonning tabiiy ibtidosidir. Ikkinchidan, insonning tili va nutqi bor. Uchinchidan, inson kasb-hunarga ega. Bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan bu barcha xususiyatlar insonning rivojlanishi va takomillashuviga imkon beradi.[5,301]

Forobiy inson kamolotida ta’lim-tarbiyaning muhimligini ta’kidlab: - Munosib inson bo‘lish uchun odamda ikki imkoniyat, ta’lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta’lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yaratishga olib boradigan yo‘ldir‖, deydi. Forobiy ta’lim, tarbiyaga birinchi marta ta’rif berib,ta’lim - degan so‘z insonga o‘qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish, tarbiya - nazariy fazilatlarni, mas’ul hunarni egallash uchun zarur bo‘lgan xulq normalarini va amaliy malakalarni o‘rgatishdir,- deydi olim. Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba orqali o‘rganishdir. Shuningdek, buyuk insonshunos olim Abu Nasr Forobiy “fozil”, ya’ni adolatli jamiyat bilan birga “johil” insonlar va jaholatdagi jamiyatlar haqida qimmatli fikrlarni bildirgan. U johil jamiyatning juda ko‘p turlarini sanab, axloqiy sifat va fazilatlardan mahrum bo‘lgan o‘z hayoti va faoliyati davomida ularga rioya qilmaydigan kishilar jamoasini johillar jamoasi deb ataydi. Bunday jamoa a’zolari yaramas axloqli, xulq-atvorli kishilardir. “Fazilatsiz shahar odamlari yomon fe’llari, tabiati tufayli ko‘ngillari, ruhlari ham yomonlashib boraveradi. Mabodo, ular ana shu yomon ishlarida izchil sa’y-harakat, tobora kuch-g‘ayrat ko‘rsatsa, ularning ruhlari yanada bolalar dunyoga keladi, bu esa jamiyat va davlatning kelajagini xavf ostida qoldiradi. “Ammo, - deydi alloma, - jaholat, yovuzlik, haqsizlik, abadiy hodisalar emas, bu illatlarga albatta barham beriladi. Jamiyatda ezgulik, hamkorlik, hamjihatlik, do‘stlik, adolat albatta tantana qiladi, shunday zamonlar keladiki, insoniyat albatta yuksak kamolotga oliy baxt-saodatga erishadi”. Forobiy insonni baxt-saodatli qilish jamiyatning asosiy maqsadi ekanligini ta’kidlaydi va bunga

barcha vositalar bilan erishish zarur, bu baxt-saodat insonlar jamoasida amalga oshirilishi mumkin, deb koʻrsatadi.[6,159]

Oʻzining "Baxt-saodatga erishuv haqida"asarida bilimlarni oʻrganish tartibi haqida fikr bayon etgan. Uning aytishicha, avval bilish zarur boʻlgan ilm oʻrganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni oʻrgangach, tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni oʻrganishi lozim. Undan soʻng, umuman,jonli tabiat ya'ni oʻsimlik va hayvonlar haqidagi ilm oʻrganiladi, deydi. Forobiy inson kamolotga ta'lim - tarbiyani toʻgʻri yoʻlga qoʻyish orqali erishish mumkin deydi. Chunki maqsadga muvofiq amalga oshirilgan ta'lim-tarbiya insonni ham aqliy, ham axloqiy jihatdan kamolga yetkazadi.[7,257]

Ta'lim degan soʻz insonga oʻqitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish ; ma'lum birhunarni egallash uchun zarur boʻlgan amaliy malakalar",- deydi olim. Forobiyning ta'limtarbiya haqidagi qarashlarida insonparvarlik gʻoyalari alohida oʻrin tutadi. Forobiyning ta'kidlashicha, tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni bilimli boʻlishga, toʻgʻrilik va haqiqatni sevishga, jasur, doʻstlarga sadoqatli boʻlish singari fazilatlarni egallashga intilmog'i lozim. Abu Nasr Forobiy insonga xos hamda uning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etuvchi tafakkur va nutqning rivojlanishini ta'lim- tarbiyaning asosini tashkil etuvchi muhim jarayon hisoblaydi. U insonni dunyotaraqqiyotining eng mukammal va eng yetuk yakuni deb biladi.

Bu fikrlardan Forobiyning ta'lim-tarbiyada, yoshlarni mukammal inson qilib tarbiyalashda, xususan, aqliy-axloqiy tarbiyaga alohida e'tibor berganligi koʻrinib turibdi. Uning ta'kidlashicha, bilim bilangina maqsadga erishilmaydi va bola ham yetuk boʻlmaydi. Olim daraxtning yetukligi uning mevasi bilan boʻlganidek, insonning barcha xislatlari ham axloq bilan yakunlanishini aytadi. Umuman, Forobiy oʻz davridagi yoshlarning ta'lim olishlari, bilim egallashlari, hunar egallashlari, faoliyat koʻrsatishlari, mehnat qilishlari zarurligi xususida fikrlar bildirgan. Bu fikrlar hozirda ham ta'lim-tarbiyaga gʻoyat muhimdir.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1.Sh.M.Mirziyoyev. Erkin va farovon demokratik O`zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma majlisidagi nutqi. – T. O'zbekiston, 2016. –B 14

2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T. Ma'naviyat 2008. – B. 54

3. Xoshimov S. Abu Nasr Forobiyning ta'lim-tarbiya berishga oid pedagogik va psixologik qarashlari Экономика и социум" №12(91)-1 2021 B-668

4. Shamsiddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. 1-kitob. – T.: Sharq, 2010. – B. 226.

5. Xayrullayev M. Uyg‘onish davri va Sharq mutaffakkirlari. – T. O`zbekiston, 1971. – B. 301.

6. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar 0shahri. – T. Xalq merosi, 1993. – B. 159.

7. Qurbonova O’. Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ta’lim-tarbiya masalalari-Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti 2018/2 (70) B.257

ABDULLA QAHHOR ASARLARIDA MUVAQQAT ARXAIZMLAR

Kambarov Maribjon Abduhakimovich,
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya

Sinxron nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, o‘z davrida faol qo‘llanilgan leksemalar hozirgi kunda arxaiklik maqomiga ega bo‘ladi. Ana shu biz arxaik qatlamga mansub degan so‘zlar davr o‘tishi bilan iste’mol talabi bilan tilimizda qayta qo‘llanildi, so‘ngra yana arxaiklashdi. Bunday arxaizmlarni muvaqqat arxaik so‘zlar deb nomlasak bo‘ladi. Bu jarayonni o‘zbek tilida 1920-1930-yillarda ishlatilgan, keyin eskirgan, hozirda kunda yana umumiste’molda ishlatilayotgan leksemalar biz tadqiq qilgan adibimiz A.Qahhorning mavjud manbalari ham tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: leksema, arxaizmlar, arxaik leksema, muqobil, ifoda semasi, sinxron, maqom, muvaqqat arxaizmlar.

ВРЕМЕННЫЕ АРХАИЗМЫ В ТВОРЧЕСТВЕ АБДУЛЛЫ КАХХОРА

Аннотация

При синхроническом анализе лексемы, активно употреблявшиеся в свое время, сегодня имеют статус архаичных. Эти слова, которые мы считаем архаичными, со временем вновь вошли в наш язык из-за потребительского спроса, а затем снова стали архаичными. Такие архаизмы можно назвать временными архаичными словами. Этот процесс подтверждают и имеющиеся источники нашего писателя А. Каххора, лексемы которого употреблялись в узбекском языке в 1920-1930-х годах, затем вышли из употребления, а в настоящее время вновь вошли в общее употребление.

Ключевые слова: лексема, архаизмы, архаичная лексема, альтернатива, сема выражения, синхронный, статус, временные архаизмы.

TEMPORARY ARCHAISMS IN THE WORKS OF ABDULLAH KAKHOR

Abstract

In synchronic analysis, lexemes that were actively used in their time have the status of archaic today. These words, which we consider archaic, eventually re-entered our language due to consumer demand, and then became archaic again. Such archaisms can be called temporary archaic words. This process is confirmed by the available sources of our writer A. Kahhor, whose lexemes were used in the Uzbek language in the 1920-1930s, then fell out of use, and are now back in common use.

Keywords: lexeme, archaisms, archaic lexeme, alternative, expression seme, synchronous, status, temporary archaisms.

Kirish (Introduction). XX asrning 20-30-yillari nasriy asarlari va matbuotida o‘z vaqtida faol qo‘llanilgan so‘zlar hozirgi kunda sinxron nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda arxaiklik maqomiga egaligi ma’lum. Ana shu biz arxaik qatlamga mansub degan so‘zlar davr o‘tishi bilan iste’mol talabi bilan tilimizda qayta qo‘llanildi, so‘ngra yana arxaiklashdi. Bunday arxaizmlarni muvaqqat arxaik so‘zlar deb nomladik. Buni o‘zbek tilida 1920-1930 yillarda ishlatilgan, keyin eskirgan, hozirda kunda yana umumiste’molda ishlatilayotgan so‘zlar mavjud manbalar ham tasdiqlaydi [1,20]: *kotib* –sekretar - *kotib, jumhuriyat*- respublika, *jabha*–front -*jabha*, *sho‘ro*-sovet, *ishtirokiyun*-kommunist, *aeroplan, uchqich, tayyora*- samolyot, *muhtoriyat* -avtonomiya, *muhandis*-injener-*muhandis*, *sarmoyador*-kapitalist-*sarmoyador* (tadbirkor ma’nosida), *muxolofot* -oppozitsiya, *riyoziyot*-matematika, *naqliyot (*O‘TIL, 2023, 337-bet, eskirgan so‘z- an’anaviy fanlar, transport, xalq xo‘jaligining yuk, odam va sh.k. tashish bilan bog‘liq bo‘lgan tarmog‘i) – transport – *naqliyot*- transport kabi.

–Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Atoqli adib A.Qahhorning asarlarida ham o‘zbek tilining yuqoridagi kabi zaxira mulki bo‘lgan arxaik leksemalardan foydalanilgan: *protsent* (foiz): U (Muhammadrajab), o‘n ming so‘mni sakkiz *protsent* foyda berish sharti bilan olib, talay vaqtdan keyin tanining o‘zini qaytarib berdi [2,192].

A.Qahhor hikoyalarida 6-7 ta atrofida aslida ruscha arxaik so‘zlar ishlatilgan. Masalan: Malohatxon, Jonfig‘on izvoshchilikdan haydalgan yili, mahalladagi *aktiv* ayollarning himoyasi ostida, erining qarshiligiga qaramay, *rayon* sovetiga uborshitsa bo‘lib kirgan ekan; o‘qibdi, hademay savodi chiqibdi, bir yil - bir yarim yildan keyin hatto majlislarda *dokladchiga* “O‘rtoq, sizga savolim bor” deydigan bo‘libdi (96-bet). Bir gapning o‘zida ishlatilgan bu uchta leksema yuqoridagilar

kabi endilikda arxaizmlar qatoridan joy olmoqda. Chunki hozirda *aktiv* (lotincha aktivus –faol, faola, harakatchan, O‘TIL,2023,76-bet), *rayon* (fransuzcha rayon-keng maydon, katta kenglik, O‘TIL,2023,406-bet, aynan tuman), *dokladchi* lug‘aviy birliklari o‘rnida *faol, tuman, ma’ruzachi* kabilar leksemalar ishlatilmoqda.

–Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Adib asarlarida ishlatilgan quyidagi muvaqqat arxaizmga diqqatni qaratsak: *minut, minit, milit* (lotincha minutus-mayda, kichik; arzimas, uncha emas. O‘TIL,2023, 201-bet) – aynan *daqiqa*: Ot munkib ketib o‘mgagi bilan shag‘alga qadaldi-da, ag‘nab bir necha *minutning* ichida o‘la qoldi (77-bet). Ushbu leksema o‘sha davrda yaratilgan asarda ham qo‘llanilgan; Oradan birmuncha *minut* o‘tgach, Qumri so‘z so‘radi [3,180]; Lekin, Lochinboyev masxaraomuz iljayish bilan kifoyalandi.Oradan bir-ikki *minut* (1) o‘tdi (Shu manba, 37-bet). Mazkur leksema ayni shu va *minut // minit, milit* variantlari bilan badiiy asar va matbuotda XIX asrning oxirlaridan ishlatila boshlangan edi: Qilur rangingni tutkach bir *minitda* za’faron, bezgak; Bir *milit* uxlatmadilar to sahar iskab topar [4,74]; Chiqarmish *minut* to‘rt yuz o‘q [5, 76]. Hozircha iste’molda bo‘lgani uchun uni arxaizm qatlamiga kirita olmaymiz.

Yana bir misol: *kandidat* (lotincha so‘z bo‘lib, *candidatus- oq kiyim kiygan; mansabtalab,* O‘TIL, 2023, 447-bet) – aynan *nomzod*: Mirzakarim degan bir doktor bor. U - *kandidat* (211-bet). Muvaqqat arxaizm hisoblanadi. Bu gapda muallif *mansabtalab, o‘zini ayri ko‘rsatadigan, chiroyli kiyinadigan* okkozional ma’noda qo‘llagan. Hozirgi kunda *nomzod* leksemasi faol so‘zlar qatlamidan joy olib bo‘ldi. Ushbu leksemani arxaiklashayotgan so‘zlar qatlamiga kiritish mumkin.

Sekretar (lot.secretarius- ishonchli shaxs O`TIL, 2023, 586-bet) – muqobili *kotib*[6,44]. To‘g‘ri, darslik yaratilgan payt (1970)da kotib so‘zi arxaik leksema edi. Bu haqda hatto 1981-yilda nashr etilgan O‘TILda ham eskirganlik pometasi (esk.) qo‘yilgan edi (I jild, 400-bet). Hozirda esa u faol qo‘llanuvchi leksemaga aylandi: Idora *kotibi* xushbichim, kelishgan juvon edi [7,8]. Misollar: Munozaraga viloyat ijrokomining *sekretari* ham aralashdi (74-bet). *Sekretar* so‘zi arxaiklashayotgan leksema hisoblanadi. Shu o‘rinda *kotib* leksemasiga to‘xtalsak. *Kotib* (arabcha- asli *(xat) yozuvchi, (kitob) ko‘chiruvchi*, O‘TIL -2006-2008, 413-betida mazkur bosh so‘zning 1-bandiga *tar*. belgisi qo‘yilgan (“ro‘yxat tuzish”, “qo‘lyozmalarni ko‘chirish bilan shug‘ullangan shaxs”;“mirza” ma’nosida). O‘TIL-2023-yil 913-betida *kotib* leksemasining 2-,3-,4-bandidagi lug‘aviy ma’nolariga quyidagicha izoh berilgan: 2) “idora va muassasalarda lavozimli kishilar,yozuvchilar va h. shaxslar huzurida yozuv-chizuv ishlari va yozishmalarni olib boruvchi xodim, shaxs”; 3) “idora, muassasa va sh.k.lar kotibiyatiga rahbarlik qiluvchi, kotibiyat ishlariga mas’ul xodim”; 4) “maxsus kengash, yig‘inlarning bayonnoma va sh.k. yozuv-chizuv ishlarini olib boruvchi shaxs”: Kotib Qo‘ldosh yonida yoshgina bir yigit turardi (134); U (Qo‘ldosh) yacheykaning *kotibi* edi (139). Romanda *kotib*

lug‘aviy birligining sinonimi bo‘lmish, hozirgi kunda arxaizmga o‘tib qolayotgan *sekretar* leksemasi ham qo‘llangan: Majlis olib borayotgan rayon ijroiya komitetining *sekretari* “navbatdagi so‘z” ...degan edi, haligi “notiq” yana dik etib turdi...(255-bet). Mazkur leksema eskirgan so‘z sifatida hozirda *sekretar* so‘zining muqobili sifatida, aniqrog‘i 90-yillardan faol ishlatilib kelinmoqda: Xalq demokratik partiyasining *kotibi;* yig‘ilish *kotibi*: sud *kotibi*; ilmiy *kotib* va b.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shu o‘rinda yana bir leksemaga diqqatimizni qaratmoqchimiz. Bu *foiz* leksemasi. *Foiz* leksemasi O‘TIL(2023,147-bet)da “Biror son yoki miqdorning yuzdan bir hissasi, ulushi, “% belgisi bilan ifodalanadi” ma’nosida “eskirgan” ekanligi ta’kidlanganki, u XX asrning 20-30-yillarida qo‘llanilgan va hozir ham o‘zbek tilida keng qo‘llanilmoqda. Buni adibning romanidagi quyidagi misol ham tasdiqlay oladi: (Isomiddinov) shuni o‘ylaydi-yu, majburiy degan so‘z bilan “hech kim qolmasin”ning farqi oddiy ko‘rindi, “yuz *foiz* kolxozlashsa, katta muvaffaqiyat bo‘lardi” dedi ichida (159-bet). Adib Husayn Shamsning “Xarakteristika” nomli hikoyasida personaj nutqida mazkur leksema so‘zlashuv nutqi sifatida *poyiz* shaklida ishlatilgan: - E, ajab odam ekansiz. Agar Lochinboyev tez-tez kelib...turganda edi, biz, albatta planni yuz poyiz bajarardik (40-bet). Masalaga sinxron yondashilganda, shunday holat ayon bo‘ladiki, hozirda *foiz* (u aslida arabcha bo‘lishidan qat’iy nazar) ruscha *protsent* leksemasini “siqib” chiqarib, uni arxaizmga, o‘zini esa faol qo‘llanuvchi lug‘aviy birlikka aylantirdi: “Sholi topshirish shartnomasi 105 *foiz* qilib bajarildi” [8,1]; “2024-yil 1-sentabridan boshlab ishchi va xizmatchilarning maoshi bir yarim *foizga* oshirildi” [9,19].

Baynalmilal (O‘TIL-2023, 322-bet) so‘zi eskirgan so‘z sifatida ta’kidlangan holda arabcha asli “millatlar o‘rtasidagi, millatlararo” ma’nosini anglatib, ifoda semasi “xalqaro, umuminsoniy, umumxalq”dir. Mas.*:* “Qatortol”da ham kolxoz tuzilib, unga o‘ttiz ikki xo‘jalik a’zo bo‘lib kirdi va kolxozning nomi “*Baynalmilal”* bo‘ldi, 231-bet). Sobiq sovet davrida bu so‘z o‘rnini *internatsional* leksemasi egalladi va Mustaqilligimizdan keyin esa iste’moldan chiqib ketdi. Hozirgi kunda bu so‘zning muqobili sifatida “*milliy bag‘rikenglik*” birikmasi tilimizda kengroq urf bo‘ldi: O‘zbekistonda 130 dan ortiq millatlar *milliy bag‘rikenglik* tamoyili asosida do‘stona yashashmoqda (gazetadan).

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiq qilingan badiiy asarlarda asar yozilgan davrda faol qo‘llangan (ko‘plari neologizm hisoblangan), biroq zamona zayliga qarab ular keyinchalik eskirgan so‘zlar, xususan, leksik arxaizmga aylangan, so‘ng esa yana faolllik kasb etgan lug‘aviy birliklar ham mavjud. Obrazli qilib aytganda, bu kabi so‘zlar yoki ularning ma’nolari “tug‘dirilgan”, so‘ng “o‘ldirilgan”, yana qayta "tiriltirilgan ”. Ayni shunday leksemalarni muvaqqat arxaizmlar, deb atash ma’qul deb topildi. Chunki

bu kabi lug‘aviy birliklar muayyan sabablar, masalan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayotdagi o‘zgarishlar, ishlab chiqarish sohasida erishilgan yangiliklar va boshqa omillarga ko‘ra, vaqtinchalik arxaizmga aylanadi hamda shu vajlar oqibatida yana lug‘at tarkibidan joy oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o‘zbek adabiy tili.- Toshkent: 1992; O‘zbek tili leksikologiyasi. –T.: 1981; Karimov S. O‘zbek tilining badiiy uslubi. -Samarqand.: 1992; Aliyev A., Sodiqov Q. O‘zbek adabiy tili tarixidan. –T.: 1994.– B.20.

2. Қаҳҳор А. Сароб. - Тошкент: 1989; Shu muallif. Танланган асарлар. Уч томлик. II том. –Тошкент: 1957. Bundan keyin keltirilgan betlar mazkur manbadan olingan.

3. Husayn Shams. Dushman. –T.: UzFan, 1959. –Б.

4. Muqimiy, Tanlangan asarlar. –T.: 1976.

5. Turkiston viloyatining gazeti. 1890, 39-son.

6. Darsliklarning birida, aksincha, *kotib* leksemasi arxaizm jumlasiga kiritilgan: Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. – T.: 1980. –B.44.

7. “Sharq yulduzi” jurnali. 1999, 8-son.

8. “Turkiston” gazetasi, 1998, I/1-son.

9. “Darakchi” gazetasi, 2024, XIX.

BEHBUDIY MEROSIDA AN’ANAVIY VA INNOVATSION YONDASHUVLARNING SINTEZI HAMDA UNING AHAMIYATI

Mardonov Ravshan Rabbano o‘g‘li
Samarqand davlat chet tillar instituti mustaqil tadqiqotchi
ravshanmardonov797@gmail.com

Annotatsiya: Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti davomida ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni egallagan olim sifatida boshqalarni ham ilmli bo‘lishiga, xalqni iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilashga harakat qilgan. Behbudiy qancha ko‘p ilm olinsa, insonning diniy e'tiqodi shunchalik mustahkam bo‘lishini, dunyoviy ilm islom dinini tanazzul botqog‘iga g‘arq bo‘lishiga emas, balki uning taraqqiyotiga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Ushbu maqolada Behbudiyning jamiyat hayotida dinni to’g’ri tag’rib qilish va diniy islohatlari tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, “Muxtasari tarixi islom”, Ovrupo, “qadimchilik”, “Qur’oni Karim”, Yoshlarg‘a murojaat, missionerlik.

Turkistonning ziyoli ulamolari orasida “jadidchilik” va “qadimchilik” singari ikki g‘oyaviy oqimga ajralish o‘lkada kuchli ijtimoiy siyosiy jarayonlar avj olgan

palla XIX asr oxiri-XX asr boshlarida sodir bo‘ldi. “Qadimchilik” yoki keyingi paytlarda ilmiy muomalaga kiritilgan “an’anaviychilik”ni musulmon jamoasining asrlar davomidagi rivoji jarayonida shakllangan diniy, ma’naviy va milliy qadriyatlarni, ijtimoiy institutlarni asl holatida saqlashga yo‘naltirilgan o‘ziga xos mafkura deyish mumkin.

“Qadimchilik” vakillari yakka shaxslar ongiga emas, balki bir necha avlodlar tajribasi bilan sug‘orilgan jamoatchilik ongiga murojaat qilganlar hamda o‘tmishdagi allomalarning boy merosini, an’analarining (asosan islomiy ilmlar va aqidalar bilan bog‘liq) inkor qilinishi jamiyatni ma’naviy tanazzulga olib keladi, deb hisoblaganlar. Ular shariat me’yorlarini xalq turmush tarzida qat’iy ravishda saqlab qolishni rus ma’muriyatining shovinistik siyosatiga, pravoslav missionerlik harakatiga va boshqa oqimlarning tarqalishiga qarshi muhim to‘siq deb bilardilar.

Xususan, Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylantirilgach, mahalliy xalqning milliy va diniy qadriyatlari, urf-odatlari oyoqosti qilindi. Mustamlakachilar islom dini zaminida vujudga kelgan odob-axloq me’yorlari, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini izdan chiqarishni ham o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ygan edilar. Bu xususda turli qonunlar ham chiqarilgan ediki, ular mahalliy xalq manfaatiga butunlay mos kelmas edi. Masalan, Turkiston general-gubernatorligida o‘rnatilgan tartib qoidaga muvofiq, ilm va iste’dodidan qat’iy nazar, 25 yoshga to’lgan turkistonlik fuqaro volost boshqaruvchisi yoki qozi bo‘lishi mumkin edi. Bu tartib etarli ilmga ega bo‘lmagan kishilarning qozi, mudarris, imom bo‘lib qolishlari uchun zamin bo‘lib xizmat qildi. Ushbu makkorona siyosat haqida “Missionerlar tarafidan va yoyinki bizni yo‘q va nobud bo‘lishimizni va shariati muqaddasamizni hukmdan qolishini xohlatadurg‘on eski va mustabid hukumat odamlari tarafidan shunday zakonlar chiqardi”[1] -deb Behbudiy bejiz aytmagan edi.

Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining asosiy ustunliklaridan biri, jadidlarning nuqtai nazaricha islom tushunchasini yangilash, uni mutaassiblikdan tozalash, diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qilishdan iborat edi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda: “O‘zbekiston o‘zining qadimiy tarixi bilan, madaniy-ma’naviy salohiyati bilan, eng muhimi, islom falsafasi, islom dinining olijanob g‘oyalarini yuksaltirishga, uning ilmiy asoslarini yaratib, dinimizning obro‘siga obro‘ qo‘shgani bilan musulmon olamida beqiyos mavqega ega. Ulug‘ ajdodlarimiz va buyuk bobolarimizning bu boradagi unutilmas xizmatlarini islom dunyosida hech kim inkor etolmaydi”[2,29]

Shunday ulug‘ allomalardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy bo‘lib, u asl islom g‘oyalarining unutilishi tarqoqlikka va o‘zaro nizoga, yurtning mustamlaka ostida qolishiga sabab bo‘lgan, deb hisoblaydi. Islomni faqat ilm-fan yutuqlarini egallash orqaligina saqlab qolish mumkin. Chunki Qur’oni Karimning oyatlarida butun

olamdagi barcha mavjudot Ollohning irodasi mahsuli, deb ta’riflanadi. Behbudiy «Muxtasari tarixi islom» asarida ba’zi ruhoniylarning o‘z manfaatlari yo‘lida islom mohiyatini buzib ko‘rsatayotganliklarini tanqid qiladi va dindan g‘arazli, siyosiy maqsadlarda foydalanish qanchalik og‘ir oqibatlarga olib kelishini ko‘rsatadi. Behbudiy islomning taraqqiyparvar rolini ko‘rsatish orqali, umuman, jamiyatning hamma ijtimoiy sohalarini isloh qilish zarurligini targ‘ib qilgan. Qur'onning tavsifini juda yaxshi bilgan Behbudiy Qur'on oyatlari va hadislardan namunalar keltirish bilan xalq ta’limi va shu bilan birga islom tarixiga ham katta ahamiyat bergan. U islom tarixini bilmaslik oqibatida, aksariyat hollarda o‘ng‘aysiz holatga tushib kelayotgan din peshvolarini qattiq tanqid qiladi.[3,50]

Samarqand jadidchilik maktabining hamma vakillari din, xususan, islom dini, uning jamiyatdagi o‘rni to‘g‘risida yozganlar, deb qat’iy fikr bildirish qiyin. Ammo jadidlarning ayrimlari, xususan, Siddiqiy Ajziy, Mahmudxo‘ja Behbudiylar dinning (ayniqsa, islomning) paydo bo‘lishi, tadrijiy rivojlanish, uning jamiyat ijtimoiy hayotida tutgan o‘rni to‘g‘risida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan fikrlarni bildirganlar. Behbudiy Falastinga qilgan sayohati to‘g‘risidagi xotiralarida, «Kitobat-ul aftol», «Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiy», «Bizni kemirguvchi illatlar», kabi asar hamda maqolalarida turli dinlar to‘g‘risida fikr bildiradi va diniy bag‘rikenglikni targ‘ib qiladi. Behbudiyning barcha dinlar to‘g‘risida bildirgan fikrlarini o‘rganish va tahlil qilish alohida mavzu bo‘lganligi uchun, uning islom dini haqida bildirgan ba’zi mulohazalarini keltirish bilan kifoyalanish mumkin. Behbudiy o‘z asarlarida musulmon xalqlari orasida diniy bilimlarni chuqurlashtirish zarurligiga alohida e’tibor beradi. Ayniqsa, Quddusi Sharifga qilgan sayohati chog‘ida u har bir mamlakat, shaharlardagi muqaddas qadamjolar to‘g‘risida yozadi. Behbudiyning asosiy maqsadi qadamjolarni ta’rif-tasnif etishdan iborat bo‘lmaganligi uchun bu haqda u kamroq ma’lumot beradi.

Behbudiyning ta’kidlashicha, Turkistondagi musulmonlar ijtimoiy tabaqalanishning eng quyi pog‘onasidan joy olganlar. Ana shu bois, bunday nochor ahvolga tushib qolishga musulmonlarning o‘zlari ham sababchi, degan xulosaga keladi. Bunday illatlardan qutulish uchun ilm-fanni egallash, diniy bag‘rikenglikka erishish zarurligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga, Behbudiy hajga boruvchi musulmonlarning og‘ir ahvoli haqida hikoya qilib, ularga bir qancha maslahatlar beradi, hajga borish qonun-qoidalariga rioya qilishga chaqiradi.[3,51]

Mahmudxo‘ja Behbudiy musulmonlar barcha narsani shariat qolipiga solib, ilm va taraqqiyotda boshqa xalqlarga nisbatan ancha ortda qolib ketganliklaridan iztirobga tushadi. Samarqand muftiysi bo‘lgan Behbudiy islom aqidalari hamda shariat qonunlaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanib muslumonlarga zug‘um qilayotgan ba’zi eshon va mullalar, “qadimchi” ulamolarni qattiq qoralaydi.

Haqiqiy “ulamo” barcha musulmonlar hayotini mufoviqlashtirib turuvchi ijtimoiy kuch bo‘lishi kerak, deb hisoblaydi.

“Ulamolar har bir millatning aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchi shaxslari,- deb yozgan edi. Behbudiy-o‘z millatlarining kelajakdagi yo‘lini ko‘rsatib berishlari, maslahatlar berishlari, urf-odatlar islohoti uchun masjidlarda va’z-nasihatlar qilishlari, maktab va madrasalarda bu dunyo hamda oxiratda kerakli bo‘lgan ilmlarni o‘rgatishlari; gazeta va kitoblar yordamida millatni qay tarzda boy qilish to‘g‘risida mulohaza va mubohasalar qilishlari kerak”

Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti davomida ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni egallagan olim sifatida boshqalarni ham ilmli bo‘lishiga, xalqni iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilashga harakat qilgan. Uning “Yoshlarga murojaat” nomli maqolasida: “ islomiyat shunday bir dini matin va qobili taraqqiydurki, na qadar ilmi zamoniy ko‘bo‘qusa, insonni yana dini islomg‘a shuncha aqidasi mustahkam bo‘lur. Chunonchi, ilmi zamoniy ko‘b o‘qug‘on Ovrupo ulamolarini(ng) eng nomdor davlatliklaridan musulmon bo‘lub turganlari jaridaxonlarg‘a ma’lumdur. Bas, sabab bo‘ldiki, ilmi zamoniy islomiyatg‘a zarar qilmoq nari tursun, foyda etar, endi matlabg‘a kelayluk”[4,422] -deb, keltirgan fikrlaridan ham uning diniylik va dunyoviylik orasidagi mushtaraklikni ta'minlashga intilganligini guvohi bo‘lamiz. Chunonchi, Behbudiy qancha ko‘p ilm olinsa, insonning diniy e’tiqodi shunchalik mustahkam bo‘lishini, dunyoviy ilm islom dinini tanazzul botqog‘iga g‘arq bo‘lishiga emas, balki uning taraqqiyotiga xizmat qilishini ta’kidlamoqchi bo‘ladi. Shuningdek, u so‘zining isboti sifatida quyidagi so‘zlarni keltiradi: “Aziz birodarlar! Hazrati Ali afandimiz karramallohu vajhahu janoblari buyuradurlarki: “Allimu avladakum li zamanin g‘ayri zamanikum, liannahum xuliqu li zamanin g‘ayri zamanikum”. Mazmun sharifi: “Ey musulmonlar! Bolalaringizg‘a kelar zamon ilmini o‘rgatingiz Zeroki, alarni Xudo taolo xalq etdi, sizning zamoningizdan boshqa, ya’ni kelar zamon uchun”. Yuqoridagi so‘z shunday qiymatbaho va purm’no va keraklik so‘zdurki, yolg‘uz aning ila biz, musulmonlar, omil bo‘lsa eduk, butun dunyo va oxiratimiz obod bo‘lur edi”[5,55]. Shu o‘rinda uning: “Arabiy bilmasak din, ruscha bilmasak dunyo qo‘ldan ketar” Turkiy va forsiyni keraklig’icha so’z yo’qdur,[4,398] -deb bejiz aytmagan.

“Biz xalqni rusiy va nosoro qilmoqchi emas va dini mubin islomni xarob qildirmoqchi emas, balki muhtaram ahli dinimizni moddatan tarqqiy ettiromoqchi va dini sharifimizg‘a mahkam turib Rusiyada yashamoqchimiz”[5,69] -degan fikrlari ham dunyoviy ilm egallash dindan voz kechish degani emas, balki zamon bilan hamnafas bo‘lish kerakligini ko‘rsatadi. Zamondan ortda qolmaslik uchun ham dunyoviy ilm egallash shuningdek, o‘z dinidan ham voz kechmagan holda taraqqiy etish lozimligini ko‘rsatadi. Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Bolalarga otalardan ilmiy diniy va ilmiy zamoniy meros qolsun”[4,386] -degan fiklari ham

diniylik va dunyoviylik uyg‘unligiga erishish juda muhim zarurat ekanligi sifatida yangraydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning bir asr avvalgi fikrlari bugungi kun uchun ham ahamiyatli bo‘lib, diniylik va dunyoviylik tendensiyalarining mutanosibligini ta’minlashda muhim g‘oyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi globallashuv davrida diniylik va dunyoviylik mutanosibligiga putur etkazishga urinish kabi tahdidlar ko‘lami tobora kengayib bormoqda. Ayniqsa, ilmni diniy va dunyoviyga ajratish, diniylik va dunyoviylikni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish din niqobi ostidagi guruhlarning paydo bo‘lishi hamda axloqsizlik g‘oyalarining yoshlar ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga zamin yaratmoqda. Shu bois, bugun diniylik va dunyoviylik tendensiyalarini tahlil qilishda Turkiston ma’rifatparvarlaridan biri hisoblangan jadidchilik harakatining karvonboshisi, din va jamoat arbobi Mahmudxo‘ja Behbudiy hayoti va ijodiga murojaat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, Behbudiy o‘z hayoti davomida din, e’tiqod, ilm-ma’rifat masalalariga katta e’tibor bergan. Behbudiy dinni saqlab qolish hamda kelajak avlodni savodli qilish yo‘lida bor kuch-imkoniyatini safarbar qilgan otashin targ‘ibotchi bo‘lgan. Shuningdek, islom dini dunyoviylikka qarshi din emasligi, aksincha u dunyoviy ishlarining ma’naviy jihatini ochib beruvchi va uni tartibga soluvchi ma’naviyat bulog‘i ekanligi Mahmudxo‘ja Behbudiyning diniy ma’rifiy sohadagi faoliyati ham namoyon bo‘lgan. Zero, dinni ilm orqali tushunilsa, bugungi tahlikali davrda din niqobi ostidagi guruhlar tomonidan tarqatilayotgan buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi ma’rifat bilan javob berish imkoni mavjud bo‘ladi. Shu bois, Mahmudxo‘ja Behbudiyning din va ilm-ma’rifat yo‘lidagi xizmatlari, uning amaliy harakatlaridan to‘g‘ri xulosa chiqarish, bugungi kun yoshlari uchun ham ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Behbudiy M. Bizga islohot kerak//Najot, 1917 yil

2. Karimov I.A. Egali yurt erkini bermas.//Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. 9-t.-T.: O‘zbekiston,2001.

3.Amridinova Dilrabo Tursunovna. Samarqand jadidchilik maktabi. Monografiya.-Toshkent.: “Navro‘z” nashriyoti DUK.- 2017.

4. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. I jild.-T.: Akademnashr, 2018.

5. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. II jild.-T.: Akademnashr, 2018.

TRANSGUMANIZM FALSAFIY ATAMA SIFATIDA: KELIB CHIQISHIDAN ZAMONAVIY MA'NOSIGACHA

Mohigul Nasrullayeva, doktorant
Samarqand davlat chet tillar instituti
Samarqand, O'zbekiston
E-mail: nasrullayeva84@list.ru

Annotatsiya: Ushbu maqola "transgumanizm" atamasining kelib chiqishi va evolyutsiyasini falsafiy va ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilishga qaratilgan. Atama dastlab qanday kontekstda paydo bo'lganligi va zamonaviy talqinlarda qanday o'zgarishlarga uchraganligi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, manbalarga to'g'ri va noto'g'ri murojaat holatlari tahlil qilinadi, bu esa mazkur tushuncha mohiyatini aniqroq anglash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: transgumanizm, atama kelib chiqishi, konsepsiya, terminologik qo'llanish.

Transgumanizm — insoniyat kelajagi va uni texnologik yutuqlar orqali o'z-o'zini takomillashtirish salohiyati haqida zamonaviy falsafiy va ilmiy bahslarda katta qiziqish uyg'otayotgan yo'nalishdir. Bu atama, ilm-fan va texnika orqali inson salohiyatini kengaytirish g'oyalarini qamrab olib, inson tabiatiga nisbatan yangi yondashuvlarni va keskin o'zgarishlarni anglatadi.

Shu bilan birga, transgumanizm atamasining ilk ishlatilishi va mazmuni bo'yicha ko'plab chalkashliklar va xatolar mavjud. Ba'zi manbalarda bu atama birinchi bo'lib italiyalik yozuvchi Dante Aligyeri tomonidan XIV asrda yozilgan "Ilohiy komediya" asarida qo'llangani ta'kidlanadi [1]. M. Mor qayd etishicha, Dante "transumanar" atamasini "insoniylik chegaralaridan chiqish" ma'nosida ishlatgan, biroq u bu yerda texnologik aralashuv yoki jismoniy o'zgarishni emas, balki ruhiy yuksalishni nazarda tutgan bo'lishi ehtimol [2].

"Transgumanizm"ga o'xshash mazmunga ega iborani 1949-yilda fransuz faylasufi Per Teyyar de Sharden "Insonning kelajagi" asarida ishlatadi. U demokratik erkinlik g'oyasini biologik kontekstda tushunishni taklif etib, har bir insonning to'siqlarni bartaraf etish va zarur vositalar orqali o'z salohiyatini to'liq ochib borish huquqini "transgumanizatsiya" deb ta'riflaydi [3, 241].

Bugungi kunda transgumanizm haqida so'z yurituvchi ko'plab tadqiqotchilar bir umumiy xatoga yo'l qo'yishmoqda. Ular bu atama ilk bor Julian Haksli tomonidan ishlatilgan degan noto'g'ri fikrga tayanishadi. Jumladan, Jeyms Xyuz o'zining "Kiber fuqarolar" asarida bu atamani Haksli 1927-yilda yozgan "Vahiylarsiz din" nomli kitobida ishlatgan deb ko'rsatadi. Biroq Xyuz keltirgan iqtibos bu kitobda mavjud emas va unda transgumanizm haqida hech qanday eslatma yo'q. Shunga qaramay, bir qator mualliflar bu xatoni takrorlab kelmoqda.

Aksariyat zamonaviy olimlar va jurnalistlar transgumanizm atamasi ilk bor Julian Hakslining “Yangi sharob uchun yangi shishalar” (1957) nomli essyesida paydo bo‘lgan deb hisoblaydi. Biroq, ilm-fan va din tarixchisi Piter Xarison hamda ruhoniy va dinshunos Jozef Volinyak bu fikrni rad etib, Hakslining “Bilim, axloq va taqdir” nomli 1957-yilgi ma’ruzasida bu atama ancha avval ishlatilganini aniqlashgan [4]. Ushbu ma’ruza keyinchalik qayta ishlangan holatda yuqoridagi kitobga kiritilgan. Unda shunday jumlalar bor:

“The human species can, if it wishes, transcend itself – not just sporadically, an individual here in one way, an individual there in another way, but in its entirety, as humanity. We need a name for this new belief. Perhaps transhumanism will serve: man remaining man, but transcending himself, by realizing new possibilities of and for his human nature” [5, 17].

(Insoniyat agar istasa, o‘zini yengib o‘ta oladi – bu alohida holatlarda emas, balki butun insoniyat sifatida. Bu yangi e’tiqod uchun bizga bir nom kerak. Balki, transgumanizm mos tushar: inson inson bo‘lib qoladi, biroq o‘z insoniy tabiatining yangi imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish orqali o‘zini yengib o‘tadi.)

Shunday qilib, transgumanizm atamasining tarixiy kelib chiqishini o‘rganish, bu tushuncha zamonaviy ilmiy-falsafiy diskursdagi muhim o‘rnini chuqur anglash imkonini beradi. Julian Hakslining 1957-yildagi mashhur essyesi asosiy manba sifatida qaralsa-da, uning undan avvalgi ma’ruzasida bu tushuncha ilgariroq ishlatilgan. Bunday manbalarni noto‘g‘ri keltirish holatlari tarixiy tadqiqotlarning aniqligi va manba tahlilining muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Transgumanizmning chinakam ildizlarini ochib berish, nafaqat uning zamonaviy talqinini to‘g‘ri anglashga, balki ushbu konsepsiyaning falsafa va ilm-fandagi kelgusidagi rivojiga baho berishga ham xizmat qiladi. Bu ayniqsa, doimiy rivojlanib borayotgan texnologiyalar va ularning insoniyatga ta’siri kontekstida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Dante Alighieri, *Divina Commedia di Dante: Paradiso*, Project Gutenberg, August 1997. http://www.gutenberg.org/cache/epub/999/pg999-images.html

2. Max More, “The Philosophy of Transhumanism,” in *The Transhumanist Reader*, ed. Max More and Natasha Vita-More (Oxford: Wiley-Blackwell, 2013), kindle, 8. Shuningdek qarang: Ronald Cole-Turner, “Going beyond the Human: Christians and other Transhumanists,” *Theology and Science* 13.2 (2015).

3. Pierre Teilhard de Chardin, *The Future of Man*, trans. Norman Denny (London: Collins, 1964 [1959]), 241.

4. Peter Harrison and Joseph Wolyniak, “The History of ‘Transhumanism’,” *Notes and Queries* 62, no. 3 (2015), 466.
5. Huxley, *New Bottles for New Wine*,

TARIXIY MANBALARDA MEHNAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHGA TA’SIR ETUVCHI SUB’EKTIV TO‘SIQLAR HAQIDA

Xolmirzayeva Jumagul Xamadamovna
Mustaqil izlanuvchi. Farg‘ona.

Mehnat madaniyati insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida o‘ziga xos o‘rin tutib kelgan, binobarin, bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlanishni uningsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Dunyo globallashuv davrini boshdan kechirayotgan xozirgi vaqtda jaxonda, shu qatori mamlakatimizda xam mehnat va kasb faoliyatiga munosabat o‘zgarib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Xususan, bugungi kunda yoshlar va yosh kadrlarda o‘z mehnat faoliyatiga munosabat turli sababalarga ko‘ra salbiy tomonga o‘zgarayotganligi ushbu muammoni xal etish yo‘lida izlanishlar o‘tkazish, ularning natijalarini amaliyotga tadbiq etishni taqazo etadi.

Yoshlarda mehnat madaniyati ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish yo‘lida sub’ektiv va ob’ektiv to‘siqlarning mavjud bo‘lishi tabiiydir. Biz ushbu tadqiqotda sub’ektiv omillar masalasiga to‘htalib o‘tamiz.

Sub’ektiv to‘siqlar yoshlarning ong-tushunchasi, bilimi, dunyoqarashi, tajribasi bilan, ob’ektiv to‘siqlar tashqi ta’sir qiluvchi kuchlar bilan, chunonchi, davlat idoralari, soliq tizimi, bank va boshqa tizimlar sohasidagi mas’uliyatsizlik, vijdonsizlik kabi illatlar bilan bog‘liqdir. Sub’ektiv to‘siqlar asosan yoshlarning o‘ziga dahldor bo‘ladi, ob’ektiv to‘siqlar tashqi ta’sir qiluvchi kuchlar tomonidan ko‘rsatiladigan tam’agirlik illatlarida ko‘zga tashlanadi. Xo‘sh bu kabi to‘siqlarni qanday bartaraf etish mumkin? Buning uchun insonlar dunyoqarashini o‘zgartirish zarur. Bu borada mehnat va mehnat bilan bog‘liq milliy qadriyat va an’analarimizdan foydalanish yaxshi samara beradi.

Chunonchi, islomda bunday an’analarning ilk kurtaklari Muhammad payg‘ambar hayoti va faoliyatiga borib taqaladi. Ma’lumki, Muhammad yoshligida boy savdogar ayol Hadicha begim karvoni bilan savdo-sotiq ishlarida qatnashgan. Yosh Muhammad o‘zining ikki fazilati bilan Hadicha begim hurmatiga sazovor bo‘ladi:

birinchisi-chaqqonlik, uddaburonlik, o‘ylab ish qilish bo‘lsa, ikkinchisi-halollik, insof, diyonat.

Payg‘ambarimiz hadislarida mehnat madaniyati, talablari aks etgan: O‘zimdan keyin qoladigan ummatlarim uchun uch narsadan-nafsu havoga berilib, yo‘ldan ozishdan; nafsoniy va shahvoniy hissiyotga berilib ketishdan; ilmu ma’rifatga ega bo‘la turib, g‘ofillarning ishini tutishdan qo‘rqaman degan ekanlar. Quyidagi axloqiy me’yorlar mehnat madaniyatining asosi sifatida har bir inson uchun muqaddas vazifalar sanalgan:

- harom narsalardan saqlaning-odamlar ichida ibodatlirog‘i bo‘lasiz;
- Allohning taqsim qilgan rizqiga rozi bo‘ling-odamlarning boyrog‘i bo‘lasiz;
- qo‘shningizga yaxshilik qiling-tinch bo‘lasiz;
- o‘zingiz sevgan narsani odamlarga ham ravo ko‘ring-salomat bo‘lasiz.

Hadislardan keltirilgan yuqoridagi ibratli aqidalarda mehnat madaniyatining to‘rtta muhim tomoni ta’kidlab o‘tilgan: xaromdan xazar qilishlik; rizqni halollik bilan topishlik; qo‘shnilarni rozi qilishlik; boylikni boshqalar bilan birga baham ko‘rishlik. Bular faqat pand-nasihatlar emas, balki hayot haqiqati, nafaqat axloqiy me’yorlar, shu bilan birga undan kelib chiqadigan oqibatlar hamdir.

«Kasblarning eng yaxshirog‘i (pokrog‘i) kishini o‘z qo‘li ila hosil qilganidir», deyilgan qisqa hadisda mehnat madaniyatining tub mohiyati aks etgan. Shunday qilib, mehnat madaniyati sohibining fazilati uning mehnatsevarligida va mehnatga munosabatida yorqin namoyon bo‘ladi.

Tarix zarvaraqlarini ko‘zdan kechirsak mehnat madaniyati Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekiston xududida ham yuksak qobiliyat belgisi sifatida e’zozlanib kelingan. Dehqonchilikda, hunarmandchilikda, savdo-sotiqda, amaliy san’atda, xullas, hayotning hamma sohasida tadbirkorlik, tadbirkor odamlar hurmatga sazovor bo‘lgan.

Markaziy Osiyo xalqlarining butun iqtisodiy tafakkuri tizimida mehnat madaniyatiga doir g‘oyalar alohida o‘rin tutganligining boisi ana shundadir. «qobusnoma»da yoziladiki, «hunarsiz, g‘ayratsiz kishi bilan do‘stlik qilmagil... Ey farzand, ogoh bo‘lki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo‘lur va hech kishiga naf’ yetkurmas»[8].

«Tuzuklar»da yozilishicha, buyuk Amir Temur odamlarga kasb berish, ularni ish bilan ta’minlashga alohida ahamiyat bergan, tadbirkorlik faoliyati bilan, tijorat ishlari bilan mashg‘ul bo‘luvchilarga yetarli sarmoya, uy-joylar qurib berish haqida qayg‘urgan[2]. Qishloq xo‘jaligi, tog‘-kon ishlari, hunarmandchilik, savdo, chorvachilik sohasida ishbilarmonlarni va tadbirkorlarni yaqindan qo‘llab-quvvatlaydi[3].

---

[8] Кайковус. Қобуснома.-Т.: Мерос, 1992,21-б.

[2] Темур тузуклари. Т.: Фан, 1993, 67-б.

[3] Темур ва Улуғбек даври тарихи.-Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1996, 113-160-б..

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki ota-bobolarmiz mehnat madaniyatiga va faoliyatiga katta mas’uliyat bilan qaragan. Mehnat o‘z faoliyatining asosiy bunyodkori deb bilgan. Bu esa katta yutuqlarga erishishida asosiy omil bo‘lgan.

Xulosa sifatida aytish mumkinki mehnat mumnosabatlari tizimidagi har qanday to‘siqni bartaraf etishning bosh omili yoshlarning o‘z mehnat madaniyatini rivojlantirish uchun kurashish va tinimsiz izlanishga chorlashdan iboratdir. Mehnat madaniyati yaxshi shakllanganligi bunday sun’iy to‘siqlarni muvaffaqiyatli bartaraf etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kaykovus. Qobusnoma. - T.: Meros, 1992, B.21
2. Temur tuzuklari. T.: Fan, 1993, B.67
3. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. - T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1996, B.113-160.

TURON SIVILIZATSIYASINING IJTIMOIY TARAQQIYOTGA TA’SIRI

Xudoyarov Jasur Saparovich

Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Qadimgi Turon madaniyati ilk sivilizatsiya o‘choqlarining paydo bo‘lishidan arab istilolarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Makonda u Turon pasttekisligi bilan cheklanmaydi, balki turkiy etnoslar yoyilgan keng masshtabdagi hududlarni qamrab oladi. Turon madaniyati va turkiy xalqlar madaniyati tushunchalari aynan emas, keyingisi kengroq mazmunga ega bo‘lib, ulkan masshtabdagi hududlar va etnoslar madaniyatlarini ifodalaydi. Ammo, Qadimgi Turon turkiy xalqlarini yagona madaniy maydonga birlashtirib turgan.

Madaniyat o‘choqlarining tashkil topishi tasodifiy emas, balki muayyan qonuniyatlar asosida yuz beradi. M.F.Lavin va N.N.Cheboksarov ikki tipdagi madaniy arealni ajratadilar: birinchisi xo‘jalik – madaniy tip va ikkinchisi tarixiy-etnik areal[9]. Bizning fikrimizcha madaniy mintaqalarning shakllanishida landshaft xo‘jalik yuritish usullari, aholi nufuzi, ednik-madaniy omil, ehtiyojlar xilma-xilligi, ma’naviy omillar (diniy, axloqiy, lingvistik omillar, an’analar, urf-odatlar) ishtirok etadilar va ular turli madaniy mintaqalarda chuqur iz qoldiradilar. Madaniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida birinchi omilini ta’siri kuchli bo‘ladi. Biror evolyusiya jarayonida qolgan omillar ta’siri oshib boradi. Masalan, ilk sivilizatsiya o‘choqlari daryolar havzalari, vohalar va vodiylarda o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi asosida tashkil topdi: Misr – Nil daryosi havzasida Missapatamiya – Daniya va

[9] Алексеев А.П., Паршиц А.И. История первобытного общества. – М.: Вост. лит., 1990. – С.938.

Frot daryolari oralig‘ida Hindiston – Hind daryosi atrofida, Xitoy – Xuanxa va Enszi, Turon – Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida vujudga kelgan edi. Insoniyatning ishlab chiqarish, ilmiy-texnik, texnologik salohiyatining o‘sib borishi natijasida planetamizning deyarli barcha hududlarida madaniy xulosalar yaratildi. Ko‘rinadiki, dastlab yagona madaniy makonlar emas, balki lokal madaniy mintaqalar vujudga keladi, so‘ngra ident mintaqalar yagona madaniy makonlarga birlashadilar.

Neolitgacha planetamizning barcha hududlarida, jumladan Markaziy Osiyoda ham barqaror madaniy mintiaqalar yo‘q edi, bunga kishilarning ovchilik va termachilikdan iborat o‘zlashtiruvchi xo‘jalik usuli imkon bermas edi. Neolit davrida ishlab chiqaruvchi xo‘jalik: dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning paydo bo‘lishi madaniy mintaqalarning shakllanishiga sharoit yaratadi.

Shu davrdan boshlab O‘rta Osiyoda bir necha madaniy mintaqalar tashkil topa boshladi. Birinchi madaniy mintaqa Jaytun madaniyati bo‘lib, Qopitdog‘ atrofida Amudaryo havzasida miloddan avvalgi 6-5 minginchi yillarda shakllangan O‘rta Osiyodagi ilk dehqonchilik madaniyati edi. Ushbu madaniyatni barpo etgan marg‘iyonaliklar va xorazmliklar keyinchalik bu tipdagi madaniyatni boshqa bir qancha hududlarga ham yoydilar. Ammo, miloddan avvalgi 2 minginchi yillikda Markaziy Osiyo hududidan qandaydir noma’lum etnik guruhlarning Qopitdog‘ etaklariga suqilib kirishi natijasida Jaytun madaniyati inqirozga yuz tutdi[10].

Ikkinchi madaniy mintaqa Amudaryo va Zarafshon daryolarning quyi oqimlarida miloddan avvalgi 5-4 minginchi yilliklarda vujudga kelgan kaltaminor madaniyatidir. Bu madaniyat Joytun madaniyatidan farq qilib, ovchilar va baliqchilar madaniyati hisoblanadi, ammo kaltaminorliklar kulolchilik va to‘qimachilik bilan tanish bo‘lganliklarini arxeologik ashyolar tasdiqlaydi. Keyinchalik ushbu madaniy mintaqalar Zomonbobo, Amirobod, Tozabog‘yob kabi dehqonchilikka asoslangan madaniy areallar yetishib chiqdi, so‘ngra Xorazm va sug‘d davlatlari tashkil topdi.

Uchinchi madaniy mintaqa Amudaryoning yuqori oqimida paydo bo‘lgan Hisor madaniyatidir. Bu madaniyat dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi aholi tomonidan yaratilgan bo‘lib, keyinchalik undan Baqtriya sivilizatsiyasi o‘sib chiqdi.

To‘rtinchi madaniy mintaqa miloddan avvalgi 2-minginchi yillikda tashkil topgan Chust madaniyati bo‘lib, u Farg‘ona vodiysidan Toshkent vohasigacha hududni qamrab olgan dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi qabilalar madaniyati edi, keyinchalik uning zaminida Davan davlati paydo bo‘lgan edi.

[10] Ставиский Б.Э. Между Памиров и Каспием. Средняя Азия в древности. – М.: Наука, 1966. – С.47.

Jez davrida O‘rta Osiyoda ko‘chmanchi chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi davlatlar ajralib chiqib, ular ham alohida tipidagi madaniy areallarni tashkil etadilar. Qozog‘istondan Uralgacha bo‘lgan hududda miloddan avvalgi 1700-1200 yillarda tashkil topgan Andronova madaniyatini Turonning shimolda yashovchi ko‘chmanchi chorvadorlar yaratgan edilar[11]. Glazko madaniyati Andronov madaniyati bilan sinxron bo‘lib, uning sohiblari ko‘chmanchi xidonlar bo‘lganligini mualliflar qayd qildilar[12]. Miloddan avvalgi 1200 yilda Andronova madaniyatini Sharqiy Turkistonda xunnlar tomonidan barpo etilgan Qorasu madaniyati siqib chiqargan. Qabrlarda mangoloid belgili yevropoid tipdagi odam suyaklari ko‘plab topilgan bo‘lib, ular hozirgi o‘zbeklarni eslatadi. Keyinchalik bu areolda kunnlar davlati tashkil topadi. Toshkent vohasi va Sirdaryo havzasida ham bir necha nomar tipidagi madaniy mintaqalar vujudga kelganligi manbalarda qayd qilinadi. Yueni – skif-aviylar, yaksartlar areali bo‘lib, qovunchi madaniyatiga oiddir[13]. Sui – Sirdaryoning o‘rta oqimida yashovchi yaksart-oposiaklarga tegishli bo‘lib, Xaratov madaniyati deyiladi. Rumu – Sirdaryo toharlari tomonidan barpo etilgan bo‘lib, Jetteosar madaniyatiga taalluqlidir. Pi – alan-massagetlar madaniyati bo‘lib, Sirdaryoning quyi oqimida vujudga kelgan “botqoq va ko‘l” madaniyatiga mansubdir[14].

Shunday qilib, turli madaniy mintaqalarga bo‘lingan ikki yirik madaniyat: o‘troq dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi oqim tomonidan vujudga keladigan voha madaniyati va ko‘chmanchi chorvador qabilalar yaratgan cho‘l madaniyati shakllandi. Qadimgi Turon madaniyati ana shu ikki madaniy arealda vujudga keltirilgan moddiy va ma’naviy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, bu uning o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. O‘tmishda bu madaniyatlar o‘rtasida farqlar va tafovutlar, ziddiyatli munosabatlar bo‘lsada, ularga umumiy jihatlar, o‘xshashlik ustuvor edi. S.N.Tolstov aytganidek O‘rta Osiyoning arxaik dehqonchilik madaniyatining skif-sak madaniyati bilan o‘xshashligini doimo ta’kidlash kerak

Demak ushbu madaniyatlar o‘rtasidagi munosabatlar xilida xarakterga ega bo‘lmasdan komplementar tabiatli edi. Buning iqtisodiy sababi shundaki, mehnat taqsimotiga ko‘ra o‘troq dhqonlar va chorvadorlar o‘z mahsulotlarini bir-birlari bilan ayriboshlashdan manfaatdor edilar. Siyosiy sabab shundaki, Turon xalqlari tashki dushmanlardan o‘zlarini birgalikda himoya qilishga majbur edilar. Shunga ko‘ra tashkil topgan konfederatsiyalar yoki davlatlar tarixiga o‘troq aholi ham, ko‘chmanchi qabilalar ham kirgan. Ma’naviy sabab shuki, Turon ahlining tili, dini, urf-odatlari deyarli bir yoki yaqin bo‘lgan. Etnik sabab shundaki, bu xalqlar azaliy

[11] Окладников А.П. Неолит и бронзовый век Куибайкалья. Часть III. – М.-Л. Изд-во АНСССР, 1995. – С.9-10.
[12] Гумилев Л.Н. Хунну. – М.: Изд-во Респ. лит. 1960. – С.33
[13] Бернштам А.Н. Очерки истории суннов. – Л.: Изд-во АГУ, 1951. – С.84.
[14] Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. – М.: Изд-во вост. лит-ры, 1962. – С.109.

qon-qarindoshchilik, quda-andachilik an’analariga egadirlar. Mazkur sabablarga ko‘ra cho‘l madaniyati va voha madaniyati bir-birlariga ta’sir o‘tkazib, bir-birlarini boyitgan va ayni zamonda o‘z xususiyatlarini saqlab qolgan (ular to‘g‘risida tadqiqot davomida ma’lumotlar berib boriladi).

Ammo ushbu farqlar Turon madaniyatining lokal sivilizatsiyalarga parchalanib ketishiga olib kelmadi, yuqoridagi sabablar tufayli ushbu maskanda yagona madaniy maydon tashkil topadiki, bu hodisa haqidagi Turon madaniyatining yana bir muhim xususiyatidir. Ushbu yagona madaniy maydonni Eron ahamoniylari ham, Aleksandr Makedonskiy ham, arab istilochilari ham, mo‘g‘ul bosqinchilari ham, hatto Chor Rossiyasi ham buza olmadilar. Afsuski, Sobiq sovet ittifoqi parchalanib ketib, uning o‘rnida mustaqil davlatlar paydo bo‘lgach, ushbu madaniy maydonning yemirilish xavfi kelib chiqdi. Chegara jandallari, viza tizimi, bojxona nazorati, blok-postlar va hokazolardan tashqari madaniy merosni bo‘lib olishga intilishlar (Forobiy yoki Ibn Sino dahosi qaysi xalqniki haqidagi turli da’volar va hokazo). Bizning fikrimizcha, bunday dispersiya o‘rniga integratsiya tomon borib, yagona madaniy maydonni asrab qolish foydalidir. Bu borada O‘zbekistonning “Turkiston umumiy uyimiz” shiori ostida olib borayotgan siyosati diqqatga sazovordir. Ammo, bu borada boshqa Markaziy Osiyo davlatlarining sa’y-harakatlari juda sustdir.

Qadimgi Turon madaniyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri unda urug‘chilik qoldiqlarining uzoq davrlargacha hatto XX asrning boshlarigacha saqlanib qolishidir. O‘tmishda urug‘chilik izlari Turon madaniyatining barcha jabhalarida: til lahjalarida, folklorda, urf-odatlarda, mehmondarchilik udumlarida va hokazolarda sezilib turardi. Ammo, Qadimgi Turonda urug‘-aymoqchilik Afrikadagidek traybalizal darajasiga ko‘tarilmadi, chunki bu yerdagi etnik, iqtisodiy madaniy umumiylik va ulkan landshaftning birgalikda o‘zlashtirish ehtiyoji tor traybalizmdan ustun keldi. Qadimda Markaziy Osiyoda ona urug‘i muhim maqeiga ega bo‘lganligini arxeologik, etnografik yodgorliklar, afsona va asotirlar tasdiqlaydi. Ona to‘da – Anaxita haykallari, To‘maris, Zarineya, Odatida haqidagi afsonalarda onaning ulug‘lanishi fikrimizning dalilidir. Jez davrigacha bo‘lgan madaniyatimiz ona urug‘i ruhi bilan sug‘orilgan bo‘lib, mazkur vaziyat hisobga olinmasa ungacha bo‘lgan madaniy jarayonlar mohiyatini anglab yetish qiyin bo‘ladi. O‘rta Osiyoda hatto ota urug‘i davriga o‘tilganda ham matriarxat qoldiqlari arab istilosigacha kuchli saqlanib qolganligini manbalar tasdiqlaydi. Yevropada bunday bo‘lmadi, bug‘rud tamomila patriarxal tartib o‘rnatildi. Rimda ayol vino ichganligi uchun eri tomonidan o‘ldirilishi mumkin edi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tmishda urug‘chilik ibtidoiy to‘daga nisbatan jobiy xarakterga ega bo‘lsada, tarixiy taraqqiyot jarayonida u tobora rivojlanishga to‘g‘anoq bo‘la boshladi, siyosiy sohada urug‘chilik davlatining to‘laqonli

funksional rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan bo‘lsa, iqtisodiy sohada innovatsion o‘zgarishlarga monelik qildi. Natijada Turon ellari uzoq vaqtlar davomida urug‘chilik, quldorlik va feodat tartiblari doirasida qolib ketdi.

TURKIY XALQLARDA TUG‘ RAMZINING SHAKLLANISHI

Misrbekova Mahliyo
Samarqand chet tillari institutida o’qituvchi
Bauyrjan Sayfunov,
Falsafa fanlari doktori, dotsent,
Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi
Xalqaro Qozog‘iston-Turk universiteti,
Yassaviy ilmiy-tadqiqot instituti, Turkiston/Qozog‘iston.

Anotatsiya

Ushbu maqolada o‘rta asrlarda O‘zbekiston hududida shakllangan davlatchilik ramzlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Ramzlarning kelib chiqishi, ularning diniy, siyosiy va madaniy mazmuni ochib beriladi. Xususan, turkiy xalqlarga xos tug‘lar, ularning tuzilishi va ramziy ahamiyati ko‘rib chiqilib, ularning davlat boshqaruvi, harbiy tizim va marosimlardagi tutgan o‘rni yoritiladi. Shuningdek, ayrim ramzlarning zamonaviy turkiy xalqlar timsolida saqlanib qolgan shakllari ham tahlil etiladi. Maqola davlat ramzshunosligi tarixiga oid tadqiqotlarni boyitishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Davlatchilik ramzlari, tug‘, o‘rta asrlar, O‘zbekiston tarixi, turkiy xalqlar, harbiy belgi, davlat atributlari, bo‘ri timsoli, tarixiy manbalar.

Kirish

Davlatchilik ramzlari har bir xalqning siyosiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida muhim o‘rin egallagan. Ular orqali xalqning o‘ziga xosligi, tarixiy merosi, mafkurasi va hokimiyat tuzilmasi ifodalanadi. Ayniqsa, o‘rta asrlarda davlat mustaqilligi va siyosiy hokimiyat belgisi sifatida turli ramzlar — bayroq, tug‘, tamg‘a, muhr, taxt va boshqa atributlar shakllanib, ular markazlashgan davlat boshqaruvining ajralmas qismiga aylangan. Ushbu ramzlar davlat rahbarining mavqeini belgilab berish, harbiy kuchni birlashtirish, tashqi aloqalarda rasmiy timsol sifatida xizmat qilish kabi ko‘plab funksiyalarni bajargan.

O‘zbekiston hududida qadimdan shakllangan siyosiy tuzilmalar – qabilaviy ittifoqlar, xonliklar va saltanatlar o‘ziga xos ramziy tizimga ega bo‘lgan. Bu ramzlar tarixiy jarayonlar, diniy e’tiqodlar, harbiy g‘alabalar va madaniy qadriyatlar asosida shakllanib, keyingi avlodlarga meros bo‘lib qolgan. Ular nafaqat tashqi bezak yoki tantanavor atribut, balki chuqur ma’naviy va mafkuraviy

mazmun kasb etgan. Mazkur maqolada O‘zbekiston hududida o‘rta asrlarda shakllangan davlatchilik ramzlari, ularning tarixiy ildizlari, funksional vazifalari va ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, ramzlarning shakllanishiga ta’sir etgan omillar va ularning xalq ongidagi aks sadosi tarixiy manbalar asosida yoritiladi.

Qadimdan davlatchilik ramzlaridan biri sifatida tug‘lar juda muhim rol o‘ynagan. Tug‘ – musulmonlarning yog‘och dastaga o‘rnatilgan qo‘tos, ho‘kiz yoki ot dumidan va yarim oy tasviridan iborat bayroqsimon belgisi (qadimdan Sharq mamlakatlarida hukmdorlik, beklik va sh.k. belgisi hisoblangan)[1].


Eng qadimgi tug’ taxminan m.a. 3000 yilga oid bo’lib, 1972 yilda Kxabis (Eron)da topilgan. Ushbu tug’ 23x23 o’lchamli metalldan tayyorlangan bo’lib, unda burgut, ikkita sher, iloha, uchta ayol va ho’kiz tasvirlangan[2].

Taniqli olim va turkshunos A.P. Okladnikovning fikricha dasht qabilalarining ilk bayroqlari (tug‘lari) Old Osiyodagi singari yog‘och dasta tepasiga ilingan biror jonivor tasvirlangan uchlikdangina iborat bo‘lgan[3]. Bu uchliklar (toji tug‘) mis yoki bronzadan tayyorlangan.

An’anaviy qadimgi turk tug‘lari uzun tayoqqa mahkamlangan ot dumi yoki bir tutam ot yolidan iborat bo‘lgan. Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida (Tibet va unga tutash hududlar) qo‘tos dumi ham qo‘llanilgan. Keyinchalik tug‘larga qo‘shimcha ravishda turli hajmdagi mato parchalari, tasmalar ilingan. Manbalarda qayd etilishicha, suvoriy ot choptirib borayotib tug‘ni ko‘targanda havo maxsus yasalgan teshikdan o‘tib, bo‘ri uvillashiga o‘xshash ovoz chiqargan. Tug‘ga ilingan mato xitoyliklarga o‘xshab, yengil matodan tayyorlangan va havo bilan to‘lganda tug‘ni uchib borayotgan ajdarga o‘xshatgan.

Bo‘ri boshli turk tug‘lariga o‘xshash bayroqlar Rim imperatori Flaviy xizmatida bo‘lgan qadimgi yunon tarixchisi va geografi Arrian tomonidan 135 yilda tasvirlab berilgan: “Skif harbiy belgilari mutanosib uzunlikdagi tayoqlarda hilpirab turgan ajdar ko‘rinishidadir”[4]. I asrda rim shoiri Valeriy Flakk o‘zining “Argonavtika” poemasida skiflarning ajdar tasviri tushirilgan o‘ziga xos harbiy belgilarini tilga olgan.

Bo‘ri boshli tug‘lar ko‘plab turkiy davlatlar va xalqlar tomonidan qo‘lanilgan. Zamonaviy turkiy xalqlardan gagauzlar va no‘g‘aylar o‘z bayroqlarida bo‘ri tasvirini tushirganlar.



Gagauz Respublikasi (1990-1994 yy) va no’g’aylar bayrog’i

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tug‘ qadimdan boshlab turli davlatlar va xalqlar davlatchilik ramzlarining muhim ifodasi bo‘lib xizmat qilgan. Ayniqsa, o‘rta asrlarda shakllangan turkiy davlatlar tarixida tug‘lar harbiy kuch, siyosiy hokimiyat, qabila va urug‘ birligining timsoli sifatida e’tibor qozongan. Ularning shakli, tarkibi va ramziy mazmuni orqali xalqning dunyoqarashi, diniy e’tiqodlari va mafkuraviy qarashlari o‘z aksini topgan. Arxeologik topilmalar va yozma manbalar tug‘larning kelib chiqishi miloddan avvalgi ming yilliklarga borib taqalishini ko‘rsatmoqda. Tug‘larda hayvon tasvirlarining, ayniqsa bo‘ri, burgut, sher va ajdarning namoyon bo‘lishi, dasht xalqlari uchun bu jonivorlar timsolida ifodalangan kuch, himoya, jasorat va e’tiqod tushunchalari bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Ayni paytda, tug‘ning tashqi ko‘rinishi va undagi simvolika xalqning estetik didi va hunarmandchilik madaniyatining ham namunasidir. Zamonaviy turkiy xalqlarning ayrimlarida tug‘ ramzining turli shakllari saqlanib qolgan bo‘lib, bu qadimiy an’analarning uzluksiz davom etayotganligini bildiradi. Shunday qilib, tug‘ va unga o‘xshash davlat ramzlari nafaqat tarixiy yadgorlik, balki xalqning siyosiy xotirasi va madaniy merosining muhim bo‘g‘ini sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Тўртинчи жилд. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2007. - Б.224

2. Спаткай Л. Гербы и флаги стран мира. Азия. – Минск: Амалфея, 2017. - С. 13

3. Окладников А. П. Конь и знамя на Ленских писаницах // Тюркологический сборник. Вып. 1. — М., 1951. - С. 148

4. Арриан. Тактическое искусство. / Пер., комм., вступ. ст. А. К. Нефёдкина. - СПб.: Факультет филологии и искусств СПб ГУ; Нестор-История, 2010

IMMANUEL KANTNING AXLOQIY QARASHLARI

Samarqand Davlat chet tillar instituti
dotsenti, (DSc) Ashurova Xurshida Sag‘dullayevna
Akramova Shaxribonu Ixtiyor qizi
Samarqand Davlat chet tillar instituti
2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola falsafa tarixida o‘chmas iz qoldirgan, nemis klassik falsafasining asoschisi bo‘lgan va shu bilan bir qatorda ajoyib axloqiy dunyoqarashga ega bo‘lgan faylasuf Immanuel Kant haqida ma’lumot beradi. Maqolada I.Kantning hayot yo‘li va falsafa fanning rivojlanishi uchun qo‘shgan xissalari haqida to‘xtalib o‘tilgan. I.Kantning takrorlanmas fikrlari va boshqa zamondosh faylasuflarning unga nisbatan berilgan ta’riflari hamda uning fikrlariga qarshi chiqqan faylasuflarning qarashlarini atroflicha tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar. *Immanuel Kant, axloq falsafasi, tafakkur, Gegel, nemis klassik falsafasi, zamonaviy falsafa.*

Immanuel Kant, nemis faylasufi, o‘zining axloqiy qarashlari va ta’lim sohasidagi nazariyalari bilan mashhurdir. Uning axloq falsafasi insoniyatning axloqiy tamoyillarini belgilashga bo‘lgan yondashuvini tubdan o‘zgartirdi. Uning pedagogik asarlari ham o‘qitish jarayonida axloqiy mas’uliyatning ahamiyatini ochib beradi. Mazkur maqolada Kantning axloqiy qarashlari, pedagogik faoliyati va boshqa faylasuflarning ushbu masalaga munosabati yoritiladi.

I.Kantning axloqiy va pedagogik qarashlari

Kantning axloq falsafasi, kategorik imperativ konsepsiya asosida qurilgan bo‘lib, bu tamoyil insoniyatga umumbashariy axloqiy me’yorlarni belgilash imkonini beradi. Uning fikricha, har qanday harakat axloqiy jihatdan o‘z-o‘zidan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi mumkin. Bu tamoyil barcha uchun amal qiluvchi umumiy axloqiy qoidalarni yaratishga yordam beradi. Kant o‘zining “Pedagogika” asarida ta’limning asosiy maqsadi insonni jamiyatning foydali a’zosiga aylantirish ekanligini ta’kidlagan. Uning fikricha, ta’lim jarayoni nafaqat bilim berish, balki insonning axloqiy tarbiyasiga ham yo‘naltirilishi kerak. Masalan, u bolalarga erta yoshdan intizom va axloqiy tamoyillarni singdirishni muhim, deb hisoblagan.

Immanuel Kantning axloqiy qarashlari va falsafiy yondashuvlari insoniyat tarixida chuqur iz qoldirgan. Uning asarlari nafaqat axloqiy masalalarni, balki inson erkinligi, irodasi va javobgarlikni ham keng miqyosda tahlil qiladi. Kantning “Axloq metafizikasi asoslari” (“Groundwork of the Metaphysics of Morals”) nomli asari uning axloq falsafasi asoslarini tushunish uchun asosiy manba hisoblanadi.

Shuningdek, uning ta’limga oid qarashlari, ayniqsa, insonning axloqiy shakllanishi borasidagi fikrlari bugungi kunda ham dolzarbdir. Jo‘mladan, uning axloq falsafasi har bir insonni axloqiy subyekt sifatida qabul qilishni talab qiladi. Kategorik imperativning birinchi formulasi shunday deyilgan: “Harakatlaringizni shunday qilingki, ular umumiy qonun sifatida amal qilishi mumkin bo‘lsin.” Bu tamoyil har bir shaxsning axloqiy mas’uliyatini ta’kidlab, insoniyatni butun jamiyat oldidagi burchlarini anglashga undaydi. Masalan: yolg‘on gapirishni olaylik. Uning fikriga ko‘ra, agar har bir inson yolg‘on gapirishni o‘ziga ruxsat bersa, bu holat axloqiy me’yorlar va ishonchning yo‘qolishiga olib keladi. Shuning uchun u har bir harakatning umumiy qonun sifatida amal qilish imkoniyatini inobatga olishni talab qiladi.

Kantning axloq falsafasi nafaqat nazariy, balki amaliyotda ham o‘z aksini topgan. Masalan, tibbiyot sohasida bemorlarning huquqlarini himoya qilishda, uning insonni maqsad sifatida ko‘rish tamoyili hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu prinsip shifokorlarni bemorlarning huquq va ehtiyojlarini birinchi o‘ringa qo‘yishga undaydi. Shuningdek, ta’lim sohasida bu tamoyil bolalarni shaxs sifatida tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. U o‘qitishni faqat bilim berish jarayoni sifatida emas, aksincha insonning axloqiy tarbiyasini shakllantirish vositasi, deb ham bilgan. Kant bolalarni tarbiyalashda uch asosiy bosqichni taklif qilgan: intizom, tarbiya va o‘qitish. Intizom insonni hayvoniy instinktlar ta’siridan ozod qiladi, tarbiya esa axloqiy qadriyatlarni shakllantiradi. Kantning fikricha, ta’lim nafaqat bilim berishi, balki insonni yaxshi shaxs bo‘lishga ham o‘rgatishi kerak, deb hisoblagan.

Bugungi kunda Kantning pedagogik qarashlari zamonaviy ta’lim tizimiga katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Masalan, holistik ta’lim konsepsiyasida bilim olish bilan birga axloqiy tarbiya ham birlamchi o‘rinda turadi. Kantning insonni rivojlantirishga bo‘lgan bu yondashuvi hozirgi zamonaviy ta’lim dasturlarida aks etmoqda. Xususan, bolalarga nafaqat mantiqiy fikrlash, balki axloqiy qaror qabul qilish qobiliyatini ham singdirish muhim.

Kantning axloqiy qarashlariga boshqa faylasuflar turlicha munosabat bildirganlar. O‘z davrida Gegel, Kantning axloqiy tamoyillarini tanqid qilgan bo‘lsa-da, u kategorik imperativning inson erkinligi bilan bog‘liqligini yuqori baholagan. Gegelning fikricha, axloqiy qonunlar faqat shaxsiy mas’uliyat bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatda ham o‘z aksini topishi kerak. J.S. Mill esa utilitarizm tamoyillari asosida Kantning qarashlarini baholab, amaliyotda universal qoidalar yaratishning qiyinligini ta’kidlagan, edi. Millning fikricha, Kantning kategorik imperativi shaxsiy erkinlik va umumiy farovonlik o‘rtasidagi muvozanatni yaratishda samarali vosita bo‘lishi mumkin.

Kantning g‘oyalari zamonaviy ahamiyati

Kantning axloqiy tamoyillari bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, ta’lim jarayonida uning qarashlari insonparvarlik, intizom va axloqiy mas’uliyatni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy pedagogika Kantning intizom va tarbiya haqidagi fikrlaridan ilhomlanib, yangi ta’lim usullarini ishlab chiqishda davom etmoqda.

Xulosa qilganda, zamonaviy dunyoda Kantning axloqiy tamoyillari ko‘plab sohalarda, jumladan, huquq, tibbiyot va ta’limda keng qo‘llanilmoqda. Masalan, inson huquqlarini himoya qilishda. Bundan tashqari, ekologiya sohasida ham uning qarashlari muhim ahamiyatga ega, chunki ular har bir shaxsni tabiatga hurmat bilan munosabatda bo‘lishga undaydi. Ta’lim sohasida esa Kantning insonni axloqiy tarbiyalash haqidagi g‘oyalari bugungi kunning asosiy tamoyillaridan biri sifatida qabul qilinadi.

Immanual Kantning axloqiy qarashlari, uning deontologik (“deon” (burch) va “logos” (tushuncha yoki nazariya) axloq tushunchasiga asoslanadi, ya’ni axloqiy harakatlarning to‘g‘riligi faqat burchga asoslanishi kerak, natijalarga qarab emas. Kantning asosiy g‘oyasi shundaki, axloqiy qonunlar - katta imperative, har bir insonning o‘ziga va boshqalarga nisbatan hurmatini ta’minlash uchun yagona bo‘lishi kerak. U harakatlarning to‘g‘riligi nafaqat ijtimoiy yoki shaxsiy manfaatlarga asoslanishi, balki umumiy axloqiy qonunlarga mos kelishi zarurligini ta’kidlaydi. Kantning “yaxshi iroda” tushunchasi shundan kelib chiqadi, chunki faqat burchga asoslangan iroda axloqiy xulqni tashkil etadi.

Kantning axloqiy tizimi, shuningdek, shaxsning erkinligi va avtonomiyasini ta’kidlaydi, chunki faqat erkin va o‘z burchiga sadoqatli shaxslar haqiqiy axloqiy qarorlar qabul qilishlari mumkin. Kantning axloqiy qarashlari, axloqiy qarorlar qabul qilishda mantiqiy asos va shaxsiy mas’uliyatni muhim, deb hisoblaydi.

Umuman olganda, Kantning axloqiy qarashlari insonning shaxsiy hurmatini, erkinligini va avtonomiyasini himoya qilishga qaratilgan bo‘lib, jamiyatda adolatli va axloqiy xulq-atvorning shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kant I. Axloq metafizikasining asoslari / Immanuil Kant. – Berlin, 1785. – [Ingliz tilida].

2. Kant I. Pedagogika bo‘yicha ma’ruzalar / Immanuil Kant. – Königsberg, 1803. – [Ingliz tilida].

3. Gegel G.V.F. Huquq falsafasining asoslari / Georg Vilgelm Fridrix Gegel. – Berlin, 1821. – [Ingliz tilida].

4. Mill J.S. Utilitarizm / Jon Styuart Mill. – London, 1863. – [Ingliz tilida].

5.https://uz.wikipedia.org

6.https://uz.eferrit.com

7.https://n.ziyouz.com

INSONIY DUNYOQARASHNING SUBYEKTIV VA OBYEKTIV QATLAMLARI: METODOLOGIK YONDASHUVLAR

Ashurova Xurshida Sag‘dullayevna
SamDCHTI, Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsendi (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada insoniy dunyoqarashning subyektiv va obyektiv qatlamlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlar tahlil qilinadi. Maqolada dunyoqarashga falsafiy, ijtimoiy va ontologik metodologik yondashuvlar orqali qaralib, uning tarkibiy jihatlari, shakllanish manbalari va shaxs hayotidagi roli yoritiladi. Subyektiv dunyoqarash inson shaxsi, psixik holati, ma’naviy qadriyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, obyektiv qatlamlar ijtimoiy muhit, tarixiy tajriba va madaniy kontekstga asoslanadi.

Kalit so‘zlar: dunyoqarash, subyektiv qatlam, obyektiv qatlam, metodologiya, falsafa, shaxs, ma’naviyat, ong

Insoniyat o‘z borligini anglash jarayonida doimo dunyoni qanday tushunish va unga qanday munosabatda bo‘lish kerakligi haqida fikr yuritgan. Bu jarayonning tabiiy natijasi sifatida dunyoqarash vujudga kelgan. Dunyoqarash — bu shaxsning o‘zini va borliqni qanday anglashiga, ularga qanday munosabatda bo‘lishiga yo‘naltiruvchi ma’naviy va psixologik mezonlar majmuasidir. Zamonaviy falsafiy va pedagogik adabiyotlarda dunyoqarash ko‘p qirrali, murakkab, dinamik tizim sifatida o‘rganiladi. U subyektiv va obyektiv elementlarning o‘zaro ta’sirida shakllanadi. Subyektiv qatlamlar, bu insonning ichki dunyosi, hissiyotlari, intuitsiyasi va e’tiqodlaridir. Obyektiv qatlamlar esa jamiyat, madaniyat, ijtimoiy institutlar va tarixiy tajriba orqali shakllanadi. Mazkur maqolada biz dunyoqarashning mazkur ikki asosiy qatlamini — subyektiv va obyektiv jihatlarini — metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilamiz. Maqsad, inson shaxsi ongida bu qatlamlar qanday uyg‘unlashishini, ular qanday omillar bilan shakllanishini va dunyoqarashning nazariy va amaliy ahamiyatini yoritishdir.

Dunyoqarashga metodologik yondashuvlar.

Falsafa dunyoqarashni inson borlig‘ining ontologik va gnoseologik o‘zagini tashkil etuvchi tizim sifatida talqin qiladi. Bu yondashuvda dunyoqarash subyekt (inson) va ob’yekt (borliq) o‘rtasidagi vositachi holatda tushuniladi. U orqali inson o‘z hayotining ma’nosini anglaydi, axloqiy tanlovlar qiladi, ijtimoiy faoliyatda qatnashadi.

Ijtimoiy-falsafiy yondashuv dunyoqarashni jamiyat tomonidan shakllantiriluvchi, uzatiluvchi va normativlashtiriluvchi ijtimoiy hodisa sifatida ko‘radi. Shaxs dunyoqarashi ijtimoiy institutlar — oila, maktab, ommaviy axborot vositalari, din va madaniyat orqali vujudga keladi.

Psixologik yondashuv, dunyoqarashning subyektiv qatlamlarini — hissiyotlar, intuitiv qabul, e’tiqodlar, ruhiy reaktsiyalar o‘rganishga yo‘naltirilgan. Psixologik jihatdan qaralganda, dunyoqarash inson ongining chuqur qatlamida joylashgan, o‘z-o‘zini anglashga asoslangan doimiy turtki kuchidir.

Dunyoqarashning subyektiv qatlamlari.

Insonning subyektiv dunyoqarashi uning psixik tuzilmasi, ichki hissiyoti, ong osti reaktsiyalari bilan bog‘liq. Subyektiv qatlamlar quyidagilardan tashkil topadi:

E’tiqodlar va ishonchlar – hayotga bo‘lgan shaxsiy qarashlar tizimi;

Intuitsiya – ratsional bo‘lmagan, ammo ruhiy zaruriyat sifatida mavjud sezgi;

Axloqiy pozitsiya – insonning “to‘g‘ri” va “noto‘g‘ri” haqidagi subyektiv qarorlari;

Ichki dialoglar – ongliy va ongsiz shakllangan ichki fikr yuritish jarayoni. Subyektiv qatlam insonning dunyo bilan ichki muloqotini tashkil qiladi. Bu qatlam barqaror, chuqur, ko‘p hollarda o‘zgarmas (invariant) bo‘ladi va har qanday tashqi ta’sir aynan shu qatlam orqali qabul qilinadi.

Dunyoqarashning obyektiv qatlamlari tashqi muhit orqali shakllanadi. Ular quyidagilardan iborat:

Jamiyat va tarixiy tajriba;

Madaniyat va urf-odatlar;

Ma’naviy-ma’rifiy institutlar (maktab, masjid, OAV);

Tilda ifodalangan tushunchalar tizimi.

Obyektiv qatlamlar shaxs ongiga ijtimoiy reallik shaklida “kiritiladi”. Ular orqali dunyoqarash ijtimoiy norma, ideologik tushuncha, mafkuraviy g‘oya shaklida mujassam bo‘ladi. Bu qatlamlar odamlar orasida umumlashgan, kollektiv ong shaklida faoliyat ko‘rsatadi.

Subyektiv va obyektiv qatlamlarning o‘zaro uyg‘unligi. Inson ongida subyektiv va obyektiv qatlamlar bir-birini inkor etmaydi, balki dialektik tarzda to‘ldiradi. Tashqi dunyodan kelayotgan axborot va qadriyatlar ichki ruhiy mezonlar orqali baholanadi. Shaxsning ongida bu ikki qatlam uyg‘unlashgan holda mavjud bo‘ladi. Bu holatni “ichki va tashqi borliqning birligi” deb atash mumkin. Masalan, jamiyatda mavjud bo‘lgan ijtimoiy qadriyatlar vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik — individ tomonidan qabul qilinadi, ammo ularning mazmuni har bir inson ruhiyatida o‘ziga xos tarzda aks etadi.

Xulosa qilganda, yuqoridagi tahlillar asosida quyidagilarga kelish mumkin:

Dunyoqarash — bu inson shaxsi ichidagi subyektiv qatlamlar va jamiyatdagi obyektiv qatlamlarning dialektik birligidir.

Subyektiv qatlamlar shaxsning ichki borligini, uning ruhiy va axloqiy asoslarini tashkil etsa, obyektiv qatlamlar ijtimoiy tajriba va madaniy reallik bilan belgilanadi.

Metodologik yondashuvlar (falsafiy, ijtimoiy, psixologik) ushbu qatlamlarning shakllanishini tahlil qilishda muhim vosita hisoblanadi.

Pedagogik va tarbiyaviy faoliyatda dunyoqarashning har ikki qatlamini uyg‘un tarzda rivojlantirish – barqaror, ijtimoiy mas’uliyatli va ma’naviy yetuk shaxsni shakllantirishning asosiy omilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Мамаримов А. Дунёқараш: фалсафий таҳлил. — Т.: Фан, 2020.

2. Исламов Х. Subyektiv ong va ijtimoiy tafakkur uyg‘unligi. — Т.: Иқтисодиёт, 2018.

3. Хасанова Г. Ma’навият acoclari. — Т.: Маънавият, 2017.

4. Dewey J. Democracy and Education. — New York: The Free Press, 1944.

5. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. — М.: Академический проект, 2002.

6. Агафонов А.В. Философия: Учебник. — М.: Юрайт, 2020.

7. Frankl V. Man’s Search for Meaning. — Boston: Beacon Press, 2006.

ZAMONAVIY SHAXS DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM VA TARBIYANING AHAMIYATI

Samarqand davlat chet tillar instituti dotsenti, (DSc)

Ashurova Xurshida Sag‘dullayevna

Insoniyat tarixida eng qadimiy va fundamental savollardan biri shuki: “Inson kim?”, ‘U qanday yashashi kerak?’ va “Hayotning ma’nosi nimada?”. Bu savollarga har bir jamiyat, har bir davr o‘z dunyoqarashi orqali javob izlagan. Dunyoqarash — insonning borliqqa bo‘lgan umumiy munosabatini, hayot haqidagi tasavvurini, qadriyatlar tizimini, ruhiy holatini va tafakkur modelini ifodalovchi murakkab ma’naviy fenomen hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyatda kechayotgan global ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, texnologik taraqqiyot, madaniyatlararo muloqotning kuchayishi insonning shaxsiy dunyoqarashiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa yosh avlod orasida zamonaviylik va an’anaviylik o‘rtasidagi muvozanatni topish masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. Shu bois, dunyoqarash tushunchasining nazariy mohiyatini chuqur tahlil qilish,

uning shakllanish mexanizmlarini aniqlash, ijtimoiy va pedagogik muhitdagi o‘rnini o‘rganish zarurati ortib bormoqda.

Mazkur maqolada dunyoqarashga oddiy bilimlar tizimi mafkuraviy pozitsiya sifatida emas, balki subyektiv haqiqat sifatida qaraladi. Bunday yondashuvda dunyoqarash inson ma’naviy mavjudotining o‘zgarmas yadrosi, uning ichki ruhi, axloqiy va emotsional yo‘nalishlarini belgilovchi ustuvor omil sifatida namoyon bo‘ladi. Insonning dunyoqarashi shaxsiy tajriba, tarbiya, madaniyat, din, ta’lim va jamiyat bilan munosabatlar orqali shakllanadi va rivojlanadi.

Shuningdek, maqolada dunyoqarashning faqat intellektual emas, balki hissiy, intuitiv, estetik va ijtimoiy jihatlari ham o‘rganiladi. Har qanday dunyoqarash nafaqat tafakkur mahsuli, balki inson qalbining, ruhining aksidir. Bu holat, o‘z navbatida, ta’lim va tarbiyaning inson dunyoqarashini shakllantirishdagi hal qiluvchi rolini yanada chuqurroq tahlil qilishga undaydi.

Shu nuqtai nazardan, maqolaning asosiy maqsadi — dunyoqarashni subyektiv haqiqat sifatida o‘rganish, uning tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish, pedagogik va madaniy kontekstda shakllanish jarayonlarini yoritishdan iborat.

Dunyoqarash insonning ichki olamini tashkil etuvchi eng chuqur ma’naviy qatlamdir. U faqatgina bilish vositasi yoki nazariy tushuncha emas, balki inson ongining subyektiv mazmuni, hayotga va borliqqa bo‘lgan munosabatlar tizimidir. Subyektiv haqiqat sifatidagi dunyoqarash har bir shaxsda noyob bo‘ladi, chunki u insonning tarbiyasi, madaniyati, tajribasi va shaxsiy hayot yo‘lining mahsuli hisoblanadi.

Bu subyektivlik, bir tomondan, dunyoqarashning o‘zgaruvchan, dinamik xarakterini ko‘rsatsa, boshqa tomondan esa uni inson shaxsining ichki barqarorligi va o‘zligining yadrosi sifatida qarash imkonini beradi. Shu ma’noda, dunyoqarash insoniyat taraqqiyotining eng muhim psixologik va falsafiy omillaridan biri sanaladi.

Subyektiv haqiqat sifatidagi dunyoqarash nafaqat shaxsiy qarashlarni, balki ijtimoiy, axloqiy, estetik va diniy qadriyatlarning aksini ham o‘zida mujassam etadi. Inson o‘z qarashlari orqali nafaqat borliqni tushunadi, balki uni baholaydi, unga nisbatan pozitsiya egallaydi, uni o‘zgartirishga intiladi. Shu bois dunyoqarash – passiv aks ettirish emas, balki faol ruhiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi.

Dunyoqarashni tashkil etuvchi asosiy komponentlar ikki katta guruhga bo‘linadi: intellektual va hissiy-emotsional jihatlar. Ularning uyg‘unligi har bir insonning ichki dunyosini noyob tarzda shakllantiradi.

Intellektual komponent – bu insonning ilmiy, nazariy, diniy yoki mafkuraviy bilimlariga asoslangan tasavvurlaridir. Ular mantiqiy fikrlash, bilimlarni tizimlashtirish, tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini anglash orqali namoyon bo‘ladi. Bunday tarkibiy elementlar, odatda, insonning ta’lim darajasi, kasbiy

faoliyati, kitobxonlik madaniyati va aqliy faolligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi.

Hissiy-emotsional komponent esa insonning o‘ziga xos ruhiy holati, estetik didi, ichki sezgi va intuitiv qarashlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, tabiatga muhabbat, milliy qadriyatlarga sadoqat, oilaviy an’analarni qadrlash, diniy e’tiqod – bularning barchasi hissiy asosga ega.

Muhimi, bu ikki komponent hech qachon bir-biridan ajralgan holda mavjud bo‘la olmaydi. Shaxsning dunyoqarashi har doim intellekt va hissiyotlarning o‘zaro ta’siri, o‘zaro uyg‘unligi mahsulidir. Hatto eng yuqori darajadagi ilmiy tafakkur ham insoniy hissiyotlardan xoli emas – u qiziqish, hayrat, shubha, ishonch kabi emotsiyalar bilan to‘ldirilgan bo‘ladi.

Ko‘plab adiblar, faylasuflar va pedagoglar o‘z asarlarida inson tafakkurining hissiy ildizlarini ko‘rsatib berishga harakat qilganlar. Jumladan, A.S. Pushkinning yozgi faslga nisbatan salbiy munosabati uning individual dunyoqarashi va estetik didini ifodalaydi. Bu holat, o‘z navbatida, inson tafakkurida mavsumiy, madaniy va emotsional omillar qanday muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Shuningdek, dunyoqarashning shakllanishi – bu uzluksiz va dinamik jarayondir. U bolalikdan boshlanadi va butun hayoti davomida rivojlanib boradi. Shu boisdan, pedagogika fani dunyoqarashning shakllanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ta’lim jarayoni shunchaki bilim berish emas, balki shaxsning dunyoqarashini shakllantirish, uning hayotga, insonlarga, jamiyatga nisbatan munosabatini belgilovchi ma’naviy asoslarni yaratish vositasidir.

O‘qituvchining roli bu jarayonda ayniqsa muhim. Chunki o‘qituvchi nafaqat bilim manbai, balki shaxsiy namuna, axloqiy yo‘lboshchi va ijtimoiy qadriyatlar targ‘ibotchisidir. O‘quvchilar ustozining dunyoqarashiga bevosita taqlid qiladilar, undan ilhomlanadilar, ba’zan hatto tanqidiy mulohaza qilishni ham o‘rganadilar.

Ta’lim mazmuni, metodikasi va vositalari ham dunyoqarash shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Masalan, adabiyot darslarida o‘quvchilar yozuvchilar obrazlari orqali axloqiy tanlovlarni ko‘radilar, tarix darslarida esa jamiyatning rivojlanish qonuniyatlarini anglaydilar. San’at va musiqa darslari esa ularning estetik didini, tasavvurini, hissiy dunyosini shakllantiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy dunyoda axborot texnologiyalari va ommaviy kommunikatsiya vositalari orqali shakllanayotgan global dunyoqarash tendensiyalari ham hisobga olinishi lozim. Shaxs nafaqat o‘z milliy va madaniy an’analari doirasida, balki global ijtimoiy axborot oqimida o‘z dunyoqarashini shakllantiradi. Shuning uchun, zamonaviy ta’limda nafaqat bilim, balki tanqidiy fikrlash, madaniyatlararo muloqot, ekologik va axloqiy mas’uliyatni shakllantirish masalalari ham ustuvor ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, dunyoqarash inson shaxsiyatining ichki mohiyatini ifodalovchi asosiy falsafiy tushunchalardan biridir. U shaxsning ruhiy-ma’naviy yadrosi bo‘lib, uning borliqqa, jamiyatga, boshqa insonlarga va o‘ziga nisbatan bo‘lgan munosabatlarini belgilaydi. Ushbu maqolada ko‘rsatilganidek, dunyoqarash subyektiv haqiqat sifatida har bir insonda o‘ziga xos tarzda shakllanadi va ayni paytda ijtimoiy tajriba va madaniy muhit bilan uzviy bog‘liq bo‘ladi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, dunyoqarash – bu nafaqat bilimlarning yig‘indisi, balki hissiyot, intuitsiya, ishonch, qadriyatlar, estetik sezgi va hayotiy tajribalarning murakkab uyg‘unligidir. Inson shaxsi aynan ushbu kompleks jarayonlar orqali rivojlanadi va mustaqil fikrlovchi, axloqiy mas’uliyatga ega bo‘lgan ijtimoiy mavjudot sifatida shakllanadi.

Zamonaviy pedagogika uchun dunyoqarashni shakllantirish masalasi strategik ahamiyatga ega. Ta’lim jarayonida inson shaxsining fikrlash doirasini kengaytirish, unga qadriyatli yo‘nalish berish, madaniy va milliy o‘zlikni anglashga yordam berish asosiy maqsad bo‘lib xizmat qilishi lozim. Bunda o‘qituvchi nafaqat axborot manbai, balki dunyoqarashni shakllantiruvchi yetakchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada keltirilgan nazariy mulohazalar va misollar shuni ko‘rsatadiki, dunyoqarashni to‘g‘ri shakllantirish nafaqat alohida shaxs, balki butun jamiyatning intellektual va axloqiy salohiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayonda milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi, madaniy merosga asoslangan estetik tarbiya, tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va ijtimoiy mas’uliyatni shakllantirish muhim o‘rin tutadi.

Kelajakda dunyoqarash tadqiqotlarini yanada chuqurlashtirish, uni psixologik, pedagogik va madaniy-falsafiy yondashuvlar asosida o‘rganish, shuningdek, zamonaviy texnologiyalar sharoitida yosh avlodda sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Мамаримов А. Дунёқараш: фалсафий таҳлил. – Тошкент: Фан, 2020. – 272 б.

2. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 180 б.

3. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. – М.: Академический проект, 2002. – 528 с.

4. Содиқов А. Маълумот ва маърифат: фалсафий таҳлил. – Тошкент: Университет, 2019. – 190 б.

5. Pushkin A.S. Собрание сочинений в 10 томах. Т.1. – М.: Художественная литература, 1980.

6. Dewey J. Democracy and Education. – New York: The Free Press, 1944. – 434 p.

7. Frankl V. Man’s Search for Meaning. – Boston: Beacon Press, 2006. – 168 p.

8. UNESCO. Rethinking Education: Towards a Global Common Good? – Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 120 p.

OILAVIY TARBIYADA TA’LIM GUMANIZATSIYASINING O‘RNI: FALSAFIY TAHLIL

Xasanov Hayotbek
SamDCHTI, tadqiqotchisi

Bugungi globallashuv, raqamli jamiyat va texnologik taraqqiyot sharoitida insoniyat ta’lim tizimidan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Endilikda ta’lim nafaqat bilim va ko‘nikmalar beruvchi tizim, balki shaxsni ma’naviy-axloqiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan yetuk inson sifatida shakllantiruvchi kuchli ijtimoiy institut sifatida qaralmoqda. Aynan shu nuqtada zamonaviy pedagogik va falsafiy qarashlar markaziga ta’limning gumanizatsiyasi tamoyili chiqadi.

Ta’limning gumanizatsiyasi – bu insonparvarlikka asoslangan, har bir inson shaxsining qadr-qimmatini, ichki imkoniyatlarini, tafakkur erkinligini va ma’naviy kamolotini tan olgan holda tashkil etiladigan ta’lim jarayonidir. Bunday yondashuvda inson ta’limning ob’ekti emas, balki asosiy sub’ekti sifatida e’tirof etiladi. Demak, har qanday ta’lim va tarbiya jarayonining bosh maqsadi – insonni chinakam inson sifatida shakllantirish, uning ruhiy olamini tarbiyalashdir.

Bu jarayonda esa oilaning o‘rni beqiyosdir. Bola hayotga ilk qadam qo‘yganidan boshlab uni o‘rab turgan ilk sotsiummuhit — bu oila bo‘lib, uning dunyoqarashi, qadriyatlari, axloqiy fazilatlari, insonlarga munosabati aynan oilaviy muhitda shakllanadi. Ota-onaning har bir so‘zi, harakati, odati bolaning ongiga singadi. Shu boisdan ham buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy shunday degan edi: “Bolaning yuz chiroyiga ona qornidayoq zamin yaratiladi. Keyin uni o‘zgartiradigan kuch yo‘q.”

Bu fikrning chuqur ma’nosi shundaki, bolaning jismoniy sog‘lomligi bilan birga uning ruhiy-ma’naviy salohiyati ham ilk bosqichda shakllanadi va bu bosqich – aynan oiladagi tarbiya jarayonidir. Bu esa ta’lim tizimida gumanistik yondashuvni shakllantirishda oila negiz vazifasini bajarishini ko‘rsatadi. Yosh avlodga “nima yaxshi, nima yomon”ni anglatish, hayotning ma’naviy mezonlarini singdirish, to‘g‘ri tanlov qilishga o‘rgatish – xalqimizning asriy orzusi bo‘lib kelgan. Milliy ertaklar, rivoyatlar, hikmatlar, marosimlar, xalq og‘zaki ijodi

vositasida yosh ongiga gumanistik qadriyatlar singdirilgan. Bu madaniy meros hozirgi zamon ta’lim falsafasi bilan uyg‘un holda ishlatilsa, barkamol avlod tarbiyasida katta samara beradi.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada ta’lim gumanizatsiyasining falsafiy asoslari, uning oiladagi ma’naviy-axloqiy tarbiya bilan uzviy bog‘liqligi, shuningdek, ota-onalarning gumanistik yondashuvdagi o‘rni tahlil qilinadi. Maqsad – jamiyatda inson qadrini ulug‘laydigan, ma’naviy yetuk, axloqan pok, erkin va mas’uliyatli avlodni tarbiyalashda oila va ta’lim tizimining o‘zaro uyg‘unligining zarurligini asoslab berishdir.

Ta’limning gumanizatsiyasi tamoyili o‘z ildizlarini qadimiy yunon falsafasi, ayniqsa, Sokrat, Platon va Aristotel asarlarida topadi. Ular insonni bilish, tarbiya va jamiyatdagi o‘rni haqida fikr yuritganlar. Ayniqsa, Platon o‘zining “Davlat” asarida ta’limni ideal jamiyat qurilishining asosi deb bilgan.

Gumanizm tushunchasi O‘rta asrlardan Yevropa Uyg‘onish davriga o‘tgan holda, insonni ilohiy ob’ekt emas, balki aqlli, yaratuvchan va ma’naviy mavjudot sifatida e’tirof etadi. Falsafiy jihatdan gumanizatsiya – bu inson tabiatini, erkinligini, shaxsiyligini va uning erkin taraqqiyotini asosiy qadriyat sifatida tan olishdir.

Mazkur maqola ana shu falsafiy yo‘nalishlar zamirida turib, ta’lim jarayonining markaziga insonni va uning shaxsiy kamolotini qo‘yadi.

Falsafiy antropologiya inson tabiatini, ruhiy-axloqiy tuzilishini o‘rganadi. Gumanistik ta’lim ham aynan shu yo‘nalish asosida insonni o‘rganish, uni anglash va rivojlantirish g‘oyalariga suyanadi. Maqolada bolaga beriladigan tarbiya, avvalo, u individual shaxs ekanligini tan olish orqali boshlanishi kerakligi ta’kidlanadi.

Inson o‘zining tabiiy biologik mavjudot sifatidagi o‘ziga xosliklarini oilada tanlay olmaydi — u unga beriladi. Ammo axloqiy, madaniy, ma’naviy shaxs sifatida shakllanishi – bu tarbiyaning, demakki, ijtimoiy-madaniy ongning mahsulidir. Shuning uchun oila – insonni “inson qilish”da dastlabki maydon bo‘lib, bu jihatni falsafiy jihatdan “ontogenez” va “sotsiogenez” oralig‘idagi poydevor sifatida ko‘rish mumkin.

Falsafada aksiologiya – bu qadriyatlar haqidagi fan. Maqolada oiladagi ma’naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi mehr, halollik, mehnatga hurmat, haqiqatparastlik, poklik kabi qadriyatlar deb ko‘rsatiladi. Ushbu qadriyatlar bolaga gumanistik asosda beriladi.

Falsafiy yondashuvda qadriyatlar shaxs ichki dunyosining ichki koordinata tizimini belgilaydi. Bu tizim orqali bola hayotdagi holatlarni baholaydi, tanlaydi va harakat qiladi. Shu sababli, gumanistik ta’lim – bu qadriyatlar ta’limi, axloqiy idealni anglash va unga intilishni rag‘batlantirishdir.

Beruniy fikriga ishora qilgan holda maqolada aytiladi: bola go‘zalligi (bu yerda keng ma’noda: jismoniy va ruhiy barkamollik) tug‘ilishdan boshlanadi. Falsafiy talqinda bu ontologik g‘oya – ya’ni mavjudlikning sifatli bosqichi sifatida go‘zallik va axloqiylikni tan olishdir.

Falsafada gnoseologiya — bilim haqidagi ta’limot bo‘lib, bilim insonni shakllantiruvchi kuch deb qaraydi. Maqolada oila va maktabning hamkorligi, ota-onalarning pedagogik saviyasini oshirish zarurati urg‘ulanadi. Bu orqali bilim faqat informatsiya emas, balki shaxsga yo‘naltirilgan ma’naviy jarayon ekani isbotlanadi.

Falsafiy tahlilda ta’lim gumanizatsiyasi – bu shaxsning bilim olish jarayonida insoniy qadriyatlar bilan o‘sishi, uni o‘z hayoti va jamiyati bilan bog‘lay bilishidir.

Platon nazariyasiga ko‘ra, “tarbiya — bu ruhni ichki go‘zallik tomon burishdir.” Maqoladagi oilaning bu jarayonda tutgan o‘rni aynan ana shu “ichki go‘zallik”ni uyg‘otishdagi birlamchi manba sifatida talqin qilinadi.

Gumanizm falsafasi doimo jamiyatni isloh qilish uchun shaxsni isloh qilish zarurligini ta’kidlaydi. Bu esa faqat ta’lim, tarbiya, oiladagi ijtimoiy muhit orqali ro‘yobga chiqadi. Maqolada aytilganidek, yosh avlodga “nima yaxshi, nima yomon”ni anglatish xalqning asriy orzusidir.

Falsafiy tilda bu ijtimoiy ongning uzviyligi va barqarorligini ta’minlash deganidir. Agar oila bu qadriyatlarni yosh ongiga singdira olsa, jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, axloqiy uyg‘unlik yuzaga keladi. Bu esa jamiyat taraqqiyotining falsafiy sharti hisoblanadi.

Ta’limning gumanizatsiyasi — bu nafaqat didaktik yoki metodik tamoyil, balki insonning mohiyatini anglashga qaratilgan falsafiy konsepsiyadir. Bu yondashuvning markazida insonning ichki dunyosi, axloqiy fazilatlari, erkin fikrlashi, jamiyatdagi ijtimoiy o‘rni va mas’uliyati turadi. Gumanistik ta’limning samarali shakllanishi esa bevosita oila muhitiga, ota-onaning ma’naviy saviyasi va tarbiyaviy yondashuvlariga bog‘liq.

Maqolada yoritilgan fikrlar asosida quyidagi falsafiy xulosalarga kelish mumkin:

1. Oila — gumanistik qadriyatlarning ilk shakllanish maydonidir. Insonning hayotga, boshqa odamga, mehnatga, bilimga bo‘lgan munosabati aynan oilada shakllanadi. Oila bolaga mehr, sabr, to‘g‘rilik, hurmat, poklik kabi insoniy fazilatlarni singdirish orqali uning ichki dunyosini boyitadi.

2. Gumanistik ta’lim — shaxsni jamiyatga emas, jamiyatni shaxs atrofida shakllantirish g‘oyasini ilgari suradi. Bu esa insonparvarlik, erkinlik va o‘z-o‘zini anglash g‘oyalarini o‘z ichiga oladi. Bolani faqat bilim bilan emas, balki ruhiy-estetik va ma’naviy yondashuv bilan tarbiyalash — gumanizatsiyalashgan ta’limning asosi bo‘lishi kerak.

3. Tarbiya va ta’lim bir-birini to‘ldiruvchi falsafiy jarayonlardir. Ta’lim, bu shaxsga bilim berish jarayoni bo‘lsa, tarbiya — bu shaxsda qadriyatlar va ma’naviy mezonlar tizimini shakllantirish jarayonidir. Ular o‘zaro uyg‘unlashgandagina inson komil ma’noda rivojlanadi.

4. Ota-onaning pedagogik va aksiologik saviyasi – jamiyat barqarorligining asosi. Ota-onalarning pedagogik madaniyati, qadriyatlarga bo‘lgan munosabati jamiyatda barqaror axloqiy muhitni shakllantiradi. Bu esa o‘z navbatida, maktab va davlat miqyosidagi ta’lim siyosatining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

5. Gumanistik yondashuv shaxsni ob’ekt sifatida emas, sub’ekt sifatida ko‘radi. Bu esa insonning o‘zini anglashga, mas’uliyatli bo‘lishga, jamiyatdagi faol ishtirokchi sifatida shakllanishiga asos bo‘ladi. Bola fikriga hurmat bilan qaralgan muhitda o‘sgan inson kelajakda adolatli, tolerant va ma’naviy jihatdan yetuk bo‘ladi.

6. Gumanistik ta’lim jamiyat taraqqiyotining falsafiy mezonidir. Ma’naviyati yuqori avlod – bu mustahkam davlatning, ijtimoiy adolatning, tinchlik va taraqqiyotning kafolatidir. Shu sababli, ta’lim tizimida insonparvarlik yondashuvi strategik yo‘nalishga aylanishi zarur.

Shu jihatdan olib qaralganda, falsafiy tahlil bizga shuni ko‘rsatadiki, ta’limning gumanizatsiyasi g‘oyasi faqat pedagogik texnologiya emas, balki chuqur antropologik va aksiologik asosga ega falsafiy konsepsiyadir. Bu konsepsiya faqat maktab, universitet yoki siyosiy tizim orqali emas, balki har bir oilaning ma’naviy muhitida boshlanishi kerak. Insonni anglash orqali jamiyatni anglash mumkin. Shu bois, har bir ota-ona – aslida shaxsiyati barkamol jamiyat asoschisi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1980.

2. Ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: “Маънавият”, 2002.

3. Ислом Каримов. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1999. – 80-б.

4. О.Тўраева. Бола азиз, одоби ундан азиз. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1986.

5. Насиҳатнома. – Тошкент: “Маънавият”, 1998.

6. Юлдошев, Қ. Таълимда маънавий қадриятлар тизими. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2014.

7. Мирзаева, Н.Ш. Оилада бола тарбиясида миллий қадриятларнинг ўрни. – Тошкент: “Маънавият”, 2010.

TA’LIMDA QADRIYATLAR TIZIMI: ILMIY-FALSAFIY YONDASHUV

Xasanov Hayotbek
SamDCHTI, tadqiqotchisi

Har qanday jamiyatning ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti, eng avvalo, undagi ta’lim-tarbiya tizimining qanday qadriyatlar asosida shakllanganiga bog‘liq. Inson kamoloti faqat bilim bilan emas, balki ma’naviy-axloqiy qadriyatlar bilan uyg‘unlashgan ta’lim orqali yuzaga chiqadi. Shu sababli, bugungi globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida ham, qadimiy madaniy ildizlarga tayanilgan, milliy-ma’naviy qadriyatlarga asoslangan ta’lim tizimi zarur bo‘lib qolmoqda.

Ta’limda qadriyatlar tizimi — bu insonning ijtimoiy ongini, axloqiy dunyoqarashini va shaxsiy mas’uliyatini shakllantiruvchi asosiy omildir. Bu tizim orqali bola hayotda nimalar muhim, nimalar yuksak baholanadi, qanday fazilatlar e’zozlanadi, degan savollarga hayotiy javoblar topadi. Ana shu qadriyatlar orqali bola jamiyatga munosib a’zo bo‘lib ulg‘ayadi.

Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ta’kidlaganidek, inson hayotida har xil holatlar bo‘ladi – ularni ba’zida maqtaydilar, ba’zida qoralaydilar. Bu holatlar esa bevosita insonning tarbiyasi va ruhiy kamolotiga ta’sir qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan qaraganda, bolaga yoshlikdan boshlab to‘g‘ri axloqiy mezonlarni singdirish, yaxshi-yomonni farqlashni o‘rgatish har bir oila va ta’lim muassasasining muqaddas vazifasidir.

Oila — ta’lim va tarbiyaning ilk va eng asosiy bosqichi. Bolaning ilk qadamlari, birinchi so‘zlari, odob-axloqi, hattoki yurish-turishi aynan oila muhitida shakllanadi. Shu boisdan ota-onaning, ayniqsa onaning mehr-muhabbati, unga aytilgan “alla”si, berilgan ismi va o‘ziga bo‘lgan ishonch hissi bolaning shaxsiyati poydevorini tashkil etadi. Ibn Sino shunday degan edi: “Bolaga shunday ot qo’yginki, u katta bo’lganida o’z otidan uyalmasin”. Bu so‘zlar ismning o‘ziga xos qadriyat sifatida bolaning ruhiy olamiga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi fikrlar ta’limda qadriyatlar tizimining naqadar muhimligini, ayniqsa, bugungi murakkab axborot oqimi sharoitida axloqiy immunitet shakllantirishda uning ahamiyati beqiyos ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Qadriyatli ta’lim nafaqat bilim beradi, balki shaxs tarbiyasi, ijtimoiy mas’uliyat va insoniylik mezonlarini singdiradi. Shu bois, ushbu maqolada ta’limda qadriyatlar tizimining falsafiy asoslari, uning oila va jamiyat hayotidagi o‘rni, qadimiy an’analar bilan bog‘liqligi keng yoritiladi.

Qadriyatlar tizimi insonning hayotiy yo‘lini belgilab beradigan, uni jamiyatda to‘laqonli shaxs sifatida shakllantiradigan ma’naviy-axloqiy mezonlar majmuasidir. Bu tizimning ildizlari oila muhitidan, ona mehri va ota-ona ko‘rsatgan namunadan boshlanadi. Har bir xalqning urf-odati, milliy an’analari,

afsonalari, ertaklari, qadimiy didaktik hikoyalari ana shu tizimni barpo etishda muhim omil sifatida xizmat qiladi.

Ta’limda qadriyatlar tizimining amaliy ifodasi bolaning kundalik xatti-harakatlarida, tilida, odobida, o‘zini tutishida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan, salomlashish, ulug‘larni hurmat qilish, rostgo‘y bo‘lish, har bir harakatda mas’uliyatni his etish, o‘z ismining ma’nosiga munosib yashash – bularning barchasi bola ongiga qadriyatlar orqali singdiriladi.

Yuqoridagi matnda keltirilganidek, ota-onalar bolaga ism tanlashda keksa avlod, ya’ni buva-buvilar maslahati bilan qaror qilishgan. Bu esa avlodlar davomiyligini, qadriyatlarga hurmatni va ma’naviy merosni bolaga bolalikdan singdirishning eng nafis shaklidir. Ism tanlashda muqaddas shaxslar – Muhammad, Alisher, Temur, Bobur, Ulug’bek kabi siymolarga murojaat qilish, bolada tarixiy xotira va milliy g‘ururni uyg‘otadi.

Bu jarayon bolada identitet (o‘zlikni anglash), o‘ziga bo‘lgan hurmat va jamiyat oldida mas’uliyat tuyg‘usini mustahkamlaydi. Shu sababdan ta’lim tizimi bolani faqat bilimga emas, balki o‘z ismining va o‘zligining qadriyatiga munosib yashashga yo‘naltirishi lozim.

Odob — qadriyatlarning tashqi ko‘rinishdagi amaliy shaklidir. Bola dastlabki odobni oila muhitida o‘zlashtiradi. Salomlashish, tozalik, katta-kichikning o‘rnini bilish, so‘zlash madaniyati, ovqatlanish odobi, kiyinish madaniyati – bularning barchasi qadriyatlar tizimining hayotdagi real aksidir. Yuqoridagi matnda qayd etilganidek, “odob dastlab ota-onaning bolaga mehr ko’zi bilan qarashidan boshlanadi.” Demak, odobni o‘rgatishda nafaqat gap, balki ota-ona tomonidan ko‘rsatilgan harakat, namuna muhimdir. Farzand o‘z harakatlarida kattalarga taqlid qiladi, shuning uchun ta’limda va oilada katta avlodning mas’uliyati nihoyatda kattadir.

Bolaga maktabgacha yoshdayoq tahliliy fikrlash, rostgo‘ylik va sabr-toqat kabi xulqiy qadriyatlarni singdirish, kelajakda ularning shaxsiy va kasbiy faoliyatida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Yuqorida takidlaganimizdek, “Xalq yaratgan yaxshi odob va hatti-harakaltarga doir maqol, ertak, rivoyat, hikoya va afsonalarga amal qilish maqsadga muvofiqdir”. Bu fikr xalq ijodining tarbiyaviy kuchini e’tirof etadi. Ertaklarda odatda ikki qutb — yaxshilik va yomonlik, halollik va xiyonat, mehnat va dangasalik qarama-qarshiligi tasvirlanadi. Bu orqali bola hayotiy haqiqatlar, qadriyatlar va ularning oqibatlarini anglay boshlaydi. Shuningdek, ertak, maqol, rivoyatlarda e’tirof etilgan qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tuvchi axloqiy kod sifatida xizmat qiladi. Bu esa qadriyatlar tizimini mustahkamlashda beqiyos ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, ta’limda qadriyatlar tizimi — bu nafaqat shaxs tarbiyasining asosiy vositasi, balki jamiyat barqarorligining kafolati, millat kelajagining ma’naviy tayanchidir. Bu tizim har bir bolaga insoniy fazilatlarni singdiradi, uni ijtimoiy mas’uliyatli, fikrlovchi, odobli va ma’rifatli inson sifatida shakllantiradi. Shu sababli, qadriyatlar tizimini oila, ta’lim maskanlari va butun jamiyat darajasida uyg‘un holda shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Yuqorida tahlil qilingan masalalar shuni ko‘rsatadiki, har bir ijtimoiy qadriyat — bu shunchaki urf-odat yoki odat emas, balki avloddan-avlodga o‘tuvchi, shaxsni jamiyatda o‘z o‘rnini topishga undovchi, axloqiy-ruhiy tayanchdir. Masalan, bolaning ismi orqali uning o‘zligini anglash, ona allasi orqali mehrni his qilish, odob qoidalari orqali o‘zini boshqalar oldida tutishni o‘rganish, xalq og‘zaki ijodi orqali hayotiy tajriba olish – bularning barchasi ta’limdagi qadriyatlar tizimining muhim bo‘g‘inlaridir.

Abu Rayhon Beruniyning fikricha, jamiyatda turli holatlar bo‘lishi tabiiy, ammo muhim jihat — inson ularga qanday munosabatda bo‘lishini, ularni qanday qabul qilishini o‘rgatishdir. Bu esa tarbiya orqali, ya’ni qadriyatlar vositasida amalga oshadi. Shu ma’noda ta’lim nafaqat bilim beruvchi tizim, balki shaxs kamolotini tarbiyalaydigan muqaddas maskandir.

Shu boisdan, zamonaviy ta’lim tizimi yoshlarni globallashuv oqimida o‘zligini yo‘qotmaslikka, balki o‘z xalqining qadriyatlariga sadoqatli bo‘lib ulg‘ayishga undashi zarur. Qadriyatlar bilan qurollangan shaxs esa har qanday muhitda, har qanday sharoitda o‘zligini anglab, jamiyatda faol va ijobiy o‘ringa ega bo‘lishga qodirdir.

Shunday qilib, ta’limda qadriyatlar tizimini shakllantirish — bu nafaqat pedagogik, balki falsafiy, ma’naviy va madaniy jarayondir. Bu tizimni mustahkamlash orqali biz o‘z xalqimizning boy merosini asraymiz, yosh avlodni komil inson bo‘lib voyaga yetkazamiz va shu orqali milliy taraqqiyotga xizmat qilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. – Тошкент: Фан, 1980.

2. Ибн Сино. Тиб қонунлари. – Тошкент: “Маънавият”, 2002.

3. Ислом Каримов. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 1999. – 80-б.

4. О.Тўраева. Бола азиз, одоби ундан азиз. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1986.

5. Насиҳатнома. – Тошкент: “Маънавият”, 1998.

6. Юлдошев, Қ. Таълимда маънавий қадриятлар тизими. – Тошкент: “Фан ва технологиялар”, 2014.

7. Мирзаева, Н.Ш. Оилада бола тарбиясида миллий қадриятларнинг ўрни. – Тошкент: “Маънавият”, 2010.

TALABALARDA ILMIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA O’YINLARNING KOGNITIV-METODOLOGIK TA’SIRI

Kubaeva Shoira Toshmurodovna,
SamDU tadqiqotchisi, TATU Samarqand filiali,
Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti

Bugun dunyo ilm – fani taraqqiyoti hamda yuksak texnologiyalarning yaratilishi nafaqat jamiyat rivojlanish tendentsiyalariga balki insoniyat ongi va tafakkuriga ham keng ta’sir ko’rsatmoqda. Mutassil o’zgarib borayotgan dunyo, tinimsiz taqdim etilayotgan o’zgarishlar kishilardan kreativ fikrlashni, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishni talab etmoqda. Shunday bir vaziyatda rivojlanish yo’lidagi yoki rivojlanayotgan mamlakatlarda ta’lim sohasi taraqqiyotning eng asosiy richagi hisoblanadi. Bugun biz ta’lim samaradorligini uning amaliy jarayonlardagi ahamiyati orqali belgilab olishimiz mumkin. Endilikda ilmiy tafakkurni rivojlantirish ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir. An’anaviy o’qitish usullari har doim ham talabalarning faol ishtirokini ta’minlay olmasligi mumkin. Shu nuqtai nazardan, o’yinlar nafaqat ko’ngilochar vosita, balki kuchli kognitiv-metodologik ta’sirga ega bo’lgan samarali pedagogik instrument sifatida tobora ko’proq e’tibor qaratmoqda.

Hozirgi zamon ta’lim tizimida talabalarda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ilmiy asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish dolzarb vazifa sifatida qaralmoqda. Ilmiy tafakkur – bu faqat ma’lumotlarni o’zlashtirish emas, balki tahlil qilish, umumlashtirish va yangilik yaratish salohiyatidir. Kognitiv o’yinlar va o’yinlashtirilgan ta’lim texnologiyalari bu jarayonni interaktiv va metodologik jihatdan asoslangan usulda amalga oshirish imkonini beradi. Shu bois ushbu mavzu inson ongining faollashuvi, bilish qobiliyati va ijodiy salohiyatini tarbiyalashda juda muhim hisoblanadi.

Ilmiy tafakkur – bu nazariy bilimlarni mantiqiy ravishda qayta ishlash, xulosa chiqarish va yangi nazariya yaratish qobiliyati. Ilmiy tafakkur orqali mavhum fikrlash, muammo echimiga doir taklif tavsiyalarni ishlab chiqish hamda mantiqiy xulosalar chiqarish, ilmiy asosda baholash jarayonlari amalga oshadi. O’yinlarning kognitiv ta’siri deganda bilimni qabul qilish, qayta ishlash, xotirada saqlash va tatbiq etish jarayoniga ta’sir ko’rsatuvchi omillar nazarda tutilsa, uning metodologik ta’siri – o’yinlar orqali bilish jarayonida uslubiy yondashuv, to’g’ri fikr yuritish va qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishni amalga oshiradi.

O’yinlar ko’pincha murakkab muammolarni hal qilishni talab qiladi, bu esa talabalarni mavjud ma’lumotlarni tahlil qilishga, farazlar ilgari surishga va ularni sinashga undaydi. Misol uchun, strategik o’yinlar talabalardan vaziyatni baholash, alternativ echimlarni ko’rib chiqish va ularning oqibatlarini oldindan bilishni talab qiladi.

Demak, o’yinlar talabalarda bir qator kognitiv ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. O’yinlar talabalarga muammolarga ijodiy yondashish imkoniyatini beradi. Ular turli xil echim variantlarini sinab ko’rishlari, xatolardan saboq olishlari va eng samarali yo’lini topishlari mumkin. Bu jarayon ilmiy bilish tsikli – muammoni aniqlash, gipoteza yaratish, eksperiment o’tkazish va xulosa chiqarish jarayoniga o’xshaydi. Ko’pgina o’yinlar, ayniqsa boshqotirmalar va mantiqiy o’yinlar, talabalarning deduktiv va induktiv fikrlash qobiliyatini oshiradi. Ma’lumki o’yinlar ko’pincha nostandart echimlarni topishni talab qiladi. Bu esa talabalarni yangi g’oyalar yaratishga, mavjud bilimlarni noodatiy tarzda qo’llashga va innovatsion fikrlashga undaydi.

Ko’pincha o’yin jarayonida qoidalarni eslab qolish, ko’plab elementlarni kuzatish va ma’lumotlarni qayta ishlash talab qilinadi. Bu kishida esa xotira hajmini va diqqatni jamlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari o’yinlar asosida ilmiy tadqiqot metodologiyasiga xos bo’lgan amaliy ko’nikmalar ham rivojlanishi mumkin. Ko’plab o’yinlar, ayniqsa simulyatsiyalar, talabalarga turli o’zgaruvchilarni nazorat qilish, ularning natijalarga ta’sirini kuzatish va tajriba o’tkazishga imkon beradi. Bu ilmiy eksperiment o’tkazishga yaqin sharoitni yaratadi. Aksariyat o’yinlarda o’yin davomida to’plangan ma’lumotlarni tahlil qilishni, ular asosida qarorlar qabul qilishni talab qiladi. Bu esa talabalarda empirik tadqiqot uchun zarur bo’lgan ko’nikmalarni shakllantiradi. Jamoaviy o’yinlar talabalarni birgalikda ishlashga, g’oyalar almashishga, bahslashishga va umumiy maqsadga erishish uchun bir-birlarini tinglashga undaydi. Bu ilmiy hamjamiyatdagi tadqiqotlar uchun juda muhim bo’lgan ko’nikmalardir. O’yinlar talabalarga nazariy bilimlarni real yoki virtual vaziyatlarda qo’llash imkoniyatini beradi. Bu esa ularning bilimlari chuqurlashishiga va ularni turli kontekstlarda qo’llash qobiliyatining oshishiga olib keladi. O’yinlar shunchaki ko’ngilochar bo’lmasligi, balki aniq o’quv maqsadlariga ega bo’lishi kerak. Masalan, fizika qonunlarini o’rgatish uchun mo’ljallangan simulyatsiya o’yinlar, o’yinlar o’rganilayotgan fan sohasi yoki mavzuga mos bo’lishi lozim. O’yin tugagandan so’ng, talabalar bilan o’yin jarayonini, qabul qilingan qarorlarni va ularning oqibatlarini muhokama qilish muhimdir. Bu ularda o’yin tajribasidan ilmiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Demak, o’yinlar talabalarni muammoning mohiyatini chuqur tushunishga, uning sabablarini aniqlashga va turli jihatlardan tahlil qilishga o’rgatadi. Real hayotda bu, masalan, kompaniyadagi ishlab chiqarish muammosini yoki jamiyatdagi ijtimoiy masalani aniqlash va uning ildizlarini o’rganishda asqotadi.

Xulosa qilib aytganda, o’yinlar talabalarda ilmiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish uchun juda katta potentsialga ega. To’g‘ri tanlangan va metodologik jihatdan asoslangan o’yinlar o’quv jarayonini yanada qiziqarli, interaktiv va samarali qilishga yordam beradi, shu bilan birga talabalarning nafaqat kognitiv, balki ilmiy tadqiqot ko’nikmalarini ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Kubaeva Sh. O’yin va innovatsion tafakkur. Monografiya. Samarqand. SamDU nashri. 130.b
2. Qo’shoqov Sh.S. Innovatsion tafakkur kontseptsiyasi G’G’ Fan va falsafada innovatsion tafakur muammolari. Ilmiy maqolalar to’plami. – Samarqand: SamDU, 2010. – B. 17.
3. Тўраев Б., Убайдуллаев У. Жамият тараққиётида янгича тафаккурнинг хусусиятлари // Фан ва фалсафада инновацион тафаккур муаммолари. Илмий мақолалар тўплами. – Самарқанд: СамДУ, 2010. – Б. 7
4. Ретюнских Л.Т. Философия игры. - М.: Вузовская книга, 2002. - 256

BUYUK IPAK YO‘LI XALQLARINING XALQ OG‘ZAKI IJODI VA AFSONALARINING O‘ZARO ALOQADORLIGI

Zarmed universiteti
B.T.Aliqulov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab yashagan xalqlarning xalq og‘zaki ijodi va afsonalari orqali shakllangan madaniy aloqalari, o‘zaro ta’sir va umumiy obrazlarning vujudga kelish jarayonlari tahlil qilinadi. Afsonalarning shakllanishi, tarqalishi va zamonaviy talqinlari misolida ular orasidagi uzviylik va madaniy meros sifatidagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: Buyuk Ipak yo‘li, xalq og‘zaki ijodi, afsona, doston, madaniy almashuv, xalq merosi.

Buyuk Ipak yo‘li insoniyat tarixida o‘zining betakror o‘rni bilan ajralib turadi. U orqali faqatgina savdo-sotiq emas, balki turli madaniyatlarning, dinlarning, falsafiy oqimlarning, san’at va adabiyotning almashuvi yuz bergan. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodining bu yo‘nalishlar orqali tarqalishi va bir-biriga singishi madaniyatlararo aloqalarning chuqurligini ko‘rsatadi. Turli xalqlar

o‘rtasidagi afsona, doston, ertak va rivoyatlar bir-biriga o‘xshash syujetlarga ega bo‘lib, bu ularning tarixiy-madaniy aloqalari natijasi ekanligini isbotlaydi. Xalq og‘zaki ijodi, xususan afsonalar, qadimdan beri insoniyat tafakkurining yuksak mahsuli bo‘lib, ularning mazmuni va shakli orqali xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qarashlari ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda, Buyuk Ipak yo‘li nafaqat iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan, balki boy madaniy muloqot makoni sifatida ham tarixda muhim iz qoldirgan.

Xalq og‘zaki ijodi insoniyatning tarixiy xotirasini saqlab qolgan, har bir xalqning o‘zligini namoyon etgan asosiy omillardandir. Bu ijodiy faoliyatning turli shakllari, jumladan, dostonlar, afsonalar, ertaklar, maqollar va topishmoqlar, avloddan-avlodga og‘zaki tarzda yetkazilib kelgan. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab yashagan xalqlar orasida bu meros juda boy bo‘lgan. Har bir xalqning og‘zaki ijodida ularning tarixi, geografik joylashuvi, ijtimoiy tuzumi, diniy e’tiqodlari va tabiat bilan bo‘lgan munosabatlari aks etadi. Shu sababli, o‘zbek xalqining “Alpomish”, tojiklarning “Rustam”, uyg‘urlar orasida “Oguzxon”, qirg‘izlarda esa “Manas” kabi eposlari nafaqat milliy qahramonlik namunasi, balki madaniyatlararo umumiylikni ko‘rsatuvchi misollardir. Bunday asarlar orqali xalq nafaqat o‘z tarixini anglaydi, balki o‘z orzu-umidlari, ezgulikka intilishi, adolatga bo‘lgan ishonchini ham ifoda etadi.

Buyuk Ipak yo‘li xalqlarining og‘zaki ijodida juda ko‘p umumiy obrazlar uchraydi. Masalan, “Ajdaho” timsoli turli xalqlarda xavf, sinov, va yovuzlik ramzi sifatida tasvirlanadi. Uyg‘ur, xitoy, o‘zbek, tojik va hatto yunon mifologiyasida ajdaho obrazining mavjudligi, bu obrazning keng tarqalgan va madaniy almashuv mahsuli ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, “Pari”lar, ya’ni go‘zal, ilohiy kuchga ega ayol obrazlari turli xalq afsonalarida mehr-oqibat, go‘zallik, ezgulik timsoli sifatida paydo bo‘ladi. Syujetlarga kelganda esa, “yo‘qolgan malika”, “qahramonning sinov yo‘li”, “mo‘jizaviy yordamchi hayvon” kabi syujetlar turli xalqlarda uchraydi. Masalan, O‘zbekistonda “Go‘ro‘g‘li” dostonida va Eronda “Rustam” rivoyatlarida qahramonning sinov va jang orqali o‘sishi asosiy syujet chizig‘ini tashkil etadi. Bunday syujetlar orqali inson hayoti, uni sinov orqali pishishi, mardlik va sabrning muhimligi haqida chuqur falsafiy tushunchalar beriladi.

O‘rta Osiyoda Aleksandr Makedonskiy bilan bog‘liq Iskandar ko‘pirigi, Iskandarko‘l kabi joy nomlari mavjud. “Iskandarning shohi bor”, “Iskandarning kosasi” kabi o‘nlab afsonalar ham o‘zimizda keng tarqalgan. Afsonalardan birida shunday hikoya qilingandek, qaysar sarkarda Iskandarning boshida hayvonlarning shoxiga o‘xshash ikki shoxi bo‘lgan ekan. U har safar sochini oldirganda chaqirilgan ustani saroydan tirik chiqartirmas ekan. Sirni elga yoymasin, tillarga doston bo‘lib, sharmanda bo‘lishdan qo‘rqarkan. Oydan-oy, kundan-kun o‘tib

mamlakatda usta qolmadi. Shoh mulozimlari izlab-izlab olis qishloqlarning birida yashovchi keksa sartaroshning daragini topishibdi. Ular bechora ustaning oyog‘ini yerga tekkizmay saroyga olib kelishibdi. Iskandar ishi bitgach, odaticha ustani o‘ldirishga buyuripti. Shunda dono vaziri: “Shohim, bu mamlakatdagi oxirgi usta. Buniyam o‘ldirsak, keyin soch-soqolimizni kimga oldiramiz?!” — debdi. Iskandar noiloj, ustaning bir qoshiq qondan kechib, ko‘rgan sir-asrorlarini hech kimga aytmaslikka qasam ichgan sartaroshni qo‘yib yuboribdi. Chol bechora yuragidagi kemirayotgan dardini hech kimga ayta olmay, og‘zidan go‘llab qo‘ysa, boshi ketishidan qo‘rqib, sar yug‘ayib yuraveribdi. Oxiri chidayolmay, qishloqdan bosh olib chiqib ketibdi va bepoyon sahro o‘rtasidagi quduq oldidan chiqib qolibdi. Chol quduqdagi suvda ko‘ringan o‘z akisga qarab: “Ey, quduq! Iskandarning shohi bor!” — deb uch marta takrorlabdi. Shundan keyingina yuragi bo‘shab, yengil tortib, ortiga qaytibdi. Shu surafda mol boqib yurgan bir cho‘pon qo‘ylarini suvorgan payt quduq yoniga kelib qarasa, quduq ichidan bir qamish o‘sib chiqqanmish. Qo‘ylarni suvlatib qaytayotib cho‘pon qamishni kesib olib, nay yasabdi, u nayning og‘ziga qo‘yib puflab ko‘rsa, jozibali kuy o‘rniga “Iskandarning shohi bor!” deb ovoz chiqarar emish. Shu-shu podshoning shohi haqidagi ovoza butun mamlakatga ma’lum bo‘libdi.

Bu afsonada davrlar o‘sha tiniqlashgan xalq donoligi makkor, berahm, zolim shohlarning zo‘ravonlik siyosatinga qarama-qarshi qo‘yiladi. Jaholat va zulmning qora bulutlari adolat oftobining zarrin nurlariga dosh berolmay, bargi xun bo‘lgani kabi Iskandarning betayin, johil podsholigi usta va cho‘pon obrazlarida mujassamlashgan xalq irodasi orqali fosh etiladi. Binobarin, Iskandar nomiga qo‘shib aytiladigan Zulqarnayn atamasi fors-tojik tilida “ikki shoxli” degan ma’noni anglatadi. Tadqiqotchilar shuni ko‘rsatadilar, bu ibora Iskandar haqidagi afsonalar yaratilishidan ancha burun paydo bo‘lgan ekan. Qadimgi grek asotirlaridan birida shohli Midos obrazi mavjud bo‘lib, Grek-Baqtriya manbalarining shakllanish davrida O‘rta Osiyoga kirib kelgan va “Iskandarning shohi bor” afsonasiga asos bo‘lgan.

Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab madaniy almashuvning asosiy yo‘nalishlaridan biri afsonalarning xalqdan-xalqqa o‘tishi bo‘lgan. Bu jarayon ko‘p hollarda savdogarlar, sayyohlar, sufiylar, ziyoratchilar va elchilar orqali amalga oshgan. Masalan, Markaziy Osiyodan Hindistonga borgan sufiylar o‘zlari bilan birga diniy rivoyatlar va xalq afsonalarini ham olib borgan. Xuddi shuningdek, Xitoydan kelgan sayyohlar orqali Buddizmga oid rivoyatlar Markaziy Osiyoga kirib kelgan. O‘zbeklar orasida mashhur bo‘lgan “Oftoboyim” afsonasi, Xitoyning “Ajdaho malikasi” haqidagi rivoyatiga juda o‘xshash. Bu o‘xshashliklar ikki xalq o‘rtasida uzoq davom etgan madaniy aloqalarning dalilidir. Yana bir misol, Sindbad sayohatlari arab, fors, hind va o‘zbek og‘zaki ijodida turli variantlarda mavjud. Bu

kabi afsonalar va syujetlar xalqlar o‘rtasida umumiy xotira yaratishda muhim rol o‘ynaydi.Afsonalarning zamonaviy talqini va ahamiyati

Zamonaviy davrda afsonalar faqatgina tarixiy yoki folklorik qiymatga ega emas, balki madaniy identitet, milliy ong va zamonaviy adabiyot, san’at shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Turli xalqlarning o‘z afsonaviy obrazlarini kino, animatsiya, bolalar adabiyoti, teatr va musiqa san’ati orqali qayta talqin etishi bu merosning barhayotligini isbotlaydi. Masalan, o‘zbek rejissyorlari tomonidan suratga olingan “Alpomish”, “Zohid”, “Rustam” kabi filmlar orqali yosh avlod xalq og‘zaki ijodining eng yirik namunalaridan bahramand bo‘lmoqda. Xuddi shuningdek, xalq ertaklari asosida yozilgan zamonaviy ertaklar, maktab darsliklari, bolalar adabiyoti afsonalarning bugungi kungacha yashab kelayotganligini ko‘rsatadi. UNESCO tomonidan xalq og‘zaki ijodini insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e’tirof etilishi ham bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar va asarlarning jahon miqyosida ahamiyatli ekanini anglatadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Buyuk Ipak yo‘li xalqlarining xalq og‘zaki ijodi va afsonalari o‘zaro chuqur bog‘liq. Bu bog‘liqlik faqatgina umumiy obrazlar va syujetlarda emas, balki dunyoqarash, axloqiy qadriyatlar va estetik didning shakllanishida ham namoyon bo‘ladi. Afsonalar nafaqat o‘tmishni eslatadi, balki hozirgi zamon bilan bog‘lanib, madaniy birlik va xalqaro hamkorlik uchun zamin yaratadi. Xalq og‘zaki ijodi orqali avlodlar o‘rtasidagi madaniy uzviylik ta’minlanadi. Bu merosni o‘rganish, zamonaviylik bilan uyg‘unlashtirish, uni ilmiy asosda tahlil qilish, tarqatish va asrash bugungi kun tadqiqotchilari, yozuvchilari va madaniyatshunoslarining muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Barthold, V.V. “Turkiston v epoxu mongolskogo nashestviya.” Moskva, 1963.

2. Gafurov, B.G. “Tadzhiki. Drevneyshaya, drevnaya i srednevekovaya istoriya.” Moskva, 1972.

3. “Xalq og‘zaki ijodi va folklor: O‘quv qo‘llanma.” T., O‘zMU, 2019.

4. UNESCO. “Oral Traditions and Expressions.” https://ich.unesco.org

5. Qosimova N. “Markaziy Osiyo xalqlari afsonalarining tahlili.” Folklorshunoslik jurnali, 2021.

3-SHO‘BA. ZAMONAVIY LINGVOFALSAFANING TENDENSIYALARI

LINGVISTIK NISBIYLIK: BUGUNGI KUN TALQINI

Irgashova Sevara Baxodir qizi
SAMDCHTI 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola lingvistik nisbiylik tushunchasi va uning asosiy nazariy jihatlarini tahlil qiladi. Sapir-Whorf gipotezasi asosida til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, madaniyatlararo farqlar misolida lingvistik nisbiylikning ahamiyati ochib beriladi. Maqolada O‘zbek tilida uchraydigan lingvistik nisbiylik hodisalari ham tahlil qilinib, ushbu sohadagi ilmiy tadqiqotlarning istiqbollari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *lingvistik nisbiylik, Sapir-Whorf gipotezasi, til va tafakkur, madaniyat, tarjima, kognitiv fanlar*

Inson tafakkuri, dunyoqarashi va til o‘rtasidagi munosabat qadimdan falsafa va tilshunoslik fanida asosiy muammolardan biri bo‘lib kelgan. Shu jihatdan qaraganda, lingvistik nisbiylik nazariyasi – ya’ni, inson qanday tilda gapirsa, uning fikrlash tarzi ham shu tilda shakllanadi, degan g‘oya – bugungi kunda ham dolzarb mavzulardan biri sifatida o‘rganilmoqda. Zamonaviy globalizatsiya, sun’iy intellekt, mashina tarjimasi, ko‘p tillilik sharoitida lingvistik nisbiylikning falsafiy asoslarini qayta ko‘rib chiqish, yangi tadqiqotlar olib borish zarurati ortib bormoqda. Ushbu maqolada lingvistik nisbiylik tushunchasining mazmuni, tarixiy shakllanishi, hozirgi tadqiqotlar va o‘zbek tili misolida bu g‘oyaning qamrovi tahlil qilinadi.

Lingvistik nisbiylik (inglizcha: linguistic relativity) – insonning tilga bog‘liqligini ifodalovchi nazariya bo‘lib, asosan, til va tafakkur o‘rtasidagi aloqalarni tushuntiradi. Bu nazariya shuni ilgari suradiki, til insonning fikrlash jarayoniga ta’sir qiladi, ya’ni qanday tilda so‘zlasak, dunyoni ham shunday ko‘ramiz. Bugungi kun dolzarbligi nimada? Birinchidan, dunyo til jihatdan global miqyosda birlashib bormoqda, lekin har bir millat o‘z tili orqali o‘ziga xos madaniyat va dunyoqarashni namoyish qilmoqda. Ikkinchidan, tarjima texnologiyalari rivojlanib, mashina tarjimasi kengaygan sari, til va mazmun o‘rtasidagi sezilarli farqlar ko‘proq aniqlanmoqda. Uchinchidan, ko‘p tilli

insonlarning tafakkuri qanday shakllanishi, qaysi til ularning asosiy fikrlash vositasi bo‘lishi masalasi ochiq qolmoqda.

Lingvistik nisbiylik tushunchasining asoschilari – amerikalik tilshunoslar Edward Sapir va uning shogirdi Benjamin Lee Whorf bo‘lib, ular bu nazariyani “Sapir-Whorf gipotezasi” sifatida tilshunoslikka kiritgan. Sapirga ko‘ra, til inson tajribasini tuzib beruvchi asosiy vosita bo‘lib, har bir til dunyoni o‘ziga xos tarzda tasniflaydi.[6;72] Whorf esa mayya, hopi kabi mahalliy xalqlarning tillari asosida shuni isbotlashga harakat qilgan: masalan, vaqtni ifodalash, ranglarni nomlash yoki hodisalarni tushuntirishda turli tillar farq qiladi.[7;141] 1950-60-yillarda bu nazariya keskin tanqid qilinsa ham, keyingi tadqiqotlar (masalan, Berlin va Key rang tadqiqotlari, Levinsonning fazoviy tushuncha tadqiqotlari) uni zamonaviy tilshunoslik va psixologiyada qayta jonlantirdi. Bugun lingvistik nisbiylik sof tilshunoslik emas, balki kognitiv fanlar, madaniyatshunoslik va sun’iy intellekt sohalarida ham muhim o‘rin egallaydi.

Bugungi kunda lingvistik nisbiylik bo‘yicha bir qancha dolzarb tadqiqotlar olib borilmoqda. Masalan, ranglar misolida rus tilida “goluboy” (moviy) va “siniy” (ko‘k) so‘zlari alohida farqlansa, ingliz tilida ikkalasiga ham “blue” deyiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rus tilida so‘zlashuvchilar bu ranglar orasidagi farqni ingliz tilidagilarga qaraganda tezroq ajrata oladi.[1;45]

Fazoviy tushunchalar misolida qaraydigan bo‘lsak, Avstraliya aborigenlari orasida mavjud bo‘lgan tillarda “chap-o‘ng” yoki “old-orqa” tushunchalari o‘rniga mutlaq yo‘nalishlar (shimol, janub, sharq, g‘arb) ishlatiladi. Bu ularning fazoni boshqacha tasavvur qilishiga olib keladi.[4;48]

Mashina tarjimasi va sun’iy intellektdan foydalanilganda tarjimon algoritmlarida ko‘pincha mazmun yo‘qolishi kuzatiladi, chunki bir tilning tushunchalari boshqasiga to‘liq mos kelmaydi. Bu esa lingvistik nisbiylikni texnologik nuqtai nazardan yana bir bor isbotlaydi.

O‘zbek tili misolida lingvistik nisbiylikni ko‘rsatish uchun bir nechta qiziqarli jihatlar mavjud. Masalan, hurmat shakllari borasida gapirganimizda, o‘zbek tilida “siz” va “sen” o‘rtasidagi farq insonlar orasidagi munosabatlarni belgilaydi. Ingliz tilida esa bu farq yo‘q (“you” ham hurmat, ham oddiy shaklda ishlatiladi).[5;56]

O‘zbek madaniyatida vaqt tushunchasi ko‘proq “keng” va nisbiy shaklda tasavvur etiladi. Masalan, “hozir” so‘zi g‘arb tillaridagi kabi aniqlikni bildirmasdan, bir necha daqiqa yoki hatto soatlar oralig‘ini anglatishi mumkin. Bu holat lingvistik nisbiylik nazariyasining yaqqol namunasi bo‘lib, til va madaniyatning inson tafakkuriga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tabiatga oid tushunchalar ham o‘zbek tilida o‘ziga xos madaniy yuklama bilan namoyon bo‘ladi. Masalan, “qishloq", “bahor” yoki “sumalak” kabi

so‘zlar boshqa tillarga tarjima qilinsa-da, ular bilan bog‘liq bo‘lgan an’anaviy, tarixiy va hissiy ma’nolar ko‘pincha yo‘qoladi. Ayniqsa “sumalak” nafaqat taom, balki bahoriy yangilanish, ayollar jamiyati, va mehr-oqibat timsoli sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, o‘zbek tilidagi metaforalar va maqollar ham lingvistik nisbiylikka misol bo‘la oladi. O‘zbek tilidagi metaforalar, maqollar va iboralarda ham bu nisbiylik aniq seziladi. Masalan, “Ko‘ngil — ko‘zdan ojiz” yoki “Bahor kelar — dilga quvonch solar” kabi ifodalar nafaqat til, balki madaniy dunyoqarash va qadriyatlarning mahsulidir.

Lingvistik nisbiylik nazariyasi til va tafakkur o‘rtasidagi o‘ziga xos va murakkab munosabatlarni tadqiq etishda asosiy ilmiy konsepsiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu nazariya nafaqat tilshunoslik sohasida, balki jamiyatshunoslik, sun’iy intellekt, kognitiv fanlar va madaniyatshunoslikda ham dolzarb va keng qamrovli masala sifatida qaralmoqda. Til inson tafakkurini shakllantiradi, u orqali inson dunyoni qabul qiladi va unga ma’no yuklaydi. Har bir til o‘ziga xos dunyoqarash modelini yaratib, inson tajribasining butun ko‘lamini aks ettiradi, bu esa til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni yanada kuchaytiradi. O‘zbek tili ham lingvistik nisbiylik nazariyasini o‘rganish uchun boy va qiziqarli materiallarni taqdim etadi. O‘zbek tilida mavjud bo‘lgan ko‘plab madaniy va ijtimoiy tushunchalar, ularning boshqa tillarga tarjima qilinishida yuzaga keladigan qiyinchiliklar, tilning tafakkurdagi o‘rnini aniq ko‘rsatadi. Chunki har bir til o‘zining madaniy kodlari va kontekstlari orqali yangi ma’nolar yaratadi, ularni boshqa tillarga to‘liq va aniq yetkazish har doim ham mumkin bo‘lmaydi. Bu esa lingvistik nisbiylik nazariyasining amaliy va nazariy ahamiyatini oshiradi, til o‘rganish va tarjima sohasida yangi yondashuvlarni shakllantirishni talab qiladi.

Bugungi kunda tilshunoslik va kognitiv fanlarning integratsiyasi, til va tafakkur munosabatlarini chuqur o‘rganish uchun qulay imkoniyatlar yaratmoqda. Xususan, sun’iy intellekt sohasidagi taraqqiyot lingvistik nisbiylikni amaliyotga tatbiq qilishda yangi ufqlar ochmoqda. Sun’iy intellektga asoslangan tarjima tizimlari, tilni chuqur tushunish va uning madaniy kontekstini hisobga olish orqali yanada mukammal tarjimalar yaratish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Bu esa global madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, ko‘p tilli jamiyatlarda til va tafakkur munosabatlarini o‘rganish, madaniyatlararo kommunikatsiyani samarali tashkil etishda katta ahamiyatga ega. Har bir tilning o‘ziga xos tafakkur modeli jamiyat a’zolarining qarashlari, qadriyatlari va dunyoqarashini shakllantiradi. Shu bois, lingvistik nisbiylik tadqiqotlari jamiyatshunoslik, antropologiya va psixologiya kabi sohalar bilan yaqin hamkorlikda olib borilishi lozim. Bu ilmiy izlanishlar inson tafakkurining universal va madaniy xususiyatlarini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, lingvistik nisbiylik nazariyasining zamonaviy ilm-fandagi roli tobora oshib bormoqda. Tilning tafakkurga ta’siri va uning madaniyatga bog‘liqligini aniqlash nafaqat tilshunoslar, balki psixologlar, nevrologlar va sun’iy intellekt mutaxassislari uchun ham muhimdir. Bu sohalarning o‘zaro aloqasi va integratsiyasi til va tafakkur munosabatlarini yanada mukammal o‘rganish imkonini beradi hamda yangi innovatsion yechimlar ishlab chiqilishiga turtki bo‘ladi. Kelajakda lingvistik nisbiylikni o‘rganish istiqbollari juda keng. Ilmiy izlanishlar nafaqat tilshunoslik nazariyalarini rivojlantirishda, balki amaliy sohalarda ham, xususan, avtomatik tarjima tizimlari, madaniyatlararo kommunikatsiya, ko‘p tilli ta’lim va kognitiv rivojlanish sohalarida qo‘llaniladi. Shu sababli, lingvistik nisbiylik sohasidagi tadqiqotlarni davom ettirish, yangi metodologiyalarni joriy etish va turli tillar va madaniyatlarni qamrab oluvchi keng qamrovli tadqiqotlarni amalga oshirish ilm-fan va amaliyot uchun juda muhimdir. Xulosa qilib aytganda, til va tafakkur munosabatlarini o‘rganish insoniyatning dunyoni tushunish usullarini yanada boyitadi va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishga yordam beradi. Lingvistik nisbiylik nazariyasi esa bu jarayonda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar inson tafakkurining til orqali qanday shakllanishini va madaniyat ta’sirida qanday o‘zgarishini ochib berishda davom etishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Berlin, B., & Kay, P. (1969). Basic Color Terms: Their Universality and Evolution. University of California Press.

2. Gumperz, J. J., & Levinson, S. C. (Eds.). (1996). Rethinking Linguistic Relativity. Cambridge University Press.

3. Jumayev, Sh. (2018). Zamonaviy tilshunoslik: Nazariy yo‘nalishlar. Toshkent: O‘zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

4. Levinson, S. C. (2003). Space in Language and Cognition: Explorations in Cognitive Diversity. Cambridge University Press.

5. Qodirov, R. (2020). Til va tafakkur munosabatlari: O‘zbek tili misolida. Samarqand: SamDU nashriyoti.

6. Sapir, E. (1921). Language: An Introduction to the Study of Speech. New York: Harcourt, Brace and Company.

HOZIRGI ZAMON NEMIS TILIDA ILOVALI ELEMENTLARNING LINGVOPRAHMATIK XUSUSIYATLARI

Bektemirov Zohid Nodirovich
“Ipak yo’li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon nemis tilida ilovali (parentetik) elementlarning lingvopragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Ilovalar og‘zaki va yozma nutqda ma’lumotga baho berish, shubha bildirish, mulohaza yuritish, tinglovchi/voqea ishtirokchisiga murojaat qilish kabi kommunikativ vazifalarni bajaradi. Maqolada ilovali birliklarning lug‘aviy-tuzilma jihatlari, ularning sintaktik mustaqilligi va kontekstual moslashuvi nemis tilidagi autentik misollar asosida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: nemis tili, ilovali element, lingvopragmatika, kommunikativ vazifa, sintaktik struktura, parentetik birlik

KIRISH: Til – bu insoniyat tafakkuri va ijtimoiy hayotining asosiy ifoda vositasi bo‘lib, uning har bir elementi muayyan kommunikativ yuklamaga ega. Ayniqsa, zamonaviy lingvistik tahlil doirasida turli kontekstlarda ishlatiladigan strukturalarning pragmatik jihatdan tahlil qilinishi tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shulardan biri bo‘lgan **ilovali elementlar** (yoki parentetik birliklar) hozirgi zamon nemis tilida nutqning mantiqiy, emotsional va baholovchi jihatlarini ifodalashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ilovali elementlar nutqda asosiy fikr ifodalanayotgan konstruktsiyaga grammatik jihatdan bo‘ysunmaydi, biroq semantik va pragmatik darajada uning mazmuniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ular, odatda, og‘zaki yoki yozma matnda muallifning shaxsiy fikri, hissiy munosabati, shubha, ishonch, qo‘shimcha ma’lumot, yoki boshqa ijtimoiy-sotiativ signallarni yetkazishda qo‘llaniladi. Bu esa ularning **lingvopragmatik ahamiyatini** yanada oshiradi.

Zamonaviy nemis tilida bu kabi birliklar ko‘pincha ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, publitsistik matnlar, shuningdek, muloqotga asoslangan nutq turlarida keng qo‘llaniladi. Masalan:

Ich denke – wenn ich ehrlich bin – dass er nicht erscheinen wird.
(Menimcha – rostini aytsam – u kelmaydi.)

Yuqoridagi misolda ko‘rinib turibdiki, *wenn ich ehrlich bin* ilovasi asosiy gap tarkibiga sintaktik jihatdan qo‘shilmagan bo‘lsada, u gapiruvchining shaxsiy pozitsiyasini bildiruvchi muhim pragmatik signal rolini bajaradi. Shu boisdan ham ilovali elementlarning hozirgi zamon nemis tilidagi sintaktik, semantik va eng muhimi, **pragmatik funksiyalarini o‘rganish** lingvistik jihatdan muhim masalalardan biridir. Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – nemis tilidagi parentetik konstruktsiyalarning **lingvopragmatik xususiyatlarini** chuqur tahlil qilish, ularning qo‘llanilish doirasi, strukturaviy xususiyatlari hamda kommunikativ

yuklamasini aniqlashdan iborat. Maqolada shuningdek, ilovali elementlarning tipologiyasi, ularning turli janrdagi matnlardagi ifoda uslubi hamda nemis tiliga xos bo‘lgan o‘ziga xos sintaktik-strukturaviy belgilari autentik misollar asosida yoritib beriladi. Shu orqali nemis tilshunosligida parentetik birliklar masalasining dolzarbligi va o‘rganishga loyiq jihatlari ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ilovali elementlar (parentetik birliklar) nemis tili sintaksisi va pragmatikasi doirasida ko‘plab tilshunoslar tomonidan o‘rganilgan. Ularning lingvopragmatik jihatlarini tahlil qilishda ilk bor klassik grammatik ishlanmalarda, jumladan Helbig va Buscha tomonidan yozilgan **"Deutsche Grammatik"** qo‘llanmasida ushbu birliklar gap tarkibidagi qo‘shimcha komponentlar sifatida izohlangan bo‘lib, ular asosan emotsional yoki shaxsiy baholashni bildiruvchi iboralar orqali aniqlanadi [1]. Brinker o‘zining **"Linguistische Textanalyse"** asarida ilovali elementlarning matndagi funksional roli haqida so‘z yuritadi. Uning ta’kidlashicha, bu birliklar muallifning o‘z fikriga yoki tinglovchiga nisbatan pozitsiyasini ochiq ifodalashiga xizmat qiladi. Brinker ushbu birliklarni **kommunikativ niyatlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan konstruktsiyalar** sifatida baholaydi [2]. D. Hentschel va H. Weydt esa **"Deutsche Grammatik – Ein Handbuch für den Ausländerunterricht"** nomli qo‘llanmada ilovali birliklarning grammatik mustaqilligi haqida so‘z yuritadi. Ular ilovali elementlarni asosiy gap strukturasi bilan bevosita sintaktik bog‘liq bo‘lmagan, lekin semantik kontekstda mustahkam aloqada bo‘ladigan birliklar deb tavsiflaydi. Ularning fikricha, bu birliklar tilning **konversatsion darajadagi soddalashtiruvchi** elementi sifatida ham ko‘riladi [3].

Shuningdek, tilshunos olima Eva Gülich o‘zining kommunikativ pragmatika bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida (ayniqsa, **"Alltagssprache und Fachsprache"** asarida) parentetik birliklarning funktsional ko‘rinishlarini keng tahlil qiladi. U bu elementlarning og‘zaki va yozma nutqda fikrga nuanslar kiritish, nozik baholashlarni ifodalash, shubhalanish yoki o‘z fikrini yumshatish kabi rollarini ko‘rsatadi [4]. Stilistik nuqtayi nazardan esa M. Thurmairning **"Stilistik der deutschen Sprache"** asari muhim manba hisoblanadi. U ilovali iboralarni muallifning nutqiga xos bo‘lgan stilistik vosita sifatida baholab, ularning nutq ritmiga, semantik yuklamaga va auditoriyaga ta’sirini tahlil qiladi [5].

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi zamon nemis tilida ilovali (parentetik) elementlar tilning pragmatik resurslari sifatida muhim ahamiyatga ega. Ular nafaqat sintaktik jihatdan mustaqil bo‘lib, asosiy gap tarkibiga qo‘shilmasdan, balki semantik va pragmatik darajada ham mustahkam aloqada bo‘ladi. Ilovalar kommunikativ vazifalarni bajarishda, gapiruvchining shaxsiy munosabatini, bahosini, shubhasini yoki qo‘shimcha ma’lumotni ifodalashda keng qo‘llaniladi. Ilovali birliklar kommunikativ

vazifalarni bajarishda muhim rol o‘ynaydi. Ular orqali gapiruvchi o‘z fikrini yanada aniqroq, ta’sirchanroq va nozikroq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Misol uchun:

„Er ist – ehrlich gesagt – nicht besonders zuverlässig.“

Bu jumlada *„ehrlich gesagt“* ilovasi gapiruvchining shaxsiy fikrini bildiruvchi va baholovchi element sifatida ishlatilgan. Ilovalar yordamida gapiruvchi o‘z fikrini yumshatishi, kuchaytirishi yoki aniqlik kiritishi mumkin. Ilovalar shuningdek, tinglovchiga murojaat qilish, diqqatini jalb qilish yoki muloqotda ishtirok etishini ta’minlashda ham qo‘llaniladi. Masalan:

„Du weißt ja – wenn ich ehrlich bin – dass ich das nicht mag.“

Bu misolda *„wenn ich ehrlich bin“* ilovasi tinglovchiga murojaat qilish va gapiruvchining shaxsiy fikrini ifodalashda ishlatilgan.

Ilovali birliklar sintaktik jihatdan mustaqil bo‘lib, asosiy gap tarkibiga qo‘shilmasdan, vergul, tire yoki qavs yordamida ajratiladi. Ular gap tarkibida qo‘shimcha ma’lumot, baho yoki izoh kiritishda ishlatiladi. Misol uchun:

„Der Präsident – laut offizieller Mitteilung – wird die Reise verschieben.“

Bu jumlada *„laut offizieller Mitteilung“* ilovasi asosiy gap tarkibiga qo‘shilmasdan, vergul yordamida ajratilgan va qo‘shimcha ma’lumot kiritishda ishlatilgan.

Ilovalar ko‘pincha predloglar yordamida shakllanadi. Masalan, *„durch“, „gegen“, „für“* kabi predloglar ilova aloqalarini ifodalashda qo‘llaniladi. Bunday konstruktsiyalar semantik jihatdan qo‘shimcha ma’lumot yoki baho kiritishda ishlatiladi. Ilovali birliklar semantik jihatdan qo‘shimcha ma’lumot, baho, shubha yoki aniqlik kiritishda ishlatiladi. Ular gapning ma’nosini boyitadi va tinglovchiga qo‘shimcha kontekst taqdim etadi. Misol uchun:

„Sie hat – wie ich finde – sehr überzeugend argumentiert.“

Bu jumlada *„wie ich finde“* ilovasi gapiruvchining shaxsiy fikrini bildiruvchi va baholovchi element sifatida ishlatilgan. Ilovalar shuningdek, gapning umumiy ma’nosini kuchaytirish yoki yumshatishda ham qo‘llaniladi. Masalan:

„Das war – meiner Meinung nach – eine sehr gute Entscheidung.“

Bu misolda *„meiner Meinung nach“* ilovasi gapiruvchining shaxsiy fikrini bildiruvchi va baholovchi element sifatida ishlatilgan. Ilovali birliklar pragmatik jihatdan gapiruvchining niyati, munosabati yoki fikrini ifodalashda ishlatiladi. Ular muloqotda nozik munosabatlarni, shubhalarni yoki ehtiyotkorlikni ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Misol uchun:

„Ich würde – wenn ich ehrlich bin – lieber zu Hause bleiben.“

Bu jumlada *„wenn ich ehrlich bin“* ilovasi gapiruvchining ehtiyotkorligini va shaxsiy fikrini bildiruvchi element sifatida ishlatilgan. Ilovalar shuningdek,

gapiruvchining diqqatini jalb qilish, tinglovchiga murojaat qilish yoki muloqotda ishtirok etishini ta’minlashda ham qo‘llaniladi. Masalan:

„Du weißt ja – wenn ich ehrlich bin – dass ich das nicht mag.“

Bu misolda *„wenn ich ehrlich bin“* ilovasi tinglovchiga murojaat qilish va gapiruvchining shaxsiy fikrini ifodalashda ishlatilgan. Ilovali birliklar tilshunoslikda tilning pragmatik resurslari sifatida o‘rganiladi. Ular tilning semantik va sintaktik strukturasidan tashqari, muloqotda gapiruvchining niyati, munosabati yoki fikrini ifodalashda muhim vosita hisoblanadi. Ilovalar yordamida gapiruvchi o‘z fikrini yanada aniqroq, ta’sirchanroq va nozikroq ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ilovalar tilshunoslikda kommunikativ funktsiyalarni o‘rganishda, tilning pragmatik jihatlarini tahlil qilishda, shuningdek, tilni o‘rgatishda muhim ahamiyatga ega. Ular yordamida til o‘rganuvchilarga tilning nozik pragmatik jihatlarini tushunish va to‘g‘ri qo‘llay olish imkoniyatini yaratish mumkin.

XULOSA

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, hozirgi zamon nemis tilida ilovali elementlar (parentetik birliklar) nutq va matnning lingvopragmatik qatlamini boyituvchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Ular gapiruvchining shaxsiy munosabati, fikri, bahosi yoki qo‘shimcha axborotini ifodalashda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lib, ayniqsa ijtimoiy va emotsional kommunikatsiyada muhim rol o‘ynaydi. Ilovali birliklar sintaktik jihatdan mustaqil bo‘lsa-da, ular semantik va pragmatik nuqtayi nazardan asosiy gap bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu esa ularni nutq strukturasi doirasida ajralmas komponentga aylantiradi. Tahlillardan ko‘rinadiki, nemis tilida ilovalar yordamida fikrga aniqlik kiritish, baholash, shubha bildirish, tinglovchiga murojaat qilish yoki o‘z pozitsiyasini yumshatish kabi kommunikativ vazifalar bajariladi. Ularning strukturalari xilma-xil bo‘lib, predlogli iboralar, qo‘shma gaplar yoki modal ifodalar orqali yuzaga chiqadi. Ayniqsa, og‘zaki nutqda ilovali birliklar nafaqat grammatik, balki stilistik va diskursiv vosita sifatida ham faol qo‘llaniladi. Xulosa qilib aytganda, ilovali elementlarning nemis tilidagi qo‘llanilishi ularning lingvistik ko‘lamini kengaytiradi va bu sohadagi izlanishlar nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy til o‘rgatish jarayoni uchun ham muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Ularni o‘rganish va o‘qitishda e’tiborni ularning funksional-yuklamasiga, kontekstga bog‘liqligiga hamda gapiruvchi va tinglovchi o‘rtasidagi ijtimoiy-muloqotiy munosabatlar kontekstida tahlil qilish zarur. Shu bilan birga, bu birliklarning real nutqdagi ishlatilish holatlarini aniqlash orqali lingvopragmatik kompetensiyani rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

In his work, Isakhohkhon Ibrat made it clear that he aimed to leave a lasting legacy for his nation, particularly in the context of the Turkic language and culture. His goal was not only to contribute to the literature of his people but to make it clearer and more accessible to the wider Turkic world. The idea was to offer a unifying work that would serve as a reminder of the shared cultural and linguistic heritage of the Turkic people, including the Sartian (Central Asian Turkic-speaking) people.He specifically named his work **"Jome' ul-Khutut"** (The Collection of Writings), signifying that it was intended to be a monumental compilation of the various forms of writing and script. His vision was to present his own language, script, and printing in a way that would be meaningful to the intellectuals and the wider community. He added, "I present this work to the noble, virtuous, and wise individuals with pure hearts and refined minds."[4]Writing and language are inextricably linked. It is impossible to study a language without also studying its script, and vice versa. Due to his exceptional talent, Isakhohkhon Ibrat was able to master this complex task. His astuteness and relentless work ethic led him to produce a comprehensive scholarly work on the history of writing.In writing his work **"Jome' ul-Khutut"**, Ibrat explored not only the earliest forms of writing—pictographic scripts—but also examined the most ancient phonetic alphabets that came after. These included the Phoenician, Hebrew, Syriac, Arabic, Greek, Persian, Slavic, Sanskrit, Hindi, Latin, Armenian, Georgian, Uighur, and more than forty other writing systems. Ibrat's research did not stop there; he also studied the ancient writing cultures in Arab countries and cited Phoenician script relics found on the island of Cyprus.In his study of the history of writing, Ibrat focused on the development of the alphabetic and phonetic scripts, particularly the Phoenician alphabet and its evolution. He concluded that the creation of the Phoenician writing system was a foundational step in the overall history of writing, marking the beginning of human progress in this field.Ibrat also argued that many subsequent scripts, such as Hebrew, Syriac, Arabic, and others, were based on the Phoenician script. He stated, "The Hebrew script was left by Hazrat Adam (peace be upon him). The evidence of our reference to the ancient script is found in the Phoenician people. The Phoenicians were an advanced civilization, and their contributions to the science of writing were passed on to other cultures." He noted that the Phoenicians wrote from right to left, and this practice was later adopted by the ancient Greeks, which eventually influenced the Latin alphabet used in modern Europe.

The Phoenicians passed their writing to the Greeks, the Greeks passed it to the Latins, and the Slavic script emerged later." In his work, Ibrat clearly demonstrates that ancient Chinese script was represented in the shapes of specific objects. For example, the words for man, moon, sun, tree, dog, horse, and mountain are formed by the shapes of these real-world entities in ancient Chinese writing. This is confirmed by the examples above. The author presents ancient Chinese script and then provides the Arabic transliteration of each symbol next to it to ensure the reader's understanding. This reflects the scholar's high level of mastery and shows that the purpose of writing the work was to inform his fellow countrymen about the writing history of world nations. Without these explanations, it would have been much more difficult for the people of Turkistan to understand what the author was writing about[3].In general, not only Ibrat but also all Jadid intellectuals emphasized that the main cause of the nation's backwardness under the yoke of despotism was ignorance, lack of knowledge, and being unaware of the realities of the world. Aiming to introduce his fellow countrymen to the cultures and writing histories of world nations, Isakhkhon Ibrat undertook this conceptual task, which was also a key focus of the Jadid movement. The historical and social conditions of that period further demanded such an effort. From these two forms, a relatively simpler "Suls" script was created. The author writes:"From the Kufic script, Suls was developed, and from Suls, the Ta'liq script emerged, which led to the development of the Nastaliq script. The Nastaliq script, which became known by this name in the year 900 of the Hijra in the city of Tabriz, was not widely used in Arabia. Instead, it was used in regions like India, Bukhara, Turkistan, Fergana, and Kashgar. This was due to the influence of the Persian kings over these areas, where the script had been introduced."Such reflections and conclusions demonstrate that Isakhkhon Ibrat conducted serious scholarly research. In discussing the importance of different script types, he emphasizes that Turkistan did not have specialized scribes for the Naskh and Ta'liq scripts. He attributes this to the lack of interest in knowledge and the lack of striving for it among the people. He also points out that in other countries, such as Persia and India, there were many scribes, which was an important factor in the development of this field. Scribes ensured the preservation of knowledge by copying books with beautiful handwriting, thus contributing to the cultural heritage of future generations.The period of national awakening saw significant progress in the development of science, education, and culture in Uzbek literature, driven by the efforts of its intellectuals. Isakhkhon Ibrat, in *"Jome' ul-Khutut"*, acknowledges this by stating:"...Our era had its own culture... For instance, there were many inventions: fire carts, telegrams, telephones, electric lamps, various machines, gramophones, photographs, lithographs, typography, different machines, automobiles, bicycles,

and many more...” Isakhkhon Ibrat's call for his fellow countrymen, especially the younger generation, to learn Russian and European languages holds a special place in his work *Jome' ul-Khutut*. He encourages the youth of the nation to avoid lagging behind in progress. His words serve as a clear confirmation of this: “Culture is like memory—new customs, new words, new writing systems come into being, while the old ones, such as religious practices, disappear. New things emerge, like the lamp replacing the oil lamp, the electric light replacing candles, the teapot replacing the old kettle, and so on."Ibrat was pleased to note the increasing emphasis on science, education, and culture during his time. He understood this development as the result of the arrival of advanced culture and science from the West.Undoubtedly, Isakhkhon Ibrat's scientific activity in the early 20th century demonstrates his proficiency as a source researcher. He became widely recognized as a master calligrapher. His excellence in the art of beautiful writing is evident in his works *San’ati Ibrat, Qalami Mirrajab Bandiy* and *Jome' ul-Khutut*. According to his contemporary, Ibrahim Davron, Ibrat was a skilled calligrapher and had mastered multiple types of Islamic calligraphy. For his work, Ibrat was honored in 1907 by the governor of Turkistan, receiving a second-class "honorary cloak" for his achievements in calligraphy.In conclusion, Isakhkhon Ibrat stands out from his contemporaries in both the breadth of his knowledge and his scholarly contributions. His works, particularly *Jome' ul-Khutut*, are based on deep academic foundations and display his profound and comprehensive thinking. This book not only illustrates Ibrat’s expertise in the history of world writing systems but also incorporates the scientific advancements of his time in paleography. The publication of this work was a significant event in the history of Uzbek printing, culture, and the study of writing systems. It remains a valuable academic resource in the study of the history of Muslim and world writing systems.

References:

1. Istiqbol Qahramonlari. Isakhkhon Ibrat. Tanlangan Asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2005. – p. 5.

2. Isakhkhon Ibrat. Jome' ul-Khutut. – Namangan: Matbaai Ishoqiya, 1912. – p. 106.

3. Istiqbol Qahramonlari. Isakhkhon Ibrat. Tanlangan Asarlar. – T.: Ma'naviyat, 2005. – p. 21.

4. Isakhkhon Ibrat. Jome' ul-Khutut. – Namangan: Matbaai Ishoqiya, 1912. – p. 74.

5. Isaqova, Z., & Abdullaxo‘jayev, A. (2024). Ibratning Turkistonda kadrlari tayyorlashga qo'shgan hissasi: Ijtimoiy-falsafiy tahlil. Nordic_Press, 5(0005).

6. Abdullaxo‘jayev, A. (2024). Ibrat—haqiqiy Ibrat maktabi. Nordic_Press, 5(0005).

7. Abdullaxo‘jayev, A. J. (2024). O'zbekistonda gender tengligining huquqiy asoslari: Ijtimoiy-falsafiy tahlil. University Research Base, 89-93.

YUSUF XOS HOJIB MA’NAVIY MEROSI VA XALQ OG‘ZAKI IJODI O‘RTASIDAGI DIDAKTIK UYG‘UNLIK

Orzukulov Amirjon Olimjonovich
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida xalq og‘zaki ijodining didaktik g‘oyalari bilan uyg‘unlashuvi tahlil qilinadi. Asardagi axloqiy-tarbiyaviy qarashlar, inson fazilatlari, adolat, ilm va davlatchilikka oid qarashlar turkiy xalqlar donolik an’analari bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi. SHuningdek maqolada, xalq og‘zaki ijodini yozma adabiyotga tatbiq etgan holda xalq tafakkurining davomiyligi va ma’naviy merosning barqarorligini namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: YUsuf Xos Hojib, Qutadg‘u Bilig, og‘zaki ijod, didaktik g‘oyalar, ma’naviy meros, turkiy tafakkur, axloq, xalq hikmatlari, tarbiya, adabiy-falsafiy uyg‘unlik.

Turkiy xalqlar ma’naviy merosining ildizlari chuqur va serqirra bo‘lib, uning shakllanishi va taraqqiyotida og‘zaki ijod an’analari alohida o‘rin tutadi. Hikmatli so‘zlar, maqollar, afsona va rivoyatlar orqali avloddan avlodga o‘tib kelgan axloqiy, tarbiyaviy va hayotiy bilimlar xalq tafakkurining muhim pog‘onasini tashkil etadi. Ana shunday ma’naviy xazinaning yozma shaklda ifoda topgan namunasidan biri, YUsuf Xos Hojibning **“Qutadg‘u Bilig”** asaridir. Bu asar nafaqat davlat boshqaruvi, ijtimoiy munosabatlar va hokimiyatning falsafiy asoslarini yoritgan, balki xalq og‘zaki ijodining didaktik g‘oyalarini yozma adabiyotga mukammal tarzda singdira olgan noyob namuna sifatida ham alohida e’tiborga loyiqdir. YUsuf Xos Hojib asar orqali insoniy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar, adolat, ilm va bilimning hayotdagi ahamiyati haqida yuksak darajadagi tafakkurni ifoda etgan. YUsuf Xos Hojib ma’naviy merosi orqali, xalq og‘zaki ijod namunalaridagi hayotiy hikmatlar, axloqiy mezonlar va insoniy fazilatlar yoritishga harakat qiladi. Bu uyg‘unlik orqali turkiy tafakkurning uzluksizligi, xalq ma’naviyati bilan yozma falsafa o‘rtasidagi mustahkam bog‘liqlik namoyon bo‘ladi. SHu jihatdan, ushbu mavzunu tahlil etish turkiy xalqlarning ma’naviy rivojlanish traektoriyasini anglashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Qoraxoniylar saltanatida vazirlik lavozimini egallagan YUsuf Xos Hojib turkiy tilda ilk ma’naviy-siyosiy va axloqiy ta’limot xususiyatiga ega bo‘lgan she’riy doston, “Qutadg‘u bilig”ni yaratib, o‘z oldiga turkiy xalqlarning ma’naviy yuksalishiga hissa qo‘shishni maqsad qilgan. Uning ijodi va dunyoqarashi ma’lum bir urug‘, elat yoki mahalliy aymoq doirasida cheklanmagan, aksincha, o‘nlab turkiyzabon xalqlar manfaatlarini umumlashtiruvchi yagona turkiy milliy ongni shakllantirishga qaratilgan. “Qutadg‘u bilig” (Saodatga eltuvchi bilim) insoniy komillik, adolat, aql va davlat boshqaruvi kabi mafkuraviy masalalarni keng qamrab olgan nasihatnoma bo‘lib, uning markazida inson, uning burchi va jamiyatdagi o‘rni turli ramzlar, timsollar orqali g‘oyat she’riy, ta’sirchan uslubda bayon etilgan. Asardagi falsafiy umumlashmalar va axloqiy ko‘rsatmalar turkiy xalqlar og‘zaki ijodining yuksak didaktik an’analari bilan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Mazkur asar jahonning benazir asarlari, “Kalila va Dimna”, “Maxabxarata”, “Qobusnoma” singari durdonalar qatorida turib, hech bir jihatdan ulardan kam emas. Ayniqsa, uning badiiy tafakkuri, axloqiy-falsafiy ko‘lami va she’riy uslubi jihatidan juda ham yuksak qadrlanishi zarur. Inson yaratilishining bosh maqsadi, dunyoda ezgulik, adolat va ma’rifat urug‘ini barqaror qilishdir. YUsuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida aynan shu g‘oyani markaziy mafkura sifatida asarning jon tomiriga singdirgan. U insonni nafaqat aql va bilim egasi sifatida, balki jamiyatda yaxshilik urug‘ini taratuvchi ma’naviy mas’ul shaxs sifatida tasvirlaydi. Jumladan: Abadiy hayotni tilasang o‘zing, Ey dono, yaxshi qil xulqing va so‘zing deydi adib. Bu so‘zlar azaldan bani bashar uchun hayot dasturi bo‘lib kelayotgan purma’no va hikmatga boy hidoyatlardir. Tarixdagi barcha ulug‘ zotlar singari, YUsuf Xos Hojib ham insoniyatni o‘n asrlar davomida o‘ylantirib, ilhomlantirib kelayotgan shoh asar, “Qutadg‘u bilig”ni yaratgan bo‘lsa-da, o‘zini har doim kamtar va hokisor tutgan. Bu esa ibrat olishga arziydigan oliy fazilatlardan biridir. Garchi asarning muqaddimasida muallif uning nomi SHarqdan G‘arbgacha mashhur bo‘lganini alohida ta’kidlasa-da, dostonning so‘ngida u yuksak ma’naviy tarbiya ruhida o‘zini o‘zi nasihat qilib, faqat rahmat va kechirim so‘raydi. Bu xolislik va samimiyat uning qalb dunyosida hokim bo‘lgan imon, kamtarlik va mas’uliyat tuyg‘ularining yorqin ifodasidir.

Ey YUsuf, kerak so‘zni so‘yla ro‘y-rost,
YOmon so‘zni yashir, qilmishi qora.
So‘zni ko‘p so‘zlading, ta’mi ketmasin,
Ko‘p so‘zdan insonlar zerikib borar.

“Qutadg‘u bilig”, xalq og‘zaki ijodi an’analari ta’sirida shakllangan yozma turkiy adabiyotning ilk yirik va mukammal yodgorliklaridan biridir. Dastonning mazmun-mohiyati, tili, obrazlar tizimi va badiiy uslubi aynan shu tarixiy-madaniy manbaalar bilan uzviy bog‘liq ekanini yaqqol ko‘rsatadi. Asardagi bir qator

timsollar, xalq ibora va maqollariga xos mazmunlar “O‘rxon-Enisey” yodgorliklari, “Devonu lug‘otit turk” hamda keyingi asrlarda O‘rta Osiyo va SHarqiy Turkiston turkiy xalqlari og‘zaki ijodiyot namunasida ham izchil davom etgan va boyib borgan. YUsuf Xos Hojib o‘z davrida faqat shoir yoki mutafakkir emas, balki muayyan mafkurani shakllantirishga intilgan ma’naviy rahnamolardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. U “Qutadg‘u bilig” orqali siyosiy barqarorlik va jamiyatdagi tartibning mustahkamlanishi zarurligini ilgari suradi. Biroq shu bilan birga, asarda etuk hukmdor obrazi orqali adolat, ma’rifat va insonparvarlik tamoyillari ham yuqori qadrlanadi. Kuntug‘di va Oyto‘ldi singari siymolar tarzidagi adolatparvarlik, ma’rifatparvarlik va ruhiy etuklik ana shu didaktik-axloqiy ta’sirning yorqin namunasidir. Dostondagi qahramonlar nomlarining tanlanishi xalq og‘zaki ijodi an’analari bilan uzviy bog‘liq. Turkiy xalqlarda, jumladan o‘zbek, uyg‘ur, qozoq, qirg‘iz va boshqalarda, “kun” va “oy” so‘zlari bilan bog‘langan ism va timsollar keng tarqalgan bo‘lib, ular ko‘pincha xalq eposlari va ertaklarida uchraydi. Masalan, o‘zbek xalq dostonlaridan “Oysuluv”dagi Oysuluv va uning o‘g‘li Kutbotir, “Kuntug‘mish” dostonining bosh qahramoni Kuntug‘mish, “YUsuf va Ahmad” dostonidagi Kunxon va Oyxon, hamda “Oygul” ertagidagi Oygul obrazlari bu borada yaqqol misol bo‘la oladi. SHuningdek, qahramon ismlariga qo‘shiladigan “oy” va “kun” kabi poetik ifodalar, masalan, “Oy desang oy, kun desang kun” kabi so‘z o‘yinlari, turkiy xalqlar orasidagi folkloriy an’analarning tirik namunasidir. Qozoq xalq og‘zaki ijodida ham “Oymon-SHo‘lpon” dostoni, “Kunekey qiz” ertagi kabi asarlarda “oy” va “kun” so‘zlari bilan bog‘liq obrazlar markaziy o‘rin tutadi. Ayniqsa, “Oy bastina Oybarcha qiz, kun ostida Kunakay qiz” kabi misralar xalq estetik tafakkurida ushbu timsollar qanday ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi. Hatto bu an’ana hozirgi zamonda ham davom etmoqda, masalan, o‘zbek xalqida xotin-qizlar ismiga “Oy” so‘zining qo‘shilishi keng tarqalgan holat hisoblanadi. S.P. Tolstovning ta’kidlashicha, “kun” va “oy” so‘zlari bilan bog‘liq nomlar tarixiy jihatdan totemistik tasavvurlar, ya’ni qadimgi ruhoniy timsollar bilan bog‘liq bo‘lib, bu timsollar xalq og‘zaki ijodida tabiiy qudrat va ilmiy-falsafiy ramz sifatida yashab kelgan. Bundan tashqari, YUsuf Xos Hojib ham xalq og‘zaki ijodi va rivoyatlarida yashab kelgan, keyinchalik “SHohnoma” singari asarlarda mustahkam o‘rin olgan Afrosiyob, Faridun va Nushirvon kabi ulug‘ shaxslar nomini tilga olib, ularning yuksak fazilatlarini ta’rif etadi va o‘z asari qahramonlarini aynan shu timsollar asosida shakllantiradi. Bu esa, muallifning milliy-ma’naviy meros va umuminsoniy falsafa o‘rtasidagi uyg‘unlikka intilganini ko‘rsatadi. YUsuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida turkiy xalq og‘zaki ijodiga tayangan holda bir qator maqol va hikmatli iboralardan foydalanadi. U bu iboralarni ba’zan “turkcha masal”, “turklar so‘zi” deb ataydi va ularning xalq donoligi manbai ekanini ochiq-oydin ko‘rsatadi. Adib ba’zi

maqollarni asar ichida aynan keltirar ekan, ba’zilarini esa dostonning poetik ifodalari, ritm va qofiya talablariga mos ravishda o‘zgartirib, she’riy tarzda bayon etadi. Bu usul orqali u xalq aql-zakovati va hayotiy tajribasini yuksak badiiy saviyada ifoda etishga erishgan. Maqol va hikmatli so‘zlar “Qutadg‘u bilig”ning nafaqat g‘oyaviy yuksakligini ta’minlaydi, balki uning adabiy-badiiy qimmatini ham oshiradi. YUsuf Xos Hojibning asosiy maqsadi, kishilarni hayotning ma’naviy-axloqiy asoslari sari etaklash, ularni foydali amalga, adolat va ma’rifatga da’vat qilishdan iborat bo‘lgan. Uning bu ezgu niyati asarning har bir qatorida, har bir ma’nodor satrlarida mujassamdir. “Qutadg‘u bilig”dagi ba’zi poetik parchalarni “Devonu lug‘otit turk”dagi she’riy iboralar bilan solishtirish orqali, X asrdagi turk she’riyati badiiy barkamollik, falsafiy mazmun va uslubiy etuklik jihatidan anchayin yuksak darajada bo‘lgani haqida xulosa qilish mumkin. Biroq, afsuski, ushbu betakror yodgorliklar, xalq ma’naviyatining tilsimli boyliklari, hanuz to‘liq ilmiy tadqiq etilib, xalqimiz orasida keng ommalashgani yo‘q. Bu boradagi zaif tadqiqotlar, keng jamoatchilikning asardan xabardor emasligi milliy ma’naviyat tadqiqotchilari oldida dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda. YUsuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” asarida xalq og‘zaki ijodi — maqollar, masallar va hikmatlardan samarali foydalangan holda turkiy xalqlarning aql-zakovati, ma’naviy merosi va hayotiy tajribasini adabiy poetika bilan uyg‘unlashtirgan. Uning bu asari nafaqat davlat boshqaruvi va axloq haqidagi ilk dasturiy manba, balki xalq donoligini badiiy talqin etuvchi yuksak darajadagi falsafiy-pedagogik yodgorlik sifatida alohida ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Маллаев Н.М : Ўзбек адабиёти тарихи.Т. “Ўқитувчи” нашриёти, 1965.
2. Маҳмудов Қ., Содиқов Қ. XI – XV асрнинг туркий ёзувидаги ёдгорликлар. Тошкент, 1994, 162 б.
3. Омонов Қ. Ўзбек ҳужжатчилигининг асослари: Юзага келиши ва тарихий такомили. Тошкент 2016. Б. 36.
4. Тухлиев Б.: Вопросы поэтики “Кутадгу билиг” Юсуфа Хас Хаджиба. –Т. “Аср-Матбуот”. 2004.
5. Юсуф Хос Хожиб: Қутадгу билиг. -Тошкент, 2010.
6. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг (Саодатга йўлловчи билим). Транскрипция ва ҳозирги ўзбек тилига тавсиф. Нашрга тайёрловчи: Қаюм Каримов. –Тошкент, “Фан” нашриёти. -1971.

YUSUF XOS HOJIB MA’NAVIY MEROSI VA XALQ OG‘ZAKI IJODI

Bektemirov Shokir Xidirboyevichning
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya. Milliy ma’naviyat va til tarixini o‘rganishda Mahmud Qoshg‘ariyning ilmiy merosi alohida o‘rin tutadi. Uning mashhur “Devonu lug‘atit turk” asari nafaqat til, balki xalq og‘zaki ijodi, etnografiya, jug‘rofiya, she’riyat va tarix sohalariga oid bebaho ma’lumotlarni qamrab olgan. Mahmud Qoshg‘ariy o‘z asari orqali turkiy xalqlarning sheva va lahjalarini, maqol va matallarini, doston va baytlarini, xalq og‘zaki ijodiga xos obraz va tushunchalarini mukammal hujjatlab, kelajak avlodlar uchun boy ma’naviy xazina qoldirdi. Mazkur maqolada u tomonidan to‘plangan xalq ijodiy namunalari orqali turkiy xalqlar dunyoqarashi, estetik ideallari va madaniy qadriyatlarini tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Mahmud Qoshg‘ariy, Devonu lug‘atit turk, ma’naviy meros, xalq og‘zaki ijodi, turkiy til, maqol va matallar, turkiy she’riyat, epik qo‘shiqlar, leksikologiya, shevashunoslik, madaniy qadriyatlar, etnolingvistika, og‘zaki an’analar, turkiy xalqlar tarixi, til va adabiyot aloqasi.

Mahmud Qoshg‘ariy Turkiston ulkasining yirik mutafakkirlaridan biri bo‘lib, tilshunoslik, ayniqsa turkiy tillarni o‘rganish sohasida o‘zidan o‘chmas iz qoldirgan olimdir. 11 asrda Movarounnahrda Somoniylar sulolasi o‘rnini Qaroxoniylar egallab, turkiy adabiy til mintaqada keng tarqala boshlagan edi. Ana shu jarayonda Mahmud Qoshg‘ariy o‘zining ko‘p yillik mehnatlari natijasida mashhur «Devonu lug‘atit turk» asarini yozdi. Asarning asosiy matni o‘sha davrda musulmon SHarqi, YAqin va O‘rta SHarq mintaqalarida ilm va din tili sifatida foydalanilgan arab tilida yozilgan. Uning yozilishidagi asosiy maqsad, turkiy tilning boy ma’noli va rang-barang ifodalilishini ilmiy asosda namoyon etish bo‘lgan, deb taxmin qilish mumkin. **Mahmud Qoshg‘ariy uzoq muddat davomida keng turkiy o‘lkalarni sayohat qilgan, jumladan,** “YUqori CHindan tortib, Movarounnahr, Xorazm, Farg‘ona, Buxoro va hozirgi SHimoliy Afg‘onistongacha bo‘lgan” hududlarni kezib, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlar yashaydigan shahar, qishloq va yaylovlarda bo‘lgan. Bu safarlar davomida u turkiy xalqlar sheva va lahjalarining maxsus xususiyatlarini o‘rganib, ularni adabiy til bilan qiyosiy tahlil qildi. Mahmud Qoshg‘ariy lug‘atni tuzishda turkiy tilning ichki qonuniyatlarini ustuvor hisobga olib, uni ilmiy tartibda shakllantirdi va o‘z xalqi tilining boyligini, uning sistemaliligini va mantiqiy tuzilishini yorqin namoyon etdi. Unda qadimgi turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik me’yorlar aniq va asosli tushuntirilgan. Lug‘atda yuzlab shaxs ismlari, shahar va qishloqlar, o‘lka nomlari, daryo, tog‘, yaylov, vodiy, dara,

yo‘l, dovon, ko‘l, soy kabi jo‘g‘rofiy atamalar bilan birga, turli qabila, urug‘ va elatlar, sayyoralar, yulduzlar, fasllar nomlari ham tilga olingan. Asarda izohlangan grammatik ko‘rsatkichlar, morfemalar soni mingga yaqinni tashkil etadi, bu esa uning yuqori ilmiy darajadagi tuzilmasini tasdiqlaydi. **Devonu lug‘atit turk asarida turkiy xalqlar tarixi va ma’naviy dunyosiga oid boy folklor va badiiy materiallar o‘z aksini topgan.** Asarda 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so‘zlar, turli afsona va rivoyatlar, shuningdek, 700 satrdan ortiq she’riy parchalar keltirilgan. Ularning asosiy qismi turkiy xalqlar og‘zaki ijodiga xos bo‘lgan to‘rtliklardan iboratdir. SHu bilan birga, asarda islom davri she’riyati an’analariga xos bo‘lgan 150 ga yaqin baytlar, masnaviy, qasida, g‘azal va qit’a shaklidagi she’riy parchalar ham uchraydi. Mahmud Qoshg‘ariy ushbu parchalarni ko‘pincha “bayt” deb ataydi. Kitobda shuningdek ettita epik doston, ishqiy qo‘shiqlar, pand-nasihatlar, koinot yaratilishiga oid asotirlar, tabiat manzaralariga bag‘ishlangan tasvirlar, madhiyalar va falsafiy mushohadalar ham keltirilgan. “**Devonu lug‘atit turk” asarida keltirilgan epik qo‘shiq va dostonlar asosan jangnoma xususiyatiga ega bo‘lib, ularning ayrim yirik parchalari shartiga ko‘ra “Tangutlar bilan jangnoma”, “O‘yg‘urlar bilan jangnoma”, “YAbaku bilan jangnoma” kabi nomlar bilan tilga olinadi.** Ushbu asarlar mazmuniy jihatdan arablarning johiliya davriga oid qabilaviy janjallarini tasvirlovchi epik rivoyatlariga yaqin tursa-da, shakl jihatdan farq qiladi: arablar bu kabi hikoyalarni asosan nasriy uslubda ifoda etgan bo‘lsa, turkiy xalqlarda she’riy shakl ustuvor bo‘lgan. Bu dostonlarda turkiy xalqlarning shijoati, jasurligi, dushmanga qarshi turish qobiliyati, harbiy zehn va hiyla, siyosiy kurashlar, elparvarlik, mardlik, hikmat, muhabbat va g‘azab kabi tuyg‘ular jonli va ta’sirli misralar orqali berilgan. SHu bilan birga, asarlarda qabilaviy parokandalik, o‘zaro nizo va kelishmovchilikdan kelib chiqqan iztirob va alam, ittifoq va birlikka intilish ruhi ham yaqqol aks etgan. Bu kabi dostonlar Islomdan ilgarigi og‘zaki adabiyot an’analarini o‘zida saqlagan bo‘lib, Buyuk Turk xoqonligining tanazzul davri, markazlashgan g‘oyaning etishmasligi, umumturkiy birlikning yo‘qolishi kabi holatlar ularda o‘ziga xos g‘amginlik ruhida ifodalanadi. Devonda saqlangan ikki yirik epik asar alohida e’tiborga sazovor: **Ali Er Tunga marsiyasi, Qish va yoz munozarasi, Ali Er Tunga marsiyasi** 44 satrdan iborat bo‘lib, u xalq og‘zaki ijodidagi motam-yig‘i janrining adabiy shaklga ko‘chirilgan namunasi hisoblanadi. Unda turkiy xalqning faqatgina sevimli qahramoni, xoqoni va yo‘lboshchisiga emas, balki yo‘qotilgan imkoniyatlar, parchalangan elat va tushkunlikka yuz tutgan ma’naviy muhit uchun ham ko‘z yosh to‘kilayotganini ko‘rish mumkin. **Qish va yoz munozarasi** esa turkiy adabiyotda bizgacha etib kelgan eng ilk va mukammal munozara janri namunasi bo‘lib, unda turkiy elatlarning tabiati, hayot tarzi, tafakkur uslubi, sevinch va qayg‘ulari badiiy ifodada aks etgan. Ayniqsa, tabiatga

bo‘lgan mehr va taassurotlar nafis obrazlar orqali berilgan. Asar majoziy tasvirlar, tashbeh, istioralar, jonlantirish (personifikatsiya) va engil kinoyalarga boy bo‘lib, uning falsafiy-estetik yuksakligi turkiy xalq ijodining yuksak madadidir. Uni o‘qiganda chorvador turkiy elatlar hayoti, faoliyati, tabiiy muhit ko‘z oldingizda yaqqol gavdalanadi. Jumladan,

bahor tasviri:

Tog‘ boshlari yashardi, Qurug‘ o‘tni yashirdi,
Ko‘l suvlari toshurdi, Sigir, buqa ma’rashur.

Qish tasviri aksincha:

Keldi shamol huvillab, Bo‘ron bo‘lib g‘uvillab,
Xalq titrashur uvillab, Qora bulut guldirar.

Bu manzaralar chorvadorlar hayoti uchun islomdan oldingi davrda ham, keyinchalik ham xarakterli edi. Devonda islom davr she’riyati asosan ishqiy, falsafiy-didaktik, madhiyaviy qasida va she’r namunalari bilan namoyon bo‘lgan. “Devon”dagi birgina madhiyaviy qasidadan parcha ayol kishiga, malikaga bag‘ishlangan. U tashakkurnoma yo‘sinda yozilgan bo‘lib, aruz vaznining “munsari” bahriga to‘g‘ri keladi. Falsafiy-didaktik qasida va masnaviylar pandnoma yo‘sinida bo‘lib, turkiy elatlar ma’naviyatiga xos bo‘lgan bunday yo‘nalish “Devon”da ko‘proq aks etgan. Ularda ilm o‘rganish tashviq etiladi, jaholat, kibru havo qoralanadi, saxovat va himmat, mehmondo‘stlik ulug‘lanadi, mol-dunyoga hirs qo‘yish, baxillik va ochko‘zlik fosh qilinadi, ota-onani hurmatlash, ularning so‘ziga quloq osishga da’vat etiladi. “Devon”da mardlikni ulug‘lash, hushyorlikka, dushmandan ehtiyot bo‘lishga chaqiruvchi baytlar ham pand-nasihat qatorida uchraydi:

Olim kishi so‘zidan olgil o‘git,
Ezgu so‘zni eshitsang dilga singar.
Ilm-hikmat o‘rgangin, bo‘lma qaysar,
Himmati yo‘q maqtanchoq yo‘l yo‘qotar.

Bu ilm-hunarga tashviq, olimga hurmat haqida bo‘lsa, quyidagi bayt mehmondo‘stlik xususida: Kelsa agar xonang uzra g‘arib mehmon, Bor narsangni oldiga qo‘y, bo‘l mehribon. **“Devonu lug‘atit turk”da keltirilgan**

ma’naviy-axloqiy g‘oyalar, xususan, dunyoviy hayotning o‘tkinchiligi, taqdirning o‘zgaruvchan tabiati, insonning komillik sari intilishi kabi fikrlar umumiy davr ruhini ifoda etadi. Hatto, asarda keltirilgan ba’zi misralar, dunyo hayotining bevafoligi, inson taqdirining murakkabligi haqidagi falsafiy mulohazalar, ushbu tasavvurni yanada mustahkamlaydi:

Til olmas erga til olur,Til olur erni el olur...

Taqdir to‘zog‘i sirli bir bog‘,Odam unda garchi tog‘...

Bunday misralar “Devon”dagi she’riy fragmentlarni faqat tilshunoslik yoki shevashunoslik nuqtai nazaridan emas, balki falsafiy-ma’rifiy yondoshuv orqali ham tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Ko‘zim yoshi tirqirab quyi oqar,Anglab dunyo g‘amini tugal uqar,
Mashaqqatsiz hayot bunda aslo,Ezgulikni ko‘rmasdan ulur bitar,
Tug‘ilgan zot dunyoda mangu porlar.

«Devon»da, oz bo‘lsa-da, dunyoning yaratilishiga oid, ya’ni kosmologik mavzudagi satrlar ham uchraydi:

Tangri olam yaratgi,Falak doim aylanur,
YUlduzlari saflashib,Tun-kun uzra burkanur.
YAratti yashil osmon,YUlduzlar yo‘li samoy,
Qorakush yulduz-mezon,Tun-kun uzra burkanur.

“Devon”dagi she’rlarning badiiy saviyasi yuqori darajada bo‘lib, ular mualliflik ehtimoli bor shoirlarning ilmiy salohiyati, badiiy didi va eng muhimi, turkiy she’riyat an’analarini chuqur bilganini tasdiqlaydi.

Bu xususiyat ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan alohida ta’kidlangan.

Mahmud Koshg‘ariy asarining yana bir muhim jihati, unda dunyo xaritasining doyrasimon shaklda, markazga Turkistonni joylashtirgan holda chizilishi, XI asr geojug‘rofiy tasavvurlarini aks ettiradi. Xaritaga Balasog‘un, SHosh, O‘zgan, Isfijob, Marg‘inon kabi tarixiy shaharlarning joylashtirilishi, muallifning mintaqa geografiyasi va tarixiy-madaniy muhitdan xabardorligini, uning ko‘p sohali bilimga egaligini yaqqol namoyon qiladi. **Xulosa sifatida ta’kidlash joizki, Mahmud Koshg‘ariy islomdan oldingi va ilk islom davri turkiy madaniyatini o‘rganish, himoya qilish va keyingi avlodlarga etkazishda beqiyos xizmat ko‘rsatgan qomusiy allomadir.** Uning tilshunoslik, tarix, etnografiya, jug‘rofiya va adabiyot sohalaridagi bilimlar majmui, tadqiqotchilik mahorati zamonaviy ilm-fan nuqtai nazaridan ham hurmatga sazovor. “Devonu lug‘atit turk” asari VIII–XI asrlar turkiy adabiy tili, badiiy adabiyoti, og‘zaki ijod va lahja xususiyatlarining boy manbai bo‘lib xizmat qilgani sababli, ushbu asar keng ko‘lamda va mukammal tarzda tahlil qilinmoqda. Bugungi kunda ham “Devonu lug‘atit turk” Markaziy Osiyodagi turkiy xalqlarning tarixiy hayoti, til va madaniyati haqidagi **qomusiy manba** sifatida baholanmoqda. Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” asari, nafaqat tilshunoslik, balki xalq

og‘zaki ijodi, turkiy xalqlarning dunyoqarashi va madaniy merosini o‘zida mujassam etgan qomusiy manbadir. Unda saqlangan maqol-matallar, epik qo‘shiqlar, she’riy parchalar orqali o‘sha davrdagi xalq ongi, estetik mezonlari va ijtimoiy munosabatlari yorqin ifodalangan. Qoshg‘ariy asari orqali turkiy xalqlarning ma’naviy qadriyatlari, adabiy an’analari va tilning etuk taraqqiyot bosqichi haqida boy ma’lumotlarga ega bo‘lamiz. Bu meros bugun ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan holda yangi ilmiy tahlillarga yo‘l ochib bermoqda.

Adabiyotlar.

1. Mahmud Koshg‘ariy Devonu lug‘ati-t-turk (Turkiy so‘zlar devoni). S.Mutallibov tarjimasi asosida qayta ishlangan, to‘ldirilgan, o‘zgartishlar kiritilgan mukammal nashri. Nashrga tayyorlovchi: Q.Sodiqov. –T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2017. –484 b.

2. To‘xliev B. YUsuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asari. T.; “O‘zbekiston, 1991.

3. YUsuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig (Transkripsiya va hozirgi o‘zbek tiliga tavsif. Nashrga tayyorlovchi Q.Karimov).–T.:Fan, 1972. –965 b.

4. YUsuf Xos Hojib.Qutadg‘u bilig (Hozirgi o‘zbek tiliga o‘giruvchi F.Ravshanov).–T.:Akademnashr, 2015. –540 b.

MINGRANTLARNING JAMIYATGA TRANSFORMATSIYALASHUVI

Norchaev Davron Ochilovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi

Aslida global migratsiya oqimlari, qoida tariqasida, qit’alar o‘rtasida sodir bo‘ladigan, bir nechta davlatlarni qamrab oladigan va shaharlar va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy va demografik rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan harakatlarni o‘z ichiga oladi. Aksariyat hollarda migratsiya to‘g‘risida qaror qaror qilishda iqtisodiy omillar qatorida axborot maydonida sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar ham migrantlarning muayyan jamiyatga tranformatsiyalashuviga ta’sir ko‘rsatadi. Shu jumladan, yaxshi ish o‘rinlari, ish haqqining oshishi, boradigan mamlakatda soliqlarning pastligi yoki aksincha, mehnat bozorida o‘zini ko‘rsatish imkoniyatlarning yetishmasligi, turli madaniy qatlamlar o‘rtasidagi kelishmovchiliklar, axborot tahdidlarining kuchayishi ta’sir qilmoqda.

Migratsiya jarayonining mavjudligi asosida davlat chegaralari va milliy xavfsizlik, madaniy qadriyatlar va tillardagi farqlar, mafkuraviy xurujlar, turli axborot urushlari sayyoramizning turli joylaridagi iqlim va tabiiy xususiyatlar yotadi. Migratsiya muammosi hozirgi kunda global xarakter kasb etib, ilmiy

bilimlarning turli sohalarida faoliyat olib borayotgan olimlarning tadqiqot ob'ektiga aylandi. Migratsiya hodisani tushunishda falsafa alohida rol o'ynaydi, chunki u migratsiya siyosati va umuman migratsiyaga nisbatan muayyan axloqiy baholashning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Shu bilan birga, falsafa aniq fikrlash, qat'iy tushunchalar, to'g'ri mantiqiy xulosalarga asoslanadigan fandir. Shu ma'noda u migratsiya jarayonlarini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Migratsiya jarayonini faqat ijtimoiy-iqtisodiy va sotsiologik tushunchalar orqali tahlil qilish (tavsiflash) mumkin emas. Bunda umumiy falsafiy, ijtimoiy-falsafiy, madaniy tushunchalarga tayanish, migratsiyani to'liq ijtimoiy shakl sifatida, jumladan, uning ko'rinishlaridagi o'ziga xos sifat jihatidan xilma-xillikni qayta ko'rib chiqish, undagi axborot tajovuzlarini anglab yetish dolzarb ahamiyatga egadir [1. 77]. Migratsiyaning ijtimoiy-falsafiy muammolari tarkibiga asosiy falsafiy tushunchalar va kategoriyalar (faoliyat, mavjudlik, jarayon, turmush tarzi, makon, vaqt, shaxs, davlat, tarix, madaniyat, shakl, ijtimoiy va individual, taraqqiyot, hayot, fuqarolik jamiyati, siyosat, qadriyatlar, manfaatlar va boshqalar) kiradi. Shu nuqtai nazardan olganda migratsiya bir tomondan, inson tabiatning muhim xususiyatlarini ifoda etuvchi falsafiy tushuncha, boshqa tomondan esa tarixiy geografiya, madaniy antropologiya, tarix tufayli fanlararo tushuncha sifatida talqin qilinadi. Faylasuf I.T.Kasavinning fikricha, migratsiya tushunchasi ikki fundamental falsafiy kategoriyalarni birlashtiradi. Falsafadagi sub'ekt va makon kategoriyalari insonning dunyodagi o'rnini alohida muammo darajasiga ko'taradi [2. 9]. Migratsiya atamasini qo'llovchi fanlar bu atamaga biror muhim mazmun ham yuklamaydi va ko'chish sohasini bildiruvchi makon atamasiga ham metaforik, ekspansiv ma'no beriladi. Aksincha, migratsiyani empirik hodisa sifatida o'rganadigan fanlar uning o'ziga xos aktorlarini belgilash, motivlar, vositalar, maqsadlar, shakllar va tarixiy turlarini aniqlash, uni o'xshash hodisalardan (harakatchanlik, ko'chish) farqlash, migratsiya mezonlarini shakllantirishga intiladi. Shu bilan birga bu ish empirik umumlashtirishlardan nariga o'tmaydi. "Migratsiya" terminidan foydalanish vaziyatida fanlarning katta guruhi oldida, bir tomondan, bu ijtimoiy fenomenning umumilmiy nazariyasini yaratish imkoniyati va zarurligi, boshqa tomondan esa, migratsiyaning haqiqiy falsafiy konsepsiyasini asoslash masalasi turadi.

Migratsiyaga ilmiy va empirik umumlashtirish sifatida qaraladi. (demografiya, mehnat sotsiologiyasi, ma'muriy huquq, turizm, iqtisodiyot, ijtimoiy va tarixiy geografiya, etologiya, xalqaro munosabatlar nazariyasi). Ushbu tushuncha muayyan mezonlarga javob beradigan shaxslar va guruhlarning harakatini anglatadi. Shunday qilib, ma'lum ilmiy muammolar bo'yicha turli nuqtai nazarlarning mavjudligi ko'pincha oddiygina tushuntirilishi mumkin: ular bir xil tushunchalar uchun turli atamalar va bir xil atamalar turli tushunchalar

uchun ishlatilganligi sababli paydo bo‘ladi. Bunday holda, sotsiologiya, demografiya, madaniyatshunoslik, iqtisod va boshqa fanlar falsafiy asoslardan foydalanishi mumkin. Falsafiy kontekstning ishtirokisiz migratsiya jarayonlarini tahlil qilish mumkin emas. Migratsiya jarayonlarini falsafiy tahlil qilishning boshqa sohalari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlar barqaror rivojlanishni ta’minlash sharoitida migratsiya siyosatining turli aksiologik tamoyillariga amal qilishlari mumkin [3. 75]. Aholi migratsiyasi insoniyat jamiyati va ijtimoiy institutlarning rivojlanishi davomida mavjud bo‘lgan ijtimoiy hodisadir. Ijtimoiy falsafa nuqtai nazaridan nafaqat odamlar majmuasi, balki jamoatchilik bilan aloqalar va munosabatlarning o‘ziga xos tizimi bo‘lgan aholi migratsiya va uning muammoli sohalarini o‘rganish uchun muhim asosdir.

Samofalovaning fikriga ko‘ra, umuman olganda, migratsiyaning falsafiy jihati uning muhim xususiyatlari, qimmatli tavsifi, dinamik va statik tajribasi (опыта), turli shaxsiy o‘zgarishlarini aniqlashdan iboratdir. Aynan falsafiy tadqiqotlarning o‘ziga xosligi shundan iboratki, u hozirgi davrgacha migratsiya to‘g‘risida mavjud bo‘lgan hamma bilimlarni yaxlit tizimga keltirish qodirdir. Shunday qilib, migratsiya “ijtimoiy dialektikaning namoyon bo‘lishi sifatida, ijtimoiy falsafa tadqiqoti uchun ob’ekt hisoblanadi.

Migrantlarning ijtimoiy-falsafiy muammolarini o‘rganish migratsiya hodisasining mafkuraviy tajovuzlarni xoli bo‘lishi uning mohiyatini aniqlashda yordam beradi. Aholi migratsiyasini o‘rganishning ko‘plab yo‘nalishlar mavjud bo‘lib, ularning har biri aholi migratsiyasini o‘z nuqtai nazari asosida ko‘rib chiqadi. Ijtimoiy fanlarda migratsiya tushunchasi va migratsion jarayonlarini belgilashda yagona yondashuv mavjud emas. Migratsiya odatda keng va tor ma’noda ko‘rib chiqiladi. Tor ma’noda olganda bu hududiy ko‘chishning so‘nggi ko‘rinishi bo‘lib, doimiy yashash joyini o‘zgartirish bilan tugallanadi. Keng ma’noda olganda bu har qanday hududiy ko‘chish hisoblanadi. U ko‘chish(harakat)ning davomiyligi, muntazamligi va maqsadidan qat’i nazar, bir yoki bir necha ma’muriy-hududiy birliklarning turli joylari o‘rtasida sodir bo‘ladigan har qanday hududiy harakatdir.

Umuman olganda, migratsiya har bir jamiyat uchun xos tushuncha sifatida o‘ziga yarasha axborot urushlari doirasida faoliyatini olib boradi. Unda jamiyatning turli tabaqalanishlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimli ravishda bo‘lmasdan, qandaydir yashirin tahdidlar yoki millatlararo niozolar tarzini o‘zini namoyon etib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Метелёв И.С. Социально-философские принципы анализа миграции. Омский научный вестник. Философские науки. № 4(99). 2011. С. 77.

2. Касавин И.Т. Миграция: междисциплинарное понятие и его эпистемологические измерения. Пистемология и философия науки. 2018. Т. 55. № 1. С. 9.

3. Самофалова Е.Ч. Методология анализа образовательной миграции в социальной философии в сочественной мысли. Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология. 2019. №50. С. 75.

IJTIMOIY- FALSAFIY NUQTAI NAZARDAN O‘ZBEK RIVOYAT VA AFSONALARINING TAHLILI

SamChTI “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyasi” kafedrasi mustaqil tatqiqotchisi,
Abdullayeva Zilola Narzulla qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek xalqining rivoyat va afsonalari ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodining mazkur janrlari faqat estetik zavq uchun emas, balki jamiyatda axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy me‘yorlar va dunyoqarashning shakllanishida muhim rol o‘ynashi asoslab beriladi. Afsona va rivoyatlar orqali xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy ideallari, ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlari ifoda topadi. Maqolada tanlangan namunalar orqali ularning ontologik, aksiologik va gnoseologik mazmuni ochib beriladi hamda ularning zamonaviy jamiyatda tutgan o‘rni va transformatsiyasi ham tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek rivoyatlari, afsonalar, xalq og‘zaki ijodi, ijtimoiy-falsafiy tahlil, qadriyatlar, axloq, madaniy identitet, ontologiya, aksiologiya, milliy tafakkur.

O‘zbek xalqining og‘zaki ijod namunalari, jumladan rivoyat va afsonalar, asrlar davomida jamiyat tafakkurining, axloqiy qarashlarining va madaniy qadriyatlarining shakllanishida muhim rol o‘ynagan. Bu janrlar o‘zida xalqning hayotiy tajribasi, orzu-umidlari, ezgulik va yovuzlik haqidagi qarashlarini mujassam etadi. Rivoyat va afsonalar falsafiy mazmuni bilan inson va jamiyat, tabiat va muqaddaslik, haqiqat va xayol o‘rtasidagi murakkab aloqalarni ochib beradi. Shuning uchun ularni nafaqat adabiy, balki ijtimoiy-falsafiy yondashuvlar orqali ham o‘rganish muhim hisoblanadi.

Afsona va rivoyatlar ko‘pincha sinonim sifatida ishlatilsa-da, ularning mazmuniy jihatidan farqi mavjud. Afsona ko‘proq xayoliy, ilohiy yoki g‘ayritabiiy voqealarni o‘z ichiga olsa, rivoyat nisbatan tarixiylikka yaqin, aniq shaxslar yoki

voqealarga tayangan holda hikoya qilinadi. Har ikkala janrda ham inson, uning fazilatlari va kamchiliklari, dunyoqarashi, qadriyatlari markazda turadi.[5-47/50]

Rivoyat va afsonalar o‘zbek xalqining ijtimoiy xotirasini mustahkamlovchi, tarixiy voqealarni saqlovchi va uni yangi avlodlarga yetkazuvchi madaniy mexanizmdir. Masalan, “Devona buva” yoki “Temur va Go‘ri Amir” kabi rivoyatlar xalq orasida milliy iftixor va tarixiy ongni kuchaytiradi. Bu jihatdan, ular jamiyatning tarixiy-madaniy identitetini shakllantirishda vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Jamiyatdagi axloqiy normalar, qadriyatlar va o‘zaro munosabatlar tizimi ushbu rivoyatlarda badiiy vositalar orqali ifodalanadi. Xalq og‘zaki ijodidagi har bir obraz muayyan ijtimoiy vazifani bajaradi: yaxshilikni targ‘ib qiladi, yomonlikni fosh etadi. Bu esa jamiyat a‘zolarini axloqiy va ruhiy jihatdan tarbiyalashda katta ahamiyat kasb etadi.[2-138/142]

O‘zbek afsonalari va rivoyatlari ko‘p hollarda ontologik va gnoseologik masalalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, “Ko‘hna daraxt afsonasi” yoki “Yetti chillali qiz” kabi afsonalarda tabiat, odam, ilohiy kuchlar o‘rtasidagi nisbatlar falsafiy kontekstda yoritiladi. Bu esa ularni faqat og‘zaki hikoya emas, balki hayot haqidagi muhim falsafiy mulohazalar ifodasi sifatida ko‘rishga undaydi. Bunday asarlarda ezgulik va yovuzlik, haqiqat va yolg‘on, adolat va zolimlik kabi muhim aksiologik tushunchalar badiiy ifodaga ega bo‘ladi. Afsonalardagi har bir ijobiy yoki salbiy obraz – ijtimoiy ongda shakllangan qadriyatlar tizimining timsolidir.[1-91/93]

“Alpomish” dostoni ham nafaqat epik poema sifatida, balki ijtimoiy qadriyatlar, vatanparvarlik, oilaparastlik, mardlik, fidoyilik kabi fazilatlarni targ‘ib etuvchi rivoyat sifatida ham qadrlanadi. Dostonning markazida turgan qahramon - Alpomish obrazi orqali xalqning orzu-umidlari, tarixiy xotirasi va qadimiy axloqiy me’yorlari ifoda topadi. Uning harakati va qarorlari orqali insonning ijtimoiy burchi, vatan oldidagi mas‘uliyati, oilaga sadoqat, do‘stga va‘daga vafa qilish kabi yuksak ma’naviy mezonlar namoyon bo‘ladi. “Alpomish”dagi ijtimoiy ziddiyatlar esa adolat va zulm, erkinlik va tazyiq o‘rtasidagi abadiy kurashni ifodalaydi.[3-205/209] Bu esa dostonni nafaqat folklor, balki ijtimoiy-falsafiy tafakkurning ham yorqin timsoliga aylantiradi. Xalq og‘zaki ijodining bu namunasi orqali jamiyat a‘zolariga axloqiy ideal, ijtimoiy o‘rnak va milliy o‘zlik g‘oyalari uzatiladi. Shuning uchun ham “Alpomish” dostoni avlodlar tafakkurida tiriklik, jasorat va xalqparvarlik timsoli sifatida yashab kelmoqda.

“Hazrat Xizr” afsonasi esa odamzodning umid, sabr-toqat, va muruvvat kabi tushunchalar bilan hayotni yengishga intilishi haqida bo‘lib, u sufiyona falsafaning xalq ongidagi timsolidir. Undagi ruhiy sayohat, ma‘naviy kamolotga yetishish g‘oyalari tasavvuf falsafasi bilan uyg‘unlashadi.[6-183/187] Bugungi

kunda afsona va rivoyatlar faqat og‘zaki emas, balki elektron va audio-vizual shakllarda ham tarqalmoqda. Televizion dasturlar, animatsiyalar, TikTok yoki YouTube platformalari orqali qadimiy hikoyalar zamonaviy auditoriyaga yangi uslubda taqdim etilmoqda. Bunday holat rivoyatlarning zamonaviy jamiyatda ham aktual bo‘lib qolayotganini ko‘rsatadi.

Bu esa rivoyatlar orqali ijtimoiy qadriyatlarning zamon bilan hamnafas shaklda qayta ifodalanishiga xizmat qilmoqda. Ammo ayni paytda, ularning falsafiy chuqurligi va tarixiy kontekstini saqlash ham muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.[4-54/59] Chunki mazkur janrlar zamonaviy ta‘sir vositalari - internet, ijtimoiy tarmoqlar, animatsiya va kino mahsulotlari orqali ommalashar ekan, ularning mazmuniy qatlamlari soddalashib ketish xavfi mavjud. Shuning uchun rivoyat va afsonalarni zamonaviy formatda targ‘ib qilish bilan birga, ularning asosidagi ma‘naviy-falsafiy tamoyillarni, tarixiy haqiqatni va madaniy mazmunni asrab qolish, bu merosni tahliliy va tizimli asosda xalq ongiga yetkazish dolzarb vazifalardan biridir.

Shu boisdan, o‘zbek rivoyat va afsonalari – bu xalqning tarixiy xotirasi, axloqiy tajribasi va falsafiy tafakkuri mujassam bo‘lgan boy ma‘naviy meros hisoblanadi. Ular jamiyatdagi birlik, axloqiy me‘yorlar, ezgulik va yomonlik tushunchalarini avloddan avlodga yetkazish vositasidir. Ularni chuqur falsafiy tahlil qilish orqali biz nafaqat o‘z o‘tmishimizni, balki bugungi jamiyatdagi ma‘naviy ehtiyojlarni ham anglash imkoniga ega bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Fayzullayev O. Falsafiy tafakkur asoslari. – Toshkent: Ijtimoiy fikr, 2020.

2. Jo‘rayev N. Milliy qadriyatlar va tafakkur tarixi. – Toshkent: Fan, 2019.

3. Muminov I. O‘zbek adabiy merosi va dunyoqarashi. – Toshkent: Ma’naviyat, 2006.

4 Karimov D. Folklor va zamonaviylik. – Samarqand: Zarafshon, 2021.

5. Zakirova M.A. Afsona va rivoyat janrlarining o‘ziga xos o‘xshash va farqli jihatlari. TADQIQOTLAR.UZ, 2023, №28(2): 47–50.

6. Sultonov M. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1998.

HOZIRGI DAVRDA QADRIYATLARNI GNOSEOLOGIK ANGLASHNING FALSAFIY ASOSLARI

Nuriddinova Gulshoda O‘lmasqulovna
SamDU Urgut filiali Biznesni boshqarish va tabiiy fanlar fakulteti dekan o‘rinbosari

Annotatsiya: Mazkur maqolada gnoseologiya – ya‘ni bilish nazariyasi – nuqtai nazaridan qadriyatlarning mazmuni va ularni anglash mexanizmlari tahlil

qilinadi. Asarda qadriyatlarning subyektiv va obyektiv shakllanishi, gnoseologik yondashuvlarning rivoji hamda ularning zamonaviy ijtimoiy ongdagi ifodasi falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqiladi. O‘zbek olimlari va jahon mutafakkirlarining fikrlari asosida qadriyatlarni bilish bilan bog‘liq masalalar chuqur o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: qadriyatlar, gnoseologiya, bilish, falsafa, ong, ma‘naviyat, axloq, bilim nazariyasi, globallashuv.

Insoniyat taraqqiyoti davomida qadriyatlar jamiyat hayotining eng barqaror va muhim tayanchlaridan biri bo‘lib kelgan. Ular nafaqat axloqiy va ma‘naviy me‘yor sifatida, balki tafakkur va bilishning yo‘naltiruvchi tamoyili, epistemik asoslaridan biri sifatida ham shakllangan. Bugungi globallashuv va raqamli axborot muhitida qadriyatlar o‘z mohiyatini yo‘qotmayapti, balki yangi shakl va mazmunda gnoseologik ahamiyat kasb etmoqda. Gnoseologik yondashuv qadriyatlarni bilish jarayonining tarkibiy qismi sifatida ko‘radi. Chunki har qanday bilish harakati ortida insonning qandaydir qadriy munosabati, intilishi yoki baholashi mujassamdir. Demak, qadriyatlar bilimdan avval, yoki kamida bilim bilan baravar shakllanuvchi ongiy holatdir. Shu jihatdan, qadriyatlarni gnoseologik anglash deganda, inson tafakkurining mazmuni va yo‘nalishini belgilovchi ichki mezonlarni tahlil qilish tushuniladi.

Bugungi zamonaviy jamiyatda ham qadriyatlar muhim epistemik (bilish) vosita sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda. **Gnoseologiya** – qadriyatlarni qanday idrok etish va ularni kimga qanday darajada qabul qilgani mavzusidar. Bu maqola qadriyatlarning gnoseologik tahlilini falsafiy yondashuvlar doirasida tahlil qiladi. Maqsadi - qadriyatlarning bilish nazariyasidagi o‘rni, shakllanishi va mazmunan anglanishini ochib berishdir. Bu borada akademik Ibrohim Mo‘minov ta‘kidlaganidek, “inson qadriyatlarni ongida idrok etadi, ularni bilish orqali shakllantiradi va o‘z hayotiga tatbiq etadi”.[5-113]

Gnoseologiya - bu bilish nazariyasi bo‘lib, unda insonning haqiqatni qanday anglashiga, uni qanday shakllantirishiga alohida e‘tibor qaratiladi. Jondor Tulenov ta‘kidlaganidek, “bilim qadriyatlar bilan bog‘langan holda paydo bo‘ladi, chunki inson faqat unga muhim bo‘lgan narsani bilishga intiladi”.[6-46] Bu fikrdan ko‘rinadiki, qadriyatlar bilishga turtki bo‘luvchi asosiy omillardandir. Shuningdek, Omonulla Fayzullayev “falsafiy bilishning mohiyati aynan qadriyatlarni anglash orqali chuqurlashadi”, deb yozadi.[2-92]

Qadriyatlarning gnoseologik anglanishida sub‘ektiv va ob‘ektiv yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Ob‘ektiv yondashuvga ko‘ra, qadriyatlar insondan mustaqil mavjud bo‘lib, ularni bilish faqat idrok orqali ro‘y beradi. Sub‘ektiv yondashuvda esa qadriyatlar inson ongida shakllanadi, ya‘ni qadriyatning mavjudligi inson tajribasi bilan bog‘liq. Bu yondashuvni Narzulla

Jo‘rayev quyidagicha izohlaydi: “Qadriyat insonni bilishga undovchi ichki ehtiyoj sifatida tug‘iladi. Ular tashqi ijtimoiy muhitga qarab emas, balki ongda shakllanib, bilim sifatida idrok etiladi”.[3-139]

Axborot jamiyati sharoitida qadriyatlar haqidagi bilimlar ko‘p hollarda ijtimoiy tarmoqlar, internet va mass-media vositalari orqali shakllanmoqda. Bunday holatda inson qadriyatni chuqur bilishdan ko‘ra, yuzaki idrok etishga moyil bo‘ladi. Karimov Dilshod bu borada shunday yozadi: “Zamonaviy virtual makonda shakllanayotgan qadriyatlar bilim sifatida emas, balki hissiy va ijtimoiy tendensiyalar sifatida qabul qilinmoqda. Bu esa ularning gnoseologik asosini zaiflashtiradi”.[4-65] Shu sababli, hozirgi davrda qadriyatlarni faqat axloqiy yoki urf-odat sifatida emas, balki ongli va tanqidiy bilish natijasi sifatida o‘rganish dolzarbdir.

O‘zbek falsafiy tafakkurida qadriyatlar har doim ong va bilim bilan bog‘lab talqin qilingan. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri” asarida bilim va axloqiy qadriyatlarni birlashtirib, shunday yozadi: “Inson jamiyatida eng oliy fazilat — bu bilishga qodirlik va uni foydali amalga aylantirishdir”.[1-77] Mazkur yondashuv bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Chunki jamiyat taraqqiyotida inson qadriyatlarni biladi, tahlil qiladi va ongli ravishda tanlaydi. Bu jarayonning o‘zi gnoseologik mohiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, qadriyatlar hozirgi davrda shunchaki ijtimoiy urf-odat emas, balki bilish faoliyatining muhim elementi sifatida qaralayotgani bejiz emas. Qadriyatlar - bu insonning tafakkuri, ongli tanlovi va hayotiy yo‘nalishining gnoseologik asosidir. Ularni chuqur anglash va to‘g‘ri talqin qilish, ayniqsa jamiyat axborot bosimiga uchrayotgan bir davrda, o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Forobiy A.N. *Fozil odamlar shahri.* – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi NMIU, 1993.

2. Fayzullayev O. *Falsafiy tafakkur asoslari.* – Toshkent: Ma’naviyat, 2005.

Hozirgi zamonaviy yoshlar bugungi axborotlashgan jamiyatda yuzaga kelayotgan konstruktiv va destruktiv o‘zgarishlar davrida yashamoqda. Ya’ni ular, ko‘plab ma’lumotlarga tez va oson ega bo‘lishlari bilan birga, turli yot g‘oyalar ta’sirida ma’naviy, axloqiy jihatdan o‘ta murakkab bo‘lgan muammolarga duch kelmoqdalar. Shu nuqtai nazardan ham, aynan bugungi axborotlashgan jamiyatda yoshlarni turli yot g’oyalar ta’siridan asrash va ularga to‘g‘ri ta’lim-tarbiya berish masalasi har qachongidanda dolzarblashib bormoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda” [1, 504-505]. Darhaqiqat, bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga jiddiy e’tibor berish va ularga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, ayniqsa ularning ongi va qalbini egallashga qaratilayotgan axborot xurujlaridan samarali himoyalash masalalari ob’ektiv zaruriyatga aylanmoqda.

Hozirgi globallashuv davrida axborot urushi shiddat bilan rivojlanib bormoqdaki, bu esa o‘z navbatida, millatlar, xalqlar va davlatlar o‘rtasidagi nizolarni keltirib chiqarishi bilan birgalikda, bevosita yosh avlodning ma’naviy borlig‘iga salbiy ta’sirini o‘tkazmoqda. Zero, millat asosi va tayanchi bo‘lgan yoshlarning ma’naviy qashshoqlashuvi esa istiqbolda millatning «yo‘q» bo‘lishiga zamin hozirlaydi. Bu butun insoniyatning ma’naviy fojeasi hisoblanadi. Har qanday inson o‘zligini anglashi uning o‘z millati vakili ekanligini bilishi, undan

g‘ururlanishi, unga daxldorligini his etib yashashi bilan e’tirof etiladi. Bunday fazilatlardan mahrum bo‘lgan inson tom ma’nodagi inson darajasiga yetisha olmaydi. U moddiy jihatdan barkamol bo‘lishi mumkin, ammo u o‘zligini tushunib yetmagan ma’naviy qashshoq inson darajasida qolib ketadi. Buning oqibatida hayotdan zavqlanish, uning go‘zalligidan bahra olish kabi umuminsoniyatga xos bo‘lgan tuyg‘ulardan mahrum bo‘lgan manqurtga aylanadi. Ayniqsa, axborot tahdidlarining eng xavfli jihati - bu uning mafkuraviy ta’sir o‘tkazish quroli bo‘lib xizmat qilishidir.

Bunday xurujlarga qarshi yoshlarni quyidagicha qurollantirish mumkin:

birinchidan, yoshlarga ta’lim-tarbiya berishda milliy mentalitetdan kelib chiqqan holda har bir yoshga kreativ yondashish mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarur;

ikkinchidan, televidenieda yoshlarni ijtimoiy faollikka undovchi ko‘rsatuvlarni ko‘paytirish, buzg‘unchi axborotlarning salbiy oqibatlariga oid dasturlarni ishlab chiqish zarur;

uchinchidan, yoshlarni mustaqil fikrlashga va o‘zini o‘zi himoya qilishiga e’tibor berish lozim;

to‘rtinchidan, yoshlarda axborot xavfsizligini ta’minlash kerak. Buning uchun avvalo, ta’lim-tarbiya tizimida telefonlardan foydalanish masalalarini ko‘rib chiqish va uni jiddiy nazoratga olish lozim;

beshinchidan, yoshlarda mustahkam va sog‘lom e’tiqodni shakllantirish zarur. Buning uchun esa ko‘proq ular ongida tahliliy yondashuvni shakllantirish zarur;

oltinchidan, axborot xurujlariga qarshi qaratilgan targ‘ibot va tashg‘ibot usul-vositalarini takomillashtirish va bu boradagi ishlarni yanada rivojlantirish kerak.

Zero, yoshlarda bugungi yot axborot tahdidlarining salbiy ta’siriga nisbatan immunitetni shakllantirish hozirgi davrning dolzarb masalasiga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham yurtimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, ularni hozirgi zamon talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama etuk shaxslar qilib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, o‘sib kelayotgan avlodning axborot iste’mol madaniyatini, bilim va mas’uliyatini muntazam oshirib borish hamda ularning Ona Vatanga nisbatan mehr-muhabbat ruhida kamol topishlarini ta’minlash maqsadida ularning ta’lim-tarbiyasi bilan uzluksiz va tizimli ishlashga alohida e’tibor qaratish talab etiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonini uzluksizligini ta’minlash esa yosh avlodning mustaqil fikrlash

qobiliyatini shakllantirishda va ularning ma’nan boy dunyoqarashga ega bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli yot axborot xurujlarining milliy urf-odat, an’ana, qadriyat va axloqning o‘zgarishiga qaratilgan ta’siriga qarshi kurashish, kerak bo‘lsa unga qalqon bo‘la oladigan omilni shakllantirish bugun har bir millatning milliy tarbiyasi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biriga aylanishi lozim. Ayniqsa, har bir ta’lim-tarbiya tizimi o‘zining ustuvor vazifasi sifatida qarashi zarur. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoev, “Bu sohada olib borayotgan keng miqyosli ishlarimizni, xususan, ta’lim-tarbiya bo‘yicha qabul qilingan umummilliy dasturlarimizni mantiqiy yakuniga etkazishimiz zarur.

Shu maqsadda Hukumatning, tegishli vazirlik va idoralar hamda butun ta’lim tizimining, hurmatli domlalarimiz va professor-o‘qituvchilarning eng muhim vazifasi - yosh avlodga puxta ta’lim berish, ularni jismoniy va ma’naviy etuk insonlar etib tarbiyalashdan iboratdir” [1, 13-14] - deb, ta’kidlagan edi.

Zero, ilm-ma’rifat, ta’lim-tarbiya, ma’naviyat insonni kamolotga yetaklovchi, unga najot, kuch beruvchi buyuk ne’mat ekani, bugungi tezkor va shiddatli axboratlashgan jamiyatda yanada yaqqolroq namoyon bo‘lyapti. Shu bois, ta’lim-tarbiyani to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish orqali samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Eng muhimi, ta’lim muassasalarida yoshlarda shaxsiy javobgarlik xususiyatlarini va shaxsdagi yaratuvchanlik asoslarni shakllantirish orqali ularning qalbida ezgulik, saxovat, mehr-muruvvat fazilatlarini qaror toptirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, o‘sib kelayotgan yosh avlodni axborot xurujlaridan himoyalash, ularning bilimlarini, shu jumladan axborot iste’mol madaniyatiga oid ta’lim-tarbiyani yuksaltirish nafaqat ta’lim muassasalarida, balki eng avvalo o‘z oilasida, ota-onasi bag‘rida qaror toptirish bugungi ijtimoiy hayotni ta’minlashga, balki kelajak avlodlar uchun ham muhim bo‘lgan faravon jamiyatni meros qilib qoldirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoev Sh.M. Jismoniy va barkamol yoshlar – bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchidir // Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. J. 1.- T.: O‘zbekiston, 2017.- B.504-505.

2. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. “O‘ZBEKISTON” NMIU, 2016. – B. 13-14.

HOZIRGI ZAMON AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING FALSAFIY MUAMMOLARI

Almamatova Movluda Rustam qizi,
Guliston davlat pedagogika instituti,
"Milliy g'oya va falsafa" kafedrasi o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatda yuzaga kelayotgan asosiy falsafiy muammolar, ularning ijtimoiy ong, tafakkur, axloqiy qadriyatlar va shaxs erkinligiga ta'siri yoritilgan. Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti insoniyat hayotida tub o'zgarishlarni keltirib chiqargani, ammo bu o'zgarishlar bilan birga chuqur falsafiy savollarni ham yuzaga chiqargani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Axborotlashgan jamiyat, raqamli tafakkur, sun'iy intellekt, erkinlik, shaxs, falsafa, texnologik determinizm, ma'naviyat;

Kirish. XXI asr – axborot va raqamli texnologiyalar asri hisoblanadi. Zamonaviy jamiyatda axborot resurslari va ularni qayta ishlash vositalari iqtisodiyot, siyosat, madaniyat va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida markaziy rol o'ynaydi. Bu jarayon natijasida shakllanayotgan yangi sivilizatsion model – axborotlashgan jamiyat – ijtimoiy munosabatlar, shaxsiy hayot, bilim olish va hatto insonning o'zini anglashidagi tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi ilmiy falsafa, ijtimoiy fanlar va texnologiya mutaxassislari tomonidan keng tahlil qilinmoqda. Masalan, amerikalik sotsiolog D. Bell o'zining "Postindustrial Society" (1973) asarida[22] sanoat jamiyati o'rnini axborot jamiyatining egallashi va unda asosiy iqtisodiy resurs sifatida bilim va axborotning o'rin olishini ta'kidlaydi. Shuningdek, ispaniyalik sotsiolog M. Kastels "The Information Age" (1996-1998) trilogiyasida global tarmoq va raqamli kommunikatsiyalarning ijtimoiy tuzumni tubdan o'zgartirayotganini ilgari suradi. Biroq, axborotlashgan jamiyatning rivojlanishi bilan birga, inson tafakkurining tabiati, axloqiy qadriyatlar va shaxs erkinligining yangi muammolari paydo bo'lmoqda.[23] Masalan, raqamli texnologiyalar inson e'tiborining doimiy ravishda bo'linishiga olib kelmoqda, bu esa kognitiv jarayonlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi haqida nevropsixologik tadqiqotlar mavjud.

Shuningdek, sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning kengayishi insonning mehnat bozori va shaxsiy erkinligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonda yuzaga kelayotgan ontologik savollar – "Inson nima?", "Ong nima?", "Mashina haqiqiy ongga ega bo'lishi mumkinmi?" – falsafaning yangi muammolar qatoriga kiradi.

Axborotlashgan jamiyatning falsafiy muammolarini chuqur o'rganish hozirgi davr uchun juda muhim, chunki texnologiyalar rivojlanishi insoniyatning ijtimoiy

---

[22] **Bell D**. The coming of **postindustrial society**. - Nyu York, **1973**.
[23] M. Kastels "The Information Age" Nyu York, (1996-1998)

va madaniy strukturasi bilan birga uning ichki ongini ham shakllantiradi. Ushbu maqola axborotlashgan jamiyatning falsafiy muammolarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, ularning zamonaviy hayotga ta’sirini yoritishga harakat qiladi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili va metodologiya. Axborotlashgan jamiyatning falsafiy muammolarini o‘rganishda bir qator klassik va zamonaviy olimlarning ishlari muhim ahamiyatga ega. Ularning tahlili orqali mavzuga chuqurroq yondashish va muammolarning murakkabligini tushunish mumkin.

Daniyel Bellning “The Coming of Post-Industrial Society” (1973) asari axborot jamiyati tushunchasini ilk marta tizimli ravishda ilmiy maydonga olib chiqdi. Bell sanoat jamiyatidan post-industrial jamiyatga o‘tishni ta’riflab, unda asosiy iqtisodiy va ijtimoiy kuch sifatida axborot va bilim ko‘rsatkichlarini ko‘rsatdi. Uning fikricha, bunday jamiyatda ijtimoiy strukturani aniqlovchi omil ishlab chiqarish emas, balki bilim va texnologiyalar bo‘ladi. Biroq Bellning tahlilida axborot jamiyatining falsafiy va axloqiy muammolari to‘liq yoritilmaganligi ham qayd qilinadi.

Manuel Kastelsning “The Information Age” (1996–1998) trilogiyasi esa axborot jamiyatining global xarakterini va uning siyosiy-iqtisodiy jarayonlarga ta’sirini keng ko‘lamda o‘rganadi. Kastels axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jahon miqyosida ijtimoiy tuzumlarni qanday tubdan o‘zgartirayotganini ko‘rsatadi. U, shuningdek, axborot jamiyatining “tarmoq jamiyati” shakllanishiga olib kelishini ta’kidlaydi. Bu asarlar falsafa va ijtimoiy nazariyalar uchun mustahkam nazariy zamin yaratgan bo‘lsa-da, shaxs erkinligi va ma’naviyat masalalariga etarli e’tibor bermaydi.

Raqamli texnologiyalarning inson ongiga ta’siri borasida Nicholas Carrning “The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains” (2010) asari muhimdir.[24] Carr texnologiyalar, ayniqsa internet, inson diqqatini bo‘lishi va chuqur tafakkurning kamayishi kabi muammolarni falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. U insonning ong faoliyatining texnologik sharoitlarda qanday o‘zgarishini ilmiy asosda tahlil qiladi va bu o‘zgarishlarning jamiyat uchun xavf-xatarlarini ko‘rsatadi.

Sun’iy intellekt va mashinalarning inson tafakkuriga ta’siri bo‘yicha Yuval Noah Harar “Homo Deus: A Brief History of Tomorrow” (2015) asarida texnologiyalar va sun’iy ongning kelajakdagi insoniyat taraqqiyotiga ta’sirini falsafiy tahlil qiladi.[25] Harar texnologik determinizm muammosini ko‘tarib chiqadi, ya’ni inson texnologiyaga qaram bo‘lib qolishi, uning erkin irodasi cheklanishi mumkinligi haqidagi savollarni ilgari suradi.

---

[24] **The Shallows. What the Internet is Doing to Our Brains**,. New York, London, W.W. Norton & Company, **2010**, 276-p.

[25] Yuval Noah Harar. “Homo Deus: A Brief History of Tomorrow”, United Kingdom 2016.

Shuningdek, O‘zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo olimlari ham axborot jamiyati bilan bog‘liq falsafiy masalalarni o‘rganishmoqda. Masalan, O‘zbekiston falsafa sohasidagi tadqiqotchilar axborot texnologiyalarining milliy madaniyat va ma’naviyatga ta’sirini tahlil qilmoqda. Bu esa mavzuning global va mahalliy jihatlarini birlashtiradi.

Umuman olganda, mavjud ilmiy adabiyotlar axborotlashgan jamiyat tushunchasini turli nuqtai nazardan yoritadi: ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, psixologik va falsafiy. Ammo ularning aksariyati axborot texnologiyalari jamiyatga olib kelayotgan axloqiy muammolar, shaxs erkinligi va ongning o‘zgarishi kabi masalalarga yetarlicha e’tibor bermaydi. Shu bois hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning falsafiy muammolarini chuqurroq o‘rganish uchun yangi tahliliy yondashuvlar zarur.

Ushbu maqolada hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning falsafiy muammolarini o‘rganish uchun ko‘p qirrali va tizimli yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. **Tahliliy-falsafiy metod** – mavzuga oid nazariy asarlar, ilmiy maqolalar va falsafiy kontseptsiyalar chuqur tahlil qilindi. Bu metod yordamida axborotlashgan jamiyat tushunchasining mohiyati, uning ijtimoiy va falsafiy jihatlari o‘rganildi, shuningdek, mavjud nazariy yondashuvlar solishtirildi.
2. **Komparativ (solishtirma) metod** – axborotlashgan jamiyatning falsafiy muammolari turli olimlar (D. Bell, M. Kastels, N. Carr, Y. Harar va boshqalar) tomonidan qanday talqin etilganligi taqqoslandi. Bu metod tadqiqot mavzusining global va mahalliy kontekstlarda qanday tushunilishini aniqlashga yordam berdi.
3. **Kritik tahlil metod** – zamonaviy texnologiyalar ta’siri ostida yuzaga kelgan yangi ontologik va axloqiy muammolar tanqidiy yondashuv bilan tahlil qilindi. Ushbu metod axborotlashgan jamiyatda inson erkinligi, shaxsning o‘zligini saqlab qolish va axloqiy qadriyatlarning buzilishi kabi masalalarga chuqurroq e’tibor qaratishga imkon berdi.
4. **Interdisipliner yondashuv** – falsafa, sotsiologiya, psixologiya va texnologiya fanlarining gibrid metodlari integratsiyalashdi. Bu esa mavzuning murakkab va ko‘p o‘lchovli tabiatini yaxshiroq anglashga yordam berdi.

Tahlil va natijalar.

Hozirgi davrda jamiyatning axborotlashtirilishi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan bo‘lib, bu jarayon chuqur falsafiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Quyida ushbu muammolar tahlil qilinib, asosiy natijalar taqdim etiladi:

1. Axborot va bilim o‘rtasidagi farq kuchaymoqda.

Axborot oqimining keskin ortishi natijasida insoniyatga taqdim etilayotgan ma’lumotlar soni har kuni eksponensial tarzda oshmoqda. Biroq bu axborotlar har doim ham bilim darajasiga ko‘tarilmaydi. Nicholas Carrning (2010) fikricha, internet inson tafakkurining chuqurligini emas, balki tezkor va yuzaki ishlashini rag‘batlantiradi.[26] Bu esa falsafiy nuqtai nazardan inson tafakkurining yuzakilashuvi muammosini keltirib chiqarmoqda.

2. Shaxsiy erkinlik va ong ustidan nazorat xavfi kuchaymoqda.

Sun’iy intellekt, algoritmik boshqaruv, reklama va siyosiy manipulyatsiyalar orqali insonning informatsion makondagi harakati kuzatilib, nazorat ostiga olinmoqda. Falsafiy jihatdan bu holat Michel Foucault tomonidan ta’riflangan “panoptikon” nazariyasining zamonaviy shaklidir – inson doimiy nazorat ostida bo‘lish orqali o‘z erkinligini yo‘qotmoqda. Axborotlashgan jamiyatda insonning erkin tanlovi texnologik strukturalar bilan cheklanmoqda.

3. Sun’iy ong va ontologik savollar

Sun’iy intellekt taraqqiyoti inson bilan mashina o‘rtasidagi farqni noaniqlashtirmoqda. Bu esa klassik falsafa (Dekart, Kant, Gegel) ilgari surgan inson ongining noyobligi g‘oyasini qayta ko‘rib chiqishga olib kelmoqda.[27] Zamonaviy texnologiyalar ko‘magida yaratilgan sun’iy ong modellarining inson tafakkuri bilan qiyoslanishi inson kimligi, ong tabiati va mavjudlik haqida chuqur ontologik savollarni paydo qilmoqda.

4. Axloqiy qadriyatlarning erishi va raqamli madaniyat

Axborot texnologiyalari insonlar orasidagi muloqotni soddalashtirgan bo‘lsa-da, ular orasidagi hissiy bog‘liqlik, empatiya va axloqiy mas’uliyatni zaiflashtirgan. Shaxsiy munosabatlar ko‘proq virtual muloqot orqali amalga oshmoqda, bu esa axloqiy qadriyatlarning erishiga olib kelmoqda. Shaxslar anonimlik ortiga yashirinish, yolg‘on axborot tarqatish yoki kiberzo‘ravonlik kabi harakatlarni sodir etishga moyil bo‘lmoqda. Bu esa axborotlashgan jamiyatda axloqiy me’yorlarning zaiflashuviga olib kelmoqda.

5. Madaniy identifikatsiya va g‘arb markazlilik xavfi. Axborotlashgan jamiyat global maydonni yaratgan bo‘lsa-da, unda g‘arbiy qadriyatlar va hayot tarzi ustunlik qilmoqda. Bu esa turli milliy va madaniy identifikatsiyalarni yo‘qolish xavfi ostida qoldiradi. Mahalliy qadriyatlar, urf-odatlar va dunyoqarashlar raqamli madaniyatning global bosimiga bardosh berolmay, o‘zligini yo‘qotmoqda. Falsafiy jihatdan bu madaniy diversifikatsiya va o‘zlikni anglash muammosi sifatida namoyon bo‘ladi.

---

[26] Nicholas G. Carr. He Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. United Kingdom, 2010.

[27] Kazuhiko Yamamoto. An Alternative Analysis of the Discourse by Descartes, Kant and Hegel in terms of the Ethical Structure of the Kanun. Japan, 2015.

Natijalar

Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

- Axborotlashgan jamiyatda inson tafakkuri, ong va axloqiy qadriyatlar tubdan o‘zgarishlarga uchramoqda.
- Sun’iy intellekt va algoritmik boshqaruv shaxs erkinligiga va ong ustidan nazoratga sabab bo‘lishi mumkin.
- Axborot texnologiyalari taraqqiyoti ontologik va epistemologik savollarni yangidan ko‘ndalang qo‘ymoqda.
- Raqamli makonda madaniy va axloqiy qadriyatlarning erish xavfi mavjud, bu esa jamiyatda ma’naviy tanglikni keltirib chiqaradi.
- Axborotlashgan jamiyatning salbiy oqibatlarini chuqur falsafiy tahlil qilish va bu muammolarga qarshi intellektual immunitetni shakllantirish muhim.

Xulosa. Hozirgi zamon axborotlashgan jamiyatning falsafiy muammolari insoniyat oldida yangi va murakkab savollarni yuzaga keltirmoqda. Axborot texnologiyalari hayotimizni tubdan o‘zgartirayotgan bir paytda, axborotning erkinligi, shaxsiylik, haqiqat va haqiqatga bo‘lgan ishonch kabi masalalar yangi falsafiy tahlil va yondashuvlarni talab qilmoqda. Shu bilan birga, axborot oqimining cheklovsizligi va raqamli inqilobning kuchayishi, jamiyatdagi etik me’yorlar va inson huquqlari haqida chuqur mulohaza yuritishni zarur qilmoqda. Axborotlashgan jamiyatda falsafa nafaqat texnologiyalarni, balki insoniy qadriyatlarni, ong va bilimni yangi kontekstda tushunishga xizmat qiladi. Kelajakda bu muammolarni hal etish uchun falsafa va boshqa fanlar o‘rtasida integratsiyalashgan yondashuvlarni rivojlantirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bell D. The coming of postindustrial society. – Nyu York, 1973.

2. M. Kastels “The Information Age”. – Nyu York, 1996-1998.

3. The Shallows. What the Internet is Doing to Our Brains,. New York, London, W.W. Norton & Company, 2010, 276-p.

4. Yuval Noah Harar. “Homo Deus: A Brief History of Tomorrow”. – United Kingdom, 2016.

5. Nicholas G. Carr. He Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains. – United Kingdom, 2010.

6. Kazuhiko Yamamoto. An Alternative Analysis of the Discourse by Descartes, Kant and Hegel in terms of the Ethical Structure of the Kanun. – Japan, 2015.

AXBOROT JAMIYATIDA INSON O‘ZLIGINI YO‘QOTISH XAVFI: RAQAMLI DUNYODA SHAXSIYAT VA IDENTIFIKATSIYA MUAMMOLARI

Hamiyev A.T., assistent,
Xoliyorov X.A., assistent
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Samarqand filiali

Annotatsiya: Ushbu tezis axborot jamiyatida inson o‘zligining raqamli dunyoda yo‘qolish xavfini falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Shaxsiyat va identifikatsiya masalalari zamonaviy texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun’iy intellekt ta’sirida qanday o‘zgarayotgani ko‘rib chiqiladi. Raqamli muhitda insonning o‘ziga xosligini saqlab qolish, shaxsiy maxfiylik va ijtimoiy bosim o‘rtasidagi ziddiyatlar muhokama qilinadi. Tadqiqot falsafiy, sotsiologik va psixologik yondashuvlarni birlashtirib, axborot jamiyatining inson shaxsiyatiga ta’sirini keng ko‘lamda yoritishga harakat qiladi. Xulosada, inson o‘zligini himoya qilish uchun axloqiy va huquqiy choralarni taklif qilish bilan birga, kelajakdagi muammolar haqida mulohazalar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: axborot jamiyati, inson o‘zligi, shaxsiyat, identifikatsiya, raqamli dunyo, ijtimoiy tarmoqlar, maxfiylik, sun’iy intellekt, falsafa, posthumanizm.

Axborot jamiyati – bu insoniyat tarixidagi yangi bosqich bo‘lib, unda axborot va raqamli texnologiyalar hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt va katta ma’lumotlar (Big Data) insonning o‘zini idrok etishi, boshqalar bilan munosabati va jamiyatdagi o‘rnini tubdan o‘zgartirdi. Biroq, bu o‘zgarishlar foydali imkoniyatlar bilan birga, inson o‘zligini yo‘qotish xavfini ham keltirib chiqarmoqda. Raqamli dunyoda shaxsiyat va identifikatsiya masalalari tobora murakkablashib, falsafiy, axloqiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Inson o‘zligi – bu shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari, qadriyatlar, e’tiqod va tajribalar yig‘indisi bo‘lib, u ijtimoiy va madaniy kontekstda shakllanadi [1]. Axborot jamiyatida esa bu o‘zlik raqamli platformalar, algoritmlar va virtual muhit ta’sirida qayta shakllanmoqda. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda shaxs o‘zini qanday taqdim etishi, qaysi ma’lumotlarni ulashishi va boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishi uning identifikatsiyasiga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, maxfiylikning yo‘qolishi, ma’lumotlarning manipulyatsiyasi va raqamli nazorat insonning o‘ziga xosligini xavf ostiga qo‘yadi [2].

Ushbu tezisda quyidagi savollar muhokama qilinadi: Raqamli dunyoda inson o‘zligi qanday shakllanadi? Axborot jamiyatining texnologik va ijtimoiy xususiyatlari shaxsiyatga qanday ta’sir qiladi? Inson o‘ziga xosligini saqlab qolish

uchun qanday falsafiy va amaliy yondashuvlar zarur? Tadqiqot falsafiy tahlilga asoslanib, axborot jamiyatining shaxsiyat va identifikatsiya muammolarini keng ko‘lamda yoritishga harakat qiladi.

Axborot jamiyati va shaxsiyatning o‘zgarishi. Axborot jamiyati Manuel Kastelsning ta’rifiga ko‘ra, axborotni ishlab chiqarish, tarqatish va qayta ishlash iqtisodiy va ijtimoiy faoliyatning asosiy manbai bo‘lgan jamiyatdir [3]. Bu jamiyatda raqamli texnologiyalar inson hayotining markaziga aylandi. Ijtimoiy tarmoqlar, masalan, Facebook, Instagram va TikTok, shaxslarning o‘zini ifoda etish usullarini o‘zgartirdi. Biroq, bu platformalar shaxsiyatni standartlashtirishga va ommaviy madaniyatga moslashtirishga olib keladi. Masalan, “lifestyle” blogerlari yoki “influencer”lar orqali ommaga targ‘ib qilinadigan ideal hayot tarzi ko‘plab odamlarni o‘ziga xos xususiyatlaridan voz kechib, umumiy qoliplarga rioya qilishga undaydi [7].

Bundan tashqari, raqamli muhitda shaxsiyatning fragmentatsiyasi kuzatiladi. Inson turli platformalarda turli “raqamli shaxsiyatlar” yaratadi: LinkedIn’da professional, Instagram’da estetik, Twitter’da esa siyosiy qarashlarga ega shaxs sifatida namoyon bo‘ladi. Bu fragmentatsiya insonning yaxlit o‘zligini yo‘qotishiga olib keladi, chunki shaxs o‘zini turli kontekstlarda qayta-qayta qurishi kerak bo‘ladi.

Identifikatsiya va raqamli nazorat. Raqamli dunyoda identifikatsiya nafaqat shaxsning o‘zini idrok etishi, balki tashqi tizimlar tomonidan uning qanday tasniflanishi bilan ham bog‘liq. Big Data va algoritmlar insonning har bir harakatini – qidiruv so‘rovlaridan tortib, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligigacha – tahlil qilib, uning “raqamli profilini” yaratadi. Bu profil reklama, siyosiy targ‘ibot yoki hatto ijtimoiy baholash uchun ishlatiladi. Masalan, Cambridge Analytica mojarosi shuni ko‘rsatdiki, shaxsiy ma’lumotlar yordamida odamlarning qarorlariga ta’sir o‘tkazish mumkin [6].

Bunday nazorat insonning o‘ziga xosligini yo‘qotishiga olib keladi, chunki u tobora ko‘proq algoritmlar tomonidan belgilangan “kategoriyalar” doirasida harakat qiladi. Fuko ta’biri bilan aytganda, bu “panoptikon”ning raqamli shakli bo‘lib, unda shaxs doimiy nazorat ostida bo‘ladi va o‘zini moslashtirishga majbur bo‘ladi [2]. Bu esa inson erkinligi va o‘zligiga jiddiy tahdid soladi.

Maxfiylik va shaxsiyat o‘rtasidagi ziddiyat. Axborot jamiyatida maxfiylikning yo‘qolishi inson o‘zligiga eng katta tahdidlardan biridir. Shaxsiy ma’lumotlarning korporatsiyalar, hukumatlar yoki hatto uchinchi shaxslar tomonidan yig‘ilishi va ishlatilishi shaxsiyatning avtonomiyasini cheklaydi. Masalan, smartfonlar, aqlli soatlar va boshqa IoT (Internet of Things) qurilmalari doimiy ravishda foydalanuvchi haqidagi ma’lumotlarni yig‘adi. Bu ma’lumotlar

shaxsning xulq-atvorini bashorat qilish va uni manipulyatsiya qilish uchun ishlatiladi [6].

Falsafiy nuqtai nazardan, maxfiylik shaxsiyatning asosiy shartlaridan biridir. Jon Lokkning shaxsiyat haqidagi nazariyasiga ko‘ra, inson o‘zligi uning o‘z xotiralari va tajribalariga asoslanadi [4]. Agar bu xotiralar va tajribalar boshqalar tomonidan nazorat qilinsa yoki oshkor qilinsa, shaxs o‘zining yaxlitligini yo‘qotadi. Shu sababli, maxfiylikni himoya qilish inson o‘zligini saqlab qolish uchun muhimdir.

Sun’iy intellekt va inson o‘zligi. Sun’iy intellekt (AI) axborot jamiyatining eng muhim innovatsiyalaridan biridir, lekin u shaxsiyat va identifikatsiyaga yangi muammolar keltirib chiqarmoqda. AI algoritmlari shaxslarning xulq-atvorini tahlil qilib, ularga moslashtirilgan kontent taklif qiladi, lekin bu jarayonda shaxsni “raqamli qolip”ga soladi. Masalan, Netflix yoki Spotify kabi platformalar foydalanuvchining qiziqishlariga asoslangan tavsiyalar beradi, lekin bu tavsiyalar shaxsning yangi tajribalar olish imkoniyatini cheklashi mumkin [9].

Bundan tashqari, AI inson o‘zligining kelajagi haqida falsafiy savollar tug‘diradi. Posthumanizm tarafdorlari, masalan, Rey Kurtsvayl, inson ongini raqamli muhitga yuklash mumkinligini ta’kidlaydilar [5]. Biroq, bunday jarayon inson o‘zligini butunlay yo‘qotishiga olib kelishi mumkin, chunki ongning raqamli nusxasi asl shaxs bilan bir xil bo‘lmasligi mumkin. Bu “o‘zlikning uzluksizligi” masalasini falsafiy muhokamaga ochadi [10].

Inson o‘zligini himoya qilish yo‘llari. Inson o‘zligini saqlab qolish uchun falsafiy, huquqiy va amaliy choralarni birgalikda qo‘llash zarur. Falsafiy nuqtai nazardan, inson o‘zini tanqidiy fikrlash va o‘z qadriyatlarini qayta ko‘rib chiqish orqali himoya qilishi mumkin. Masalan, Xabermasning kommunikativ harakat nazariyasiga asoslanib, shaxslar o‘zaro muloqot orqali o‘z o‘zliklarini mustahkamlashi mumkin [3].

Huquqiy jihatdan, maxfiylikni himoya qilish bo‘yicha qonunlar (masalan, GDPR) muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, shaxslar raqamli savodxonlikni oshirish orqali o‘z ma’lumotlarini boshqarishni o‘rganishi kerak. Amaliy jihatdan, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni cheklash, shaxsiy ma’lumotlarni ulashishni minimallashtirish va raqamli muhitda o‘zini tanqidiy baholash inson o‘zligini himoya qilishga yordam beradi [7].

XULOSA

Axborot jamiyati inson o‘zligi va shaxsiyatiga misli ko‘rilmagan imkoniyatlar va tahdidlarni birga olib keldi. Raqamli dunyoda shaxsiyatning shakllanishi, identifikatsiyaning murakkablashishi va maxfiylikning yo‘qolishi insonning o‘ziga xosligini xavf ostiga qo‘yadi. Ijtimoiy tarmoqlar, algoritmlar va

sun’iy intellekt shaxsni standartlashtirishga va nazorat qilishga xizmat qilishi mumkin, bu esa inson erkinligi va avtonomiyasiga tahdid soladi.

Biroq, inson o‘zligini himoya qilish imkonsiz emas. Falsafiy refleksiya, huquqiy choralar va raqamli savodxonlik orqali shaxslar o‘z o‘zliklarini saqlab qolishi mumkin. Kelajakda axborot jamiyatining rivojlanishi inson o‘zligi haqidagi savollarni yanada chuqurlashtiradi va bu muammolarni hal qilish uchun global hamkorlik zarur bo‘ladi. Ushbu tezis hozirgi axborot jamiyatida inson o‘zligining muhimligini ta’kidlab, uni himoya qilish uchun falsafiy va amaliy yondashuvlarni taklif qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Castells, M. (1996). The Rise of the Network Society. Oxford: Blackwell Publishers.
2. Foucault, M. (1975). Discipline and Punish: The Birth of the Prison. New York: Vintage Books.
3. Habermas, J. (1984). The Theory of Communicative Action. Boston: Beacon Press.
4. Locke, J. (1690). An Essay Concerning Human Understanding. London: Penguin Classics.
5. Kurzweil, R. (2005). The Singularity is Near: When Humans Transcend Biology. New York: Viking.
6. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism. New York: PublicAffairs.
7. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. New York: Basic Books.
8. Bauman, Z. (2000). Liquid Modernity. Cambridge: Polity Press.
9. Floridi, L. (2014). The Fourth Revolution: How the Infosphere is Reshaping Human Reality. Oxford: Oxford University Press.
10. Haraway, D. (1991). Simians, Cyborgs, and Women: The Reinvention of Nature. New York: Routledge.

EKOESTETIK IDEALNI SHAKLLANTIRISHDA MEDIA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O‘RNI

Azimov Ozod Mamatkulovich
SamDU Urgut filiali Pedagogika va jismoniy madaniyat kafedrasi o‘qituvchisi
Email: ozodazimov196@gmail.com

Anotatsiya: *Ekoestetik qarashlar yoshlar ongida nafaqat estetik sezgilarning o‘sishiga, balki tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatning shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun, pedagogik jarayonlar ekoestetik idealni yoshlar ongida mustahkamlash, ekologik ma'naviyatni rivojlantirish uchun samarali usullardan foydalanishni talab qiladi. Falsafiy jihatdan ekoestetik ideal yoshlar tarbiyasining muhim elementlaridan biridir, chunki u tabiat bilan insonning o‘zaro aloqalarini, insoniyatning tabiatga nisbatan mas'uliyatini ochib beradi. Shu o’rinda takidlash joizki bugungi axborotlashgan jamiyatda yoshlar ongida ekoestetik dunyoqarashni shaklantirishda media va axborot texnalogiyalarning o’rni sezilarli darajada ahamyatli ekanligini ko’rishimiz mumkin.*

Kalit so’zlar *Ekoestetik idial, Axborot xavfsizligi, kompyuter texnologiyasi, ijtimoiy tarmoqlar, internet psixologiyasi, vertual olam, yoshlar siyosati, ma’naviy-mafkuraviy xavfsizlik.*

Аннотация*: Экоэстетические взгляды приводят не только к росту эстетических ощущений в сознании молодых людей, но и к формированию ответственного отношения к природе. Поэтому педагогические процессы требуют использования эффективных методов укрепления экоэстетического идеала в сознании молодежи, развития экологической духовности. С философской точки зрения экоэстетический идеал является одним из важных элементов воспитания молодежи, поскольку раскрывает взаимосвязь природы и человека, ответственность человечества по отношению к природе. Стоит отметить, что в современном информационном обществе мы видим, что роль средств массовой информации и информационных технологий в формировании экоэстетического мировоззрения в сознании молодежи весьма существенна.*

Ключевые слова *Экоэстетический идеал, информационная безопасность, компьютерные технологии, социальные сети, интернет-психология, виртуальный мир, молодежная политика, духовно-идеологическая безопасность.*

Abstract: Eco-aesthetic views lead not only to the growth of aesthetic sensations in the minds of young people, but also to the formation of a responsible attitude towards nature. Therefore, pedagogical processes require the use of

effective methods to strengthen the eco-aesthetic ideal in the minds of young people, to develop ecological spirituality. Philosophically, the eco-aesthetic ideal is one of the important elements of youth education, because it reveals the relationship between nature and man, the responsibility of humanity towards nature. It is worth noting that in today's information society, we can see that the role of media and information technologies in the formation of an eco-aesthetic worldview in the minds of young people is significantly important.

Keywords: Eco-aesthetic ideal, Information security, computer technology, social networks, Internet psychology, virtual world, youth policy, spiritual and ideological security.

Ekoestetik qarashlar yoshlar ongida nafaqat estetik sezgilarning o‘sishiga, balki tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatning shakllanishiga olib keladi. Shuning uchun, pedagogik jarayonlar ekoestetik idealni yoshlar ongida mustahkamlash, ekologik ma'naviyatni rivojlantirish uchun samarali usullardan foydalanishni talab qiladi. Falsafiy jihatdan ekoestetik ideal yoshlar tarbiyasining muhim elementlaridan biridir, chunki u tabiat bilan insonning o‘zaro aloqalarini, insoniyatning tabiatga nisbatan mas'uliyatini ochib beradi. Shu o’rinda takidlash joizki bugungi axborotlashgan jamiyatda yoshlar ongida ekoestetik dunyoqarashni shaklantirishda media va axborot texnalogiyalarning o’rni sezilarli darajada ahamyatli ekanligini ko’rishimiz mumkin.

XXI asr tezkor axborotlar almashinuvi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, xalqaro biznesning taraqqiyoti, media ta’limning yaxshilanishi bilan birga boshqa ko‘plab sohalarda ham jiddiy o‘zgarishlarga olib keldi. Bu kabi taraqqiyot haqli ravishda global internet maxsuli ekanligini bildiradi. Global axborot olami o‘zining ijobiy yutuqlari bilan birgalikda, keng axborot iste’molchilari sanalmish yoshlarning ma’naviy dunyoqarashi va madaniyatidagi salbiy o‘zgarishlarning avj olishiga sabab bo‘lmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni qabul qilinganligi, uning mantiqiy davomi sifatida, ijtimoiy, ma’naviy ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbusning ilgari surilganligi, unga ko‘ra “aholi va yoshlar o‘rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni” tashkil etishga alohida urg‘u berilganligi o‘rganilayotgan mavzuning naqadar dolzarb ekanligini anglatadi. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlardan notug‘ri foydalanish oqibatida yuzaga kelayotgan salbiy xolatlar nafaqat xorij davlatlari kesimida balki mamlakatimizda ham ko‘zga tashlanmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma’lumotlariga qaraganda internet xizmatlaridan foydlanuvichlar soni 22 mln dan ortgan, shundan mobil Internet

foydlanuvchilari soni 19 mln.ni tashkil etmoqda. Ko‘rinib turibdiki, bu ko‘rsatkichlar yildan – yilga ortib bormoqda. Lekin ulardan foydlanuvchilarning asosiy qismi yoshlar xissasiga tug‘ri kelayotganligi, undan qay daraja tug‘ri foydalanilayotganligi masalaning nechog‘lik dolzarbligidan dalolat beradi. Buning asosiy sabablaridan biri respublikamiz aholisining 30 foizi 14 dan 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlardan iborat ekanligidir. Internet olamining salbiy oqibatlariga yani undagi turli yot illatlarga qarshi immunitet xususida juda ko‘p va takroriy to‘xtalinib kelinmoqda. Bu borada axborot tarqatuvchi internet saytlaridan foydalanishda oilada nazoratni kuchaytirish, ta’lim tizimida tushuntirish kun gapiga aylangan. Ammo masalaning bir jixatini biz to‘liq tan olishimiz va anglashimiz zarur, yani yoshlar sifatida qaralayotgan 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan qatlamning ota onalari o‘rtacha necha yoshda va ular internetni qay darajada tushunadi, farzandi turli saytlardan nima maqsadlarda foydalanayotganligini nazorat qilish uchun u yoki bu turdagi saytlarga qanday kirilishi borasida, zamonaviy axborot texnologiya jixozlaridan foydalanishda farzandlaridan oldindami degan masala ham muammoli holatdir. Bu o‘z o‘rnida tabiy hol aynan hozirgi 14 va 30 yoshli farzandlar ota onalari ta’lim olish jarayonida internet va zamonaviy texnologiya jihozlari bugungi darajada rivojlanmagan. Hozirda qishloq va shahar tushunchalari faqatgina maishiy ijtimoiy turmush tarzi va sharoitlarda keskin farqlanishi mumkin, ammo axborot tarqalishi va iste’molchi sifatida kesin farqlanish deyarli mavjud emas. Bu esa o‘z navbatida juda yaxshi fan yutuqlari axborotlar almashinuvi, elektron hisob kitob, raqamli iqtisodiyot uchun xizmat qilish bilan birgalikda, katta ijtimoiy muammolarga ham aylanib bormoqda. Bu borada rivojlangan xorijiy davlatlar tajribasiga nazar solsak. Dunyoning rivojlangan mamlakatlaridan biri Kanadada 17 yoshgacha bo‘lgan 6 ming bola o‘rtasida o‘tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra, ular sodda ota-onalari o‘ylaganidek, internet tarmog‘idan aksariyat hollarda axborot olish maqsadida foydalanmas ekan. So‘rovda ishtirok etganlarning 99 foizi internetdan foydalanishini, ularning har 10 nafaridan 8 nafari unga ulanish imkoniyatiga ega ekanini bildirdi. Kanadalik yoshlarning yarmidan ko‘pi internet va kompyuter texnologiyalarni ota-onalaridan yaxshiroq bilishini aytgan. Ularning 80 foizi mustaqil ravishda internet tarmog‘iga ulanishini, ota-onalari kompyuterga himoya vositasi bo‘lgan “filtrlash” dasturini o‘rnatib qo‘ymaganliklari va farzandlari qanday saytlarga kirishini nazorat qilmasligini tan olishdi. Hozirda axborot media olamini kuzatish natijalari shundan dalolat beradiki, birinchi ko‘zga tashlanadigan holat buzg‘unchi g‘oyalarga yo‘g‘irilgan, kishilardagi osoyishtalik kayfiyatiga raxna soladigan, axborotlar uzatuviga zo‘r berish holatlaridir. Inson ruxiyati shunday xususiyatga egaki har qanday axborot hali to‘liq shakllanmagan, axborotlarning ishonchli yoki buzg‘unchi ekanligini o‘z ongida tahlil qila olmagan

insonda, axborotlar qaysidir ma’noda o‘z ta’sir doirasini qoldirish xususiyatiga ega bo‘ladi. Axborotlar ta’siriga tushib qolish yoki kirib qolish bu aksariyat holatlarda balog‘at yoshidagilarda, yoshlarda ko‘proq kuzatiladi, uchraydi. Globallashuv jarayonlari turli xil madaniyatlarning yaqinlashuvi, mamlakatlararo madaniy aloqalarni, tinchlik madaniyatiga erishuv imkoniyatlarini taqdim etishi bilan bir qator muammoli vaziyatlarni keltirib chiqargan. Masalan, “Ommaviy axborot vositalari va texnologiyalar rivojlanishi ijtimoiy ongda tijorat komponentlari ko‘payishi, madaniy sanoat yo‘nalishi ochilishi; zamonaviy turmush tarzini o‘zgarishi natijasida, inson iste’moli parametrlari o‘zgarishi, soddalashishi, hissiy-gedonistik kayfiyatni kuchayishi; kishilarning ijtimoiy tenglik va adolat haqidagi ideallari, unga intilishlari nafaqat tegishli ijtimoiy jarayonlarda, balki, badiiy asarlarning tegishli qismlarida va madaniy imtiyozlarda ham aks ettirilishi; shaxsning ma’naviy borlig‘iga nisbatan (to‘ldiruvchi) madaniyatni vazifasining kompensatorlik ahamiyatini oshirish. Yoshlar tarbiyasi zamon talablariga mos ravishda doimiy ravishda rivojlanib boradi. Hozirgi kunda yoshlar ongida ekologik va estetik qadriyatlarni shakllantirish, ularning tabiatga bo‘lgan munosabatini yuksaltirish, ayniqsa, ekoestetik idealni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik madaniyatda ham insonparvarlik, axloqiy-ma'naviy xislatlar o'z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekistonda Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. https://mitc.uz/uz.

2. O‘zbekiston milliy axborot agentligi ma’lumotlari. Prezident: yoshlarni tarbiyalashdagi muhim 5 ta tashabbus. http://uza.uz

3. Kamolova H.M., Tojiyeva I.S. Globallashuv sharoitida axborotxurujlari hamda ularning oldini olishdagi xalqaro va milliy tajribalar. Zamonaviy ta’lim. 2017, № 1. 62-69 b. https://cyberleninka.ru. --- 359 --- NamDU Ilmiy Axborotnomasi 2024-6-son 09.00.00-Falsafa fanlari

4. Narzullayev O. Yoshlarni internetdagi axborot xurujlari va mafkuraviy tahdidlardan asrash. http://fitrat.uz.

5. Shvesova A.V., Normanskaya A.V. Massovaya kultura kak problema sovremennogo obщyestva: obщyeteoreticheskiy analiz // Vestnik MGUKI ♦ 2016 ♦

6 (74) noyabr–dekabr. S-52. 6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 14 sentyabrdagi «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni. www.lex.uz.

7. Qodirov B., Jumaniyozov X., Qodirov B. Globallashuv sharoitida yoshlarda vatanparvarlik va daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalash masalalari. – T., 2015.

15. www.lex.uz. 16. http://fitrat.uz. 17. https://cyberleninka.ru. 18. http://uza.uz 19. https://mitc.uz/uz 20. http://www.adolatgzt.uz

ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING HAYOTIMIZGA TA'SIRI

Xolmamatova Jasmina
Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi
Sa'dullayeva Shahnoza Bahodirovna
Samarqand davlat chet tillari instituti o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada zamonaviy texnologiyalarning inson hayotining turli jabhalariga ko'rsatayotgan ta'siri tahlil qilinadi. Texnologik taraqqiyotning kundalik turmush tarzimiz, ta'lim, tibbiyot, aloqa, ish jarayoni va madaniy hayotga kiritgan yangiliklari yoritiladi. Shuningdek, texnologiyalardan foydalanishning ijobiy va salbiy jihatlari, ularning jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarga, odamlarning tafakkuri va dunyoqarashiga qanday ta'sir qilayotgani muhokama qilinadi. Maqola texnologik vositalardan oqilona va maqsadli foydalanish orqali inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ham o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: *zamonaviy texnologiyalar, hayot sifati, ijtimoiy ta'sir, innovatsiyalar, raqamli muhit, kundalik hayot, axborot texnologiyalari, ijobiy va salbiy jihatlar*

KIRISH

Bugungi kunda texnologiyalar hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Har bir sohada, har bir kasbda, hatto kundalik turmushda ham zamonaviy texnologiyalar mavjudligini his etmaslikning iloji yo'q. Axborot olish, muloqot qilish, ishlash, ta'lim olish, davolanish yoki hattoki dam olish kabi oddiy jarayonlar ham texnologik vositalarsiz tasavvur etilmaydigan darajaga yetdi. Bularning barchasi texnologik taraqqiyotning inson hayotiga qanday chuqur va keng qamrovli ta'sir ko'rsatayotganini anglatadi.

Texnologiyalar taraqqiy etgani sari insonning o'z dunyoqarashi, ish uslubi, o'qish va o'rgatish usullari ham o'zgarib bormoqda. Bu o'zgarishlar shunchaki texnik vositalarning ko'payishi emas, balki ijtimoiy ong, madaniyat va tafakkurda ham yangi davrni boshlab berdi. Shu bois zamonaviy texnologiyalar faqat vosita emas, balki jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Mazkur ishda aynan shu masalaning mohiyati, ya’ni texnologiyalar hayotimizga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani, ularning afzalliklari va e’tiborga loyiq jihatlari, shuningdek, yuzaga kelayotgan muammolar va ularni hal etish yo‘llari keng yoritiladi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy texnologiyalar bugungi hayotimizning barcha jabhalariga chuqur kirib kelgan. Ular orqali insonlar o‘z vaqtini tejash, vazifalarni tez va samarali bajarish, uzoq masofalardan turib ishlash va o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Har kuni turli texnologik vositalardan foydalanish oddiy odatga aylangan. Ular nafaqat qulaylik yaratuvchi vosita, balki inson faoliyatining yangi shaklini shakllantiruvchi kuchdir.

Masalan, ta’lim sohasida texnologiyalar darslarning interaktiv, ko‘rgazmali va talabaga yo‘naltirilgan shaklini yaratdi. O‘qituvchi darsni faqat og‘zaki ma’ruza tarzida emas, balki video, taqdimot, onlayn testlar va virtual mashqlar orqali tashkil qilmoqda. Talaba esa bilimni faqat tinglab emas, o‘rganib, tekshirib, tahlil qilib, amalda sinab ko‘rish orqali egallamoqda. Bu yondashuv o‘qitish jarayonini jonlantirib, o‘rganuvchining faol ishtirokini ta’minlaydi.

Tibbiyotda esa zamonaviy texnologiyalar kasalliklarni aniqlash, davolash va kuzatishda muhim vositaga aylandi. Hozirgi kunda shifokorlar onlayn maslahatlar beradi, bemorlar esa shaxsiy telefonlari orqali tahlil natijalarini kuzatadi, sog‘lig‘ini nazorat qiladi. Bu jarayon sog‘liqni saqlash tizimini tezkor, ochiq va o‘zaro bog‘langan holga keltirmoqda.

Ish sohasida esa turli masofaviy ish tizimlari, elektron hujjatlar aylanishi, raqamli platformalar yordamida tashkilotlar vaqt va resurslarni tejab, ish samaradorligini oshirmoqda. Hozirda turli kasblar vakillari ofisga bormasdan turib, dunyoning istalgan nuqtasidan o‘z faoliyatini yuritmoqda. Bu yondashuv ishchi va ish beruvchi o‘rtasida ishonch, erkinlik va natijaga yo‘naltirilganlikni kuchaytirmoqda.

Madaniyat va san’at sohalarida ham texnologiyalar orqali musiqalar yaratilmoqda, filmlar montaj qilinmoqda, suratlar raqamli tarzda ishlanmoqda.

Badiiy ifoda vositalari kengayib, ijodkorlar o‘z asarlarini tezda keng auditoriyaga taqdim etish imkoniga ega bo‘lmoqda. Bu esa madaniy aloqalarni mustahkamlab, milliy qadriyatlarni global miqyosda targ‘ib qilish imkoniyatini yaratmoqda.

Shuningdek, texnologiyalar odamlar o‘rtasidagi muloqotni yangiladi. Endilikda yaqinlar bilan uchrashish uchun masofa va vaqt to‘siq bo‘layotgani yo‘q. Turli messenjerlar, ijtimoiy tarmoqlar va videoaloqa vositalari orqali odamlar doimiy aloqada bo‘lib turishmoqda. Bu holat insonlar o‘rtasidagi hissiy bog‘liqlikni saqlab qolishda katta rol o‘ynamoqda.

Shu bilan birga, texnologiyalar hayotda muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Axborot haddan tashqari ko‘pligi, doimiy onlayn holatda bo‘lish, real muloqotning kamayishi kabi omillar inson psixologiyasiga ta’sir o‘tkazmoqda. Shu sababli texnologiyalardan foydalanishda ongli, muvozanatli va maqsadga yo‘naltirilgan yondashuv zarur.

Shunday qilib, zamonaviy texnologiyalar hayotimizni o‘zgartirgan, unga tezlik, qulaylik, ochiqlik va ijodiylik olib kirgan. Ammo ularni to‘g‘ri yo‘naltirish, boshqarish va pedagogik hamda ijtimoiy mas’uliyat bilan ishlatish dolzarb vazifadir.

Zamonaviy texnologiyalarning hayotimizdagi amaliy qo‘llanilishi (jadvalda misollar bilan)

Soha	Texnologiya qo‘llanilgan faoliyat yo‘nalishi	Amaliy misol
Ta’lim	Interaktiv dars tashkil etish	O‘qituvchi PowerPoint taqdimoti va onlayn test orqali dars o‘tadi, talaba esa LearningApps platformasida mustahkamlovchi mashq bajaradi.
Tibbiyot	Masofaviy maslahat va monitoring	Bemor mobil ilova orqali bosim o‘lchovini kiritadi, shifokor u orqali natijalarni tahlil qilib maslahat beradi.
Ish faoliyati	Masofaviy ish, onlayn hujjatlar almashuvi	Xodim Google Docs orqali hisobot tayyorlaydi, rahbar esa real vaqt rejimida uni tahrirlaydi va fikr bildiradi.
Madaniyat va san’at	Raqamli ijod, virtual taqdimotlar	Musiqachi onlayn studiya yordamida qo‘shiq yozadi va uni YouTube orqali auditoriyaga taqdim etadi.
Ijtimoiy muloqot	Onlayn aloqa, ijtimoiy tarmoqlar orqali suhbat	Odamlar Telegram yoki Zoom orqali tug‘ilgan kun yoki muhim tadbirni masofadan turib nishonlashadi.
Shaxsiy rivojlanish	Onlayn o‘quv kurslar, o‘z-o‘zini	Bir o‘quvchi Coursera yoki EduPage platformasida mustaqil

Soha	Texnologiya qo‘llanilgan faoliyat yo‘nalishi	Amaliy misol
	o‘rganish	ravishda yangi til yoki dasturlashni o‘rganadi.
Axborot almashinuvi	Elektron axborot vositalari orqali yangiliklar yetkazish	Matbuot agentligi Telegram kanali orqali dolzarb yangiliklarni bir necha daqiqa ichida keng auditoriyaga yetkazadi.

XULOSA

Zamonaviy texnologiyalar bugungi jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylangan. Ular inson faoliyatining barcha jabhalarida – ta’limda, sog‘liqni saqlashda, ish jarayonlarida, madaniyatda, axborot almashinuvida va shaxsiy rivojlanishda samarali vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Texnologiyalar yordamida inson hayoti qulaylashdi, tezlashdi va yanada interaktiv tus oldi. Endilikda o‘qitish va o‘rganish jarayonlari masofaviy va multimediaviy shaklda tashkil qilinmoqda, kasbiy faoliyat esa turli platformalar orqali istalgan joyda davom ettirilmoqda.

Shuningdek, texnologiyalar orqali insonlar o‘z ijodiy salohiyatini erkin ifoda etish, global axborotga tezkor kirish va o‘z ustida ishlash imkoniyatiga ega bo‘lishmoqda. Biroq bu imkoniyatlardan to‘g‘ri va maqsadli foydalanish zarurati ham ortmoqda. Chunki texnologiyalar noto‘g‘ri yoki haddan tashqari ko‘p ishlatilsa, inson ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Shu sababli, texnologiyalardan foydalanishda muvozanatni saqlash, ularni maqsadga yo‘naltirish, shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarga mos ravishda ishlatish muhim hisoblanadi. Faqat shunda texnologiyalar haqiqiy taraqqiyot vositasiga aylanishi, inson salohiyatini ochish va jamiyat farovonligini ta’minlashda xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Qodirov N. N. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va jamiyat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Xolboyeva M. Sh. Raqamli madaniyat va axborot xavfsizligi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021.
3. Ergashev M. Q. Texnologiyalar va innovatsiyalar: kundalik hayotda qo‘llanishi. – Samarqand: Ilm ziyo, 2022.

4. Teshaboyeva D. T. Zamonaviy ta’limda raqamli vositalarning o‘rni. – Buxoro: Pedagogika nashriyoti, 2023.

HOZIRGI ZAMONAVIY AXBOROTLASHGAN JAMIYATNING FALSAFIY MUAMMOLARI

Jabbarova X.K.
SamDCHTI dosenti v.v.b.

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy axborotlashgan jamiyatda yuzaga kelayotgan asosiy falsafiy muammolar tahlil qilinadi. Jumladan, axborot haddan tashqari yuklanishi (information overload), shaxsiylik va maxfiylik masalalari, epistemologik inqiroz (haqiqat va yolg‘on chegaralarining yo‘qolishi) kabi muammolarning mohiyati ochib beriladi. Klassik va zamonaviy falsafa vakillarining qarashlari asosida bu muammolarning inson tafakkuri, erkinligi va qadriyatlariga ta’siri yoritiladi. Muallif tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va falsafiy tafakkur orqali bu muammolarni yengib o‘tish yo‘llarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *axborot jamiyati, raqamli texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, nazorat jamiyati, shaxsiylikni himoya qilish, maxfiylik ва shaxsiylik (privacy) tushunchalari.*

Zamonaviy jamiyat ko‘pincha “axborot jamiyati” deb ataladi. Chunki kundalik hayotimiz, ijtimoiy munosabatlar, madaniy almashinuvlar va iqtisodiy faoliyatlar bevosita ma’lumotlar oqimi, tezkor kommunikatsiya va raqamli texnologiyalar bilan bog‘langan. Ammo bu texnologik taraqqiyot va axborot tezkorligining o‘ziga xos falsafiy, ma’naviy va ijtimoiy muammolari mavjud bo‘lib, ular chuqur tahlilni talab qiladi.

Axborot haddan tashqari yuklanishi — bu inson ongiga juda ko‘p miqdorda axborot tushishi natijasida uni to‘g‘ri qabul qilish, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonining qiyinlashuvi yoki izdan chiqishidir. Boshqacha qilib aytganda, bu holat shunday vaziyatni anglatadiki, inson qisqa vaqt ichida juda ko‘p va turli-tuman axborot oladi, lekin bu ma’lumotlar orasida asosiy, ishonchli va foydalisini tanlab olishga vaqt yoki imkon topolmaydi. Bu inson e’tiborini chalg‘itadi, diqqat sohasini toraytiradi, chuqur fikrlash va ijodiy nuqtayi nazarni susaytiradi. Natijada, inson charchaydi, stressga tushadi yoki noto‘g‘ri qaror qabul qiladi.

Misol uchun, biror mavzu haqida ma’lumot qidirayotgan odam bir nechta sayt, maqola, video va sharhlarni ko‘rib chiqadi. Har birida boshqacha fikrlar. Bu holat uni chalkashtirib yuboradi, natijada u nima to‘g‘ri, nima noto‘g‘riligini aniqlay olmaydi. Bu — axborot haddan tashqari yuklanishining yaqqol namunasidir.

Bunga qarshi kurashish yo‘llari ham mavjud. Bu ning uchun, axborotni saralab o‘qish (manba ishonchliligiga e’tibor berish), faqat kerakli ma’lumotni izlash, raqamli detoks (vaqtincha tarmoqdan chiqish) va rejalashtirilgan axborot qabul qilish vaqtlari kabilarni aytishimiz mumkin.

Falsafiy tahlil nuqtai nazaridan qaralganda, klassik falsafada bilish jarayoni faqat axborotni yig‘ish emas, balki uni ongli tarzda idrok etish, chuqur tahlil qilish va ma’naviy anglashni talab etadi. Ayniqsa, Sokrat falsafasida markaziy o‘rin egallagan “o‘zini bil” tamoyili — insonning ichki dunyosini, fikrlash qoidalarini va haqiqatga intilishini anglatadi.

Bugungi raqamli asrda esa, inson ongiga har lahzada yuzlab manbalardan oqib kelayotgan axborot oqimi — axborot shovqini — tafakkurni chalg‘itadi, e’tiborni bo‘linishiga sabab bo‘ladi. Bu esa haqiqat bilan yolg‘onni, zarur bilan ortiqcha axborotni ajratish qobiliyatini sezilarli darajada zaiflashtiradi.

Shunday sharoitda e’tiborni ongli boshqarish — bilimga yetaklaydigan muhim vositaga aylanadi. Chunki inson e’tiborini qaerga qaratayotgan bo‘lsa, ong ham o‘sha yo‘nalishda shakllanadi. Shu bois Sokratning qadimiy, ammo doimo dolzarb bo‘lgan “o‘zini bil” da’vati bugungi kunda “e’tiboringni boshqar” tamoyiliga yaqinlashadi.

Demak, axborot haddan tashqari yuklanishi sharoitida falsafiy yondashuv insonni o‘z fikr maydonini tartibga solishga, ongli tanlov qilishga va chuqur tafakkur orqali haqiqiy bilim sari intilishga chorlaydi.

Maxfiylik ва shaxsiylik (privacy) tushunchalari zamonaviy axborotlashgan jamiyatda juda muhim falsafiy va huquqiy masalalardan biridir. Maxfiylik — bu insonning o‘ziga oid shaxsiy axborotni boshqarish, kimga, qachon va qancha ma’lumot berishni tanlash huquqidir. Bu tushuncha insonning shaxsiy hayotiga, fikrlariga, his-tuyg‘ulariga va aloqalariga aralashmaslikni talab qiladi. Oddiy qilib aytganda, maxfiylik — bu “men haqimdagi ma’lumotlar faqat men istagan odamlar bilishi kerak” degan tamoyilni bildiradi.

Falsafada maxfiylik inson sha’ni va erkinligining bir bo‘lagi sifatida qaraladi. Masalan, Kantning axloqiy tamoyillarida inson o‘zini “maqsad” deb bilishi kerak, “vosita” emas. Bu degani: inson haqidagi axborot ham vosita emas, balki shaxsiy mulkdir.

Shuningdek, XX asr falsafasi vakillaridan biri M. Fuko “nazorat jamiyati” tushunchasini ilgari surib, har bir odamning harakati, fikri va axboroti nazorat ostida bo‘lishi xavfi haqida ogohlantiradi. Bu esa shaxsiylik erkinligiga tahdid soladi.

Zamonaviy texnologiyalar va raqamli platformalar hayotimizga qulaylik olib kirgani bilan birga, shaxsiy hayot va axborot maxfiyligiga katta tahdid tug‘dirmoqda. Shu bois bugungi axborot muhitida har bir insonning harakati,

yozishmalari, e‘tiqodi va qiziqishlari kuzatilishi mumkin. Bu esa shaxsiylik erkinligiga putur yetkazadi. Shuni aytish mumkinki, maxfiylik — bu nafaqat texnik, balki axloqiy va falsafiy masala. Shaxsiylikni himoya qilish — inson sha’nini, erkinligini, ichki dunyosini himoya qilish bilan barobardir.

Bugungi kunda raqamli axborot jamiyatida har kim fikr bildiradi, turli axborotlar oqimi mavjud, lekin ularning:

- haqiqatga asoslangani,
- manbalari qanchalik ishonchli ekani,
- nimasi real, nimasi manipulyatsiya ekanini ajratish tobora qiyinlashmoqda.

Natijada epistemologik inqiroz yuzaga keladi, ya’ni insonlar nima haqiqat, nima yolg‘on — ajrata olmay qoladilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, hozirgi axborotlashgan jamiyatda falsafiy muammolar qatlamma-qatlam, epistemologik, ma’naviy-etik, ijtimoiy-siyosiy va identitetga oid masalalar bir-biriga bog‘langan holda namoyon bo‘lmoqda. Ularni hal etish real voqelikni tahlil qilish, tanqidiy fikrlash va falsafiy dialogni rivojlantirish yo‘li bilan mumkin. Shu orqali nafaqat bilim o‘rganamiz, balki inson qadriyatlarini saqlay olamiz.

Bu muammolarni yengish uchun, tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va falsafiy tafakkur kabi kompetensiyalarni rivojlantirish muhim. Bu orqali nafaqat to‘g‘ri axborotni ajratish, balki inson sha’ni, qadriyati va erkinligini saqlab qolish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Z.Sharipov. “Zamonaviy falsafaning dolzarb muammolari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Falsafa. 2022. 97 b.
2. Джаббарова, Х. (2025). Ijtimoiy tadqiqotlarda raqamlashtirishning ahamiyati. *Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования*, *1*(1), 319-321.
3. Иргашова, С., & Джаббарова, Х. (2025). Yoshlarning fuqarolik pozitsiyasin1 shak1llantirishda ijtimoiy tarmoqlarning o‘rni. *Диалог, интеграция наук и культур в процессе научного и профессионального образования*, *1*(1), 531-533.
4. Qizi, B. M. F., & Jabbarova, X. K. (2024). Ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va yoshlar dunyoqarashi. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 19), 857-858.
5. Kuvandikova, J. H., & Zulkifli, C. Z. (2025, march). The introduction of innovative technologies in the educational process current issues and solutions. In *international conference on interdisciplinary science* (vol. 2, no. 3, pp. 57-60).

6. Жаббарова, Х. К. (2024). Замонавий технологиялар ва таълимдаги ёшлар. *Science and innovation*, *3*(Special Issue 19), 768-770.

МАРТИН ХАЙДЕГГЕРНИНГ ФАЛСАФИЙ ИЖОДИДА ТЕХНИКАНИНГ ҲУКМРОНЛИГИ

Солиева Зарина Ботировна
Самарқанд давлат чет тиллар институти
zarina.solieva1981@gmail.com

Аннотация: Мартин Хайдеггернинг фалсафий ижодида техниканинг ҳукмронлиги техниканинг замонавийликнинг асосий хусусияти ва инсон мавжудлиги учун жиддий хавф сифатида тасвирланади. Унинг "Техника масаласи" каби асарларида техника фақат асбоб-ускуналар тўплами эмас, балки борлиқнинг (Sein) очилишининг асосий усули, "Гештелл" (Gestell) деб аталадиган онтологик тартиб сифатида талқин қилинади. Бу тартиб табиатни инсоннинг хом ашёсига айлантириб, унинг табиий жараёнларини техник ҳисоб-китобларга бўйсундиради. Натижада инсон борлиқнинг моҳиятини унутиб, уни фақат восита сифатида кўради, бу эса экологик ва экзистенциал инқирозга олиб келиши мумкин. Хайдеггернинг таҳлили техниканинг ҳукмронлигига қарши курашиш ва борлиқни ҳақиқий англашни талаб қилади.

Калит сўзлар: техника, борлиқ, экологик , экзистенциал, энергияни олиш, табиат, эксплуатация.

Abstract: In the philosophical works of Martin Heidegger, the dominance of technology is portrayed as a key characteristic of modernity and a serious threat to human existence. In his works, such as "The Question Concerning Technology," technology is interpreted not simply as a set of tools and equipment, but as the primary way of revealing Being (Sein), as an ontological order called "Gestell." This order transforms nature into human raw material, subordinating its natural processes to technical calculations. As a result, humanity forgets the essence of Being and sees it only as a means, which can lead to ecological and existential crises. Heidegger's analysis calls for a struggle against the dominance of technology and a genuine understanding of Being.

Keywords*: technology, Being, ecological, existential, energy extraction, nature, exploitation.*

Аннотация: В философском творчестве Мартина Хайдеггера господство техники изображается как основная характеристика современности и серьезная угроза для человеческого существования. В его работах, таких как "Вопрос о технике", техника трактуется не просто как

набор инструментов и оборудования, а как основной способ раскрытия бытия (Sein), как онтологический порядок, называемый "Гештелл" (Gestell). Этот порядок превращает природу в человеческое сырье, подчиняя ее естественные процессы техническим расчетам. В результате человек забывает о сущности бытия и видит его только как средство, что может привести к экологическому и экзистенциальному кризису. Анализ Хайдеггера требует борьбы с господством техники и подлинного понимания бытия.

Ключевые слова: *техника, бытие, экологический, экзистенциальный, извлечение энергии, природа, эксплуатация.*

Мартин Хайдеггернинг ижодида техниканинг ҳукмронлиги марказий мавзулардан бири бўлиб, унинг "Техниканинг Моҳияти" (Die Frage nach der Technik) асарида энг аниқ ифодаланган. Хайдеггер техникани фақат восита ёки инструмент сифатида кўрмайди, балки уни мавжудотнинг ўзига хос бир тарзи, яъни "Гешталт" деб ҳисоблайди. Унинг таъкидлашича, техника инсоннинг табиат билан муносабатига чуқур таъсир кўрсатади ва унинг мавжудотни англашини ўзгартиради.

Хайдеггернинг таҳлилида техниканинг ҳукмронлиги қуйидаги жиҳатларда намоён бўлади:

1. "Энергияни олиш" (Gestell): Бу Хайдеггер томонидан ишлатиладиган муҳим тушунча бўлиб, табиатнинг инсон томонидан хом ашёга айлантирилиши ва унинг табиий жараёнларининг техник ҳисоб-китобларга бўйсундирилишини ифодалайди. Табиат энди "заҳира" (Bestand) бўлиб, инсоннинг иродасига бўйсунади. Бу ёндашув табиатга нисбатан асосан эксплуатациявий муносабатни юзага келтиради.

2. "Ҳисоблаш" ва "назорат": Техника ҳамма нарсани ҳисоблашни ва назорат қилишни талаб қилади. Бу Хайдеггернинг фикрича, инсоннинг мавжудотни табиий тушунишига ҳалақит беради ва унинг мавжудот билан муносабатини сунъийлаштириб юборади.

3. Мавжудотнинг "унутилиши": Техниканинг ҳукмронлиги мавжудотнинг моҳиятини англашга тўсқинлик қилади. Инсон техниканинг таъсири остида мавжудотнинг ўзини унутиб қўяди ва уни фақат "восита" сифатида кўради.

4. Инсоннинг "хавф-хатарда қолиши": Хайдеггер техниканинг ҳукмронлигини инсон учун катта хавф-хатар сифатида кўради. Техниканинг чексиз ривожланиши инсонни ўз табиатидан узоқлаштириб, унинг мавжудотни англашини бузиши мумкин. Ушбу хавф-хатар экологиявий муаммолардан то глобал катастрофаларгача бўлган турли хил оқибатларга олиб келиши мумкин.

Хайдеггер техниканинг ҳукмронлигига қарши курашиш учун мавжудотни англашга янгича ёндашувни талаб қилади. Унинг фикрича, инсон техникани фақат восита сифатида кўришни бас қилиши ва мавжудотнинг моҳиятини англашга ҳаракат қилиши зарур. Бу эса мавжудотга нисбатан эҳтиромли ва масъулиятли муносабатни талаб қилади.

Хайдеггернинг техниканинг ҳукмронлиги ҳақидаги фикрлари ҳозирги замон фалсафаси, экология, технология ва ижтимоий фанлар учун муҳим аҳамиятга эга. Унинг таҳлили инсоннинг табиат билан муносабати, технологик ривожланишнинг оқибатлари ва мавжудотни англаш масалаларини қайта кўриб чиқишга ундайди.

Хайдеггернинг фалсафий ижодида техниканинг ҳукмронлиги замонавий инсон мавжудлигининг чуқур инқирозини акс эттиради. У техникани фақат восита сифатида эмас, балки борлиқни очишнинг (Gestell) ўзига хос усули сифатида кўради. Бу усул табиатни инсоннинг хом ашёсига айлантириб, унинг табиий жараёнларини техник ҳисоб-китобларга бўйсундиради. Натижада, инсон борлиқни унутиб, унинг моҳиятини англашни тўхтатади. Хайдеггернинг фикрича, бундай ҳолат экологик ва экзистенциал хавф туғдиради. Унинг таҳлили техникага бўлган муносабатимизни қайта кўриб чиқиш ва борлиқни ҳақиқий англашга чақиради, бу эса янги онтологик тажрибани талаб қилади.

Фойдаланилган адабиётлар руйхати

1. Мотрошилова Н. В. Драма жизни, идей и грехопадения Мартина Хайдеггера//Философия Мартина Хайдеггера и современность. М. 1991. С.44.
2. Heidegger M. Ursprung des Kunstwerks // Holzwege // Gesamtausgabe, Bd. 5. FaM.:VittorioKlostermann,1977.p.25,43
3. Хайдеггер М. Вопрос о технике // Время и бытие: Статьи и выступления /М.Хайдеггер.М.,1993.С.221.
4. Целух С. Мартин Хайдеггер – философ бытия и времени. Текст доступен на сайте: http://www.lomonosov.org/article/martin_haidegger.htm
5. Soliyeva, Z. (2024, April). M. Xaydegger falsafadagi “borliq” tushunchasi (“borliq va zamon”). In Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit (pp. 563-565).

ЦИФРОВЫЕ ИНСТРУМЕНТЫ И ИНКЛЮЗИВНАЯ ПЕДАГОГИКА: КАК СДЕЛАТЬ ОБУЧЕНИЕ ЯЗЫКАМ ДОСТУПНЫМ ДЛЯ ВСЕХ

Буранова Мадина Уктамовна,
PhD, доцент кафедры английского языка
Самаркандский государственный институт иностранных языков
madinaburanova82@gmail.com

Аннотация: Статья посвящена использованию цифровых инструментов в инклюзивной педагогике для создания доступной среды обучения иностранным языкам. Рассматриваются возможности цифровых технологий в улучшении доступности образовательных материалов для студентов с различными образовательными потребностями. Описаны основные преимущества использования технологий, таких как адаптивные платформы, онлайн-ресурсы и приложения для индивидуализированного обучения. В статье также обсуждаются подходы к интеграции цифровых инструментов в уроки иностранных языков с учетом принципов инклюзивности и равенства. Цель работы — показать, как цифровые технологии могут способствовать инклюзивному обучению и обеспечить равные возможности для всех студентов.

Ключевые слова: *цифровые инструменты, инклюзивная педагогика, доступность образования, обучение языкам, адаптивные платформы, технологии в образовании*

Введение

В последние десятилетия технологии стремительно изменяют образовательный процесс, предлагая новые возможности для учащихся с различными потребностями. Особенно актуальным является использование цифровых инструментов для поддержки инклюзивного обучения, где каждый студент имеет возможность учиться в своем собственном темпе и согласно своим особенностям. В области обучения языкам технологии играют важную роль в создании гибкой и доступной образовательной среды. Цифровые инструменты, такие как онлайн-курсы, обучающие приложения и платформы, могут существенно улучшить качество образования, обеспечивая доступ к образовательным материалам для студентов с ограниченными возможностями и различными образовательными потребностями.

Развитие цифровых технологий открывает новые горизонты в инклюзивном образовании, позволяя адаптировать процесс обучения под индивидуальные особенности учащихся. Особенно значимо это для преподавания иностранных языков в многоуровневой аудитории, где

используются мультимедийные ресурсы, интерактивные платформы и мобильные приложения (Buranova & Buranova, 2020).

Адаптивные технологии, такие как платформы с возможностью настройки под индивидуальные потребности учащегося, позволяют предложить различные способы подачи материала в зависимости от уровня подготовки и предпочтений учащегося. Например, использование текстовых и аудиоматериалов помогает студентам с нарушениями слуха или зрения, а также тем, кто изучает язык как иностранный (Бакирова, 2017).

Цифровые технологии помогают преодолеть барьеры, с которыми сталкиваются студенты с ограниченными возможностями. Использование адаптивных платформ, таких как Google Classroom или Moodle, позволяет преподавателям варьировать методы подачи материала, делая его доступным для всех (Buranova & Rakhmonova, 2020).

Мобильные приложения для изучения языков, такие как Duolingo, Babbel и Memrise, позволяют студентам самостоятельно развивать языковые навыки в удобном для них формате. Эти приложения обеспечивают гибкость, позволяя учащимся учиться в любое время и в любом месте, а также предоставляют инструменты для отслеживания прогресса, что является важным элементом инклюзивного подхода (Ахмедова, 2019).

Изучение иностранных языков невозможно без развития навыков чтения. Как показывает Buranova (2021), цифровое чтение способствует повышению аналитических и критических навыков, а также формирует самостоятельность в обучении. Это особенно важно в условиях, где доступ к бумажным источникам ограничен или отсутствует.

В инклюзивной аудитории ключевым фактором является вовлечённость студентов. Исследования показали, что студенты, имеющие доступ к цифровым ресурсам, демонстрируют более высокий уровень вовлечённости и самостоятельности в обучении. Использование мультимедийных и интерактивных материалов стимулирует интерес студентов и делает процесс обучения более увлекательным. Геймификация, применяемая в обучающих приложениях, может существенно повысить мотивацию студентов, особенно тех, кто сталкивается с трудностями в традиционном обучении (Ганиева, 2018). Интерактивные упражнения, визуальные словари и видеоматериалы делают обучение живым и персонализированным (Buranova & Rakhmonova, 2020).

Несмотря на очевидные преимущества, использование цифровых инструментов в инклюзивном обучении сталкивается с рядом проблем. Одной из них является доступность технологий: в некоторых регионах или учебных заведениях может не быть необходимого оборудования или

интернета для использования цифровых платформ. Кроме того, важной проблемой является необходимость обучения преподавателей работе с новыми технологиями, что требует дополнительных усилий и времени (Бакирова, 2017). Кроме того, многие педагоги нуждаются в методической поддержке для адаптации цифровых ресурсов к потребностям студентов с ОВЗ (Абдуллаев, 2020).

Заключение:

Цифровые технологии предоставляют эффективные решения для создания инклюзивной образовательной среды. Работы узбекских исследователей (Buranova, 2021; Ахмедова, 2019) демонстрируют, что при правильной методической поддержке и техническом обеспечении преподавание иностранных языков может стать доступным для всех категорий студентов.

Цифровые инструменты представляют собой мощный ресурс для инклюзивного обучения, создавая равные возможности для всех студентов. Они позволяют адаптировать образовательный процесс под индивидуальные потребности учащихся, обеспечивая доступность учебных материалов и повышая мотивацию студентов. Однако успешная интеграция технологий в обучение требует устранения проблем, таких как доступность ресурсов и подготовка преподавателей. Важно, чтобы образовательные учреждения продолжали развивать цифровые компетенции и инвестировали в технологии, обеспечивающие инклюзивность в обучении.

Список литературы:

1. Ахмедова, Н. (2019). Использование мобильных приложений для инклюзивного обучения. Проблемы и перспективы в обучении языкам, 4(2), 123–128.

2. Бакирова, Л. (2017). Адаптивные технологии в обучении иностранных языков: пути интеграции. Теория и практика образования в Узбекистане, 2(3), 45–50.

3. Абдуллаев, М. (2020). Инклюзивное обучение в условиях цифровизации: перспективы и вызовы. Современные тенденции образования, 5(1), 67–74.

4. Ганиева, М. (2018). Применение цифровых технологий в инклюзивном обучении. Управление образованием и инновации, 6(4), 99–104.

5. Buranova, M. U., & Buranova, L. U. (2020). New Modern Trends in Teaching Foreign Language. International Journal of Research, 7(04).

6. Buranova, M. U., & Rakhmonova, G. A. (2020). Improving Students' Ability to Think Critically and Analytically. October.

7. Buranova, M. U. (2021). Reading in a Foreign Language and Its Role in Educational Process in Non-Linguistic Universities. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 186–193.

8. UNESCO. (2009). Policy Guidelines on Inclusion in Education. UNESCO Publishing.

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING ZAMONAVIY YOSHLARNING OMMAVIY ONGIGA TA'SIRINING IJTIMOIY-FALSAFIY JIHATLARI

Ziyatova Iroda Suyunovna
Samarqand davlat chet tillar instituti
mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola hozirgi shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda ommaviy axborot vositalarining yoshlar ongiga ta’siri yoshlarning ommaviy ongini shakllantirishdagi o’rni hamda ahamiyati, mazkur tizimda dunyo mamlakatlari va respublikamiz miqyosida amalga oshirilayotgan samarali islohotlar to’g’risida fikr yuritiladi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalarining bugungi tezkor rivojlanayotgan davr va uning yoshlar uchun ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so’zlar: *yoshlar ommaviy ongi, media makon, ommaviy axborot vositalari, axborot, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy madaniyat, axborot texnologiyalari, yoshlar huquqlari, axborot kodeksi.*

Abstract: This article discusses the role and importance of the influence of the media on the minds of young people in the current rapidly developing era, the role and importance of the media in shaping the public consciousness of young people, and the effective reforms being implemented in this system in countries around the world and in our republic. It also reveals the rapidly developing era of the media and its importance for young people.

Key words: *youth mass consciousness, media space, mass media, information, social networks, mass culture, information technologies, youth rights, information code.*

Bugungi globallasuv va shiddat bilan rivojlanib borayotgan davrda dunyoda soat sayin turli sohalarda rivojlanishlar hamda ko’plab o'zgarishlar bo’layotganligini guvohi bo’lish mumkin. Mamlakatimizda ham barcha sohalar davr bilan hamohang ravishda rivojlanib, yangi zamonaviy texnologiyalar asosida dunyo sahniga qadam qo'ymoqda. Bu o’z-o’zidan mamlakatimizda milliy

rivojlanishning navbatdagi bosqichi ya’ni Yangi O‘zbekistonda Uchinchi Renessans davrining boshlanganligi bilan bevosita bog’liqdir.

Ma’lumki, o’sib kelayotgan yoshlar xalqimiz va mamlakatimizning bebaho boyligidir. Shu ma’noda, Prezidentimizning 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Farmoni mazkur tizimli ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar eng avvalo, o'zbekiston yoshlarining sog'lom dunyoqarshini shakllantirish uchundir. Ushbu maqsad yo'lida har bir yosh o'z oldiga kattta marralar qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish davlat va jamiyat uchun eng ustun vazifa bo'lishi zarur. Bu esa yosh avlod tarbiyasiga har doimgidanda ko'proq mas'uliyatli va befarq bo'lmaslikni talab etish bilan masalaning dolzarbligini ifodalaydi.[1]

Aytish o’rinli bo’ladiki, ommaviy axborot vositalari jamiyatni demokratlashtirish, yoshlarning siyosiy erkinligini ta'minlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda gazetalar, jurnallar, axborotnomalar, byulletenlar, axborot agentliklari, televideniye (kabelli, efir-kabelli televideniye) va radioeshittirishlar, hujjatli kino, elektron axborot tizimi, shuningdek, doimiy nomga ega bo‘lgan, davlat tasarrufidagi, mustaqil va boshqa ommaviy davriy nashrlar ommaviy axborot vositalari hisoblanadi.[5]

Jahon hamjamiyatida mamlakatimiz imidjini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish, xalqaro ommaviy axborot vositalarida va xalqaro media makonda muntazam maqolalar chop etib borish, mamlakat erishgan yutuqlarni keng jamoatchilikka targ'ib qilish uchun brifinglar, davra suhbatlari , konfrensiyalar , muntazam o'tkazib borish , xalqaro maydonda O'zbekistonning ijobiy imijini ilgari suradigan xorijiy ommaviy axborot vositalari bilan O'zbekiston haqidagi batafsil mualliflik materiallarini davriy asosda nashr etish kabi vazifalar ”Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”ga binoan 2022-2026-yillarda amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan. [6]

Global rivojlanayotgan davrda jahon media makoniga ommaviy axborot vositalari orqali chiqish mumkin bo'lgan hozirgi zamonda, axborotning xolisligi , to'g'riligi mamlakatlarning xalqaro maydondagi imijiga ta'sir qiladi. Shu jihatdan axborot siyosatida xatoga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shiddat bilan yuksalib borayotgan fan-texnika asrida ommaviy axborot vositalarining , internetning va ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda uning yoshlarning ommaviy ongiga, ularning yangiliklarga chanqoq ongiga salbiy ta'sirining ham guvohi bo'lyapmiz. Shu sababdan yoshlar ongi va dunyoqarashi masalasida gap ketganda axborot makonidagi turli xil zararli ma'lumotlardan saqlash mexanizmini ishlab chiqish juda muhimdir.

Ma’lumki, bugungi davrda axborotlar yordamida olib boriladigan informatsion urushlarda asosan yoshlarning ongi va qalbi nishonga olinadi. Yoshlarning ongiga berilgan zarbalar ularni adashtiradi, o'z manfaatlariga zid harakat qilishga undaydi. Ommaviy axborot vositalarida, xususan, internetda jamiyatning ma'naviy taraqqiyoti, shaxsning, ayniqsa hali ongi shakllanib ulgurmagan yosh bo'g'inlarning dunyoqarshiga, g'oyaviy tarbiyasiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalar afsuski oz emas.

Ijtimoiy tarmoqlarda beriladigan materiallarni tahlil qilinsa noxolis, shubhali ko'rinishdagi axborotlar, axloqiy buzuqlik, tajovuzkorlik va zo'ravonlikka undaydiganligi bilinib turadi. Internet sahifalarida aks ettirilayotgan bunday urinishlar barchamizdan yoshlarning ommaviy ongiga salbiy ta’sir etadigan bu kabi ma’lumotlardan muntazam ravishda sezgir va ogoh bo'lishni taqozo etmoqda.

Bugungi globallashuv sharoitida ommaviy axborot vositalarining zamonaviy yoshlarning ommaviy ongiga qanday ta'sir etishini o’rganish dolzarsiz masaladir. 2020-yil 23-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi tarixiy nutqida Tashkilotga a’zo davlatlarni **Yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo‘yicha O‘zbekiston tashabbusini qo‘llab-quvvatlash**ga chaqirdi.[3]

Shuningdek, yoshlar huquqlari to‘g‘risidagi Birlashgan Millatlar Tashkiloti konvensiyasini qabul qilish bo‘yicha tashabbus jahon miqyosida yoshlar huquqlariga doir muhim masalalarni o‘zida ifoda etgan xalqaro huquqiy hujjatni qabul qilishni nazarda tutuvchi ilk taklif ekanligi bilan ahamiyatlidir. Bu esa o’z navbatida mamlakatimizning yoshlarga bo’lgan e’tiboridan dalolat.

Ta’kidlash o’rinliki, dunyo miqyosida ikki milliarddan ortiq yoshlarning tafakkurini har tomonlama rivojlantirish borasida juda ko’p davlatlar va xalqaro tashkilotlarda yoshlar masalasi borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Rivojlangan davlatlar statistikasiga yuzlanadigan bo’lsak Angliya bolalar himoyasi tashkilotiga ko’ra, “like”lar soni yoshlarga doimiy bosim va bezovtalik beradi.“11-12 yoshli maktab o’quvchilariga raqamli texnologiya savodxonligi majburiy o’qitilishi kerak. Maktablarda internetdan to’g’ri foydalanishni o’rgatishadi, lekin emotsional ta’sir biroz chetda qoladi”,- deydi Angliya bolalar himoyasi tashkilotidan Anni Longfild. Ba’zan his-tuyg’ulari to’liq shakllanib ulgurmagan bolalar taqdiri o’z joniga qasd qilish bilan tugashi ham mumkin. O’smirlar o’limi aynan ijtimoiy tarmoqlardagi bosim tufayli sodir bo’layotgani ilmiy isbotini topmagan bo’lsada, 2010-2015-yillarda ko’rsatkichlar keskin ko’tarilgan. Tadqiqotchilarning yana bir kuzatuvi - ijtimoiy tarmoqlarga bog’lanib qolganlar kuchli uyqusizlikka duchor.[9]

Bugungi kunda yoshlar orasida ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari soni yildan-yilga ortib bormoqda. Shinisi qiziqki, faol ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilarining aksariyatini yoshlar va voyaga yetmaganlar tashkil etadi. Respublikada yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy asoslarini mustahkamlash maqsadida 2017 — 2020-yillarda 50 dan ortiq qonun va qonunosti hujjatlari, 30 dan ortiq xalqaro huquqiy hujjatlar ratifikatsiya qilindi. [8]

Internet tarmog‘larida o`quvchi, talaba-yoshlar va ayniqsa uyushmagan yoshlarning ongiga juda katta putur yetkazishi mumkin bo`lgan behayolikni tarqatuvchi, turli ko`ngilochar onlayn o`yinlar, oilaviy me’yorlarni rad etadigan hamda jamiyatda, fuqarolar o`rtasida zararli va axloqsiz g`oyalarini yoyadigan kontent va saytlarga qarshi tura olish har bir fuqaroning eng muhim vazifasidir.[7]

Xulosa o’rnida aytish kerakki, el-yurtimizning, yoshlarimizning ezgu orzu-istaklarini ro’yobga chiqarish, ularning turli yomon yo’llarga kirib ketishlarini oldini olish, ularning siyosiy va huquqiy tafakkurini yukslatirish, bu yo’lda g’ov bo’lib turgan turli to’siqlarni, byurokratizm, loqaydlik, ta‘magirlik, korrupsiya kabi salbiy illatlarni dadillik bilan ko’tarib chiqib, ularga qarshi murosasiz jamoatchilik fikrini shakllantirish tom ma’noda ommaviy axborot vositalarining vazifasi. Yoshlarning ommaviy ongiga ta'sirning salbiy tahdidlar sifatida g`araz maqsadlarda amalga oshirilayotgan tashqi g`oyaviy ta’sirlarni tadqiq va tahlil etish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, jamiyatda, uning zamonaviy boshqaruv tizimida oshkoralikni ta‘minlash, jamoatchilik bilan aloqalarni takomillashtirishda ommaviy axborot vositalarining ana shu sa‘y - harakatlari jamiyat boshqaruvi tizimida o’z samarasini ko’rsatishi shubhasiz.

Bugungi dunyo hamjamiyatini havotirga solayotgan illatlar: yolg’on va isbotsiz axborotlar berish, insonlarni o‘zaro tarqoq holga keltirish, zo‘ravonlikni targ‘ib qilish va soxta xabarlar tarqatish kabi masalalar bizning ham muammolarimizdir. Ushbu muammolarni oldini olish, qaysidir ma’noda yoshlarning javobgarlik hissini oshirish maqsadida yoshlarning ommaviy ongiga milliy qadriyatlarimiz va o’zligimizda shakllantirish choralarini ko’rishimiz zarur deb o’ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

10. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida»gi farmoni. 05.07.2017y. www.lex.uz

11. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (yangi tahriri 30.04.2023). www.lex.uz.

12. S. Mirziyoyeva “Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti (EXHT)ning OAV erkinligi bo‘yicha tashkil etilgan Markaziy Osiyo media konferensiyasi”. 09.09.2021y.

13. O’zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2020 yil 23 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasidagi nutqi.

14. O‘zbekiston Respublikasining – “Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida’’gi qonuni (yangi tahriri). – www.lex.uz.

15. “Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi’’. 28.01.2022y. PF-60. www.lex.uz.

16. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarosi, 04.02.2022y. SQ-479-IV-son. www.lex.uz.

17. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’grisida’’gi 18.01.2021 yildagi 23-son qarori. www.lex.uz.

18. Amerika ovozi “Yosh avlodga internetning ta’siri qanday’’. 12.01.2018y.

ИНФОРМАЦИЯ И ЛИЧНОСТЬ: ЭТИЧЕСКИЕ И СОЦИАЛЬНЫЕ УГРОЗЫ ЦИФРОВОЙ ИНФОРМАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ИДЕНТИЧНОСТИ

Амридинова Дилрабо Турсуновна,
Ташкентский университет прикладных наук,
профессор кафедры истории и общественных наук
доктор философских наук (DSc).
Email: dilrabo@1971mail.ru

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние цифровых информационных потоков на личность с философской точки зрения в условиях современного информационного общества. Особое внимание уделено этическим и социальным угрозам, возникающим в процессе формирования личности под воздействием информации в виртуальной среде. Раскрывается влияние цифровой информации на сознание, осознание собственной идентичности и принятие моральных решений. Обосновывается необходимость формирования культуры цифровой информации для защиты личности и укрепления сознания в современном обществе.

Ключевые слова: *информация, личность, идентичность, этические угрозы, социальная среда, цифровое общество, виртуальная реальность, сознание, информационная безопасность.*

Annotatsiya: Ushbu maqola raqamli axborot oqimlarining shaxsga ta'sirini zamonaviy axborot jamiyati kontekstida falsafiy nuqtai nazardan ko'rib chiqadi. Virtual muhitdagi axborot ta’sirida shaxs shakllanishi jarayonida yuzaga keladigan axloqiy va ijtimoiy tahdidlarga alohida e’tibor qaratiladi. Raqamli ma'lumotlarning ongga ta'siri, o'z shaxsiyligini anglash va axloqiy qarorlar qabul qilishda aniqlangan. Zamonaviy jamiyatda shaxsni himoya qilish va ongni mustahkamlash uchun raqamli axborot madaniyatini shakllantirish zarurati asoslanadi.

Kalit so'zlar: *axborot, shaxs, o'ziga xoslik, axloqiy tahdidlar, ijtimoiy muhit, raqamli jamiyat, virtual haqiqat, ong, axborot xavfsizligi.*

Введение

В современную эпоху человечество вступило в новую цивилизационную фазу, которую принято называть "информационным обществом". Развитие информационных технологий глубоко проникло во все сферы жизни, поставив человека перед новыми вызовами в процессе осознания и формирования своей идентичности. Особенно тревожным является влияние избыточного, быстрого и манипулятивного характера цифровой информации, что вызывает как этические, так и социальные проблемы в становлении личности.

Информация играет ключевую роль в любом обществе как ресурс. Как отмечают В.О. Мельников и соавторы, в современном мире информация приравнена к таким производственным факторам, как труд, капитал и земля, и рассматривается как основа общественного прогресса [1]. Следовательно, содержание и качество информационных потоков имеют не только экономическое, но и философское и этическое значение.

Основная часть

Онтология информации и личности

Для понимания взаимоотношений между информацией и идентичностью необходимо проанализировать онтологическую природу информации. Согласно А.Д. Урсулу, информация представляет собой отражённое многообразие и существует в любой материальной форме. Личность в этом контексте — это социальное сознание, способное воспринимать и перерабатывать это многообразие.

Идея о том, что личность формирует самосознание через внешнюю информацию, соответствует принципам социального конструктивизма. Согласно этой позиции, человек осознаёт и формирует свою идентичность через знаки, символы и информацию, циркулирующую в социальном

пространстве [2]. Однако этот процесс подвержен постоянным манипуляциям.

Угрозы цифровой информации

В современных интернет- и социальных сетях наблюдается рост распространения недостоверной, искажённой или аморальной информации. Это оказывает значительное влияние на процессы самопознания, самоидентификации и морального выбора, особенно среди молодёжи.

Стереотипы, сцены насилия, фейковые новости снижают способность личности к критическому осмыслению происходящего. На смену рефлексии приходят готовые шаблоны, что ведёт к моральному релятивизму и обезличиванию [4].

Виртуальная реальность и риск утраты идентичности

Во взаимодействии с виртуальной реальностью человек начинает примерять на себя различные социальные роли, что может подорвать его внутреннюю целостность. Чрезмерная привязанность к виртуальной среде, порождающая феномен "cyber-self", снижает чувство ответственности и приводит к расщеплению идентичности [5].

Особую актуальность приобретает философский анализ онтологических угроз: доминирование искусственного сознания, иллюзорность виртуального существования, тревога перед утратой "Я". Эти процессы требуют концептуального осмысления на пересечении философии и информатики.

Моральный выбор и манипуляция информацией

Моральные решения человека нередко основываются на доступной информации. При наличии манипулятивной, искажённой или фрагментированной информации формируются ложные установки и возникают моральные ошибки.

Данный процесс целесообразно рассматривать в рамках информационной этики [3], согласно которой распространение информации должно опираться на такие ценности, как уважение, истина и справедливость. В противном случае возникает феномен "информационного насилия".

Культура информации и механизмы защиты

Одним из эффективных ответов на угрозы цифровой информации является формирование информационной культуры и развитие медиаграмотности. Люди должны уметь анализировать цифровую информацию, проверять источники и мыслить критически.

Кроме того, государственные и общественные институты должны выстраивать политику информационной безопасности. Для молодёжи необходимо создание этически ориентированного, культурного и

воспитательного контента. Эти направления отражены в национальной концепции информатизации Республики Узбекистан [6].

Заключение

Формирование личности осуществляется в процессе постоянного информационного взаимодействия. В цифровом обществе этот процесс усложнился: избыток информации и её манипулятивность создают риск формирования идентичности, лишённой моральной опоры.

Дополнение к анализу отечественных исследований

Современные исследования узбекских ученых подтверждают необходимость философского и технологического осмысления образования и информационной среды. В частности, Амридинова Д.Т. и Хакимов Н.Х. отмечают, что в условиях нового этапа развития Узбекистана высшее образование требует инновационных подходов и опоры на научно обоснованные стратегии [7]. В продолжение этой темы Амридинова подчеркивает важность внедрения информационных технологий в процесс преподавания гуманитарных дисциплин, акцентируя внимание на эффективности цифровых инструментов для повышения качества обучения [8]. Кроме того, она выделяет философские аспекты качественного образования, указывая на необходимость комплексного подхода, учитывающего как содержательные, так и этические аспекты образовательного процесса [9]. Эти исследования усиливают актуальность формирования цифровой информационной культуры как этической опоры в развитии личности в информационном обществе.

Следовательно, защита личности требует развития информационной культуры, этически обоснованного взаимодействия с информацией и критического мышления. Философский подход даёт необходимые инструменты для осмысления и преодоления вызовов цифровой эпохи.

Список литературы:

1. Melnikov, V. O., Melnikova, Yu. O., & Gorbunova, E. V. (2008). Information as a Basic Element of the Modern Information Society and Its Place in the System of Philosophical Knowledge. Scientific and Technical Information Processing, 35(6), 235–243.

2. Berger, P., & Luckmann, T. (1966). The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge. New York: Anchor Books.

3. Floridi, L. (2013). The Ethics of Information. Oxford: Oxford University Press.

4. Turakulov, B. (2022). Этические угрозы цифровой информационной среды. Философия Узбекистана и информационное общество.

5. Turkle, S. (2011). Alone Together: Why We Expect More from Technology and Less from Each Other. New York: Basic Books.

6. Концепция информатизации Республики Узбекистан (2020). Пресс-служба ТГЭУ.

7. Амридинова Д. Т., Хакимов Н. Х. (2023). Наука и высшее образование в Узбекистане в условиях нового этапа развития // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб масалалари. – 2023. – Т. 4. – № 2. – С. 805–810.

8. Амридинова Д. (2024). Информационные технологии в преподавании гуманитарных дисциплин // Modern Science and Research. – 2024. – Т. 3. – № 1. – С. 1–3.

9. Амридинова Д. Т. (2023). Философские проблемы качественного образования // Хозирги замон фалсафасининг долзарб масалалари. – 2023. – Т. 1. – № 1. – С. 329–332.

5-SHO‘BA. IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

ABU RAYHON BERUNIY TAFAKKURIDA INSON VA JAMIYAT QARASHLARINI MOHIYATI

Xandamova Ma’rifat Akramovna
Samarqand davlat chet tillar instituti professori,
falsafa fanlari doktori
Begaliyev Jo’rabek Toshbekovich
Samarqand davlat chet tillar instituti tadqiqotchisi
E-mail: j.begaliyev@kiut.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning inson va jamiyatga oid falsafiy qarashlari tahlil etiladi. Unda Beruniyning ilmiy merosi asosida inson tabiatiga, uning jamiyatdagi o‘rni va ijtimoiy munosabatlardagi roliga berilgan baho ochib beriladi. Shuningdek, allomaning fikrlaridagi gumanizm, adolat, ilm-fan va ma’naviyatning ustuvorligi bugungi kun ijtimoiy-falsafiy muammolarini anglashda naqadar dolzarb ekani asoslab berilgan. Maqola Beruniy asarlarining chuqur tahlili orqali, u ilgari surgan tamoyillarning zamonaviy jamiyat uchun ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: *Abu Rayhon Beruniy, inson falsafasi, jamiyat, ijtimoiy tafakkur, gumanizm, qadriyatlar, ilm-fan, ijtimoiy ahamiyat, ma’naviy meros, falsafiy qarashlar.*

Har bir tadqiqotchi allomaning merosiga o‘z milliy manfaatlari va falsafiy nuqtai nazaridan yondashgan holda tahlil etadi. Bu esa Beruniy merosining universal, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanganligini yanada ochiqroq namoyon etadi. Beruniyning inson va jamiyat masalalariga bag‘ishlangan falsafiy qarashlari ham mustaqillik davridagi o‘zbek falsafa maktabi va tadqiqotchilarining diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. O‘zbek olimlari uning ijtimoiy-axloqiy, dunyoviy va falsafiy merosini keng qamrovda tadqiq etib, zamonaviy falsafiy fikrlash tizimida tahlil qilishmoqda. Jumladan, I.Mo‘minov, R.Nosirov, A.Sharipov, A. Axmedov, G.Nosirxo‘jayeva, S.Yo‘ldoshev, M.Baratov, O.Fayzullayev, M.A Handamova kabi olimlarning ilmiy ishlarini qayd etish lozim. Allomaning faoliyatini o‘rganish asosida olimlar, bir qator ilmiy xulosalar chiqarganlar. Bizga ma’lumki, o‘rta asr

Sharq allomalari jamiyat, uning vujudga kelishi, shakllanishi, vazifalari haqida ko‘plab asarlar qoldirganlar. Xususan, Beruniy jamiyatning vujudga kelishi va tadrijiy rivojlanishini chuqur tahlil qilib, jamiyat o‘z-o‘zidan vujudga kelmaganligi, balki uning shakllanishi uzoq tarixiy davrni boshdan kechirganligi, jamiyat tuzilishida mahalliy qadriyatlarning o‘rni va roli muhimligini aniqlaydi. Chunonchi, u yunon, arab, fors, hind jamiyatlarini qiyoslaydi va hyech qaysi jamiyatni kamsitmagan holda yoritishga harakat qiladi. Allomaning jamiyat haqidagi qarashlari o‘z zamonasi va bugungi davr uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Alloma ta’kidiga ko‘ra, buning boisi shundaki, insoniyat ikki sababga ko‘ra ya’ni xavfni bartaraf etish yoki birgalikda ishlash uchun jamoaga birlashgan. Beruniy o‘z zamonidagi davlat tuzumini yoqladi, ammo hukmdorga aql va adolat xos bo‘lishi kerak, degan xulosaga keldi. Shuningdek, axloqiy me’yorlarga zid xatti-harakatlar ya’ni deviant hulq-atvorni qoraladi. Alloma asarlarida jamiyat doimo hukmdorga ehtiyojligini, hokimiyat boshqaruvida merosiylik tamoyilini, mulkchilik shakllari haqida qarashlarini batafsil yoritadi. Abu Rayxon Beruniy ta’biricha, davlat boshqaruvchisi adolat va aql sifatlariga ega bo‘lishi zarur. Beruniy jamiyatdagi zolimlik zo‘ravonlik, shafqatsizlik, milliy, diniy irqiy va tengsizlikning har qanday ko‘rinishini qoralagan.

Tadqiqotchilarning fikricha, Abu Rayhon Beruniyning hayoti va ma’naviy merosini chuqur tahlil etish insonni bu ulug‘ allomaning insoniylik tamoyillariga asoslangan, butun umrini ilm va insoniyat rivojiga bag‘ishlagan shaxs ekanini anglashga olib keladi. Uning faoliyatini faqatgina muayyan bir xalq yoki millat doirasida o‘rganish tadqiqotchi oldiga jiddiy ilmiy va metodologik muammolarni qo‘yadi. Chunki Beruniy nainki turonliklar, balki hind, arab, fors va afg‘on xalqlari tomonidan ham o‘z allomalari, ma’naviy ajdodlari sifatida e’tirof etiladi. Abu Rayhon Beruniy o‘zining serqirra va ensiklopedik merosi orqali faqatgina o‘z zamonasining emas, balki keyingi asrlar olimlari uchun ham ilmiy-ma’rifiy yo‘lboshchi bo‘ldi. Uning falsafiy tafakkuri va bilimlarining keng qamrovliligi sharq va g‘arb ilm-fani uchun ilhom manbaiga aylandi. Uning ilmiy merosi tolerantlik va gumanizmning mukammal namunasi sifatida qaraladi. Beruniy o‘z asarlarida yunon, arab, fors, hind va turon xalqlarining tarixi, madaniyati, dini va ijtimoiy hayotini chuqur tahlil qilgan. Uning qarashlari ko‘p millatli sivilizasiyalar o‘rtasidagi ilmiy muloqot va madaniy almashinuvning falsafiy asoslarini tashkil qiladi. Mazkur kontekstda Beruniy merosi turli xalqlar va ilmiy an’analar vakillari tomonidan o‘rganilmoqda.

Allomaning jamiyat haqidagi qarashlari tadqiqotchilar tomonidan juda kam o‘rganilgan masala hisoblanadi. Shuning uchun, bizning nazarimizda allomaning jamiyat va inson haqidagi qarashlari originalligi va teran fikrliligi bilan olimlarda katta qiziqish uyg‘otdi. Beruniy ijtimoiy-falsafiy qarashlarining xususiyati

shundaki, u o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha tadqiqot metodini, usullarini ishlab chiqqan. O‘z navbatida metod va usullarni foydalanib, masala, muammoga oqilona yondashib, haqiqatni yoritishga harakat qilgan. Markaziy Osiyoda Abu Nasr Forobiy ijtimoiy-falsafiy masalalar, muammolar bo‘yicha yaxlit ta’limot yaratgan bo‘lsa, unga hamohang Beruniy o‘zi yashagan davrning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, tarixiy, madaniy voqyealarni o‘ziga xos xususiyatlarini mantiqiy tahlil qilgan. Alloma, jamiyatning vujudga kelish sababini, ya’ni inson va jamiyatining vujudga kelishi masalasi, jarayonlarining nazariy jihatlarini tahlil qiladi va xolisona yondashishga harakat qilgan. Alloma “Osor al-boqiya” asarida insoniyat jamiyatning vujudga kelishi sabablarini bashariyatning iptidosi tarixi bilan bog‘lashga harakat qiladi [1].

Chunonchi, alloma mazkur konteksda “Qadimgi tarixlarning eng avvalgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir. Kitob ahllari bo‘lmish yahudiylar, xristianlar, otashparastlar va bularning barcha sinflarida bashariyatning boshlanishi va uning tarix boshi qilib olinishi xususida shunday ixtiloflar mavjudki, tarixlar haqida bu kabi xilma-xillik bo‘lishi mumkin emas” [2;50] deb qayd etib, tarixiy voqyea va jarayonlarni manbalarda noto‘g‘ri tavsiflanganligini isbotlashga harakat qilib, ularni qiyosiy tahlil qilgan. Olam muayyan bir vaqt davomida mavjud bo‘lib, unda yaxshilik va yomonlik kurashi kechadi. Yuqoridagi fikrlar inson tafakkurining olamning paydo bo‘lishi va uning davomiyligi haqidagi ilk metafizik qarashlarini aks ettiradi. Bu yerda vaqtning aniq hisob-kitobi emas, balki inson tafakkuri va diniy dunyoqarashining shakllanish jarayoni ko‘zga tashlanadi. Bu qarashlar keyinchalik boshqa dinlar, o‘z navbatida, Islom, Nasroniylik va Yahudiylik ta’limotlarida har xil shakllarda nomoyon bo‘ladi. Shunday qilib, yuqoridagi ta’limotlarning falsafiy va ma’naviy mohiyati shundan iboratki, inson olamni muqarrar tartib bilan tushunishga intiladi va uning ma’nosini vaqt va burjlar bilan belgilashga harakat qiladi. Demak, Beruniy bu masalalarni ilmiy-falsafiy jihatdan o‘rganib, payg‘ambarlar va muqaddas kitoblardagi ixtiloflarni ko‘rsatishga harakat qilgan. Yuqorida qayd etilganidek, F.Juraqulovning qayd etishiga ko‘ra, G‘arb olimlari Beruniy ilmiy merosini chuqur o‘rganishgan [3;94].

Xususan, E.Zaxau Beruniyning “Osor-al-boqiya”, “Hindiston” asarlarining ijtimoiy-falsafiy, tarixiy-etnografik, ma’naviy-madaniy mavzularga boyligini ta’kidlaydi va allomaning nazariy va amaliy jihatdan ham qiziqqanligini aytib o‘tadi. E.Zaxau “Hindiston” asarining inglizcha tarjimasini kirish qismida quyidagilarni ta’kidlaydi: “Siyosatchi sifatida Beruniy konservativ bo‘lib, taxt va mehrobni himoya qilgan, ularning hamkorligi jamiyat taraqqiyotidan, inson tilaydigan har qanday narsadan ustun turadi” [4]. E. Zaxauning Beruniy haqidagi bu fikri uning siyosiy qarashlari va jamiyat tuzumiga bo‘lgan munosabatini ochib beradi. Bu fikrni tahlil qilish uchun bir necha falsafiy nuqtai nazardan yondashish

mumkin. Jumladan, Beruniyning taxt (davlat hokimiyati) va mehrob (din)ni himoya qilishi uning ijtimoiy konservatizmini ko‘rsatadi. Konservativ - mutassib falsafada, jamiyat muvaffaqiyati va barqarorligi an’anaviy tuzilmalarga tayanishi lozim. Taxt va mehrobning hamkorligi jamiyatning eng muhim ustuni sifatida ko‘riladi, chunki ular insonlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini nazorat qiladi. Bu nuqtai nazar Aflotunning “faylasuf-podshoh” g‘oyasiga yaqin bo‘lib, u ham jamiyatni tashkil etishda mustahkam hokimiyat va ruhiy tarbiya muhimligini ta’kidlagan. Beruniy nazariyasi davlat va din o‘rtasidagi munosabatga oid ko‘plab tarixiy va falsafiy bahslarga tegishlidir. Masalan, Avgustin “Xudo shahri” asarida ilohiy va dunyoviy hokimiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni muhokama qiladi [5;662], bu esa Beruniyning qarashlari bilan mushtarak nuqtalarga ega. Shuningdek, Fixtening davlat g‘oyasida ham hokimiyat va ma’rifatparvarlik birlashtiriladi, bu esa insonlar irodasidan ustun, deb qaraladi.

Shuningdek, Beruniy falsafasini idealistik nuqtai nazardan ham ko‘rib chiqish mumkin. Unga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti va inson xohishlari davlat va dinning barqarorligidan ustun bo‘lmasligi kerak, chunki bunday ustunlik anarxiyaga olib kelishi mumkin. Gegel falsafasida ham davlat “ mutlaq ruh”ning ifodasi sifatida ko‘riladi, bu esa Beruniyning ijtimoiy-siyosiy qarashlariga uyg‘un. Liberal falsafada jamiyat taraqqiyoti uchun erkinlik zarur, davlat va din esa inson manfaatlariga xizmat qilishi kerak. Beruniy qarashlarida esa aksincha, hokimiyat va dinni ustuvor, deb biladi. Beruniyning bu fikri jamiyat barqarorligi va hokimiyat mustahkamligini insonning erkin taraqqiyotidan ustun qo‘yadi. Bu esa davlat va dinning jamiyatdagi rolini kuchaytirishga moyil mutassib yondashuvni aks ettiradi. Bunday yondashuv tarixiy kontekstda muhim bo‘lsa-da, bugungi davrda inson huquqlari va erkinliklari nuqtai nazaridan munozarali, tortishuvli bo‘lib qolishi mumkin. Olim E.Zaxauning Beruniy ijtimoiy-falsafiy qarashlariga “konservativ” yondashishi o‘sha davrda Markaziy Osiyodagi mafkuraviy vaziyatga e’tibor qaratmagan degan xulosaga olib keladi. Allomaning jamiyat haqidagi qarashlarida ushbu davrning ijtimoiy-siyosiy holatidan kelib chiqib, mamlakatni boshqarishda sulolaviy va vorisiylik masalasida quyidagi fikrlariga e’tibor qaratishimiz kerak, jumladan, “Tabiatan boshqarish va siyosiy faoliyatga moyil, rahbarlik salohiyati hamda ma’naviy fazilati orqali boshliqlik maqomini haqqoniy egallagan shaxs – o‘z fikrida barqaror, maqsadida sobit, davlat boshqaruvini kelgusi avlodlarga sog‘lom va barqaror shaklda meros qoldirishni o‘z oldiga maqsad qilgan inson – uning har bir farmoni va qarorlari muddat o‘tishi bilan ahamiyatini yo‘qotmaydi. Bunday rahbar tomonidan berilgan amrlar, uni bajaruvchilar uchun tog‘day mustahkam, shak-shubhadan xoli bo‘lib, vaqt o‘tishi, avlodlar almashinishi bilan ham o‘z kuchini saqlab qoladi va keyingi rahbarlar ham unga itoat etishga muhtoj bo‘ladilar” [6;88]. Demak, mazkur konteksdan kelib

chiqadigan fikrlardan xulosa chiqarsak, mamlakatni boshqarishda sobitqadamlik, adolatlilik, qonuniylik haqidagi g‘oyalari har qanday zamonda dolzarbligini yo‘qotganganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, “agar podshoh buyruqni berishda milliy yoki diniy tomonning birortasini ustun qo‘ymasa, bir qorindan bir vaqtda ikki bola tug‘ilganidek, podshohlik va din ishi birlashib buyruq to‘liq va tugal bo‘ladi, to‘liqlikning narigi tomonida ko‘zda tutiladigan g‘oya va maqsad yo‘q” [6;88]. Yuqoridagi konteksda, mamlakatni boshqarishda, din va dunyoviy ishlar qonun, adolat asosida mutanosib, adekvat bo‘lishi kerakligi nazarda tutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy borliq haqidagi qarashlari hali to‘liq va tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Bu holat, bir tomondan, u mustaqil ijtimoiy-falsafiy konsepsiya yaratmaganligi, asarlarining ko‘pi esa tarixiy-etnografik kuzatishlarga asoslanganligi bilan izohlanadi. Shunga qaramay, Beruniyning g‘oyalari bugungi zamonaviy ilmiy tafakkur nuqtai nazaridan kontekstual tahlil qilish orqali qayta ochib borilmoqda. Uning ma’naviy-falsafiy merosi ijtimoiy fikr taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, olimning universal tafakkuri va jamiyat hayotini o‘rganishga bo‘lgan uslubiy yondashuvi bugungi fan uchun ahamiyatlidir. Shunga qaramay, Beruniyning jamiyat, davlat va inson haqidagi qarashlari yakka falsafiy tizim sifatida shakllanmaganligi tufayli, ularni yagona nazariy konsepsiya sifatida umumlashtirish muayyan murakkabliklarni yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Абу Райҳон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар (Осор ал-боқия)//Танланган асарлар I жилд. –. Тошкент: «Oʻzbekiston» НМИУ, 2022.
2. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. I том. / Таржимон А.Расулов. Изоҳларни И.Абдуллаев ва А.Расулов тузган. Масъул муҳаррирлар: И.Абдуллаев ва О.Файзуллаев. –Т.: Фан, 1968. –Б.50.
3. Журақулов Ф.Н. Абу Райҳон Беруний табиий-илмий ва ижтимоий-фалсафий меросининг Ғарб олимлари томонидан тадқиқ этилиши /фалсафий-тарихий таҳлил/ Фал.фан.ном. даражасини олиш учун ёз.дисс.- Тошкент, 2007. –Б.94.
4. Prefako by E.Sachau to Al-Beruni’s “India” … p.XIX.
5. Блаженный Августин Аврелий. "О граде Божьем". Т8, 2020. 662 С. / https://www.labirint.ru/books/734113/
6. Абу Райҳон Беруний. Танланган асарлар. Том II. Ҳиндистон. Арабчадан А.Расулов, Ю. Ҳакимжонов, Ғ.Жалолов таржимаси. Сўз боши ва изоҳлар А.Ирисов. – Т.: Фан, 1965. –Б.88.

АҲМАД ДОНИШНИНГ ИЖОДИДА МАЪРИФАТПАРВАРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ ЁРИТИЛИШИ.

Бозоров Шухрат Салайдинович
Сам ДЧТИ Гуманитар фанлар ва ахборот технологиялари кафедраси доценти.

Аннотация: Мақолада Аҳмад Донишнинг маърифатпарвар олим даражасига кўтарилишига таъсир қилган омиллар келтириб ўтилган. Ҳамда мутафаккирнинг ҳаёти ва илмий мероси ҳақида кейинги авлод вакилларининг маълумотлари кенг тадқиқ этилган.

Калит сўзлар: *“Дафтари тақвим” (“Кундаликлар”), Садриддин Айний, Сотим Улуғзода, “Аҳмад Калла”, машварат, (“Нодир воқеалар”, таназзул.*

XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистон ўлкасида вужудга келган жадидчилик миллий-озодлик ҳаракати минтақада етилиб келаётган тарихий, ижтимоий-сиёсий вазиятлар инқилобини тезлаштирди. Ушбу инқилобий жараёнларнинг дебочаси маърифатпарвар Аҳмад Дониш илмий фалсафий меросида теран ёритилган десак муболаға бўлмайди.

Аҳмад Донишдан катта илмий-маънавий мерос қолган бўлиб, кўплаб олимлар томонидан тадқиқ этилган. Жумладан, Евгений Бертельс, Садриддин Айний, Сотим Улуғзода, Садри Зиё, Иброҳим Мўминов, Иброҳим Ҳаққул каби файласуф олимлар томонидан мутафаккирнинг ҳаёти ва илмий мероси тадқиқ этилган.

Жумладан, академик Иброҳим Мўминов тадқиқотларида Аҳмад Дониш ижодига катта аҳамият берилган[28]. Иброҳим Мўминов Аҳмад Донишнинг Бедил асарларини ўрганганини, унинг фалсафий қарашларида коинотнинг абадийдиги, руҳнинг жисмга муносабати ҳақидаги қарашларини таҳлил этганлигини қайд этади. Иброҳим Мўминов Аҳмад Донишнинг деярли барча асарларини ёритиб, унинг табиат ҳодисаларига, динга муносабатини, руҳ, жон, таваккул, нарса ва жисмлар, олам абадийлиги, тақдир ҳақидаги фикрларини ўрганади ва давр нуқтаи назаридан таҳлил этади. Шунингдек, мутафаккирнинг ватанпарварлик, адолат, маърифат ҳақидаги ғояларини таҳлил қилиб, жамиятдаги адолатсизликка барҳам бериш ҳақидаги фикрларини ҳам ёритади.

Шунингдек, жадидларнинг фалсафий ижоди ҳамда маърифатпарварлик фаолиятига таъсир этган омиллар ва манбалар сирасига Тожикистонлик олимлар З.Ражабов ва А.Баҳоуддиновлар Аҳмад Дониш ва унинг

[28] Мўминов И.М. Материалы по истории прогрессивной общественно-философской мысли в Узбекистане. Ташкент: Фан, 1976; Выдающиеся мыслители Средней Азии. - М.: Знание, 1966; Танланган асарлар 4 томлик. - Тошкент: Фан, 1969; Из истории развития общественно-философской мысли в Узбекистане конца XIX и начала XX вв. Ташкент: Госиздат, 1957.

“Наводирул-вақое” (“Нодир воқеалар”) асарини муҳим аҳамиятга эга бўлганлигини ўз тадқиқотларида кўрсатиб ўтгани ҳолда, Марказий Осиё маърифатпарварларини Аҳмад Дониш фаолиятининг изчил давомчиси сифатида эътироф этганлар[29].

Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фондида Аҳмад Дониш илмий меросига оид ўн олтита рисола, бир қанча шеърлари киритилган тазкиралар, Имом Ғаззолий ва Абдураҳмон Жомий асарларидан кўчирилган қўлёзма нусхалар жой олган. Жумладан, Аҳмад Донишнинг 1877 йилда ёзилган “Мажмуаи ҳикояти Аҳмади Калла” (Аҳмад Калланинг ҳамма тарихий ва фалсафий асарлари – *И.Мўминов таржимаси*) номли қўлёзмасида турли тарихий, адабий, фалсафий масалаларда чуқур таҳлилий фикрлар юритилган. 1902 йилда бошқа бир хаттот томонидан кўчирилган мазкур қўлёзмада Марказий Осиё тарихидаги машҳур шахслардан Мирзо Улуғбек, шоир ва файласуф Абдураҳмон Жомий ҳақида батафсил маълумот берилган. Шунингдек, калом илми борасида бир қанча фалсафий қарашлар илгари сурилган[30].

Аҳмад Донишнинг замондошлари уни жуда кўп асар ёзган, деб маълумот берадилар. Аҳмад Донишнинг адабий меросидан бизгача ўнг минг мисрадан ортиқроқ шеърлари ва бир неча асарлари етиб келган. Дониш ушбу асарларида Бухоро амирининг давлатни идора этиш услубидаги камчиликларини ҳамда дин вакилларини танқид қилган.

“Донишнинг асарларида янги маданиятни, маърифатни кенгайтириш, мактаблар ва давлат тизимини ислоҳ қилиш учун кураш акс эттирилган. Шунинг учун ҳам унинг асарлари Бухоро амирлиги маърифатпарвар зиёлилари учун қомусий асарлар саналган”[31].

Бундан ташқари, Аҳмад Донишнинг “Наводир ул-вақоеъ” (“Нодир воқеалар”), “Таржимаи аҳволи амирони Бухоро” (“Бухоро амирларининг таржимаи ҳоллари”), “Тарихи салтанати хонадони манғития” (“Манғит амирлари тарихи”), “Дафтари тақвим” (“Кундаликлар”), “Рисолаи дар назми тамаддун ва маъовун” (“Маданият ва жамият тартиби ҳақида рисола”), “Мажмуаи ҳикояти Аҳмади Калла” (“Аҳмад Калла ҳикоялари тўплами”), “Ин рисолаист ислоҳ миёни шиа ва сунн” (“Шиалар ва суннийларни яраштириш тўғрисида насиҳат”), “Манозир ул-кавокиб” (“Сайёраларнинг жойлашуви”), “Рисола фи аъмол ал-курра” (“Глобусдан фойдаланиш йўллари”), “Мажмуи

[29] Жумаев Ж. Жадид мутафаккири Саидаҳмад Сиддиқий –Ажзий фаолиятини ёритувчи манбалар. http:// www.azon.uz/content/views/jadid-mutafakkiri-saidahmad-siddiqiy-ajz

[30] Мўминов И.М. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий -фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар (XIX асрдан ва XX асрнинг бошларигача). -Т.: Фан,1999. –Б. 179.

[31] Юнусов А. Аҳмад Дониш. Сталинобод: Ирфон, 1960. 19-25 с.

рисолаи нужум”, “Меъёри тадайюн”, “Бухородан Петербургга саёҳат” сингари қўлёзма асарлари нусхалари қўлёзмалар фондида сақланмоқда.

Қайд этиб ўтиш керакки, адибнинг “Таржимаи аҳволи амирони Бухоро”, “Тарихи салтанати хонадони манғития”, “Рисолаи дар назми тамаддун ва маъовун”, “Мажмуаи ҳикояти Аҳмади Калла”, “Ин рисолаист ислоҳ миёни шиа ва сунн” “Бухородан Петербургга саёҳат” каби рисолалари, “Дафтари тақвим” асарлари ҳам илғор прогрессив ғоялар билан суғорилгандир.

Аҳмад Дониш ўз қизиқишлари ва илмий изланишларини давом эттириб “Рисолат дар илми Кура” (“Глобус ҳақида рисола”) номли асарида глобуснинг вазифалари, унинг илм-фан учун аҳамияти, глобусдан фойдаланиш ва Ернинг думалоқлиги ҳақида баҳс юритади. Мутафаккирнинг ушбу рисоласи ҳам тожикистонлик олим Абдуғани Мирзоев томонидан 1949 йил Тошент Давлат кутубхонасининг қўлёзмалар фондида топиб ўрганилган[32].

Аҳмад Дониш умрининг охирларида “Тарих рисоласи” номи билан машҳур бўлган “Тарихи салтанати хонадони манғития” (“Манғит амирларининг қисқача тарихи”) асарини ёзган. Дониш ушбу асарида асосий эътиборини меҳнаткаш деҳқонларга қаратиб, солиқ йиғиш вақтидаги маҳаллий ҳукмдорлар ва амир амалдорларнинг ноҳақликларини ёритган. Бир томондан ўтмишда яхши ном қолдирган Амир Темур, Ҳусайн Бойқаро, Абдуллахон, Субҳонқулихон ва амир Шоҳмурод каби одил подшоҳларнинг адолатли салтанат бошқарувини ёритиб, уларни “дин ва давлатни покловчилар”, деб эътироф этган. Иккинчи томондан нодонлик билан бошқарилган Бухоро амирлигининг Амир Музаффар салтанати мисолида мамлакатнинг таназзули сабабларини фалсафий таҳлил қилган.

Шунингдек, Аҳмад Дониш Бухоро амирлиги аҳолисининг ҳаёти билан яқиндан танишиш мақсадида ҳар йили амирлик қишлоқлари бўйлаб икки ойлик саёҳат уюштирган. Мутафаккирнинг фикрича, Бухоро амирлиги аҳолисининг чорак қисми давлатдаги ижтимоий-иқтисодий таназзулни ва унинг сабабларини яхши англаган ҳолда, мавжуд ижтимоий-иқтисодий ҳамда сиёсий тартиблардан норози бўлган.

Бухоро туманларига қилган саёҳатларида у халқ ҳаёти, мусиқаси, удумлари билан танишар, уларнинг эҳтиёжига қараб, амир-амалдорларнинг кирдикорларидан суҳбатлашар, халқнииг раҳмсиз эзилишини кўриб, азоб чекар эди[33].

Аҳмад Донишнинг ижтимоий-фалсафий дунёқарашларини ўрганиш ва таҳлил қилиш асносида файласуф олим, академик Иброҳим Мўминов: “У ўз

---

[32] Раджабов З. Из истории общест. полит. мысли. XIX – XX вв. 184-185 с. Сталинобод, 1957.
[33] Ахмедова З. Ахмад Махдуми Дониш. Монография. Бухоро: Дурдона нашрёти, 2021. – Б. 34

ватани ва халқини қолоқликдан чиқариш йўлини дастлаб қуйидаги ҳаётий муҳим тадбирларни амалга оширишда деб билганлигини эътироф этган. Жумладан:

- мамлакат мустақиллигини таъминлайдиган адолатли ҳокимият ўрнатиш;
- ирригацияни кенгайтириш асосида деҳқончиликни ривожлантириш;
- ҳунармандчилик ишларига ҳар томонлама ёрдам бериш (имконият яратиш);
- фан ютуқларига эришиш учун ҳаракат қилиш;
- олимлар, тиббиёт ходимлари тайёрлаш каби прогрессив ғоялари чиққан ва аҳолининг улар хизматидан баҳраманд бўлишини истаган”[34].

Аҳмад Дониш васиятларнинг асосий мазмуни касб-ҳунар эгаллаш, илм олиш, ҳалоллик, мол-дунё тўплаш ҳирсидан узоқ бўлиш, инсонларга ҳар қандай ҳолатда ҳам яхшилик қилиш каби ҳам дунёвий, ҳам исломий ахлоқ қоидаларидан ташкил топган. Шунингдек, барча сиёсий ўзгаришлар тарихини чуқур ўрганган мутафаккир қарашларининг диққатга сазоворлиги шундаки, ҳақсизлик ва адолатсизлик сабаблари давлат ишлари – мутлоқ ҳокимият ёлғиз подшо қўлида бўлганлигидан деб изоҳлаган. Ривожланган Европа давлатларини мисол келтириб “барча давлатларни енгиб, бутун дунёга эга бўлишларининг сабаби ҳуқуқда ҳамманинг тенглиги ва давлатни ҳамманинг ўртасида турган киши идора қилишидадир” [35], деб таъкидлаган.

Аҳмад Дониш ижодида умр мазмунини фалсафий таҳлил қилиш алоҳида ўрин тутади. Мутафаккир ҳар бир инсон ҳаёти давомида эзгу ишлар қилмоғи, илму ҳунарини эл-юртига бахшида этмоғи лозимлигини уқтиради. Ҳар бир киши “каттадан ҳам, кичикдан ҳам сабоқ олишга интилсин” деб таъкидлаб, Суқрот, Арасту ва Афлотун каби буюк файласуфларнинг айрим нарсаларни ўз шогирдларидан ўрганганлигини мисол келтиради.

Аҳмад Донишнинг маърифатпарварлик ва ижтимоий-фалсафий қарашлари асосан амирлик тузумини ислоҳ қилиш, ҳуқуқий демократик давлат ва жамияти барпо этиш, турли табақа вакилларидан иборат қонун чиқарувчи кенгаш (машварат) тузиш, барча қонун, низомларни ушбу кенгашда ишлаб чиқиб, ҳаётга татбиқ этиш, таълим (мактаб, мадраса) тизимини ислоҳ қилиш, фанларни ўқитиш усубини янгилаш каби орзуларларни рўёбга чиқариш асносида шаклланган.

Аҳмад Дониш Бухоро амирлиги ижтимоий-сиёсий, маданий ҳаётида бевосита фаол иштирок этади. Бу эса унга давлат тизими, қонунчилик,

---

[34] Мўминов И.М. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий -фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар (XIX асрдан ва XX асрнинг бошларигача). -Т.: Фан,1999. – Б.183-184.

[35] Мўминов И.М. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий -фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар (XIX асрдан ва XX асрнинг бошларигача). -Т.: Фан,1999. –Б.185.

хонликнинг ички ва ташқи сиёсати билан яқиндан танишишга имкон беради. “Тамаддун ва ўзаро ёрдам тартиби” рисодасида у Бухоро амирлиги ижтимоий-сиёсий тизимини ислоҳ қилиш ҳақидаги ғояларини илгари суради. Жумладан, турли табақа намоёндаларидан иборат “Олий Мажлис” тузиб, барча қонун ва низомларни шу мажлисда ишлаб чиқиб, муҳокама қилинишини, сўнгра амир томонидаи тасдиқланиши лозимлигини, шунингдек, амирликда давлатнинг барча соҳалари бўйича назорат маъмуриятини ташкил этишни таклиф қилади[36].

Филология фанлари доктори Иброҳим Ҳаққулнинг “Аҳмад Калла” номли эссесида шундай сатрлар бор: “Ўн тўққизинчи асрдаги Бухоро шароитида Аҳмад Донишдек олим, адиб, мутафаккир ва давлат арбобининг камол топиши ҳайратланарли ҳол… Илм-фаннинг саёзлашуви, маърифат бўстонларининг қовжираши, ҳуррият нурларининг сўниши Бухоронинг тинка-мадорини қуритган. Давлат ва ҳокимият Бухорои шариф аҳли хоҳиш-иродасига зид бўлган ақида ва орзу-ҳавасларга тобе эди. Рост сўз, тўғри фикрнинг бир чақалик қиймати бўлмаган ана шундай қалтис шароит ва бадбўй муҳитда Аҳмад Дониш сарой хизматида юрган. Аҳмад Дониш ҳаётни севиб, ҳеч бир тўсиқ ва қаршиликни писанд этмай мардона кун кечирди. Шу боисдан ҳам унинг асарлари ростлик, матонат руҳи билан суғорилгандир”[37], деб таъкидланади.

Дарҳақиқат, Аҳмад Дониш халқ, давлат ва ҳокимиятнинг таназзулдан қутулишини ўйларди. Шу боис у жоҳил, нодон ва аҳмоқ кимсаларни давлатдан ҳимоялашга уринмаганидек, ичдан чириб, бузилиб кетган давлатнинг одамлар ҳаётида бирор ўзгариш қилиши ҳақида сўзлашни ҳам истамасди. Унинг биринчи орзуси ахлоқ ва тафаккур эди.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ахмедова З. Ахмад Махдуми Дониш. Монография. Бухоро: Дурдона нашрёти, 2021
2. Жумаев Ж. Жадид мутафаккири Саидаҳмад Сиддиқий –Ажзий фаолиятини ёритувчи манбалар. http:// www.azon.uz/content/views/jadid-mutafakkiri-saidahmad-siddiqiy-ajz
3. Мўминов И.М. Ўзбекистондаги табиий-илмий ва ижтимоий - фалсафий тафаккур тарихидан лавҳалар (XIX асрдан ва XX асрнинг бошларигача). -Т.: Фан,1999.
4. Юнусов А. Аҳмад Дониш. Сталинобод: Ирфон, 1960. 19-25 с.

[36] Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари.-Т.: Шарқ, 1999, - 333 б.
[37] Иброҳим Ҳаққул. Аҳмад Калла. Эссе. Хуршид даврон кутубхонаси. https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/ibrohim-haqqul-ahmad-kalla-sse.html.

5. Раджабов З. Из истории общест. полит. мысли. XIX – XX вв. . Сталинобод, 1957.
6. Ҳомидий Ҳ. Кўҳна Шарқ дарғалари.-Т.: Шарқ, 1999
7. Иброҳим Ҳаққул. Аҳмад Калла. Эссе. Хуршид даврон кутубхонаси. https://kh-davron.uz/kutubxona/

FUQAROLIK JAMIYATI TARAQQIYOTIDA DAVLAT VA IJTIMOIY INSTITUTLAR HAMKORLIGINING TARIXIY ASOSLARI

SamDChTI "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrasi dotsenti
Boboqulova Xurshida Erkinovna
M.Auezov nomidagi Janubiy Qozog'iston tadqiqot universitetining "Tarix va etnologiya" ilmiy markazi rahbari
Turgautova Sholpan Ashiralievna

Annotasiya: Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatining shakllanishi va rivojlanishida davlat hamda jamiyat institutlari o'rtasidagi tarixiy hamkorlik masalasi yoritilgan. Muallif qadimgi sharq siyosiy tafakkuri, islom huquqiy merosi, jadidchilik harakati va O'zbekiston Respublikasining mustaqillik davridagi demokratik islohotlar jarayonini tahlil qilgan holda, fuqarolik jamiyatining taraqqiyoti tarixiy zarurat, siyosiy ong va ijtimoiy ong mahsuli sifatida namoyon bo'layotganini asoslab beradi. Ayniqsa, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomini belgilab berilishi davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ishonchli hamkorlikning tarixiy davomi sifatida ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar*: fuqarolik jamiyati, davlat institutlari, jamiyat institutlari, tarixiy taraqqiyot, demokratik islohotlar, jadidchilik, Konstitutsiya, siyosiy ong, huquqiy maqom, O'zbekiston.*

Bizga ma'lumki, bugungi globallashuv va ochiq ijtimoiy munosabatlar sharoitida fuqarolik jamiyatining roli tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, demokratik jamiyatlar taraqqiyotida davlat va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro muvofiqligi va hamkorlik madaniyati muhim o'rin tutadi. Fuqarolik jamiyati – bu faqat nodavlat tashkilotlar, jamoat birlashmalari yoki ommaviy harakatlar majmui emas, balki fuqarolarning o'z manfaatlarini davlat bilan hamkorlikda muvofiqlashtira oladigan, ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlaydigan faol makondir: "Bugun biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshidan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va

murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi va jurnalistlar bu davrni turlicha ta‘riflab, har xil nomlar bilan atamoqda. Kimdir uni yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborotlashuv davri sifatida izohlamoqda.[3-69]

Xususan, O‘zbekistonning yangilanish harakatlari tarixiy yo‘lidagi, **“Yangi O‘zbekiston”** konsepsiyasining asosiy ustunlaridan birida aynan fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va davlatning bu jarayondagi ishtirokini takomillashtirish tarixiy zarurat hisoblanadi. Bu jarayonni rivojlantirish yo‘lida esa davlat va jamiyat institutlari o‘rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunday ekan, fuqarolik jamiyatining shakllanishida ushbu institutlar o‘rtasidagi hamkorlikni chuqur tahlil qilish nazariy va amaliy nuqtai nazardan muhimdir.

Fuqarolik jamiyati - bu davlatdan nisbatan mustaqil bo‘lgan, lekin u bilan hamkorlik asosida ishlaydigan ijtimoiy institutlar, nodavlat tashkilotlar, kasaba uyushmalari, diniy tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalarning majmui sifatida talqin etiladi. Shu o‘rinda bu haqida izohlanganidek, “fuqarolik jamiyati demokratik siyosiy tizim shakllanishining eng muhim sharti hisoblanadi. Fuqarolik jamiyati aholi ijtimoiy faolligining davlat organlari faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan turli shakllarini o‘zi ichiga olgan majmuani ifodalaydi hamda jamiyat tuzilishining haqiqiy holati yoki darajasini namoyon etadi”.[2-5]

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi tarixan uzoq va murakkab jarayon bo‘lib, u davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning takomillashuvi asosida yuzaga kelgan. Tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, davlatning bu boradagi ishtiroki ikki asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, har qanday davrda davlat fuqarolik institutlarining shakllanishi va rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan huquqiy, iqtisodiy va institutsional poydevor yaratib bergan. Bu jarayon qadimdan boshlab Avesto davridagi jamoaviy o‘zini o‘zi boshqarish shakllari, islom sivilizatsiyasidagi shuro tamoyillari, shuningdek, jadidchilik davrining ijtimoiy islohotlari orqali o‘z aksini topgan. Ikkinchidan, davlat jamiyat bilan ochiq muloqot olib borish, xalq fikrini tinglash va uni siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga jalb etish orqali fuqarolarning ijtimoiy faolligini rag‘batlantirib kelgan.

Bu borada Abu Nasr Forobiyning *“Fozil odamlar shahri”* tarixiy manbasida jamiyat boshqaruvining turli shakllarini tahlil qilar ekan, demokratik boshqaruv shaklini mukammal va yetuk boshqaruv sifatida emas, balki fozil jamiyat sari olib boruvchi o‘tish bosqichi sifatida talqin etadi. Uning nazarida, haqiqiy fozil shahar – bu bilim va fazilatga asoslangan holda boshqariladigan, ezgulik oliy qadriyat deb tan olingan jamiyatdir. Demokratik boshqaruv esa, Forobiy fikricha, yomonlikni targ‘ib qiluvchi, zulmga asoslangan, “jaholat shaharlaridan” farqli o‘laroq, fozil

jamiyat sari yo‘naltirilgan muhim tarixiy pog‘onadir.[1-59] Shu tariqa, Forobiy demokratik boshqaruvni inkor etmasdan, uni fozil jamiyat sari taraqqiyot yo‘lida zarur bosqich sifatida ko‘radi. U bu orqali jamiyatda fikrlar xilma-xilligi, umumiy manfaatlarga asoslangan qarorlar qabul qilinishi va ijtimoiy adolatning yuzaga kelishini fozil jamiyatga erishishdagi muhim omillar qatoriga qo‘shadi. Bu yondashuv esa, Forobiy tafakkurining chuqur aksiologik va siyosiy-falsafiy mohiyatini namoyon etadi.

Shu tariqa, fuqarolik jamiyatining shakllanishi va taraqqiyoti jarayoni faqat tashqi omillarning emas, balki xalqning ichki siyosiy ongi, tarixiy xotirasi va mustahkam davlat irodasining mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Bu jarayon Markaziy Osiyo tarixida chuqur ildizlarga ega bo‘lib, Forobiy, jadidlar va boshqa mutafakkirlarning g‘oyalari orqali shakllangan ijtimoiy ong bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, konstitutsiyaviy yangilanishlar va fuqarolik institutlarining huquqiy maqomini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar mazkur tarixiy davomiylikning mantiqiy va amaliy davomidir. Bu esa, fuqarolik jamiyati institutlarini mustahkamlash orqali jamiyat barqarorligi, inson huquqlari va qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida fuqarolik jamiyati institutlariga bo‘lgan yondashuv yangi tarixiy bosqichga ko‘tarilgan. Xususan, 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendumi natijasida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning XIII bobi “Fuqarolik jamiyati institutlari” deb nomlanib, 69-moddada quyidagicha mustahkamlab qo‘yildi: “Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan, jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlar, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi”. [2-6] Bu konstitutsiyaviy normalar davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hamkorlik asoslarini yanada mustahkamlab, demokratik taraqqiyot yo‘lining huquqiy kafolati sifatida xizmat qiladi.

Mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirish maqsadida “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini amalga oshirishda fuqarolik jamiyati institutlari xususan nodavlat notijorat tashkilotlari faol ishtirok etmoqda. Fuqarolik jamiyatining eng muhim instituti nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini demokratik mezonlar asosida yo‘lga qo‘ymasdan yangi O‘zbekistonni barpo etib bo‘lmaydi. Shundan kelib chiqib, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat organlari va ular o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda.[5]

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon bo‘lib, u qadimdan jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarning taraqqiyoti zaminida rivojlanib kelgan. Avesto davridan boshlab, inson huquqlari, adolat va ijtimoiy tartib tamoyillari asosida shakllangan boshqaruv an‘analari keyinchalik islom huquqi, Temuriylar davridagi davlat boshqaruvi va jadidchilik harakati orqali yanada takomillashdi. Ayniqsa, jadidlar faoliyatida fuqarolik ongini uyg‘otish, islohotlar orqali jamiyatni yangilash va milliy mustaqillikka erishish g‘oyalari asosiy o‘rinni egallagan.

Zamonaviy O‘zbekiston sharoitida bu tarixiy meros davom ettirilib kelinmoqda. Bu holatni biz davlat fuqarolik institutlarini rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib kelayotganidan kuzatishimiz mumkin. Jamiyat ham o‘zining faolligi va tashabbuslari bilan bu jarayonni qo‘llab-quvvatlab yetakchilik qilmoqda. Xususan, 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy maqomi ham alohida e‘tirof etilib, tarixiy taraqqiyotning mantiqiy davomchisi sifatida davlat va jamiyat o‘rtasidagi hamkorlik konstitutsiyaviy darajada mustahkamlandi. Shu tariqa, fuqarolik jamiyati - tarix davomida shakllangan ijtimoiy-siyosiy ong, milliy xotira va davlat irodasining uyg‘un mahsuli bo‘lib, uning rivoji bugungi demokratik islohotlarning asosiy tayanchi sifatida namoyon bo‘lib, rivojlanishga xizmat ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: Xalq merosi, 1993

2. Jo‘rayev R., Isabayev M. - O'zbekistonni rivojiantirish strategiyasi. Fuqarolik jamiyati. O‘quv qo‘llanma. “Iste‘dod ziyo press” nashriyoti. – Namangan.: 2022. B: 5

3. Karimov.I.A. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. “Ma‘naviyat”, Toshkent.: 2008. B: 69

4. Boboqulova X., Abdullayeva Z., Uzoqova Y. KAMOLOT YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI //EDUCATION AND RESEARCH IN THE ERA OF DIGITAL TRANSFORMATION. – 2025. – T. 1. – №. 1. – C. 526-530.

5. https://uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar

MILLATLARARO BAG‘RIKENGLIK MADANIYATINING AXLOQ BILAN UYG‘UNLIGI.

Samarqand viloyati
Urgut tumani 77-maktab o‘qituvchisi
Xoliqov Toxir Ortiqovich

Annotation. This article highlights the philosophical significance of shaping a culture of tolerance in young people. The role of the family and society in the

formation of a culture of tolerance among young people in connection with morality, as well as the large-scale work carried out in our country are highlighted.

Keywords: *tolerance, culture, enlightenment, globalization, mentality, national values, traditions, science, nation, ethnicity, pragmatism, strategy, pluralism, popular culture, security*

Annotasiya. Ushbu maqolada yoshlarda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishning falsafiy mohiyati yoritilgan. Yoshlarda millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini shakllantirishning axloq bilan alaqadorligida oila va jamiyatning o‘rni hamda yurtimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli ishlar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *bag‘rikenglik, madaniyat, ma’rifat, globallashuv, mentalitet, milliy qadriyat, urf-odat, ilm-fan, millat, elat, pragmatizm, strategiya, plyuralizm, ommaviy madaniyat, xavfsizlik.*

Bugungi kunda O‘zbekiston dunyoga ochiqlik siyosati orqali tanilib, jamiyatimizda sezilarli darajada o‘zgarishlar yuz bermoqda. Ushbu islohotlarning provard maqsadi erkin fuqarolik jamiyatining shakllantirish shu orqali farovonlik va adolatni ta’minlashdan iborat. Bunday ulug‘vor maqsadlarga erishishda, avvalo, yoshlarning tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish, ayniqsa, ularning madaniyatini yuksaltirish muhim hisoblanadi. Yoshlar madaniyatining ajralmas qismi bo‘lgan millatlararo bag‘rikenglik madaniyati ham islohotlarimizning samaradorligiga, yurtimizning dunyoga ochiqligiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki, millatlararo bag‘rikenglik madaniyati jamiyat uchun turli din va millat vakillarini hamjihat bo‘lib yagona maqsad – O‘zbekistonni yanada rivojlantirish yo‘lida ularni birlashtirishga xizmat qilsa, global miqyosda esa turli millat va dinga mansub insonlarni hyech qanday moneliksiz biz bilan hamkorlik qilishiga sabab bo‘ladi.

Bugungi globalashuv sharoitida millatlararo bag‘rikenglik madaniyati shakllanmagan jamiyatda dunyo hamjamiyati bilan integrasiyalashuv jarayoni rivojlanmaydi. Qolaversa, jamiyatning o‘zida ham har bir shaxsda bag‘rikenglik madaniyati yuksalgan bo‘lsa, kishilar o‘rtasida ahllik, jamiyatda barqarorlik, davlatda tartib bo‘ladi. Jamiyat taraqqiyoti, adolat ustuvorligi fuqarolarning bag‘rikenglik darajasiga ham bog‘liq.

O‘zbekistonning yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida ustuvor yo‘nalishlar qatoriga bag‘rikeng shaxsni tarbiyalash kiradi[1]. Bag‘rikenglik ijtimoiy muhitning muhim sharti sifatida qaraladi. Bugungi kunda davlatning turli darajalarida bag‘rikeng shaxsni shakllantirish va turli xil murosasizlikka qarshi kurashish bo‘yicha dasturlari qabul qilinmoqda[2]. Shunday qilib, “bag‘rikenglik” tushunchasi O‘zbekiston jamiyatining leksikoniga allaqachon kirib borgan va mamlakatimiz aholisining katta qismi buni so‘zsiz qabul qiladi va tolerantlik

jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanishi kerak. O‘zbekiston azaldan millatlararo bag‘rikenglik qadriyat darajasiga ko‘tarilgan makon, uning tamoyillari ustuvor bo‘lgan yurt sifatida e’tirof etiladi.

Millatlararo bag‘rikenglikning mazmuni yanada murakkab va katta semantik ma’noga ega. Falsafiy ma’noda, millatlararo bag‘rikenglik shaxsning axloqiy jihati bilan bog‘liq bo‘lgan kategoriya hisoblanadi. Shu ma’noda u jamiyatda insonning xulq-atvorini boshqaradigan “kategorik imperativ” vazifasini bajaradi. Ya’ni, shaxs boshqalarga bo‘lgan munosabatda, insonlarni o‘zaro ajratib turadigan va o‘ziga xos tafovutlar, madaniyatlar, xalqlar va dinlarni inobatga olgan holda muloqotga kirishadi. Ammo munosabatlarning yo‘lga qo‘yishda yuqoridagi ko‘rsatkichlar hal qiluvchi bo‘lmasligi lozim. Ya’ni shaxs faqat dinidan, millatidan kelib chiqib munosabat o‘rnatmasligi talab etiladi. Turli xalqlar, madaniyatlar, dinlar o‘rtasidagi munosabatlar va aloqalar zarurat va kundalik hayotga aylangan zamonaviy sharoitda bag‘rikenglik ushbu xalqlar, madaniyatlar va dinlar o‘rtasidagi munosabatlarning normasiga aylanishi kerak. Bu taraqqiyotning jadal rivojlanishi va globallashuv jarayonida milliy chegaralarning yuvilib ketayotgani insoniyatning tinch yashashi uchun muhim shartdir. Shu ma’noda ham bag‘rikenglik barcha odamlar, barcha xalqlar, dinlar va madaniyatlar uchun axloqiy imperativ qiymatini olishi kerak. Faqat shunga asoslangan sivilizasiya asosan mojarolar, urushlar va inqiloblardan qochishi mumkin. Amerikalik tadqiqotchi D.Truman yozganidek, “agar jamiyat inqilobdan, tanazzuldan, saqlanib qolsa va barqarorlikni saqlab tursa ham, bu faqat ochiq jamiyat va uning mezoni bag‘rikenglik bilan bog‘liqdir”[3- P. 14.]. Ochiq jamiyatning muhim belgilaridan biri bu tolerantlik, o‘zgacha fikrga nisbatan millatlararo bag‘rikenglik va shu kabilarga olib keladigan fikrlar, mafkuralar plyuralizmining muqarrarligi va zarurligini tan olishdir.

Bag‘rikenglik madaniyati murosaga asoslansa plyuralizm hurfikrlikka asoslanadi. Ularni bog‘liqligi xilma-xillikni e’tirof etish va shu tamoyilga asoslanish hisoblanadi.

Millatlararo bag‘rikenglik:

birinchidan, insoniy, oilaviy, milliy va umuminsoniy millatlararo bag‘rikenglik tarzida namoyon bo‘lsa;

ikkinchidan, o‘z-o‘zini hurmatlash va qadrlash, murosa, o‘zaro hurmat, qadrlash, sabr-toqat, chidamlilik, qanoat, shukr qilish kabi shakllarida namoyon bo‘ladi;

uchinchidan, diniy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, xalqaro va davlatlararo yo‘nalishlarda aks etadi. Yuqoridagilarning barchasi subyektning madaniyati bilan bog‘liq hisoblanadi.

Jamiyatda tolerantlik intolerantlik bilan dialektik birlikda ham namoyon bo‘lishi mumkin. Plyuralizm jamiyatda xilma-xillik mavjudligini anglatadi, tolerantlik esa butun tizimning ishlashini va mavjudligini ta’minlaydigan birlik tamoyilini joriy etadi. Tolerantlik tamoyili despotizmning asoslarini aniqlashga va uning namoyon bo‘lishining oldini olishga imkon beradi, chunki u o‘zaro ta’sir qiluvchi subyektlarning pozisiyalari tengligini ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda yosh avlodning millatlararo bag‘rikenglik madaniyatini yuksaltirish jarayonida manaviy-axloqiy, milliy qadriyatlardan foydalanish, jamiyatimiz a’zolari, ayniqsa, yoshlarimizni yuksak axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash dolzarb masaladadir. Bu jarayonda yoshlarimizning mafkuraviy immunitetni shakllantirish, bag‘rikenglik madaniyatini ilmu-ma’rifat asosida kuchaytirish, yuksak axloqiy fazilatlarni milliy ruhida tarbiyalash bugungi kunning muhim masalasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabuyotlar ro‘yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.//O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

2. Mirziyoyev Sh.M. «Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018 yil 16 apreldagi Farmoni.

3. Mirziyoyev Sh.M. “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 4 sentyabrdagi Qarori.

4. Truman D.B, Opinion.N.Y. The Governmental Process.Political Interests and Public 1971.P. 14.

ZAMONAVIY OAV VOSITALARI ORQALI TA’LIM MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARI

Taniqulov Jonibek Ashirkulovich
Samarqand Davlat universiteti
“Falsafa va milliy g‘oya” kafedrasi dotsenti
jtaniqulov140@mail.ru,
ORCID ID: 0009-0002-5192-3975

Anotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ommaviy axborot vositalarining (OAV) ta’lim madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni, imkoniyatlari va ta’sir mexanizmlari tahlil qilinadi. Shuningdek, OAV orqali tarbiyaviy, intellektual va axloqiy qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirishning samarali yo‘llari ko‘rib

chiqilgan. OAV vositalari yordamida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, raqamli savodxonlikni rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar. *ta’lim madaniyati, ommaviy axborot vositalari, raqamli savodxonlik, media madaniyat, yoshlar tarbiyasi, axborot texnologiyalari, interaktiv ta’lim.*

Kirish. Zamonaviy globallashuv jarayonida raqamli texnologiyalar ta’lim tizimiga chuqur kirib kelmoqda. Bu esa yangi madaniy yondashuvlarni, ayniqsa ta’lim madaniyatini shakllantirishda yangi vosita va mexanizmlardan foydalanishni taqozo etmoqda. Jumladan, ommaviy axborot vositalari bugun nafaqat axborot tarqatuvchi, balki tarbiyaviy, madaniy va pedagogik vosita sifatida ham namoyon bo‘lmoqda.

Ta’lim madaniyati shaxsning bilimga, o‘qishga, muloqotga, axloqiy qadriyatlarga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. U nafaqat maktab yoki oliy o‘quv yurtida, balki ommaviy axborot vositalari ta’siri orqali ham shakllanadi. Shu bois, bu maqolada OAV vositalarining ta’lim madaniyati shakllanishiga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sir jihatlari hamda ularning mexanizmlari ilmiy tahlil qilinadi.

1. Ta’lim madaniyati va OAV o‘zaro aloqasi

Ta’lim madaniyati — bu bilim olish va uni hayotda qo‘llash jarayonidagi ongli, madaniy, axloqiy va ijtimoiy yondashuvlar tizimidir. UNESCO tomonidan ta’lim madaniyati "shaxsning o‘zini o‘zi rivojlantirishga qaratilgan, uzluksiz o‘rganishga asoslangan madaniy qobiliyati" deb tariflangan.

Zamonaviy OAV bu jarayonda quyidagi jihatlar orqali ishtirok etadi:

Birinchidan. Ilmiy-ma'rifiy axborotlarni keng ommaga yetkazish

Ikkinchidan. O‘quvchilarda global tafakkurni rivojlantirish

Uchinchidan. Milliy qadriyatlarni targ‘ib qilish

To‘rtinchidan. Raqamli savodxonlikni shakllantirish

Beshinchidan. Ijtimoiy mas’uliyatni oshirish

2. Zamonaviy OAV vositalari va ularning ta’limdagi roli

2.1. Ijtimoiy tarmoqlar (Telegram, Instagram, TikTok, YouTube)

Bu platformalarda ta’limiy kontentlar, videodarslar, animatsion ko‘rgazmalar orqali yoshlarning bilimga bo‘lgan qiziqishi ortmoqda. Ayniqsa, YouTube’dagi “O‘zbekiston tarixi”, “Matematika darslari”, “IELTS tayyorgarligi” kabi kanallar mashhurlikka erishgan.

2.2. Elektron nashrlar va podkastlar

Elektron jurnallar, PDF kitoblar, ilmiy maqolalar, ta’limiy podkastlar yoshlar orasida tez-tez foydalanilmoqda. Ular orqali ijtimoiy, siyosiy va madaniy bilimlar ham singdirilmoqda.

2.3. Televizion ta’lim dasturlari

“Madaniyat va ma’rifat”, “O‘zbekiston 24” kabi kanallarda uzatiladigan ilmiy-ma’rifiy ko‘rsatuvlar (masalan, “Ilm va taraqqiyot”, “Ustoz”) yoshlar ongida ilmga hurmat va o‘rganishga intilishni shakllantiradi.

3. Ta’lim madaniyatini shakllantirishda OAVning ijobiy va salbiy jihatlari

Ijobiy tomonlari:

- Bilim olishga erkin va tezkor kirish imkoniyati
- Mustaqil o‘rganish madaniyatini rivojlantirish
- Kommunikativ madaniyatni shakllantirish
- Zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish

Salbiy tomonlari:

- Nomaqbul (yoshga to‘g‘ri kelmaydigan) kontentlar
- Axborotlar ishonchliligining pastligi
- Virtual muhitga haddan tashqari bog‘lanish
- Mediamadaniyat yetishmasligi

4. Shakllantirish mexanizmlari va takliflar

4.1. OAV orqali raqamli ta’lim platformalarini rivojlantirish

“UzEdu”, “EduMarket”, “Coursera”, “Khan Academy” kabi platformalar tajribasidan foydalanib, O‘zbekiston sharoitiga mos milliy elektron platformalarni ishlab chiqish.

4.2. Mediamadaniyat va axborot savodxonligi darslarini joriy qilish

Maktab, litsey, kollej va oliy ta’lim muassasalarida “Axborot madaniyati asoslari” nomli fanlarni joriy etish.

4.3. OAV monitoringi va axborot filtrlash tizimini kuchaytirish

Salbiy kontent tarqalishining oldini olish uchun regulator organlar tomonidan nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish.

Xulosa

Zamonaviy ommaviy axborot vositalari orqali ta’lim madaniyatini shakllantirish — bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu vositalar nafaqat bilim manbai, balki madaniyat, axloq, tafakkur va ijtimoiy faollikni shakllantiruvchi vositaga aylangan. Shu bois, ularni to‘g‘ri va samarali yo‘naltirish orqali yosh avlodni intellektual, axloqiy va madaniy jihatdan barkamol qilib tarbiyalash mumkin. Davlat, ta’lim muassasalari va OAV vakillari bu borada uzviy hamkorlikda ishlashi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. UNESCO. "Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives." – Paris, 2017.
2. Karimova M.M. *Axborot jamiyati va OAV*. – Toshkent: Ma’naviyat, 2020.

3. To‘xtayev N. *Raqamli pedagogika: metodologik yondashuvlar*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2022.
4. Gulomov X. *Ommaviy axborot vositalari va yoshlar tarbiyasi*. – Samarqand, 2021.
5. www.unesco.org
6. www.ziyonet.uz – O‘zbekiston Respublikasi ta’lim portali
7. www.pedagoglar.uz – O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanmalar

FUQAROLIK JAMIYATINING TARIXIY ASOSLARI VA UNDAGI DEMOKRATIK INSTITUTLARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

SamDChTI “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi dotsenti
Boboqulova Xurshida Erkinovna
Xo‘ja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universitetining ilmiy-tadqiqot instituti direktori
PhD, Bauyrjan Saifunov

Annotatsiya: Ushbu maqolada fuqarolik jamiyatining shakllanishida demokratik institutlarning evolyutsion tarixiy roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda tarixiy-falsafiy va komparativ metodlar qo‘llanilib, “Avesto”dan boshlab jadidchilik harakati va zamonaviy islohotlargacha bo‘lgan jarayon o‘rganiladi. Demokratik institutlarning mustahkamlanishi huquqiy madaniyatning rivojlanishiga ta‘sir etishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari zamonaviy demokratik islohotlarni yanada takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishi yo‘lida demokratik institutlarning uzluksiz taraqqiyotini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *fuqarolik jamiyati, demokratik institutlar, inson huquqlari, huquqiy asoslar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.*

Аннотация: В данной статье анализируется эволюционная историческая роль демократических институтов в формировании гражданского общества. В исследовании применены историко-философский и сравнительный методы, изучены процессы от «Авесты» до джадидского движения и современных реформ. Установлено, что укрепление демократических институтов способствует развитию правовой культуры. Результаты исследования имеют научно-практическое значение для дальнейшего совершенствования современных демократических реформ и

служат освещению непрерывного развития демократических институтов в процессе устойчивого развития гражданского общества.

Ключевые слова: *гражданское общество, демократические институты, права человека, правовые основы, социально-политические процессы.*

Annotation: This article analyzes the evolutionary historical role of democratic institutions in the formation of civil society. The study employs historical-philosophical and comparative methods, examining the process from the *Avesta* to the Jadid movement and modern reforms. It has been established that the strengthening of democratic institutions contributes to the development of legal culture. The research results hold scientific and practical significance for further improving contemporary democratic reforms and serve to highlight the continuous development of democratic institutions in the process of ensuring the sustainable progress of civil society.

Keywords: *civil society, democratic institutions, human rights, legal foundations, socio-political processes.*

Tarixiy jihatdan demokratik institutlar fuqarolik jamiyatining shakllanishida davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatni ta‘minlovchi vosita sifatida maydonga chiqqan. Ular orqali siyosiy islohotlar amalga oshirilgan, ijtimoiy faollik oshgan va qonun ustuvorligi ta‘minlangan. Shu bois demokratik institutlarning shakllanishi va mustahkamlanishi fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishida demokratik institutlarning tarixiy roli muhim o‘rin tutadi. Jamiyat taraqqiyotida barqarorlik va qonuniylikni saqlash uchun siyosiy institutlarning bosqichma-bosqich rivojlanishi zarurdir. Bu nuqtai nazar E.Berk tomonidan ham ilgari surilgan bo‘lib, u 1790-yilda yozgan “Fransiyadagi inqilob to‘g‘risida o‘ylar” asarida erkinlik konsepsiyasini himoya qilgan. Uning fikricha, jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarga inqilobiy yo‘l bilan emas, balki ijtimoiy-siyosiy institutlarning evolyutsion taraqqiyoti orqali erishish lozim.[1 - 17]

Demokratik institutlar aynan shunday evolyutsion taraqqiyotning mahsuli bo‘lib, ular jamiyatda huquqiy me‘yorlarni mustahkamlash, fuqarolarning erkinliklarini himoya qilish va ularning siyosiy jarayonlarda ishtirokini ta‘minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tarixiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki, demokratik institutlarning shakllanishi va rivojlanishi fuqarolik jamiyatining barqaror rivojlanishiga olib keladi. Shu sababli, fuqarolik jamiyatini mustahkamlashda siyosiy institutlarning evolyutsion taraqqiyoti muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Jamiyatning tarixiy hayotiga nazar solsak, ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar va demokratik institutlarning shakllanishi uzoq evolyutsion jarayon natijasi ekanini ko‘ramiz. Markaziy Osiyoda qadimgi davrlardan boshlab jamoaviy boshqaruv tamoyillari, xalq an‘analari va ijtimoiy tartib-qoidalar demokratik tamoyillarning dastlabki ko‘rinishlari sifatida shakllangan. Xususan, qadimgi Turk xoqonligi va boshqa davlatlarda xalq kengashlari, oqsoqollar maslahatlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimlari mavjud bo‘lgan. Markaziy Osiyo xalqlari ham qadimdan ijtimoiy-siyosiy fikrlar, boshqaruv tamoyillari va fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga oid o‘ziga xos tajribaga ega bo‘lgan. Antik davrlardan boshlab, uyg‘onish va temuriylar davrida shakllangan ijtimoiy-siyosiy g‘oyalar keyinchalik mustaqil O‘zbekistonda ham demokratik institutlarning tarkib topishiga zamin yaratdi.

Markaziy Osiyodagi ijtimoiy-siyosiy va huquqiy qarashlarning shakllanishi uzoq tarixiy jarayon natijasidir. Bu mintaqada jamiyatni boshqarish, adolat va qonun ustuvorligini ta‘minlashga oid qadimiy g‘oyalar ilk yozma manbalarda, xususan, bundan 2700 yil avval tartibga solingan Avesto kitobida aks etgan. Avesto – nafaqat diniy ta‘limot, balki ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tartib-qoidalarni o‘z ichiga olgan asosiy manba bo‘lib, unda qadimgi ajdodlarimizning davlat boshqaruvi, adolat, axloqiy qadriyatlar va inson burchi haqidagi qarashlari mujassam etilgan. Zardusht tomonidan ilgari surilgan yakka xudolik g‘oyasi va axloqiy tamoyillar Markaziy Osiyo jamiyatida boshqaruv, adolat va ijtimoiy tartibning asosiy qoidalarini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. U yaxshi fikr, yaxshi so‘z, yaxshi amallar g‘oyasi orqali jamiyatda adolat, saxovat va olijanoblik kabi fazilatlarni rivojlantirishni targ‘ib qilgan. Ushbu tamoyillar faqat diniy ta‘limot bilan cheklanib qolmay, balki jamiyatni boshqarishning dastlabki me‘yoriy asoslari sifatida ham xizmat qilgan. [4 - 68]

Keyinchalik bu g‘oyalar turli tarixiy davrlarda takomillashib, demokratik institutlarning shakllanishiga zamin yaratdi. Xususan, xalq ishtirokiga asoslangan boshqaruv shakllari, maslahat kengashlari, ijtimoiy kelishuvlar va qonuniylik tamoyillari Markaziy Osiyoning siyosiy-huquqiy madaniyatida muhim o‘rin egalladi. Ayniqsa, uyg‘onish davrida Farobiy, Ibn Sino, Beruniy kabi mutafakkirlar tomonidan davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarga oid ilg‘or fikrlar ilgari surildi.

Forobiy inson qadr-qimmatini kamsituvchi, zo‘ravonlikka asoslangan jamiyatga qarshi chiqib, adolat, ilm va axloq ustuvor bo‘lgan boshqaruv tizimini targ‘ib qilgan. U *“Davlat arbobining hikmatlari”* risolasida doimiy urushlar va bosqinchilikka asoslangan jamiyatni johil va adolatsiz jamiyat sifatida qoralaydi. Uning fikricha, davlatning asosiy vazifasi insonlarni baxt-saodatga yetkazish bo‘lib, bunga faqat ilm va axloq orqali erishish mumkin. Forobiy davlat

boshqaruvining turli shakllarini tahlil qilib, yetuk shaxs (ma‘rifatli shoh), yetuk xislatlarga ega bo‘lgan bir guruh odamlar (aristokratiya) va saylangan shaxslar (demokratiya) yordamida adolatli boshqaruvni amalga oshirish mumkinligini qayd etgan. U davlat rahbari va xizmatchilari boshqaruv san‘atini mukammal egallashi zarurligini ta‘kidlab, qonun ustuvorligi va axloqiy tamoyillarga asoslangan boshqaruv tizimini yoqlagan.[2]

Forobiyning bu qarashlari tarixiy nuqtai nazardan zamonaviy fuqarolik jamiyatining shakllanishida demokratik institutlarning tarixiy o‘rnini anglash uchun muhim ahamiyatga ega. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi muvozanatga, huquqiy institutlarning mustahkamligiga hamda inson huquqlari va erkinliklarining kafolatlanishiga bog‘liqdir. Forobiyning ta‘kidlashicha, davlat shahar aholisining baxtli hayotini ta‘minlashi va himoya qilishi kerak. Bu esa zamonaviy demokratik institutlarning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, fuqarolarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy adolat va barqaror taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Forobiyning demokratik boshqaruv haqidagi fikrlari bugungi konstitutsion tuzumlar, qonuniylik, shaffof boshqaruv va fuqarolarning davlat ishlari boshqaruvida ishtirok etish huquqining tarixiy asoslaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Shu bois, uning g‘oyalari nafaqat O‘rta asr falsafasida, balki zamonaviy demokratik institutlarning shakllanishida ham muhim nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Fuqarolik jamiyatining shakllanishi va demokratik institutlarning rivojlanish tarixida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qilgan Ibn Sinoning qarashlarida ham inson tabiatiga, jamiyatdagi axloqiy qadriyatlarga va davlat boshqaruvida halollik tamoyiliga katta e‘tibor qaratgan: Ibn Sino O‘rta Osiyo tabiiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy fikrlarning buyuk namoyondasi, tibbiyot, falsafa, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy ta’limot tarixiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirdir. Uning “Ishorat va Tanbixot”, “Risolatu tadbiri manzil”, “Qush tili” kabi asarlari bevosita davlat boshqaruvining adolatparvar va axloqiy asoslariga bag‘ishlanadi.[8-67] Bu tarixiy ahamiyatga ega manbalar haqida Najmiddin Komilov ta‘rif berganidek, bu – insoniyatning kamolotga erishishi va jamiyatning takomillashuvi yo‘lidagi kurash sahifalari, orzu-intilishlar, fikr va takliflar, istiqbol sari yo‘naltirilgan g‘oyalar majmui edi. Bu ulug‘mutafakkirlarning ideal inson va adolatli jamiyat haqidagi qarashlari bo‘lib, ular shunchaki mavhum xayollardan iborat emas edi. Bunday jamiyatni amalga oshishi mumkin bo‘lmagan utopiya deb baholash adolatdan bo‘lmaydi, chunki bu g‘oyalar jamiyat taraqqiyotiga yo‘naltirilgan real konsepsiyalar sifatida shakllangan. [5 - 54]

Xuddi shuningdek, jadidchilik harakatida ham Turkistonning ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti va mustaqillikka erishish yo‘lida xizmat qilib, jamiyatni

yangilash, milliy uyg‘onish va o‘z taqdirini o‘zi belgilash g‘oyalarini ilgari surganlar. Jadidlar jamiyatni isloh qilish orqali milliy mustaqillikka erishish mumkin deb hisoblaganlar. Ular o‘z davrida ta‘lim, huquq va ijtimoiy hayotda demokratik tamoyillarni joriy etishga intildilar. Xususan, din va millatni birlashtirish, milliy o‘zlikni anglash, taraqqiyparvarlik g‘oyalari orqali Turkistonni mustamlaka qaramligidan xalos etish yo‘lini ko‘rsatganlar.

Bu esa, zamonaviy demokratik institutlar shakllanishining tarixiy ildizlarini ochib beradi. Bu haqida Behbudiy ta‘kidlaganidek, “agarda biz – Turkiston musulmonlari xohlasakki, din va millatimizn ittifoq etib, bugundan islohotga qadam qo‘ysala ziyoli va taraqqiyparvarlarimiz, boy va ulamomiz birlashib, din va millat, Vatan rivoji uchun xizmat etsak… O‘zimizdan bora-bora tadrijiy suratda askarlarimiz bo‘lsin. Ul milliy askarlarimizning vazifasini, qiyofat va shaklini, libos va maishat tarzini o‘zimiz tayin qilurmiz. Mana, bizning oldimizda eng katta ishlar turibdir… Hozirgi ahvolga qaraganda, yana biz musulmonlar, ruslarning fuqarosi va raiyati bo‘lgan o‘lkadek, alardan dast va rijoga qolurmiz. Koloniya (mustamlaka) qoidasi ila bizni idora eturlarki, bunga o‘z ixtilofimiz sabab bo‘lur”. [3 - 22]

Shu nuqtai nazardan, jadidchilik harakati fuqarolik jamiyatining shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Ularning milliy birdamlik va islohot g‘oyalari bugungi demokratik tamoyillar bilan hamohang bo‘lib, xalq manfaatlarini himoya qilish, ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash hamda taraqqiyot yo‘lidagi harakatlarning tarixiy davomiyligini ko‘rsatadi. Jadidchilarning milliy armiyaga bo‘lgan ehtiyoji ham aslida davlat mustaqilligi va o‘zligini saqlab qolish uchun zaruriy vosita sifatida baholangan. Bunday qarashlar bugungi demokratik institutlarning shakllanishida ham muhim o‘rin tutadi.

Guvohi bo‘lganimizdek, demokratik institutlarning shakllanishi uzoq tarixiy taraqqiyot natijasi bo‘lib, ular jamiyatdagi adolat, qonun ustuvorligi va inson huquqlarining kafolatlanishiga xizmat qiladi. Ya‘ni, bu jarayon Avestodan boshlab, qadimgi davlat boshqaruvi tamoyillari, islom huquqi an‘analari, jadidchilik harakati va zamonaviy konstitutsiyaviy islohotlargacha bo‘lgan taraqqiyot yo‘lini o‘z ichiga oladi. Ayniqsa, Markaziy Osiyoda shakllangan ijtimoiy-siyosiy institutlarning uzluksiz rivojlanishi, fuqarolik jamiyatining takomillashuvi va demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi demokratik islohotlar ham aynan shu tarixiy tajribaga asoslangan holda olib borilmoqda: “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da ilgari surilgan qonunchilik tashabbuslari strategik ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur siyosiy doktrina mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning mantiqiy davomi

sifatida O‘zbekistonning nafaqat hozirgi davrdagi, balki kelajakdagi ravnaqini ham ta‘minlovchi eng maqbul taraqqiyot yo‘nalishini belgilab berdi. [6 - 23]

Xususan, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, huquqiy mexanizmlarni mustahkamlash, sud-huquq islohotlarini chuqurlashtirish va inson huquqlarini himoya qilish borasidagi harakatlar fuqarolik jamiyatining yanada mustahkamlanishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, jamiyatda oshkoralik va hisobdorlik tamoyillarining joriy etilishi, siyosiy plyuralizm va fikr erkinligining qo‘llab-quvvatlanishi demokratik institutlarning barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim shartlardan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Edmund Burke. Reflections on the revolution in France. (1790) 1992. P: 17

2. Ma‘naviyat yulduzlari (Markaziy Osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar). Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent-2011

3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Haq olinur berilmas. // Hurriyat. 1917. № 22

4. Najmiddin Komilov. Hikmat va ibrat dostoni. // Tafakkur. 2003. № 4. B: 54

5. Nizamov F.S. “Avesto”da huquqiy qadriyatlarning namoyon bo‘lishi shakllarining tahlili. Huquq – Pravo – Law. 2003. B: 68

6. Qodirova A.Q. Jamiyatni demokratlashtirishda siyosiy elitani roli. // Huquq. Pravo. Lav. – 2001. № 1. B: 23

7. Xurshida BOBOQULOVA. FUQAROLIK JAMIYATI QURISH TARIXINI MANBASHUNOSLIK ASOSLARI. O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2024, [1/10/1] ISSN 2181-7324

8. O’zbekistonda ijtimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. O’zbekiston, 1995,67-bet.

AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA MA’NAVIYATSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI: TAHLIL VA YONDASHUVLAR

Yo‘ldoshev Sherzod Ravshan o‘g‘li
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda ma’naviyatshunoslik fanining dolzarb masalalari tahlil qilinadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt asosidagi axborot muhitining kuchayishi yoshlar ongiga salbiy va gibrid ta’sir ko‘rsatayotgan bir sharoitda, milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va ruhiy barqarorlikni saqlash ma’naviyatshunoslik fanining muhim vazifasiga aylanmoqda. Maqolada axborot xurujlariga qarshi

ma’naviy immunitetni shakllantirish, raqamli muhitda tarbiyaviy faoliyatni olib borish va ma’naviy qadriyatlarni yoshlar ongiga uzviy singdirish zarurati asoslab beriladi. Shuningdek, maqolada turli metodologik yondashuvlar — madaniy-tarixiy, axborot-analitik, innovatsion-didaktik, shaxsga yo‘naltirilgan va platformaviy-integratsion yondashuvlar keng tahlil qilinadi hamda ularning har biri amaliy jihatdan yoritiladi. Yakunda esa dolzarb muammolarni hal etishga qaratilgan aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *ma’naviyatshunoslik, axborotlashgan jamiyat, raqamli transformatsiya, ma’naviy immunitet, tanqidiy fikrlash, yoshlar tarbiyasi, raqamli ta’lim, metodologik yondashuvlar, madaniy meros.*

Globallashuv va raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi insoniyat taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Ayniqsa, axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’naviyat sohasida tub o‘zgarishlar, yangicha qarashlar va yangi muammolar yuzaga chiqmoqda. Virtual dunyo, ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt, media axborot oqimining haddan tashqari kuchayishi inson ongiga ta’sir ko‘rsatadigan asosiy omillardan biriga aylandi. Aynan shunday sharoitda jamiyat a’zolari, ayniqsa, yoshlar ongini mustahkamlash, milliy o‘zlikni asrash, ma’naviy immunitetni shakllantirish dolzarb vazifa sifatida ilgari surilmoqda.

Bugungi kunda ma’naviyatshunoslik fani oldida yangi zamonaviy chaqiriqlarga javob bera olish, raqamli transformatsiyalashuv sharoitida milliy-ma’naviy qadriyatlarni saqlash, targ‘ib qilish va innovatsion usullar orqali tarbiyaviy ta’sir kuchini oshirish kabi dolzarb masalalar turibdi. Ushbu maqolada axborotlashgan jamiyatda yuzaga kelayotgan ma’naviy muammolar tahlil qilinadi hamda ularni hal qilish yo‘llarini izlashda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan turli metodologik yondashuvlar yoritiladi.

Axborotlashtirish jarayonlari nafaqat texnologik, balki madaniy-ma’naviy sohalarga ham chuqur kirib bormoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, sun’iy intellekt asosidagi algoritmik boshqaruv, kontentga asoslangan ijtimoiy fikr shakllanishi bugungi yoshlar va keng jamoatchilik ongiga keskin ta’sir qilmoqda. “Axborot texnologiyalarining kuchayishi va ommaviy madaniyatning virtual muhitda shakllanishi yoshlar ongiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda, bu esa ularning milliy qadriyatlar bilan bog‘liqligini zaiflashtiradi.”[1,29] Ma’naviyatshunoslik kontekstida bu holat shuni anglatadiki, milliy o‘zlik, tarixiy xotira va qadriyatlar zamonaviy axborot oqimida zaiflashish xavfi ostida qolmoqda. Shuningdek, globallashuvning gibrid madaniyatlar paydo qilishi, identitet inqirozi va ruhiy bo‘shliqqa olib keluvchi axborot manipulyatsiyalari ham dolzarb muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Bugungi davrda **ma’naviyatshunoslik fanining asosiy muammolari** quyidagicha ko‘rinish olmoqda:

1. Axborot xurujlariga qarshi ma’naviy immunitetni shakllantirish masalasi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda inson ongiga turli ko‘rinishdagi axborot xurujlari tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari, sun’iy intellekt yordamida yaratilgan manipulyativ kontentlar orqali insonlarning dunyoqarashi, qadriyatlari va psixologik holati sezilarli darajada ta’sir ostida qolmoqda. “Globallashuv va raqamli media vositalarining ta’siri ostida gibrid identitetlar shakllanmoqda. Bu esa yoshlar orasida o‘zlikni anglash jarayonini murakkablashtiradi hamda milliy-madaniy asoslarning erkin buzilishiga olib keladi.” [2,17] Bu holat nafaqat yolg‘on yoki noto‘g‘ri axborot tarqalishi bilan xavfli, balki global gibrid madaniyatlar vositasida milliy o‘zlikni yo‘qotish, ma’naviy befarqlik, tarixiy xotiraga nisbatan sovuqqonlik kabi salbiy oqibatlarga olib kelmoqda.

Shu bois, axborot xurujlariga qarshi kurashda eng samarali yo‘llardan biri sifatida ma’naviy immunitetni shakllantirish zarurati kun tartibiga chiqmoqda. Ma’naviy immunitet deganda, shaxsning ichki ma’naviy qaroriga, mustahkam qadriyatlar tizimiga, tanqidiy fikrlash va mustaqil axborot tahlili qobiliyatiga ega bo‘lishi tushuniladi. Bunday immunitet insonni yolg‘on targ‘ibot, g‘oya va mafkuralar ta’siriga tushmaslikka, har qanday axborotni ongli ravishda baholay olishga va to‘g‘ri qaror qabul qilishga tayyor holatda bo‘lishini ta’minlaydi.

Ma’naviyatshunoslik fanining vazifasi aynan shu yo‘nalishda kengayib, inson ongida mustahkam ma’naviy asoslar yaratish, ijtimoiy-madaniy xotirani mustahkamlash, ijobiy identitetni shakllantirish orqali axborot tahdidlariga qarshi samarali “ma’naviy qalqon” vujudga keltirishga qaratiladi. Bunda maktabgacha ta’limdan boshlab oliy ta’limgacha bo‘lgan barcha bosqichlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi metodikalar, axborotni tahlil qilish ko‘nikmalarini oshiruvchi o‘quv resurslari va interaktiv mashg‘ulotlar joriy etilishi dolzarbdir. Shu orqali jamiyat a’zolari, ayniqsa yoshlar o‘z ongi va ruhiyatini himoya qila oladigan, mustaqil fikrlay oladigan, ijtimoiy barqarorlikka xizmat qiladigan sog‘lom va faol shaxslar sifatida shakllanadi.

2. Raqamli texnologiyalar yordamida ma’naviy tarbiya berish usullarining yetarlicha ishlab chiqilmaganligi. Raqamli texnologiyalar bugungi kunda jamiyatning barcha sohalariga, jumladan, ta’lim va tarbiya tizimiga ham chuqur kirib bormoqda. Shu bilan birga, ushbu imkoniyatlardan ma’naviy tarbiya jarayonida to‘laqonli va tizimli foydalanilmayotgani dolzarb muammo sifatida e’tirof etilmoqda. An’anaviy tarbiya uslublarining zamonaviy raqamli vositalar bilan uyg‘unlashtirilmaganligi, ma’naviy-ma’rifiy kontentning raqamli shakllarda yetarli darajada ishlab chiqilmagani yoki ularning metodik asoslarining zaifligi muammoning asosiy jihatlaridandir.

Bugungi yosh avlod ko‘proq virtual dunyoda – internet, ijtimoiy tarmoqlar, mobil ilovalar va sun’iy intellekt asosidagi platformalarda yashamoqda. Ularning e’tiborini jalb etish, ongiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, ma’naviy qadriyatlarni singdirish uchun aynan shu raqamli muhitda faoliyat yuritadigan, interaktiv va innovatsion tarbiya usullariga ehtiyoj ortib bormoqda. Afsuski, hozircha ko‘plab ta’lim muassasalarida bu boradagi ishlar epizodik, tashabbus darajasida va metodologik jihatdan yetarlicha chuqurlashtirilmagan holatda qolmoqda.

3. Ma’naviy qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda uzviylik va tizimlilik yetishmasligi. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari yoshlar ongida turli g‘oyalar, madaniyatlar va qadriyatlarning to‘qnashuviga sabab bo‘lmoqda. Bunday sharoitda milliy-ma’naviy qadriyatlarni yosh avlod qalbiga chuqur singdirish, ularni shaxsiy hayot mazmuniga aylantirish doimiy va uzviy tarbiya jarayonini talab qiladi. Afsuski, mavjud ta’lim va tarbiya tizimlarida bu borada uzluksizlik, ichki muvofiqlik va tizimlilik yetarli darajada ta’minlanmagan.

Ko‘p hollarda ma’naviy tarbiya alohida tadbirlar, epizodik mashg‘ulotlar yoki bayramlar doirasida amalga oshiriladi, ammo bu usullar yosh ongida chuqur va barqaror ta’sir qoldirishga yetmaydi. Tarbiya maktabgacha yoshdan boshlab, oliy ta’limgacha hamda undan keyingi hayotiy bosqichlarda ham izchil, kompleks, ijtimoiy-psixologik jihatdan asoslangan tarzda olib borilishi lozim. Ta’lim muassasalari, oilalar, jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari o‘rtasida bu borada o‘zaro hamkorlik va metodik uyg‘unlikning yo‘qligi esa muammoni chuqurlashtirmoqda.

4. Virtual muhitdagi mafkuraviy manipulyatsiyalarning oldini olish mexanizmlarining mavjud emasligi yoki zaifligi. Axborotlashgan jamiyatda virtual muhit — ijtimoiy tarmoqlar, veb-saytlar, bloglar va sun’iy intellekt asosidagi algoritmlar orqali ommaviy ongga ta’sir ko‘rsatishning asosiy vositasiga aylangan. Ayniqsa, mafkuraviy manipulyatsiyalar — ya’ni ongni ongli ravishda boshqarish, yolg‘on ideyalarni haqiqat sifatida ilgari surish, qadriyatlar va tarixiy xotirani zaiflashtirish kabi jarayonlar sezilarli darajada kuchaymoqda. Bunday tahdidlar nafaqat tashqi axborot markazlari tomonidan, balki ichki raqamli kontent muhitida ham uchramoqda. “Virtual axborot maydonida mafkuraviy xavfsizlikni ta’minlash faqat texnik choralar bilan emas, balki yosh avlodda tanqidiy tafakkur, axborot savodxonligi va ma’naviy immunitetni shakllantirish orqali amalga oshirilishi mumkin.” [3,112]

Afsuski, bugungi kunda ushbu manipulyatsiyalarning oldini olishga qaratilgan ilmiy asoslangan, kompleks mexanizmlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Yoshlarga axborotni tanqidiy tahlil qilish, mafkuraviy tazyiqlarga qarshi ma’naviy immunitet hosil qilish, gibrid axborot hujumlarini aniqlash bo‘yicha tizimli bilim

va ko‘nikmalar yetkazilmayapti. Maktab va oliy ta’lim tizimlarida bu boradagi dasturlar va platformalar sust rivojlangan, aksariyat hollarda texnologik vositalar faqat axborot uzatish darajasida qolmoqda.

Bundan tashqari, raqamli kontentni monitoring qilish, ijtimoiy tarmoqlardagi targ‘ibot jarayonlarini tahlil qilish, noto‘g‘ri yoki xavfli axborotlarga nisbatan tezkor javob berish kabi muhim funksiyalarni bajaradigan ijtimoiy-psixologik va texnologik vositalar mavjud emas yoki zaif ishlamoqda. Bunday holatda yoshlar, ayniqsa, g‘oyaviy qarashlari shakllanmagan guruhlar, ongiga turli ekstremistik, radikal yoki kosmopolit mafkuralar osongina singib ketishi mumkin.

Bu muammolarni hal etish uchun **ma’naviyatshunoslik fanida zamonaviy yondashuvlar** zarur bo‘lmoqda. Quyida ushbu sohadagi ba’zi samarali metodologik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi:

a) Madaniy-tarixiy yondashuv

Bu yondashuv orqali milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va madaniy meros asosida yosh avlod ongida mustahkam dunyoqarash shakllantiriladi. Axborot muhitida bu yondashuv orqali identitet va o‘zlikni yo‘qotmaslikka erishiladi.

b) Axborot-analitik yondashuv

Ushbu yondashuv axborotni tahlil qilish, soxta axborotni ajrata olish, tanqidiy fikrlash ko‘nikmasini shakllantirishga asoslanadi. Bu metod ayniqsa yoshlar bilan ishlashda muhim o‘rin tutadi.

c) Innovatsion-didaktik yondashuv

Bu yondashuv ta’lim jarayonida interaktiv texnologiyalar, multimedia vositalari, raqamli platformalar orqali ma’naviy bilimlar berishni nazarda tutadi. Onlayn kurslar, audio-video materiallar, virtual muhitdagi treninglar aynan shu yondashuv mahsulidir.

d) Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv

Har bir yoshning ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojlarini inobatga olgan holda tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishga asoslangan. Bu yondashuvda ruhiy qo‘llab-quvvatlash, o‘zini anglashga yordam berish muhim hisoblanadi.

e) Platformaviy-integratsion yondashuv

Raqamli ta’lim muhitida ma’naviyatshunoslikni boshqa fanlar va zamonaviy platformalar bilan integratsiya qilish orqali kompleks yondashuv yaratiladi. Bu model nafaqat o‘quvchi-yoshlar, balki pedagoglar uchun ham foydali ko‘nikmalarni shakllantiradi.

Xulosa va tavsiyalar

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ma’naviyatshunoslik fanining dolzarb masalalari avvalgidan-da chuqurroq tahlilni talab etmoqda. Maqolada ko‘rib chiqilganidek, bugungi axborot maydoni global miqyosda inson tafakkuriga ta’sir ko‘rsatayotgan, yoshlar ongida gibrid qadriyatlar va madaniy ziddiyatlar paydo

qilayotgan murakkab jarayondir. Ma’naviyatshunoslik esa bu jarayonlarga qarshi ijtimoiy immunitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Milliy qadriyatlar, tarixiy xotira va madaniy merosni zamonaviy metodlar asosida targ‘ib qilish, raqamli texnologiyalarni ma’naviy tarbiyada samarali vositaga aylantirish bugungi kunning asosiy vazifalaridandir. Ma’naviyatshunoslik faqat nazariy fan emas, balki amaliy va ijtimoiy foydali faoliyatga aylanishi lozim.

Quyidagi tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Ma’naviy immunitetni shakllantirish bo‘yicha raqamli modul va dasturlar ishlab chiqish – yoshlar orasida axborotni tanqidiy tahlil qilish, soxta axborotni aniqlash ko‘nikmalarini oshirish uchun.

2. Ma’naviyatshunoslik fanini boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyalashgan holda o‘qitish – fanning zamonaviy kontekstdagi ahamiyatini oshirish maqsadida.

3. Raqamli vositalar asosida ma’naviy tarbiya platformalarini yaratish – onlayn darslar, interaktiv o‘yinlar, multimediali darsliklar orqali ta’sirchanlikni kuchaytirish uchun.

4. Pedagoglar uchun raqamli-didaktik yondashuvlar asosida maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil qilish – ular axborot texnologiyalari yordamida ma’naviy tarbiya berish bo‘yicha yetarli tayyorgarlikka ega bo‘lishlari kerak.

5. Axborot xavfsizligi va ruhiy salomatlikni ma’naviyatshunoslik bilan uyg‘unlashtirib o‘rganish – yoshlar ongini himoya qilishda tizimli yondashuv zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008. 29-bet.

2. Habermas J. Theorie des kommunikativen Handelns. Frankfurt am Main: Suhrkamp Verlag, 2002. P. 17

3. Rasulov, A. Axborot xavfsizligi va ma’naviyat. T.: Ijtimoiy fikr, 2020. 112-bet.

TAQILADIGAN SENSORLAR VA IJTIMOIY XULQ-ATVOR: INTELLEKTUAL TAHLILNING JAMIYATDAGI O‘ZGARISHLARGA TA’SIRI

Yo‘ldoshev Javlonbek Omon o‘g‘li,
Dustmuxammedova Munira Farxodovna.
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Samarqand filiali magistranti
yjavlonboy@gmail.com

So‘nggi yillarda axborot texnologiyalari va sun’iy intellektning tezkor rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalariga, jumladan sog‘liqni saqlash, ta’lim, mehnat va ijtimoiy muomala sohalariga chuqur kirib bormoqda. Ayniqsa, taqiladigan sensor qurilmalar (masalan, smart-soatlar, fitnes-trekerlar, yurak urishi datchiklari) inson fiziologik holatini doimiy kuzatib borish imkonini berib, sog‘liq monitoringining yangi bosqichini yaratdi.

Bu qurilmalar orqali yig‘ilgan katta hajmdagi real vaqtli ma’lumotlar (Big Data) yordamida foydalanuvchining jismoniy holati, uyqu sifati, stress darajasi, yurak urish tezligi, harakat faolligi va boshqa ko‘rsatkichlar tahlil qilinmoqda[1]. Bunday tahlil usullari intellektual algoritmlar - mashinaviy o‘rganish, chuqur neyron tarmoqlar orqali amalga oshirilmoqda. Shuningdek, bu tahlillar inson xulq-atvorini, ijtimoiy aloqalarni va umumiy hayot sifatini o‘zgartirish kuchiga ega.

Zamonaviy jamiyatda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ehtiyoj ortib borar ekan, taqiladigan sensor qurilmalar inson salomatligini monitoring qilishda muhim rol o‘ynay boshladi. Ushbu texnologiyalar orqali to‘plangan fiziologik ma’lumotlarni sun’iy intellekt yordamida tahlil qilish nafaqat individual sog‘liq holatini baholash, balki jamiyatdagi umumiy xulq-atvor o‘zgarishlarini ham chuqur o‘rganish imkonini bermoqda. Tadqiqotimiz aynan shunday qurilmalar yordamida foydalanuvchilarning kundalik faoliyati, stress darajasi va ijtimoiy aloqalaridagi o‘zgarishlarni aniqlashga qaratildi.

Tadqiqot obyektlari:

- Foydalanuvchi sifatida 150 nafar ixtiyoriy ishtirokchi (18-55 yosh oralig‘ida)
- Taqiladigan qurilmalar: Apple Watch, Xiaomi Mi Band 8, Garmin Vivosmart, Fitbit Inspire
- Ma’lumot to‘plash davri: 2024-yil avgustdan 2025-yil fevralgacha

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, taqiladigan qurilmalar orqali to‘plangan ma’lumotlar asosida foydalanuvchi fiziologiyasini tahlil qilish nafaqat individual sog‘lom odatlarni shakllantirishga, balki ijtimoiy xulq-atvorni ijobiy tomonga o‘zgartirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, sun’iy intellekt asosida amalga oshirilgan tahlillar stressni kamaytirish, uyqu sifatini yaxshilash va jismoniy

faollikni oshirishga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan[2]. Shu bilan birga, bu jarayonda shaxsiy ma’lumotlar daxlsizligi va texnologiyalardan teng foydalanish masalalari ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Taqiladigan sensor qurilmalar foydalanuvchining turli fiziologik ko‘rsatkichlarini uzluksiz va real vaqt rejimida qayd etish imkonini beradi. Ushbu qurilmalar orqali yig‘ilgan ma’lumotlar foydalanuvchining yurak urish tezligi, harakat faolligi, uyqu sifati, stress darajasi va qurilma foydalanish davomiyligini qamrab oladi. Mazkur bo‘limda aynan shu ko‘rsatkichlar asosida qanday turdagi ma’lumotlar to‘plangani va ular qanday tahlil usullari orqali qayta ishlangani yoritiladi.

1-jadval.

Sensorlar to‘plagan ma’lumotlar

Ko‘rsatkich	Qurilma orqali o‘lchangan birlik	Tahlil usuli
Yurak urish tezligi	BPM (beats per minute)	O‘rtacha, pik qiymatlar
Uyqu sifati	Uxlash davomiyligi, chuqurligi	Uyqu fazalari tahlili
Harakat faolligi	Qadamlar soni, yurish tezligi	Kunlik o‘zgarishlar
Stress darajasi	HRV (Heart Rate Variability)	Stress indeksi
Foydalanish vaqti	Qurilmaning kun davomida ishlatilgan vaqti	Faollik darajasi

Sensorlar orqali yig‘ilgan ma’lumotlar inson fiziologik holatining asosiy ko‘rsatkichlarini aniqlashda yuqori darajada ishonchli va amaliy ahamiyatga ega ekani namoyon bo‘ldi. Ushbu ma’lumotlar asosida yurak faoliyati, uyqu sifati va harakat faolligi kabi mezonlar tahlil qilinib, foydalanuvchining umumiy sog‘lig‘i hamda ruhiy holati haqida chuqur tasavvur hosil qilindi. Bu esa keyingi bosqichlarda intellektual tahlil algoritmlarining aniq va foydali natijalar berishiga zamin yaratdi.


Taqiladigan qurilmalardan olingan katta hajmdagi fiziologik ma’lumotlarni samarali tahlil qilishda sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish usullari muhim o‘rin tutadi[3]. Mazkur bo‘limda foydalanuvchilarning xulq-atvori va holatini baholash hamda guruhlarga ajratish uchun qo‘llangan asosiy intellektual yondashuvlar, jumladan, sun’iy neyron tarmoqlar, klasterlash algoritmlari va tasniflovchilar haqida ma’lumot beriladi. Bundan tashqari, ma’lumotlarni aniq va tushunarli tarzda aks ettirish uchun ishlatilgan vizualizatsiya vositalari ham ko‘rib chiqiladi.

- Sun’iy neyron tarmoqlar yordamida xulqiy o‘zgarishlarni bashorat qilish;
- K-means clustering yordamida ijtimoiy faol guruhlarni aniqlash;
- Naive Bayes tasniflovchi yordamida stress darajasiga qarab holatni baholash;

- Vizualizatsiya uchun Python matplotlib, seaborn, Plotly kutubxonalari.

Intellektual tahlil usullari yordamida foydalanuvchilarning xulq-atvori, sog‘liq holati va ijtimoiy faolligi bo‘yicha aniqlangan qonuniyatlar, ularni tahlil qilish va bashorat qilish imkonini berdi. Sun’iy neyron tarmoqlar va Naive Bayes kabi algoritmlar stress holatini aniqlashda, K-means esa foydalanuvchilarni ijtimoiy xulq bo‘yicha guruhlashda samarali natijalar berdi. Vizualizatsiya vositalari esa olingan ma’lumotlarni intuitiv tahlil qilish va taqdim etishda muhim rol o‘ynadi.

1-rasmda Taqiladigan sensor qurilmalar orqali foydalanuvchilardan yig‘ilgan fiziologik ma’lumotlar asosida intellektual tahlil jarayonini tushunish uchun yordam beradi. Rasmda foydalanuvchidan ma’lumot to‘plash bosqichidan boshlab, ularni sun’iy intellekt orqali tahlil qilish, vizualizatsiya qilish va yakuniy natijalarning jamiyatdagi xulq-atvorga qanday ta’sir etishigacha bo‘lgan bosqichlarni bosqichma-bosqich ifodalaydi. Bu yondashuv tizimli va modulli bo‘lib, har bir komponentning funksional rolini aniq ko‘rsatadi.



1-rasm. Taqiladigan sensorlar asosida xulq-atvor tahlili

Ushbu rasm tahlil qilinayotgan jarayonni soddalashtirilgan va izchil shaklda tasvirlash imkonini berdi. U sensor qurilmalar, ma’lumotlarni yig‘ish va saqlash modullari, sun’iy intellekt asosidagi tahlil, vizualizatsiya va ijtimoiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniq ko‘rsatdi. Bunday yondashuv nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki amaliy loyihalash, sog‘liq monitoringi va ijtimoiy o‘zgarishlarni bashorat qilish tizimlarini yaratishda ham keng qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot davomida 150 nafar ishtirokchining 7 oy davomida Apple Watch, Xiaomi Mi Band 8, Garmin Vivosmart va Fitbit Inspire kabi taqiladigan qurilmalar

orqali to‘plangan fiziologik ma’lumotlari tahlil qilindi. Sun’iy neyron tarmoqlar yordamida yurak urish chastotasi, uyqu sifati va jismoniy faollik o‘zgarishlari asosida xulq-atvor tendensiyalari aniqlandi. Xususan, yuqori stress darajasiga ega foydalanuvchilarda uyqu sifatining pasayishi va harakat faolligining kamayishi kuzatildi. K-means klasterlash orqali foydalanuvchilar ijtimoiy faollik darajasiga ko‘ra 3 asosiy guruhga (passiv, o‘rtacha faollikda, faol) ajratildi. Naive Bayes algoritmi esa 86% aniqlik bilan foydalanuvchilarning stress holatini baholashga muvaffaq bo‘ldi.

Bundan tashqari, vizualizatsiya vositalari (matplotlib, seaborn, Plotly) yordamida har bir foydalanuvchi guruhiga oid xulq-atvor ko‘rsatkichlari grafik shaklida tasvirlandi[4]. Ushbu grafiklar orqali foydalanuvchilarning sog‘liq holatidagi davriy o‘zgarishlar, fasliy farqlar va texnologiyadan foydalanish intensivligi bo‘yicha aniq tendensiyalar ko‘rsatildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, taqiladigan qurilmalar orqali olingan real vaqtli ma’lumotlar jamiyatda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan munosabatni shakllantirish va stressni kamaytirishga qaratilgan profilaktik choralarni ishlab chiqishda ishonchli asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Taqiladigan sensorlar va ularning intellektual tahlili inson fiziologiyasini kuzatish imkoniyatini kengaytirish bilan birga, ijtimoiy xulq-atvorni shakllantiruvchi muhim vositaga aylanmoqda. Tadqiqotimiz doirasida o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, bunday qurilmalar yordamida inson sog‘lig‘i va ruhiy holatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, xulq-atvorni sog‘lomlashtirish, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash imkoniyati mavjud. Biroq, axborot xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi va ijtimoiy tenglik masalalari ham dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zhang, Y., et al. (2021). *A Review on Wearable Sensor Technology for Physiological Monitoring*. Sensors, 21(9), 3031. https://doi.org/10.3390/s21093031

2. Cho, J., & Lee, H. (2022). *Predicting stress levels using wearable sensors and machine learning models*. Computers in Biology and Medicine, 141, 105125.

3. Yang, Y., & Kim, S. (2021). *Social behavior prediction using wearable data and AI-based clustering*. International Journal of Human-Computer Studies, 149, 102601.

4. Uzbekova, D. (2023). *Sun’iy intellekt va axborot texnologiyalarining jamiyatdagi psixologik holatga ta’siri*. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti jurnali, 2(1), 44–51.

TAQILADIGAN QURILMALAR VA FOYDALANUVCHI XULQ-ATVORI: PSIXOLOGIK MONITORINGNING IJTIMOIY OQIBATLARI

Yo‘ldoshev Javlonbek Omon o‘g‘li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Samarqand filiali magistranti
yjavlonboy@gmail.com

Zamonaviy texnologik rivojlanish natijasida taqiladigan qurilmalar (wearable devices) keng tarqalib bormoqda. Ushbu qurilmalar nafaqat jismoniy faollik yoki sog‘liq holatini kuzatish, balki foydalanuvchining psixologik holatini tahlil qilish imkonini ham bermoqda. Masalan, yurak urish tezligi, teri harorati, uyqu sifati, stress indikatorlari singari ma’lumotlar asosida shaxsning ruhiy holati haqida xulosa chiqarish mumkin.

Ammo ushbu texnologiyalarning ijtimoiy jihatdan qanday ta’sir ko‘rsatayotgani masalasi hozircha yetarli darajada tadqiq etilmagan. Inson xulq-atvori ustidan uzluksiz monitoring yuritishning shaxsiy hayot daxlsizligiga, jamiyatdagi o‘zaro ishonch, erkinlik va mehnat muhitiga qanday ta’sir qilishi muhim savollarni tug‘diradi.

Mazkur maqolada taqiladigan qurilmalarning psixologik monitoringda qo‘llanilishi va uning foydalanuvchilar xulq-atvori, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar hamda psixologik farovonlikka ta’siri o‘rganiladi[1].

Zamonaviy taqiladigan qurilmalar inson salomatligi bilan bir qatorda ruhiy holatini ham monitoring qilish imkonini bermoqda. Psixofiziologik ko‘rsatkichlarga asoslangan ushbu monitoring texnologiyalari foydalanuvchi xulq-atvoriga ta’sir ko‘rsatib, ijtimoiy munosabatlar, ish muhitida nazorat va shaxsiy daxlsizlik kabi muhim masalalarni keltirib chiqarmoqda. Ushbu tadqiqotda 150 nafar ishtirokchi ishtirokida Apple Watch, Xiaomi Mi Band 8, Garmin Vivosmart va Fitbit Inspire kabi qurilmalar yordamida 2024-yil avgustdan 2025-yil fevralgacha bo‘lgan davr mobaynida ma’lumotlar to‘plandi hamda psixologik monitoringning ijtimoiy oqibatlari har tomonlama tahlil qilindi.

Adabiy manbalarni tahlil qilish: So‘nggi besh yillikda e’lon qilingan ilmiy maqolalar, texnologik shjarhlar va axborot xavfsizligi bo‘yicha hujjatlar tahlil qilindi.

1. **Sotsiologik so‘rovnoma:** 300 nafar taqiladigan qurilmalardan foydalanadigan shaxslar o‘rtasida anonim onlayn so‘rovnoma o‘tkazildi. Respondentlar yoshi, jinsi, kasbi, texnologiyadan foydalanish sababi va davomiyligi, shuningdek shaxsiy hayot bilan bog‘liq xavotirlari haqida ma’lumot berishdi.

2. **Ekspert intervyulari:** Psixolog, IT-mutaxassis, axborot xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis va etik tadqiqotchilar bilan chuqur intervyular o‘tkazildi.

3. **Tahlil usuli:** So‘rovnomadan olingan ma’lumotlar statistik metodlar yordamida tahlil qilindi. Intervyular esa kontent-tahlil usuli orqali baholandi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, taqiladigan qurilmalar orqali olib borilayotgan psixologik monitoring foydalanuvchi xulq-atvorini faol shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, bu texnologiyalar inson avtonomiyasi, shaxsiy daxlsizlik va ijtimoiy nazorat muammolarini ham yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bunday qurilmalardan foydalanishda axborot xavfsizligi, foydalanuvchi roziligi va etik me’yorlarga qat’iy amal qilinishi zarur.

Taqiladigan qurilmalar tomonidan taqdim etilayotgan real vaqtli ma’lumotlar foydalanuvchilar tomonidan kundalik qarorlar qabul qilishda faol qo‘llanilmoqda. Biometrik ko‘rsatkichlarga asoslangan bildirishnomalar va tavsiyalar orqali shaxslar o‘z harakatlari, dam olish va ovqatlanish odatlarini qayta ko‘rib chiqmoqda. Ushbu bo‘limda monitoring natijasida yuzaga kelgan xatti-harakatlardagi o‘zgarishlar, ular qanchalik ongli yoki avtomatik tarzda amalga oshayotgani hamda foydalanuvchilarning bunga munosabati tahlil qilinadi.

So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, foydalanuvchilarning 64 foizi taqiladigan qurilma ma’lumotlariga qarab o‘z xulqini ongli ravishda o‘zgartirishini tan oldi. Masalan:

- Stress ko‘rsatkichlari oshganida dam olish yoki meditatsiya bilan shug‘ullanish.
- Uyqu sifati past bo‘lsa, kechki faoliyatni kamaytirish.
- Kunlik harakat darajasi yetarli bo‘lmasa, yurish yoki sport bilan shug‘ullanish.

Bu, albatta, salomatlikni yaxshilashda yordam berishi mumkin. Biroq, foydalanuvchilar orasida o‘zini ortiqcha nazorat qilish holatlari (quantified-self disorder) ham qayd etilgan.

Foydalanuvchilarning ko‘pchiligi taqiladigan qurilmalar asosida o‘z odatlarini ijobiy tomonga o‘zgartirayotgan bo‘lsa-da, bu holat ba’zi hollarda o‘zini haddan tashqari nazorat qilish, ruhiy bosim va texnologiyaga ortiqcha bog‘lanishga olib kelmoqda. Shu bois, foydalanuvchi xatti-harakatlariga ta’sir etuvchi bunday texnologiyalar balansli yondashuvni talab qiladi — foydalanuvchini qo‘llab-quvvatlash bilan birga uning erkinligini saqlash zarur.

Taqiladigan qurilmalar orqali olib borilayotgan psixologik monitoring individual foydalanuvchining holatini nazorat qilish bilan cheklanib qolmay, uning atrofidagi ijtimoiy munosabatlarga ham bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa ish joylarida, oila muhitida va onlayn jamoalarda bunday monitoring vositalari orqali shakllanayotgan yangi nazorat, tazyiq va solishtirish madaniyati sezilarli darajada kuchaymoqda. Ushbu bo‘limda taqiladigan qurilmalar vositasida yuzaga

kelayotgan ijtimoiy o‘zgarishlar va ularning insonlararo munosabatlarga bo‘lgan salbiy-ijobiy oqibatlari tahlil qilinadi[2].

Psixologik monitoringning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri murakkab va ko‘p qirrali bo‘lib, u bir tomondan mas’uliyat va sog‘lom turmush tarzini rag‘batlantirsa, boshqa tomondan doimiy kuzatuv ostida yashash, erkinlikni yo‘qotish va ishonchga putur yetkazish holatlarini keltirib chiqaradi. Shuning uchun bunday texnologiyalardan foydalanishda nafaqat individual foyda, balki ijtimoiy ta’sirlar ham e’tiborga olinishi, ayniqsa, ular asosida qaror qabul qilinadigan muhitlarda etik me’yorlar qat’iy belgilanishi lozim. 1-Jadvalda ijtimoiy ta’sirlar tasnifi keltirilgan.

Intervyularda ko‘plab ekspertlar quyidagilarni ta’kidladilar:

- Taqiladigan qurilmalarda to‘plangan psixologik ma’lumotlar (masalan, stress, g‘azab, xavotir) yirik korporatsiyalar yoki ish beruvchilar tomonidan noto‘g‘ri maqsadlarda ishlatilishi mumkin.
- Shaxsiy ma’lumotlar zaif himoyalangan bo‘lishi — psixologik tahdid (psixologik profiling, reklama manipulyatsiyasi) xavfini tug‘diradi.

1-jadval


Psixologik monitoringning ijtimoiy ta’siri turlari

Ta’sir turi	Musbat jihatlar	Salbiy jihatlar
Ish joyidagi monitoring	Mehnat unumdorligini oshiradi	Ishchilarda doimiy nazorat tuyg‘usini keltiradi
Ota-onalar uchun nazorat	Bolalar xavfsizligini ta’minlaydi	Bolaning shaxsiy erkinligini cheklaydi
Sog‘liqni boshqarish	Stress, depressiyani erta aniqlash	Tashxislashda noto‘g‘ri signallar xavfi bor
Ijtimoiy tarmoqlar bilan integratsiya	Tajriba almashish va qo‘llab-quvvatlash	Sun’iy musobaqa, o‘z-o‘zini solishtirish

Monitoring texnologiyalari foydalanuvchiga o‘z holatini yaxshiroq tushunish imkonini berishi mumkin[3]. Ammo bu qulaylik shaxsiy hayotga daxl qilmaslik tamoyiliga zid kelmasligi kerak. Uzoq muddatli kuzatuv holatlarida “avtonomiya illuziyasi” shakllanishi mumkin: foydalanuvchi o‘zini mustaqil qaror qilayotgan deb hisoblaydi, lekin aslida qurilma tomonidan taklif etilgan xatti-harakatlarni avtomatik qabul qilmoqda.

Tadqiqot davomida 100 nafar ishtirokchi tomonidan 6 oy mobaynida taqiladigan qurilmalar orqali yig‘ilgan psixofiziologik ma’lumotlar tahlil qilindi. Foydalanuvchilarning 78 foizi stress darajasini kuzatish funksiyasidan faol foydalangan, 64 foizi esa yurak urishi va uyqu sifatiga oid ko‘rsatkichlarga asoslanib kundalik odatlarini o‘zgartirgan. Kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, doimiy ravishda bildirishnomalar olgan foydalanuvchilar jismoniy faollikni oshirish va

ovqatlanishni nazorat qilishga ko‘proq moyil bo‘lgan. Ayniqsa, o‘z holatini doimiy tahlil qilish odatiga ega foydalanuvchilarda o‘zini baholash va xatti-harakatlarga ongli yondashuv kuchaygan[4].



1-rasm Texnologik etik masalalar

Biroq, natijalarda psixologik monitoringning salbiy jihatlari ham aniqlandi. 22 foiz foydalanuvchi qurilmaning takliflari yoki ogohlantirishlari tufayli o‘zini haddan tashqari nazorat qilishga harakat qilganini bildirgan. Ayrim ishtirokchilarda bildirishnomalarning ko‘pligi stressni kamaytirish o‘rniga uni kuchaytirgan. Shuningdek, ijtimoiy munosabatlar kontekstida 17 foiz foydalanuvchi qurilmadagi ma’lumotlar ish joyidagi rahbarlar yoki oiladagi boshqa a’zolar tomonidan bevosita nazorat vositasi sifatida ishlatilganini bildirgan. Bu esa taqiladigan qurilmalar orqali amalga oshirilayotgan monitoring inson psixologiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi bilan birga, noto‘g‘ri foydalanilganda salbiy ijtimoiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Swan, M. (2012). *Sensor mania! The Internet of Things, wearable computing, objective metrics, and the quantified self 2.0.* Journal of Sensor and Actuator Networks, 1(3), 217–253. https://doi.org/10.3390/jsan1030217

2. Lupton, D. (2016). *The Quantified Self: A Sociology of Self-Tracking.* Polity Press.

3. Piwek, L., Ellis, D. A., Andrews, S., & Joinson, A. (2016). *The Rise of Consumer Health Wearables: Promises and Barriers.* PLOS Medicine, 13(2), e1001953. https://doi.org/10.1371/journal.pmed.1001953

4. Yujie, L., & Jian, M. (2020). *Wearable Technology and Social Surveillance: A Psychological Perspective.* Technology in Society, 60, 101224.

MASOFAVIY TA'LIMDA INTERFAOL METODLAR: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR

Murtazayeva Umida Isakulovna,
Dustmuxammedova Munira Farxodovna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi
TATU Samarqand filiali
murtazayeva1982@yandex.ru

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta’lim tizimida tub o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta’lim keng ko‘lamda joriy etilishi, o‘quvchilarning bilim olish jarayonini uzluksiz davom ettirishda muhim vositaga aylandi. Bunday ta’lim shaklida interfaol metodlarning ahamiyati ortdi. Ushbu maqola masofaviy ta’limda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari va cheklovlarini o‘rganishga qaratilgan.

An’anaviy ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida bevosita muloqot mavjud bo‘lsa, masofaviy ta’limda bu jihat sezilarli darajada kamayadi. Bu holat o‘qituvchilarni darsni interfaol usullar yordamida tashkil etishga undaydi. Ammo interfaol metodlarni onlayn shaklda samarali joriy etish bir qator cheklovlar va muammolarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun masofaviy ta’limda qanday interfaol metodlar qo‘llanilishi, ularning afzalliklari va kamchiliklarini o‘rganish dolzarb masaladir.

So‘nggi yillarda masofaviy ta’limga oid ilmiy maqolalar, tadqiqotlar soni ortib bormoqda. Xalqaro tadqiqotlarda (Anderson, 2008; Garrison & Vaughan, 2011) masofaviy ta’limda talabalar faolligini oshirishda interfaol metodlarning zarurligi ta’kidlanadi. Mahalliy tadqiqotchilar (Yoqubov, 2020; Umarova, 2021)

ham interfaol metodlarning masofaviy sharoitdagi o‘quv jarayoniga moslashuvchanligini alohida ta’kidlaydi. Shu bilan birga, internet tezligi, texnik vositalarning yetishmasligi, o‘qituvchilarning tayyorgarligi kabi omillar muammoli jihat sifatida e‘tirof etiladi.

Tadqiqotimizda zamonaviy masofaviy ta’lim jarayonini chuqur tahlil qilish, unda interfaol metodlarning qamrovi va natijadorligini baholash maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Nazariy va empirik usullardan foydalanilgan bo‘lib, ular orqali interfaol metodlar amaliyotda qanday tatbiq etilayotganini ko‘rsatishga harakat qilindi.

Tadqiqot davomida quyidagi usullar qo‘llanildi:

- Nazariy tahlil (ilmiy adabiyotlar va ilgari o‘rganilgan tadqiqotlar sharhi);
- So‘rovnoma (o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida);
- Statistik tahlil (jadvalda ko‘rsatilgan natijalar asosida);
- Vizualizatsiya (sxema orqali metodlar klassifikatsiyasi).

Tadqiqot natijalari masofaviy ta’limda interfaol metodlarning samarali qo‘llanilishi uchun yetarlicha imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, bu metodlarni to‘laqonli amalga oshirishda ayrim muammolar, xususan, texnik ta’minot, pedagogik tayyorgarlik va talabalarning ishtirok faolligi bilan bog‘liq cheklovlar mavjudligini ham aniqlashga imkon berdi.

Tadqiqot davomida yig‘ilgan ma’lumotlar asosida masofaviy ta’limda interfaol metodlarning qo‘llanish holati va samaradorligi tahlil qilindi. Turli usullarning kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, ular jadval shaklida umumlashtirildi.

Quyidagi jadvalda masofaviy ta’limda eng ko‘p qo‘llaniladigan interfaol metodlar va ularning afzallik hamda kamchiliklari aks ettirilgan:

Jadval 1.


Masofaviy ta’limda qo‘llanilayotgan interfaol metodlar tahlili

Interfaol metod	Afzalliklari	Kamchiliklari
Onlayn muhokama forumlari	O‘quvchilar faolligini oshiradi	Vaqt sarfi ko‘p, moderatsiyani talab qiladi
Test va viktorinalar	Tez fikrlashni rivojlantiradi	Cheating ehtimoli yuqori
Video darslar + savol-javob	Vaqt va joydan mustaqil ta‘lim imkoniyati	Internet tezligiga bog‘liq
Virtual laboratoriyalar	Amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi	Maxsus platformalarga ehtiyoj bor
Loyihaviy ishlar (onlayn)	Mustaqil fikrlashni rag‘batlantiradi	Guruh ishi muvofiqlashtirish qiyin

Olingan natijalar interfaol metodlar ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatdi. Biroq ularning samaradorligini oshirish uchun texnik

imkoniyatlar va pedagogik yondashuvlar bilan bir qatorda, o‘quvchilarning faolligi va ishtirok darajasini ham hisobga olish zarur.

Masofaviy ta’limda interfaol metodlar o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga faol jalb qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, zamonaviy texnologiyalar yordamida tashkil etilgan video darslar, onlayn muhokama maydonchalari, test tizimlari o‘quvchi faolligini oshirishda foydalidir. Shu bilan birga, kamchiliklar qatorida texnik cheklovlar, ishtirokchilarning motivatsiyasi pastligi, kommunikatsion muammolar kabilar mavjud. Quyidagi 1-rasmda masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan interfaol metodlarning klassifikatsiyasi aks ettirilgan:



1-rasm. Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan interfaol metodlarning klassifikatsiyasi

Masofaviy ta’lim sharoitida interfaol metodlardan foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir. Ular orqali o‘quvchilarni darsga jalb qilish, bilimni chuqur o‘zlashtirish, mustaqil fikrlashga o‘rgatish mumkin. Ammo, bu metodlarning to‘liq samaradorligi uchun texnik baza, metodik ko‘nikmalar va talabalar motivatsiyasi muhim rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anderson T. The Theory and Practice of Online Learning. 2nd ed. Athabasca: Athabasca University Press, 2008.

2. Garrison D.R., Vaughan N.D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San Francisco: Jossey-Bass, 2011.

3. Yoqubov B. Masofaviy ta’limda interfaol metodlar // Pedagogika va psixologiya. – 2020. – № 4(2). – B. 33–39.

4. Umarova M. Interfaol usullarni onlayn darslarda qo‘llash tajribalari // Ta’lim innovatsiyalari. – 2021. – № 2(1). – B. 45–50.

FOSTERING LOGICAL REASONING IN YOUTH: A FOUNDATION FOR INNOVATIVE GROWTH

Erkaboyeva Nigora Shermatovna
Abdullayeva Dilbarhon Usmonkhoja qizi
Kokand State University
Abdullayevadilixon@gmail.com

Annotation. By focusing on youth aged 15–24 in Uzbekistan, the research highlights the importance of logical reasoning as a foundational cognitive skill for engaging in innovative activities such as problem-solving competitions, entrepreneurship, and technological development. Using a mixed-methods research design, the study collects both quantitative data through logical reasoning tests and surveys on innovation engagement, and qualitative data from interviews with youth participants. The findings indicate a strong positive correlation between logical reasoning and active participation in innovative activities. Specifically, youth who excelled in logical reasoning tasks were more likely to engage in creative endeavors that required problem-solving and innovative thinking. The study also emphasizes the significant role of educational environments, noting that schools and programs that promote critical thinking, STEM education, and digital literacy are more likely to cultivate the cognitive skills necessary for innovation.The research also sheds light on socio-demographic influences on innovation engagement. Urban youth had greater access to resources such as STEM programs, digital tools, and innovation labs, which provided them with more opportunities to apply their logical thinking skills. Gender differences in the types of innovation projects—where males often engaged in competitive, technical projects and females in collaborative, community-based ones—are also explored. These findings highlight the need for inclusive educational practices that cater to diverse learning styles and support equitable access to innovation resources.

Keywords: *logical thinking, innovation, youth development, educational strategies, STEM education, digital literacy, critical thinking, problem-solving, cognitive skills, gender differences, socio-demographic influences, educational reform ,innovation engagement, youth empowerment.*

INTRODUCTION. The ability of a nation to foster innovation determines not only its economic trajectory but also its cultural, technological, and intellectual vitality. At the heart of this process lies human capital, particularly the youth population, whose potential to generate new ideas, develop technologies, and solve complex societal problems positions them as pivotal contributors to future progress.However, innovation does not arise in a vacuum; it is deeply rooted in the cognitive capacities of individuals—especially the capacity for logical thinking. Logical thinking, characterized by the ability to analyze situations, draw valid conclusions, and systematically solve problems, is foundational to the creative process. In contrast to rote learning, which emphasizes memorization and passive acquisition of knowledge, logical thinking promotes active engagement, critical inquiry, and intellectual autonomy. This cognitive ability is increasingly essential in a world that demands flexibility, adaptability, and multidisciplinary collaboration. As global challenges—ranging from climate change to artificial intelligence—become more complex, there is a heightened need for youth to think logically, evaluate information critically, and synthesize knowledge from diverse sources. Modern educational paradigms are gradually shifting toward competency-based models that emphasize critical thinking, problem-solving, and creativity. Despite this progress, many traditional educational systems, particularly in developing nations, continue to emphasize didactic teaching methods and standardized testing that do not adequately cultivate logical reasoning. As a result, students may graduate with knowledge but lack the capacity to apply that knowledge in innovative and transformative ways. Numerous studies have indicated a strong correlation between logical thinking skills and academic performance, as well as innovative behavior in various domains such as science, technology, engineering, arts, and mathematics (STEAM). The development of logical thinking skills in early education has been linked to increased cognitive flexibility, intellectual resilience, and a greater likelihood of entrepreneurial mindset in adulthood (Author, Year).Youth, typically defined as individuals between the ages of 15 and 24, represent one of the most dynamic and promising segments of the population. With access to digital tools, global information networks, and collaborative platforms, young people today have unprecedented opportunities to contribute to innovation. Yet, their success in doing so depends significantly on how well their cognitive foundations are cultivated during their formative years. In regions such as Central Asia, and particularly Uzbekistan, where youth make up a substantial portion of the population, strategic investments in cognitive development and education reform can have far-reaching effects on national development. Programs that emphasize logic, reasoning, and decision-making can empower young individuals to not only participate in but also lead

innovative projects, startups, and community initiatives. While the importance of logical thinking in innovation is widely acknowledged, there remains a lack of comprehensive studies exploring how logical thinking is developed in youth, and how it directly impacts their innovative capacities. Most existing literature either focuses narrowly on innovation education or treats logical thinking as a byproduct rather than a deliberate objective. This study aims to fill that gap by exploring the development of logical thinking in youth as a primary driver of innovation. Through both empirical research and theoretical analysis, it will examine how educational systems, social environments, and personal motivation intersect to shape logical reasoning skills, and how these skills in turn translate into innovative outputs.

To address the objectives of this study, the following research questions are proposed:

5. What is the current state of logical thinking development among youth in secondary and tertiary education?
6. How do logical reasoning skills influence youth participation in innovative activities?
7. What educational practices and policies most effectively support the development of logical thinking?
8. What barriers hinder the cultivation of logical thinking in youth, and how can they be overcome? To assess the current level of logical thinking among youth in selected educational institutions.

- To explore the correlation between logical thinking skills and participation in innovative
- activities.
- To identify best practices in educational settings that foster logical reasoning.
- To develop recommendations for policymakers, educators, and institutions aiming to cultivate innovation through logic-based learning models.This study holds both theoretical and practical significance. Theoretically, it contributes to the growing body of knowledge on the cognitive bases of innovation. Practically, it provides evidence-based insights for educators, curriculum designers, and policy makers seeking to enhance youth innovation capacity through targeted cognitive development strategies. In the context of a global knowledge economy, nations that invest in developing the logical faculties of their youth are likely to be better positioned to lead in innovation, technology, and sustainable development.

METHODS. This study adopted a **mixed-methods research design**, combining both quantitative and qualitative methodologies to obtain a

Yoshlar bugun faqat tinglovchi emas, balki faol ishtirokchi va tashabbuskor sifatida ijtimoiy maydonda o‘z o‘rnini topmoqda. Ular jamiyatda tenglik, ochiqlik, mas’uliyat va qonun ustuvorligiga asoslangan qadriyatlar uchun ovoz bermoqda. Bu jarayonda maktablar, universitetlar, mahalla tashkilotlari, yoshlar ittifoqlari va ijtimoiy tarmoqlar faol platformaga aylanmoqda.

Masalan, ta’lim muassasalarida tashkil etilayotgan fuqarolik tarbiyasi mashg‘ulotlari orqali talabalar huquq va burchlar haqida chuqurroq tasavvurga ega bo‘lmoqda. Ularga jamiyatdagi tenglik, ijtimoiy adolat, erkin fikr bildirish madaniyati singdirilmoqda. O‘quvchi va talabalar darsdan tashqari loyihalarda ishtirok etib, turli muammolar yechimida faol pozitsiya bildiradi. Bu esa yoshlarning fuqarolik pozitsiyasini shakllantiradi va jamiyatdagi o‘zgarishlarga befarq bo‘lmaslik ruhini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar esa yoshlar uchun fikr bildirish, muhokama qilish, jamoaviy g‘oyalarni ilgari surish imkonini bermoqda. Yoshlar o‘zlari qiziqqan mavzularda bloglar yuritadi, ijtimoiy adolatsizliklarga e’tibor qaratadi va virtual aksiya, forum, jonli efirlar orqali o‘z nuqtai nazarini keng auditoriyaga yetkazadi.

Bu nafaqat erkin fikrlashni, balki mas’uliyat bilan chiqish qilishni ham o‘rgatmoqda.

Nodavlat notijorat tashkilotlari doirasida yoshlar ko‘ngilli loyihalarda qatnashib, aholining zaif qatlamlariga yordam berish, ekologik muammolarni ko‘tarish, ma’rifiy targ‘ibot ishlarida faol bo‘lish orqali o‘z fuqarolik burchini ado etmoqda. Shu orqali ular hayotga befarq bo‘lmagan, ijtimoiy adolat tarafdori bo‘lgan shaxs sifatida shakllanmoqda.

Shuningdek, yoshlar jamoat kengashlari, ijtimoiy eshituvlar, demokratik islohotlar bo‘yicha yig‘inlarda qatnashib, qarorlar qabul qilishda o‘z fikrini bildirib, adolatli tizim yaratilishiga hissa qo‘shmoqda. Bu holat nafaqat yoshlarning ovozini eshitishga tayyor muhit mavjudligini, balki ular bunga munosib darajada tayyor ekanini ko‘rsatmoqda.

Yoshlarning o‘z haqiqatini adolat tamoyillari asosida ifoda etishga intilishi, ularning jamiyatdagi ijtimoiy rolini kuchaytiradi. Bu holat jamiyatdagi ishonch, barqarorlik va taraqqiyot uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Har bir faol yosh — bu adolatli jamiyatga qo‘yilgan tirgakdir.

Yoshlarning fuqarolik jamiyatidagi ishtiroki bo‘yicha amaliy misollar

Fikr yo‘nalishi	Amaliy misol
Ta’lim muassasalarida	Universitetda “Fuqarolik madaniyati” bo‘yicha ochiq

Fikr yo‘nalishi	Amaliy misol
fuqarolik tarbiyasi	dars o‘tkazilib, talabalar jamiyatdagi adolat masalalari yuzasidan munozarada ishtirok etadi.
Darsdan tashqari loyihalarda ishtirok	Talabalar “Adolatli jamiyat uchun” nomli debat klubida qatnashib, fuqarolik burchi, qonunlarga hurmat haqida fikr almashadilar.
Ijtimoiy tarmoqlarda faol fuqarolik pozitsiyasi	Yosh bloger Instagram sahifasida korrupsiyaga qarshi kurash, qonun ustuvorligi haqida videoroliklar tayyorlab e’lon qiladi.
Nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik	Yoshlar ekologik muammolar yuzasidan ko‘ngilli tarzda daraxt ekish aksiyasida qatnashib, aholiga tushuntirish ishlarini olib boradilar.
Jamoat kengashlarida ishtirok	Talaba yoshlar mahalliy hokimiyat yig‘ilishlarida ishtirok etib, yoshlar bandligi va ta’lim sifati haqida takliflar bildiradilar.
Adolat, tenglik, qonuniylikni himoya qilish	Talabalar adolat prinsiplarini targ‘ib qiluvchi “To‘g‘ri yo‘l” nomli sahna ko‘rinishi orqali universitetdagi madaniy tadbirda chiqish qilishadi.
Blog va forumlar orqali fikr bildirish	Yoshlar Telegramdagi muhokama guruhlarida jinoyatchilikning oldini olish, yoshlar huquqi kabi mavzularni muhokama qiladilar.

XULOSA

Yoshlar har qanday jamiyatning kelajagi, taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchidir. Ularning fuqarolik jamiyatida faol ishtirok etishi nafaqat ularning ijtimoiy pozitsiyasini mustahkamlab boradi, balki jamiyatdagi adolat, tenglik, qonun ustuvorligi kabi tamoyillarning real hayotda qaror topishiga xizmat qiladi. Aynan yoshlarning faolligi orqali fuqarolik jamiyatining ildizlari mustahkamlanadi va inson huquqlari, erkinliklari, ijtimoiy tenglik kabi qadriyatlar kundalik hayotga singib boradi.

Yoshlar bugungi kunda turli ijtimoiy institutlar – maktablar, universitetlar, NNT(**Nodavlat notijorat tashkiloti**)lar, yoshlar ittifoqlari, jamoat kengashlari hamda internet orqali o‘z fikrini erkin ifoda eta olish, adolatsizlikka qarshi chiqish, tashabbus ko‘rsatish imkoniyatiga egadir. Bu ularning nafaqat bilimga ega, balki ijtimoiy mas’uliyatli shaxslar sifatida shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Ta’lim muassasalarida o‘tkazilayotgan fuqarolik tarbiyasiga oid mashg‘ulotlar orqali yoshlar qonunlarga hurmat, inson huquqlari, jamiyatdagi

tenglik va ijtimoiy mas’uliyat haqida chuqur bilimga ega bo‘lmoqda. Bu esa ular uchun kelajakda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lishning poydevorini yaratadi.

Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar esa bugungi yoshlar uchun keng imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Ular o‘z fikrini ommaga yetkazish, muammolarni ko‘tarish, adolatsizliklarga e’tibor qaratish, hamda ijtimoiy loyihalarda ishtirok etish orqali amalda fuqarolik jamiyati a’zosi sifatida shakllanmoqda. Bu esa texnologiyaning yoshlar ongiga salmoqli ta’sir ko‘rsatayotganini anglatadi.

Shuningdek, yoshlarning jamoatchilik kengashlari, ijtimoiy eshituvlar va muhokamalarda qatnashishi ular uchun ijtimoiy hayotning muhim qarorlariga bevosita ta’sir o‘tkazish imkonini beradi. Bu esa yoshlarning nafaqat tinglovchi, balki qaror qabul qiluvchi kuchga aylanishi uchun muhim bosqich hisoblanadi.

Adolat tamoyillariga sodiqlik, tenglikka ishonch, mas’uliyatli yondashuv yoshlarning shaxsiy fazilati bo‘lib shakllanar ekan, bu ularning faqat o‘zlari uchun emas, balki butun jamiyat uchun foydali bo‘lgan faol shaxs bo‘lishini ta’minlaydi.

Bunday yoshlar kelajakda davlat boshqaruvida, huquqni muhofaza qilish tizimida, ta’limda, sog‘liqni saqlashda yoki boshqa sohalarda adolat tamoyillarini ro‘yobga chiqaruvchi yetakchilarga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Yo‘ldoshev Q. Yo. **Fuqarolik jamiyati: mohiyati, shakllanish bosqichlari va rivojlanish tendensiyalari**. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
2. Karimov O. A. **Yoshlar va jamiyat: ijtimoiy-siyosiy faollikni shakllantirish asoslari.** – Toshkent: Fan va taraqqiyot, 2022.
3. G‘ulomov A. A. **Huquqiy madaniyat va fuqarolik tarbiyasi**. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2019.
4. Shomurodova D. M. **Yoshlar siyosati va fuqarolik ongining shakllanishi**. – Samarqand: Ilm ziyo, 2021.
5. Raxmatov N. R. **Demokratik jamiyat va adolat prinsiplari: nazariya va amaliyot**. – Buxoro: BuxDU nashriyoti, 2023.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TARIXIY TAFAKKUR VA MILLIY O‘ZLIKNING ANGLASH MUAMMOLARI.

Sh.Suyunov
SamDCHTI, Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti

Globallashuv sharoitida tarixiy tafakkur va milliy o‘zlikni anglash muammolarini o‘rganish zarurati paydo bo‘ldi. Chunki, butun boshli xalqlar va millatlar sobiq ittifoq tarkibida 70 yil davomida milliy madaniyat va milliy tildan

begonalashtirish siyosati ta’sirida yashab keldi. Bu siyosatning maqsadi barcha millatlarni yagona til, yagona siyosat va yagona xalqqa birlashtirish edi. Millatlar shu jarayonda internatsionallashib, o‘z tilidan, urf-odatlaridan ajralib yagona sovet xalqiga birlashishlari kerak edi. Eski siyosatning chil-parchin bo‘lishi xalqlarni o‘zligini anglashga majbur qildi. Yangilanish tarix fani oldiga yangi vazifalar qo‘ydi. Vazifalar qo‘yibgina qolmasdan, balki, tarixning o‘zini ham yangilanishga majbur qildi. Mustaqillik turtkisidan seskangan tarix fani vujudiga yangi nafas kira boshladi. Zolim siyosatning qonli hujjatlari yashirib kelingan arxiv eshiklari ochila boshladi. O‘tmishni anglash, uni to‘g‘ri tushunish orqali kishilar ongi va ruhiyatida jiddiy o‘zgarishlar yasashga, shu orqali hayotni, turmush tarzini, oxir-oqibatda esa jamiyatni ma’naviy isloh qilishga erishiladi [1.B.46].

Milliy o‘zlikni anglash yo‘liga kirgan millatlar va xalqlar endilikda o‘z tarixiy o‘tmishini qayta o‘rganib chiqish asosida o‘zlarining barcha sohada erishgan yutuqlarini asrab-avaylashlari shu bilan birga ularni rivojlantira borishlari kerak bo‘ladi. Bunga faqat mustaqillikkina imkon beradi. Ana shu imkondan foydalangan millat o‘z milliy qadriyatlarini rivojlantiradi, ularga tayangan holda mustaqillikni mustahkamlaydi va himoya qiladi. Butun insoniyat tarixining eng asosiy hayotbaxsh tamoyillaridan birini ifodalaydigan bunday o‘zgarish ehtiyoji, yangi ijtimoiy makonni bunyod etish jarayoni ulkan natijalarga sabab bo‘lgan yuksalish va taraqqiyot davrlarining asosiy qonuniyatlaridan biriga aylangan [2.B.285]. Shu ma’noda milliy o‘zlikning anglash millatni har tomonlama rivojlanishining zaruriy sharti deyish mumkin.

O‘zlikni anglash qiyin, murakkab jarayondir. O‘zbek xalqi o‘zligini anglashga qadim zamonlardanoq intilib kelgan. Bu intilish ularning og‘zaki ijodida: maqol-matallarida, dostonlarida, aytimlarida, hatto qo‘shiq va raqslarida ham aks etgan. Xalq o‘z o‘tmishida erishgan barcha an’analarini asrab avaylashga, uni avlodlardan avlodlarga o‘tkazishga harakat qilgan. Tarbiya ishida ham bunga qat’iy amal qilingan. Yurtni sevishga, ajdodlari erishgan yutuqlarni qadrlashga harakat qilganlar. XX asrning boshlari O‘zbekistonda kelib chiqqan ma’rifatchilik harakati vakillari – jadidlar ham bu masalaga jiddiy e’tibor berganlar. Bu haqida tarixchi olim D.Alimova o‘z maqolasida “... ularning fikricha, milliy masala barcha etnik guruhlarni birlashtirish kerak. Ehtimol, bir qadar sodda qarashdek ko‘rinar, lekin, jadidlarning milliy o‘zlikni anglashi etnik tushunchalar bilan chambarchas bog‘liq edi. Etnik jihatdan o‘zini-o‘zi anglashini ular “millat”, “musulmonlar”, “turkistonliklar”, “turonliklar” kabi tushunchalar orqali ifodalagan. Jadidlar millat deganda avvalo, Turkistonda, Buxoro va Xiva xonliklarida yashovchi turkiy va forsiy tilli aholini tushungan. Bu borada jadidchilik tarixi amerikalik mutaxassis Adib Xolid ham Turkistn xalqini yagona nom bilan ta’riflash uchun “musulmon” so‘zidan ko‘ra muvofiqroq nom bo‘lmaganini ta’kidlaydi” [3.B.41].,-deb yozadi.

O‘zlikni anglash zarurati qadim zamonlardan buyon mavjud. Insoniyat o‘zining minglab yillik mehnat faoliyati natijasida buyuk ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ko‘p qirrali ma’naviy-madaniy yuksalishga erishdi. Buning mevasi sifatida turmush tarzida ulkan burilishlar ro‘y berdi. Bu murakkab ijtimoiy taraqqiyot jarayonini o‘tish davrida el-elat, xalq va millatlar birlashib yoki alohida davlat shaklida dunyo xaritasida o‘z o‘rnini topganlar. O‘zbek xalqi ham asrlar davomida tadrijiy rivojlanish va tarkib topish davrida sak, xun, qadimgi turk, yangi turk nomlari bilan yashab o‘z tarixiga, tili, madaniyati, ma’naviyati, urf-odatlari majmuiga ega millat sifatida shakllanib kelgan. Mustaqillik tufayli esa jahonga tanilmoqda.

O‘zbek millatining tarixiy tarkib topishi, millat ma’naviyati (til, madaniyat, davlat, turmush tarzi va hokazolarning) ichki rivojlanishi betakror va ko‘p qarashli jarayondir.

Tarixiy tafakkur milliy o‘zlikni bevosita shakllantiradi, biz buni o‘z Vataniga muhabbat va sadoqat, uning manfaatlariga xizmat qilishga intilish, uning himoyasiga tayyorlik sifatida tushunamiz. Shaxs darajasida milliy o‘zlik insonning eng muhim, barqaror ma’naviy qiyofasi sifatida chiqib, uning dunyoqarashi, axloqiy ideallari, xulq–atvor me’yorlarida ifodalanadi. Tarixiy tafakkurning ushbu darajasida, ham konkret–tarixiy, ham nazariy darajalarda insoniyatning o‘tmishini uning barcha qarama–qarshiliklari va murakkabliklarida tushuntirishga o‘rinib ko‘riladi.

Yoshlarda milliy o‘zlikni shakllantirishda shunga e’tibor qaratishimiz zarurki, o‘tgan davrning barcha og‘irliklari va qiyinchiliklariga, inqilobiy larzalar va totalitarizm uqubatlariga qaramasdan, mamlakatimiz hududida yashayotgan xalqlar o‘zlarining madaniy o‘ziga xosligini saqlab qola oldi.

Biz mamlakatning polietnikligi shakllanishi jarayonlarini ob’yektiv tarzda o‘rganishimiz kerak. O‘zbekiston tarixi – bu bizning umumiy tariximizdir. Biz shu narsani aniq tushunib yetishimiz zarurki, o‘zbek xalqining XX asrdagi tarixi – bu ko‘p jihatdan milliylik va totalitarizm to‘qnashuvining tarixidir. Masalaning bunday qo‘yilishi milliy tarixni o‘rganish vazifalariga ob’yektiv tarzda e’tiborni jamlaydi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov alohida ta’kidlagan ediki, “O‘z tarixini biluvchi, undan ma’naviy quvvat oluvchi xalqni yengib bo‘lmas ekan, bizning haqqoniy tariximizni tiklash, butun millatimizni ushbu tarix bilan qurollantirish zarur”[4.B-112]. Tarixni o‘rganish ma’lum doiradagi yozma, buyum (arxeologik yodgorliklardan tortib to zamonaviy mashinalar va uy–ro‘zg‘or predmetlarigacha), etnografik, lingvistik, og‘zaki, fotohujjatlar, kinomateriallardan iborat manbalarning tahlilini nazarda tutadi [5.B-91].

Tarix fan sifatida bir qator vazifalarni bajarishi lozim, ularning eng muhimlari quyidagilardan iborat:

– mamlakat tarixini va uning rivojlanish tamoyillarini o‘rganishdan iborat bo‘lgan bilish vazifasi;

– dunyoqarash bilan bog‘liq. Tarixni o‘rganish kishining dunyoqarashi shakllanishiga qattiq ta’sir ko‘rsatadi, binobarin, kishining olamga va o‘zining undagi o‘rniga qarashlari u o‘rganayotgan tarixning haqqoniyligiga yoki buzilganligiga bog‘liq vazifasi;

– tarbiyaviy vazifa. Uning ahamiyati bebahodir. O‘z mamlakatining haqiqiy tarixini o‘rganish vatanparvarlik, o‘z xalqiga mansubligidan iftixor tuyg‘usi, Vataniga muhabbat singari fazilatlarni tarbiyalaydi. “Xotira – kechagi o‘tmishni, ajdodlar o‘gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi – muqaddas kitob zarvaraqlaridek hayotimizni yoritib turadi. Qadr – insonni yuksaklikka ko‘taradi, uning faoliyatiga, orzu-intilishlariga, maqsad-maslaklariga olijanoblik bag‘ishlaydi.Bukilmas iroda va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o‘z hayotini aziz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishi, bugungi tinch va osoyishta kunlar uchun jonini fido qilgan ajdodlarning muqaddas xotirasini yod etib, ezgu ishlarini davom ettirish, safimizda yurgan keksalarni e’zozlash – odamiylikning eng oliy mezoni va bizga tinchlik, omonlik kerak, deb yashaydigan bag‘rikeng va olijanob xalqimizga xos azaliy qadriyatdir.” [6.B-17].

Umuman olganda, xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, birinchi navbatda, millat o‘zligini anglashi uni iqtisodiy ma’naviy jihatdan boyitish, ko‘ngilni to‘ldirish, faxrlanish tuyg‘ularini yuksaltirishni va shular asosida uni kelajakka qat’iy ishonch bilan borishini ta’minlaydigan kuchdir, deb ta’riflashimiz mumkin. Millat manfaatlar tufayli o‘zligini anglashga intiladi va shu asosda o‘z kelajagini belgilaydi.

ADABIYOTLAR

1.Jo‘raev N., Yangilanishlar konsepsiyasi yaratilishi, evolyusiyasi va amaliyoti.T.: “Ma’naviyat”. 2002 y. 46 – bet.

2. Nazarov Q. Yangi O‘zbekiston fenomeni. //https://uzlidep.uz/positionparty/285

3. D.Alimova. O‘zlikni anglash mashaqqatlari. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi №30. 2005y.

4. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. Biz o‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. Asarlar.7 tom. O‘zbekiston.1999-y.

5. Istoriya Uzbekistana. // Pod. red. V.L. Gentshke i dr. – T.:Universitet, 2002.

6. Z. Q. Ismoilova. Ma'naviy –axloqiy tarbiyaning nazariy va eksprimental metodik asoslari (milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar asosida). Pedagogika fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. – T.: 2006. –B. 91.

NAMANGAN JADIDCHILIK HARAKATINING VUJUDGA KELISHI

Qo‘qon Universiteti
Abdullaxo‘jayev Adhamxo‘ja Isaxo‘ja o‘g‘li
Akramjonova Dilnavoz Davronbek qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakatini butun Turkiston bo‘ylab Namanganga ham kirib kelgani va Namanganda jadidchilik faoliyatini olib borgan jadidlar bilan tanishamiz. Ulardan biri, Is’hoqxon Ibrat faoliyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, Turkiston, Buxoro, Xiva, Ismoil G‘aspirali, Sovet davri,”Xo‘ja Sibyon”, H.Z.Makayev va Makayevalar, yangi usul maktablari, “Tarjumon” gazetasi, yevropa tillari,”Burjua-liberal, millatchilik harakati”, F.Kerenskiy, Junaydulloh va Huribibi, savtiya maktablari.*

Annotation: In this article, we will get acquainted with the Jadid movement that spread throughout Turkestan to Namangan abd the jadids who carried out Jadid activities in Namangan. The activities of one them, Ishakhon Ibrat, are discussed.

Keywords: *Jadidism, Turkestan, Bukhara, Khiva, Ismail Gaspirali, Soviet are, “khoja sibyon”, H.Z.Makayev and Makayevas, new method schools, “Tarjumon” newspaper, European languages, “Bourgeois-liberal, nationalist movement”, F.Karensky, Junaydullah and Khuribibi, Savtiya schools.*

Yaqin o‘tmishimizga nazar solar ekanmiz, qanchadan qancha bobolarimiz yurtimiz istiqboli uchun kurashganlariga guvoh bo‘lamiz. Ulardan Turkistonning mustaqil bo‘lishi uchun hattoki jonlarini ham fido qilgan jadidlarimizni keltirishimiz joiz. Jadidlar o‘zi kimlar? Turkistonga jadidchilik harakatlari qanday kirib keldi? Namangan jadidlari kimlar?

Jadidchilik yoki **jadidizm** –XIX asr oxiri XX asr

boshida Turkiston, Kavkaz, Qrim va Tatariston ziyolilari hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma’rifiy harakat. Dastlab jadidchilik XIX asrning 80-yillarida Qrimda vujudga keldi. XIX asrning 90-yillaridan O‘rta Osiyoda tarqaldi. Jadidchilik avval madaniyat sohasidagi harakat sifatida faoliyat yuritgan. Bu oqim vakillari taraqqiyot uchun kurashish, turkiy tillarni rivojlantirish, shu tillardagi adabiyotni boyitish, dunyoviy ilmlarni o‘rganish, fan yutuqlaridan foydalanish hamda ayollar va erkaklar tengligi uchun kurashishga chaqirishgan. Keyinchalik jadidchilar panturkizm g‘oyalarini targ‘ib qilishgan·Sovet davrida yozilgan adabiyotlarda jadidchilikka „burjua-liberal, millatchilik harakati“ deb

ta’rif berilgan. Bu davrda asosan tanqid qilingan jadidchilik namoyandalari nomi SSR parchalanib ketganidan keyin qayta tiklandi. Jadidchilik dastlab XIX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoil G‘aspirali rahbarligida qrim tatarlar o‘rtasida vujudga kelgan. U birinchi marta 1884-yilda Bog‘chasaroyda yangi usul maktabi tashkil etadi. 40 kun ichida maktabdagi 12 ta bolani savodini chiqaradi, yoki eski maktabda besh yilda oladigan tahsilni ikki yilda o‘rgatishga muvaffaq bo‘ladi. So‘ng o‘quvchilar uchun «Xo‘ja-Sibyon» (bolalar muallimi) birinchi darsligini tuzadi. Darslik 4 qismdan iborat bo‘lgan. Birinchi qismida «Alifbe» ga 27 dars ajratilgan; qolgan qismlarida turli xil foydali ma'lumotlar va hikoyalar berilgan.

Jadidchilik harakati namoyandalari ko‘pincha o‘zlarini *taraqqiyparvarlar*, keyinchalik *jadidlar* deb atashgan. O‘sha davrning ilg‘or taraqqiyparvar kuchlari, birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetgandilar. Jadidchilik mohiyat e’tibori bilan, avvalo, siyosiy harakat edi. Uning shakllanish va mag‘lubiyatga uchrash davrlari bo‘lib, ularni shartli ravishda to‘rtga bo‘lish mumkin. Turkiston, Buxoro va Xiva hududida bu davrlar 1895–1905; 1906–1916; 1917–1920; 1921–1929-yillarni o‘z ichiga oladi.

Turkistonda jadidchilik harakatini vujudga keltiruvchilar tepasida ushbu insonlar turardi: Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Majid Qori Qodiriy, Ubaydullaxo‘ja Asadullaxo‘jayev (Ubaydulla Xo‘jayev), Toshpo‘latbek Norbo‘tabekov (Toshkent), Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev, Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadriddin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho‘lpon, Is’hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So‘fizoda (Farg‘ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O‘sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Bobooxun Salimov (Xorazm).

Namangan qadimdan ko‘plab iste’dod egalarining parvoziga qanot bergan ilohiy bir makondir. Bu ko‘hna tuproqda o‘nlab mutafakkirlarimizning kindik qonlari to‘kilgan, ular aynan shu yurtda komil shaxs sifatida yetuklikka erishganlar. Namanganda ham jadidlar tomonidan davlat tilini jadidchilik maktablarda o‘qitish tavsiya etilgan. Yangi usul maktablarida tabiiy fanlarning o‘qitilishi chor ma'murlarini g‘oyat tashvishga solar edi. Yangi usul maktablari o‘zining keng ko‘lamliligi, o‘qitish sifati bilan eski usul maktablaridan ustin bo‘lib, mahalliy aholi ishonchini qozongan va hukumat rus-tuzem maktablariga nisbatan yerli xalq hayotiga tezroq kira boshlagan edi. Podsho ma'murlarining ta'qiblariga qaramay jadid maktablarining soni ortib boraverdi. Bu jarayonda tatar ma'rifatparvarlarining o‘rniga xos bo‘ldi. Ular Turkistonning turli viloyatlarida «yangi usul»dagi maktablarni ochishib, mahalliy aholi orasida ma'rifat tarqatish bilan

shug‘ullanganlar. Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining 1910-yil 28-maydagi 8829- sonli ko‘rsatmasiga muvofiq, Farg‘ona viloyati uyezdlaridagi yangi usul maktablarida tatar muallimlarining dars berishlari man etilganiga qaramasdan Namangan va Turkistonning ko‘pgina hududlarida ham xalqning xohish istagiga ko‘ra, mahalliy aholi bolalarini o‘qitishda davom etganlar. Namangan uyezdi madaniy hayotida ayniqsa tatar ma'rifatparvarlari H. Z. Makayev va uning xotini F. Makayevalar muhim o‘rin tutadilar. Asli Saratov guberniyasi, Xvalinsk uyezdi, Yangi Kulatka qishlog‘idan bo‘lgan H. Makayev 1904-yilda tatar mutassiblarining ta’qibi ostida o‘z Vatanini tashlab chiqishga majbur bo‘ladi. 1904–1906-yillarda Turkiston o‘lkasi o‘quv yurtlari bosh inspektori F. Kerenskiyning ruxsati bilan Yangi Marg‘ilonda ochilgan maktabda mahalliy aholi bolalariga saboq beradi.

Namangan jadidlaridan biri, barchamizga yaxshi tanish Is’hoqxon To‘ra Ibratdir. Yirik mutafakkir, olim, shoir, maorifchi, matbaachi qolaversa jadid namoyondalari ichida eng salmoqli iz qoldirgan Is’hoqxon Ibrat aynan Namangan farzandi ekani barchamizga barchamizga faxr tuyg‘usini baxsh etadi.

Darhaqiqat Ibratning hayot yo‘liga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, u o‘z davrining chinakam yetuk ziyoli ma’rifatparvar shaxsi bo‘lganligini ko‘ramiz. Ibrat 1862 yili (hijriy 1279) To‘raqo‘rg‘onda tug‘ilgan. Uning ota-onalari Junaydulloh va Huribibi o‘z davrining o‘qimishli kishilari bo‘lishgan. Ayniqsa Ibratning yoshligidan xat-savodli va bilimli bo‘lishida onasi Huribibining o‘rni alohida ta’kidlashimiz zarur. Ishoqxon dastlab hijo usuliga asoslangan mahalla maktabida o‘qidi, ammo savodini onasining qo‘lida chiqardi. Huribibi maktabdor bo‘lib, o‘z maktabida faqat quruq yodlash bilangina cheklanmay, qizlarga yozish va husnixatni ham o‘rgatar edi. Maktabdagi ta’limdan so‘ng Ishoqxon Qo‘qonga keladi va uyerdagi Muhammad Siddiq Tunqotar madrasasida (1878-1886) o‘qiydi. Ibrat Qo‘qonda o‘sha davr o‘zbek adabiyoti va madaniyatining yirik namoyondalari bo‘lmish Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Nodim, Haziniylar bilan yaqin aloqada va mushoiralarda ishtirok etadi.

Ayrim adabiyotlarda Turkistondagi dastlabki yangi usul maktabi sifatida Is’hoqxon Junaydulloxon Xo‘ja o‘g‘li (Ibrat)ning maktabi eslatiladi. O‘sha kezlari u Bog‘chasaroyda nashr etiladigan «Tarjumon» gazetasi sonlari bilan ham muntazam tanishib turgan. Ushbu nashr orqali u yangi usul maktabining afzalliklari, ta'lim usullari, darsxonalarning tuzilishi va darsliklari haqida ma'lumotlar olib borgan. Madrasani tamomlagach, 1886- yil To‘raqo‘rg‘onga qaytadi va tovush usuliga asoslangan yangi maktab ochadi. Lekin maktab tez orada yopib qo‘yiladi. U 1907- yilga kelib, ikkinchi bor maktab ochadi. Uning maktabida yevropa tillaridan ham darslar o‘tilgan .

Taraqqiyotning beshigi maktab ekanligini jadidlar qatorida Isoqxon Ibrat ham juda yaxshi anglab yetgan. Sharq mamlakatlari qatorida Afina, Sofiya, Rim,

Istanbul kabi Yevropa shaharlarida bo‘lgan Is’hoqxon Ibrat ham xalqni g‘arb ma’naviyati, ilm-fani taraqqiyotidan bahramand etish uchun ko‘p kuch g‘ayrat sarf etgan holda “Millatni kim isloh etar?” maqolasida odob-axloq tarbiyasi din ulamolari zimmasida ekanligini ta’kidlaydi: “Bizning fikrimizcha, muning da’fu islohig‘a ulamo hazrati kamari himmat bog‘lab, muqaddas mehrobu minbardan va’z so‘ylab, aholig‘a ahkomi shariatni bildirub, baytulloh hukmindaki, masjid va jomelarda ertayu kech amri ba ma’ruf va nahi az munkir etib, xaloyiq anglaydurg‘on bir til ilan pandu nasihat etsalar ham muning hech qo‘ymasdan har kun ba’d az namozi fajr va ba’d az xuftan doim muxtalif mavzulardan baxs etsalar, albatta, ta’sirsiz qolmas. Xususan, muqaddas masjidda so‘ylangan va’z har bir mo‘min qalbina du bolo ta’sir etar”.

Is’hoqxon Ibrat yangi usul maktablari ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘lida bir qator jadid namoyondalari bilan yaqin hamkorlik qilganliklari va bir necha jadidlar tomonidan tashkil etilgan maktablarga borib ularni faoliyati bilan tanishgani diqqatga sazovordir. Xususan, u Munavvarqorining taklifiga binoan bir necha marta Toshkentda, uning maktabi imtihonlarida qatnashgan. Munavvarqori 1907-yili Ishoqxon to‘raga maxsus taklif xati bilan murojaat qiladi: “ Hurmatlu Ishoqxonhoji janoblarina! 1907- yil may oyindan e’tiboran Toshkandda Tarnovboshi mahallasinda “Xoniya” maktabinda talabalarni yillik imtihonlari boshlanur. Siz hurmatludan rijo qilurmizki, tavobe’ingizda bo‘lg‘on usuli jadidiya maktablari mudirlari ila imtixon majlislarina tashrif qilsangiz, muallim va shogirdlar sizdin mamnun bo‘lur edilar. Muhibingiz Munavarqori. 15-mart 1907-yil”. Bu taklifga binoan Ishoqxon Ibrat o‘z yaqinlari – ilg‘or pedagoglar Husayn Makayev, Mulla Iskandar domla Abduvahob o‘g‘li bilan bir necha oy Toshkentda bo‘ladi. Ular Toshkentda usuli savtiya maktablari bilan bir qatorda usul qadim maktablarida ham bo‘ladilar. Ishoqxon Ibratning “usuli jadid” va “usuli qadim” maktablariga bag‘ishlangan turkum maqolalari “Turkiston viloyatining gazeti”da bosilib chiqdi.

O‘qitish usuli butunlay yaroqsiz bo‘lgan maktablarda yengil-yelpi isloh qilishga Ibrat keskin qarshi chiqdi. Shuning uchun ham u mazkur maktabdorga, uning maktabiga, umuman, eski ta’lim-tarbiya, o‘qituv tizimiga qarshi yozgan maqolasida eski maktablarni hashorot uyalariga o‘xshatadi: “Bolalarni eski maktablar ila jamoalarg‘a taqsim qilib, keish-ketish, kaltak ila qamchi mas’alalarini isloh qilmoqda, albatta, lozimdur. Lekin o‘qulajak kitoblar – mazkur eski hashorot uyalari bo‘lg‘ondin bu mas’alalar ming martabalar isloh etilsa-da bekor, behudadur.

Ishoqxon usuli savtiya maktablarida rus tilini o‘qitish uchun rus tili o‘qituvchlarini yoki rus tilini mukammal biladigan kishilarni o‘qituvchi qilib tayinlashni maqsadga muvofiq deb biladi: “ Agar Rusiya ilmlarini bilmoq darkor

bo‘lgan holda o‘shal maktablarda Rusiya muallimlaridan saqlab, biror dars Rusiya ilm va zabonidan ta’lim berilgan holda ancha naf olur edilar”.

Ishoqxon 20 yildan ortiq vaqt davomida To‘raqo‘rg‘on tumani xalq qozisi lavozimida ishladi. Uning bu mas’uliyatli mansabi ma’rifatparvarlik va maorif sohasidagi faoliyatini izchil davom ettirishda ancha qo‘l keldi.

Xulosa qilib aytganda, SSSR davrida jadidchilik g‘oyalarining butun o‘lkaga yoyilishi qiyin bo‘lgan, lekin bunga qaramay jadidlar aholini ziyoli qilish uchun bor kuchi bilan kurashganiga guvoh bo‘ldik. Jadidchilik harakati Farg‘ona vodiysida, xususan Namanganga ham kirib kelgan. Bu yerda ham , albatta, jadidchilik harakatini yoyuvchi Is’hoqxon Ibrat singari ko‘plab jadidlar bo‘lganligini bildik. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning Namangan viloyatidagi so‘ngi ikki bor tashriflari mobaynida Ishoqxon to‘ra Ibrat haqidagi alohida fikrlari diqqatga sazovordir: “Ulug‘ ajdodimiz Ibrat taxallusini bejiz tanlamagan ekan. Uning Vatan va yurt taraqqiyoti yo‘lidagi fidokorona hayoti nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham barchamiz uchun haqiqiy “Ibrat” namunasi bo‘lib xizmat qilmoqda desam adashmagan bo‘laman”.

Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o‘ziga qulay zamin topdi. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod va o‘z vatanlarini mustaqil ko‘rishni orzu qildilar va shu yo‘lda kurashdilar. Ularning asosiy maqsadi :Turkistonni o‘rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma’rifat tarqatish, Turkistonda muxtoriyat hukumatini barpo etish uchun kurash, Buxoro va Xivada konstitutsiyaviy monarxiya va parlament, keyinchalik demokratik respublika tuzumini o‘rnatish orqali ozod va farovon jamiyat qurish, barqaror milliy valyutani joriy qilish va milliy qo‘shin tuzishdan iborat edi.

Foydalanilagan Adabiyotlar:

1. Долимов У. “Исъҳоқхон Ибрат”. – Т.: “Шарқ”, 1994. –Б.144
2. Dolimov U. “Turkistonda Jadid Maktablari” – T.:”Universititet”, 2006. 66-B
3. “Oyna” Jurnali, 1914-Yil, 12-Son.
4. “Turkiston Viloyatining Gazeti”, 1907-Yil, 72-Son
5. Мирзиёев Ш.М. “Буюк Келажагимизни Мард Ва Олийжаноб Халқимиз Билан Бирга Қурамиз”. - Т.: “Ўзбекистон”, 2017. –Б. 75.
6. Қозоқов Т. Фарғонада Жадид Мактаблари // Фан Ва Турмуш. - 1998. -№5
7. Adkhamkhoja, A. (2024). Formation Of New Method Schools And Spiritual Renewal. Jurnal ISO: Jurnal Ilmu Sosial, Politik Dan Humaniora,

8. Isaqova, z., & abdullaxo‘jayev, a. (2024). Ibratning turkistonda kadrlar tayyorlashga qo’shgan hissasi: ijtimoiy-falsafiy tahlil. Nordic_press, 5(0005).

9. Abdullaxo‘jayev, a. (2024). Ibrat-haqiqiy ibrat maktabi. Nordic_press, 5(0005).

10. Abdullaxo‘jayev, a. J. (2024). O ‘zbekistonda gender tengligining huquqiy asoslari: ijtimoiy-falsafiy tahlil. University research base, 89-93.

11. Abdullaxo‘jayev, a., & abdullayeva, d. (2024). Ta’lim modernizatsiyasining falsafiy–huquqiy tahlili. Science promotion, 49-52.

12. Isaxo‘ja, a. J. A. J. (2023). Is’hoqxon to'ra ibrat–milliy uyg ‘onish davrining yetuk vakili. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 11(8), 46-48. 7.

SHAMSIDDIN TABRIZIYNING TASAVVUFIY-FALSAFIY QARASHLARI

Odinayev Mahmud Ahmadovich,
Samarqand davlat chet tillar instituti tayanch doktoranti
E-mail: mahmud.odinayev@mail.ru
Orcid: 0009-0008-8710-0288

Annotatsiya.

Ushbu maqolada tasavvuf falsafasining namoyandalaridan biri Shamsiddin Tabriziyning hayoti, ilmiy-falsafiy faoliyati, tasavvufiy qarashlari tahlil qilingan. Mutasavvif qarashlarining komil inson konsepsiyasini shakllantirishdagi roli misollar asosida ochib berilgan.

Kalit so’zlar: *Tasavvuf, Shams Tabriziy, komil inson, shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat, Mavlaviya tariqati, Jaloliddin Rumiy.*

Аннотация.

В статье анализируется жизнь, научная и философская деятельность, мистические взгляды Шамсиддина Тебризи, одного из представителей суфийской философии. На примерах поясняется роль суфийских воззрений в формировании представления о совершенном человеке.

Ключевые слова: *суфизм, Шамс Тебризи, совершенный человек, шариат, тарикат, просветление, истина, тарикат Мавлави, Джалалуддин Руми.*

Abstract.

The article analyzes the life, scientific and philosophical activity, mystical views of Shamsiddin Tabrizi, one of the representatives of Sufi philosophy.

Examples explain the role of Sufi views in the formation of the idea of a perfect person.

Key words: *Sufism, Shams Tabrizi, perfect man, Sharia, Tariqah, enlightenment, truth, Tariqah Mawlawi, Jalaluddin Rumi.*

Tasavvuf falsafasining yorqin namoyandalaridan biri hisoblangan Shamsiddin Muhammad ibn Ali Malikdod Tabriziy taxminan 1186-yili Tabrizda tug'ilgan. U asosan Shamsuddin, Shamsu-l-haq va-d-din, Shams va Shams Tabriziy nomlari bilan mashhur bo'lgan. Aflokiyning yozishicha, Shams tug'ilgan joyidagi tasavvuf tarafdorlari tomonidan sargardon hayot kechirgani uchun "Shamsiddini Paranda" nomi bilan ham atalib kelingan. [Eflâkî, 1995. 7].

Uning otasi Ali ibn Malikdod savdo-sotiq maqsadida Xurosondan Tabrizga kelib o'rnashib olgan savdogar edi. Shams Tabriziy – XIII asrda yashagan mashhur mutasavvif va faylasuf bo'lib, asosan Jaloliddin Rumiy hayotida tutgan o'rni va uning fikriy shakllanishidagi ta'siri bilan mashhurdir. Shams Tabriziyning ilmiy-falsafiy faoliyati haqida to'liq tushuncha olish uchun uning hayoti, asarlari, g'oyalari va Jaloliddin Rumiy ta'limotining shakllanishidagi o'rnini ko'rib chiqish lozim. [Sultan Veled, 1976. 49].

Allomaning hayoti va ilmiy-falsafiy faoliyati haqida guvohlik beruvchi «Maqoloti Shams Tabriziy» va «Manoqibul orifin» asarlarida Shamsiddin Tabriziyning bolalik va yoshlik yillarida yuksak ma'naviy qobiliyatga ega bo'lgani, zohidona hayot kechirgani, turli mushohadalar bilan mashg'ul bo'lgani ta'kidlangan. Ma'lum bo'lishicha, Shams Tabriziy dastlab shayx Abu Bakr Sallabofdan ta'lim-tarbiya olgan. Shams Tabriziyning tasavvufiy ta'limoti shakllanishida savat to'qish bilan kun ko'rgan, so'fiylik tuyg'usi kuchli bo'lgan Sallabofning ta'siri katta bo'lgan. Keyinchalik Shams Tabriziy Tabrizdan Abu Bakr Sallabofni tark etib, Bag'dod, Damashq, Halab, Qaysariya, Sivas, Erzurum va Erzinjon kabi shaharlarga borgan. Aflokiy Shams Tabriziy tomonidan bu safarlar o'sha davr avliyolari suhbatiga qo'shilish, ma'naviy baraka topish va chin do'st topish istagi bilan qilinganini aytadi. Ushbu safarlar asnosida mutasavvif Bag'dod va Qaysariyada asli termizlik bo'lgan olim va tasavvuf namoyandasi Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy bilan, Damashqda Muhyiddin ibn al-Arabiy bilan, Sivas shahrida ilohiyot olimi Asaduddin Mutakallim bilan suhbat qurdi va ularning ma'ruzalarida qatnashdi. Mavlono Jaloliddin Rumiyning fikricha, Shams kimyo, astronomiya, riyoziyot, ilohiyot, hikmat, mantiq kabi ilmlarda ham mohir hisoblangan. [Eflâkî, 1995. 29].

Shams Halabdagi madrasa hujrasida o'n to'rt oy zohidlikda qolib, keyinchalik esa Anado'li tomon yuzlanadi. Aflokiyning yozishicha, Shams Konyaga borishdan oldin Erzurumdagi shahar hokimining farzandlariga dars bergan. Rumiy va Shams Tabriziy ilk bor Shom diyorida uchrashgan. Jaloliddin

Rumiy otasi vafotidan so’ng ustozi Sayyid Burhoniddinning buyrug’i bilan ilm o’rganish uchun Shomga jo’nab ketib, bir kuni xalq orasida bo’lganida, boshiga konussimon qalpoqli, yelkasida qora chopon kiygan Shamsni ko’rib qoladi va o’zaro muloqotga kirishadi. Mavlononing Shams Tabriziy bilan ikkinchi uchrashuvi Sayyid Burhoniddin Termiziy vafotidan besh yil o’tib, Konyada sodir bo’ldi. Mavlono Jaloliddin Rumiy o’zining “Devoni Kabir” nomli asarida Shams Tabriziyni “Haqiqat va din quyoshi, rahmat dengizi, lutfning porloq yulduzi, eng buyuk quvvat, mutlaq nur” kabi sifatlar bilan ulug’lagan. Ushbu ma’lumot ham ikki alloma o’rtasidagi munosabatlar naqadar yuksak darajada bo’lganliliga dalolat qiladi. [Eflâkî, 1995. 34].

Shams Tabriziyning tasavvufiy g’oyalari, Rumiy va boshqa so’fiylar bilan bo’lgan suhbatlari va hayotiga oid boshqa ma’lumotlardan iborat bo’lgan “Maqolot” asari “Hirqai Shams” va Asrori Shamsiddin Tabriziy” kabi nomlar bilan Mavlaviya tariqati tarafdorlari orasida mashhur manbalardan hisoblanadi. Ayrim nusxalarda uning nomi “Kalimoti Shams Tabriziy” va “Maorifi Shams Tabriziy” deb qayd etilgan. Asarni Jaloliddin Rumiyning farzandi Sulton Valad tuzganligi to’g’risida ba’zi manbalarda ma’lumot keltiriladi. “Maqolot”ning eng qadimgi nusxasi Konyadagi Mavlono muzeyi kutubxonasida 2154 inventar tartib raqami bilan qayd etilgan. “Maqolot” asari keyinchalik Mavlaviya tariqatining shakllanish davrida yozilgan “Risolai Sipohsolor”, Sulton Valadning “Ibtidonoma” asari va Aflokiyning “Manoqibul orifin” kabi asarlari uchun asosiy manba bo’lib xizmat qilgan. Mazkur asar Ahmad Xusnavis (Maqoloti Shams Tabriziy, Tehron, 1349 hijriy), Nosiruddin Sohibuzzamon (Xatti sevvum, Tehron, 1351 hijriy), Muhammad Ali Muvahhid (Maqolot, Tehron, 1369 hijriy) kabi tadqiqotchilar tomonidan bir necha narta nashr qilingan.

“Maqolot” asari Shams Tabriziy g’oyalari va so’fiylik tabiati haqida ma’lumot beruvchi asosiy manba hisoblanadi. Mutasavvif suhbatlari va hikmatlaridan jamlangan mazkur asarda uning so’fiyona qarashlari, Rumiy bilan suhbatlari, boshqa so’fiylar haqidagi fikrlari o’rin olgan bo’lib, Shams Tabriziy g’oyalarining asl mazmun-mohiyatini aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Shams Tabriziyning tasavvufiy hayot yo’liga e’tibor beradigan bo’lsak, unda malomatiylik ta’limotining ta’siri yaqqol namoyon bo’ladi. Malomatiylikka moyil bo’lgan boshqa so’fiylar singari Shams Tabriziy ham ibodatdagi riyokorlik xavfiga katta ahamiyat bergan. Sipohsolorning yozishicha, Shams o’zining boy ma’naviy dunyosi omma orasida mashhur bo’lishidan nihoyatda bezovta bo’lgan. Shon-shuhratdan zerikkanligi uchun odamlar orasida muqim istiqomat qilishdan qochgan. Uning ruhiy holati tanilib, o’zi muqim bo’lgan joyda shuhrat qozonishini anglagach, darrov o’sha shaharni tark etar edi. Shu bilan bog’liq bir rivoyatda

uning o’zi yashab turgan joyda zohidlik holati tan olinsa, darhol o’sha joyni tark etgani qayd etilgan. [Sipehsâlâr, 1977. 122].

Umuman aytganda, Shams Tabriziyning tasavvufiy qarashlari shakllanishiga alloma yashagan davrdagi ilmiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy muhit katta ta’sir ko’rsatgan. Tanqidiy nuqtai nazarga ega bo’lgan Shams o’zi bilgan haqiqatlarni hech kimga ikkilanmasdan, qattiqqo’llik bilan ifodalagan.

Aytishimiz mumkinki, Shams Tabriziy o’z qarashlarida amaldagi riyokorlik xavfiga alohida e’tibor qaratadi. Bu bilan bog’liq sabablarga ko’ra o’z davrining ba’zi shayx va ulamolarini tanqid qiladi. Alloma o’zining so’fiyona qarashlari, chuqur ilmi va zohidona fazilatlari bilan mashhur bo’lgan Mavlono Jaloliddin Rumiyga chuqur ta’sir qiladi. U dindorlikni tushunishni ibodat va zohidlikdan tashqari, ilohiy ishq va jozibaga yo’naltiradi. Bu tushunchada zohidlik ibodat va sa’y-harakatlari ahamiyatsiz va keraksiz ko’rilmasa-da, insonni kamolga yetkazuvchi asosiy omil ilohiy ishq va joziba sifatida qabul qilinadi.

Shams Tabriziy ko’p vaqtini sayohat va izlanishlar bilan o’tkazgan. Alloma o’zidan yozma asarlar qoldirmagan, uning qarashlari va g’oyalari asosan Rumiyning asarlarida, xususan, “Masnaviy”da aks etgan. Shams Tabriziyning fikrlari ko’proq tasavvuf falsafasiga yaqin bo’lib, unda ishq-muhabbat g’oyasi markaziy o’rinda turadi. U insonni Allohga yetaklovchi eng yuqori kuch — ishq deb biladi. Bu muhabbat insonni o’z “men”idan voz kechishga, ma’naviy poklanishga undaydi. Uning nazarida, insonning chin ma’nodagi haqiqatga yetishi uchun muhabbat asosiy vosita hisoblanadi.

Shams Tabriziy ko’plab olimlarning kitoblardan ilm olishini yetarli deb bilmas edi. U ilmning chinakam ma’nosi inson qalbi orqali idrok etilishi, ya’ni ma’naviy tajriba va qalb ko’zi bilan bilish kerakligini ta’kidlagan. Alloma ko’p hollarda odatiy diniy doiralardan chiqib ketgan fikrlarni ilgari surgan. Uning g’oyalari ko’pincha konservativ ulamolar tomonidan qabul qilinmagan. Ammo bu fikrlar insonning o’zini anglash va Allohga yaqinlashishga undovchi bo’lib, tasavvufda yangilik sifatida qabul qilingan. [Shams Tabriziy, 1949. 104].

Shams Tabriziy ilmiy-falsafiy faoliyatining eng muhim qismi – uning Jaloliddin Rumiyning hayoti va tafakkuriga ta’siri bilab belgilanadi. U Rumiyga inson qalbi va ilohiy ishqning mohiyatini anglashda muhim yo’l ko’rsatgan. Shams bilan uchrashgandan keyin Rumiy ko’plab ilmiy-fiqhiy bilimlarini qo’yib, ma’naviy ishq va tasavvufiy she’riyat yo’liga o’tgan. Bu ikki shaxs o’rtasidagi ruhiy aloqa dunyo adabiyoti va falsafiy tafakkurida ulkan iz qoldirgan.

Shams Tabriziy ilmiy asarlar yozmagan bo’lsa-da, uning ta’limoti ko’proq og’zaki tarzda, Rumiy va boshqa shogirdlari orqali yashab kelgan. Shuningdek, “Maqoloti Shams” asari bugungi kunda tasavvuf falsafasi bo’yicha muhim manba sifatida qadrlanadi. Mutafakkir komil inson konsepsiyasiga alohida ahamiyat

qaratgan holda, qalbni poklash, ishq orqali ilohiy haqiqatga yetishish g'oyalarini ilgari surgan. Uning ilmiy-falsafiy faoliyati Rumiy orqali keng tarqalib, butun dunyo mutasavviflari va falsafa ixlosmandlariga Bugungi kunda ham ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eflâkî. Âriflerin Menkıbeleri (trc. Tahsin Yazıcı). – İstanbul. 1995. – 286 s.
2. Ferîdûn-i Sipehsâlâr. Risâle: Mevlânâ ve Etrafındakiler (trc. Tahsin Yazıcı). – İstanbul. 1977. – S. 121-134.
3. Sahih Ahmad Dada. Mavlaviylar tarixi. – Istanbul. 2003. 171 b.
4. Shams Tabriziy. Maqolot. Ali Muvahhid tahriri ostida. – Tehron: 1949. – 356 b.
5. Sultan Veled. İbtidânâme (trc. Abdülbâki Gölpınarlı). – Ankara. 1976. – S. 48-92.

SUG‘D YOZMA MANBALARI VA ARXEOLOGIK TOPILMALAR ASOSIDA IPAK YO‘LI TARIXINI O‘RGANISH

Indiaminova Shoira Amriddinovna
Samarqand davlat chet tillar instituti, dotsent
shoiraindiaminova1986@gmail.com

Buyuk Ipak yo‘li Sharq va G‘arb o‘rtasidagi qadimiy sivilizatsiyalarni bog‘lagan eng yirik transkontinental yo‘l sifatida tarixda alohida o‘rin tutadi. Bu yo‘l orqali ming yillar davomida faqat tovarlar emas, balki g‘oyalar, dinlar, texnologiyalar, san’at va madaniyatlar almashinuvi ham sodir bo‘lgan. Ipak yo‘lining yuragi hisoblangan Markaziy Osiyo hududlaridan biri bo‘lgan Sug‘d vohasi tarixiy jihatdan beqiyos ilmiy va arxeologik merosga ega.

Sug‘d vohasining Ipak yo‘lidagi o‘rni, xususan yozma manbalar va arxeologik topilmalar orqali o‘rganilishi, mintaqaning ijtimoiy-siyosiy, madaniy va iqtisodiy hayotini to‘laqonli tasavvur etish imkonini beradi. Ushbu maqolada Sug‘dda saqlanib qolgan yozma manbalar, tangalar, devoriy suratlar, diniy ibodatxonalar, haykaltaroshlik namunalari va boshqa arxeologik topilmalar asosida Ipak yo‘lining tarixiy ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

Sug‘diy yozuvlar va ularning tarixiy ahamiyati Milodiy I–VIII asrlar oralig‘ida Sug‘diy tili va yozuvi Markaziy Osiyodan Xitoygacha cho‘zilgan ulkan mintaqada savdo, diplomatiya, din va kundalik hayotga oid yozma aloqa vositasi sifatida keng qo‘llanilgan [2,30]. Bu yozuvlar asosan savdogarlar, diplomatik vakillar va dini arboblar tomonidan ishlatilgan bo‘lib, ular orqali Buyuk Ipak yo‘li

bo‘ylab shakllangan madaniy, iqtisodiy va siyosiy tizimlar haqida muhim ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Sug‘diy yozuvlar asosan Samarqand, Panjikent, Varaxsha, Shosh kabi Sug‘d markazlarida topilgan bo‘lsa-da, ularning izlari Xitoyning Gansu provinsiyasidagi Dunxuan g‘orlari, Tohariston, Baqtriya va hattoki Hindiston hududlarida ham uchraydi [6, 25]. Bu holat sug‘diy tilining nafaqat mahalliy, balki transregional aloqa vositasi sifatida faol ishlatilganini isbotlaydi. Sug‘diy yozuvlar har xil kontekstda uchraydi: shaxsiy xatlar, savdo bitimlari, din bilan bog‘liq matnlar, hatto ba’zi dramatik asarlar ko‘rinishida.

Sug‘diy yozuvi asosan oramiy yozuvi asosida shakllangan bo‘lib, so‘zlarning talaffuzi bilan yozilishi orasidagi tafovutlar ularni o‘qishda murakkablik tug‘dirgan bo‘lsa-da, ushbu yozuvlar orqali qadimgi Sug‘d vohasining ijtimoiy-lisoniy tuzilmasi ochib beriladi. Bu manbalar madaniyatlararo muloqotning tirik guvohi sifatida xizmat qiladi.

1907-yilda Britaniyalik sharqshunos Aurel Steyn tomonidan Dunxuandagi Mogao g‘orlarida topilgan sug‘diy tilidagi xatlar (shuningdek “Dunxuan hujjatlari” deb yuritiladi) bugungi kunda Ipak yo‘li tarixini o‘rganishda eng ishonchli yozma manbalardan biri hisoblanadi [3, 15]. Bu hujjatlar, xususan, Tang sulolasi davrida Xitoyda faoliyat yuritgan sug‘diy savdogarlarning ijtimoiy, iqtisodiy va dini hayotiga doir muhim dalillarni o‘z ichiga oladi.

Xatlarda Panjikent, Marv, Niso va boshqa shaharlar bilan bo‘lgan aloqalar, karvon marshrutlari, tovar turlari (ipak, zargarlik buyumlari, ziravorlar, qimmatbaho toshlar) va ularni jo‘natish tartibi batafsil tasvirlangan. Masalan, 3-xatda bir sug‘diy savdogar o‘zining oilasiga moliyaviy qiyinchiliklar sababli Xitoyda uzoqroq qolish niyatida ekanini bildiradi. Bu oddiy holat orqali ham o‘sha davr savdogarlari ijtimoiy ahvoli, karvonlar faoliyati va transmilliy migratsiya jarayonlari haqida fikr yuritish mumkin bo‘ladi.

Shuningdek, bu xatlar orqali sug‘diylar Xitoyda faqat savdo bilan emas, balki diniy targ‘ibot, san’at va madaniyat sohasida ham faol bo‘lganini anglash mumkin. Ayrim hujjatlarda buddaviylikka oid iboralar, diniy bayramlar va marosimlar haqida eslatmalar mavjud [4, 27].

Sug‘diy yozuvlar xalqaro savdo tizimining muhim huquqiy elementlarini ochib beradi. Ularning ayrimlari savdo bitimlari shaklida bo‘lib, tovar yetkazib berish, qarz olish, kafillik, soliq to‘lovlari kabi huquqiy munosabatlarni belgilab bergan. Bu hujjatlar orqali qadimgi Sug‘dda xususiy mulk, shartnoma va iqtisodiy majburiyatlar tushunchalari mavjud bo‘lganini ko‘rish mumkin.

Masalan, yuborilgan xatlarning birida to‘qimachilik ustasi tomonidan qabul qilingan buyurtma, unga belgilangan muddat va narx bo‘yicha hisobot mavjud. Bu

esa, o‘z navbatida, ishbilarmonlik etikasi va iqtisodiy faoliyatning tizimli yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi [5,25].

Sug‘diy yozuvlar Ipak yo‘li bo‘ylab shakllangan ko‘p madaniyatli jamiyatlar o‘rtasidagi kommunikatsiya vositasi sifatida ham katta rol o‘ynagan. Bu yozuvlar Xitoy tiliga tarjima qilingan bo‘lsa, Xitoydan ham Sug‘d tiliga tarjimalar mavjud. Ayniqsa, diniy matnlar (moniylik, buddaviylik, nasroniylik) sug‘diy tilida tarjima qilingan nusxalari madaniy va diniy sintez jarayonlarini yoritib beradi.

Sug‘diylar madaniy ko‘prik vazifasini bajargan xalq sifatida har ikki tamaddunni bir-biriga yaqinlashtirishda faol ishtirok etgan. Ularning yozuvlari bu jarayonning eng muhim daliliy manbalaridan biridir.

Arxeologik topilmalar va shahar madaniyati

Panjikent — Sug‘d shaharlari ichida eng to‘liq o‘rganilganlaridan biridir. Bu yerda o‘nlab yillar davomida olib borilgan arxeologik qazishmalar (yaqindan – B.A. Litvinskiy, A.M. Belenitskiy) natijasida qadimiy ibodatxonalar, turar joylar, devoriy suratlar, zargarlik buyumlari topilgan. Panjikent devoriy suratlarida hind afsonalari, mahalliy e’tiqodlar va zardushtiylikka oid sahnalar tasvirlangan. Bu esa madaniyatlararo almashinuvni isbotlaydi.

Samarqandning qadimgi qismi — Afrasiob tepaligida olib borilgan qazishmalar (V.A. Shishkin, B.I. Marshak va boshqalar) natijasida Tang Xitoy imperiyasi, Vizantiya va Hindistondan kelgan elchilarning rasmlari aks etgan freskalar topilgan [1, 28]. Bu freskalar, xususan “Afrasiob devoriy rasmi” dunyo sivilizatsiyalarining bir nuqtada kesishganligini ifodalaydi. Sug‘diylar bu yerda elchi sifatida ko‘rsatilgan bo‘lib, bu ularning xalqaro diplomatiyadagi o‘rnini namoyon etadi.

Varaxsha (Buxoro yaqinida) saroyida aniqlangan hayvonlar tasviri tushirilgan freskalar, qadimiy sig‘imli idishlar, metall buyumlar va devoriy naqshlar bu hududda hunarmandchilik va san’atning yuksak bosqichda bo‘lganini ko‘rsatadi. Ipak yo‘li orqali ushbu yutuqlar boshqa mintaqalarga ham tarqalgan.

Tangalar va numizmatika manbalari

Sug‘d tangalari — yozma va moddiy manbalar qatorida Ipak yo‘li tarixini yoritishda alohida ahamiyatga ega. Tangalar ustidagi yozuvlar, ikonografik tasvirlar, hukmdorlar ramzlari mintaqaning siyosiy tuzilmasi, iqtisodiy faoliyati va savdo munosabatlari haqida aniq dalillar beradi.

Sug‘d tangalari orasida milodiy V–VIII asrlarga oid zarb qilinganlarida sosoniy, yunon-baqtriy va Xitoy ta’sirini ko‘rish mumkin. Bu esa o‘z navbatida Sug‘dning xalqaro savdo tizimiga faol integratsiyalashganligini bildiradi.

Diniy jarayonlar va madaniyatlararo muloqot

Sug‘dda zardushtiylik asosiy din bo‘lgan bo‘lsa-da, Ipak yo‘li orqali buddaviylik, moniylik, xristianlik va hatto hind diniy g‘oyalari ham mintaqaga

kirib kelgan. Arxeologik topilmalarda turli e’tiqodlarga oid ibodatxonalar, haykallar, diniy matnlar va freskalar mavjud.

Masalan, Panjikent ibodatxonalaridan birida Budda haykali topilgani, zardushtiy olovxonalar yonida moniylar devoriy rasmlari mavjudligi, diniy sinkretizmni va tolerantlik muhitini ko‘rsatadi. Bunday madaniyatlararo muloqot faqatgina Sug‘dga emas, balki butun Ipak yo‘li bo‘ylab rivojlangan madaniy uyg‘unlik modeliga misoldir.

Xulosa

Sug‘dda topilgan yozma manbalar va arxeologik topilmalar Ipak yo‘li tarixining muhim jihatlarini yoritadi. Yozma hujjatlar savdo va diplomatik aloqalar haqida muhim dalillar bersa, arxeologik topilmalar madaniy almashinuv va sivilizatsiyalarning integratsiyalashuvi haqida chuqur bilim beradi. Bu manbalar Ipak yo‘li nafaqat savdo yo‘li, balki madaniy uyg‘unlik va tinchlik makoni bo‘lganligini isbotlaydi.

Bugungi kunda Sug‘d arxeologiyasi va tarixini chuqur o‘rganish nafaqat mintaqaviy, balki global tarixshunoslik uchun ham muhimdir. Ushbu ilmiy tadqiqotlar kelgusida Markaziy Osiyoning jahon tarixidagi o‘rnini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Аскаров А., Ширинов Т. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, 1993.

2. Бегалиев Н.Б., Туробов А.М. Самарқанд топонимияси. – Самарқанд, 2015.

3. Бердимуродов, А., & Индиаминова, Ш. (2017). Буюк ипак йўли:(Қитъалар ва асрлар оша). Ŭzbekiston.

4. Индиаминова, Ш. (2024). Религиозные верования в Согде в эпоху раннего средневековья. Тамаддун нури журнали, *6*(57), 26-29.

5. Сюань–цзан. Записки о Западных странах (эпохи) Великой Тан (Да Тан си юй цзи). Введение, перевод с китайского и комментарий Н.В. Александровой. – М., 2012.

6. Хўжаев А. Хитой манбаларидаги Суғдга оид айрим маълумотлар // Ўзбекистон тарихи. № 1. –Тошкент, 2004.

TARIX TA’LIMI ORQALI MILLIY ONG VA VATANPARVARLIKNI SHAKLLANTIRISH

M Misrbekova
Samarqand davlat chet tillari institutida o’qituvchi

Kirish

Har qanday jamiyatning ma’naviy-axloqiy barkamolligi, tarixiy xotirasi va kelajakka bo‘lgan ishonchi, avvalo, uning yoshlari ongida milliy g‘urur, vatanparvarlik va tarixiy tafakkur qanday shakllanganiga chambarchas bog‘liqdir. Bu borada tarix fanining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir. Tarix — nafaqat o‘tmish voqeliklarini o‘rganish vositasi, balki milliy identitetni anglash, ijtimoiy ongni uyg‘otish va mustahkamlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, globallashuv kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar ongida milliy qadriyatlar, tarixiy meros va vatan tuyg‘usini shakllantirish dolzarb masalaga aylanmoqda.

Jamiyatda yoshlarni falsafiy tarbiyalashda altruizmning fundamental nazariy va amaliy muammolari katta ahamiyatga ega. Turlicha ekstremal vaziyatlarda insonlarning bir-birlariga o‘zaro yordamini nazorat qilish qiyin bo‘lganligi uchun ijtimoiy ko‘maklashish imkoniyatini ochadi. Professor Q.Nazarov fikricha, “altruizm – odatda, yaqinlarga mehr-muhabbat bilan qarash, odamlarning xatolarini kechirish, o‘zining qadr-qimmatini chetlab o‘tib, uy-fikri va xatti-harakatini boshqalar hayotiga bag‘ishlash, o‘zini tamomila unutishni anglatadi”[1.68]. Bunday insonlar o‘tmishda ham, hozirda ham ko‘plab topiladi. Ular o‘z ehtiyoj va manfaatlaridan ko‘ra jamiyatning, biror-bir insonning qadrini ko‘tarish uchun butun umr intiladilar. Altruizm ezgulik va insonparvarlik instinkti sifatida barcha instinktlarning tendentsiyalarini axloqiy jihatdan jamiyatda inson qalbida rivojlantirib, o‘z xayrixohligi asosida fuqarolar bilan yaqinda ijtimoiy ko‘makni amalga oshiradi.

Shaxs xususiyatlari tizimidagi altruizm dominant instinkt sifatida shaxsning mohiyatini, individualligini belgilaydi, Instinktlar ierarxiyasi uning qadriyatlari ierarxiyasini belgilaydigan shaxsiy profilni tashkil qiladi. Dominant instinktlari shaxs tomonidan qabul qilingan qadriyatlar to‘plamini aniqlaydi. Altruizm qadr-qimmatni saqlash instinkti ustunlik qiladigan shaxs turi uchun qadriyatlar ierarxiyasida katta ahamiyatga ega bo‘lib, ma’naviy o‘zini o‘zi takomillashtirish, muhtoj odamga hamdardlik, tabiatga muhabbat kabilar yuqori turadi.

Altruizm shaxs ijtimoiy tuzilishining maxsus tuzilmasini tashkil etuvchi tarkibiy qism bo‘lib, hukmron instinktlarning egosentrizmini olib tashlaydi, vijdon, rahm-shafqat, hamdardlik, muhabbat, adolat kabi qadriyatlarni ichkilashtirishga sabab bo‘ladi. Instinktiv sohadagi altruizmning shaxs instinktlari

va yo‘nalishlariga ta’sirining kuchayishiga olib keladi. Bu tushunchaning falsafiy qarash sifatida o‘rganilish zarurati yoshlikdan boshlab alohida ma’no kasb etishi bilan belgilanadi. Shu bilan birga, falsafiy qarash haqidagi kundalik fikrlar ko‘pincha bu hodisaning mohiyatiga to‘g‘ri kelmaydi va ko‘pincha fan nuqtai nazaridan uning talqinidan farq qiladi. Biroq, falsafiy qarash bo‘yicha ilmiy tadqiqotga qo‘yilgan muammoni hal qilish dolzarb vazifadir.

Nazariy manbalarni tahlil qilish natijasida falsafiy qarashning ko‘plab ta’riflari mavjudligi aniqlandi. Turli tadqiqotchilarning qarashlarini tahlil qilish natijasida altruizmning mohiyatini tashkil etuvchi muhabbatni ta’rifi ham muhim masala sanaladi. Muhabbat - bu hissiy, kognitiv va motivatsion ehtiyoj bilan bog‘liq xususiyatlar majmuini o‘z ichiga olgan biologik va ijtimoiy omillar ta’siri ostida shakllangan murakkab hodisa [2.198]. U jamiyatning barcha sohalarida namoyon bo'ladi va falsafiy qarash ob’ektiga muvofiq muayyan xatti-harakatlarda namoyon bo‘ladi. Muhabbat murakkab falsafiy hodisa sifatida insonda yoshlik davrida to‘liq namoyon bo‘ladi, chunki bu bosqichda aqliy rivojlanish eng yuqori darajaga etadi. Bu paytda insonning qadriyatlari, dunyoqarashi to‘liq shakllanadi, u hayotda qabul qilinadigan xulq-atvor normalari, qoidalari va namunalarni o‘rganadi. Bundan tashqari, inson yoshlik davrida insoniylikka xos bo‘lgan hissiylikning barcha imkoniyatlarini intensiv ravishda amalga oshiriladi. Falsafiy qarashning o‘ziga xos ahamiyatini aniqlash imkoniyati keng bo‘aldi [3.213].

Falsafiy g‘oyalarning xususiyatlarini o'rganish jarayonida olingan ma’lumotlarning mazmuni tahlil qilinadi va amalga oshirildi. Nazariy tahlil va empirik qarashlarga asoslangan amaliy tadqiqotda muhabbatning tuzilishi, jumladan, hissiy, kognitiv, xulq-atvor, motivatsion-ehtiyoj, qiymat va fiziologik komponentlar haqida aytish mumkin. Bundan tashqari, ma’lum bir toifalarni miqdoriy baholashni talab qiladigan usullar bilan ishlashda sub’ektlar falsafiy qarashni tavsiflaydilar. Muhabbatning eng kerakli atributlarini ko‘pchilik sub’ektlar muhabbat tuyg‘usi deb tushunishadi, ya’ni ular muhabbat tabiatini tan oladilar. Insonning falsafiy qarashlar haqidagi g‘oyalari hissiy, xulq-atvor va kognitiv komponentlar asosida rivojlanib, qolgan komponentlar esa sub’ektlar tomonidan amalga oshirilmaydi yoki kam tushuniladi. Sevimli odamga oid jumlalarni tahlil qilishda uning asosiy xususiyatlari sub’ektlar nuqtai nazaridan aniqlanadi. Shu bilan birga, sevikli kishining asosiy xususiyatlari - mehribon odamlarga uning atrofida o‘zlarini qulay his qilishlariga imkon beradigan xususiyatlar sanaladi. Sevgan odamning xatti-harakatlari yoki sevgan kishiga bo‘lgan munosabatini tavsiflovchi belgilar kamroq esga olinadi.

Shaxsiy altruizmning falsafiy xususiyatlari haqida gapiradigan bo’lsak, muvaffaqiyat ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida insonning yetakchi hayotiy qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Muvaffaqiyatga intilishga bo‘lgan ehtiyoj asosiy

va hayotiy ahamiyatga ega. Bu yutuq motivatsiyasi, shaxsning o‘zini o‘zi takomillashtirish istagi, o‘zini namoyon qilish zarurati, ko‘proq narsaga erishish istagi, ilgari erishilgan darajani yengib o‘tish va boshqalarga asoslanadi.

Insonning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillar - bu uning o‘zini o‘zi anglash va o‘zini o‘zi qabul qilish darajasi, shuningdek, shaxsiy qulaylik va ijtimoiy tan olinishi uchun ma’lum harakatlar qilish zarurligini anglashdir. Motivatsiya va muvaffaqiyatga erishish muammosiga mahalliy va xorijiy mualliflar bu masala bo‘yicha tadqiqotlar olib borganligi, ularning tabiati haqida turli xil qarashlar mavjudligi barcha ma’lum. Muvaffaqiyatga intilayotgan shaxsning falsafiy xususiyatlari muammosini o‘rganish amalga oshirilayotgan islohotlar davrida ayniqsa dolzarb bo‘lib qoladi. Jamiyatimiz rivojlanishining zamonaviy sharoitida, ayniqsa, yangi turdagi mutaxassislar talab qilinadi, ya’ni faol, tashabbuskor, ochiqko‘ngil, kasbiy mahoratga ega va hayotning barcha sohalarida muvaffaqiyatga erishish uchun motivatsiyaga e’tibor qaratiladi.

Muvaffaqiyatga erishishga qaratilgan zamonaviy talabalarining falsafiy xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish zarur. Muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan odam juda faol va tashabbuskor bo‘lib, to‘siqlarga duch kelganda, ularni yengish yo‘llarini izlaydi va maqsadlarga erishish, o‘z kelajagini uzoq vaqt davomida rejalashtirishdagi qat’iyatligi bilan ajralib turadi. Muvaffaqiyatga intilayotgan shaxsning falsafiy xususiyatlari shaxsning yo‘nalishi, o‘zini o‘zi qadrlashi, intilishlari darajasi, sub’ektiv nazorat darajasining lokalizatsiyasi, aql-idrok, harakatchanlik, moslashuvchanlik va muvaffaqiyatga ijobiy munosabat bilan bog‘liq bo‘ladi. Muvaffaqiyatga rag‘batlantirilgan shaxs quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: shaxsiy va kasbiy qarorlarni amalga oshirishga qaratilgan maqsad va vazifalarni aniq bilish; bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish istagi, hayotiy faoliyat jarayoni va natijalaridan hissiy qoniqishi lozim.

Zamonaviy turdagi mutaxassislarni - muvaffaqiyatga yo‘naltirilgan mutaxassislarni shakllantirishga intilishga zamonaviy talabalarning faolligi, ijodiy tashabbusi va mustaqilligiga e’tibor qaratadigan shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv yordam beradi. Altruizm, vijdonning yuqori tuyg‘usi sifatida, hamdardlik, boshqalarni tushunish, boshqalarga, ularning e'tiqodlariga, urf-odatlariga, ehtiyojlariga, da’volariga toqat qilish qobiliyati, murosaga kelish qobiliyati - bu shaxsning o‘z irodasi bilan rivojlanadigan ruhiy iste’dodda muvaffaqiyatni namoyon etadi.

Altruizm har qanday tashqi mukofot yoki mukofot bilan bog‘liq bo'lmagan, boshqa shaxsga yoki ijtimoiy birlashmaga qaratilgan xatti-harakatlar sifatida belgilanishi mumkin. Taklif etilayotgan mavzu kontekstida sub’ektning ichki holati, uning haqiqiy yo‘nalishi masalasi ayniqsa dolzarb bo‘lib qoladi. Axir, biz yordam bergan odamdan har qanday minnatdorchilikni kutish altruizm

tushunchasiga to‘g‘ri kelmaydigan mukofot kutish sifatida qaralishi mumkin. Bundan tashqari, chinakam altruizmdan tashqari, tashqi xatti-harakatlar insonning ichki niyatlariga mos kelganda, motivatsiya chinakam altruistik bo‘lsa, tashqi altruistik xatti-harakatlarning ko‘plab shakllari mavjud bo‘lib, ularning ichki mexanizmlari altruizm ta'rifiga umuman mos kelmaydi. Bu holat turli omillar tomonidan qo‘zg‘atilishi mumkin. Turli mualliflarning turli falsafiy qarashlarini ko‘rib chiqsak, ular bu masalani qanday hal qilishlarini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, odamlar altruizmning himoya shakllaridan foydalangan holda erishmoqchi bo‘lgan maqsadlarga qanday qarashlar mavjudligini kuzatish mumkin bo‘ladi. Darhol shuni ta’kidlash kerakki, bizning ishimizda ichki tuzilishda bunday bo‘lmagan altruistik xatti-harakatlar ya’ni, ta’rif bilan taqqoslaganda, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri mukofot yoki rag‘batlantirishni kutishga yoki manipulyatsiya holatiga asoslanadi. U tashqi mukofotlar qadriyatlarga ega bo‘lmasdan, ammo odam o‘ziga yordam berishni, o‘z qadr-qimmatini oshirishni, o‘z muammolarini qoplashni va hokazolarni bajaradi[40]. Altruist inson boshqalarning xohish-istaklariga hamdardlik ko‘rsatdi, bu odamlar va o‘zi o'rtasida g‘ayrioddiy kuchli aloqani his qiladi. Uning super egosi unga o‘z xohish-istaklarini ro‘yobga chiqarishga imkon bermaydi, lekin boshqa odamlarda kutilmagan tarzda bunga toqatli bo‘lib chiqishiga olib keladi. U boshqalarga o‘zlarining shunga o‘xshash impulslarini koo‘iktirish orqali o‘z impulslarini qondirdi. Shunday qilib, uning o‘z instinktlarini boshqalarning foydasiga tashqi rad etishi ya’ni, aslida, altruistik xatti-harakati egoistik ma’noga ega bo‘lib, unga aylanma tarzda kechiktirilgan harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Назаров Қ. Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. -Тошкент: “Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти”, “Маънавият”, 1-жилд, 2023. -Б. 65.

2. Несына С.В. Романтическая любовь в ранней юности как психологическое явление. Автореф. дис. канд. психол. наук. – Тамбов, 2004. – 198 с.

3. Горобец Т.Н. Любовь – духовная потребность в реализации жизненной стратегии // Мир психологии. 2006. - № 1. – С.213.

[40] Несына С.В. Романтическая любовь в ранней юности как психологическое явление. Автореф. дис. канд. психол. наук. – Тамбов, 2004. – С. 199.

SAIDRIZO ALIZODA MA’RIFATPARVAR OLIM SIFATIDA

U.Yu. Nazarov – tadqiqotchi,
Samarqand davlat chet tillar instituti

Annatotsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakati namoyondalarining xalqni ma’rifatparvar qilishlik yo‘lidagi mashaqqatlari, unda Said Rizo Alizodaning ma’rifatparvarlik faoliyati, uning dunyoqarashini shakllanishiga ta’sir etgan mavjud muhit va ma’rifatparvarning erk, mustaqillik, ozodlik, farovon hayot, millatparvarlik, barkamol avlodni tarbiyalash borasidagi faoliyatni ilmiy-falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *jadidchilik, yangi usul maktabi, ma’rifat, ilm, ta’lim, vatanparvarlik, diniy ta’lim, ozodlik, millatparvarlik.*

Аннотация: В данной статье усилия представителей джадидистского движения по просвещению народа, просветительская деятельность Саида Резы Ализода, существующая среда, повлиявшая на формирование его мировоззрения, свобода, независимость, свобода, благополучная жизнь просветителя , национализм, научно-философский анализ деятельности по воспитанию зрелого поколения.

Ключевые слова: *джадидизм, новометодная школа, просвещение, наука, образование, патриотизм, религиозное образование, свобода, национализм.*

Annotation: In this article, the efforts of representatives of the Jadid movement to educate the people, the educational activities of Said Reza Alizod, the existing environment that influenced the formation of his worldview, freedom, independence, freedom, the prosperous life of an educator, nationalism, scientific and philosophical analysis of activities to educate a mature generation.

Key words: *Jadidism, new method school, enlightenment, science, education, patriotism, religious education, freedom, nationalism.*

Jadid ma’rifatparvarlari tomonidan ishlab chiqilgan ta’lim dasturlari o‘sha davrdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy munosabatlarni o‘z ichiga qamrab olgan. Ayniqsa, milliy ta’limni rivojlantirish g‘oyasi ba’zi holatlarda mahalliy aholidan chiqqan ziyolilar bilan rus ziyolilari munosabatlarida konfrontatsiyani paydo bo‘lishiga ham sabab bo‘ldi. Buni aksariyat jadidshunos olimlarimiz hamda chet ellik mutaxassislar ham ochiq-oydin e’tirof etmoqdalar. Chunki bu holat birinchidan, jadidlar ishlab chiqqan ta’lim dasturlarining institutsional tuzilishi, mohiyati, funksiyalari va taraqqiyot qonunlarini: lokal, milliy, hududiy, mintaqaviy darajalarda rivojlanish xususiyatlarini aks ettirsa; ikkinchidan, Turkistonda milliy demokratiya tamoyillar va o‘ziga xos ijtimoiy iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqqan ta’lim tizimini yaratish va musulmon olamida ta’lim integratsiyasini kuchaytirish istiqbollarini aniqlashga imkon bergan;

uchinchidan, milliy ta’lim tizimini yuksaltirish asosida Turkiston ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarini tubdan isloh qilish, ma’naviy ma’rifiy islohotlarga to‘sqinlik qiluvchi eski ta’lim sarqitlaridan voz kechish; to‘rtinchidan, Turkiston aholsini turmush tarzi sifatini yaxshilashda ma’rifatparvar yoshlar faolligini oshirishga alohida e’tibor qaratilgan edi [1.B.19].

Jadidlar ta’lim dasturining maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ular o‘z g‘oyalari mezonini ijtimoiy adolat, milliy farovonlik, milliy mustaqillik asosida shakllantirganlar [2.B.344]. Shu bilan birga ular madaniy-axloqiy, va ma’rifatparvarlik ishlarini yangilashga, yevropacha ilmiy-texnika tafakkurini targ‘ib qilishga, diniy mutaassiblik, aqidaparastlik va nodonlikka barham berishga harakat qilganlar. “Islohni nimadan boshlarga” sarlavhali maqola muallifi: “Men ovrupa xalqining bu darajada taraqqiy va tolelarining birinchi sababini va bosh sababini ko‘p axtardim. Lekin ibtidoiy tarbiyalarining mukammalligidan boshqa sabab topa olmadim. Va, binobarin islohotimizni maktab ibtidolarimizdan boshlamoq darkor deb hisoblayman”[3.B.26], deb yozadi hamda Turkistondagi maktab-madrasalarda amal qilinayotgan o‘qitish tartibini zamon talablariga javob bera olmasligini, turmushdan orqada qolganligini shunday tushuntiradi: “madrasa talabalariga tarixi milliyat va hisob o‘qitmoq odati bizda o‘lda-jo‘lda yoki aslo yo‘q. Jo‘g‘rofiya va riyozatga sayr qiluvchi darslarni albatta mudarrislarimiz o‘qimaydilar, shogirdlariga o‘qitmaydilar. Demak, bizning madrasa shogirdlarimiz nihoyatda past qadam bo‘lib qolmoqdalar” [3.B.27].

Samarqand jadidchilik harakatining yorqin namunasi bo‘lgan Saidrizo Alizoda xalqni ma’rifatli qilish orqali o‘zligni anglashini bir umr orzu qilgan ma’rifatparvar edi.

Jadidchilik harakatining yorqin vakillaridan bo‘lmish Saidrizo Alizoda 1887 yil 15 fevralda Samarqand shahrining Bog‘ishamol guzarida ipakchi-gilamchi savdogar Mirmuhsin oilasida tug‘ilgan. Maktab yoshiga yetgach, otasi Saidrizoni guzarida muhojirlikda yashagan ozarbayjonlik alloma Shayx Abulqosim asos solgan yangi usul maktabiga olib boradi. Qisqa vaqt ichida maktabni a’lo baholarda tamomlagan Saidrizoni Shayx Abulqosim maktabda muallimlik qilish uchun olib qoladi.

Muallimlik davrida u maktab kutubxonasidagi Ozarbayjon, Eron va Hindistonda chop etilgan gazeta va kitoblarni muntazam o‘qib borgan.

Maktabda bir muddat ishlagach, oliy ta’lim olish uchun madrasaga o‘qishga kirgan va olti yil tahsil olgan. Uni tamomlagach, Samarqand shahridagi Demurov nomidagi bosmaxonada harf teruvchi, so‘ngra rus va o‘zbek tilida chiqadigan «Samarqand» jurnalida musahhih bo‘lib ishlagan. Shu tariqa rus tilini yaxshi o‘rgangan, rus adabiyoti bilan ham yaqindan tanishgan.

Saidrizo Alizoda 1914 yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy bilan hamkorlikda «Samarqand» gazetasi, keyinchalik «Oyina» jurnalini tashkil etadi. Ularning sahifalarida Samarqanddagi maktab hamda madrasalardagi eskicha o‘qitish tizimini keskin tanqid qilib, ta’lim tizimini isloh etish bo‘yicha maqolalar e’lon qilib boradi. Jumladan, gazeta va jurnal sahifalarida Afg‘onistonda chiqadigan «Siroj-ul axbor» gazetasida mashhur siyosiy arbob, taniqli adib Mahmud Tarziy tomonidan yozilgan afg‘on yangi usul maktablaridagi muammolarga bag‘ishlangan maqolalarni ko‘rsatish orqali Samarqand jadid maktablarida darsliklarning yetishmasligi, imtihon olish jarayonidagi chopon kiydirish kabi kamchiliklarni tanqid qiladi. Ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar beradi. «Samarqand» gazetasi va «Oyina» jurnalining «Telegraf xabarlar» sahifasini o‘z hisobidan chiqartiradi. 1917 yildan «Hurriyat» gazetasida tarjimon va muxbir bo‘lib ishlaydi.

1919 yili Turkiston hukumati huzurida respublikadagi tojiklar, eronliklar va afg‘onlarni birlashtirgan fors bo‘limi tashkil etilgach, Saidrizo Alizoda bu bo‘limga boshliq qilib tayinlangan. Bo‘lim haftalik «Sharq mash’ali» jurnaliga asos solgan va 1919 yil 7 martda Saidrizo Alizoda ushbu jurnalga muharrir etib tayinlangan. 4 ming nusxada chiqqan jurnal Turkiston, Kavkazortidan tashqari, Afg‘oniston, Eron, Turkiya, Hindiston va qator arab mamlakatlarida tarqalgan edi. Jurnal sahifalarida Saidrizo Alizodaning o‘lka ahlining erkin hayotga tashna orzu-umidlari o‘z ifodasini topgan maqola va she’rlari e’lon qilib borilgan.

U 1922 yildan boshlab «Zarafshon» gazetasida bo‘lim mudiri bo‘lib ishlagan. Muharrirlik qilish bilan bir paytda, «Turkiston xabarlari», «Kambag‘allar o‘qi», «Hurriyat», «Mehnatkashlar tovushi», «Buxoroi sharif», «Turon», «Samarqand ovozi» gazetalari, «Mashrab», «Mulla Mushfiqiy» jurnallarida maqolalar chiqarib turgan. Tanqidiy maqolalari va feletonlarini Bahlul, Zambur, Ranjbar, Bog‘ishamoliy, Shapaloq, S.A. kabi taxalluslari bilan berib borgan.

Samarqandda tojik tiliga ixtisoslashtirilgan maktab ochib, kambag‘al oilalarning farzandlariga ta’lim bergan Saidrizo Alizoda o‘quvchilar uchun «Sarfi arab», «Turkiy alifbo», «Tarix», «Jug‘rofiya», «Riyoziyot», «Handasa», «Tabiat», «Din vojiblari», «Nizomnoma», «Badan tarbiyasi», «Ilmi fazo» singari o‘n bitta darslik yozgani ma’lum. Bu darsliklar boshlang‘ich sinflar uchun tayyorlangan bo‘lib, o‘quvchilar ular orqali savod chiqarishdan tortib, aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha yetarlicha bilim hamda ko‘nikmalarga ega bo‘lgan. Saidrizo Alizoda o‘zbek maktablari uchun «Birinchi yil» alifbosini yozib, Samarqanddagi yangi usul maktablariga bepul tarqatganini alohida ta’kidlash joiz. Maktabchilik va darsliklar yozishdan tashqari shaharda yashovchi ruslar uchun kechki kurslar tashkil etgan hamda ularga o‘zbek va tojik tillarini o‘rgatgan.

1906 yili Samarqandda yangi usuldagi maktabini ochadi. Maktab uchun o‘zbek tili, fors tili, arab tili grammatikasi, hisob, riyoziyot, handasa, tarix, jug‘rofiya, fazo ilmi, aljabr, tibbiyot, jismoniy tarbiya buyicha 12 ta darslik tuzgan. 1909-1915 yillarda do‘sti Halim Karimzoda hovlisida «Hayot», «Yangi hayot» maktablarini ochadi.

Sayid Rizo Alizoda birinchi bor nashr qilingan «Mullo Nasriddin» jurnalining muallifi sifatida, uning sahifalarida CHor Rossiyasining kolonial siyosatini qat’iy fosh etdi. Bolsheviklar siyosatiga shubha bilan qarovchi o‘tkir maqola, feleton, pamfletlar yozish uchun ko‘p tilni bilishdan tashqari keng saviya, qomusiy bilim, jasorat, mahorat va yana bir qancha sifatlar talab etilardiki, bularning bari SaidrizoAlizodada mujassam edi [4.B.21]. Alizodaning maqola va she’rlarida o‘rta asrchilik tuzumining g‘ayriinsoniy tabiati, uni himoya qilgan mutaassib ruhoniylar tanqid qilindi. Xususan, o‘zining «Mullo vaxotini» she’rida achchiq kinoya bilan mullalarning riyokorligini, ularning o‘rta asrchilik tartib-qoidalarini va CHor Rossiyasining siyosatini jon-jahdlari bilan qo‘llab-quvvatlayotganliklarini ko‘rsatib berdi. Sayid Rizo Alizoda mutaassib ruhoniylar CHor hukumatining mafkuraviy «panoh»lari hisoblanadilar, degan xulosaga keldi. Dunyoviy bilimlarni egallash, yangi o‘quv uslublarini qo‘llash tufayli ilg‘or, savodli, jamiyat va xalq manfaatlari uchun qayg‘uradigan fidoiylarni tarbiyalashmumkin. Turkistonning shunday fidoiy farzandlari yurt mustaqilligi, ozodligi to‘g‘risida o‘ylashlari va bu maqsad sari kurash olib borishlari lozim.

Xalqni ma’rifatli qilish maqsadida o‘zbek va tojik tillariga Pushkinning «Kapitan qizi», «Evgeniy Onegin», «Dubrovskiy», «Belkin qissalari», «Buron», L. Tolstoy, A. CHexov hikoyalari, Krilov masallari, Sinkler Eltonning «Yuz foiz», Mopassanning «Dundiqcha». Molerning «Zo‘raki tabib», Voynichning «Suna» SHoloxovning «Ochilgan qo‘riq». Gladkovning «Sement». Ostrovskiyning «Po‘lat qanday toblandi» asarlari, shuningdek, «Algebra (Kiselev)», «Arifmetika (Terenteva)» «Geografiya (Ivanov)», «Geometriya», «Botanika» darsliklari hamda A. Kodiriyning «O‘tkan kunlar», «Mehrobdan chayon romanlari»ni tojik tiliga o‘giradi.

Ma’rifatchi jadid lug‘at tuzish ishlari bilan shug‘ullangan hamda 1933-1934 yillarda 61 ming so‘zdan iborat ikki jildlik ruscha-tojikcha lug‘atini nashr ettirgan bo‘lib, unda ko‘plab kasbiy va ijodiy atamalar, uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari, ilmiy va adabiy nomlar o‘rin olgan.

Saidrizo Alizodaning yangicha qarash va intilishlari, eng muhimi, bu boradagi aniq-tiniq ishlari yurtdan tashqarida ham dovruq topgani yaxshi ma’lum. Uning nabirasi Farhod Alizodaning aytishicha, mutafakkir Afg‘oniston hukmdori Omonullaxon farmoni bilan fors tilida tarix va islom diniga oid «Asri saodat», «Murosilot-maktubot», «Odobi ikrom», «Tarixi islom», «Tarixi Turkiston»,

«Qonuniyat hoyi diniy», «Madaniyati islom», «Zarurati islom», «Fan dar borayi koinot» kitoblarini yozgan va ular 1923 — 1933 yillarda Pokistonning Lohur shahrida nashr etilgan [5.B.7] .

Saidrizo Alizoda murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga qaramasdan yosh avlodni tarbiyalash va unga ta’lim berish masalalari ustida tinimsiz bosh qotirib kelgan va bu sohada muayyan amaliy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqqan. Shu bilan birga, ta’lim falsafasi konsepsiyasi asosida yosh avlod ta’lim-tarbiyasi sohasida tarixan shakllangan muayyan bilimlar, yutuqlar va qadriyatlar jamiyat taraqqiyoti talablariga mos ravishda mazmunan yanada boyitilishi va rivojlantirilishi lozimligini har tomonlama asoslashga uringan.

1933 — 1937 yillarda Samarqand davlat universitetida arab va fors tillaridan dars bergan, butun umrini millat hamda yurt ro‘shnoligi, yangicha qarash va bilimlarga ega avlod tarbiyasi uchun bag‘ishlagan o‘zbekning ulug‘ini mustamlakachilar ko‘zdan qochirishlari mumkin emasdi. Ular Saidrizo Alizodani 1937 yili Samarqand davlat universitetida yoshlarga dars berib turgan xonaning o‘zidayoq qo‘lga olganlar. O‘z odatlariga ko‘ra, uni josuslikda ayblab, qamoq jazosiga hukm qilishadi. Oldiniga Samarqand, so‘ngra Toshkentda, keyinroq Tobolsk va Vladimirda 8 yil qiynoqlar ostida tutqunlik azobini tortgan Saidrizo Alizoda 1945 yil 24 dekabrda Vladimir qamoqxonasida sil kasalidan vafot etadi. 1987 yili nabirasi Farhod Alizodaning sa’y-harakati bilan marhumning xoki Vladimirdan o‘z yurtiga olib kelingan hamda Samarqanddagi «Panjob» qabristoniga dafn etilgan.

Saidrizo Alizoda xalqning kelajagini faqat mustaqillik, erkinlik va ozodlik masalalari bilangina bog‘lab qo‘ymagan. U o‘z xalqining kelajagi qanday kechishi lozimligi masalasi bilan ham qiziqib, boshqa davlatlarning ta’lim tizimini o‘rgangan va ulardan qaysilaridan andoza olish mumkinligi borasida bosh qotirgan. U o‘z xalqi taraqqiyotini nafaqat siyosat, balki uning ma’naviy-ma’rifiy va ilmiy salohiyatining keskin o‘zgartirish orqali o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritishda deb bildi.

Jadid ma’rifatparvarlarini samarali faoliyati hozirgi kunda ham yuksak darajada qadrlanib kelinmoqda. Shu boisdan ham vatanimiz tarixining g‘oyat murakkab davrida – XX asr boshlarida o‘zining ma’rifatparvarlik faoliyati va fidokorona xizmatlari bilan milliy ta’lim-tarbiya tizimini yaratish hamda yurtimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta’minlashga qo‘shgan beqiyos hissasi inobatga olinib Sayidrizo Alizoda tavalludining 105, 110, 115, 120 yilliklari Samarqand shahrida o‘tkazilgan. Nomiga ko‘cha, maktab, mahalla qo‘yilgan, uy-muzeyi ochilgan. SHuningdek Samarqand jadidchilik maktabining etuk vakili Saidrizo Alizoda ijodini

o‘rganish,uning ijtimoiy-falsafiy, axloqiy qarashlarini tadqiqi bilan Rossiya, Ozarbayjon, Eron olimlari o‘z asarlarida to‘xtalib o‘tganlar.

Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati

1. Abduraximova N.A. Kolonialnaya sistema vlasti v Turkestane vo vtoroy polovine XIX – nachale XX vv. Avtoreferat dissertatsii doktora ist. nauk. Tashkent, 1994;

2.Orzibekov R. Adabiy merosimiz sehri. – Samarqand: SamDU nashri, 2006. 344- bet.

3.Muxtorov Sh. Islohni nimadan boshlarga // Sadoi Fargona. 1914 yil 3 aprel.

4. S.Umarov. Saidrizo Alizoda –Samarqandlik mutafakkir. Hurriyat gazetasi 2008.yil.

5. Alizoda Farxod. Said Rizo Alizoda(tarxiy-bibliografik ocherk).T.”Abu Matbuot-Konsalt” nashriyoti. 2011. –B. 7.

АСПЕКТЫ МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОГО ПОДХОДА ПО ИЗУЧЕНИЮ ЗАПАДНОГО СУФИЗМА

Муминов Нозим Наимович
Старший преподаватель
кафедры «Гуманитарных наук и информационных технологий» СамГИИЯ
Email: azamatazim@gmail.com

Аннотация

Статья посвящена некоторым аспектам междисциплинарного и критического подхода к исследованию западного суфизма, сформировавшегося на пересечении исламской мистики и европейской духовности.

В условиях глобализации возрастает интерес к взаимодействию восточных и западных духовных традиций. Суфизм, как мистическое направление ислама, за последние два века стал заметным явлением в западной культуре, влияя на философию, психологию, искусство и общественную мысль [7].

Актуальность изучения суфизма связана с его ролью в развитии альтернативной духовности на Западе, преодолении метафизического кризиса и укреплении диалога между исламом и Западом, особенно в условиях современных культурных и религиозных вызовов.

Распространение суфизма на Западе с XIX по XXI век отражает сложный процесс культурно-философского обмена между исламской

мистикой и западной мыслью, актуальный в контексте постсекулярности и глобализации.

Во-первых, суфизм в западном контексте служит важным мостом между исламской и европейской культурами, способствуя межкультурному диалогу в условиях глобальных противоречий.

Во-вторых, западный суфизм, объединяя мистику с идеями модерна и постмодерна, выступает как ответ на кризис философских оснований Нового времени.

В третьих, в условиях глобализации суфийские практики становятся частью массовой культуры, что поднимает вопросы об их подлинности, культурной апроприации и изменении духовного смысла в эпоху позднего капитализма.

Узбекские востоковеды на протяжении десятилетий изучают суфизм, исследуя его философские и художественные аспекты, а также активно занимаются переводом суфийских текстов.

Среди видных исследователей суфизма в Узбекистане – Н. Камилов, Б. Валиходжаев, Б. Бабажанов, Р.Т. Шодиев и др.. Их работы способствуют дальнейшему развитию изучения суфизма как части культурного наследия региона.

Несмотря на обилие исследований, всё ещё не хватает комплексного анализа взаимодействия суфизма и Запада от XIX века до наших дней. Одной из ключевых проблем остаётся определение границ понятия «западный суфизм» [8,41], нередко сводимого к синкретизму с западной философией и психологией, что чревато утратой его культурной подлинности. При этом исламский суфизм оказал значительное влияние на западную мысль.

Влияние суфизма на Запад проявляется не только в заимствовании его идей и практик, но и в расширении духовных и философских горизонтов, способствуя переосмыслению человеческого опыта и мировоззрения [3].

Суфизм оказал заметное влияние на западную науку и духовность, обогатив её понимание мистицизма и внутреннего поиска. Поэтому следует подчеркнуть значимость межкультурного диалога и актуальность суфийской мудрости сегодня, указывая на перспективы дальнейшего изучения её влияния на западную философию, литературу и духовные практики [2,58].

Ключевая методологическая проблема в изучении западного суфизма – это вопрос подлинности в условиях культурного переноса. Адаптация суфийских идей на Западе часто сопровождается их «глубокой трансформацией», что вызывает ставит вопрос, является ли западный суфизм продолжением исламской традиции или новым феноменом западной духовной культуры [4,143].

Исследование западного суфизма осложняется тем, что многие источники имеют устный или неформальный характер – это лекции шейхов, ритуалы в центрах и материалы онлайн-сообществ.

Изучение западного суфизма требует осознания исследовательской позиции, поскольку академическая перспектива формировалась в контексте западной рациональности. Отказ от иллюзии нейтральности позволяет критически переосмыслить методологию и способствует «интеллектуальной деколонизации», создавая пространство для диалога между исламской традицией и западной философией [1,75].

Одной из методологических трудностей является периодизация западного суфизма, развитие которого не поддаётся чётким хронологическим рамкам и связано с глобальными идеологическими сдвигами. Европоцентричные модели часто не учитывают асинхронность культурных процессов.

Взаимодействие западного суфизма с политическим контекстом изменялось со временем: от инструмента культурного диалога в начале XX века до элемента идеологических конфликтов в период холодной войны и постколониализма [9].

Поэтому исследование западного суфизма требует интеграции антропологических методов с философским анализом, что вызывает споры о границах описания и оценки. Решением служит рефлексивная феноменология, где опыт практикующего становится частью самого исследовательского процесса [6].

Таким образом, методология изучения западного суфизма требует баланса между исторической точностью и философским осмыслением, сочетая критику колониального наследия с признанием ценности культурного смешения [5].

Такие подходы, как сетевая хронология и рефлексивная феноменология, расширяют понимание религиозного трансфера, показывая, как духовные традиции адаптируются в глобальном контексте, сохраняя корни и переосмысливая академические рамки.

Литература:

1. Гарасаев А. М. Из чеченского религиозного поэтического наследия: назмы духовные песнопения в обрядовой практике суфиев // Вестник МГУ. Востоковедение. 1998. № 4. 123 с.

2. Джахиев Г.А. Из истории совместных антиколониальных выступлений дагестанцев и чеченцев в первой полвине 20-х годов XIX в. // Исторические связи народов Дагестана и Чечни. Научно-практическая конфренеция. Тезисы докладов. Махачкала, 2006. 89 с.

3. Крымин А.В. Тарикат // Кавказский сборник. Т. 1 (33). М.: НП ИД «Русская панорама», 2004. 161 с.

4. Наср Сейид Хосейн. Суфизм в ретроспективе // История современной зарубежной философии: компаративистский подход. СПб., 1997. 269 с.

5. Родионов М. А. Ислам классический. СПб, 2003. 224 с.

6. Смирнов Н. А. Политика России на Кавказе в XVI–XIX вв. М., 1958. 185 с.

7. Фролова Е. А. Опыт осмысления индивидуальности в арабо-исламской религиозно-философской мысли // Историко-философский ежегодник, 1995. М., 1996. 275 с.

8. Шайхмухамбетова Г. О проблемах историографии средневековой арабской философии // Средневековая арабская философия: Проблемы и решения. М., 1998. 192 с.

9. Nicholson R. A. The Mystics of Islam. London, 1914. 210 p.

YA’QUB CHARXIY ILMIY MEROSI VA UNING TASAVVUFIY G‘OYA TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI.

Samarqand davlat chet tillar istituti
mustaqil tadqiqotchisi
Ravshanov Akmal Maxmudovich

Annatatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutasavvif va Naqshbandiya tariqatining yirik namoyandalaridan biri — Ya’qub Charxiyning boy ilmiy va tasavvufiy merosi keng tahlil etilgan. Muallif Ya’qub Charxiyning asarlari, risolalari va ular asosida shakllangan orifiy-falsafiy qarashlarini manbashunoslik va falsafiy tahlil asosida o‘rganadi. Shuningdek, uning tasavvuf falsafasi taraqqiyotidagi o‘rni, ustoz-shogirdlik an’anasi doirasidagi faoliyati, Bahouddin Naqshband va Alouddin Attor bilan bo‘lgan munosabatlari, shuningdek, Naqshbandiya tariqatining keyingi rivojlanishiga qo‘shgan hissasi yoritiladi.

Kalit so’zlar: *Ya’qub Charxiy, tasavvuf falsafasi, Naqshbandiya tariqati, oriflik, piri-murshidlik, ustoz-shogirdlik, manbashunoslik, falsafiy tahlil, tasavvufiy g‘oya taraqqiyoti, risolalar, ilmiy meros.*

Jahon ilm-fani va markazlarida umuminsoniy sivilizatsiya, madaniyatidan o‘rin olgan Sharq xalqlari tarixi, falsafasi, ayniqsa islom dini ta’limoti bilan uzviy ravishda rivojlangan Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ta’lim-tarbiya va davlat boshqaruviga oid qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan fundamental tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai-nazardan ma’naviy merosdagi imon, insof, mehr-oqibat, andisha, or-nomus, kattaga hurmat, kichikka

izzat, mehmondo‘stlik, yurtga va xalqqa sadoqat kabi fazilatlarini asrab-avaylab, kelajak avlodning qon-qoniga singdirish, umuminsoniy madaniyatlarni uyg‘unlashtirishning ilmiy asoslarini ochib berish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Ya’qub Charxiy g‘oyalarning mazmun-mohiyati, vorisiylik an’analariga sodiq qolish, qadrlash, ma’naviy borliq muammolari hamda Naqshbandiya tariqatiga xos xususiyatlarining ahamiyatini tadqiq etish zaruriyati ortib bormoqda.

Naqshbandiya tariqatining pirlaridan bo‘lgan Ya’qub Charxiy orifiy ilm soxibi bo‘lganligini nafaqat uning shogirdlari va farzandlari to‘plagan manoqiblar, balki o‘zi yozgan ilmning turli sohalari, ayniqsa, naqshbandiya tariqatining nazariy va amaliy muammolarini tadqiq etishga bag‘ishlangan risolalari ham tasdiqlab turibdi[41]. Mutasavvif hayoti va ilmiy merosiga oid XIV-XVII asrlarda qator mutafakkirlar, ayniqsa XV asrning mutafakkiri Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul uns”, Alisher Navoiyning “Nasoyimul muhabbat min shamoyimul futuvvat”, Fahruddin Ali Safiyning “Rashahot ayn ul - hayot” kabi asarlarida mavzuga oid fikrlar keltirilgan.

Shuningdek, Xoja Ubaydulloh Ahror, Maxdumi A’zam Sayyid Ahmad Kosoniy ad-Dahbidiy, Zahriddin Muhammad Bobir, Abu-l-Muhsin Muhammad Boqir ibn Muhammad Ali, Muhammad Rahim, Abu Tohirxo‘ja va boshqalarning asarlarida Ya’qub Charxiy haqida turli ma’lumotlar mavjud.

Xorijiy mamlakatlar Germaniya, Turkiya, Eron, Pokiston, Rossiya, Tojikistonda Ya’qub Charxiy hayoti va ilmiy merosiga oid ayrim tadqiqotlar amalga oshirilganligini qayd etgan. Turkiyalik ilohiyotchi olim Najdat To‘sun “Oltin xalqa. Naqshbandiya tariqatining oltin silsilasi”[42] kitobida Ya’qub Charxiy “zanjir az-zaxabning” o‘n ettinchi xalqasida ekanligini ta’kidlab, Misr, Hirot va Buxoro madrasalarida ilm olganligi, Hirotda yashagan davrida ijtimoiy muhitning yomonligi hamda Abdulla Ansoriy xonadonida bo‘lganligini keltiradi. Jumladan, mutasavvifning Buxoroda ilm olib Bahouddin Naqshband bilan ilk uchrashuvi tugagach, Dashti Kulakka Mavlono Tojiddinning suhbatida qatnashganligi haqida ma’lumotni beradi. Olim fikricha, Ya’qub Charxiyning tushlarida yoki kashfida Buxoro qal’asining yorilganini, qal’a devorlaridagi kovaklardan o‘ziga qarab nur taralganini, nurlarning bir uchi uning boshida, qolgani esa uchi arqon kabi uzayib, Ka’baga ulanganini, bu nur iplarining ustida tugun bo‘lib, har bir tugunda mevali

---

[41] Ya’qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya.O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 5825/ VI; Silsilai naqshbandiya. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 3410/ III; Risolai qudsiya. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 980/ II; Risoli abdoliyya. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 9351/ III; Risola dar siyrati mustafaviyya va tariqai mustaqima.

O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 9351/ IV; Risolai dar manoqib va aqoid. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 5478/ VI; Sharhi navadu nuh nom. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 5478/ V; Tafsiri Ya’qubi Charxiy. O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 8745/.

[42] Наждат Тўсун. Олтин Силсила. Нақшбандийлик тариқатининг олтин силсиласи. – Т.: Qamar – media, 2022. – Б. 224.

daraxtlar hosil qilgani, insonlar va maxluqotlar shu mevalardan bahramand bo‘lganini ko‘radi. Bu tushini ustozi Bahouddin Naqshbandga aytgandan so‘ng, piri Ya’qub Charxiyga xalqni irshod qilishga ijozat beradi. Germaniyaning Gamburg universiteti qo‘lyozmalarni o‘rganish markazi professori Yurgen Paul Ya’qub Charxiyning hayoti, ilmiy merosi hamda Bahouddin Naqshband bilan ustoz-shogirdlik munosobati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z tadqiqotlarida bayon etadi. Jumladan, naqshbandiya tariqati namoyondalari hamda Ya’qub Charxiyning tariqatdagi o‘rni va ilmiy merosi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Olim Ya’qub Charxiy zikrni ustozi Bahouddin Naqshbanddan o‘rganganligin, muridi Xoja Axror Valiyga bu masalada e’tiborli bo‘lishi kerakligini alohida ta’kidlagan. Yurgen Paul fikricha, Ya’qub Charxiy ikki yil Alouddin Attorga shogird bo‘lib, hozirgi Dushanbe yaqinidagi Halg‘atu qishlog‘iga dafn etilgan[43].

So‘nggi yillarda O‘zbekiston tasavvufshunosligida Ya’qub Charxiyning hayoti, ilmiy merosi va tasavvufiy qarashlarining mohiyati haqida qator tadqiqotlar amalga oshirilган. Chunonchi, Ya’qub Charxiy haqida jiddiy kuzatishlar olib borgan sharqshunos olim Z. Qutibaev ham tasavvufdagi piri murshidlik masalasini tahlil qilib, naqshbandiya tariqatining yirik vakillaridan biri

Xoja Ahror Valiy Ya’qub Charxiyni o‘ziga pir deb tan olinishi haqidagi ko‘plab ma’lumotlarni keltirgan. Xoja Ahror Valiydek inson Charxiyni o‘ziga pir deb hisoblashi, uning naqadar kuchli orifiy ilm sohibi ekanligidan dalolatdir[44]. R.A.Tillaboev naqshbandiya ta’limotining ko‘pgina musulmon hududlariga, shuningdek Hindistongacha tarqalishiga Mavlono Ya’qub Charxiyning alohida o‘ringa ega ekanligi haqidagi ma’lumotni keltiradi[45].

Bahouddin Naqshbandning to‘rtta muridi bo‘lib, ular Alouddin Attor (vaf.803/1400 y), Muhammad Porso (vaf.1420 y), Alouddin G‘ijduvoniy (XIV asr), Ya’qub Charxiy (vaf. 1447 y) lardir. Ba’zi olimlar Bahouddin Naqshband hayoti, faoliyati haqida yozganlarida faqat uchta shogirdi haqida eslatib o‘tadilar, uchinchi xalifasi Alouddin G‘ijduvoniy to‘g‘risida ma’lumot keltirmaydilar. Naqshbandiya ta’limoti Bahouddin Naqshbanddan keyin to‘rt shogirdi tomonidan rivojlantirilgan. Ya’qub Charxiydan keyin Naqshbandiya ta’limoti Xoja Ahrori Valiy tomonidan Turkiya va Hindistonda yoyilishi, shu tufayli butun jahonga tarqalishiga sabab bo‘lgan. Uning g‘oyalarini Muhammad Qozi orqali Maxdumi A’zam rivojlantirgan.

Ma’lumotlarga ko‘ra, Ya’qub Charxiy xijriy 768 yil, milodiy 1363 yilda Afg‘onistonning Charx degan joyida tug‘ilgan. To‘liq ismi Mavlono Ya’qub Charxiy ibn Usmon ibn Mahmud ibn Muhammad G‘aznaviydir. Ba’zi bir

[43] Paul, Jürgen. Doctrine and Organization: The Khwajagan/Naqshbandiya in the First Generation after Baha'uddin - Berlin: Das Arabische Buch, 1998. – P. 18.

[44] Кутибоев З.А. Хожа Ахрор Валий. – Т.: Фан, 1996, - 157 б.

[45] Тиллабоев Р.А. Среднеазиатские агиографические сочинения вв. как исторические источник (жития шейхов накшбандиев). Автореферат док. ист. Наук. – Т., 1994. – 64 с

manbalarda, G‘azna shahriga qarashli Charx nomli qishloqda tavallud topganligi uchun u o‘ziga Charxiy nisbasini tanlagan deyiladi[46].

Yosh Ya’qub Charxiy ilm o‘rganishga erta kirishadi. Boshlang‘ich ta’limni avval Charxda, so‘ng G‘aznada olgan. Ilm olishga ishtiyoqi baland bo‘lgan Ya’qub Charxiy madrasadagi ta’limni chuqur o‘rganadi.

Mutasavvif “Tafsiri Ya’qub Charxiy” asarida hijriy 782 (milodiy 1380) yil Hirotdan Buxoroga kelganligini keltirsa, “Risolai unsiya” asarida esa Buxoroga kelib, Fathobod qishlog‘ida Sayfiddin Boxarziy qabri to‘g‘risidagi hujrada yashaganligi hamda ustozi Bahouddin Naqshband bilan uchrashganligi haqidagi ma’lumotni keltiradi: “Bu faqirning (Buxorodagi) oxirgi kunlari Fathobodda edi. (Bir kuni) Sayfuddin Boxarziy (Unga Allohning rahmati bo‘lsin) mozoriga mutavajjih bo‘lib o‘tirgan edim, nogoh ilohiy qabul paykoni kelib tegdi. Beqaror bo‘lib, u hazratning yonlariga bormoqqa qasd qildim. Ko‘shki Hinduvon qishlog‘iga etganimda, u zotni yo‘l boshida menga intizor bo‘lib turgan holda topdim. Ochiq yuz bilan ko‘rishdilar. Shom namozidan so‘ng (men bilan) suhbat qurdilar. Meni u kishining haybatlari bosdi va menda bir so‘z deyishga majol yo‘q edi”[47]. “Rashohot”da Ya’qub Charxiy Bahouddin Naqshband vafotidan so‘ng, uning muridi va kuyovi Alouddin Attorning muridi bo‘lganligi quyidagicha keltiriladi: “Xojai Buzrugning suhbatlariga birinchi kun etganimda, ulardan “meni qabul qiling”, deb iltimos qildim. Ular esa dedilar: “Biz o‘zimizcha bir ish qilmaymiz, ko‘raylik, agar seni qabul qilsalar, biz ham qabul qilamiz”, so‘ng Jomiy Ya’qub Charxiyning so‘zlarini keltirib yozadi: “Bomdodda ularning huzuriga bordim. Ular: “Seni qabul qildilar, ammo sen Xoja Alouddinning suhbatida bo‘lasan”[48], - dedilar. Ya’qub Charxiy Bahouddin Naqshband va Alouddin Attor vositasida naqshbandiya tariqatiga kirgan hamda o‘nga yaqin risolalari orqali ushbu ta’limotni rivojlantirgan.

Ya’qub Charxiy nafaqat tasavvuf ilmiga balki dunyoviy ilmlarga ham qiziqqan va munosib hissa qo‘shgan. Asuriddin Mufazzal bin Umar al-Abhariy (vaf. 663/1265) ning “Sharhi hidoyat ul-hikma” risolasi falsafa, mantiq, fizika va metafizika sohalariga bag‘ishlangan bo‘lib, keyinchalik qo‘lyozma nusxasida

Ya’qub Charxiy tomonidan sharh yozilganligi keltirilgan.[49]

Mutasavvif naqshbandiya tariqatining nazariy - axloqiy masalalari, ijtimoiy hayotning dolzarb muammolaridan bahs yurituvchi o‘nga yaqin risolalar yozgan.

---

[46] Фахруддин Али Сафий “Рашаҳоту айнил-ҳаёт” // М.Ҳасаний, Б. Умрзоқов. -Т.: “Абу Али ибн Сино”, 2004. – Б.96.

[47] Ya’qubi ibn Usmon ibn Mahmud al-G‘aznaviy al-Charxiy. Risolai unsiya.O‘zRFA ShI xazinasi, inn. № 5825/ VI; - B. 6.

[48] Фахруддин Али Сафий “Рашаҳоту айнил-ҳаёт” // М.Ҳасаний, Б. Умрзоқов. -Тошкент: “Абу Али ибн Сино”, 2004. – Б. 98-99.

[49] Раззоқова М. Мавлоно Яъқуби Чархий. – Т.: Muharrir, 2013. – Б.28.

Ushbu risolalarning doirasi va qo‘lami keng. Shu bilan birga ularning etakchi va asosiy yo‘nalishi tasavvufning falsafiy-ijtimoiy va axloqiy qarashlari bilan belgilanadi.

Ya’qub Charxiyning bizga qoldirgan boy ilmiy merosi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo‘lyozmalar xazinasida saqlanmoqda.

Mutasavvifning boy ma’naviy merosi va shaxsiy ibrati kelgusi avlodlarni o‘tmish ma’naviy merosidan bahramand qilishda muhim ahamiyatga egadir. Uning risolalari islom qoidalarini to‘g‘ri anglashda, yurtimizda pok axloqiy qadriyatlarning qaror topishida shubhasiz muhim o‘rin egalaydi. Nashbandiya tariqatini yoyish va rivojlantirishda uning to‘rtta xalifalari – Alouddin Attor, Alouddin G‘ijduvoniy, Muhammad Porso, Ya’qub Charxiylar katta xizmat ko‘rsatdilar. Ular o‘z asarlari orqali Naqshbandiya asoslarini o‘zidan keyingilarga etib borishini ta’minladilar.

ADABIYOTLAR RO’YXATI.

1. Бобохонов Ш., Мансур, Абдулазиз. **Нақшбандия тариқатига оид қўлёзмалар фихристи.** — Т.: Мавороуннаҳр, 1993. — Б. 16–19.
2. Кутибоев З.А. **Хожа Ахрор Валий.** — Т.: Фан, 1996. — 157 б.
3. Наждат Тўсун. **Олтин силсила. Нақшбандийлик тариқатининг олтин силсиласи. —** Т.: Qamar-media, 2022. — Б. 224.
4. Раззоқова М. **Мавлоно Яъқуби Чархий.** — Т.: Muharrir, 2013. — Б. 28.
5. Фахруддин Али Сафий. **Рашаҳоту айнил-ҳаёт** // М. Ҳасаний, Б. Умрзоқов. — Т.: Абу Али ибн Сино, 2004. — Б. 96.

YOSHLAR ONGIDA DINIY BAG‘RIKENGLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Mahliyo Misrbekova
Samarqand chet tillari institutida o’qituvchi.
Torgautova Sholpan Ashiraliyevna
M. Auezov nomidagi Janubiy Qozog‘iston
N. tadqiqot universitetining
O. “Tarix va etnologiya” ilmiy markazi boshlig‘i.

Annotatsiya

Ushbu maqolada globallashuv jarayonida kuchayib borayotgan diniy ziddiyatlar, ekstremizm va intolerantlik tahdidlariga qarshi yosh avlod ongida diniy bag‘rikenglikni shakllantirish masalasi tahlil qilinadi. Mualliflar diniy

bag‘rikenglikning ijtimoiy ahamiyati, tarixiy ildizlari va gumanitar fanlar orqali uning singdirilish mexanizmlarini ochib beradi. Shuningdek, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Abu Mansur Moturidiy kabi Markaziy Osiyo mutafakkirlarining g‘oyaviy merosi asosida diniy bag‘rikenglik tushunchasining falsafiy-ilmiy asoslari yoritiladi. Maqolada yoshlarni radikal g‘oyalardan himoyalash, ularda tolerantlik madaniyatini qaror toptirishda ta’lim-tarbiya tizimining o‘rni va ahamiyati ilmiy-nazariy asosda tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *Diniy bag‘rikenglik, yoshlarda ongni shakllantirish, tolerantlik, ekstremizm, gumanitar fanlar, tarixiy meros, Forobiy, Beruniy, Moturidiy, diniy mafkura, ijtimoiy barqarorlik*

Kirish

Bugungi globallashuv va axborot xuruji sharoitida dunyo mamlakatlari oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri — yosh avlod ongida diniy bag‘rikenglikni shakllantirish masalasidir. Turli madaniyatlar va e’tiqodlar to‘qnashuvi kuchayib borayotgan bir davrda, insoniyatning tinch-totuv yashashiga tahdid soluvchi ekstremistik g‘oyalar, diniy radikalizm va intolerantlik holatlari keng tarqalmoqda. Aynan shunday sharoitda yoshlarning ongida tolerantlik, hurmat, o‘zga e’tiqod va qarashlarga nisbatan bag‘rikenglik ruhini qaror toptirish — barqaror jamiyat asoslarini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada diniy bag‘rikenglik tushunchasining mazmun-mohiyati, tarixiy ildizlari va uni yoshlar ongiga singdirish yo‘llari, shuningdek, buyuk mutafakkirlarimizning mazkur masalaga oid qarashlari tahlil qilinadi. Ma’naviy madaniyat tizimida din har doim alohida o‘rin egallab kelgan. Din azaldan inson ma’naviyatining tarkibiy qismi sifatida odamzodning yuksak idealari, haqiqat va haqqoniyat, insof va adolat to‘g‘risidagi orzu-armonlarini o‘zida mujassam etgan, ularni barqaror qoida shaklida mustahkamlab kelayotgan g‘oya va qarashlarning yaxlit bir tizimidir.

Jahonda globallashuv jarayoni keskin diniy muammolarni yuzaga keltirayotgan hozirgi davrda yoshlarda diniy bag‘rikenglikni qaror toptirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Diniy bag‘rikenglik – turli xil diniy e’tiqodga ega bo‘lgan kishilarning bir zaminda, bir Vatan doirasida buyuk g‘oya va niyatlar yo‘lida tinchlik, Vatan ravnaqi, xalq erkinligi va farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik va millatlararo totuvlik yo‘lida hamjihat yashashi kabi muhim masalalarni o‘z ichiga oladi [1].

Yoshlarda diniy bag‘rikenglik tushunchasini singdirishda gumanitar fanlar alohida o‘rin tutadi. Bugungi dunyo taraqqiyoti diniy aqidaparastlik va xalqaro terrorizm tobora kuchayib borayotgan bir paytda qadriyatlarni qayta ko‘rib chiqishni, o‘tmishning mumtoz merosidan unumli foydalanishni taqozo etmoqda.

Prezident I. Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida diniy ekstremizm va fundamentalizm xususida Markaziy Osiyo va ayniqsa Vatanimiz tarixining turli davrlarida din bilan aloqadorlikda sodir bo‘lgan noxush voqealar tafsilotlarini atroflicha o‘rganish asosida qilingan tahliliy xulosalar ushbu fikrimizning ilmiy-nazariy asosini tashkil etadi. Tarixni o‘rganish jarayonida qiyosiy tahlil orqali diniy ruhda bo‘lgan salli yurishlari g‘oyasi va undan keyingi davrlarda ham saqlanib qolganligini, asrlar davomida Yevropa hukmdorlarining Sharqqa nisbatan tajovuzkor siyosati salli yurishlari g‘oyasiga bo‘yalib, odatiy diniy yurishlarning davomi sifatida baholanganligini ko‘rish mumkin. Diniy g‘oyalar g‘arazli maqsadlar yo‘lida niqob bo‘lmasligi uchun yoshlarga ularning asl mohiyatini ochib berish va tarixiy taraqqiyot qonuniyatlarini o‘rgatish zarur.

Buyuk allomalar merosi ham yoshlarga diniy bag‘rikenglik ruhini singdirishda katta rol o‘ynaydi. Bu borada Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan buyuk mutafakkirlar – Abu Nasr Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolarning ilmiy merosidagi falsafiy g‘oyalar va diniy qarashlar o‘z mavqeiga egadir. Qomusiy ilm sohiblari umuminsoniy qadriyatlar, bag‘rikenglik, adolatli jamiyat, insonning ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o‘rni haqida fikr yuritganlarida, bevosita yoki bilvosita dinning o‘rniga baho berishgan.

Jumladan, Beruniy milliy va diniy mahdudlikni qorolab, ular xalqlarning tinch-totuv yashashiga, mu’tadil munosabatlarning o‘rnatilishiga xalaqit berishini ta’kidlaydi. Beruniyning quyidagi fikrlari buning yaqqol isboti bo‘la oladi: “...o‘z yerlaridan boshqa yer yo‘q, o‘z jinslaridan boshqa xalq yo‘q, o‘z boshliqlaridan boshqa podshohlar yo‘q, o‘zlaridagidan boshqa ilm yo‘q va dinlaridan boshqa din yo‘qdir. O‘zlarini yuqori tutib, behuda harakat qiladilar va kibrlanib bilimsiz qoladilar” [2].

Ayni chog‘da yoshlarga turli diniy va milliy qarashdagi xalqlar intilishlarini uyg‘unlashtirish, ularni mamlakat taraqqiyotini belgilaydigan g‘oya atrofida birlashtirish har bir inson erkinligi, shaxsiy talablari va rag‘batini buzish hisobidan bo‘lmasligini ham ko‘rsatib berish zarur. Abu Mansur al-Moturidiy mazkur masalaga alohida urg‘u berib, insonga berilgan muqaddas huquqlardan biri ixtiyoriy tanlov, me’yoriy muvozanatga intilish va haqiqatni o‘z rag‘batiga ko‘ra topa bilish salohiyati ekanligini ta’kidlagan: “...barcha amallarni, xususan, me’yorlar, e’tiqodlar, qoidalar, faoliyatlarni Alloh yaratadi, ammo ularning barchasini inson tanlaydi va o‘z ixtiyori bilan amalga oshiradi. Tanlash va ixtiyor qilish jarayonlarida insonning mas’uliyati, e’tiqodiy javobgarligi namoyon bo‘ladi” [3]. Bugungi kunda davriy matbuot sahifalari, global Internet tarmog‘i, radio va televideniyada berib borilayotgan ma’lumotlarga tahliliy yondashish zarur. Hamjihat, hamkor bo‘lib yashash faoliyatini anglash – zamonaviy fuqarolik

ongining muhim jihatlaridan biridir.nBunga nafaqat G‘arbda, balki musulmon olamida jiddiy bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan Fransiyada Muhammad (s.a.v.) payg‘ambar karikaturasi bosib chiqarilgan “Sharli Ebdo” jurnali ijodkorlariga qarshi uyushtirilgan terror akti misol bo‘la oladi. Bu fojianing yagona ijobiy jihati shundaki, “islomlashuv” va “islomiy terrorizm” muammolari atrofidagi bahs-munozaralar boshlandi. Fikrlarning xilma-xilligini esa shunday izohlash mumkin: G‘arbda aksar odamlar “musulmon” va “islomist” so‘zlarining farqiga bormaydi. Davlatlarning tanazzuliga sabab bo‘lgan diniy nizolar, din niqobi ostida olib borilgan qirg‘inbarot urushlar singari jonli misollar orqali yoshlarga diniy bag‘rikenglik, insoniyatning ma’naviy birligi kabi qarashlarni singdirib borish zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodda diniy bag‘rikenglikni shakllantirish zamonaviy jamiyat barqarorligi, millatlararo va dinlararo totuvlikni ta’minlashning muhim shartidir. Bu jarayonda gumanitar fanlar, tarixiy-ma’naviy meros va buyuk allomalarimizning umuminsoniy g‘oyalari asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Forobiy, Beruniy, Moturidiy kabi mutafakkirlarning tolerantlik, erkin tanlov va adolatga asoslangan qarashlari yoshlar ongida sog‘lom diniy dunyoqarashni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Diniy bag‘rikenglikni qaror toptirish esa faqat ta’lim tizimi orqali emas, balki keng qamrovli ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimi orqali amalga oshirilishi lozim.

Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. *Ozod va obod Vatan, erkin va farovon turmush – pirovard maqsadimiz*. – T.: O‘zbekiston, 2000.
2. Beruniy. *Tanlangan asarlar*. T.II. Hindiston. – T.: Fan, 1965.
3. Juraev N. *Tarix falsafasining nazariy asoslari*. – T.: Ma’naviyat, 2008.

INSON ONGI SIRLARINING FALSAFIY VA PSIXOLOGIK TAHLILI

Samarqand Davlat chet tillar instituti
dotsenti, (DSc) Ashurova Xurshida Sag‘dullayevna
Samarqand davlat chet tillar instituti
2-bosqich talabasi Usmonova Charos

Annotatsiya: mazkur maqola inson ongining ochiqlik va qabul qilish qobiliyatini psixologik va falsafiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Immanuel Kantning Pedagogika asaridagi inson ongini tarbiya orqali shakllantirish nazariyasi, Daniel Kahnemanning “Thinking Fast and Slow” kitobida ko‘tarilgan fikr tizimlari

va Richard Dawkinsning “Men” falsafasi kabi nazariyalar asosida inson ongining murakkab qirralari yoritilgan. Tara Westoverning Talaba va Pierre Boulle’ning Maymunlar sayyorasi asarlaridagi badiiy tahlil yordamida ongning evolyutsion rivoji va qabul qilish qobiliyati ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Inson ongi, Tafakkur, Intuitiv fikrlash, Hissiyot, Analitik fikrlash, Falsafiy fikrlash.

Kirish

Inson ongi – bu tafakkur, hissiyot, va qabul qilishni boshqaradigan murakkab mexanizm. Inson tushunchadan iboratdir. Bu tushuncha va xulosalar, o‘zlikni anglash ong ostida shakllanadi. Falsafiy va psixologik manbalarga tayangan holda, ushbu maqola ongning ochiqligini va qabul qilish jarayonini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan. Immanuel Kantning fikricha, insonning tarbiyalanishi va o‘rganish qobiliyati ong ochiqlik jarayoni bilan uzviy bog‘liqdir. Daniel Kahneman va Richard Dawkins nazariyalari esa psixologik va biologik jarayonlarning ongga qanday ta’sir qilishini ochib beradi. Shu bilan birga, Tara Westover va Pierre Boulle asarlaridagi tahlillar ong evolyutsiyasini kengroq tushunish imkonini beradi. Bu asarlar ongni qabul qiluvchi, deb ta’riflaydi ya’ni yaxshi va yomon narsalarni ham oson qabul qiladi. Bu holat inson psixikasi bilan asoslanib o‘rganiladi.

Falsafiy Tahlil

Xususan, Immanuel Kantning “Pedagogika” asarida tarbiya jarayoni inson ongini rivojlantirishda asosiy omil sifatida ko‘riladi. Uning fikricha, inson bolalikdan ongini shakllantiradigan ma’naviy va axloqiy tarbiya oladi. U bolalarga erta yoshdan intizom va axloqiy tamoyillarini singdirishni muhim, deb bilgan Chunki inson ongining 80% 3 yoshgacha turli ma’lumotlar bilan to‘lib bo‘ladi. Tarbiya orqali ong faqat ma’lumotlarni qabul qilish bilan cheklanmay, balki ularni qayta ishlash, tahlil qilish va yangi bilimlarni yaratish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Ong ostini rivojlantirishning eng to‘g‘ri vaqti ham bolaning kichiklik vaqtida, deb asoslanadi. Bola ongi bu vaqtda hech qanday cheklov va taqiqlovlarni qabul qilmaydi. Richard Dawkinsning g‘oyalarida “men” tushunchasi insonning ongi va xatti-harakatlarini boshqaruvchi asosiy falsafiy komponent sifatida ko‘riladi. “Men” tushunchasi ong to‘g‘ri shakllantira olgandagina ya’ni asl o‘zini “menini” topa olgandagina ong to‘g‘ri ishlay boshlaydi. Dawkinsning evolyutsion falsafasiga ko‘ra, ong ochiqligi tabiiy tanlanish va ijtimoiy omillar natijasida rivojlanadi. Chunki inson aurasi ong bilan uzviy bog‘liq va unga jamiyat hayoti ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Guberman inson tafakkurining cheksiz imkoniyatlari haqida gapirar ekan, ong ochiqligi odamning o‘zini rivojlantirishning eng muhim omillardan biri ekanligini ta’kidlaydi. O‘tkazilgan tadqiqotlar ham shuni aniqlab beradiki, inson aniq bir so‘zlarni yoki hatti haraklatni uzoq vaqt davomida uzluksiz bajarish orqali ongni ko‘dlay oladi.

Psixologik Tahlil

Kahnemanning “Thinking Fast and Slow” kitobi fikrlashning ikki tizimi haqida gapiradi: birinchisi – tezkor, intuitiv fikrlash; ikkinchisi esa sekin, analitik fikrlash. Ushbu tizimlar ong ochiqligi va qabulchanligiga turli yo‘nalishlarda ta’sir ko‘rsatadi. Intuitiv fikrlash yangi ma’lumotlarni tezda qabul qilishni ta’minlaydi, analitik fikrlash esa ular ustida chuqur ishlash imkonini beradi. Miya - vujudning eng harakatsiz va sokin qismidir. Shu sababli ham ong ostini aldash mumkin. James Clearning “Atom odatlar” asarida ongni kichik, lekin davomiy o‘zgarishlar orqali rivojlantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Uning fikricha, kichik odatlar inson ongi ochiqligi va qabulchanligini shakllantiruvchi asosiy elementlardir. Ong osti eng tez qabul qilivchi organizm, unda rost bilan yolg‘onni ajrata oluvchi retseptorlar mavjud emas. Bunda takrorlash juda ahamiyatlidir. Muntazam qilingan ish ong ostiga o‘tib qoladi.

Badiiy Asarlar Tahlili

Henri Marshning “Ozor berma” asarida inson miyyasining qanday mo‘jizalarga qodir ekanligi, ong ostiga ta’sir o‘tkazish va uni rivojlantirish bosqichlari keltirilgan. Bu asar insonning o‘qish va o‘rganish orqali qanday qilib o‘z dunyoqarashini o‘zgartira olishini ko‘rsatadi. Marziya Saydamning “Suv hidi” asarida evolyutsion rivojlanishning inson ongi ochiqligiga ta’siri, tahlil qilinadi. U ongni cheklovlarsiz rivojlantirish zarurligini va bu jarayonning ijtimoiy oqibatlarini o‘rganadi. U ong osti ta’sir kuchini chastota ilmi bilan bog‘lab, har bir inson va buyumlarning ham o‘zidan chastota chiqarishini ta’kidlaydi. Ya’ni, ong - bu chastotalarni qabul qilib oluvchi tizimdir deb ko‘rsatadi.

Xulosa qilganda, ong bu ochiq va qabul qiluvchidir - bu inson rivojlanishining asosiy elementi. Ushbu maqolada ta’kidlanganidek, falsafiy va psixologik tahlillar shuni ko’rsatadiki, inson ongi ma’lumotni nafaqat qabul qiladi, balki uni o’ziga xos tarzda qayta ishlaydi. Bu jarayon shaxsning hayoti davomida o‘zgaradi va rivojlanadi. Inson o‘zini va o‘zligini anglagandagina ong osti ilmini o‘rgana oladi. Buning uchun har bir inson o‘ziga va boshqalarga, borliqqa nisbatan hurmatini ta’minlash uchun yagona bo‘lishi kerak. Chunki tiriklikning asosini, borliq ilimini, anglash ong orqali kechadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Kant I. Pedagogika / Immanuil Kant. – Königsberg, 1803. – [Ingliz tilida].
2. Kahneman D. Tez va sekin fikrlash / Deniel Kahneman. – New York, 2011. – [Ingliz tilida].
3. Dokinz R. Xudbin gen / Richard Dokinz. – Oxford, 1976. – [Ingliz tilida].

4. Guberman S. Stenford universiteti ma’ruzalari / Stenford Guberman. – Stanford University, AQSH. – [Ingliz tilida].
5. Vestover T. Ta’lim yo‘li / Tara Vestover. – New York, 2018. – [Ingliz tilida].
6. Bul P. Maymunlar sayyorasi / Per Bul. – Parij, 1963. – [Fransuz tilida].
7. Marsh H. Ozor berma / Genri Marsh. – London, 2014. – [Ingliz tilida].
8. Klir J. Atom odatlar / Jeyms Klir. – New York, 2018. – [Ingliz tilida].

SAYYID BURHONIDDIN TERMIZIY ASARLARIDA AXLOQIY TARBIYA TAMOYILLARI

Abdunabiyev Sunnat Ne’mat o’g’li
Termiz davlat pedagogika instituti tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada mashhur tasavvuf namoyandasi Sayyid Burhoniddin Termiziy merosining axloqiy tarbiya bilan bog’liq jihatlari yoritilgan. Muallif uning asarlarida ilgari surilgan ruhiy poklik, sabr-toqat, kamtarlik, adolat, halollik, nafsni tiyish kabi axloqiy fazilatlarni tahlil qiladi. Asarlarining tarkibida nafaqat shaxsiy kamolot, balki ijtimoiy hamjihatlik va ma’naviy uyg’unlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi tamoyillar yoritib beriladi. Maqolada bu tamoyillarning zamonaviy axloqiy tarbiya tizimiga tatbiq etish imkoniyatlari ham ko’rib chiqiladi.

Kalit so’zlar: *Sayyid Burhoniddin Termiziy, axloqiy tarbiya, tasavvuf, ruhiy poklik, fazilat, nafsni tiyish, ma’naviy qadriyatlar*

Аннотация. В данной статье рассматриваются аспекты нравственного воспитания в наследии известного представителя суфизма Саййида Бурханиддина Термизий. Автор анализирует духовные и моральные качества, такие как терпение, смирение, справедливость, честность и самообладание, которые освещаются в его трудах. Особое внимание уделяется принципам, направленным на личностное совершенствование и обеспечение духовной гармонии в обществе. Также обсуждаются возможности применения этих идей в современной системе нравственного воспитания.

Ключевые слова: *Саййид Бурханиддин Термизий, нравственное воспитание, суфизм, духовная чистота, добродетель, самообладание, духовные ценности*

Annotation. This article explores the moral education principles in the works of the renowned Sufi figure, Sayyid Burhoniddin Termizi. The author examines ethical values such as spiritual purity, patience, humility, justice, honesty, and self-restraint emphasized in his writings. The study highlights how his

teachings promote not only personal spiritual development but also social harmony and moral unity. The article also discusses the relevance and potential application of these principles in contemporary moral education systems.

Keywords: *Sayyid Burhoniddin Termizi, moral education, Sufism, spiritual purity, virtue, self-restraint, spiritual values*

KIRISH.

Insoniyat taraqqiyoti tarixida ma’naviy va axloqiy qadriyatlar jamiyatning barqarorligi, odob-axloq me’yorlarining shakllanishi va avlodlar orasida uzviylikni ta’minlashda muhim o’rin egallagan. Axloqiy tarbiya masalasi har bir davrda o’z ahamiyatini yo’qotmagan bo’lib, ayniqsa, Sharq mutafakkirlarining asarlarida bu mavzuga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, Markaziy Osiyo va hozirgi Turkiya hududida yashab o’tgan yirik tasavvuf namoyandalaridan biri – Sayyid Burhoniddin Termiziy (XII asr) o’z asarlarida insoniy kamolot, axloqiy poklik va nafsni tarbiyalash masalalarini chuqur yoritgan.

Sayyid Burhoniddin Termiziy islomiy-ma’rifiy tafakkur rivojida o’ziga xos o’rin tutgan, avvalo tasavvuf falsafasini chuqur idrok etgan allomalardan biridir. U o’z asarlarida nafaqat Qur’on va hadis asosidagi axloqiy-ruhiy tarbiyani targ’ib etadi, balki insonning ichki olamini poklash, nafs bilan kurashish, sabr, tavoze, halollik, adolat kabi fazilatlarni kundalik hayotda tatbiq qilish zaruratini ham ta’kidlaydi. Burhoniddin Termiziyning g’oyalari faqatgina diniy-ma’rifiy doirada emas, balki ijtimoiy-axloqiy muhitni sog’lomlashtirishga xizmat qiluvchi amaliy tamoyillar sifatida ham qimmatlidir.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari asrida insoniyatning ma’naviy qadriyatlari sinov ostida qolayotgan bir paytda, bunday merosni qayta o’rganish va zamonaviy tarbiya tizimlariga tatbiq etish dolzarb masalalardan biridir. Sayyid Burhoniddin Termiziy asarlaridagi axloqiy tarbiya tamoyillari yosh avlodda ma’suliyat, vijdon, halollik va boshqa ijobiy sifatlarni shakllantirishda muhim asos bo’lib xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, bu tamoyillar orqali nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma’naviy muhitni barpo etish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Sayyid Burhoniddin Termiziy asarlarida ilgari surilgan axloqiy tarbiya tamoyillarini tahlil qilishda tasavvuf tarixiga oid qator manbalar muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Xususan, Ahmad Aflokiy, Davlatshoh Samarqandiy, Faridun Sipohsolor, Mavlono Jaloliddin Rumiy va Sulton Valad kabi olimlarning asarlari va ularning tarjimai hollari aks etgan tazkiraviy manbalar Sayyid Burhoniddin Termiziyga xos axloqiy-ruhiy qarashlarni kengroq ilmiy kontekstda yoritish imkonini beradi.

Ahmad Aflokiyning “Manoqibul orifin” asari tasavvufiy biografiya janrining yuksak namunasi sanalib, unda mashhur so‘fiylarning hayoti, axloqiy kamolot sari

bosib o‘tgan yo‘llari hamda murabbiy va shogird o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy aloqalar bayon qilinadi. Bu asarda sabr, qanoat, taqvo, xizmat, tavozelik kabi fazilatlar markaziy o‘rinni egallaydi. Mazkur jihatlar Sayyid Burhoniddin Termiziyning ruhiy poklik, nafsni tiyish va ichki kamolotga erishish haqidagi g‘oyalari bilan bevosita uyg‘unlikda tahlil qilinadi [1].

Davlatshoh Samarqandiyning “Tazkira” asari ham tasavvuf tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biridir. Unda Rumiy, Attor, Shibliy kabi so‘fiy allomalarning ma’naviy yo‘li, axloqiy fazilatlari va tasavvufdagi tarbiya tamoyillari haqida muhim ma’lumotlar keltirilgan. Ayniqsa, murid-murshid o‘rtasidagi axloqiy-ma’naviy aloqalar Sayyid Burhoniddin Termiziy ta’limoti bilan g’oyaviy jihatdan uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi [2].

Faridun Sipohsolorning “Risola: Mavlono va atrofidagilar” asarida Rumiy davri so‘fiylarining axloqiy va ruhiy tarbiya borasidagi qarashlari yoritilgan bo‘lib, bu qarashlar Sayyid Burhoniddin Termiziy asarlari bilan g‘oyaviy yaqinlikda tahlil qilinishi mumkin. Unda murshidning ma’naviy yetakchi sifatidagi o‘rni, shaxsiy kamolotga erishishda xizmat, sadoqat va itoat axloqiy mezon sifatida yoritiladi. Bunday yondashuv Sayyid Burhoniddin Termiziy fikrlarining davomi sifatida ko‘riladi [3].

Mavlono Jaloliddin Rumiyning “Fihi ma fihi” asari esa tasavvufning axloqiy-falsafiy tafakkurini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, unda inson qalbini poklash, muhabbat, sabr, halollik va tavoze orqali Allohga yaqinlashish g‘oyalari ilgari suriladi. Rumiy va Sayyid Burhoniddin Termiziy o‘rtasidagi bunday ruhiy-axloqiy mushtaraklik ularning g‘oyaviy ildizlarining birligi va umumiy ma’naviy maktabga mansubligidan dalolat beradi [6].

Sulton Valadning “Ibtidonoma” asari otasi Rumiyga bag‘ishlangan bo‘lib, unda so‘fiylik ta’limotining axloqiy-psixologik jihatlari chuqur yoritiladi. Asarda sevgi, vijdon, sadoqat va sabr orqali insonni tarbiyalash g‘oyalari Sayyid Burhoniddin Termiziy asarlaridagi axloqiy tarbiya tamoyillari bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu jihatlar tasavvufiy ta’limotning davomiyligi va avlodlararo uzviylikni ko‘rsatadi [7].

Umuman olganda, yuqoridagi manbalar Sayyid Burhoniddin Termiziy asarlarida ilgari surilgan axloqiy tarbiya tamoyillarini kontekstual asosda chuqurroq o‘rganish, ularni tasavvuf tarixidagi umumiy g‘oyalar doirasida anglash hamda bugungi ma’naviy-ma’rifiy tarbiya tizimiga tatbiq etish uchun ilmiy asos yaratadi. Bu manbalar orqali alloma fikrlarining izchil davomiyligi va ularning zamonaviy ahamiyati ochib beriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Sayyid Burhoniddin Termiziy o‘zining mashhur asari “Maorif” nomli asarida axloqiy tarbiyaning eng muhim jihatlaridan biri sifatida nafsni tarbiyalash

masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Uning fikricha, inson tashqi xavf-xatarlardan, dunyoviy vasvasalardan, haromdan yoki nojo‘ya illatlardan chekinishi mumkin, biroq nafsning hiyla-nayranglari va shahvatparast havaslaridan qutulish – eng og‘ir va murakkab masaladir. Chunki barcha ma’naviy halokatlar, axloqiy inqirozlar, ruhiy tanazzullar aynan nafsdan – ya’ni insonning nazorat qilinmagan ichki dunyosidan – kelib chiqadi [4].

Alloma nafsni Qur’oni karimda zikr qilingan darajalari orqali tahlil qiladi. Uning ta’limotida “nafsi ammora” (yovuzlikka buyuruvchi nafs) va “nafsi mutmainna” (xotirjam, Allohdan rozi va U ham undan rozi bo‘lgan nafs) orasidagi ma’naviy ziddiyat asosiy o‘rinni egallaydi. Nafsi ammora insonni tubanlikka, shahvatga, kibru havo, hasad, g‘azab kabi illatlarga undovchi kuch bo‘lib, unga ergashgan inson dunyo va oxirat saodatidan mahrum bo‘ladi. Sayyid Burhoniddin Termiziyning maqsadi – bu xavfli holatdan chiqish, ya’ni nafsni ilohiy poklik sari olib chiqish uchun yo‘l ko‘rsatishdir.

“Maorif” asarida Sayyid Burhoniddin Termiziy nafsni xazinani o‘g‘irlaydigan hiylakor o‘g‘riga qiyoslaydi. Bu o‘g‘rining qurollari esa inson qalbida paydo bo‘ladigan yomon istaklar, shahvatlar va yomon niyatlardir. Demak, kimki o‘z qalbining boyliklarini – halollik, toat, vijdon va xolis niyat kabi fazilatlarni – yo‘qotishni istamasa, u bu o‘g‘ridan oldinroq harakat qilib, hushyor bo‘lishi lozim. Bu yerda Sayyid Burhoniddin Termiziy axloqiy hushyorlikni, ya’ni o‘zini doimiy nazorat qilishni targ‘ib qiladi [4].

Sayyid Burhoniddin Termiziy, shuningdek, kechasi ibodat qilishni nafsni tiyish va qalbni poklashda muhim amaliy vosita sifatida ko‘rsatadi. Tun – ruhiy kamolot uchun eng qulay davr bo‘lib, bu vaqt insonning ichki sukunatga, tafakkurga va ibodat orqali Alloh bilan yaqinlikka erishish imkoniyatini beradi. Kechasi bedor turib ibodat qilish, Qur’on tilovat qilish, tafakkur bilan band bo‘lish – bu nafsni jilovlashda kuchli vosita hisoblanadi.

Sayyid Burhoniddin Termiziyga ko‘ra, inson ma’naviy yuksalishga erishish uchun avvalo nafsini tanishi, unga qarshi kurashish yo‘llarini o‘rganishi lozim. Nafsni tarbiyalash bu faqatgina diniy burch emas, balki axloqiy mas’uliyatdir. Chunki inson ichidagi bu tuyg‘u o‘nglanmas ekan, hech qanday tashqi o‘zgarish haqiqiy natija bermaydi. Shuning uchun ham u nafsni jilovlashni axloqiy tarbiyaning markaziga qo‘yadi va bu yo‘lda sabr, halollik, tavozelik, xizmat, va sadoqat kabi fazilatlarni targ‘ib etadi [5].

Umuman aytganda, Sayyid Burhoniddin Termiziy o‘z asarlarida nafsni faqat insonning dushmani emas, balki uni kamolotga eltuvchi sinov sifatida tasvirlaydi. U nafsni yengish orqali inson o‘zining haqiqiy axloqiy mohiyatiga erishishini, Allohga yaqinlashishini va jamiyatda ma’naviy uyg‘unlikni ta’minlashini uqtiradi.

Alloma ta’limoti bugungi kunda ham inson axloqini shakllantirishda, yoshlarni ichki poklikka undashda bebaho manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

XULOSA.

Sayyid Burhoniddin Termiziy o‘z davrining yetuk so‘fiy olimi sifatida nafaqat tasavvufiy-falsafiy tafakkurni rivojlantirgan, balki axloqiy tarbiyaning nazariy va amaliy asoslarini ham chuqur yoritib bergan mutafakkirdir. Uning “Maorif” asarida ilgari surilgan fikrlar bugungi axloqiy tarbiya, insoniy kamolot va ma’naviy o‘zlikni anglash jarayonida muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Burhoniddin Termiziy inson axloqining markaziy elementi sifatida nafsni tarbiyalash zaruratini ta’kidlaydi va bunga erishish yo‘llarini amaliy misollar orqali tushuntiradi. U nafsni yovuzlik manbai sifatida emas, balki uni jilovlab, poklik sari yo‘naltirish mumkin bo‘lgan ichki kuch sifatida talqin qiladi.

Alloma asarlarida qayd etilgan asosiy axloqiy fazilatlar – sabr, halollik, kamtarlik, adolat, sadoqat, tavoze va taqvo kabi insoniy sifatlar orqali nafaqat shaxsiy kamolotga, balki jamiyatda ma’naviy uyg‘unlik va axloqiy barqarorlikka erishish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Sayyid Burhoniddin Termiziy asarlarida ilgari surilgan axloqiy tarbiya tamoyillari nafaqat tarixiy meros sifatida, balki bugungi zamonaviy tarbiya, ma’naviy tiklanish va ijtimoiy sog‘lomlik uchun ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ularning yosh avlod ongiga singdirilishi, o‘zlikni anglash, vijdonli va axloqli shaxslar yetishtirish yo‘lida bebaho ilmiy-ma’naviy zamin bo‘lib xizmat qilishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Ahmad Aflokiy. Manoqibul orifin. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul. 1989.
2. Davlatshoh. Tazkira. Najotiy Lugal tarjimasi. – Istanbul. 1977. – B. 249.
3. Faridun Sipohsolor. Risola: Mavlono va atrofidagilar. Tahsin Yaziji tarjimasi. – Istanbul, 1977. – B. 117–120.
4. Kurtulush R. Maorif. Islom ensiklopediyasi. – Anqara: Turkiya Diyonat Jamg‘armasi Nashriyoti, 2003.
5. Lyuis F. D. Sayyid Burhoniddin Muhaqqiq Termiziy. (O. N. Kichik tarjimasi). Hitit universiteti Ilohiyot fakulteti jurnali, VIII/(16), 2009. – B. 159–176.
6. Mavlono Jaloliddin Rumiy. Fihi ma fihi Ahmad Avni Konuk tarjimasi. – Istanbul. 1994.
7. Sulton Valad. Ibtidonoma. Abdulboqi Gulpinorli tarjimasi. – Anqara. 1976.

“AMERIKA FOJIASI” ASARIDA IJTIMOIY VA DINIY ZIDDIYATLAR ZAMIRIDAGI XRONOTOPIK STRUKTURA.

Kushatova Nargiza Rustamovna
Samarqand Davlat chet tillar instituti
tayanch doktoranti
Samarqand, O‘zbekiston
E-mail: nargizakushatova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romanidagi xronotopik struktura tahlil qilinadi. Asarda ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi tafovutlar, protestant axloqi va diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq ziddiyatlar orqali shakllangan makon-va-zamon munosabatlari tadqiq etiladi. Bakhtin nazariyasiga tayanilgan holda, personajlar harakati va ruhiy iztiroblari o‘zaro ziddiyatli xronotoplar – ya’ni ijtimoiy determinatsiyalangan va diniy-ma’naviy belgilangan makonlar va zamonlar orqali ochib beriladi. Ayniqsa, Griffitslar oilasining missionerlik faoliyati bilan bog‘liq epizodlar, Klaydning axloqiy tanlovi va fojeaviy yakuni orqali roman voqeliklarida diniy-falsafiy dunyoqarashlar qanday aks etgani tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari, xronotop tushunchasi yordamida Drayzer realizmi va naturalizmining chuqurroq qatlamlarini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *xronotop, Amerika fojiasi, Teodor Drayzer, ijtimoiy ziddiyat, diniy muhit, kapitalistik makon*

Teodor Drayzerning “Amerika fojiasi” romani – bu shunchaki bir shaxsning halokatga yuz tutishi haqida emas, balki ijtimoiy va diniy tuzumlar orasida kechadigan ziddiyatli voqealar, ularni belgilovchi **xronotopik struktura** orqali inson fojiasining muqarrarligini ochib beruvchi epik asardir. M.M. Baxtin ta’kidlaganidek, xronotop – bu vaqt va makonning uzviy birligi bo‘lib, aynan u orqali

Agar Drayzer qahramonlarining hayotini boshqaradigan biror kuch bo‘lsa, bu — jamiyat va uning urf-odatlaridir. Drayzer tushungan edi: insonning fojiasi taqdir emas, balki jamiyat bilan bog‘liq [2] ijtimoiy muhitning shaxsga ko‘rsatgan ta’sirini butunlay salbiy deb bilgan. U Amerika jamiyatini barcha qonuniy, axloqiy va ijtimoiy me’yorlariga qaramay, Darvinning “eng moslashgan tirik qoladi” *(surviva fitting)lg‘oyasiga asoslangan haqiqiy bir o‘rmonga o‘xshatib *tasvirlaydi. [5]*

“Amerika fojiasi” romanini yozishda Drayzer 1906-yilda Nyu-York shtatining Herkimer okrugida Chester Jiliet tomonidan Greys Brovnning o‘ldirilishi bilan bog‘liq haqiqiy jinoyat ishini asos sifatida olgan. Drayzer ayrim ijtimoiy faktlarni, masalan, Robertaning oilaviy kelib chiqishini o‘zgartirgan — romanda uning oilasi aslidan ko‘ra ancha kambag‘al sifatida tasvirlangan. Aslida

esa, muhitning personajlarga ta’sirini kuchaytirish maqsadida, Drayzer o‘zining kambag‘allikda o‘tgan bolalik xotiralaridan kengroq foydalangan,. Drayzer o‘z hayotiy tajribasidan kelib chiqib, Klaydning ota-onasining diniy mutaassibligini juda yaxshi bilardi. Bolaligida u otasining qat’iy katolik tarbiyasi tufayli katta azob-uqubatlar chekkan

Romanda biz Klaydni birinchi bor ota-onasi bilan ko‘chada ularning diniy fanatik targ‘ibot faoliyati chog‘ida uchratganimizdayoq, u begona, chetda qolgan shaxs sifatida tasvirlanadi. Hatto yo‘ldan o‘tayotganlar ham uning bu mehnatli, iztirobli dunyoga mansub emasligini sezishadi:

"That oldest boy don't wanta be here. He feels outa place, I can see that. It ain't right to make a kid like that come out unless he wants to. He can't understand all this stuff,anyhow."*[1,4])

Ma’nosi:“Anavi katta o‘g‘il bu yerda bo‘lishni istamayapti. U o‘zini begona his qilayapti, ko‘rib turibman. Bolani xohlamasdan bunday joyga olib chiqish to‘g‘ri emas. U bu narsalarni baribir tushunmaydi.”**[3]

Klayd diniy aqidaparastlik bilan real ijtimoiy nochorlik o‘rtasidagi tafovutni sezadi. U otasining rahm-shafqat haqida bergan va’zlari bilan o‘z oilasining beqaror ijtimoiy holati o‘rtasida keskin nomutanosiblikni his qiladi. Drayzer shu orqali din va ijtimoiy haqiqatlar o‘rtasidagi ziddiyatni ochib beradi. Bu jihat romanda quyidagi so‘zlar bilan kuchaytirilgan: *"Clyde seems to be] decidedly more sensitive than most of the others"* [1, 5].

*Ma’nosi:*Klayd ko‘pchilik boshqalarga qaraganda ancha nozikta’broq tuyulardi.”

Bundan tashqari, roman naturalistik oqimga xos tarzda Klaydning istaklari va ehtiroslarini tasodiflar va muhit bilan bog‘laydi. Uning harakatlariga axloq emas, balki muhitda shakllangan zavq-shavqga chanqoqlik sabab bo‘ladi:

“And so starved had been Clyde’s life... he listened with all too eager ears to any account of anything that spelled adventure or pleasure” [1,47]

Ma’nosi:“Klaydning hayoti shu qadar ehtiyoj va zavqlardan mosuvo bo‘lgan ediki... u sarguzasht yoki huzur bag‘ishlaydigan har qanday voqea haqida bo‘lgan hikoyani qunt bilan, ortiqcha ishtiyoq bilan tinglar edi”

Klayd Grifits o‘zining ijtimoiy yuksalish yo‘lini dorixonadagi oddiy lavozimdan boshlaydi, ammo tez orada bu lavozim uni qanoatlantirmay qo‘yadi. U *Grin-Davidson* mehmonxonasidagi posbonlik ishini tanlagach, go‘yoki ertaklardagi singari hashamatli va g‘ayritabiiy makon bilan yuzlashadi. Bu joy — Kanzas-Sitining markaziy mehmonxonasi — Klayd uchun boylik, hurmat va erkinlik ramziga aylanadi:

It was all so lavish. Under his feet was a checkered black-and-white marble floor. Above him a

coppered and stained and gilded ceiling. And supportingthis, a veritable forest of black marble columns as highly polished as the floor—glassy smooth. And between thecolumns which ranged away toward three separate entrances, one right, one left and one directly forward

toward Dalrymple Avenue—were lamps, statuary, rugs,palms, chairs, divans, tete-a-tetes—a prodigal display. Inshort it was compact, of all that gauche luxury ofappointment which, as some one once sarcastically remarked, was intended to supply "exclusiveness to the

masses." Indeed, for an essential hotel in a great and successful American commercial city, it was almost too luxurious. Its rooms and hall and lobbies and restaurantswere entirely too richly *furnished, without the saving grace of either simplicity or necessity.*[1,24]*

Ma'nosi:Hammasi nihoyatda dabdabali edi. Uning oyoqlari ostida qora-oq katak marmar pol yastanib yotar edi. Tepasida esa mis bilan qoplangan, bo'yalgan va tilla suvi yuritilgan shift porlab turardi. Bu hashamatni ushlab turgan narsa esa – yaltirab turgan marmar pollardek silliq, oynaday jilolangan qora marmar ustunlardan iborat butun bir o'rmon edi. Bu ustunlar uch yo'nalishda – o'ngga, chapga va to'g'ridan-to'g'ri Dalrymple Avenyusiga qarab cho'zilar, ularning oralig'ida esa chiroqlar, haykallar, gilamlar, palma daraxtlari, stullar, divanlar, juftlik uchun mo'ljallangan o'rindiqlar – barcha hashamat ko'z-ko'z qilinardi. Bu manzara — ba'zilar istehzoli tarzda ta'kidlaganidek — "omma uchun mo'ljallangan eksklyuzivlikni" ta'minlashga qaratilgan dabdabali bezaklarning tiqilinch namunasi edi. Aslida, yirik va muvaffaqiyatli Amerika savdo shahri uchun zarur bo'lgan oddiy mehmonxonaga nisbatan bu joy haddan ziyod hashamatli edi. Uning xonalarida, zallarida, foyelarida va restoranlarida shunchalik ortiqcha boylik bilan bezak berilganki, unda na soddalik, na zaruriyat ruhini uchratish mumkin edi.

Bu tasvir *ramziy holda* Klaydning kapitalistik xronotopga kirish jarayonini, ya'ni boylik va hashamat dunyosiga kirishini anglatib, makon faqat fizik joy sifatida emas, balki **xayoliy ideal** sifatida ko'rsatiladi. Bakhtinning "xronotop" nazariyasi asosida qaralganda, bu joy **orzu xronotopi** deb talqin qilinishi mumkin: Klayd ushbu makonda o'zini boshqa sinfga mansubdek his qiladi. Xronotop bu yerda faqat "makon" emas, balki ma'naviy istak, illuziya va voqelik o'rtasidagi kesishma nuqtasidir.

Drayzer bu sahna orqali Amerika orzusi ideyasini fosh qiladi. Klayd uchun bu muhit nafaqat boylikni, balki erkinlikni ham bildiradi:

This, then, most certainly was what it meant to be rich... That you went how, where

and when you pleased

Ma’nosi: “Demak, boy bo‘lish... xohlaganingni qilish... xohlaganing payt, xohlagan joyga borish...”[1, 39]

Biroq bu orzular olami — *“prodigal display”* — tashqi ko‘rinishdagina jozibali. Klayd bu xayoliy xronotopda vaqtincha yashasa-da, u haqiqatda bu sinfga mansub emas. Bu sahna orqali Drayzer jamiyatdagi illuzion tenglik g‘oyasini tanqid qiladi: tashqi boylik muhitiga kirish mumkin, ammo ichki ijtimoiy poydevor o‘zgarmaydi.

Natijada, bu makon Klayd uchun faqat go‘zal ko‘rinishga ega bo‘lgan ijtimoiy tuzoqqa aylanadi. Bu orzular xronotopi — uni kelajakdagi fojiali qarorlar sari yetaklovchi bosqichdir.

Griffitslar oilasi yashaydigan muhit diniy xronotop bilan belgilanadi. Bu makon evangelistlar faoliyati, tavba va najot g‘oyalari bilan to‘lib-toshgan. Makon va undagi vaqt odatiy dunyoviy hayotdan ajralgan: bu yerda inson ehtiyojlari emas, ilohiy vazifa ustun turadi. Bu muhitda kechadigan vaqt esa salkam abadiy, tejamli va hayotiy zavqlardan tozalanishga qaratilgan. Klaydning bolaligi aynan ana shu xronotopda shakllanadi. Ammo bu "muqaddas" makon zamonaviy kapitalistik jamiyatning real talablariga mos kelmaydi. Shu sababli bu diniy xronotop Klayd hayotida na yo‘l-yo‘riq, na najot bera oladi.. Klayd va onasi o‘rtasidagi **"o‘tib bo‘lmas devor"** bu ikki xil xronotop – diniy va dunyoviy – o‘rtasidagi semantik va psixologik tafovutni ko‘rsatadi.

Go‘yoki ularning orasida tushunmovchilikdan qurilgan devor, o‘tib bo‘lmas to‘siq bor edi. U hech qachon Klaydning erkinlik va hashamat, go‘zallik va muhabbat – ayniqsa ko‘z-ko‘z, zavq, boylik va mavqe bilan bog‘liq o‘zgacha muhabbati, shijoatli va o‘zgarmas intilishlarini tushunmaydi. U bularning barchasiga gunoh – yovuzlik, xudbinlik deb qarardi. (926-bet)

Klayd kasb etmoqchi bo‘lgan dunyo — bu zamonaviy Amerika kapitalizmi xronotopi: bu yerda vaqt tez, harakat cheksiz, makonlar ochiq, lekin begonalashtiruvchi. Lyuks mehmonxonalar, fabrikalar, yuqori jamiyat — bu xronotoplar orzu qilingan hayot tarzini taklif qiladi, biroq unga yetib borish uchun ***ijtimoiy zamin va axloqiy tayanch*** *kerak bo‘ladi. Klayd bu xronotopga kiradi, biroq u yerda yo‘qoladi — bu makon unga begona. Baxtin aytgan “kutilmagan burilishlar” va “tasodifli to‘qnashuvlar” bu xronotopda taqdirni belgilovchi asosiy mexanizmdir. Klaydning Roberta bilan munosabati va undan qutulish rejasi aynan shu xronotopda pishib yetiladi.*

Teodor Drayzerning *An Amerika fojeasi”rom*anida Klayd Grifitsning hayoti ijtimoiy tabaqalanish, istak va taqdir o‘rtasidagi ziddiyatlarda shakllanadi. Klayd taqdirning beqarorligidan kelib chiqib, bir vaqtning o‘zida ikki ayol bilan — Roberta va Sondra — munosabatda bo‘ladi. Ushbu ikkilik orqali roman ichida ikki

xil xronotop — ya’ni ikki turdagi makon-vaqt tuzilmasi yuzaga keladi: kambag‘allik va mehnat dunyosi (Roberta), boylik va erkinlik illyuziyasi (Sondra).

Roberta yashaydigan uyni ko‘rganida Klayd ichki larzaga tushadi. U makonning iflosligi, qarovsizligi va tuban ijtimoiy mavqe ifodasini bevosita qabul qiladi:

"Gee!" To think that this was Roberta's home

“Bu Roberta yashaydigan uy ekanini o‘ylab ko‘ring... Bu qashshoqlik!” [1,393]

Bu joy Roberta bilan bog‘liq bo‘lgan xronotopni anglatadi: u oddiy ishchilar sinfiga oid, kamtar, iztirobli, ammo muqaddas sevgi va farzand tushunchasi bilan bog‘liq. Biroq Klayd bunday haqiqatga ko‘nika olmaydi, chunki bu xronotop unga ijtimoiy orqaga qaytishni eslatadi. Drayzer bu orqali ijtimoiy fojiani ochib beradi: istak va ijtimoiy imkoniyat o‘rtasida qaror qila olmaydigan inson tuban yo‘lga kiradi.

Sondra bilan bog‘liq xronotop esa boylik, erkinlik, hashamat va o‘zligini unutish orqali yangi sinfga o‘tish imkoniyatini bildiradi. Biroq bu sinfga haqiqiy a’zo bo‘lish emas, balki tashqi ko‘rinishga moslashish orqali “kuzatuvchi” bo‘lib qolish imkonidir. Klayd bu xayoliy dunyoni tanlab, Robertani qurbon qilish fikriga keladi.

Natijada, Drayzer Klayd obrazida naturalistik va realistik unsurlarni uyg‘unlashtirgan holda, inson tanlovi erkin emasligini, balki muhit, orzu va ijtimoiy bosimlar bilan belgilanishini ko‘rsatadi.

Asarning kulminatsion nuqtasi – bu qamoqxona va o‘lim xonasi. Bu joy diniy (MakMillan tashrifi) va huquqiy (jazoni kutish) xronotoplarning kesishgan, biroq bir-birini tushunmaydigan joyidir. Makon harakatsiz va yopiq, vaqt esa sekinlashgan va o‘lim sari yurmoqda. MakMillanning diniy da’vatlari Klayd uchun hech qanday tasalli bermaydi – bu ***xronotopik bo‘linish****ni ko‘rsatadi: iymon va ehtiros, najot va jazolash o‘rtasida ko‘prik yo‘q. MakMillanning ruhiy yetakchi bo‘lishi kutilgan edi, ammo u ham taqdirni o‘zgartira olmaydi — bu esa diniy tizimning* ***real ijtimoiy jarayonga ta’sirsizligi****ni ko‘rsatadi.*

Amerika fojeasi” romanining olami — **deterministik** va **taqdirga oldindan belgilangan** bir olamdir. Klaydning fojiasi shundaki, uning taqdiri boshidanoq u o‘zgartira olmaydigan, hattoki to‘laqonli anglab yetolmaydigan kuchlar tomonidan shakllangan. Aslida, Klayd — qurbon:

*"...o‘z temperamentining qurboni, zamonning qurboni, to‘liq qabul qila olmaydigan va butunlay inkor eta olmaydigan jamiyatning qurboni, doimiy kurash holatidagi dunyoning qurboni. Eng avvalo, u o‘zining romantik xayollarining qurboni: hayotda o‘zini ro‘yobga chiqarish va ma’no topishga bo‘lgan ishonchi,

aslida esa hayot hech qanday maqsadsiz, quturgan girdob kabi muvozanatda ushlab turilgan, g‘azabkor aylanada harakat qilmoqda."[4]

Shunday ekan, qotillik uchun kim ko‘proq mas’ul: Klaydmi, uning ota-onasimi yoki jamiyat o‘zimi? Drayzer shuni anglatmoqchi bo‘ladi: Klayd yomon inson bo‘lgani uchun emas, balki u oddiy inson bo‘lgani uchun muvaffaqiyatsizlikka uchraydi.

Struktura nuqtai nazaridan, romanning boshlanishidagi prolog — Klaydning ota-onasi bilan ko‘chada turgan kambag‘al bola sifatidagi tasviri — epilog bilan deyarli bir xil. Bu esa shuni anglatadiki, Klayd Grifitsning fojiasi takrorlanadigan hodisa bo‘lishi mumkin. Shu orqali uning taqdiri **universal**, ya’ni har qanday jamiyatda, har qanday inson boshidan kechirishi mumkin bo‘lgan fojiaga aylanadi.

Kam sonli yozuvchilargina insoniyatga Teodor Drayzer singari nozik sezuvchanlik bilan yondashadi. U har xil toifadagi insonlarni – kuchli va boylik orttiruvchi shaxslarni, tug‘ilganidan zaif va mag‘lubiyatga mahkum bo‘lganlarni, kirib kelib g‘alaba qozonuvchi zukko ayollarni, hurmatli va obro‘siz erkaklarni, xo‘jayinlar va qullarni, baxtiyorlarni va ma’nosiz kuchlar ta’sirida azob, noumidlik va rad etilish ichra yashashga mahkum etilgan qurbonlarni – hayrat bilan qarshi oladi yoki ularni achinish bilan qamrab oladi. U ularni tushunadi[3].

Drayzer hayoti davomida Amerika jamiyatida tenglik haqidagi da’volar bilan real hayotdagi qattiq ijtimoiy haqiqatlar o‘rtasidagi jiddiy tafovutni ko‘p bora kuzatdi va shu sababli kelajak borasida optimistik qarashlarni saqlab qola olmadi. U bu boradagi umidsizligini American Tragedy” Amerika fojeasi” asarida ifoda etdi. Drayzer jamiyatni qatlamlarga bo‘lingan, ya’ni boylar bilan kambag‘allar o‘rtasida keskin tafovutlar mavjud bo‘lgan tizim sifatida tasvirlaydi

“Amerika fojiasi”da fojia shaxsiy emas, balki xronotoplar to‘qnashuvi mahsuli sifatida ko‘rsatiladi. Klayd bir xronotopda (diniy) tug‘ilgan, ammo boshqa xronotop (kapitalistik) uni o‘ziga chorlaydi. Ikki xronotop orasidagi uzviy tafovut – ruhiy bo‘linish, axloqiy ikkilanish va ijtimoiy noto‘g‘riliklar orqali uning halokatini tayyorlaydi. Klaydning yo‘q bo‘lishi – bu “Amerika orzusi”ning yolg‘onligini ko‘rsatadi. Drayzer xronotop vositasida shuni aytmoqchi: har bir makon o‘z qadriyatlariga ega va bu qadriyatlar o‘z vaqtida moslashmaydigan shaxsni yutib yuboradi.

Adabiyotlar:

1. "An American Tragedy by Theodore Dreiser. © Boni & Liveright, 1925. © Hawthorne Classics, 2022."

2. John J. McAleer, Theodore Dreiser– An Introduction and Interpretation, 72.

3.Martin Prochazka, et al., *Lectures on American Literature* 7.

4. Sacvan Bercovitch, “The Myth of America”, Litteraria Pragensia No.25 (Prague: Department of English and American Studies and Centre for Comparative Literature, 2003) 1.

5.Stuart P. Sherman, “The Naturalism of Mr. Dreiser”, Critical Essays on Theodore Dreiser, ed. Donald Pizer (Boston: G. K. Hall and Co., 1

REFLEKSIV VIDEOTRENINGLAR ASOSIDA TALABALARNING KASBIY O'SISHINI OPTIMALLASHTIRISH METODIKASINING ORNI

Qarayev Abduvafo Fazliddinovich, katta o‘qituvchi,
Samarqand davlat chet tillar instituti
e-mail: qorayevabduvafo@gmail.com,

Annotasiya

Maqolada oliy ta’lim muassasasida pedagogik refleksiyani rivojlantirish va refleksiv videotreninglar asosida talabalarning kasbiy o‘sish samaradorligini oshirish hamda ta’lim jarayonini takomillashtirish haqida fikr yuritilgan. Kasbiy refleksiyani o‘rganishda mahalliy fikrlash va ijodkorlikning refleksiv psixologiyasida aks ettirish mexanizmlari, darajalari, shakllari va tipologiyasi to‘g‘risida umumiy qabul qilingan g‘oyalar bilan belgilanadigan tadqiqot yo‘nalishlarining xilma-xilligi va ko‘p qirraliligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Kasbiy refleksiya, pedagogik refleksiya, kasbiy o‘sishini takomillashtirish, aks ettirish mexanizmlari, darajalari, shakllari, modernizasiya, refleksiv, videotrening, kreativ pedagogika, ta’lim jarayonini takomillashtirish.*

Zamonaviy ta'limda talabalarning kasbiy rivojlanishini ta'minlash, ularda mustaqil fikrlash, o'z-o'zini baholash, refleksiya qilish kabi muhim kompetensiyalarni shakllantirish ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu ayniqsa boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun muhim bo'lib, ular kelajakda bolalar bilan ishlaydigan, pedagogik faoliyat yuritadigan mutaxassislar sifatida shakllanishadi. Shu boisdan, kasbiy o'sishni refleksiv treninglar asosida yo'lga qo'yish amaliy va nazariy jihatdan dolzarb masaladir.

Zamonaviy pedagogikaning innovatsion yutuqlaridan biri XX-XXI asrlarda refleksiyaning yaratilishi bo‘lib, uni o‘rganish hozirgi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning sababi o‘zgarishlarning murakkab davrida sodir bo‘layotgan voqeyalarga tahliliy va tanqidiy munosabatda bo‘lish, ularning shakllari va sabablarini anglash va tahlil etish hisoblanadi. V.D.Shadrikov ta’kidlaganidek: “O‘z xulq-atvorini o‘zlashtirishning eng muhim omili bu .refleksiyadir” [1, 1].

Ushbu tadqiqotlarning xilma-xilligi tadqiqotchiga konseptual tahlil uchun yagona substantiv asosni topish muammosi berilgan holda tarixiy va ilmiy tartib

tamoyili refleksiyaning yangi jihatlari uchun unchalik ahamiyatga ega emasligi bilan ajralib turadi. Bu yerda izlanayotgan ilmiy nazariyaning asosiy maqsadi tushunish, o‘z-o‘zini kuzatish, o‘z-o‘zini baholash, o‘z-o‘zini nazorat qilish emas, balki ilmiy nazariyaning rasmiy tamoyillari yoki refleksiyaning biror bir jihatiga bag‘ishlangan ishlar xronologiyasini tadqiq qilish hisoblanadi. Refleksiv psixologiya jadal rivojlanayotganligi hamda uning konseptual va uslubiy yondashuvlari hali shakllanmaganligi, refleksiv jarayonlarni tajribaviy va empirik tadqiq qilishning predmetlari o‘rtasidagi chegaralar noaniq bo‘lganligi sababli, ularning turli tomonlarini ba’zi bir apriorik mavhum ontologik asos orqali o‘rganish qandaydir mavhumlik sifatida ko‘rib chiqiladi. [1, 2].

Bu yerda fenomenologik realizm tamoyilini ko‘radigan bo‘lsak, refleksiyaning tahliliy talqinlari qandaydir mavhum ko‘rinishda tartibga solinadi, chunki uning namoyon bo‘lishi insonning ekzistensial mavjudligida haqiqiy psixologik jihatdan ustun turadi. Ta’kidlash joizki, refleksiya fenomenologiyasi obyektiv ta’sirga ega. Taklif qilinayotgan fenomenologik konkretlashtirish, refleksiyaning turli talqinlarining nazariy o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda, ularni mantiqiy asoslangan tematik ketma-ketlikda joylashtirish imkonini beradi.

So'nggi yillarda sun'iy intellekt, raqamli texnologiyalar va media vositalarining rivojlanishi natijasida ta'lim jarayonida videotrainiglar keng qo'llanilmoqda. Ayniqsa, refleksiya asosida tayyorlangan videotrainiglar talabalarning o'z kasbiy faoliyatini chuqur tahlil qilish, o'z ustida ishlash, xatolarni anglash, to'g'ri yondashuvni shakllantirish kabi jihatlarda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda [1, 3].

Refleksiya — bu o'z faoliyatini anglash, tahlil qilish, tanqidiy fikr bildirish va uni yaxshilashga yo'naltirilgan ongli jarayondir. Kasbiy o'sish esa mutaxassisning o'z kasbiga oid bilim va ko'nikmalarni uzluksiz takomillashtirib borishidir. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishidagi talaba uchun bu jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq: har bir amaliy dars, pedagogik kuzatuv yoki dars tahlili orqali talaba o'zini anglaydi, baholaydi va professional yondashuvni shakllantiradi. [1, 4].

Refleksiya orqali talaba o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, o'qituvchilik faoliyatiga oid strategik qarorlar qabul qilishda mustaqil fikrlaydi. Bu esa kasbiy o'sishni tizimli va samarali shakllantirish uchun zarur asosdir.

Videotrainiglar bu — video ko'rinishida beriladigan amaliy yoki nazariy mashg'ulotlar bo'lib, ularda vaziyatli holatlar, dars lavhalari, suhbatlar yoki interaktiv topshiriqlar bo'lishi mumkin. Bunday materiallar yordamida talabalar:

* vizual va eshitish orqali bilim oladilar;

* real yoki yaqin bo'lgan pedagogik vaziyatlarga guvoh bo'ladilar;

* o'z xatti-harakatlarini boshqa o'qituvchilar yoki talabalar bilan taqqoslaydilar;

* refleksiya savollari orqali o'z ustida ishlashga rag'batlanadilar.

Videotrainiinglar ayniqsa boshlang'ich ta'limga tayyorlanayotgan talabalar uchun dolzarbdir. Chunki ular maktab muhitiga yaqin holatlarni ko'radi, tahlil qiladi va kasbiy pozitsiyasini shakllantiradi.

Refleksiv videotraining yaratish va uni o'quv jarayoniga integratsiya qilish uchun quyidagi bosqichli metodika taklif etiladi:

1-bosqich: Maqsadni aniqlash.

Talabada qaysi ko'nikmani rivojlantirish kerak? Masalan, darsni rejalashtirish, bolalar bilan muloqot, o'zini tahlil qilish, vaziyatli muammolarni hal etish.

2-bosqich: Videotraining ssenariysini tuzish.

Ssenariyda quyidagilar ko'zda tutiladi:

* boshlang'ich vaziyat yoki sahna (darsdan lavha, muammoli vaziyat);

* kuzatuv savollari (nima bo'lyapti, bu to'g'rimi?);

* talabaning tahliliy javobi;

* yakuniy refleksiya.

3-bosqich: Video ishlab chiqish.

Rasmiy yoki sahnalashtirilgan tarzda real talaba yoki o'qituvchi ishtirokida video tayyorlanadi. Har bir epizodga mos ravishda matnli savollar, pauzalar, subtitrlar qo'shiladi [1, 8].

4-bosqich: Interaktiv topshiriqlarni ishlab chiqish.

Har bir video so'ngida yozma yoki og'zaki refleksiya topshiriqlari beriladi:

* “Siz bu vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?”

* “O'z faoliyatingizda bu holatga qanday yondashasiz?”

* “Men uchun darsning eng muhim jihati bu — …”

5-bosqich: Tahlil va baholash.

Talabalarning yozgan refleksiya matnlari, baholari, video sharhlari asosida ularning kasbiy o'sishi monitoring qilinadi.

Quyidagi videotraining turlari boshlang'ich ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar uchun samarali hisoblanadi:

Refleksiv videotrainiinglar asosida olib borilgan kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki:

* talabalar o'z ustida ishlashga ko'proq qiziqish bildirgan;

* refleksiya savollariga yozilgan javoblar orqali tahliliy fikrlash rivojlangan;

* o'zini baholashda aniqlik, ob'yektivlik ortgan;

* kasbiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish ko'nikmasi mustahkamlangan.

Bunda ayniqsa talabaning darsga tayyorgarligi, o'zini kamera oldida tahlil qilishi, og'zaki refleksiya topshiriqlari muhim rol o'ynagan.

6. Pedagogik xulosalar va takliflar

1. Refleksiv videotrainінglar talabalarning kasbiy rivojida kuchli ta'sirga ega vosita sifatida joriy etilishi kerak.

2. Har bir pedagogik fanning nazariy qismi bilan bir qatorda kasbiy refleksiya imkoniyatini beruvchi mashg'ulotlar majburiy bo'lishi kerak.

3. Oliy ta'lim muassasalarida har semestrda talabalar uchun "Refleksiya kuni" tashkil qilinib, o'z dars tahlillari bo'yicha taqdimotlar qilinishi mumkin.

4. Har bir videotraining yakunida talabaning rivojlanish dinamikasi, savol-javoblar, baholash mezonlari asosida monitoring yuritilishi lozim [1, 9].

Xulosa va takliflar, Refleksiv videotrainінglar — zamonaviy ta'limda talabaning kasbiy shakllanishini samarali optimallashtirish yo‘lidagi innovatsion yondashuvdir. Bu metodika boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishidagi talabalar uchun ayniqsa muhim bo‘lib, ularda kasbiy refleksiya, o‘zini anglash, dars tahlili, kommunikatsiya va pedagogik mulohaza yuritish ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Videotrainінglar orqali talaba real vaziyatlarga duch keladi, kuzatadi, baholaydi va o‘z yondashuvini shakllantiradi. Bu esa uning mustaqil, professional, mas'uliyatli va tahliliy fikrga ega bo‘lgan pedagog sifatida rivojlanishiga olib keladi.

Shu boisdan, refleksiv videotrainінglarni nafaqat alohida metodika sifatida, balki ta’lim tizimining uzviy qismi sifatida joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Бизяева А.А. Психология думающего учителя: педагогическая рефлексия. Псков, 2004.

2. Xalikov A. A., O’qituvchilar pedagogik mahoratini kasbiy rivojlantirishda refleksiyaning ahamiyati // “O‘zbekistonda ilm-fanning rivojlanish istiqbollari” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 2022 yil 30 noyabr. B. 363-368.

3. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. – T.: Fan, 2007. 59 b.

4. Qarayev A. F. Refleksiv videotrening asosida boshlang‘ich ta’lim yo’nalishi talabalarning kasbiy o‘sish samaradorligini oshirish. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2023, №10, 202- b.

5. Malikov, R., Abdirashidova, G., & Abdirashidov, A. (2020). Approximate solution some delay differential equations using combination of the Laplace transform and the variational iteration method. Int. Sci. J. Theor. Appl. Sci, 85(5), 406-411.

6. Raufovich, Malikov Ruslan. "GOOGLE DOCS VA SUN’IY INTELLEKTNING HAMKORLIKNI YARATISHDAGI O ‘RNI." Science and innovation 3.Special Issue 19 (2024): 373-375.

7. Qarayev, Abduvafo. "Oliy ta’limda “Matematika o‘qitish metodikasi” Fanidan refleksiv videotrening yaratish metodikasi." International conference on modern development of pedagogy and linguistics. Vol. 1. No. 8. 2024.

8. Fayziyev M. A., Qorayev A. F. Refleksiv videotrenglar asosida talabalarni bilimlarini rivojlantirish //" USA" INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE TOPICAL ISSUES OF SCIENCE. 2023. T. 8. №. 1.

9. Jabbarova H. PHILOSOPHICAL CONCEPTS OF MASCULINITY AND FEMININITY IN ANCIENT PHILOSOPHY //International Journal of Engineering Mathematics (Online). – 2024. – T. 6. – №. 1.

10. Qorayev A. THE METHODOLOGY OF CREATING A REFLECTIVE VIDEO TRAINING ON THE SCIENCE OF" MOTHER LANGUAGE TEACHING METHODOLOGY" IN HIGHER EDUCATION //Multidisciplinary Journal of Science and Technology. – 2024. – T. 4. – №. 9. – C. 106-111.

O‘ZBEKISTONDA IJTIMOIY-IQTISODIY SOHADA SUN’IY INTELLEKTDAN FOYDALANISHNING MEYORIY HUQUQIY ASOSLARI TAHLILI.

Fayziyev Nozim Asfandiyorovich
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi
e-mail: fayziyev@samdchti.uz

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy sohada sun’iy intellektdan foydalanishning meyoriy huquqiy asoslari tahlili haqida fikr yuritiladi. Shuningdek, mavzuning dolzarbligi va uning nazariy asoslari taqdim etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi axborot texnologiyalari fanini o‘qitishda sun’iy intellekt yutuqlaridan foydalanish vositalarini aniqlash va baholashdir. Sun’iy intellekt yutuqlaridan ta’lim jarayonida foydalanish vositalarining ahamiyati va kelajakdagi tadqiqotlar uchun yo‘naltirilgan tavsiyalar beriladi.

Kalit so‘zlar: *informatika, o‘qitish, sun’iy intellekt, superkompyuter, ta’lim texnologiyalari, o‘quv jarayoni, innovatsion yondashuvlar.*

Bizga ma’lumki, sun’iy intellekt - informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi.

Hozirda sun’iy intellekt turli amallarni bajarishga mo‘ljallangan algoritm hamda dasturiy tizimlardan iborat va u inson ongi bajarishi mumkin bo‘lgan bir qancha vazifalarning uddasidan chiqa oladi.

sun’iy intellektning yorqin namunalaridan yana biri – IBM Watson superkompyuteri bo‘lib, u o‘z bazasidan kelib chiqib muayyan tilda berilgan savollarga javob beradi. Shuningdek, ko‘pchilikning doimiy hamrohiga aylanib ulgurgan mobil yordamchi Siri, fotosuratlarni qayta ishlovchi Prisma kabi dasturlarni sun’iy intellektning yutuqlaridan biri sifatida qayd etish mumkin. Hozirga kelib sun’iy intellekt keng ko‘lamda ommalashib kundalik turmush tarzimizning deyarli barcha jabhalarini qamrab olmoqda. Masalan, Xitoydagi Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo‘q. Hisob-kitoblar bilan bog‘liq barcha jarayonlar sun’iy intellekt tomonidan insonning yuz qiyofasini aniqlashtirish orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yilning “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish” yili deb nomlanishi respublikamizda raqamli iqtisodiyotga o‘tish, axborot texnologiyalarni va sun’iy intellektni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotganidan dalolat berdi. Albatta, bu xalqimiz manfaati yo‘lidagi ijobiy inqilobiy burilishdir. Respublikada axborot texnologiyalaridan keng foydalanishni rag‘batlantirish orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, har bir sohaga innovatsiyalarni joriy etish, mavjud institutsionalhuquqiy, ma’muriy hamda boshqa mavjud to‘siqlarni bartaraf etish maqsadida 2017 - 2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi doirasida bir qator muhim qonunchilik hujjatlari ishlab chiqildi.

